2026-yil, 15-aprel 07(75)-son

ISSN 2021-9752

Til va adabiyot.uz

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

«Til va adabiyot – Языка и литературы – Language and literature» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) https://oak.uz/pages/4802

SOHIBQIRON AMIR TEMUR TAVALLUDINING 690 YILLIGI





DOLZARB MAVZU

Ismoiljon KARIMOV,
Qo‘qon davlat universiteti professori, p.f.n.,
Email: ismoiljonkarimov 1954@gmail.uz

O‘QUVCHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI

Annotatsiya: maqolada insonning ijodkorlik qobiliyati, maktab o‘quvchilarida kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish usullari, o‘quvchilarda kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishda evristik ta’lim metodlaridan foydalanishning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida ilmiy farazlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: *kreativlik, kreativ jarayon, evristik ta’lim, divergent fikrlash, ijodiy qobiliyat, kognitiv metodlar, empatiya metodi, giperbolizatsiya metodi, evristik kuzatish metodi.*

Аннотация: в статье изложены научные гипотезы о творческих способностях человека, методах формирования креативности у школьников, а также об образовательном и воспитательном значении использования эвристических методов обучения в развитии креативных способностей учащихся.

Ключевые слова: *креативность, творческий процесс, эвристическое обучение, дивергентное мышление, творческие способности, когнитивные методы, метод эмпатии, метод гиперболизации, метод эвристического наблюдения.*

Annotation: the article presents scientific hypotheses on human creative abilities, methods of developing creativity in school students, as well as the educational and pedagogical significance of using heuristic teaching methods in fostering students’ creative abilities.

Key words: *creativity, creative process, heuristic learning, divergent thinking, creative abilities, cognitive methods, empathy method, hyperbolization method, heuristic observation method.*

Hozirgi vaqtda “Yangi O‘zbekiston – yangicha qarash“ shiori ostida olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar mamlakatimizda o‘qimishli va ijodkor yoshlarni tarbiyalash ishlarini yanada takomillashtirishni taqazo etmoqda. Bunda mamlakatimizda ta’lim tizimini shaklan va mazmunan isloh qilish, ta’lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullari samaradorligini oshirish uning huquqiy bazasini takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash ishlarini amalga oshirish bilan birga ilg‘or xorijiy tajribalarni ham o‘rganib borish katta ahamiyatga egadir. Xususan keyingi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida o‘quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson Merriyman (2010), Ken Robinson (2007), Fisher, Frey (2008), Begetto, Kaufman (2013), Ali (2011), Treffinger (2008) va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar misolida ko‘rish mumkin. Xususan o‘quvchilarda kreativ yondashuv bo‘yicha ko‘nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir turli adabiyotlar chop etilmoqda, video lavhalar tayyorlanmoqda. Bunday imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanayotgan ko‘pchilik o‘qituvchilar o‘zlarida hamda o‘quvchi-talabalarda kreativlik sifatlarini samarali shakllantirish metodlarini yetarli darajada o‘zlashtirib olmoqdalar va amalda qo‘llashga harakat qilmoqdalar[1]. Natijada bu sohada olib borilayotgan amaliy harakatlar ta’lim oluvchilarda ma’lum yutuqlarga erishish, olg‘a intilishga bo‘lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltirmoqda, ularning o‘quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam bermoqda. Biroq, ayrim vaqtlarda ba’zi ta’lim oluvchilarning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini pasayish hollarini kuzatish mumkin. Buning sababi – darslarni avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi ta’lim oluvchilar uchun qiziq bo‘lmayotganligi, ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi ta’lim oluvchilar uchun hech qanday stimul – rag‘bat bermayotganligidir. Shuning uchun o‘quv mashg‘ulotlarini avvaldan rejalashtirishdan voz kechish, ta’lim oluvchilarda tanqidiy, mustaqil, ijodiy – kreativ tafakkurni shakllan-tirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirishga, ularni yutuqlarga erishishga

rag‘batlantirish ta’lim jarayonini takomillashishiga, sifatini oshirishga asosiy omil bo‘ladi, deb aytish mumkin.

Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlaridan hech qaysi sohada kam kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz tomonidan barcha ishlar amalga oshirilmoqda, barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Darhaqiqat, hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta’lim muassasalarida o‘quvchi-yoshlarning yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o‘zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, jahon ta’lim standartlariga javob beradigan o‘quv xonalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy laboratoriya jihozlari bilan ta’minlangan ta’lim muassasalarida ta’lim olishmoqda. Soha mutaxassislarining navbatdagi vazifasi yaratilgan keng imkoniyatlardan unumli foydalanib, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amaliyotga qo‘llash orqali o‘quvchilarda katta hajmdagi ma’lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash, mustaqil fikrlash, ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali mutaxassis bo‘lib etishishini ta’minlovchi samarali ta’lim jarayonini tashkil etishdan iborat[2]. Respublikamizda uzluksiz ta’lim tizimi yaratilgan bo‘lib, ta’lim jarayoni o‘quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o‘zlashtirishi, malaka va ko‘nikmalar, ilmiy tasavvurlarning hosil bo‘lishida muhim bosqich hisoblanadi. O‘quvchilarda bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O‘quvchining berilgan topshiriqni bajarish jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo‘lishi uchun aniq maqsadga yo‘naltirilgan, rejalashtirilgan, me’yor va mezonlarga ega bo‘lgan, o‘z-o‘zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Bu esa o‘quvchida atrof-olam obyektlari va ular haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish; ta’lim samaradorligini vujudga keltirish, faoliyatning avvalgi turlariga tayanishni taqozo etadi.

O‘quvchilarda kreativlik faoliyatini shakllantirish texnologiyasini ishlab chiqish muammosi ko‘p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo‘lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Kreativlik – ijodkorlik faoliyatning tarkibiy qismi sifatida turli holatlarda paydo bo‘ladi. Qiziqish, ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan tortib, to namoyon bo‘lishigacha bo‘lgan jarayonni o‘z ichiga oladi. Shaxsning ijodiy faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi, ilgari maqsad qilib qo‘yil-magan bunyodkorlik intilishini bildiradi[3]. O‘quvchilardagi ijodiy faoliyatning har qanday kurtaklari ta’lim-tarbiya ishlaridan tashqarida kamol topa olmaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, o‘quvchilarda ijodkorlik faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi bo‘lib hisoblanadi. Bu davlatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan biri – har tomonlama barkamol insonni voyaga yetkazish g‘oyasiga mos keladi. Texnologik ta’limda o‘quvchilarda ijodiy faollikni shakllantirish ta’lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismi sanaladi. Texnologik ta’limning faol va yetakchi subyektlari bo‘lgan o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, texnologik ta’limning o‘ziga xos jihatlari o‘qituvchidan ijodiy yondashuvni talab qiladi. Maktab va o‘qituvchining vazifasi o‘quvchilarga ta’lim berishgina emas, balki ularning qobiliyatlarini o‘stirishdan ham iborat. Qobiliyatlarni o‘stirishda o‘quv ishining ahamiyati nihoyatda kattadir. Texnologik ta’lim o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarida qanday qobiliyatlar borligi, ularning o‘qishga bo‘lgan intilishlari, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajalari, eslab qolish va o‘z bilimlarini o‘quv topshiriqlarni bajarishda qo‘llay olish, masalalarni yechishda puxta fikr yuritish, yozma va og‘zaki nutqni qanchalik egallaganliklariga qarab bilib olishi mumkin.

Texnologiya fani o‘qituvchisi ta’lim oluvchilar orasida ijodiy qobiliyati yuqori bo‘lgan o‘quvchini ajrata olishi; ularning boy tasavvuri; ichki sezgining rivojlanganligi; falsafiy fikrlashi; fikr yuritish va harakatni tashkil etishdagi tezkorligi; tafakkur tezligiga egaligi; turli vaziyatlarni birdek qabul qilishi va ularga javob berishi; yuksak badiiy qadriyatlar, yangilik yaratish layoqatiga egaligi; o‘ziga xos original g‘oyalarni ilgari sura olish kabi sifatlar

borligini aniqlashi va bu sifatlarni o‘quv jarayonida rivojlantirishga e’tibor qaratishi muhimdir.

Kreativlik quyidagi ichki komponentlardan tashkil topadi: o‘quv topshiriqlarini bajarishga tayyorlik; mustaqil faoliyatga intilish; topshiriqlarni ongli bajarish; o‘qishning tizimliligi; o‘zining shaxsiy imkoniyatlarini oshirishga harakat qilish; har qanday sharoitda muammoning original yechimlarini topa olish; bilim, ko‘nikma va malakalarini turli vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llay olish va boshqalar.

Biz pedagogik tajribalarimizda texnologik ta’lim o‘qituvchilari uchun o‘quvchilarda kreativ faoliyatni rivojlantirish yuzasidan o‘quv vaziyatlarini yaratish va o‘tkazish texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha yo‘l-yo‘riqlarni ishlab chiqishga harakat qildik. Ularni quyida keltirib o‘tamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta’limiy obyektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an’ana, buyum va b.) aniqlash. Bunda:

– obyekt va o‘quvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni aniqlash;

– o‘quvchilarga ularning o‘rganilayotgan obyekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo‘yicha o‘ylashga yo‘naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o‘quvchilarga qo‘yiladigan ta’limiy natijalar ta’minlanadi.

2. O‘quvchilarga yechimi noma’lum bo‘lgan muammo yoki topshiriq beriladi.

Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ko‘tarinkilik hamda o‘quvchilar topshiriqni bajarish orqali o‘zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo‘ladi.

3. Topshiriqning ta’riflanishi muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilishning natijasi bo‘lishi mumkin. O‘quvchilar tomonidan ta’riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki yangilik bo‘lsagina maqsadga erishilgan bo‘ladi.

4. Ta’limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, ta’riflar, boshqa

mutaxassislarning fikrlari, darsliklaridagi ma’lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari

bilan asoslay olish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnologik ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi. Kreativ faoliyat ta’limning uch turi orqali, ya’ni o‘quvchining ijodiy faoliyati, bilishga doir faoliyati, tashkiliy faoliyat kabi sifatlarning shakllanishi asosida rivojlanadi va bular ta’limning noan’anaviy shakl va metodlari vositasida samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ishmuxammedov R.J. va b. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T., 2010.
2. Karimov I. Texnologiya ta’limi metodikasi: O‘quv qo‘llanma. – T., 2021. 188-b
3. Karimov I. Uyg‘unlashgan texnologiyalar vositasida o‘quvchilarda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish omillarining metodik asoslari (umumta’lim maktablarining Texnologiya fani misolida): Monografiya. – T., 2025. 144-b.
4. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: Фан, 2006.
5. Shodmonova Sh.S., Hikmatova Sh. Bo‘lajak o‘qituvchilarni innovatsion faoliyatga tayyorlash. – T., 2010.



TILSHUNOSLIK

Gulnora OCHILOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili nazariy aspektlari
kafedrasi assistent o‘qituvchisi, PhD

ATAMALARINING LINGVISTIK, ETNOLOGIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada qarindoshlik otlari atamalari tizimining lingvistik, etnologik va semantik xususiyatlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda qarindoshlik terminologiyasining til tizimidagi o‘rni, uning referent va vokativ shakllari, sinonimik munosabatlari hamda ko‘p ma’nolilik hodisalari yoritiladi.Shuningdek, qarindoshlik otlari atamalari tizimi bilan qarindoshlik munosabatlari tizimi o‘rtasidagi farqlar va ularning ijtimoiy hamda madaniy omillar bilan bog‘liqligi ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot jarayonida lingvistika va etnologiya fanlari kesishgan nuqtalarda qarindoshlik terminologiyasining shakllanishi hamda rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Natijalar qarindoshlik atamalari tizimi tilning leksik-semantik tuzilmasi bilan bir qatorda jamiyatning tarixiy, madaniy va ijtimoiy tajribasini ham aks ettiruvchi murakkab kommunikativ tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *qarindoshlik terminologiyasi, qarindoshlik otlari atamalari tizimi, lingvistik tahlil, etnologik yondashuv, semantik tuzilma, vokativ atamalar, referent terminlar, qiyosiy tilshunoslik.*

Annotation:this article explores the linguistic, ethnological, and semantic characteristics of the system of kinship terms through an interdisciplinary approach. The study examines the role of kinship terminology in the language system, focusing on the distinction between referential and vocative terms, synonymic relations, and the phenomenon of polysemy within kinship vocabulary. Particular attention is given to the relationship between the system of kinship terms and the broader system of kinship relations, as well as their connection with social and cultural factors. The research analyzes the formation and development of kinship terminology at the intersection of linguistics and ethnology. The findings demonstrate that the system of kinship terms represents not only a lexical-semantic subsystem of language but also a complex communicative structure reflecting historical, cultural, and social experiences of a particular community.

Key words: *kinship terminology, system of kinship terms, linguistic analysis, ethnological approach, semantic structure, vocative terms, referential terms, comparative linguistics.*

Аннотация:в данной статье рассматриваются лингвистические, этнологические и семантические особенности системы терминов родства на основе междисциплинарного подхода. В исследовании анализируется место терминологии родства в языковой системе, включая различие между референтными и вокативными терминами, их синонимические связи и явление полисемии. Особое внимание уделяется соотношению системы терминов родства и системы родственных отношений, а также их связи с социальными и культурными факторами. В работе рассматриваются процессы формирования и развития терминологии родства на стыке лингвистики и этнологии. Результаты исследования показывают, что система терминов родства представляет собой не только лексико-семантическую подсистему языка, но и сложную коммуникативную структуру, отражающую исторический, культурный и социальный опыт общества.

Ключевые слова: *терминология родства, система терминов родства, лингвистический анализ, этнологический подход, семантическая структура, вокативные термины, референтные термины, сравнительная лингвистика.*

Kirish. Muayyan tillar uchun qarindoshlik otlari atamalari tizimini to‘liq idrok etish va taqdim qilish zarurati hamda alohida olingan qarindoshlik otlari atamalari tarjimasining mutanosib muqobilligiga erishish muammosi Muqaddas bitiklarni ibroniy, oromiy va yunon tillaridan boshqa tillarga tarjima qilishda yuzaga kelgan, keyinchalik bu muammo so‘nggi ikki ming yillikda tarjimonlar tomonidan muvaffaqiyatli hal qilinilishiga erishilgan. Har qanday tilning qarindoshlik otlari atamalari tizimi ko‘p o‘lchovli tizim bo‘lib, turli xil xususiy qarindoshlik otlari atamalari quyi tizimlarini o‘z ichiga oladi, ularning mavjudligi haqiqati ma’lum bir tilning qarindoshlik otlari atamalari tizimi nima ekanligini muhokama qilishda har doim ham hisobga olinmaydi. Qaysidir tilning qarindoshlik otlari atamalari tizimi tadqiqot obyekti sifatida tanlab olinganda, odatda “qarindoshlik otlari atamalari tizimi” deganda referent qarindoshlik otlari atamalari nazarda tutiladi. Har qanday yevropa tilida (shu jumladan, mazkur tadqiqotda o‘rganilayotgan ingliz tilida ham) bunday material, odatda, izohli lug‘atlardan olinadi. Biroq, Osiyo ekzotik tillari, Afrika, Amerika ingliz tili yoki Avstraliya ingliz tiliga tegishli bo‘lgan material esa eng nufuzli yoki mavjud bo‘lgan ikki tilli lug‘atlardan olinadi. Ammo shuni ham alohida qayd etish lozimki qarindoshlik otlari atamalari tizimi faqatgina referent (denotat) atamalardan emas, balki ular bilan har doim ham muvofiq kelavermaydigan vokativ (murojaat, undov) atamalaridan ham iborat bo‘ladi [2].

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Qarindoshlik otlari atamalari tavsifi, ayniqsa, agar u sof lingvistik emas, balki etnologik yo‘naltirilgan bo‘lsa, odatda qarindoshlik otlari atamalari sinonimiyasi hodisasini nazardan chetda qoldiradi. Misol tariqasida XII asrdan buyon iste’molda bo‘lgan qadimgi ingliz tiliga mansub “kinship” atamasi bilan XVII asrdan

sinonimik munosabatga kirishgan o‘rta fransuz tiliga mansub “relative” atamasi va zamonaviy fransuz tilida ham iste’molda bo‘lgan “relatif” atamasini keltirish mumkin [Burikin 2001, 73]. Qarindoshlik otlari atamalari sinonimiyasining yana bir misoli sifatida qarindoshlik otlari atamalarining alohida leksemalar va oilaviy munosabatlarning tavsiflovchi belgilari sifatida parallel ishlatilishini keltirish mumkin [Livi-Stross 1983, 39]. Zullisonayn shaxslarning lingvistik bilimlariga asoslanib tadqiqot o‘tkazgan etnograflardan ularning qarindoshlik otlari atamalari tarjimasi borasidagi ma’lumotlariga asoslanib ko‘p hollarda “buvining akasi”, “onaning akasining o‘g‘li”, “xotinning singlisining eri” kabi qarindoshlik otlari atamalari tarjimasi borasida ayni tushunchalarning so‘zma-so‘z tarjimasini olish orqali tilning o‘zi qo‘ygan tuzoqqa tushmaganlari kam-kam topilsa kerak. Bir tomondan, bunday jumlalar tushunarli, ammo boshqa tomondan, shu tarzda tarjima qilingan qarindoshlik otlari atamalari tizimi bo‘yicha to‘ldirilgan so‘rovnoma aslida ma’lum bir tilning haqiqiy qarindoshlik otlari atamalari tizimi haqida hech qanday ma’lumot bera olmaydi. Barcha qayd etilgan til hodisalari – vokativ (murojaat) qarindoshlik otlari atamalari o‘rnini oddiy ravishda bosuvchi birliklar, referent (denotativ) qarindoshlik otlari atamalarining sinonimiyasi, ekstralingvistik tasnifga to‘g‘ri kelmaydigan ko‘p ma’nolilik – etnik jihatdan xos va etnologik ahamiyatga ega bo‘lgan kommunikativ elementlar bo‘lib, aynan mana shu resurs qarindoshlik otlari atamalari tizimidagi tarixiy o‘zgarishlarni belgilab beradi.

Muhokama va natijalar. Fanlararo tadqiqot obyekti bo‘lmish, qarindoshlik munosabatlari tizimlari ma’lum mazmunli tushunchalarni saqlab qolish qobiliyatiga ega va ko‘pincha tegishli fanlarda uzoq vaqtdan beri eskirgan til, jamiyat yoki madaniyat haqidagi g‘oyalarni aks ettiradi. Etnomadaniy voqelikni ifodalashning lingvistik xususiyatlari va ushbu voqelikka xos belgilar o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjudligi o‘ta shartli xarakterda bo‘lib, deyarli o‘z isbotini topmagan. Funksional uslublar tizimi va tilning mintaqaviy variantlari bo‘lmish shevalar va dialektlar majmuasi o‘zi ichiga har bir sheva va dialektlarga xos xususiy qarindoshlik otlari atamalari tagtizimlarini o‘z ichiga olishi mumkin, ularning yagona qarindoshlik otlari atamalari tizimi miqyosiga birlashtirilishi esa lingvistik hamda etnologik nuqtayi nazardan muammoli bo‘lib ko‘rinadi. Etnik guruh yoki uning bir qismining (bunda ushbu qism hududiy guruh ham, ijtimoiy qatlam ham bo‘lishi mumkin) ikki tildan foydalanuvchi ekani qarindoshlik otlari atamalari tizimida ma’lum o‘zgarishlarga olib keladi, biroq bunday holat bir etnik guruh ichida ikkita qarindoshlik otlari atamalari tizimi mavjudligini yoki o‘zaro muloqot va munosabatda bo‘lgan etnik guruhlarning qarindoshlik otlari atamalari tizimlari asosida yuzaga kelgan qandaydir uchinchi qarindoshlik otlari atamalari tizimining shakllanganligini tasdiqlash uchun asos bo‘la olmaydi. Qarindoshlik otlari atamalari tizimiga ta’sir qiluvchi til o‘zgarishlarining minimal davri taxminan 30 yilni tashkil etadi, qarindoshlik otlari atamalari tizimini sezilarli o‘zgartira oluvchi yangilanishlar davrini esa aniq belgilash juda mushkul bo‘lib, har qanday holatda ham etnologik nuqtayi nazardan olingan davriy oraliq lingvistik nuqtayi nazardan olingan vaqt bilan mutanosib bo‘la olmaydi. Etnografik an’anada qarindoshlik munosabatlari tushunchalari hodisaviylik nuqtayi nazardan emas, balki gnoseologik nuqtayi nazardan qabul qilinadi. Gnoseologik nuqtayi nazardan, qarindoshlik ikki tizimning ishlashi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

K. Levi-Straus “qarindoshlik otlari atamalari tizimi” va “qarindoshlik munosabatlar tizimi” o‘rtasida farq mavjud ekanini qayd qiladi [Girenko 1974, 188]. N.M.Girenko ham ikkita sath: “qarindoshlik atamalar tizimi” va “ijtimoiy toifalar tizimi” mavjud ekani haqida fikr yuritgan [Djibel 1995, 163]. Bu qarashlarning shakllanishida “mazmun plani” hamda “ifoda plani” dixatomiyasi asosiga qurilgan tilshunoslik an’anasi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Qarindoshlik munosabatlari masalasidagi shakl va mazmun o‘rtasidagi farq u yoki bu tarzda barcha tadqiqotlarda kuzatilgan [Girenko 1999, 197].

Ilm-fan nazariyotida bu ifoda va mazmun planini birlashtiruvchi konsepsiya amalda yo‘q. Bu holda “qarindoshlik munosabatlari” biogenetika, psixoanaliz, tilshunoslik va etnografiya fanlarining fundamental o‘ziga xosligini belgilab beruvchi keng miqyosdagi shunday vazifani bajarishini hisobga olib aytish mumkinki uning evristik jihatdan ahamiyati yuqori emas. Shu bilan birga, qarindoshlik munosabatlari hodisasiga etnografik va lingvistik nuqtayi nazardan yondashuvlar o‘rtasida alohida bog‘liqlik mavjud bo‘lib, bu holat psixoanalitika va biogenetikadan farqli o‘laroq, ushbu obyektni yagona etnografik-lingvistik tushuncha o‘laroq tadqiq qilish imkonini beradi.

“Qarindoshlik munosabatlari”, “qarindoshlik munosabatlari tizimi” va “qarindoshlik otlari atamalari tizimi” tushunchalari o‘rtasidagi bog‘liqlik borasida fikr yuritganda, quyidagilarni ta’kidlash zarur: qarindoshlik munosabatlari deganda genofaktlar majmuasi, ya’ni har bir aniq va individual qarindoshlik munosabati, har bir alohida shaxs va jamoaning barcha a’zolari o‘rtasidagi munosabatlar tushuniladi; qarindoshlik munosabatlari tizimi esa ushbu majmuaning jamoaning ijtimoiy tuzilmasi bilan qanday bog‘lanishini ifodalaydi; qarindoshlik otlari atamalari tizimi

esa qarindoshlik otlari atamalari tizimining kommunikativ jihatdan muhim tomonlarini aks ettiruvchi leksik-semantik guruhdan iboratdir.

Qarindoshlik otlari atamalari tizimini qarindoshlik otlari atamalaridan farqlash zarur, chunki qarindoshlik otlari atamalari har bir tilga xos bo‘lgan dastlabki leksik materialni tashkil etadi, u tadqiq uchun tanlab olingan tilga yoki etalon vazifasini bajaruvchi sun’iy tilga tarjima qilinadi va shu tarzda qayd etiladi. Qarindoshlik otlari atamalaridan farqli o‘laroq, qarindoshlik otlari atamalari tizimi faqat tipologiyaga bog‘liq bo‘lgan tashkiliy tamoyillar to‘plamini o‘z ichiga oladi, ya’ni: ularni bir qarindoshlik otlari atamalari tizimining tuzilish tamoyillarini boshqa bir qarindoshlik otlari atamalari tizimining tuzilish tamoyili bilan yoki boshqa qarindoshlik otlari atamalari tizimining ma’lum davriy oraliqdagi xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlarni muqoyasa qiladi. Ayni ma’noda N.B.Girenkoning mulohazalarini juda o‘rinli deb topish mumkin bo‘ladi, olim: “Har bir madaniyat vakili xoh u papuas bo‘lsin, xoh u fransuz

bo‘lsin o‘z ona tilining “qarindoshlik otlari atamalari tizimi” borasida hech qanday tasavvurga ega bo‘lolmaydi, uning uchun aniq belgilangan shaxslar bilan munosabat qilish uchun ishlatiladigan aniq atamalar yig‘indisidan iborat bo‘lgan qarindoshlik otlari atamalari hamda ularning ishlatilish bilan bog‘liq muayyan shart va qoidalar mavjud xolos” [Burikin 2001, 63]. Shunga ko‘ra, ko‘pincha ma’lum etnik guruhning qarindoshlik munosabatlari tizimini ma’lum bir etnik elat tilining qarindoshlik tizimi materiallaridan foydalangan holda o‘rganadigan etnolog yoki tilshunos jamiyat haqidagi ma’lumotlarning emas, balki shu xalq tili haqidagi ma’lumotlarning tahlilini amalga oshirgan bo‘ladi. Shubhasiz, qarindoshlik tizimini sinxron holatdagi ijtimoiy hodisa sifatida qat’iy tavsiflash terminologiyaga asoslanmasligi kerak. Qarindoshlik otlari atamalarini o‘rganishdagi diaxroniya bir emas, balki ikkita jihatga: retrospektiv, qayta qurishga yo‘naltirilgan va istiqbolli yoki chinakam tarixiy, antik davrdan to hozirgi kungacha bo‘lgan qarindoshlik otlari atamalari taqdirini tavsiflovchi jihatlarga ega bo‘ladi. Bordiyu agar qarindoshlik otlari atamalari tizimini lingvistik rekonstruksiya shaklida retrospektiv o‘rganish ko‘pincha qarindoshlik munosabatlari tizimini madaniy va tarixiy qayta qurishga qaratilgan bo‘lsa qarindoshlik otlari atamalari tizimini retrospektiv o‘rganish – ya’ni bir rekonstruksiyadan boshqa bir rekonstruksiyaga asos bo‘lgan aniq tillarga qaytish – deyarli hech qachon kuzatilmayotgan o‘zgarishlarni qarindoshlik munosabatlari tizimi ichidagi o‘zgarishlar sifatida talqin qilish imkonini bermaydi [Butinov 1990, 65-75].

Ota-onalikning biologik va ijtimoiy jihatlari qanday? Bu savolga javob berish uchun qarindoshlikni ikki qismga ajratamiz: 1) qarindoshlikning o‘zi; 2) ota-onalar o‘rtasida mavjud huquq va majburiyatlar. Qarindoshlikning o‘zi bola tug‘ilishidagi biologik jarayonning natijasi bo‘lib, bir qarashda biologik fakt bo‘lsa, qarindoshlik bilan bog‘liq huquq va majburiyatlar ijtimoiy faktdir [Djibel 2001,90]. Biologik va ijtimoiy munosabatlar masalasi doimo qarindoshlik hodisasini etnosotsiologik va sotsiobiologik talqin qilishning markazida bo‘lib kelgan va biz ikkita epistemologik qutbni ajratamiz. 1960-yillarning oxirigacha antropologiyada hukmronlik qilgan pozitivistik qutb, qarindoshlik butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan, shaxsning tug‘ilishi va turmush qurishi orqali namoyon bo‘ladigan, nasl berish instinktini aks ettiruvchi va tasvirlangan obyektiv biologik haqiqatga asoslangan pozitsiyani universal genealogik matritsa orqali ilgari suradi. Ijtimoiy munosabatlarning barcha xilma-xilligi va qarindoshlik haqidagi g‘oyalari pozitivistlarga har safar “faktlar”ga zid bo‘lganida ikkinchi darajali, noto‘g‘ri va illyuziya bo‘lib ko‘rinadi. Bu faktlarni bilish jamiyatning yetarli darajada yuqori rivojlanish darajasiga erishishi bilan birga keladi [Popov 1982, 83].

Xulosa. Mazkur tadqiqot qarindoshlik otlari atamalari tizimining lingvistik, etnologik va semantik jihatlarini kompleks tarzda tahlil qilish imkonini berdi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, qarindoshlik terminologiyasi nafaqat tilning leksik-semantik tizimiga, balki jamiyatning ijtimoiy va madaniy tuzilishiga ham bevosita bog‘liqdir. Referent va vokativ qarindoshlik atamalarining o‘zaro munosabati hamda sinonimik va ko‘p ma’nolilik hodisalari ushbu tizimning murakkabligini namoyon etadi. Qarindoshlik atamalari tizimi til, madaniyat va ijtimoiy munosabatlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni aks ettiruvchi muhim kommunikativ mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Natijada qarindoshlik terminologiyasini lingvistik va etnologik yondashuvlar asosida o‘rganish uning mazmuniy va funksional xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Girenko N. M. Lateralness and lineality as differentiating features of the social organism of kinship // V. A. Popov (Ed.), Algebra of Kinship: Kinship, Kinship Systems, Systems of Kinship Terms. - St. Petersburg.
2. https://www.etymonline.com/word/relative (murojaat sanasi 11.01.2025)
3. Бурыкин А.А. Какая реальность наблюдается исследователями при описании систем терминов родства // Алгебра Родства. – СПб.: МАЭ РАН, 2001. – Вып. 5. – С. 73.
4. Бурыкин А.А. Семантическая структура эвенских терминов родства и свойства // Алгебра Родства. –СПб.: МАЭ РАН, 1998. – Вып. 2. – С. 72
5. Бутинов Н.А. К вопросу о концепции родства // Советская Этнография. – М.: Наука, 1990. – № 3. – С. 65-75.
6. Гиренко Н.М. Система терминов родства и система социальных категорий // Советская Этнография. – М.: Наука, 1974. – №6. – С. 188.
7. Дзибель Г.В. Биологическое и социальное в феномене родства. Родство как система и текст // Алгебра Родства. – СПб.: МАЭ РАН, 2001. – Вып. 6. – С. 90.
8. Дзибель Г.В. О системном подходе к феномену родства // Алгебра Родства. – СПб.: МАЭ РАН, 1995. – Вып. 7. – С.128-136
9. Караулов Ю.Н. Общая и русская идеография. – М.: Наука, 1976. – С. 46.
10. Леви-Стросс К. Структурная антропология. – М.: Наука, 1983. – С. 39.
11. Окладникова Е.А., Попов В.А. Вокативные термины родства в функции половозрастных апеллятивов в современном русском обществе // Алгебра родства. – СПб.: МАЭ РАН, 1998. – Вып. 2. – С. 186-194.
12. Швейцер А. Некоторые аспекты проблемы «Язык и Культура» в освещении зарубежных лингвистов и социологов // Национальный язык и национальная культура. – М.: Наука, 1978. – С.148.
13. Попов В.А. Ашантийцы в XIX в. – М.: Наука, 1982. – С. 83.

Barchinoy YUNUSOVA,
Namangan viloyati, Namangan shahar
Namangan davlat universiteti doktoranti (DSc)
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsenti
barchinoyyunusova21@gmail.com

“ALPOMISH” DOSTONIDA O‘XSHATISHLARNING AKSIOLOGIK TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: maqolada “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlarning aksiologik transformatsiyasi, ya’ni baholovchi-semantik o‘zgarishi tahlil qilinadi. Tadqiqot o‘xshatishlarning baholovchi-semantik o‘zgarishini aniqlashga qaratilgan. Tahlil natijasida ularning kontekst, so‘zlovchi bahosi va syujet vaziyati ta’sirida transformatsiyalanuvchi lingvopoetik hodisa ekani asoslandi.

Kalit so‘zlar: *“Alpomish” dostoni, o‘xshatish, aksiologik transformatsiya, baholovchi semantika, lingvopoetika, an’anaviy o‘xshatish, individual o‘xshatish, kontekst, etalon, epik diskurs.*

Аннотация: в статье анализируется аксиологическая трансформация сравнений в эпосе “Алпомиш”. Исследование направлено на выявление оценочно-семантических изменений сравнений. В результате анализа обосновано, что они представляют собой лингвопоэтическое явление, трансформирующееся под влиянием контекста, оценки говорящего и сюжетной ситуации.

Ключевые слова: *эпос “Алпомиш”, сравнение, аксиологическая трансформация, оценочная семантика, лингвопоэтика, традиционное сравнение, индивидуальное сравнение, контекст, эталон, эпический дискурс.*

Annotation: this article analyzes the axiological transformation of similes in the epic “Alpomish”. The study aims to identify the evaluative-semantic changes of similes. The analysis substantiates that they constitute a linguopoetic phenomenon transformed under the influence of context, the speaker’s evaluation, and the plot situation.

Key words: *“Alpomish” epic, simile, axiological transformation, evaluative semantics, linguopoetics, traditional simile, individual simile, context, simile standard, epic discourse*.

Kirish. “Alpomish” dostoni o‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng yirik epik yodgorliklaridan biri bo‘lib, unda xalqning tarixiy xotirasi, estetik ideallari, milliy qadriyatlari va badiiy tafakkuri mujassamlangan. Doston tilining badiiy qudrati unda qo‘llangan tasviriy vositalar tizimida, ayniqsa o‘xshatishlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘xshatishlar epik matnda qahramonlarning jismoniy qudrati, ruhiy holati, tashqi qiyofasi va voqea-hodisalarning ko‘lamini obrazli ifodalash bilan birga, xalqning baholash mezonlarini ham o‘zida aks ettiradi. Shu jihatdan ular faqat tasviriy vosita emas, balki muayyan aksiologik mazmun tashuvchi lingvopoetik birlik sifatida ham alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Badiiy matnda o‘xshatish etalonlari odatda, an’anaviy ijobiy yoki salbiy semantik maydonga mansub bo‘ladi. Biroq epik kontekstda bu baholovchi yo‘nalish har doim ham o‘zgarmas bo‘lib qolmaydi. Bir xil etalon turli nutq vaziyatlarida, turli personajlarga nisbatan qo‘llanishi natijasida yangicha aksiologik yuk olishi mumkin. Shu bois “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlarni aksiologik transformatsiya nuqtayi nazaridan o‘rganish doston poetikasining ichki semantik mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlarning aksiologik transformatsiyasini aniqlash hamda ularning lingvopoetik tabiatini yoritishdan iborat. Tadqiqot vazifalari sifatida o‘xshatishlarning baholovchi-semantik xususiyatlarini tahlil qilish, an’anaviy va individual etalonlarning kontekstual o‘zgarishini ko‘rsatish hamda aksiologik transformatsiyaning epik diskursdagi funksiyasini aniqlash belgilandi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlarning baholovchi yo‘nalishi maxsus lingvopoetik muammo sifatida tahlil etilganida namoyon bo‘ladi.

O‘zbek tilshunosligida o‘xshatish hodisasi semantik, stilistik va lingvopoetik jihatdan atroflicha o‘rganilgan. M.Mukarramov o‘xshatishning tuzilishi, semantik tabiati hamda grammatik ifodalanish vositalarini yoritib, uning badiiy nutqdagi baholovchi imkoniyatiga e’tibor qaratadi. [1:88] N.Mahmudov o‘xshatishlarni obrazli tafakkur mahsuli sifatida talqin qilib, ularning milliy idrok, baholash mezonlari va milliy obraz tizimi bilan uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi [2:19-24]. N.Mahmudov va D.Xudoyberganova tuzgan “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” o‘xshatish etalonlarining semantik qimmatini aniqlashda muhim amaliy manba bo‘lib xizmat qiladi. [3:320]. D.Xudoyberganova o‘xshatish konstruksiyalarining semantik va stilistik tabiatini tahlil qilib, ularni baholovchi va ma’no yaratuvchi birlik sifatida talqin etish uchun metodologik asos yaratadi. [4:15] Shuningdek, uning antroposentrik yondashuvga doir qarashlari matndagi baholovchi munosabatning so‘zlovchi pozitsiyasi va

kontekst bilan bog‘liq holda shakllanishini tushuntirishda muhim nazariy tayanch vazifasini bajaradi. [5:122].

Xalq dostonlari tilidagi o‘xshatishlarning lingvopoetik imkoniyatlari G.Jumanazarova tomonidan yoritilgan bo‘lib, unda o‘xshatishlarning obraz yaratish, estetik ta’sirni kuchaytirish va xalqona badiiy tafakkurni ifodalashdagi o‘rni ko‘rsatiladi. [6:22]. “Alpomish” dostoni doirasida S.Yo‘ldosheva o‘xshatishlarning g‘oyaviy-estetik funksiyasini [7:47-52], D.Ashurov esa ularning lingvokulturologik xususiyatlarini tahlil qiladi. [8:55].

Mazkur tadqiqotlar o‘xshatishlarning nazariy, lingvopoetik va lingvokulturologik tomonlarini yoritgan bo‘lsa-da, ularning aynan baholovchi-semantik o‘zgarish masalasi alohida tadqiqot predmeti sifatida maxsus va tizimli ravishda yetarlicha yoritilmagan. Shu jihatdan mazkur maqola “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlarning aksiologik transformatsiyasini alohida lingvopoetik muammo sifatida yoritishga qaratiladi.

Tadqiqotda tavsifiy, semantik-stilistik, lingvopoetik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Asosiy e’tibor o‘xshatishlarning baholovchi yo‘nalishiga qaratildi. Shu sababli bir xil etalonning turli nutqiy vaziyatlarda turlicha aksiologik yuk olishi, uning qaysi personajga nisbatan qo‘llangani, nutq subyekti pozitsiyasi va syujet vaziyatidagi o‘rni o‘zaro bog‘liq holda talqin qilindi. Mazkur yondashuv o‘xshatishning faqat lug‘aviy ma’nosini emas, balki kontekstda yuzaga keladigan baholovchi-semantik siljishni aniqlashga xizmat qildi.

Asosiy qism. “Alpomish” dostoni materiali shuni ko‘rsatadiki, o‘xshatishlar badiiy matnda nafaqat tasviriy, balki aksiologik vazifani ham bajaradi. M.Mukarramov ta’kidlaganidek, badiiy matnda qo‘llaniladigan o‘xshatishlar semantik-baholovchi xususiyatiga ko‘ra ijobiy va salbiy ma’no yo‘nalishlari bilan farqlanadi.[1:28]. Demak, o‘xshatishlar badiiy matnda nafaqat tasviriy, balki aksiologik (baholovchi) vazifani ham bajaradi.

Shu bilan birga, doston matnida baholovchi-semantik yo‘nalish qat’iy emas. Epik matnda baholovchi-semantik yo‘nalish har doim ham qat’iy ijobiy yoki salbiy doirada qolmaydi. Ayrim an’anaviy o‘xshatishlar kontekstga ko‘ra turlicha qiymat kasb etishi mumkin. Bu hol maqolaning bosh ilmiy tezisini belgilaydi: o‘xshatishlarning aksiologik yo‘nalishi statik, ya’ni barqaror hodisa emas, balki kontekst ta’sirida transformatsiyalanadi**.**

Sher etaloni xalq poetik tafakkurida odatda, jasorat, qudrat va jangovarlik timsoli sifatida ijobiy semantik maydonga mansubdir. Sher – forscha arslon; botir, jasur; asad ma’nolarini anglatadi, ko‘chma ma’noda shaxsni sherga nisbatlab “azamat”, “botir”, “polvon’ deya ataladi. [9:617]”. Shu bois “*Anglamaydi bunday mardi maydondi, Sherday bo‘lib endi yo‘lga kirgandi. Kim dushman bo‘lsa boshin oladi, Hammaning ko‘nglidan chiqqan to‘radir”* [10:369] yoki *Birov sherday bo‘lib xabar olmasa, O‘ziman tug‘ishgan aka bo‘lmasa, Bu ish har kimning qo‘lidan kelmasa* [10:285] misralarida o‘xshatish an’anaviy ijobiy bahoni saqlaydi: qahramonning kuchi, qat’iyati va epik pafosi yuksaltiriladi. Biroq shu etalonning salbiy personajlarga nisbatan qo‘llanishi uning aksiologik transformatsiyasini yuzaga chiqaradi.

Bir-birining aqlin olib, Nayza bilan qilich solib, Unga Hakim g‘olib kelib, Sherday bo‘p ustiga bordi. [10:218]

Bu so‘zni aytadi shunqor, Sherday bo‘ldi mard yigitlar, Ot qo‘ydi, oblohu akbar. [10:262]

Sherday o‘xshatishi nafaqat Alpomish, Yodgor, Qorajon kabi ijobiy qahramonlarga, balki qalmoq alplari, hatto Ultontoz kabi salbiy obrazlarga nisbatan ham qo‘llanadi. *Masalan:*

Hammalari birday bo‘lib, Bog‘da ochilgan gulday bo‘lib, Chamanda bulbulday bo‘lib, O‘tirib edi suhbat qurib, Qalmoq bordi sherday bo‘lib.[10:88]. *Bu so‘zdaytib ne qalmoqlar Bedov otga qamchi chotar, Chilbir cho‘lni to‘zang tutar, O‘z holiga sherday bo‘lib, Ot chopar cho‘lda qalmoqlar.* [10:212] *Aytib yurur bekor so‘zni, Ahmoq gapga ko‘tarmalab, Sherday qilib Ultontozni, Barchin bilmas bunday so‘zni, Teng ko‘rmaydi Ultontozni.*[10:420]

Yuqorida havola etilgan misollarda *sherning* an’anaviy ijobiy semantikasi saqlangan holda, ko‘proq jismoniy qudrat, tajovuzkorlik, salobat va ba’zan kinoyaviy tus bilan birikadi.

Demak, *sherday* o‘xshatishining aksiologik transformatsiyasi shundan iboratki, etalonning bazaviy ijobiy semantikasi saqlanadi, biroq konkret syujet va personaj tizimida u ijobiy, ziddiyatli yoki kinoyaviy baholovchi yuk olishi mumkin**.**

Aksiologik transformatsiya har doim ham an’anaviy etalonning salbiy yoki kinoyaviy mazmun kasb etishi bilan cheklanmaydi, ayrim hollarda u yangi semantik yo‘nalishda qayta talqin qilinish shaklida ham namoyon bo‘ladi. Buni *“sherdayin davron surarsan”* birikmasi misolida kuzatish mumkin.

Bu yerlarda shohlik shavkat qilarsan, Har qaysing ham chodir tikib turarsan, Xizmatingga qancha odam solarsan, Qimiz berib mening ko‘nglimdolarsan, Har qaysing sherdayin davron surarsan. [10:375].

Mazkur o‘rinda *sher* etaloni odatiy jangovar semantikasi doirasida emas, balki ijtimoiy mavqe, hukmronlik va farovon turmushni ifodalovchi obraz sifatida faollashadi.

Ma’lumki, an’anaviy qo‘llanishda *sher* obrazi, asosan, jasorat, qudrat, jangovarlik va jismoniy kuch timsoli bilan bog‘lanadi [3:263]. Biroq *“Har qaysing sherdayin davron surarsan”* misrasida mazkur etalonning semantik markazi boshqa yo‘nalishga siljiydi. Bu yerda *sher* jang maydonidagi mardlikni emas, balki *“davron surmoq”* – ustun mavqe, shohona yashash va hukmron holatda umr kechirish mazmunini ifodalashga xizmat qilmoqda. [12:799].

Mazkur semantik siljish kontekst bilan bevosita bog‘liq. Misrada *“shohlik shavkat qilarsan”, “chodir tikib turarsan”, “xizmatingga qancha odam solarsan”* kabi birliklar bilan

hosil bo‘lgan semantik maydon *sherdayin* o‘xshatishining mazmunini ijtimoiy salobat va hukmronlik bilan bog‘laydi. Natijada an’anaviy etalon yangi baholovchi yo‘nalishda namoyon bo‘lib, qahramonning kuchini emas, uning mavqeini va hayot tarzini estetik jihatdan yuksaltiruvchi vositaga aylanadi.

Shu jihatdan birikmada kuzatiladigan transformatsiya salbiylashish shaklida emas, balki an’anaviy etalonning ijtimoiy-semantik maydonda qayta kodlanishi tarzida yuz beradi. Demak, mazkur o‘rinda o‘xshatishning aksiologik yo‘nalishi saqlangan holda, uning semantik markazi o‘zgaradi va *sher* obrazi qahramonning ijtimoiy ustunligi hamda salobatini ifodalovchi lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Baholovchi transformatsiya an’anaviy etalonning yangi ijtimoiy-semantik maydonda qayta talqin qilinishi tarzida namoyon bo‘ladi.

Lochin etaloni an’anaviy poetik tafakkurda “chaqqonlik, epchillik, jasorat, serg‘ayratlik va yuksaklik timsoli sifatida ijobiy baholovchi maydonga mansub. Lochin – yirtqich qushlar turkumining chaqqon harakatli bir turi, ko‘chma ma’noda esa shu qushga nisbatli belgini bildiradi; epchil, chaqqon; shijoatli. [11:57] Ammo Barchinning qalmoqlarga qarata aytgan misrasida: *“Lochinday aynalma bunda, ahmoqlar, Bora bergin o’z yo‘lingga badbaxtlar.* [10:89] – ushbu etalonning semantik maydoni o‘zgaradi. Bu yerda lochinning “o‘lja atrofida gir aylanish”, “yuqoridan kuzatish” kabi harakat semalari aktuallashib, ijobiy timsol emas, balki “bezovta qiluvchi, tahdidli va tajovuzkor harakat xususiyati” oldinga chiqadi.

Mazkur tahlil shuni ko‘rsatadiki, aksiologik transformatsiya etalonning lug‘aviy ma’nosini to‘liq bekor qilmaydi, balki uning qaysi semantik komponenti kontekstda faollashishini o‘zgartiradi**.** *Lochin* o‘xshatishi ijobiy timsolni mustahkamlash o‘rniga, salbiy qahramon obrazini keskinlashtirish, konfliktni kuchaytirish va dramatik ohangni yuzaga keltirish vositasiga aylanadi. Mazkur misolni aksiologik-semantik transformatsiyaning yorqin namunasi sifatida baholash mumkin.

Aksiologik transformatsiya ayrim hollarda an’anaviy etalonning baholovchi yo‘nalishi o‘zgarishida, ayrim hollarda esa o‘xshatish shaklining ekspressiv kengayishi orqali namoyon bo‘ladi.

Buni “Alpomish” matnidagi Surxayil mastonning Barchinoyning onasiga nisbatan aytgan *“Mehmon bo‘ldim sendayg‘achoq nosoqqa, Put ko‘tarding islomdagi…”* [10:69] misralaridagi *sendayg‘achoq* shakli misolida yaqqol kuzatish mumkin. Mazkur shaklda oddiy -day qiyos affiksi -g‘achoq elementi bilan kuchayib, baholovchi-ekspressiv tus oladi. Natijada o‘xshatish oddiy qiyoslash vositasi bo‘lib qolmay, kinoya, ta’na va istehzo ifodalovchi baholovchi konstruksiyaga aylanadi. Xususan, *sendayg‘achoq nosoqqa* ifodasida qiyos adresatni pasaytirish, uning maqomini shubha ostiga qo‘yish va unga nisbatan salbiy axloqiy baho bildirish vazifasini bajaradi. Demak, bu o‘rinda o‘xshatish tasviriy vosita sifatida emas, balki salbiy aksiologik munosabatni kuchaytiruvchi lingvopoetik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Alpomish” dostonida o‘xshatishlarning aksiologik yo‘nalishi barqaror emas. Bir xil etalon turli personajlar, kontekst va syujet vaziyatlarida turlicha baholovchi mazmun kasb etadi. Xususan, an’anaviy ijobiy etalonlar hamda ekspressiv yoki kontekstual qayta talqin qilingan shakllar baholovchi-semantik o‘zgarishning turli ko‘rinishlarini namoyon etadi. Shu jihatdan “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlar faqat tasviriy vosita emas, balki epik baholashni ifodalovchi, konflikt va dramatik ohangni kuchaytiruvchi muhim lingvopoetik birliklar sifatida talqin etilishi mumkin. Kelgusida bu masalani doston variantlari kesimida qiyosiy, lingvokulturologik va kognitiv jihatdan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mukarramov M. O‘zbek tilida o‘xshatish. – Toshkent: Fan, 1976. 88-b.

2.Mahmudov N. O‘xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2011. - No 3. 19–24-b.

3.Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Ma’naviyat, 2013. 320-b.

4.Худойберганова Д.С. *Семантический и стилистический анализ конструкций уподобления в узбекском языке:* Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1989. Б. 15.

5.Xudoyberganova D. Matnning antroposentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. 122-b.

6.Jumanazarova G. Xalq dostonlaridagi o‘xshatishlarning lingvopoetik imkoniyatlari. – Toshkent: Fan, 2011.

7.Yo‘ldosheva S. “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlarning g‘oyaviy-estetik funksiyasi // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1986, №1. 47–52-b.

8.Ashurov D.A. “Alpomish” dostonining lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. – Namangan: “Sunrise-pro”, 2025. 55-b.

9.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 6-jild. 617-b.

10.Alpomish. O‘zbek xalq ijodi yodgorliklari. 100 jildlik. (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li varianti). – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. 1-j. 512-b.

11.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 3-jild. 57-b.

12.O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 1-jild. 799-b.

Dilfuza NZAMATDINOVA,
University of innovation technologies doc.v.v.b. PhD
Sarbimiron122@mail.ru

TURG‘UN O‘XSHATISHLARDA POLISEMIYA HODISASI

Annotatsiya: maqolada qoraqalpoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarda polisemiya (ko‘p ma’nolilik) hodisasi tahlil qilingan. Unda polisemant va monosemant o‘xshatishlarning semantik turlari, ularning sinonimik va antonimik munosabatlari tadqiq etiladi. Inson tashqi ko‘rinishi, tana a’zolari va kiyinish madaniyatini ifodalovchi komparativ birliklarning o‘ziga xos lisoniy xususiyatlari misollar orqali yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *polisemmiya, turg‘un o‘xshatish, sinonimiya, antonimiya, komparativ birlik, monosemant.*

Аннотация: в статье анализируется явление полисемии в устойчивых сравнениях каракалпакского языка. Исследуются семантические типы полисемантических и моносемантических сравнений, их синонимические и антонимические отношения. На примерах освещаются лингвистические особенности компаративных единиц, описывающих внешность человека, части тела и культуру одежды, а также их роль в создании лексических рядов.

Ключевые слова: *полисемия, устойчивое сравнение, синонимия, антонимия, компаративная единица, моносемант.*

Annotation: the article analyzes the phenomenon of polysemy in fixed similes of the Karakalpak language. It explores the semantic types of polysemous and monosemous similes, including their synonymous and antonymous relationships. Through various examples, the linguistic characteristics of comparative units describing human appearance, body parts, and clothing culture are highlighted, focusing on their structural and semantic features.

Key words: *polysemy, fixed simile, synonymy, antonymy, comparative unit, monosemous.*

Kirish. Tilshunoslikning hozirgi taraqqiyot bosqichida frazeologik tizimni kognitiv va semantik jihatdan tadqiq etish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Har bir xalqning tili uning dunyoqarashi, yashash tarzi va milliy tafakkurini aks ettiruvchi ko‘zgudir. Ayniqsa, turg‘un o‘xshatishlar (komparativ frazeologizmlar) tildagi obrazlilikni, ekspressivlikni va ma’noviy boylikni ta’minlovchi asosiy lisoniy vositalar sirasiga kiradi.

Qoraqalpoq tili o‘zining boy frazeologik qatlamiga ega bo‘lib, undagi turg‘un o‘xshatishlar tizimida polisemiya (ko‘p ma’nolilik) hodisasini o‘rganish maqolaning dolzarbligini belgilaydi. Polisemant turg‘un o‘xshatishlar tildagi tejamkorlik tamoyiliga xizmat qilib, birgina obraz orqali bir necha xil tushunchani (masalan, ham tashqi ko‘rinishni, ham harakat-holatni) ifodalash imkonini beradi. Ushbu maqolaning maqsadi qoraqalpoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlarning semantik tabiatini yoritish, ulardagi polisemant va monosemant birliklarning o‘zaro farqli jihatlarini tahlil qilish hamda ushbu birliklarning sinonimiya va antonimiya munosabatlariga kirishish xususiyatlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida inson tashqi qiyofasi, fe’l-atvori va tana a’zolari tasvirida qo‘llaniladigan turg‘un o‘xshatishlar polisemiyasi kognitiv-semantik jihatdan tahlilga tortiladi. Bu esa o‘z navbatida, turkiy tillar frazeologiyasining semantik strukturasi haqidagi nazariy xulosalarni boyitishga xizmat qiladi.

Turg‘un o‘xshatishlar (komparativ frazeologizmlar) tilda tayyor holda mavjud bo‘lib, ular bir vaqtning o‘zida ham tashqi ko‘rinishni, ham ichki xarakter-xususiyatni anglatishi mumkin. Bu esa polisemiyani keltirib chiqaradi.[1:45]

Bitta o‘xshatish obyekti (masalan, “aqqu” - oqqush) turli vaziyatlarda turlicha semantik yukka ega bo‘ladi: bir o‘rinda go‘zallik va oqlikni, ikkinchi o‘rinda bo‘y-bastning uzunligini anglatishi kognitiv o‘rin almashishdir. [2: 122]

O‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligida turg‘un o‘xshatishlarni maxsus tadqiq qilgan olimlar sifatida Sh. Rahmatullayev va E. Berdimuratovning fikrlari asosiy hisoblanadi. Frazeologik polisemiyaning paydo bo‘lishi komponentlar tarkibining barqarorligi va obrazlilikning kengayishi bilan bog‘liq. “Quyib qo‘yganday” iborasi ham ko‘rinish, ham fe’l-atvorga nisbatan qo‘llanishi polisemiyaga misoldir. [3: 12]

Qoraqalpoq tilidagi turg‘un o‘xshatishlar milliy mentalitet bilan bog‘liq. “Pilday”, “tuyeday” kabi birliklar nafaqat hajmni, balki insonning harakat sekinligini ham ifodalashi polisemiya belgisidir. [4: 88]

Frazeologiya nazariyasida turg‘un birikmalar semantik jihatdan yaxlit birlik sifatida qaraladi. Rus tilshunosi **V. V. Vinogradov** frazeologizmlarni ma’no yaxlitligi darajasiga ko‘ra uch turga ajratadi: frazeologik qo‘shilmalar, birliklar va chatishmalar. Uning ta’kidlashicha, frazeologizmlarda obrazlilik va ko‘chma ma’no asosiy belgi bo‘lib, bu ularning polisemantik rivojlanishiga zamin yaratadi. [5]

Shuningdek, **A. V. Kunin** frazeologik birliklarning semantik strukturasi murakkab bo‘lib, ular ko‘pincha kontekstga bog‘liq holda yangi ma’nolarni hosil qilishini qayd etadi. Bu fikr turg‘un o‘xshatishlardagi polisemiya hodisasini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. [6: 308]

Polisemant turg‘un o‘xshatishlar sinonimiyasi. Bu komparativ birliklar orasida sinonimik yoki antonimik qatorlarini hosil qilmaydigan polisemantlar qoraqalpoq tilida kam uchraydi. Masalan: *qızday, pıshıqtay, aqquday.*

Bu turdagi turg‘un o‘xshatishlar ko‘pincha sinonimik yoki antonimik munosabatlarga yaqin bo‘lib keladi.

Bu sistemada polisemantlarni 2 tipga bo‘lish mumkin:

1. Ma’no jihatidan tashqi ko‘rinishni ifodalovchi o‘xshatishlar: *aqquday* – uzun ayoqli, bo‘yi uzun odamga aytiladi; *qarshıg‘anıń kózindey* – yovvoyiday o‘tkir ko‘zlarga nisbatan qo‘llaniladi.

2. Polisemantlar ham hech bo‘lmaganda bitta ma’nosi bilan sinonimik qatorlarni hosil qiluvchi o‘xshatishlardir. Bunda o‘xshatishlarning 2 guruhga bo‘linganini ko‘rish mumkin:

1) Semantik tuzilishida faqatgina sinonimlar bo‘lgan guruh: *túye tawıqtay, aqquday, quyıp qoyg‘anday, burittey, sharday, qayıń ag‘ashınday, tasbaqaday, pildey* va b.

2) Semantik tuzilishida faqatgina antonimlar bo‘lgan guruh: *atta otırg‘anday* (chiroyli o‘tirish) – antonimi *qorg‘andag‘ı iyttey, manekenge kiygizip qoyg‘anday, sıyırg‘a er qoyganday va b.*

Shunday qilib, bu polisemantlar antonimiyaning juda kam miqdorda uchrashini tasdiqlab beradi.

3) Semantik tarkibida sinonimlar ham, antonimlar ham mavjud bo‘lgan guruh.

Monosemant turg‘un o‘xshatishlarning sinonomiyasi.

Mazkur guruhdagi turg‘un o‘xshatishlarning sinonimlari yoki antonimlari yo‘q. Masalan: dáptey, jolbarıstay, tıshqanday hám t.b. Sinonim yoki antonimlar bo‘lmasligining omillardan bir nechtasini ko‘rib o‘tamiz.

1. Turg‘un o‘xshatishlarning tuzilishi bo‘yicha: sinonimga yoki antonimga ega bo‘lmagan turg‘un o‘xshatishlar tarkibida har turli strukturali tillarning a’zolari uchraydi. Bu holat komparativ birliklarning struktur xususiyatlariga aloqador bo‘ladi. Masalan: odamning nigohini, qarashini tasvirlaganda: *qaqpang‘a túsken qoyanday, gósh jegen pıshıqtay* va h.

2. O‘xshatish obyekti qo‘shimchasining o‘ziga xos xarakteri. Inson tana a’zolari tavsifida juda yashirin berilgan o‘xshatishlarda sinonim yoki antonimlar sezilmaydi. Masalan: odamning qorni haqida (suwqabaqtay), tishlari haqida (attay).

3) Tavsif xarakteri – o‘xshatish asosi. Inson tashqi ko‘rinishining murakkab har taraflama tasvirlanishi sinonim yoki antonimni vujudga keltirmaydi. Masalan: *G‘arrıday (kempirdey) – betleri jıyrıq, búgilgen beli*.

Monosemant turg‘un o‘xshatishlarning sinonim yoki antonimlarining vujudga kelishini 3 guruhga bo‘lish mumkin:

1. Faqatgina sinonimga ega turg‘un o‘xshatishlar (antonimi umuman bo‘lmaydi). Masalan: *duzday* (odamning ko‘zi haqida), *kómirdey, qaramayday*. Bu o‘xshatishlarning antonimi yo‘q. Masalan: *jipektey* (nozik odamning terisi haqida), *maylı nanday* (yuzining yaltirashi), *aq qaǵazday* (yuzining yaltirashi), *shaytannıń kiyimindey* (yupan kiyingan odam), *jalań ayaqtay* (yupan kiyingan odam), *julıng‘an tawıqtay* (yupan kiyingan odam), *gáwharday* (tishlari haqida), gúrishtey (tishlari haqida), qazıqtay (tishlari haqida),

2. Faqatgina antonimga ega turg‘un o‘xshatishlar. Masalan: *sádeptey, noqattay* (odamning burni haqida).

3. Sinonimga ham, antonimga ham ega turg‘un o‘xshatishlar.

Masalan: *Saltanatqa baratırg‘anday* – chiroyli, did bilan kiyinish;

sinonimi: *kelinshektey*, *toyg‘a baratınday, totı qustay taranıp, sılqıytıp,naǵıshqa oyılǵanday,*;

antonimi: *túye tawıqtay, tuwalaqtay*, eshektey kiyingen, masqarabazday.

Ushbu qatorlarning orasida sinonimik munosabatlarga eng boy semalar:

– inson yuzining rangi haqidagi turg‘un o‘xshatishlar. Masalan: *qag‘azday (aq), ólidey (tússiz), unday (aq), qarday (aq), shiyedey (qızarıw), geshirdey (qızıl) pomidorday (qızıl)*.

– tana tuzilishi haqidagi turg‘un o‘xshatishlar: *taxtayday (arıq), sımday (jińishke), shoshqaday (semiz), qaptay , shıbıqtay (arıq), qamıstay (arıq), toptay (domalaq)* va b.

– inson tashqi ko‘rinishining “chiroyli yoki chiroyli emasligini” bildiruvchi turg‘un o‘xshatishlar: *quwırshaqtay, perishtedey, mástan kempirdey, ólidey*.

Frazeologik sinonimiya va antonimiya haqida N. M. Shanskiy shuni ta’kidlaydi: frazeologik birliklar orasidagi semantik yaqinlik yoki qarama-qarshilik ularning obraz asosiga bog‘liq. Agar obraz umumiy bo‘lsa – sinonimiya, qarama-qarshi bo‘lsa – antonimiya yuzaga keladi. [7]

Bu nazariya biz keltirgan:

- yuz rangi,
- tana tuzilishi,
- tashqi ko‘rinish kabi semantik guruhlarda sinonimik qatlamning boyligini tushuntiradi.

Yuz rangi

Sinonimlar:

oppaday - júdá aq júzli

ayday - nurlı, appaq júzli

gúldey ashılıp - sulıw, reńli júzli

Antonimlar:

qaraday - júdá qarańǵı, qalıń júzli

qoyıw tastay - reńi qara yamasa terisi aǵarmaǵan.

soqırday sur - reńi aǵarmaǵan, sónbeytuǵın

Yuqorida keltirilgan o‘xshatishlar sinonimlik qatorlarini vujudga keltiradi, sababi bu o‘xshatishlarning barchasi insonning tashqi ko‘rinishini tasvirlovchi turg‘un o‘xshatishlar guruhi hisoblanadi. Ularning sinonimligini kontekst orqali aniqlash mumkin.

Turli sistemadagi tillarda turg‘un o‘xshatishlarning polisemiya orqali keng imkoniyatlarga ega ekanligi ham ko‘rsatib berildi va turkiy xalq qahramonlik dostonlarida qo‘llanilgan turg‘un o‘xshatishlardagi polisemiya hodisalari misollar orqali dalillab berildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Введенская Л.А. Стилистические фигурı, основанніе на сопоставлении. — Ростов-на-Дону: Изд-во Ростовского университета, 1973. — С. 45

2. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.P. 122.

3. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. — Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1992.12-14- б.

4. Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тилиниң лексикологиясı. — Нөкис: Билим, 1994. 88- б.

5. Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. – М.: Высшая школа, 1985.

6. Виноградов В. В. Русский язык (Грамматическое учение о слове). —М., 1947.

7. Кунин А. В. Фразеология современного английского языка. Москва: Международные отношения, 1972 (существуют и последующие издания).

Yulduzxon SHUXRATOVA,
Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi (PhD)
shuhratovayulduzxon@gmail.com

O‘XSHATISH MUNOSABATIGA OID NAZARIY QARASHAR

Annotatsiya: jahon tilshunosligida til birliklarining semantik, struktural va grammatik xususiyatlari bilan birga muloqotda ularni qo‘llashning ijtimoiy-kommunikativ shartlarini tadqiq etish dolzarblashmoqda. Bunda masalani antropotsentrik tamoyil asosida o‘rganish nisbatan mukammal xulosalar chiqarishga imkon bergani bois fanda bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar salmog‘i ortib bormoqda. Xususan, nutq jarayonida nazarda tutiladigan o‘xshatish va tarz munosabatlarining lisoniy ifodasini ularning qo‘llanilish xususiyatlari bilan uyg‘unlikda tadqiq etishga talab kuchayib bormoqda. Bu kabi masalalar tadqiqi soha rivojiga muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: *o‘xshatish, qiyoslash munosabati, sodda gaplar, qo‘shma gaplar, supersintaktik birliklar, paradigmatik va sintagmatik xususiyatlar.*

Аннотация: в мировой лингвистике все большую актуальность приобретает изучение семантических, структурных и грамматических свойств языковых единиц, а также социально-коммуникативных условий их использования в общении. Поскольку изучение этого вопроса на основе антропоцентрического принципа позволяет делать относительно полные выводы, объем исследований в этой области в науке растет. В частности, возрастает спрос на изучение языкового выражения метафор и стилистических отношений, подразумеваемых в процессе речи, в соответствии с особенностями их использования. Изучение таких вопросов имеет большое практическое значение для развития данной области.

Ключевые слова: *сравнение, сравнительное отношение, простые предложения, сложные предложения, суперсинтаксические единицы, парадигматические и синтагматические признаки.*

Annotation: in world linguistics, the study of the semantic, structural and grammatical properties of language units, as well as the socio-communicative conditions of their use in communication, is becoming increasingly relevant. Since the study of the issue on the basis of the anthropocentric principle allows us to draw relatively complete conclusions, the volume of research in this area is increasing in science. In particular, there is a growing demand for the study of the linguistic expression of metaphors and stylistic relations implied in the speech process in harmony with the features of their use. The study of such issues is of great practical importance for the development of the field.

Key words: *simile, comparative relation, simple sentences, compound sentences, supersyntactic units, paradigmatic and syntagmatic features.*

Kirish. Insonning dunyoni bilishida o‘xshatish-qiyoslash benihoya katta o‘rin tutadi. Ikki yoki undan ortiq predmet yoki tushunchani o‘xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash maqsadida qiyoslash, taqqoslash tashqi dunyoni bilishning eng keng tarqalgan mantiqiy usullaridan biri sifatida inson faoliyatining deyarli barcha sohalarida kuzatiladi. Bu behad muhim mantiqiy kategoriya, tabiiyki, tilda ham o‘z aksini topadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. A.Trevskiyning takidlashicha, an’anaga ko‘ra, ma’lum turdagi obyektlarni bir guruhga kiritishning sababi ular o‘rtasida biror bir o‘xshashlikning mavjudligidir. O‘xshashlik esa har doim ham bir xil uslubda aniqlanmaydi. O‘xshashlik munosabatlari 2 ko‘rinishda bo‘lishi mumkin: a) refleksiv – har qanday obyekt har doim o‘ziga o‘xshaydi; b) simmetrik – ikkita obyektning o‘xshashligidagi davomiylik qatori, tartibi o‘zgarishidan qatiy nazar bir xilda saqlanadi. Masalan, A va B qiyoslanadimi yoki B va A, natija bir xil. Refleksivlik munosabati doimo bir xil va u izohtalab emas. Simmetrik munosabatlar esa murakkab jarayon.Haqiqatan ham, agar obyektlar o‘rtasidagi o‘xshashlikni bilish maqsadida ushbu obyektlarni xususiyatlariga ko‘ra ajratsak, qiyoslash xususiyatlarga nisbatan bajariladi. Aksincha, obyektlar yaxlit hodisa sifatida qiyoslansa, o‘xshashlik maqsadli mo‘ljal asosida aniqlanadi. “O‘g‘il otasiga o‘xshaydi”, “Surat asliga o‘xshaydi” jumlalarida tasdiq mazmuni “A B ga o‘xshaydi” tarzida namoyon bo‘ladi. Agarda o‘xshashlik munosabatlarini shaklan saqlab, A va B larning joyi o‘zgartirilsa (B A ga o‘xshaydi), bunday o‘xshashlik tasdig‘i har qancha to‘g‘ri bo‘lsa ham, hosil bo‘ladigan jumlalar sun’iy tus oladi hamda “Ota o‘g‘liga o‘xshaydi”, “Asl suratga o‘xshaydi” kabilar tajnisdek tuyuladi.

Natijalar va muhokama. Har bir tilda muayyan ma’no-mazmunni ifoda etish, tushuntirishda o‘xshatishlardan foydalaniladi. O‘xshatish ong va tafakkurda ma’lum bir predmet, belgi yoki harakat va holatni paydo qilishda ungacha bo‘lgan tushunchalardan – shaxs, narsa-buyum, kechinma, hissiyot, harakat, holatning lisoniy ifodasidan foydalanish usulidir. Bu usul amaliyotda keng qo‘llaniladi. Tilshunoslikda bu bilan bog‘liq o‘xshatish qo‘shimchasi, o‘xshatish ergash

gapli qo‘shma gap kabi terminologik birliklar qatori mavjud. Ammo o‘xshatish munosabati yanada keng va to‘laqonli termin paradigmasiga ega bo‘lib, tilning morfemik, leksik, morfologik, sintaktik hamda supersintaktik birliklari orqali bu munosabat ifoda etiladi. Masalan, *…Bo‘lib o‘tgan voqealar zalvori fikrlarini bosib qo‘ygandek, mung tishlab o‘tirardi* (U.Hamdam, “Muvozanat”).

Misolda matn qahramoni bo‘lgan shaxsning qay holatda ekanligi *bo‘lib o‘tgan voqealar zalvori fikrlarini bosib qo‘ygandek* o‘xshatishi orqali ifoda etilgan bo‘lsa, bu matnga muayyan darajada aniqlik va ifoda berishga xizmat qilgan. Jumlaning mantiqan tugal, grammatik jihatdan kengaytirilgan, eng asosiysi, matn mazmunini idrok etishda tinglovchiga so‘zlovchi istagan darajada ma’lumot yetkazilishini ta’minlashga xizmat qilgan.

O‘xshatish munosabati semantikasi keng ifoda shakllariga ega. Odatda, bu munosabat ikki holat yoki vaziyatni bir-biriga o‘xshatish, chog‘ishtirish asosiga quriladi. Bunda tinglovchiga noma’lum bo‘lgan muayyan bir holat yoki predmet unga avvaldan ma’lum bo‘lgan bir vaziyat yoki predmetga o‘xshatish orqali tushuntiriladi. Bunda shaxsga xos harakatlar, jumladan, jonlantirish badiiy tasvir usulidan keng foydalaniladi. Masalan, *Yana to‘lib oqa boshlagan anhor kechaning oydinligida o‘z jamolini ko‘z-ko‘z qilayotgandek yaltirab-tovlanib qo‘yadi.* (U.Hamdam, “Muvozanat”).

Ushbu misolda anhorning holati *yaltirab-tovlanib qo‘yish* ifodasi orqali tasvirlanagan bo‘lsa, bu harakatning *o‘z jamolini ko‘z-ko‘z qilayotgandek* o‘xshatishli birikmasi orqali to‘ldirilishi jumla ifodasiga qo‘shimcha ekspressivlik va o‘ziga xos lisoniy joziba baxsh etgan.

O‘xshatish semantikasiga oid ifodalar biror holatni oson tasavvur qilishga ko‘maklashadi.Unda ko‘proq belgi, harakat, holat izohi uchun *-day/-dek* qo‘shimchalaridan foydalaniladi.

– *Hozir, adajonisi, hozir, – Manzura uchgandek chiqib ketdi* (U.Hamdam, “Muvozanat”).

Ushbu misolda ham harakat bajarilishining holati (*chiqib ketish*) tinglovchiga avvaldan ma’lum tarzga o‘xshatish (*uchgandek*) orqali ifodalab berilgan. Guvohi bo‘lganimizdek, o‘xshatish matnda tasavvurning osonlashishiga xizmat qiladi.

Matnlarda ba’zan o‘xshatishni ifodalashda turg‘un birikmalardan ham foydalaniladi. Masalan,

– *…Ishing xamirdan qil sug‘urgandek silliq ko‘chdi* (U.Hamdam, “Muvozanat”).

Misolda *xamirdan qil sug‘urgandek* turg‘un birikmasi *ish oson, yengil ko‘chdi* degan ma’nolarni ifoda etish uchun ishlatilgan. Ko‘plab iboralarda bu holatni ko‘rish mumkin. Masalan, *tomdan tarasha tushgandek – birdan, miltiqning o‘qidek – tez, suvga tushgan mushukdek – shumshayib, yuragi yorilgudek – me’yordan ortiq* kabi iboralarda aynan o‘xshatish asosida ma’no ifodalanadi.

O‘xshatish semantikasi ba’zan yolg‘iz qo‘llanilgan tushunchalar orqali ham anglashiladi. Masalan, *U muvozanat sari eltuvchi katta yo‘lga chiqib olgandek his qilardi o‘zini* (U.Hamdam, “Muvozanat”).

Misolda *katta yo‘lga chiqib olgandek his qilmoq* ifodasi o‘xshatish asosida shakllangan bo‘lib, bunda ham aslida bir holatni ikkinchi bir holatga o‘xshatish mavjud (jumladan, mayda muammolardan xalos bo‘lish yoki hayotda haqiqat yo‘lini ajrata olish holati xuddi katta yo‘lga chiqqan kabi tasvirlangan bo‘lishi mumkinligini nazarda tutsak), ammo lisoniy ifodada o‘xshatilgan shakl yolg‘iz qo‘llanilganligi sababli sodda ko‘rinishli o‘xshatish vositasi yuzaga kelgan.

Xulosa. Umuman olganda, o‘xshatishlar jahon tilshunosligida kognitiv, semantik, stilistik va diskursiv yondashuvlar nuqtayi nazaridan keng ko‘lamda o‘rganilmoqda. Ular til va tafakkur munosabatlarini tahlil qilish, obrazli nutqning shakllanish mexanizmlarini tushunish, turli madaniyatlarda tilning estetik qirralarini aniqlash uchun muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘xshatishlar o‘zbek tilshunosligida adabiy tilning obrazlilik vositasi, stilistik birlik va ma’no ifoda etuvchi komponent sifatida tahlil qilinadi. Ularning o‘rganilishi dastlab adabiyotshunoslik va poetika doirasida boshlangan bo‘lib, keyinchalik tilshunoslikning stilistika, semasiologiya, leksikologiya, lingvomadaniyatshunoslik va kognitiv tilshunoslik kabi sohalarida alohida ilmiy yo‘nalishga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Махмудов Н.М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка: Автореф. дисс. ...док. филол. наук. – Ташкент, 1984.259-bet.

2. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б.55.

3. Shukhratova Yulduzkhon. The role of simile, static simile, metaphor and comparison in uzbek linguistics. “European Journal of Literature and Linguistics”, – Praha, 2025.№4. – P.55.

4. Shuxratova Yulduzxon Shakarbek qizi. Sintaktik sathda o‘xshatishlarning tabiatiga doir. FarDU ilmiy xabarlar. – Farg‘ona, 2024. –№ 6.422-424-bet.

5. Shuxratova Y.Sh. Qo‘shma gaplarda o‘xshatish va qiyos munosabati. “Экономика и социум” №5(84) ч.1

6. Shukhratova Yulduzkhon Shakarbek qizi. The Study of Style Relationship in World and Uzbekistan // Miasto Przyszłości, Impact Factor: 9.9. ISSN-L: 2544-980X. Vol. 65. 2025. – P.150-15.2

Basoat KIMSANBOYEVA,
Farg‘ona shahar, Farg‘ona viloyati
FarDU, tilshunoslik kafedrasi f.f.b.f.d
basoathon86@gmail.com

TURKIY TILLARDA O‘XSHASH VA FARQLI IBORALAR

Annotatsiya: iboralarning tarkibiy-semantik xususiyatlari, ibora komponentlari, ularning xususiyatlariga e’tibor qaratadi. Bu maqolada birinchi navbatda, har ikkala shevada (turk va o‘zbek) shakli va ma’no jihatdan teng bo‘lgan idiomalarni tuzishga qaratilgan: Aç göz (ochko‘z), Baş eğmek (bosh egmoq), Dilinden bal damlamak (tilidan bol tommoq), Chenesi açilmak (jag’i ochilishi:) va hokazo.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek iboralari, turkiy iboralar, o‘xshash va farqli iboralar*

Аннотация: в статье рассматриваются структурно-семантические свойства фраз, фразовых компонентов и их характеристики. Основное внимание уделяется построению идиом, эквивалентных по форме и значению в обоих диалектах (турецком и узбекском): Aç göz (жадный), Baş eğmek (кланяться), Dilinden bal damlamak (капать мед с языка), Chenesi açılmak (открывать челюсть) и др.

Ключевые слова: *узбекские фразы, турецкие фразы, похожие и отличающиеся фразы.*

Annotation: the article focuses on the structural-semantic properties of phrases, phrase components, and their characteristics. This article primarily focuses on the construction of idioms that are equivalent in form and meaning in both dialects (Turkish and Uzbek): Aç göz (greedy), Baş eğmek (bow down), Dilinden bal damlamak (drip honey from the tongue), Chenesi açılmak (open the jaw), etc.

Key words: *uzbek phrases, Turkish phrases, similar and different phrases*

Kirish. Iboralarning uslubiy qo‘llanilishidagi muammolar yetarlicha yoritilgan va oydinlashtirilgan. Iboralarning shakliy va uslubiy xususiyatlaridan oddiy kishilar bilan bir qatorda mohir shoir va yozuvchilar ham keng foydalanadi. Shu sababdan iboralar nutq san’atining estetik jihati/ruhi deb ataladi. Ma’lumki, iboralar o‘tmishda ham, hozirgi davrda ham she’riyat va nasrda keng qo‘llaniladigan lisoniy elementlardir. Ular asosan nasrda o‘z tartibini o‘zgartirmasdan qo‘llanilsa-da, she’riyatda bu turg‘unlik ba’zan o‘zgaruvchanlikni ko‘rsatadi yoki komponentni tashlab yoki boshqa so‘z qo‘shish orqali teskari/elliptik tuzilmalarga aylanishi mumkin. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, she’riyatda qofiya, bo‘g‘in hisobi, alliteratsiya, yarim qofiya, ritm kabi xususiyatlar asosida bunday o‘zgarishlar yuzaga kelsa-da, nasr o‘zining turg‘un tuzilishini saqlab qoladi, chunki bunday xususiyat va zaruriyat yo‘q.

Asosiy qism. Barcha jahon tillarida bo‘lgani kabi o‘zbek va turk tillarida ham oddiy so‘z va mustaqil so‘z turkumlaridan farqli ravishda turg‘un so‘z turkumlarini tashkil etuvchi idiomalar har qanday hodisa, holat, holat, harakatni yanada aniq va jonli ifodalash uchun bir necha so‘zlarni birlashtirib, bo‘linmas, yaxlit lingvistik birlik hosil qiluvchi so‘z birikmalaridir. Bu xususiyatdan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, idiomalar ifodani yengillashtiruvchi va jonlantiradigan lisoniy elementdir [1:195]. O‘zbek va turk tillarida yuqorida ta’riflanganidek, gap shaklida element va ma’no jihatidan o‘xshash bo‘lgan iboralarga ko‘plab misollar keltirishimiz mumkin. Biroq ikkala tildagi o‘xshash idiomalarni jumla ichida emas, faqat o‘zaro sanab o‘tish maqsadga muvofiqdir. Ikki tilda tuzilishi va semantikasi bo‘yicha ekvivalent iboralar Shuni ta’kidlash kerakki, bu tipdagi idiomalar tuzilishi va ma’nosi jihatidan bir xil. Bundan tashqari, umumiy idiomalardagi elementlar soni deyarli bir xil va so‘z ildizlari tez-tez ishlatiladi. Ikki tilda o‘zaro teng bo‘lgan idiomalarni tekshirish va tanlashda idioma tarkibidagi so‘z elementlarining tarkibiy va leksik ma’nolari, ularning mustaqil so‘z turkumlari yoki turg‘un so‘z turkumlari ekanligi bu ikki til orasidagi chegarani belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Bu masalani ilmiy jihatdan hal etish uchun uch qirrali ekspertiza o‘tkazish kerak: a) so‘zlarning leksikologik ma’nosi; b) ular qaysi so‘z turkumiga mansub (ot, fe’l, sifat va boshqalar); v) Ular grammatik jihatdan qaysi gap elementi[2:74]. Xulosa qilib aytganda, idiomalarni leksik va grammatik nuqtayi nazardan tekshirishda ularning asl xususiyatlarini, yuza tuzilishida ko‘rinmaydigan yashirin xususiyatlarini ochib berishni maqsad qilgan. Shunday qilib, yuqorida aytib o‘tganimiz uch qirrali tahlil tufayli ikkala tilda ham bir qancha umumiy, o‘xshash iboralarni aniqladik: “Bash” so‘zini o‘z ichiga olgan iboralar: Bosh qo‘shish: 1. Boshini qo‘yish, 2. Uylanish, Boshiga bak konu: Baxtga ega bo‘lish, Bosh ko‘rish: Ko‘zni chalg‘itish, ko‘zdan o‘tish, ko‘zdan o‘tish kerak Ko‘zi toybo, Ko‘zdun karingey saqlash, Yuragi og‘ziga kelish, Oozgo alg‘s so‘z aytish, Aytish kerak bo‘lmagan narsani aytish. Beti yo‘q: Yuzsiz, yuzsiz. Uyku betin kınca, Uyquning yuzini ko’rmay, Eldin betin qarab alboo, Yuziga qaray olmay, Yuzį kara: Qora yuzli, uyatsiz, uyatsiz, Jaag‘i ochilmoq: Jag‘ini ochish (jag‘ini tashlamoq), Mang‘ayga yozilgan: Peshonasiga yozilgan, Qulikning ko‘tarmoq, quloqlarini ko‘tarmoq, Bular: qulog‘iga kirib tig‘iga chiqish: Bir qulog‘idan kirib, ikkinchi qulog‘idan chiqmoq, Tilinen bal tamu: Tilingdan asal tomizmoq, Tishin qayroo: Tishini g‘ijirlamoq. Yaxshiroq tushunish uchun quyidagi misollarni kontekstda keltirish kerak: Jay ogzuna kelu (Og‘izda yuragi bo‘lmoq): Biror narsadan qattiq qo‘rqish,

qo‘rquvdan titroq. Turlarining yangi og‘ziga kelib, kelmeden boshqani aytmay qolishdi. (Abdukarimov) Hukmdorlar dillarini og‘ziga solib, shahodat (iymon izhori) o‘qiy boshladilar. Ach ko‘z (Ochko‘z): Boy, shafqatsiz, to‘ymas odam. Bunday holda siz ma’lumotlardan foydalanishingiz mumkin. Ko‘p narsa sodir bo‘ladi. (T.mshchtaliev) Hech narsaga to‘ymaydigan och ko‘z! Mustaqil so‘z turkumlari va turg‘un so‘z turkumlariga bir xil nuqtayi nazar bilan yondashish mumkin emas. Keling, ushbu ikki turdagi so‘z turkumlarini taqqoslab, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini ko‘rib chiqamiz: Har ikkisining ikki yoki undan ortiq so‘z turkumidan iborat bo‘lishi ularning o‘xshash tomonidir. Farqi shundaki, 166-sonli mustaqil so‘z turkumida har bir so‘z elementi o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ko‘chma ma’nosini saqlab qoladi, shuning uchun har biri gap bo‘lagi vazifasini bajaradi va muayyan so‘z turkumini ifodalagani uchun mustaqil so‘z turkumi tarkibida qoladi. “Kolu qisqa” [2:131] (qisqa qo‘l) mustaqil so‘z turkumini ko‘rib chiqsak, “kol” predmet, “kska” esa predikatdir. Bundan tashqari har bir element o‘zining asl ma’nosini yo‘qotmagan va so‘z turi jihatidan o‘z xususiyatlarini saqlab qolgan. Idiomalarga kelsak, idiomani tashkil etuvchi so‘z elementlari sezilarli o‘zgaruvchanlikka uchraydi. Ularning barchasi faqat bitta tushunchani ifodalagani uchun o‘zining asl lug‘aviy ma’nolarini yo‘qotadi; xuddi shunday, ularning hammasi bir butun sifatida faqat bitta gap elementiga xizmat qilgani uchun har biri o‘z-o‘zidan gap elementi bo‘la olmaydi. Qolaversa, so‘z elementlarining so‘z turi bo‘yicha o‘zgaruvchanligi bu masalaning qanchalik murakkab ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, ko‘lu qisqa, kambag‘al, kambag‘al degan ma’noni anglatuvchi iborani tashkil etuvchi so‘z elementlari “ko‘lu qisqa” mustaqil so‘z turkumidagi so‘z elementlaridan farqli o‘laroq, “ko‘lu qisqa odam” gapida faqat bitta gap elementi, sifatdoshni ifodalaydi. Idioma tarkibidagi so‘z elementlari o‘zining asl ma’nosini yo‘qotib, faqat bir ma’noni anglatuvchi yagona qo‘shma so‘zga aylanib, semantik jihatdan boshqa so‘z ildiziga teng, ya’ni boshqa so‘zning sinonimi bo‘lishi mumkin. Demak, mustaqil so‘z turkumlari va turg‘un so‘z turkumlari semantik jihatdan bir-biriga o‘xshamaydi, chunki birinchisida so‘z elementlari o‘zining lug‘aviy ma’nosini saqlasa, ikkinchisida esa yo‘q. Buni isbotlash uchun “kolu qisqa” idiomasini ko‘rib chiqamiz. Bu ikki so‘z mustaqil so‘z turkumidagi kabi sintaktik bog‘lanish orqali emas, balki so‘z tartibi orqali bog‘lanadi. Har ikkisi ham o‘z shaxsiy lug‘aviy ma’nolarini yo‘qotib, bir butunlikni hosil qilganliklari uchun birgina tushunchani ifodalaydi, ya’ni “bechora, bechora”ni metafora bilan ifodalaydi. So‘z turlari bo‘yicha “kol” ot, “kska” esa sifatdosh sifatini yo‘qotgan; ikkalasi birlashib bir butunni tashkil qilganligi uchun ular faqat bitta gap elementini ifodalaydi, ya’ni ichimlikchi. Bu o‘rinda mustaqil va turg‘un so‘z turkumlari o‘rtasidagi sintaktik munosabat haqida ham bir oz to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Mustaqil so‘z turkumlarida so‘z elementlari bir-biriga qo‘shma otlar (yoki qo‘shimchasiz qo‘shma otlar) deb ataladigan grammatik bog‘lanishlar orqali bog‘lanadi. Biroq turg‘un so‘z turkumlarida so‘z elementlari orasidagi sintaktik aloqa vaqt o‘tishi bilan deyarli o‘chiriladi yoki yo‘qoladi. Sintaktik bog‘lanish ba’zan sezilsada, ko‘pincha sezilmaydi. Bularning barchasidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, idioma tarkibidagi har bir so‘z ildizi tarixiy taraqqiyot jarayonida o‘zgarishlarga uchragan. O‘zbek va turk tillarida tuzilish jihatdan teng, semantik jihatdan farqli bo‘lgan iboralarni qiyoslash Ushbu bo‘limda biz lug‘aviy ma’nolardan tashqari idiomalarning kelib chiqishi haqida ham qo‘shimcha ma’lumotlar bermoqchimiz. Shuningdek, o‘zbek va turk tillarida elementlari ekvivalent, lekin ma’nolari har xil bo‘lgan ko‘plab idiomalar mavjud. O‘zbek tilida “bag‘ri butun” iborasi bor, bu farovonlik degan ma’noni anglatadi. Bu turkcha “burunni o‘stirish” iborasiga to‘g‘ri keladi. Biroq, ma’no jihatidan “burnini o‘stirmoq” iborasi “maqtanmoq, kibrli bo‘lmoq, kibrli bo‘lmoq” ma’nolarini bildiradi. – Oxirgi paytlarda burni o‘sgan, hech kimga salom ham bermaydi. Turkiy tilda “Mangdayi ochiq (peshonasi ochiq)” iborasi “aybsiz, aybsiz” degan ma’noni anglatadi. Boshi ochiq: 1) Hech kimga qaram emas, erkin. 2) Unashtirilmagan, qaynona-qaynotasi bo‘lmagan (qizlarga qarshi) va shuning uchun boshqasiga turmushga chiqishi mumkin bo‘lgan va ozod bo‘lganlar (beva qolgan yoki ajralgan ayollarga qarshi). Boshi ochiq ookat, boshi ochiq buyum. Ochiq uy-ro‘zg‘or buyumlari

Xulosa. Ikki tilning lug‘at tarkibida asrlar davomida qo‘llanib kelayotgan idiomalar orasida, ayniqsa, odam va hayvon a’zo nomlariga oid so‘zlarni o‘z ichiga olgan turg‘un so‘z turkumlarida ko‘plab tarkibiy va ma’no jihatidan teng iboralar mavjudligi kuzatildi: Ach ko‘z (Aç ko‘z): Ach ko‘z (Aç ko‘z): ach ko‘z, ochko‘z. Ayrim idiomalar tuzilishi jihatidan bir xil, ammo semantik jihatdan farqlanadi. O‘zbek tilida “Beti ochiq” “to‘siqsiz, uyalmasdan” degan ma’noni bildirsa, turk tilida “Yüzü ochiq” (ochiq yuz) “tabassum” ma’nosini uyg‘otadi. Ushbu idiomalarning shakli, uslubi va semantikasini o‘rganish uchun ham sinxron, ham diaxron bo‘lgan keyingi tadqiqotlar kerak. Bu ikki dialektning tarixiy jihatdan bir-biridan farq qilishi va alifbo va geografiyadagi farqlarga qaramay, ularning iboralaridagi tenglik va o‘xshashlik diqqatni tortadi. Tilning genetik kodiga singib ketgan bu o‘xshashlik va ekvivalentliklar orqali musiqa, san’at, mifologiya va ijtimoiy qadriyatlarning ta’sirini kuzatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. –Тошкент: Ўқитувчи, 1982.248-б.
2. Айдаров Ғ., Құрышжанов Ә., Томанов М. Көне түрк «жазба» ескерткштерінің тілі. –Алматы: Мектеп. 1971, - 272 б.
3. Кашкары Махмуд. Развитие древнетюркских языков (на казахском языке). – Алматы: Ана тілі. 1992,192 б.
4. Махмуд Қошғарий. Девону луғатит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.Муталлибов. I-III. –Тошкент: Фан. 1960-1963.
5. Турсунов У.,Ўринбоев Б., Алиев А.А. Ўзбек адабий тили тарихи. –Тошкент: Ўқитувчи, 1995.264-б.

Mavluda MAVLONOVA,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU fil.f.f.d.(PhD),dotsenti

TERMINLARINING SEMANTIK VA STRUKTUR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada axborot texnologiyalari terminlarining semantik va struktur xususiyatlari tilshunoslik hamda terminshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tahlil markaziga kompyuter, dasturiy ta'minot, tarmoq, ma'lumotlar bazasi, raqamli xavfsizlik va internet kommunikatsiyasiga oid atamalar olingan. Terminlarning ma'no jihatidan ixtisoslashuvi, umumiste'mol so'zlardan farqlanishi, ko'p ma'nolilik, metaforik ko'chish, kalkalash, transliteratsiya va ekvivalentlashuv jarayonlari ochib beriladi. Struktur tahlilda sodda terminlar, yasama terminlar, qo'shma terminlar, juft va birikmali terminlarning faol modeli ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: *axborot texnologiyalari, termin, terminologiya, semantik tahlil, struktur tahlil, IT atamalari, o'zlashma termin, kalka, transliteratsiya, birikmali termin, yasama termin, leksik tizim.*

Аннотация: в статье анализируются семантические и структурные особенности терминов информационных технологий с позиций языкознания и терминоведения. В центр исследования поставлены единицы, относящиеся к компьютерной технике, программному обеспечению, сетям, базам данных, цифровой безопасности и интернет-коммуникации. Раскрываются процессы семантической специализации терминов, их разграничение с общеупотребительной лексикой, явления многозначности, метафорического переноса, калькирования, транслитерации и эквивалентности.

Ключевые слова: *информационные технологии, термин, терминология, семантический анализ, структурный анализ, IT-термины, заимствованный термин, калька, транслитерация, составной термин, производный термин, лексическая система.*

Annotation: the article examines the semantic and structural features of information technology terms from the perspectives of linguistics and terminology studies. The analysis focuses on terms related to computer systems, software, networks, databases, digital security, and internet communication. Special attention is given to semantic specialization, the distinction between technical terms and common vocabulary, polysemy, metaphorical transfer, calquing, transliteration, and equivalence. The structural analysis covers simple, derived, compound, and multi-word terms.

Key words: *information technology, term, terminology, semantic analysis, structural analysis, IT terms.*

Kirish. Fan va texnika taraqqiyoti jadallashgan sari terminologik tizimlarning yangilanish sur'ati ham kuchaymoqda. Mazkur jarayon axborot texnologiyalari sohasida ayniqsa faol ko'rinadi, chunki yangi dasturiy mahsulot, tarmoq arxitekturasi, raqamli servis, xavfsizlik mexanizmi yoki sun'iy intellekt vositasi paydo bo'lishi bilan ular nomini ifodalovchi til birliklari ham muomalaga kiradi. Termin ana shunday sharoitda oddiy nomlash vositasi emas, balki maxsus bilimni ixcham, aniq va bir ma'noli shaklda uzatishga xizmat qiluvchi leksik birlik sifatida namoyon bo'ladi. O'zbek tilshunosligida terminologiya, terminlarning yasalishi va izohlanishiga oid alohida ilmiy an'ana mavjud bo'lib, terminning maxsus tushunchani ifodalashi, tizim ichida faoliyat ko'rsatishi va boshqa soha birliklaridan farqlanuvchi semantik aniqlikka ega bo'lishi qayd etiladi [1], [2], [3].

Adabiyotlar sharhi. Termin semantikasi masalasi terminshunoslikning markaziy bo'limlaridan biri sanaladi. Chunki terminning bosh vazifasi predmetni emas, tushunchani ifodalashdir. Oddiy so'z ko'pincha keng, hissiy, ko'chma yoki kontekstga bog'liq ma'no qatlamlariga ega bo'lsa, termin ma'lum bir fan yoki texnika doirasida aniq chegaralangan mazmun bilan ishlaydi. A. Hojiyevning izohli lug'atida ham termin ilmiy tushunchani nomlashga xizmat qiluvchi birlik sifatida talqin etiladi; terminologiya esa ana shu birliklarning tizimli yig'indisi sifatida qaraladi [1]. Superanskaya, Podolskaya va Vasilyeva terminologiyani nazariy jihatdan tahlil qilib, terminning tizimlilik, definitsiyaga tayanish va maxsus ma'no doirasida ishlash kabi belgilarini ajratadi [3]. Axborot texnologiyalari terminlari mazkur mezonlar nuqtayi nazaridan qaralganda, "server", "algoritm", "fayl", "interfeys", "protokol", "ma'lumotlar bazasi", "bulutli hisoblash" kabi birliklar umumtilga kirib borayotgan bo'lsa-da, ular maxsus kontekstdagina to'liq ilmiy mazmun kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil. Semantik tahlil, avvalo, terminning ixtisoslashuv darajasini ko'rsatadi. IT sohasidagi ko'plab birliklar aslida umumiste'moldagi so'zlarning toraygan yoki qayta ixtisoslashgan variantidir. Masalan, "tarmoq" so'zi

umumiy ma’noda bog‘langan tuzilma yoki yoyilgan shaklni anglatsa, axborot texnologiyalarida u kompyuterlar va qurilmalar o‘rtasidagi kommunikatsion tizimni bildiradi. “Oyna”, “sichqoncha”, “virus”, “bulut”, “xavfsizlik devori” kabi atamalar esa metaforik ko‘chish asosida shakllangan. Kostrubina va Prokopeva IT terminlarining semantik rivojida metaforalashuv, terminologik torayish hamda ma’lum tushuncha maydonida ixtisoslashuv muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi [4]. Demak, semantik jihatdan IT terminlari ikki yo‘nalishda harakat qiladi: bir tomondan, umumtil birliklari maxsuslashadi; ikkinchi tomondan, yangi texnologik obyekt va jarayonlarni nomlash zarurati sababli yangi o‘zlashma birliklar paydo bo‘ladi.

IT terminologiyasida ko‘p ma’nolilik va omonimiyaga yaqinlashuvchi holatlar ham uchraydi. “Port” atamasi tarmoq muhitida ma’lumot almashinuvi kanali ma’nosida qo‘llansa, apparat ta’minotida qurilma ulanish nuqtasini bildiradi. “Kalit” so‘zi kriptografiyada shifrlash kodi, dasturiy interfeysda esa kirish vositasi ma’nosida ishlatiladi. “Platforma” terminining ham apparat, dasturiy muhit va biznes-ekotizim ma’nolari farqlanadi. Terminologik tizim ichida bunday ma’no tarqalishi tasodifiy hodisa emas; u texnologik obyektlarning funksional yaqinligi bilan bog‘liq. Semantik aniqlik saqlanishi uchun definitsion tavsif, kontekst va soha ichidagi sistemaviy aloqalar hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi [3], [4]. Terminning ma’nosini faqat lug‘aviy izoh bilangina emas, balki u kirgan konseptual maydon bilan birgalikda anglash talab etiladi.

Natijalar. Axborot texnologiyalari terminlarining yana bir muhim semantik belgisi — ularning dinamikligidir. Ko‘plab atamalar qisqa vaqt ichida eskiradi, yangilanadi yoki ma’no kengayishiga uchraydi. “Veb”, “portal”, “chat”, “striming”, “token”, “bot”, “sun’iy intellekt” kabi birliklar dastlab tor funksional doirada ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik ommaviy kommunikatsiyada kengaya bordi. Natijada maxsus termin bilan ommaviy leksika oralig‘idagi chegara nisbatan yumshaydi. Biroq tor ilmiy muhitda terminning aniq definitsiyasi saqlanib qoladi. Kostrubina va Prokopeva bu jarayonni IT terminologiyasining faol yangilanishi, inglizcha manbalar bilan bevosita aloqadorligi va foydalanuvchi muhitining kengligi bilan izohlaydi [4]. O‘zbek tilida ham “fayl”, “skaner”, “printer”, “login”, “parol”, “platforma” kabi birliklar keng iste’molga kirgani holda, maxsus matnda ularning ma’no hajmi ancha aniq chegaralanadi.

Struktur tahlil terminning tashqi shakli, komponent tarkibi va yasalish modelini o‘rganadi. O‘zbek tilshunosligida terminlarning sodda, yasama, qo‘shma va birikmali shakllari ajratiladi; termin yasashda morfologik, sintaktik va semantik usullar muhim ekanligi ko‘rsatiladi [2]. IT terminologiyasida sodda terminlar qatoriga “kod”, “disk”, “fayl”, “link”, “modem”, “server” kabilar kiradi. Yasama terminlar orasida “raqamlashtirish”, “kodlash”, “dasturlash”, “saqlagich”, “himoyalash” singari birliklar faol. Qo‘shma yoki murakkab birliklar esa ko‘pincha o‘zlashma va milliy unsur qo‘shilishidan tuziladi: “veb-sayt”, “onlayn-do‘kon”, “media-markaz”, “kiberxavfsizlik”. Birikmali terminlar esa sohada eng sermahsul model sifatida ko‘zga tashlanadi: “ma’lumotlar bazasi”, “operatsion tizim”, “sun’iy intellekt”, “raqamli imzo”, “bulutli texnologiya”, “tarmoqlararo ekran”, “mashinali o‘qitish”. [2], [5].

Xulosa va munozara. Axborot texnologiyalari terminlarining semantik tahlili ularning maxsus tushunchani aniq ifodalash, ma’no jihatdan ixtisoslashish, ba’zan metaforik asosda shakllanish va ko‘p tilli almashinuv jarayonida yangi qatlamlar hosil qilish xususiyatiga ega ekanini ko‘rsatadi. IT terminologiyasi umumtil va maxsus til oralig‘ida faol harakat qiluvchi leksik qatlam sanaladi. Uning tarkibida umumiste’moldan maxsuslashgan birliklar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashgan terminlar, kalkalar va milliy muqobillar birgalikda yashaydi. Semantik aniqlik, definitsiyaga tayanuvchanlik va tizimlilik terminning bosh belgilari sifatida saqlanib qoladi.

Struktur tahlil esa IT terminologiyasida sodda va yasama birliklar bilan bir qatorda birikmali terminlar alohida ustunlik kasb etishini tasdiqlaydi. O‘zbek tilida ikki va uch komponentli modellar ko‘p uchrashi ma’no aniqligini kuchaytiradi, biroq terminning ixchamligi bilan bog‘liq masalani ham kun tartibiga olib chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ҳожиев А. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. — Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.168-bet.

2. Sharipova O‘., Yo‘ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006.92-bet.

3. Суперанская А. В., Подольская Н. В., Васильева Н. В. *Общая терминология: вопросы теории*. — 2-е изд., стер. — М.: УРСС, 2003. — 243 с.

4. Кострубина С. А., Прокопьева А. Е. Семантические особенности терминов в сфере информационных технологий (на материале английского и русского языков) // *Вестник Череповецкого государственного университета*. — 2024. — № 5(122). — С. 183–193.

Anadjan BALTAYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti
anadjanbaltaeva74@gmail.com

NUTQ O‘STIRISHDA BADIIY MATNLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya: ushbu maqolada rusiyzabon guruh talabalari uchun o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida uchraydigan muhim masalalar keng yoritilgan. Xususan, talabalarning o‘zbek tilidagi matnlarni to‘g‘ri o‘qish, mazmunini chuqur anglash, tahlil qilish va uni qayta hikoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, ularning yozma nutqini rivojlantirish ko‘nikmalarini hosil qilish yo‘llari ham ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *tasviriy san’at, musiqa, teatr, sahna, taqdimot, badiiy asarlar, rasmlar, internet.*

Annotation: this article explores key issues in teaching the Uzbek language to Russian-speaking students. In particular, special attention is given to developing students’ skills in accurate reading, deep comprehension, analysis, and retelling of texts in Uzbek. The article also addresses ways to improve students’ written communication skills professional contexts.

Key words: *fine arts, music, theater, stage, presentation, works of art, paintings, internet.*

Аннотация: в данной статье подробно освещаются важные вопросы, возникающие в процессе преподавания узбекского языка студентам русскоязычных групп. В частности, особое внимание уделяется формированию у студентов навыков правильного чтения текстов на узбекском языке, глубокого понимания их содержания, анализа и пересказа. Кроме того, рассматриваются пути развития письменной речи студентов, в том числе укрепления навыков написания сочинений и изложений официально-деловых документов.

Ключевые слова: *изобразительное искусство, музыка, театр, сцена, презентация, художественные произведения, картины, интернет*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida xorijiy tillarni o‘rganish bilan bir qatorda davlat tilini mukammal egallash ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, rusiyzabon guruh talabalari uchun o‘zbek tilini o‘rganish nafaqat kundalik muloqot vositasi, balki ularning kasbiy faoliyatida ham muhim o‘rin tutadi. Shu sababli, o‘zbek tilini o‘qitish jarayonida talabalarning til kompetensiyasini har tomonlama rivojlantirish, ularning og‘zaki va yozma nutqini boyitish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimida til o‘qitish metodikasi yangicha yondashuvlar asosida takomillashtirilmoqda. Xususan, talabalarning matn bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, o‘z fikrini aniq va ravon bayon eta olish malakasini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mutaxassislikka oid terminologiyani o‘zlashtirish va uni amaliy nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada rusiyzabon talabalarning o‘zbek tilini o‘rganish jarayonida uchraydigan muammolar, ularning so‘z boyligini oshirish, matnni tahlil qilish, qayta hikoya qilish hamda yozma nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari yoritiladi. Shuningdek, ta’lim jarayonida samarali metod va usullardan foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy asarning qimmati, avvalo, uning o‘quvchilar qalbiga ta’sir etish darajasi bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, til o‘rgatish jarayonida badiiy matnlardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xorijiy yoki ikkinchi til sifatida til o‘rganuvchilar, xususan, rusiyzabon talabalar ko‘pincha lug‘at boyligining yetarli emasligi sababli matnni to‘liq anglash, tahlil qilish va uni qayta bayon etishda qiyinchiliklarga duch keladilar[1]. Bu holat esa ularning yozma nutqida — insho, bayon va rasmiy hujjatlar tuzishda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, til o‘rgatishda leksik kompetensiyani rivojlantirish, ayniqsa, mutaxassislikka oid terminlarni o‘zlashtirish muhim omillardan biridir. Badiiy matnlar esa nafaqat umumiy so‘z boyligini oshirish, balki so‘zlarning kontekstual ma’nolarini anglash, ularning uslubiy xususiyatlarini farqlash imkonini ham beradi. Ayniqsa, kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan so‘zlar bilan bir qatorda, badiiy uslubga xos ifoda vositalari talabalarning nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot metodologiyasi zamonaviy pedagogik yondashuvlarga asoslanadi. Jumladan, interfaol metodlar, kommunikativ yondashuv, hamkorlikda o‘rganish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosiy vosita sifatida tanlandi. Dars jarayonida matnlar tanlashda ularning mazmuni, til xususiyatlari va talabalarning bilim darajasi inobatga olindi. Shuningdek, badiiy asarni o‘rganish bosqichma-bosqich tashkil etilib, har bir bosqich uchun aniq maqsad va vazifalar belgilandi.

Badiiy asarda aks etgan tarixiy davr, ijtimoiy muhit va qahramonlar faoliyatini tahlil qilishda qo‘shimcha manbalar, jumladan, hujjatli materiallardan foydalanish ham muhim metodik vosita sifatida qo‘llanildi[2]. Bu esa talabalarga matnni chuqurroq anglash, voqealarni davr nuqtayi nazaridan baholash va mustaqil fikr yuritish imkonini yaratadi. Natijada, bunday yondashuv talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki tahliliy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Badiiy asarning qimmati uning o‘quvchilar qalbini rom etish darajasi orqali aniqlanadi. Ma’lumki, rusiyzabon talabalar o‘zbek tilidagi matnlarni o‘qishda, tahlil qilish va mazmunini qayta hikoya qilishda, shuningdek, insho, bayonlar yozish va rasmiy ish qog‘ozlaridan foydalanishda so‘z boyliklarining kamligidan qiynalib qoladilar. Shu sababli, rusiyzabon talabalarning

mutaxassisligiga doir so‘zlar leksikasini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish, ayniqsa, soha atamalarining ma’nosini bilishlari va nutqda undan to‘g‘ri hamda o‘rinli foydalanish malakalarini takomillashtirishda badiiy matnlar mazmuniga singdirilgan mazmun va ma’nolar ham muhim ahamiyatga egadir.

Shuning uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘zbek tili darslarida tavsiya qilinadigan matnlarni o‘rgatishda innovatsion yondashuvni amalga oshirishga intildik. Talabalar badiiy matnlardagi iste’mol doirasi keng — ya’ni kundalik hayotda, muomala-munosabatda, nutqida tez-tez qo‘llaniladigan so‘zlar ma’nolarini ilg‘ashlari oson bo‘ladi. Aksincha, badiiy jilo berilgan — badiiy uslubda qo‘llaniladigan ko‘pgina so‘zlar ma’nolari ular uchun izoh talab qiladi[3] .

Badiiy asarni o‘rganishning har bir bosqichi o‘zining muayyan maqsadi va vazifalariga ega. Xuddi mana shu maqsad va vazifalar bilan bog‘liq holda materiallar tanlanadi va uni o‘zlashtirish jarayoni tashkil etiladi. Badiiy asarda ifodalangan tarixiy davrni o‘rganish, uning qahramonlari faoliyatini o‘sha davr nuqtai nazaridan tahlil qilgan holda baholash hujjatli materiallarni ko‘proq jalb etishni talab etadi.

Natijalar. Talabalar uchun tuzilgan “O‘zbek tili” fanining ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan har bir mavzuga xos matn tanlanadi, xususan, “Nutq uslublari”ni o‘qitish alohida rejalashtirilgan bo‘lib, badiiy uslubdagi matnlarni o‘rgatishda A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidan olingan parcha mazmuni orqali badiiy nutq uslubining boshqa nutq uslublaridan farqli va umumiylik jihatlari haqida ma’lumot berish mumkin.[4]. Ushbu roman matnini to‘liq o‘qib chiqish talabalarga bir necha dars oldin uyga mustaqil topshiriq sifatida beriladi.

Badiiy asarni o‘qish va tahlil qilish o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatishda eng ko‘p samara beradigan didaktik jarayondir. Bu jarayonda o‘quvchilar yozuvchining ijodiy laboratoriyasiga nazar tashlash, asar qismlarini badiiy o‘qish ustalari ijrosida tinglash imkoniyatiga ega bo‘lsalar, kutilgan samaradorlikka tezkorlik bilan erishishlari mumkin. Asarni musiqa sadolari ostida o‘qish uning ruhiyatiga yaqin bo‘lgan musiqani tanlashni taqozo qiladi.

Umuman olganda, qo‘llanilgan metod va vositalar talabalarning til kompetensiyasi, tahliliy fikrlashi hamda badiiy matnni chuqur anglash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirganligi bilan ahamiyatlidir.

Muhokama. O‘quvchilarni badiiy asar matnini stilistik tahlil qilishga o‘rgatish ularning tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur jarayonda o‘qituvchi oldindan ishlab chiqilgan reja asosida ish olib borishi samaradorlikni ta’minlaydi. O‘quvchilar bunday ish namunasi bilan tanishgach, matndan ajratib olingan stilistik birliklarni, xususan, asar qahramonlarini tavsiflovchi til vositalarini mustaqil aniqlashga kirishadilar. Bu esa dars jarayonida vaqtni tejash bilan birga, o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziqishni oshiradi. Shuningdek, Internet resurslaridan foydalanish o‘quvchilarning bilim olish jarayonini yanada faollashtiradi. Adabiyot nazariyasiga oid materiallar hamda asar qahramonlariga tavsif beruvchi ma’lumotlarni ochiq platformalarda joylashtirish orqali o‘quvchilar o‘qituvchilar va tengdoshlari bilan erkin munozaraga kirishish imkoniga ega bo‘ladilar[5]. Bunday muhokamalar ularning tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi, mustaqil fikr bildirish va o‘z nuqtai nazarini asoslash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish pedagogik texnologiyalarni metodik jihatdan puxta ishlab chiqishni talab etadi. Ayniqsa, o‘quvchilarni badiiy asar qahramonlariga tanqidiy baho berishga o‘rgatishda Internetdan foydalanish o‘ziga xos va istiqbolli vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq, bu jarayon tizimli va izchil tashkil etilgandagina yuqori natija beradi. Aks holda, texnologiyalardan foydalanish kutilgan samarani bermasligi mumkin.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, faqatgina o‘quvchining o‘zi zarur bilim va ma’lumotlarni o‘zlashtirishi mumkin. O‘qituvchi bilimlarni faqatgina o‘quvchilar qabul qilgandagina ularga taqdim etishi mumkin. Buning uchun o‘quvchilar muayyan faoliyatni amalga oshirishlari kerak. O‘quvchilar asar qahramonlariga tanqidiy baho berish jarayonida faol ishtirok etishlari uchun ularning o‘zlari faoliyatlarini mazkur jarayonga yo‘naltirishlari va nazorat qilishlari kerak. Shundagina o‘quvchilarni bilish faoliyatiga jalb etishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayoni ularning moyilligiga tayangan holda amalga oshiriladi. Shundagina mazkur jarayon o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish, mustaqil bilim olish, o‘z faoliyatini mustaqil tarzda tashkil etish imkoniyatini beradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, rusiyzabon guruh talabalari uchun o‘zbek tilini o‘qitish jarayoni izchil, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi. Til o‘rganish faqat grammatik qoidalarni egallash bilan cheklanib qolmay, balki talabalarning o‘qish, tinglash, yozish va gapirish kabi barcha nutq faoliyati turlarini kompleks rivojlantirishni taqozo etadi. Ayniqsa, matn ustida ishlash, uning mazmunini anglash, tahlil qilish va qayta hikoya qilish ko‘nikmalari talabalarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Shuningdek, yozma nutqni rivojlantirish, xususan, insho, bayon va rasmiy hujjatlar bilan ishlash malakalarini shakllantirish talabalarning savodxonligini oshiradi va ularni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydi. Bu jarayonda mutaxassislikka oid terminologiyani o‘rganish, soha leksikasini boyitish va uni nutqda to‘g‘ri qo‘llash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki kasbiy faoliyatda tilning aniq va to‘g‘ri qo‘llanilishi samarali muloqotning asosiy shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A.B. (2020). O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi. –Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 1–120.
2. Baltayeva A.T. (2021). O‘quvchilarni badiiy asar qahramonlarini tanqidiy baholashga o‘rgatish orqali kitobxonlik faolligini rivojlantirish. Pedagogika jurnali, 6-son, 54–57.
3. Rahimova D. S. (2022). Nutq madaniyati va uslubiyat. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 1–90-betlar.
4. Qodirov A. O. (2018). Badiiy asar tahlili va stilistika. –Toshkent: Fan va ma’rifat, 1–120.
5. Xolmatov R. A. (2020). Interfaol metodlar va ta’lim samaradorligi. –Toshkent: Innovatsiya nashriyoti, 1–100.

Sayora YOROVA,
PhD, Docent, Head of the Department of Languages,
Shahbaz ISRAR,
Student Samarkand State Medical University

DOES LATIN STILL MATTER? ARGUMENTS FOR AND AGAINST ITS ROLE IN MEDICINE

Annotation: this article critically assesses the arguments for and against the ongoing use of Latin in medical education and practice, evaluates its significance in modern healthcare, and proposes a balanced viewpoint on its future role.

Key words: *latin, arguments, medicine, education.*

Аннотация: в данной статье проводится критическая оценка аргументов «за» и «против» продолжения использования латинского языка в медицинском образовании и практике, анализируется его значение в современной системе здравоохранения, а также предлагается сбалансированная точка зрения на его дальнейшую роль.

Ключевые слова: *латинский язык, аргументы, медицина, образование.*

Annotatsiya: ushbu maqolada tibbiy ta’lim va amaliyotda lotin tilidan foydalanishni davom ettirishga oid “yoqlash” va “qarshi” fikrlar tanqidiy jihatdan baholanadi, uning zamonaviy sog‘liqni saqlash tizimidagi ahamiyati tahlil qilinadi hamda uning kelajakdagi o‘rniga oid muvozanatli yondashuv taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *lotin tili, argumentlar, tibbiyot, ta’lim.*

Introduction

Medicine is not only a scientific field but also a linguistic framework built upon centuries of amassed knowledge. Latin arose as the universal language of medicine during antiquity and the Renaissance, allowing scholars across regions to communicate coherently. Anatomical terms, pathological definitions, and pharmacological names were standardized through Latin, ensuring clarity and consistency. However, modern medicine functions in a vastly different environment—dominated by English, digital technologies, and accelerated clinical training. This transition has raised an important question: does Latin still hold significance in medicine, or has it become an obsolete academic tradition? Addressing this question necessitates a balanced assessment of both its lasting strengths and its perceived drawbacks.

Latin is its role in terminological precision. Latin terms are carefully formulated to describe anatomical location, structure, and function. For example, musculus flexor digitorum profundus precisely conveys both action and anatomical depth. Such specificity reduces ambiguity, particularly in complex anatomical and surgical contexts. Latin also offers universality. Because it is no longer a spoken language, its meanings remain stable across cultures and generations. A Latin anatomical term conveys the same concept in Europe, Asia, or the Americas, facilitating international collaboration, research, and education. This universality is especially valuable in global medicine, where shared understanding is essential for patient safety.

Another advantage is conceptual understanding. Knowledge of Latin roots enables students decode unfamiliar medical terms. Understanding that cardio- relates to the heart or hepato- to the liver enables learners to interpret new vocabulary logically rather than memorizing isolated facts. This linguistic framework improves long-term retention and clinical reasoning. Latin also plays a crucial role in standardized medical systems. International classifications such as Terminologia Anatomica depend on Latin to maintain consistency. In emerging fields like medical artificial intelligence and ontology-based databases, Latin offers semantic stability, allowing accurate data mapping and interpretation across systems.

Beyond terminology, Latin contributes to diagnostic reasoning by embedding descriptive logic within medical language. When a physician encounters the term subcostal retractions, the prefix sub- (under), root cost- (rib), and suffix -al (pertaining to) collectively convey location without requiring memorization of a separate phrase. This morphological transparency allows clinicians to deduce unfamiliar terms during patient assessment. For instance, intertriginous (from inter- between + terere to rub) immediately suggests a rash in skin folds. In high-pressure environments like emergency medicine, where pattern recognition is paramount, this linguistic scaffolding reduces cognitive load. Students trained to recognize Latin components develop what linguists call “derivational fluency”—the ability to generate meaning from known parts.

Despite its benefits, critics argue that Latin imposes an extra burden on already overloaded curricula. Medical education today must accommodate expanding scientific knowledge, clinical skills, ethics, communication training, and technological literacy. Extensive Latin instruction may compete with the time required for practical competencies. Another concern is limited clinical application. In everyday medical practice, clinicians primarily use English or local languages. Patients do not benefit directly from Latin terminology, and excessive focus on classical language may seem disconnected from real-world healthcare delivery. Accessibility is also an issue. Students from non-classical educational backgrounds may find Latin intimidating, potentially creating unnecessary barriers to learning. In an era focused on inclusivity and efficiency, this can be seen as counterproductive.

One frequently overlooked argument against abandoning Latin involves the phenomenon of semantic shift. Living languages like English evolve rapidly; words acquire colloquial meanings, regional variations, and professional jargon that drift over decades. For example, the English word depression now carries distinct meanings in psychiatry, geology, economics, and everyday conversation. In contrast, Latin terms remain static because no native speech community alters their usage. This stability is critical in legal-medical contexts such as autopsy reports, insurance claims, and international drug trials.

The debate over Latin in medicine is not a question of total retention or outright elimination. Both perspectives raise valid concerns. Latin's precision, stability, and educational value are undeniable, yet contemporary medicine demands efficiency and relevance. Rather than treating Latin as a standalone subject, it may be more effective to integrate it practically—focusing on essential terminology, roots, and clinical relevance. This approach retains its benefits while preventing unnecessary academic overload. In this way, Latin becomes a tool rather than a barrier. The future of Latin in medicine probably lies in selective preservation and strategic application. As digital medicine, artificial intelligence, and global data systems grow, the need for stable and unambiguous terminology will increase. Latin, with its fixed meanings and international neutrality, is well suited to underpin these developments.

Medical education can adapt by emphasizing Latin where it adds value—such as anatomy, pathology, and medical informatics—while eschewing excessive classical formalism. This balanced approach ensures continuity with medical tradition while aligning with current needs.

Conclusion

In the ongoing debate over Latin's place in modern medicine, the most reasonable position lies not in absolute rejection nor nostalgic restoration, but in thoughtful integration. As this article has shown, Latin offers undeniable advantages: terminological precision that reduces clinical ambiguity, a universal and historically stable vocabulary that transcends linguistic borders, and a rich etymological framework that enhances diagnostic reasoning and long-term retention. These assets remain highly relevant in an era of global healthcare collaboration, electronic health records, and artificial intelligence–driven medical ontologies, where semantic clarity directly impacts patient safety and research reproducibility. Conversely, the criticisms raised against mandatory, exhaustive Latin instruction are equally valid. Medical curricula are already overcrowded with biomedical sciences, clinical skills, ethics, and digital literacy. Requiring extensive Latin grammar or rote memorization of declensions would be an inefficient use of limited training time.

Therefore, the path forward is neither revival nor abandonment, but strategic integration. Medical education should teach Latin not as a classical language, but as a functional tool—focusing on high-yield roots, prefixes, suffixes, and clinically relevant terms embedded within anatomy, pathology, and pharmacology courses. Latin still matters—not as a relic, but as a silent scaffold upon which precise medical language rests.

REFERENCES:

1. Federative Committee on Anatomical Terminology Terminologia Anatomica: International Anatomical Terminology Thieme Medical Publishers https://www.thieme.com/books-main/medicine/product/2825-terminologia-anatomica

2. International Federation of Associations of Anatomists (IFAA) Official anatomical standards and nomenclature https://ifaa.net

3. National Library of Medicine (NLM) Medical terminology, language, and historical resources https://www.nlm.nih.gov

4. Wulff, H. R. The Language of Medicine Journal of the Royal Society of Medicine. https://journals.sagepub.com/home/jrs

Shukrulloxon SHERQO‘ZIYEV,
Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti
sherqoziyevshukrullo@gmail.com

XALQ MAQOLLARIDA TIRIKLIK VA HAYOT FALSAFASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalq maqollarida aks etgan hayot va tiriklik masalalari yoritiladi. Xalq maqollarida ifodalangan umr tushunchasi hamda hayot falsafasi atroflicha tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida mazkur tushunchalarni yanada chuqurroq ochib berish maqsadida ularning qarama-qarshi jihati bo‘lgan o‘lim tushunchasi ham tahlil doirasiga kiritiladi. Ushbu kichik tadqiqotni amalga oshirishda hozirgi kunda qo‘llanilayotgan maqollardan namunalar tanlab olindi va ularning izohi qiyosiy tahlil usuli asosida keltirildi. Shuningdek, jadvalda keltirilgan maqollarning falsafiy mazmuni va talqini ochib berildi.

Kalit so‘zlar: *hayot falsafasi, folklor, davriy chegara, falsafiy talqin, tiriklik sifati, xalq maqollari, hayot va tiriklik talqini, falsafa.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы жизни и существования, отражённые в узбекских народных пословицах. Подробно анализируются представления о жизненном пути и философии жизни, выраженные в народных пословицах. В процессе исследования, с целью более глубокого раскрытия данных понятий, в круг анализа также включается противоположное им понятие — смерть. В ходе данного небольшого исследования были отобраны примеры пословиц, используемых в настоящее время, а их толкование представлено на основе метода сравнительного анализа. Кроме того, раскрываются философское содержание и интерпретация пословиц, приведённых в таблице.

Ключевые слова: *философия жизни, фольклор, временная граница, философское толкование, качество жизни, народные пословицы, интерпретация жизни и существования, философия.*

Annotation: this article examines the issues of life and existence reflected in Uzbek folk proverbs. The concept of lifespan and the philosophy of life expressed in folk proverbs are analyzed in detail. In the course of the study, in order to reveal these concepts more deeply, the concept of death, which represents their opposite aspect, is also included in the scope of analysis. In conducting this small research, examples were selected from proverbs that are currently in use, and their interpretations were presented on the basis of a comparative analysis method. In addition, the philosophical meaning and interpretation of the proverbs presented in the table are explained.

Key words: *philosophy of life, folklore, temporal boundary, philosophical interpretation, quality of life, folk proverbs, interpretation of life and existence, philosophy.*

Har bir xalq folklorida bo‘lganidek, o‘zbek xalq og‘zaki ijodida ham elatning hayotga bo‘lgan munosabati va qarashlari o‘z ifodasini topadi. Bir necha ming yillardan beri shakllanib kelayotgan bu namunalarda xalqning yashash tarzi o‘zgarganligi hamda ijtimoiy rivojlanish natijasi folklor misollarida aks etib bordi. Insonlarning hayot va o‘limga bo‘lgan qarashlari, ular vositasida tugal, xulosali fikr bildirish, ba’zi frazeologik birliklarning mantig‘i aynan tiriklik va o‘lim ustiga qurilganligi diqqatimizni tadqiq va tahlil markaziga tortdi.

Ba’zi maqollarda hayot bir butunlik – umrni ifodalaydi, ayrimlarida esa hayot tiriklik mazmunida ishtirok etadi. Shu o‘rinda xalq maqollaridan bir nechta namunalarni tahlil qilib ko‘ramiz. **Dono naqli – hayot aqli.**[1] Ushbu maqolda hayot boshlanish va yakunga ega umr tushunchasini namoyon etmoqda. Naql xalq tomonidan yaratilgan hikmatli gap, maqol hisoblanadi. Inson hayotining aqlli tarzda kechishi, muammolarga topqirlik bilan yechim topishda xalqning o‘zi tomonidan topilgan hikmatomuz maqol va iboralari asqotadi. Bu maqolni yana ham aniqroq sharhlash uchun boshqa maqolga yuzlanamiz: “Yetti o‘lchab, bir kes” maqoli xulosa qilishdan avval chuqur o‘ylanishi kerak bo‘lgan vaziyatlarda ishlatiladi. Ya’ni dastlabki keltirilgan maqolda *“dono kishi aytadigan so‘zlaridan, gaplaridan hayotdagi muammolardan chiqib keta oladi, yechim topa oladi”*, degan mazmun ifodalanmoqda. Yana shu mazmunni o‘zida jamlagan boshqa maqolga murojaat qilamiz: **Oy nuri tunni yoritar, odam aqli – hayotni.** Bu maqolda ham hayot inson umrini ifodalab kelyapti. Maqol zaminida *“o‘z hayotini o‘zi “yoritishi” uchun inson aql bilan ish yuritishi kerak”*, degan mazmun yotadi. Shunday ekan har ikki maqolda ham hayot umr tushunchasini ifodalab kelyapti.

Bundan tashqari hayot tushunchasi xalq maqollarida tiriklik mazmunini ham namoyon etadi.[2] Masalan, **“Suvsiz hayot bo‘lmas, vafosiz – oila”.** Suv – bu tiriklik belgisi, yerdagi jamiki harakatdagi jon egalariga suv tiriklik uchun

1 O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005. (Barcha maqollar shu manbadan olingan)

2 Sherqo‘ziyev Sh. O‘zbek, arab va ingliz xalq maqollaridagi hayot va mamot masalalari. Til va adabiyot.uz elektron jurnal, 2024. (maqola)

xizmat qiladigan vositadir. Endilikda maqoldagi hayot bir butunlikni emas, ko‘proq tiriklik sifatini ko‘rsatib kelmoqda. **El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan.** Bu maqolda ham umr tushunchasidan ko‘ra tiriklik mazmuni ko‘proq anglashilyapti. Ayniqsa maqolning ikkinchi qismi (*“yer hayoti suv bilan”*) ushbu fikrni dalillamoqda.

Maqollar tahlil qilinganda yana shunisi ma’lum bo‘ldiki, hayot tushunchasidan tashqari tiriklik belgisi ham bu kategoriyaning muhim ifodasi bo‘lib keladi. Masalan, **“Tirik qulga mol bitar”.** Bu maqolda o‘limga zidlik mazmunidagi “yashab qolgan”, “o‘lmagan” ma’nosi akslanyapti. Hayot ham o‘limning zidi, tiriklik ham shunday: yashamoq mazmunini bildiradi. **“O‘lik arslondan tirik sichqon afzal”** aynan shu maqol bilan yuqoridagi qarashlar o‘zining dalilini topmoqda.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqadigan bo‘lsak, xalq maqollarida hayot va tiriklik tushunchalari ifodalaydigan mazmuniga ko‘ra ikki xil guruhga bo‘linadi. Biri o‘zida to‘laqonli tug‘ilish va o‘limni akslantiruvchi davr hisoblansa, ikkinchisi hali o‘lmagan, yashayotgan belgisini o‘zida mujassamlashtirgan tiriklik tushunchasidir. Hayot – “yashash, tiriklik” ma’nosini bildiradi. Maqollardagi ikki xil mazmun shu nuqtayi nazardan farqlanadi.

Shunisi anglashiladi-ki, hayot tushunchasining bir-biriga yaqin, lekin umumdavriy nuqtayi nazardan ikki xil mazmunni ifoda etishi tiriklik unsurining maqolga yuklatilgan vazifadan kelib chiqqan holda belgilanadi. Hayot va tiriklik tushunchalari “yashamoq, umr kechirmoq” mazmuni bilan bilan birlashsa, davriy chegara xususiyatiga ko‘ra alohidalik kasb etadi. Ya’ni hayot – butunlik (ibtido va intiho – boshlanish va yakun) hisoblanadi. Tiriklik tushunchasi bo‘lsa o‘lmagan, yashayotgan mantig‘ini ko‘rsatib keladi.

Maqollardagi hayot falsafasining qisqacha tahlil va izohi:

№	Maqollar	Izohi
	El hayoti yer bilan, yer hayoti suv bilan.	Yashash uchun keraklilik, tiriklikni ifodalash.
	Dono naqli – hayot aqli.	Aql bilan yashashlik
	Oy nuri tunni yoritar, odam aqli – hayotni.	Aql yuritishlik orqali umrni osonlashtirish
	Fozillar fazilati – hayot ziynati.	Ilmli, oqil kishilar hayotni ko‘rki ekanligi
	Suvsiz hayot bo‘lmas, vafosiz – oila.	Har ikki qismda hayot tushunchasi mavjud, birinchi qismda hayot uchun suvning muhimlilik belgisi yotsa, ikkinchisida oilaning yashab qolishligi vafo bilan ekanligi
	Tirikligida siylamasang, o‘lganida yig‘lama.	Har ishi vaqtida bajarishlik, ortga surilgan rejalardan foyda kelmaydi
	Tirik bo‘lib bozorda yo‘q. o‘lik bo‘lib – mozorda.	Epchillik va noshudlik
	Tirik ilon insiz qolmas, po‘lat pichoq – qinsiz.	Rizqqa bo‘lga ishonch
	O‘lik bo‘lib go‘rda yo‘q. tirik bo‘lib to‘rda yo‘q.	Hayotda o‘rni bo‘lishlik
	Inson sevgi bilan tirik.	Muhabbat bilan yashash
	Tirik qulga tinim yo‘q	Erk va ozodlik masalasi
	Tiriklik toshdan qattiq.	Hayot qiyinchiliklari
	O‘lik arslondan tirik sichqon afzal.	Quruq gapdan ko‘ra bo‘ladigan ishning afzalligi
	O‘lsang go‘ring keng bo‘lsin, tiriklikda – fe’ling.	Tiriklik va o‘lim uchun tavsiya

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek xalq maqollari. – T.: Sharq, 2005.
2. Имомов К., Мирзаев Т. ва бош. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.: Ўқитувчи, 1990.
3. Шомақсудов Ш., Шораҳмедов Ш. Ҳикматнома: Ўзбек мақолларининг изоҳли луғати. – Т.: Ўзбек совет энциклопедияси бош редакцияси, 1990.
4. Муродова М. Фольклор ва этнография. – Т., 2006.
5. http://www.ziyouz.com sayti.



ADABIYOTSHUNOSLIK

Parda ALIMOV,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti
kafedrasi professori

ZULFIYA SHE’RIYATIDA AYOL RUHIY OLAMINING PSIXOPOETIK TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada Zulfiya she’riyatida ayol ruhiy olamining psixopoetik talqini va hijron motivining badiiy ifodasi tahlil qilinadi. Shoira lirikasida ayol qalbining nozik kechinmalari, ichki iztiroblari, sevgi va sadoqatga asoslangan ruhiy holatlari chuqur poetik vositalar orqali yoritiladi. Tadqiqotda ayol ruhiyatining psixologik qatlamlari, hissiy-intellektual kechinmalar uyg‘unligi hamda ichki monolog va lirizm orqali ifodalanishi ilmiy asosda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Zulfiya, ayol ruhiyati, psixopoetika, hijron motivi, lirik kechinma, badiiy obraz, metafora, lirizm, ayol psixologiyasi, o‘zbek she’riyati.*

Аннотация: в данной статье анализируется психопоэтическая интерпретация внутреннего мира женщины и мотив разлуки в поэзии Zulfiya. В лирике поэтессы через художественные средства глубоко раскрываются тонкие переживания женской души, внутренние страдания, состояния, основанные на любви и верности. В исследовании научно обосновываются психологические слои женской психики, гармония эмоционально-интеллектуальных переживаний, а также их выражение через внутренний монолог и лиризм.

Ключевые слова: *Зульфия, женская психология, психопоэтика, мотив разлуки, лирическое переживание, художественный образ, метафора, лиризм, узбекская поэзия.*

Annotation: this article analyzes the psychopoetic interpretation of the female inner world and the motif of separation in the poetry of Zulfiya. In the poet’s lyrical works, delicate emotional experiences of a woman’s soul, inner suffering, and states based on love and devotion are deeply revealed through artistic means. The study examines the psychological layers of female consciousness, the harmony of emotional and intellectual experiences, and their expression through inner monologue and lyricism.

Key words: *Zulfiya, female psychology, psychopoetics, motif of separation, lyrical experience, artistic image, metaphor, lyricism, Uzbek poetry.*

Kirish. Zulfiya ijodi ehtirosli, jozibador, tayin hissiyotlarga boydir. Uning ijodida inson ruhiyatining chuqur botiniy ifodasi mavjud. Shoira o‘zi yonmasa, o‘zgani yondirolmaydi. Shoir ko‘ngil odami, she’r uning ijodiy mulki, uning qalb tug‘yoni, diliniig mudroq, bezovta to‘lqinlaridir. Zulfiya “o‘z xalqining taqdiri”ni uning “ruhiy tarixi” ila hamohang ijod qildi.

Shoira XX asr o‘zbek she’riyatining yirik vakillaridan biridir. U quyma misralari bilan hozirgi zamon o‘zbek sheьriyatida hijron, ayriliq, sevinch, shodlik mavzusini ohori to‘kilmagan satrlarda yaratdi. Shoira shaxsiy dard-tashvishlarini emas, tortinchoq, iboli, hayoli, ba’zan shikasta o‘zbek ayolining ruhiyatini qalamga oldi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Zulfiyaxonim she’riyati bo‘y-basti bilan mukammal she’riyatdir. Gulbadanbegim, Zarifa xonim, Halimaxonim Nosirova, Sora xonim Eshonto‘rayeva, Saodat xonim Qobulova kabi xalqimiz peshonasiga yozilgan yorug‘ yulduz ayollarimiz bilan qancha faxrlansak, Zulfiyaxonim bilan ham shunchalar faxrlanamiz.

Shoira ijodi haqida ko‘plab mashhur so‘z ustalari fikr bildirishgan. Shoira o‘z davri, o‘z mavzusi, o‘z qo‘shig‘i bilan birga tug‘iladi.

Zulfiya va uning poeziyasini ayollar dunyosidan ajratib bo‘lmaydi. To‘g‘ri, ayol qalbi — azaliy va abadiy mavzu. Lekin o‘zbek ayolining qalbini hali kashf etish kerak edi. She’riyat hamma vaqt yangilik, shu bilan birga, hamma vaqt merosxo‘r ham. Navoiy va Nodira, Nekrasov ulug‘lagan ona qalbi bizning davrimizda cheksiz-chegarasiz bir olamga aylandi. Zulfiya qirqinchi yillardayoq buni sezib yozgan edi: «Bir mavzuda cheklanib qolgim kelmaydi; lekin dugonalarim, tengdosh-zamondoshlarim hayoti, o‘zbek ayolining hozirgi qiyofasi o‘zining shoirona ifodasini talab etib, meni hamisha hayajonga soladi». Ha, bu mavzuda chegaralanib qolib bo‘lmaydi, chunki ona qalbi o‘zi chegarasiz. Butun tiriklik ko‘krak suti va mehnat bilan borliqqa kelgan. Insoniy hissiyot yo‘qki, ona qalbiga begona bo‘lsa! Endi esa unda faqat mehr-u hijron emas, jahon dardi, xalqlar taqdiri! Axir xalqimizning faxri bo‘lgan Zulfiyaning o‘zi ham, Vatanimizda birinchi

va yagona qahramon shoira Zulfiyaning o‘zi ham ayol qalbining mo‘jizasi emasmi! «Fusunkor so‘zga, insonni go‘zalliklar sari chorlovchi, dunyoni kashf etuvchi badiiy so‘zga bo‘lgan muhabbat cho‘g‘ini ilk bor qalbimga solgan – onam edi», — deydi shoira.

Muhokama. Zulfiya ijodida ayol qalbining eng nozik jilvasi, xilqatlari ufuradi. Zulfiyaning o‘zi-ayol go‘zallik va ezgulik ramzidir deb uqtiradi. Uning ijodida ayol tuyg‘ulari, ruhiy olami, iztirob ranglarining qamrovi keng va yaxlitdir. To‘g‘ri, shoira muhabbatning zavqli onlarini tota olmadi, turmush yo‘ldoshi H. Olimjonning bevaqt o‘limi unga hijronni hamroh etib qo‘ydi.

E*mish: Hayot menga ayol baxtidan,*
To‘liq kosasini ko‘rmabdi loyiq.
Lekin qalbim to‘kkan she’r shuhratidan
Baxtli ayol dermish meni xaloyiq...

Yurakdan qaynab chiqqan olovli misralar uchun uni xalqi ardoqladi, e’zozladi, qalb qo‘ridan joy berdi.

Ayol baxti!
Menday ayol baxtiga
Taqdir malikani ko‘rganmi loyiq?
Xalq mehrida, yorman el shuhratida
Baxtli ayol desa haqli xaloyiq...

Baxt omonat tushuncha, qarzga berilmaydi. Kimdir baxtni umrguzaronlik, yashash, hayotdan lazzat olish deb tushunsa, kimlardir bashariyat tinch-totuvligi, yorkin kelajak deya tasavvur qiladi. Aslida-chi? Ayol uchun esa oila osudaligi, ko‘ngil xotirjamligi, vafo rishtasi, ishqning ko‘rkamligi, muhabbatning chiroyi, yaqinlarning e’tibori, ayniqsa, farzandlarining iqboli – baxt va yana baxtdir.

Shoiraning dili g‘ururga to‘ladi, u hayajonlanadi, qalbini yuksak tuyg‘ular egallaydi, faxrlanadi:

Baxtim shulkim, o‘zbekning Zulfiyasiman:
Ikki ayol qo‘lini tutib,
O‘rtamizda borar do‘stimiz.
Ayollikni bo‘lmas unutib,
Erkaklarsiz yonmas o‘timiz.

Bu o‘rinda shoira chiroyli mushohada yuritadi: ayollikni unutib bo‘lmas, ayollik muqaddas burch va elning nomusidir. Bozorda qop ko‘tarib “yigitlik” qilayotgan, og‘zidan bodi-shodi chiqayotgan, yuzingizga tik qarab andishani unutgan, xorijda ishlab erini boqayotgan, sharqona iboni unutib, yevropacha kiyinayotgan ayollarga qarata shunday degim keladi: ayollikning nomusini, qadrini unutmang. Ayol musaffo gul: begona hidlasa, iforini yo‘qotadi. Lekin erkaklarsiz baribir kunimiz o‘tmas degan misra ularning qadriga yetishga bo‘lgan poetik da’vatdir.

Natijalar. Zulfiyaning «Iqrorga vaqt yetdi» she’ri chuqur mulohazaga sug‘orilgan falsafiy mohiyati bilan ijodida ajralib turuvchi asardir. Ha, umr o‘tkinchi, hayot esa davom etadi. Mashhur insonlar: Suqrot, Aflotun, Ahmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Oybek, Asqad Muxtor va boshqalar hayotining so‘nggida umr lahzalarini, hayotdagi xijolatli onlarini, iztirobli kechmishlarini baralla avlodlarga aytib, yaxshi nom qoldirishgan. Shoiraning «Iqrorga vaqt yetdi» she’ri umr sarguzashtining ham g‘amgin va masrur tahlilidir.

Ijod dengizimning ma’sud jo‘shqinin
Qo‘msab, dil bisotin ochayotirman.
Oldda bekatlarning uqib yo‘qligin
Notugal mashqlarim sochayotirman.

Ijod ulkan daryoga o‘xshaydi, daryoning mavjlari qirg‘oqqa uriladi. Qirg‘oqdagi mavjlardan hamisha iz qola bermaydi, ba’zilari esa qirg‘okda o‘z nomini qoldiradi.

Xulosa. Zulfiya ijodi o‘zbek she’riyatida ayol qalbining nozik kechinmalari, ruhiy iztiroblari va hijron motivining badiiy ifodasi bilan alohida ajralib turadi. Shoira lirik merosida ayol ruhiyatining ichki dramatizmi, sevgi va ayriliq kechinmalarining psixologik chuqurligi hamda hijronning turli ko‘rinishlari o‘ziga xos poetik vositalar orqali yoritiladi. Mazkur mavzu doirasida Zulfiya she’riyatida ayol ruhiyatining badiiy talqini, xususan, hissiy-intellektual kechinmalar, ichki monolog, ruhiy kolliziya va lirizm masalalari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shoira asarlarida hijron nafaqat sevgi ayriliği sifatida, balki insoniy qadriyatlar, sadoqat va sabr timsoli sifatida ham talqin qilinadi. Bu esa hijron motivining falsafiy-estetik mazmun kasb etishiga xizmat qiladi.Natijada, shoira ijodida ayol ruhiyati va hijron motivining o‘zaro bog‘liqligi, ularning poetik ifodadagi o‘rni hamda zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi ahamiyati ilmiy asosda ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zulfiya. Saylanma asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010.
2. Zulfiya. She’rlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2005.
3. Naim Karimov. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi**.** – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Ibrohim G‘afurov. Badiiy tafakkur va zamon**.** – Toshkent: Sharq, 2008.
5. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
6. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.

Lobar MARDONOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri,
f.f.f.d, dotsent
lobarmardonova40@gmail.com
lobarmardonova8086@gmail.com

XAYRIDDIN SULTONOV NASRIDA AYOL OBRAZINING REALISTIK-MILLIY POETIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada Xayriddin Sultonov nasrida ayol obrazining realistlik va milliy poetikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida adibning qahramon ayol obrazlari, ularning ruhiyati, xarakteri va jamiyatdagi o‘rni badiiy tafakkur asosida o‘rganiladi. Sultonov ijodida ayol ko‘pincha milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar kontekstida yoritiladi, shu bilan birga, ularning shaxsiy kechinmalari, ijtimoiy muhit va real hayot bilan uyg‘unligi realistik badiiy talqin orqali ifodalanadi.

Kalit so‘zlar: *ayol obraz, realistlik, milliy poetika, badiiy obraz, nasr, o‘zbek adabiyoti, ruhiy kechinma, ijtimoiy kontekst, milliy qadriyatlar.*

Аннотация: в данной статье анализируется реалистическая и национальная поэтика женского образа в прозе Xayriddin Sultonov. В исследовании рассматриваются женские персонажи писателя, их психология, характер и место в обществе с точки зрения художественного осмысления. В произведениях Султонова женщины изображаются в контексте национальных ценностей, традиций и обычаев, при этом их личные переживания и социальная среда гармонично отражаются через реалистическую художественную интерпретацию.

Ключевые слова: *женский образ, реализм, национальная поэтика, художественный образ, проза, узбекская литература, психологические переживания, социальный контекст, национальные ценности.*

Annotation: this article analyzes the realistic and national poetics of the female character in the prose of Xayriddin Sultonov. The study examines female characters, their psychology, personality, and social role through artistic interpretation. In Sultonov’s works, women are depicted within the context of national values, traditions, and customs, while their personal experiences and social environment are expressed through realistic literary techniques.

Key words: *female character, realism, national poetics, literary image, prose, Uzbek literature, psychological experience, social context, national values.*

Kirish (Введение / Introduction). Xayriddin Sultonov ijodida ayol obrazi milliy-ma’naviy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi sifatida namoyish etiladi. Yozuvchi o‘zbek ayolini o‘z milliy madaniyatidan, tarixiy an’analaridan, qadriyatlar tizimidan ajratib tasavvur qila olmaydigan mavjudot sifatida tasvirlaydi. Bu yondashuvda o‘zbek xalqining ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi, hayot tarzi, axloqiy mezonlari o‘z aksini topadi.

Milliy-ma’naviy qadriyatlar deganda ma’lum bir xalqning tarixiy shakllanib, avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan ma’naviy boyligi, axloqiy mezonlari, madaniy kodlari tushuniladi [111, 89-b]. O‘zbek milliy-ma’naviy qadriyatlari Islom dinining ta’siri ostida, Sharq madaniyatining an’analari asosida, o‘zbek xalqining o‘ziga xos tarixiy tajribasi natijasida vujudga kelgan.

Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods). Xayriddin Sultonov asarlaridagi ayol obrazlarini tahlil qilishda milliy mentalitet va axloqiy ideal masalasi markaziy o‘rin tutadi. Yozuvchi o‘z qahramonlarini yaratishda o‘zbek xalqining tarixiy shakllangan qadriyatlar tizimidan kelib chiqadi, milliy psixologiyaning chuqur qatlamlarini ochib beradi, axloqiy ideallarni timsollaydi.

O‘zbek milliy qadriyatlar tizimida quyidagilar muhim o‘rin tutadi:

Oila muqaddasligi. O‘zbek mentalitetida oila jamiyatning asosiy birligi, inson hayotining markazi hisoblanadi. Oila – bu nafaqat nikoh munosabatlari, balki avlodlar bog‘i, milliy madaniyatning uy-joy joyidir.

Onalik ulug‘ligi. O‘zbek xalqida ona eng muqaddas, eng yuksak mavqega ega shaxs. “Jannat onalar qadam tagida” hadisi islom ta’limotining asosiy qoidalaridan biri bo‘lib, o‘zbek mentalitetida chuqur ildiz otgan.

Katta-kichikka hurmat. Kattalarni hurmat qilish, ularga bo‘ysunish, ularning maslahatini tinglash o‘zbek tarbiyasining asosi.

Mehmonsevarlik. O‘zbek xalqi mehmonsevar xalq sifatida taniladi. Mehmonni izzat-ikrom bilan kutish, unga eng yaxshi taomlarni taqdim etish milliy an’anadir.

Hamjihatlik. Qo‘shni bilan yaxshi munosabatda bo‘lish, unga yordam berish, uning quvonchida quvonish va qayg‘usida qayg‘urish o‘zbek xususiyatidir.

Sabr-toqat. Hayotning qiyinchiliklariga sabr bilan dosh berish, shikoyat qilmaslik, umidsizlikka tushmaslik o‘zbek mentalitetining muhim jihati.

Mehr-shafqat. Boshqalarga nisbatan mehribon bo‘lish, ayniqsa zaiflar, kambag‘allar, bolalar va keksalarga shafqat ko‘rsatish.

Muhokama (Обсуждение / Discussion). Yozuvchi asarlarida ayol obrazi milliy-ma’naviy qadriyatlar asosida yaratilgan. O‘zbek mentalitetining asosiy xususiyatlari – onalikni ulug‘lash, xotinning oiladagi muhim ro‘li, qizning milliy tapbiyasi – Sultonov qahramonlarida to‘liq aks etgan.

Xayriddin Sultonov ayol obrazini yaratishda realistik metoddan foydalangan. U o‘z qahramonlarini hayotdan olib, ularni jonli, ishonchli, tipik tasvirlagan. Portret, nutq, dialog, peyzaj, muhit tasviri kabi badiiy vositalar Sultonov mahoratining dalilidir.

Yozuvchi asarlaridagi ayol obrazi muhim ijtimoiy-estetik funksiyaga ega. Ayol obrazi orqali yozuvchi oila muammolari, ayollarning ijtimoiy mavqeyi, milliy qadriyatlarni saqlash, axloqiy-ma’naviy masalalar kabi dolzarb muammolarni ko‘taradi. Asarlarda o‘zbek ayolining milliy-psixologik matritsasi to‘liq ochib berilgan: sabr-toqat, mehr-shafqat, fidoyilik, donolik, axloqiy poklik, sadoqat, g‘amxo‘rlik, kamtarlik, mehnatsevarlik kabi xususiyatlar Sultonov qahramonlarining asosiy sifatlaridir.

Milliy an’analar va zamonaviy o‘zgarishlar dialektikasi aks ettirilgan. Yozuvchi an’anaviy qadriyatlarni idealizatsiya qilmaydi, lekin ularni to‘liq inkor ham qilmaydi, balki milliy va zamonaviyning uyg‘unligini ko‘rsatadi. Ayol obrazi uch asosiy rolda – ona, xotin, qiz – namoyish etiladi va har bir rolning o‘ziga xos xususiyatlari, vazifalaro, mas’uliyatlari chuqur ochib beriladi. Ayol obrazlari o‘zbek axloqiy idealiga yaqin turadi: poklik, sadoqat, mehr-shafqat, sabr-toqat, kamtarlik, mehnatsevarlik, donolik – bu ideallarning barchasi Sultonov qahramonlarida namoyon bo‘lgan.

Natijalar (Результаты / Results). Xotin-qizlar obrazining ilk genezisi “Qur’oni karim”dagi Zulayho, Zaynab, Bilqis kabilar bilan boshlanganini yuqoridagi misollar orqali ko‘rdik. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi ayol obrazining ishlanishini tahlilga tortdik. Eron Ahamoniylari podshosi Kayxusravga qarshi kurashgan massaget qabilasining jasur malikasi Tumaris, mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi o‘g‘li Jaloliddin Manguberdi oldida so‘nggi nafasigacha yonida turgan Oychechak Xotun, ko‘pchilik temuriy shahzodalarni tarbiya qilgan tadbirkor malika Saroymulkxonim, Zahiriddin Muhamad Boburga barcha yurishlarida, eng og‘ir vaziyatlarda hamrohlik qilgan fidoyi ona Qutlug‘ Nigorxonim, Amir Umarxonning fozila ayoli, o‘g‘illariyu nevaralari bilan birga qatl etilgan Nodirai Davron, Marg‘ilonning ko‘plab shoira qizlariga ustozlik qilgan Jahon otin Uvaysiy, Oloy malikasi nomi bilan tanilgan, rus bosqinchilariga qarshi mardona kurash olib borgan, rus generallarini muzokaraga chaqira olgan Qurbonjon dodxoh kabi momolar qoni oqayotgan turkiy xalq hech qachon dushmanga bo‘yin egmagani, taslim bo‘lmagani, ayollar ham erkaklar qatori bir safda turib janglarda ishtirok etgani o‘zbek xotin-qizlarining mard va jasur ajdodlari borligi isbotidir.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, musulmon Sharqining yangi uyg‘onish davrida ayollarning ozodligi eng muhim masalalardan biri edi. Eng boshidanoq ayollar masalasi “Tarjimon” gazetasida yetakchilik qildi. 1887 va 1891-yillarda Gasprinskiy ayollar uchun davriy nashr ochishga urindi. Ammo bu urinishlar Peterburg amaldorlari tomonidan rad etildi va muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Gaspralining ayollar masalasiga doir qarashlari uning “Dor ur-Rohat musulmonlari” va “Xotunlar o‘lkasi” utopik romanlarida yaqqol ifodalangan. Birinchi asarida u ayolni barcha masalalarda erkak bilan tenglikda tasvirlaydi. U qozi ayol obrazini yaratadi, sudda uning roziligisiz oilaviy janjal yoki ayollar masalasi hal qilinmaydi va qonuniy kuchga ega bo‘lmaydi. Ikkinchi asarda Gasprinskiy ayol o‘rnida erkakni ko‘rsatadi, ya’ni muallif ularning ijtimoiy rolini almashtiradi. Bu mamlakatda erkak hijobda yuradi, bolalarni tarbiyalaydi, taom tayyorlaydi, kir yuvadi, ayol esa hamma narsada hukmronlik qiladi. Bu bilan u musulmon ayolning jamiyatdagi haqiqiy mavqeyini ko‘rsatishga uringan va bu masalani umummuhokamaga qo‘ygan.

Xulosa (Заключение / Conclusion). XX asr boshida Sharq va G‘arb xalqlarini, xususan, ijodkor va ziyoli ahlini bir-biriga bog‘lab turgan muhim vosita – matbuot ekani ma’lum. Bizgacha yetib kelgan asarlarning aksariyati matbuotda o‘z ifodasini topgan edi. Shunisi quvonarliki, bular orasida xotin-qizlar tashabbusi bilan yaratilgan jurnallar dunyo yuzini ko‘ra boshladi. Turkiy musulmon dunyosidagi ayollar uchun birinchi maxsus nashr “Olami nisvon” (“Ayollar dunyosi”) jurnalining mas’ul muharriri Gasprinskiyning qizi Shafiqa Gasprali bo‘lgan. Unda Islomda ayollar va erkaklarning tengligi, ilm-fan va ta’lim, nikoh va oila institutini isloh qilish kabi keng tarqalgan muammolar aks etgan. Bundan tashqari, jurnal o‘quvchilarni boshqa mamlakatlardagi ayollarning hayoti va kundalik hayoti bilan tanishtirdi.

Ayol obrazi adabiyot va san’atning eng yuksak, eng nozik mavzularidan biri sifatida insoniyat tafakkurining go‘zallik, mehr va ezgulik haqidagi qarashlarini mujassam etadi. Har bir davr, har bir ijodkor ayol siymosiga o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini, estetik idealini singdirgan. Shu bois ayol obrazi faqat go‘zallik timsoli emas, balki hayot mazmuni, ruhiy barkamollik, sadoqat, fidoyilik va mehr-oqibat ramzidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G‘ulomov A. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018.
2. Rasulov I. *Badiiy obraz tushunchasi va uning talqinlari.* – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2016.
3. Karimov N. Zamonaviy o‘zbek adabiy jarayoni. – Toshkent: Fan, 2015.
4. Qosimova D. *O‘zbek adabiyotida ayol obrazi evolyutsiyasi.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
5. Rahmonov S. *Adabiy obraz va badiiy tafakkur masalalari.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
6. To‘xliyeva M. *Ayol obrazining psixologik talqini o‘zbek nasrida.* // “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, №4, 2020.

Zebo SABIROVA,
O‘zMU, Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti
O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti v.b., (PhD),
mustaqil tadqiqotchi

LIRIKADA BADIIY PSIXOLOGIZMNING NAMOYON BO‘LISH SHAKLLARI
(Guljamol Asqarova ijodi misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada badiiy psixologizm tushunchasi lirik tur doirasida nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda psixologizm qahramon ruhiy dunyosining estetik talqini sifatida yoritilib, uning ichki monolog, ong oqimi, psixologik detal, ramziy ifoda va hissiy-intellektual sintez kabi shakllari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijasida shoira lirikasida psixologizm strukturaviy tamoyil sifatida namoyon bo‘lishi, ichki monolog yetakchi poetik vosita ekani va ramziy qatlam ruhiy chuqurlikni ta’minlashi asoslanadi. Maqola lirik matnda shaxsiy tajriba, milliy ong va estetik ifoda uyg‘unligini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: *badiiy psixologizm, lirika, ichki monolog, ong oqimi, dramatizm, milliy o‘zlik, metafora, ramz, poetik vosita, lirik qahramon, estetik talqin, ruhiy kechinma.*

Annotation: this article examines the concept of artistic psychologism within the framework of lyric poetry from both theoretical and practical perspectives. Psychologism is interpreted as an aesthetic representation of the character’s inner world, expressed through inner monologue, stream of consciousness, psychological detail, symbolic imagery, and emotional-intellectual synthesis. The research demonstrates that psychologism functions as a structural principle in the poet’s lyrics, where inner monologue serves as the dominant poetic device and symbolic imagery ensures psychological depth. The article reveals the interrelation between personal experience, national consciousness, and aesthetic expression in contemporary Uzbek lyric poetry.

Key words: *artistic psychologism, lyric poetry, inner monologue, stream of consciousness, dramatism, national identity, metaphor, symbolism, poetic device, lyrical subject, aesthetic interpretation, emotional experience.*

Аннотация: в статье рассматривается художественный психологизм в системе лирического рода с теоретической и практической точек зрения. Психологизм интерпретируется как эстетическое воплощение внутреннего мира героя, проявляющееся через внутренний монолог, поток сознания, психологическую деталь, символическую образность и эмоционально-интеллектуальный синтез. Доказывается, что психологизм выступает структурным принципом поэтики автора, внутренний монолог является ведущим художественным средством, а символика обеспечивает глубину психологического анализа. Исследование раскрывает единство личного опыта, национального сознания и эстетической выразительности в современной узбекской лирике.

Ключевые слова: *художественный психологизм, лирика, внутренний монолог, поток сознания, драматизм, национальная идентичность, метафора, символ, поэтическое средство, лирический герой, эстетическая интерпретация, эмоциональный опыт.*

Kirish. Badiiy psixologizm adabiyotshunoslikda qahramon ruhiy dunyosining estetik talqini sifatida qaraladi, inson ichki kechinmalarini, hissiy jarayonlarini, aql va tuyg‘u ziddiyatlarini badiiy vositalar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Badiiy psixologizm tashqi voqelikni emas, balki subyektiv idrok va ruhiy jarayonni markazga qo‘yadi. Ayniqsa, lirik turda psixologizm markaziy poetik tamoyil sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki lirika voqea emas, holatning, harakat emas, kechinmaning, syujet emas, ruhiy jarayonning san’atidir. Lirik asarda “men”ning ichki olami badiiy obyektga aylanadi. Shu ma’noda lirika psixologik tasvir uchun turlararo muhimi hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Gegelning [2:55] estetika konsepsiyasiga ko‘ra, san’at ruhning sezgir ifodasi sifatida talqin qilinadi. Lirik turda esa ichki subyektivlik markazga ko‘chadi. Shu jihatdan lirika inson ichki dunyosining badiiy namoyon shakli sifatida qaraladi. Demak, lirik asarda psixologizm tashqi bezak emas, balki strukturaviy asosdir. V.G. Belinskiy [3:12] lirika mohiyatini shaxsning ichki ruhiy hayoti bilan bog‘laydi. Uning ta’kidlashicha, poeziya shoirning ichki dunyosi, hissiyotlari va olamga shaxsiy munosabatining ifodasidir. Bu ta’rifga ko‘ra psixologizm lirik matnda ruhiy jarayon vositachisiz, bevosita namoyon bo‘ladi.

Psixologizm nazariyasi bilan shug‘ullangan tadqiqotchilardan biri M. Bahtin [4:113] bo‘lib, u badiiy matnda ichki nutq va ongning dialogik tabiati haqida fikr yuritib, subyekt ichida ham “ko‘p ovozlilik” mavjudligini ko‘rsatadi. Lirik asarda esa ko‘pincha tashqi dialog bo‘lmasada, ichki dialog mavjuddir. Lirik qahramon o‘z “men”i, xotira, tasavvur, ideal obraz bilan muloqot qiladi. Bu esa psixologizmni yanada noziklashtiradi.

Zamonaviy adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm quyidagi shakllarda namoyon bo‘lishi qayd etiladi:

1. Ichki monolog.
2. Ong oqimi.

3. Psixologik detal.
4. Ramziy ifoda.
5. Hissiy-intellektual sintez.

Lirikada, ayniqsa, ichki monolog yetakchi vosita hisoblanadi. Ichki monolog subyektning o‘z-o‘ziga qaratilgan nutqi bo‘lib, unda hissiylik yuqori bo‘ladi. Psixologik detal esa kichik predmet yoki harakat orqali katta ruhiy jarayonni ifodalaydi (masalan, sham – so‘nayotgan umid, kuz – ruhiy tushkunlik, yomg‘ir – ichki tozalanish kabi).

Tadqiqot metodologiyasi: maqolada qiyosiy-tahliliy, germenevtik, lingvistik metodologiyadan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar: o‘zbek adabiyotshunosligida ham psixologizm masalasi ko‘p bor tadqiq etilgan. Jumladan, Izzat Sulton [5:56] badiiy obrazning ichki dunyosini ochishda kechinma markaziy o‘rinda turishini ta’kidlaydi. Lirik turda esa lirik qahramonning ichki olami asarning asosiy mazmun qatlamidir. Shu jihatdan, lirika ichki dramatizmning eng yuqori shaklidir. Demak, bizningcha, lirika va badiiy psixologizm o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalardir. Agar epik asarda psixologizm voqealar orqali ochilsa, lirikada voqeaning o‘zi psixologik hodisaga aylanadi. Lirik matnda vaqt va makon qisqaradi, ammo ruhiy emotsionallik ortadi. Natijada, inson qalbining eng nozik qatlamlari poetik ifodaga ega bo‘ladi.

Istiqlol davri shoiralardan biri Guljamol Asqarova bugungi o‘zbek she’riyati maydonida o‘ziga xos estetik qarashlari, hech kimnikiga o‘xshamaydigan badiiy izlanishlari va teran falsafiy mushohadalari bilan ajralib turadi. Uning ijodida tashqi go‘zallikdan ko‘ra ichki ma’no ustuvor: obrazlar bezak uchun emas, balki ruhiy haqiqatni ochish vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois she’rlarida ohorli tashbih va ramziy qatlamlar hissiy rang-baranglik bilan uyg‘unlashadi.

Shoiraning lirik qahramoni ko‘pincha she’rxon uchun ruhiy izlanish, o‘z-o‘zini tahlil qilish holatida namoyon bo‘ladi. U borliqni shunchaki tasvirlamaydi, balki uni tafakkur va qalb prizmasidan o‘tkazadi. Ruhiy kechinmalar dinamik harakatda, hissiy-ruhiy taranglik bilan ifodalanadi; tuyg‘ular esa sokin lirizm bilan dramatik tushkunlik orasida muvozanat topadi.

Shoira ijodini zamonaviy o‘zbek lirikasida individual ovoz va ichki samimiyatning yorqin namunasi sifatida e’tirof etilishi mumkin. Uning she’rlari o‘quvchini nafaqat estetik zavqqa chorlaydi, balki o‘z “men”i bilan yuzma-yuz kelishga, ruhiy mushohada qilishga undaydi.

Guljamol Askarova “Turnalar yo‘li” to‘plamidan joy olgan “Baxtli qiz qo‘shig‘i” she’rida Vatan va ayollik identifikatsiyasi uyg‘unlashadi. She’rda lirik qahramon o‘zini “shu go‘zal yurtning baxtli qizi” sifatida ta’riflaydi:

Yursam to‘rt tarafim gulzor bo‘ladi,
Gullayman, har kunim bahor bo‘ladi.
So‘z aytsam, ashor-u alyor bo‘ladi
Men shu go‘zal yurtning baxtli qiziman [1:98].

O‘zining baxtli bo‘lishiga sabab shoira milliy o‘zlik va vatan bilan uyg‘unlikda deb biladi. Vatan ona timsolida, ayollik esa ma’naviy merosning davomchisi sifatida namoyon bo‘ladi. “Yashayman Zulfiya, Nodira bo‘lib” misrasida shoira ayol shoiralar an’anasi bilan o‘zini bog‘laydi.

Yashayman Nodira, Zulfiya bo‘lib,
Tonggi shabnamlardek bokira bo‘lib.
Baxt topdim olima, shoira bolib,
Men shu go‘zal yurtnig baxtli qiziman. (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 3-b.)

Tarixiy va madaniy xotira individual “men”ni kuchaytiradi va o‘quvchi-she’rxonda milliy ongni uyg‘otadi. Poetik vositalar sifatida takror (anafora) “Men shu go‘zal yurtning…” va metafora “Vatan boshni silaydi” kabi satrlarida ifodalanadi. Anafora lirik qahramonning hissiy holatini kuchaytiradi. She’r hissiyotli, milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi lirika sifatida ajralib turadi. Bu orqali lirik qahramonning shaxsiy va milliy identifikatsiyasi uyg‘unlashadi.

Shoiraning “Dunyoning ranggi” she’rida ishqning metafizik talqini ifodalanadi. She’r ishqni oddiy hissiy holat emas, balki samoviy mo‘jiza va ilohiy nur sifatida ko‘rsatadi.

Qo‘l berdim, yulduzlar qo‘limni o‘pdi,
Poyingni o‘pay deb keldi daryolar.
Sizni topganimni hayqirib aytsam,
Jilmayib qo‘ydilar dunyolar...
Mehr bu Tangrining ehsoni, nuri!
Olam bor, Xudo bor, bor ekan shu nur.
Toza yuragingiz uchun ming rahmat,
Mehribon qalbingiz uchun tashakkur. (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 6-b.)

Lirik qahramon ruhiy izlanishda: “Ming yil do‘st izlagan telba darvishdek” misrasi tasavvufiy ohangni kuchaytiradi. “Mehr bu Tangrining ehsoni, nuri!” misrasi ishqni ilohiylashtiradi va uni inson hayotidagi botiniy kuchga aylantiradi. She’rning poetik xususiyatlari sifatida keng makon obrazlarida (tog‘, yulduz, daryo), o‘zlikni izlash, ichki dramatizm ustunlik qiladi. She’rda ishq inson ruhini o‘zgartiruvchi va tarbiyalovchi kuch sifatida markaziy mavqe kasb etadi. Lirik qahramonning ichki monologi uning ruhiy o‘sishini ko‘rsatadi. Tasvirlar va metaforalar lirikaning boyligini oshiradi.

“Ishqsizlik” she’rida ishq insonning ma’naviy zarurati sifatida talqin qilinadi:

Jonim, yalinaman men bilan qoling,
Ketmang, uzoqlashmang hatto bir qadam.
Biling, har narsadan emas aslida,
O‘lsa – ishqsizlikdan o‘ladi odam. (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 13-b.)

“O‘lsa – ishqsizlikdan o‘ladi odam”. Bu misra ishqning biologik emas, balki ruhiy zarurat ekanligini ko‘rsatadi. Ichki psixologik qatlam sifatida pushaymon, qaramlik hissi, yo‘qotishdan qo‘rquv, ruhiy yolg‘izlik markazga chiqadi. Lirik qahramon ichki dramatizm orqali hissiyotlarni ochib beradi. She’rda monologik ohang ustun bo‘lib, o‘quvchi bilan bevosita psixologik muloqot o‘rnatadi. She’r falsafiy ohangga ega va insonning ma’naviy ehtiyojlarini yoritadi. Satrlardagi ritm va ichki dramatizm she’rni kuchaytiradi. Shu bilan birga, hissiy kechinmalar psixologizm asosida chuqur tahlil qilinadi.

Shoiraning yana boshqa bir she’rida “Oz sevasiz” munosabatdagi notenglik ifodasi kuchlilik qiladi. She’rda bir tomon kuchli sevib, ikkinchi tomon muhabbatni yuzaki his qiladi.

Fasllar o‘tadi, bahorlar yitar,
Umringizda bo‘ron, xazon, sevasiz.
Turnalar bir so‘zni jim yozib o‘tar:
Buncha
oz sevasiz,
yomon
sevasiz! (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 24-b.)

Shoira Marina Tsvetayevaning “Buncha oz sevasiz, yomon sevasiz!” misrasini epigraf sifatida keltirilgan. She’rda takror usuli ichki konfliktni oshiradi: “Buncha oz sevasiz, yomon sevasiz!” Lirik qahramon ayol qalbining talabchanligini, sevgiga bo‘lgan da’vosini ochib beradi. She’rda ichki monolog ustun bo‘lib, psixologizm kuchli ifodalanadi. Hissiy kontrast she’r dramatizmini oshiradi.

Ketgan hislar to‘lqinlardek qaytadi,
Qalbingizda ma’yus armon, sevasiz.
Bir kun ketsam, ruhim kelib aytadi:
Buncha
oz sevasiz,
yomon
sevasiz! (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 25-b.)

Bu she’r satrlari o‘quvchida hamdardlik va hissiy hamohanglik uyg‘otadi. Munosabatdagi notenglik qadriyat va hissiyotlar uyg‘unligini tahlil qiladi.

“Ayol qo‘shig‘i” she’rida onalik falsafasi ustunligini ko‘rish mumkin. She’r kulminatsion nuqtasida shoiralik va onalik o‘rtasidagi qarama-qarshilikni ko‘rsatadi:

Onalikning humori kelib,
Yelkam uzra tushganida yuk,
Angladimki – ayol zotining
She’ri bo‘lmas alladan buyuk. (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 29-b.)

“Angladimki – ayol zotining / She’ri bo‘lmas alladan buyuk”, bu satrlarda shoiralik onalik oldida chekinadi, ayolning oliy vazifasi hayot davomiyligi bilan bog‘lanadi. She’r qadriyatlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi va ayolning ichki dunyosini yoritadi. Ichki monolog va metaforalar hissiy teranlik yaratadi. Poetik vositalardan takror va ritmik intonatsiya dramatik ta’sirni oshiradi. Ayol obrazidagi psixologik dramatizm markaziy o‘rinda turadi.

Shoiraning “Turnalar yo‘li” to‘plamidan joy olgan “Qaytaman” sarlavhali yana bir she’ri turfa ramziy yakunga egaligi bilan ahamiyatli. To‘plam nomi bilan bog‘liq ramziy obraz turna obrazida sog‘inch, qaytish va umid timsoli sifatida gavdalanadi.

Uzr, agar ranjitgan bo‘lsam,
G‘amlar menga aytdilar o‘lan.
Xazonlar-la ketsam ham, lekin
Men qaytaman turnalar bilan. (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 30-b.)

“Men qaytaman turnalar bilan” misrasi ruhiy qaytish, poklanish va umid tiklashini bildiradi. Turna obrazi Sharq she’riyatida sadoqat va hijron ramzi sifatida qo‘llaniladi.

Xayr endi, uzr, ko‘p qoldim,
Ko‘p yashadim g‘am ketmay dildan,
Kelgan edim qizg‘aldoqlar-la,
Qaytadurman turnalar bilan... (G. Asqarova, “Turnalari yo‘li, 30-b.)

She’r umidbaxsh va ramziy lirika bo‘lib, inson ruhiy holatini milliy va madaniy kontekstda ochib beradi. Ichki monologlar va metaforalar orqali lirik qahramon psixologik olami tasvirlanadi. Lirik qahramonning hissiy dunyosi o‘quvchiga badiiy yetkaziladi.

Shoira she’rlaridan, masalan, “Baxtli qiz qo‘shig‘i”, “Dunyoning rangi”, “Ishqsizlik”, “Oz sevasiz”, “Ayol qo‘shig‘i” va “Qaytaman”kabi she’rlari lirik qahramonning ichki dunyosini ochishda badiiy psixologizmning markaziy rolini ko‘rsatadi. Har bir she’r shaxsiy hissiyot va kechinmalarini tafsilotlari bilan yoritadi, ichki monolog va dialog orqali o‘quvchiga psixologik kayfiyat yetkazadi.

Bu shaklda lirika shaxsning ruhiy jarayonlari, ichki dramatizmi va hissiy kontrastlarini badiiy vositalar orqali aks ettiradi. “Baxtli qiz qo‘shig‘i” milliy o‘zlik va vatan bilan uyg‘unlikni, “Dunyoning rangi” ishqning metafizik va ilohiy qirralarini, “Ishqsizlik” esa ruhiy-tushkun og‘riqni ifodalaydi. “Oz sevasiz” va “Ayol qo‘shig‘i” she’rlarida badiiy psixologizm qahramonning ichki dramatizmi va hissiy nozikligini, “Qaytaman” esa ruhiy qaytish va umidni ramziy tarzda ochib beradi.

Xulosa. Badiiy psixologizm orqali lirika shaxsiy tajriba va tarixiy-madaniy kontekstni uyg‘unlashtiradi, lirik qahramonning hissiyotlari va fikrlari orqali o‘quvchiga milliy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlarni yetkazadi. Poetik vositalar bo‘lgan takror, metafora, ramzlar, badiiy detal va ichki monologlar psixologik teranlikni kuchaytiradi. Shu sababli, shoira lirikasida badiiy psixologizm ichki dunyo va tashqi voqelikni uyg‘unlashtiruvchi vosita, lirikaning esa psixologik emotsionallik va estetik kuch manbai sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijada, to‘plamga jamlangan she’rlarda psixologizm va badiiy obrazning uyg‘unligi shaxsiy tajriba, milliy o‘zlik va ruhiy kechinmalarning badiiy ifodasi orqali mukammal tarzda amalga oshadi, bu esa o‘quvchi va shoir o‘rtasida estetik va psixologik muloqotni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқарова Г. Турналар йўли. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2010.32-б.
2. Ҳегел Г.В.Ф.. *Лекции по эстетике*. – Москва: Искусство, 1968. Том 1, с. 52-55.
3. Белинскй В.Г. *Полное собрание сочинений*. Т.: 5. – Москва: Издательство АН СССР, 1954. с. 7-12
4. Bakhtin M.M. Speech Genres and Other Late Essays. – Austin: University of Texas Press, 1986. pp. 110-113.
5. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005 (қайта нашр). –Б. 52-56.

Shirin SADIKOVA,
TDSHU, Turkshunoslik oliy maktabi dotsenti

XATTI BOBURIY: TURKIY TILLAR YOZUV TIZIMIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya: Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) tomonidan yaratilgan “Xatti Boburiy” – o‘rta asr turkiy tillar yozuv tizimini takomillashtirishga qaratilgan noyob ilmiy ish bo‘lib, arab alifbosini turkiy til tovushlariga moslashtirishni taklif etadi. Ushbu maqola “Xatti Boburiy”ning tarixiy, lingvistik va ta’limiy ahamiyatini o‘rganadi, uning yaratilish jarayoni, xususiyatlari, qo‘llanilishi va zamonaviy talqinlarini tahlil qiladi.

Kalit so‘zlar: *xatti Boburiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, turkiy yozuv tizimi, arab alifbosi moslashtirish, lingvistik takomillashtirish.*

Аннотация: «Хатти Бобурий» («Бобурское письмо»), созданное Захириддином Мухаммадом Бобуром (1483–1530), представляет собой уникальный научный труд, направленный на совершенствование системы письма средневековых тюркских языков и предлагающий адаптацию арабского алфавита к звукам тюркского языка. Настоящая статья исследует историческое, лингвистическое и педагогическое значение «Хатти Бобурий», анализирует процесс его создания, особенности, применение и современные интерпретации.

Ключевые слова: *хатти Бобурий, Захириддин Мухаммад Бобур, тюркская система письма, адаптация арабского алфавита, лингвистическое совершенствование.*

Annotation: “Khatti Boburiy” (Babur’s Script), created by Zahiriddin Muhammad Babur (1483–1530), is a unique scholarly work aimed at improving the writing system of medieval Turkic languages by proposing an adaptation of the Arabic alphabet to the sounds of the Turkic language. This article examines the historical, linguistic, and educational significance of “Khatti Boburiy,” analyzing its creation process, characteristics, application, and modern interpretations.

Key words: *Khatti Boburiy, Zahiriddin Muhammad Babur, Turkic writing system, adaptation of the Arabic alphabet, linguistic improvement.*

Kirish. Zahiriddin Muhammad Bobur – nafaqat buyuk sarkarda va shoh, balki shoir, tarixchi va tilshunos olim sifatida ham tanilgan. Uning “Boburnoma” asari jahon adabiyotida noyob avtobiografik yodgorlik bo‘lsa, “Xatti Boburiy” esa til va yozuv nazariyasiga oid muhim hissadir. Bu risola 1504-yilda (ba’zi manbalarda 1503-yil) Kobulda yozilgan bo‘lib, arab alifbosini turkiy tillarga (xususan, chig‘atoycha o‘zbek tiliga) moslashtirishni maqsad qilgan. Bobur o‘z asarida yozuvni osonlashtirish va turkiy tovushlarni aniq ifodalash uchun yangi harf shakllarini taklif etgan. Ushbu maqola “Xatti Boburiy”ning ilmiy nomini “Turkiy yozuv tizimining Boburiy varianti: Lingvistik va tarbiyaviy jihatlari” deb belgilab, uning batafsil tahlilini taqdim etadi. Maqsad – Bobur merosining zamonaviy ta’limdagi o‘rnini ko‘rsatish. Turkiy xalqlar yozuv madaniyati asrlar davomida murakkab taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan. Bu jarayonda yozuvning fonetik mosligi, grafemalar tizimining ixchamligi va ifoda qulayligi doimo muhim masala bo‘lib kelgan. XV–XVI asrlar chorrahasida yashab ijod qilgan Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat yirik davlat arbobi va shoir, balki yozuv masalalariga jiddiy e’tibor qaratgan ma’rifatparvar sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Bobur tomonidan taklif etilgan **“Xatti Boburiy”** yozuv shakli turkiy til fonetik tizimini arab yozuvi asosida aniqroq ifodalashga qaratilgan tajriba sifatida baholanadi. Bu tashabbus turkiy yozuv tizimini mukammallashtirish, talaffuz va imlo o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish hamda ilmiy-adabiy merosni aniqroq qayd etish maqsadida amalga oshirilgan.

Mazkur maqolaning maqsadi — Xatti Boburiyning yuzaga kelish omillari, uning grafematik xususiyatlari, turkiy tillar yozuv tizimini takomillashtirishdagi o‘rni hamda ilmiy-tarbiyaviy ahamiyatini tahlil qilishdir.

Asosiy qism. “Xatti Boburiy”ning yaratilish jarayoni Boburning hayotiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq. Bobur yoshligida Andijonda ta’lim olgan, arab, fors va turkiy tillarni yaxshi bilgan. Temuriylar sulolasi vorisi sifatida u Movarounnahr taxti uchun kurashgan va 1504-yilda Afg‘onistonga ko‘chib o‘tganida, yangi yozuv tizimini ishlab chiqqan. Bu risola kichik hajmli bo‘lib, unda arab alifbosining 29 ta harfini turkiy tovushlarga moslashtirish taklif etilgan. Masalan, turkiy tilning o‘ziga xos undoshlari (ch, sh, ng) uchun nuqtalar va belgilar kamaytirilgan yoki o‘zgartirilgan.

Risolaning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

1. Soddalashtirish: Klassik arab alifbosida ko‘p nuqta va diakritik belgilar bo‘lsa, Bobur ularni minimallashtirgan. Bu yozuvni o‘qish va yozishni

osonlashtirgan, chunki turkiy tillarda arabcha tovush farqlari kamroq.

2. Turkiy tovushlarga moslik: harflar shakli o‘zgartirilgan, masalan, “o‘” va “u” unlilari uchun maxsus shakllar kiritilgan. Bobur bu xat bilan o‘z she’rlarini yozgan va hatto Qur‘oni Karimni ko‘chirgan (“Mus’hafi Boburiy”).

3. Amaliy qo‘llanilishi: Hindistonga ko‘chib o‘tgach, Bobur bu xatni o‘g‘li Humoyunga, Xoja Kalonga va boshqalarga jo‘natgan xatlarda ishlatgan. Bu yozuv temuriylar saroyida qisman tarqalgan, ammo keng ommalashmagan.

4. Boshqa asarlar bilan bog‘liqligi: “Xatti Boburiy” Boburning boshqa ilmiy ishlariga (masalan, “Aruz risolasi” – she’riyat vaznlari haqida, “Mubayyin” – islom huquqi haqida) o‘xshash bo‘lib, uning olimligini ko‘rsatadi.

Tarixiy kontekstda “Xatti Boburiy” o‘rta asr Sharqida yozuv islohotlariga misol bo‘ladi. Bobur o‘zi yaratgan alifbo haqida she’rida shunday yozgan:

“Turklar xatti nasibing bo‘lmasa, Bobur, ne tong,

Xatti Boburiy emasdur, xatti sig‘noqi durur” deb yozgan, bu uning yozuv tizimiga ishonchini bildiradi. Bu alifboning yaratilishi Boburning vataniga bo‘lgan muhabbati va madaniy merosni saqlash istagini bildiradi.

Zamonaviy talqinda “Xatti Boburiy” tilshunoslikda muhim: u turkiy tillar uchun arab yozuvini moslashtirishning dastlabki urinishlaridan biri.

O‘rganilganlik darajasi. “Xatti Boburiy” o‘rganilganlik darajasi yuqori, ammo to‘liq emas. O‘zbekiston Fanlar akademiyasida qo‘lyozmalar saqlangan, xorijiy tarjimalar (inglizcha – Annette Beveridge, ruscha) mavjud[1]. Zamonaviy tadqiqotlarda (2017-yildagi “Bobur ensiklopediyasi”, 2023-yilgi konferensiyalar) bu alifbo tilga olingan. O‘rganilgan adabiyotlar: Boburnoma, Mubayyin, Aruz risolasi; zamonaviy ishlar – “Bobur studies” (Oriental Studies), PDF maqolalar (IJTSRD, ResearchGate). O‘rganilmagan jihatlar: to‘liq harf shakllari va qo‘lyozmalarining batafsil taqqoslanishi.

Tahlil va natijalar. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida turkiy matnlar asosan, arab yozuvi asosida bitilar edi. Biroq arab grafikasi turkiy tillarning fonetik xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmasdi. Masalan:

- Qisqa va cho‘ziq unlilar o‘rtasidagi farq doimo aniq ko‘rsatilmasdi.
- “o”, “u”, “o‘”, “ü” tovushlari bir xil grafemalar bilan ifodalanishi mumkin edi.
- Ba’zi undoshlar (q/k, g‘/g) talaffuzda farqlansada, yozuvda chalkashlik yuzaga kelardi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Xatti Boburiy quyidagi yo‘nalishlarda takomillashtirishni ko‘zlagan[2]:

a) Unli tovushlarni aniqlashtirish

Turkiy tillarda unli tovushlar tizimi boy bo‘lib, u ma’no farqlashda muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

- *ol* (fe’l) – *o‘l* (buyruq shakli)
- *kul* (fe’l) – *ko‘l* (ot)

Arab yozuvida bu farqlar ko‘pincha kontekstdan kelib chiqib anglashilgan. Bobur esa unlilarni aniqlashtirish orqali semantik noaniqlikni kamaytirishga intilgan.

b) Fonetik moslik tamoyili

Bobur yozuvni talaffuzga yaqinlashtirish tarafdori bo‘lgan. Bu esa fonetik prinsipni kuchaytirish degani edi.

Masalan, turkiy tilga xos “g‘” va “q” tovushlarini aniq ajratish, forsiy talaffuz ta’sirini kamaytirish yozuvni milliy fonetik tizimga moslashtirishga xizmat qilgan.

c) Milliy til mustaqilligini ta’minlash

Xatti Boburiy faqat texnik o‘zgarish emas, balki madaniy-ideologik ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Bu yozuv orqali turkiy tilning mustaqil fonetik va grafematik tizimga egaligi namoyon etilgan[3].

Tovush (Fonem)	Boburning belgilash usuli (Xatti Boburiy)	Arab yozuvi (an’anaviy)	Misol so‘zlar	Izoh
o / o‘	o‘ / o	waw + sukun	ko‘l (hovuz) – kol	Cho‘zilgan unlini aniq ifodalash
u	u	waw + damma	kul (fe’l) – kul	Unli tovushning talaffuzini aniqlashtirish
ü	ü	ishlatilmagan	küy (qo‘shiq)	Arab yozuvida yo‘q, turkiy talaffuzni ifodalaydi
g‘	g‘	qaf bilan chalkash	g‘isht – qish	Fonetik farqni saqlash
q	q	qaf	qish – kish	Talaffuzga mos yozuv
ch	ch	jim + shadda	choy – joy	Turkiy talaffuz uchun yangi kombinatsiya
sh	sh	shin	shahar – sahar	Arab yozuvida sh tovushi bor, ammo talaffuzni aniq ko‘rsatish uchun maxsus belgi
ng	ng	kaf + nun	chang – chag	Turkiy tilga xos nasal tovush

Tovush (Fonem)	Boburning belgilash usuli (Xatti Boburiy)	Arab yozuvi (an'anaviy)	Misol so'zlar	Izoh
yo / yo'	yo / yo'	ya + waw	yong'oq – yonoq	Unli kombinatsiyalarni talaffuzga moslashtirish
a	a	alif + fatha	at – ad	Qisqa unlini aniq ko'rsatadi
e	e	kasra	er – el	Arab yozuvida ba'zida aniqlik yo'q, Bobur uni belgiladi

Xatti Boburiy quyidagi ilmiy jihatlar bilan ahamiyatlidir:

1. **Grafematika tarixida tajriba sifatida** – bu turkiy yozuv tizimini isloh qilishga qaratilgan ilk ongli harakatlardan biridir.
2. **Fonologik tafakkur namunasi sifatida** – Boburning tovush va harf o'rtasidagi munosabatni anglab, uni tizimlashtirishga uringani ko'rinadi.
3. **Matnshunoslik uchun manba** – Bobur davri qo'lyozmalarini o'rganishda imlo xususiyatlari til tarixini aniqlashda muhim dalil bo'lib xizmat qiladi.

Xatti Boburiy nafaqat lingvistik tajriba, balki ma'naviy merosdir. U quyidagi jihatlarda tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

- Tilga hurmat ruhini shakllantiradi.
- Milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi.
- Ilmiy izlanish va yangilikka intilish namunasidir.

Bobur shaxsiyati — ijodkorlik va mas'uliyat uyg'unligining timsolidir. U davlat boshqaruvi bilan bir qatorda til, adabiyot va yozuv masalasiga ham e'tibor qaratgan. Bu esa bugungi yoshlar uchun ilmiy tafakkur va fidoyilik namunasidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning Xatti Boburiy tajribasi turkiy yozuv tizimini takomillashtirish yo'lidagi muhim qadamlardan biri bo'lib, uning ilmiy va tarbiyaviy qiymati bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Xulosa. "Xatti Boburiy" – Bobur merosining muhim qismi bo'lib, turkiy yozuv tizimini takomillashtirishda noyob hissa. U ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega, milliy g'ururni oshiradi. Zamonaviy jamiyatda bu risola tilshunoslik va madaniyatshunoslikda o'rganilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://worldlyjournals.com/index.php/IJSR/article/download/3286/4949/9251
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Zahiriddin Muhammad Bobur adabiy merosining jahon adabiyotida tutgan o'rni va ahamiyati. Samarqand davlat universiteti to'plami, 2024. 401-b.
3. Zahiriddin Muhammad Bobur. Asarlar. Uch jildlik. I jild. Devon. – Toshkent: Badiiy adabiyot, 1965. 300-b.
4. Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o'rni.Samarqand davlat universiteti ilmiy to'plami,2024.452-b.
5. Bobur, Zahiriddin Muhammad. Boburnoma. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2008. 512 - b.
6. Zahiriddin Muhammad Bobur. Muxtasar. – Toshkent: Fan, 1971.120-b.
7. Begmatova D.N. Zahiriddin Muhammad Boburning "Xatti Boburiy" hamda "Boburnoma" asarlarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati. CyberLeninka,202X. 6 b. (228–233-betlar).

Lutfulla XOLIYAROV,
Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasi mudiri, f.f.n., dotsent O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti



ALOIS HOTSHNIG NASRIDA INSON RUHIYATINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: mazkur maqolada avstriyalik yozuvchi Hotshnig ijodining zamonaviy nemis tilidagi adabiyotdagi o‘rni hamda uning badiiy uslubi boshqa yirik yozuvchilar an’analari bilan bog‘liqligi ham tahlil qilinadi. Yozuvchining “Ludvigning xonasi”, “O‘ziga xos baxt”, “Ertalab, tushda, kechqurun” kabi asarlarida realistik tasvir bilan psixologik tahlilning uyg‘unlashuvi o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *Alois Hotshnig, avstriya adabiyoti, psixologik realizm, ekzistensializm, aybdorlik motivi, begonalashuv, zamonaviy nemis adabiyoti, qisqa hikoya, badiiy uslub.*

Аннотация: в данной статье анализируется место творчества австрийского писателя Alois Hotshnig в современной немецкоязычной литературе, а также рассматривается связь его художественного стиля с традициями других крупных писателей. В исследовании изучается сочетание реалистического изображения и психологического анализа в произведениях писателя, таких как «Комната Людвига», «Своеобразное счастье», «Утром, днём, вечером».

Ключевые слова: Алоис Хотшниг, австрийская литература, психологический реализм, экзистенциальная тревога, чувство вины, отчуждение, современная немецкоязычная литература, короткий рассказ, художественный стиль.

Annotation: this article analyzes the place of the Austrian writer Alois Hotshnig in contemporary German-language literature and examines the connection of his artistic style with the traditions of other prominent writers. The study explores the combination of realistic depiction and psychological analysis in the author’s works such as *Ludwig’s Room*, *A Kind of Happiness*, and *Morning, Noon, Evening*.

Key words: *Alois Hotshnig, Austrian literature, psychological realism, existential anxiety, guilt motif, alienation, contemporary German-language literature, short story, literary style.*

Alois Hotshnig 1959-yil 3-oktyabrda Karintiya viloyatidagi Berg/Drautal qishlog‘ida tug‘ilgan. U Innsbruk universitetida tibbiyot, nemis va ingliz filologiya yo‘nalishlarida tahsil olgan. Hotshnig roman, hikoyalar muallifi hamda dramaturg sifatida tanilgan. 1989-yilda uning *“Tamom”* (*“Aus”*) nomli hikoyasi chop etilib, mazkur asar uchun u Karintiya federal yerining yirik mukofotiga sazovor bo‘lgan. 1990-yilda uning *“O‘ziga xos baxt”* (*“Eine Art Glück”*) hikoyasi e’lon qilingan. 1992-yilda Klagenfurtda bo‘lib o‘tgan Ingeborg-Bachmann nomidagi adabiy tanlov doirasida Alois Hotshnig yana Karintiya federal yerining navbatdagi mukofoti bilan taqdirlangan. U bir qator nufuzli adabiy mukofotlar sohibi bo‘lib, 1989-yildan buyon mustaqil ijodkor sifatida faoliyat yuritadi va hozirda Innsbruk (Tirol) shahrida istiqomat qiladi.[1]

Hotshnig yozgan asarlar o‘quvchidan o‘ta sinchkovlik va muayyan ma’noda to‘liq “ichki ishtirok”ni talab qiladi; uning tiliga xos dinamika o‘quvchini tabiiy ravishda matn oqimiga tortadi. 1999-yilda u Robert-Musil stipendiyasiga sazovor bo‘lgan; undan bir necha yil avval esa, *“Leonardoning qo‘llari”* (*“Leonardos Hände”*) romani uchun Anna-Seghers mukofoti hamda Karintiya federal yerining adabiy mukofotini qo‘lga kiritgan. Muallif adabiyotning mohiyatiga ancha tanqidiy qarashni bildirib: *“Yangi narsa yo‘q va aytilishi mumkin bo‘lgan yangi gap ham yo‘q”,* deya ta’kidlaydi. Shunga qaramay, u har safar

1 http://www.tour-literatur.de/Autoren_texte/hotschnig.htm

qadimiy va tanish mavzularni o‘ta shaxsiy, individual badiiy uslubda qayta talqin etishga muvaffaq bo‘ladi. Ushbu muvaffaqiyatning asosi Hotshnigning o‘z ijodiy yo‘liga sodiqligi hamda o‘ziga xos izchil lisoniy olam yaratish jarayonidir. Dastlab bu jarayon, monologik matnlar yaratish orqali kechgan bo‘lsa, keyingi bosqichda Hotshnig voqealar rivojini ko‘plab insonlar jam bo‘ladigan ijtimoiy makonlarga ko‘chiradi. Buning natijasida matnda turli nuqtayi nazarlar paydo bo‘ladi va ko‘pchilikka daxldor bo‘lgan umuminsoniy masalalarni badiiy jihatdan yoritish imkoniyati paydo bo‘ladi. Hotshnig murakkab va xilma-xil fe’l-atvorlarga shunchalik chuqur kirib boradiki, natijada asarlar o‘ziga xos “tirik” va “jonli” mazmun kasb etadi. Xususan, *“O‘ziga xos baxt”* asarining matni o‘quvchini o‘ziga tortish (empatiya) san’atining yorqin namunasi sifatida talqin etiladi: Hotshnig dastlab o‘zaro bog‘liq bo‘lmagandek tuyulgan unsurlarni bir butun kompozitsiyaga birlashtiradi va o‘quvchini idrok doirasini kengaytirishga undaydi. U jamiyatda ildiz otgan, inson erkinligini cheklovchi, biroq deyarli hech kim ochiq qarshi chiqishga jur’at etmaydigan ijtimoiy qoliplarni tasvirlaydi. Buni u kundalik nutqda kam uchraydigan dadil va yangicha lisoniy imkoniyatlar orqali amalga oshiradi; Hotshnigning *“Provinsializm insonning tafakkurida yuzaga keladi”,* degan qarashi ham aynan shu kontekstda namoyon bo‘ladi. Asarlarida asosiy e’tibor ko‘pincha lanj, “uyg‘onmagan” oddiy inson obraziga qaratiladi.

Bunday inson xastalik va ichki qo‘rquv holatida yashaydi hamda o‘zini butunlay taqdir ixtiyoriga topshirilgandek his qiladi. Hotshnig voqelikdan eng mayda detallarni ongli ravishda tanlab, ularni tahlil qiladi, shu bilan birga atrof-muhit omillarini ham doimo diqqat markazida tutadi. Shu ma’noda u insonlarning “kasallik belgilari”ni kuzatuvchi shifokorni eslatadi: ijtimoiy ojizlik va ko‘pincha samarasiz munosabatlar qorong‘i, ammo nihoyatda aniq badiiy ifoda bilan ochib beriladi. Biroq Hotshnigning o‘zi ta’kidlaganidek: *“Mening nazarimda, bu matnlar zulmatga olib borishi kerak emas.”* Darhaqiqat, uning tilidagi yuksak estetik go‘zallik mazkur zulmatga qarshi muvozanatlanuvchi qutb sifatida xizmat qiladi.[2]

Yozish jarayoni Hotshnig uchun ruhiy yuksalish va pasayishlar, qo‘rquv hamda chidashni talab etadigan jadal jarayondir. Mavzu bilan doimiy ichki bahs, o‘zini tinimsiz so‘roq qilish, ko‘plab tahrir va qayta ishlashlar bularning barchasi matn “to‘g‘ri” holatga kelgunicha davom etadi. Hikoyalar Hotshnigni osongina tark etmaydi; aksincha, uning hayot yo‘lini belgilab, ko‘pincha uni tasodifiydek ko‘ringan badiiy vaziyatlarga olib kiradi. Shu bois asar yakunlangach, qahramonlar Hotshnig ongida yana bir muddat yashab qolishi va o‘ziga xos “motam bosqichi” yuzaga kelishi tabiiy holatdir. *“Bir kitobni yo‘q qilish unga munosib bo‘lishdan osonroq”,* degan fikr ham aynan Hotshnigning ijodiy mas’uliyati hamda estetik talabchanligini ifodalaydi. Hotshnig faqat sukunat va ichki jamlanish orqali yaraladigan, tarkiban mukammal san’at asarini taqdim etgani bois, o‘quvchi yoki tinglovchidan ham to‘liq e’tibor va intellektual kuch talab qiladi; aynan shu xususiyati bilan u auditoriyani o‘ziga rom etadi. Hotshnigning ko‘plab nufuzli mukofotlari va keng omma ishtirokidagi adabiy mutolaa kechalari buni tasdiqlaydi. Hotshnig odamlar bilan muloqotni yoqtiradi, ularni kuzatadi, lisoniy va xulq-atvorga xos detallarni qayd etadi hamda xotirasida saqlab boradi.[3]

“Ludvigning xonasi” (*“Ludwigs Zimmer”*) romani yo‘qlik haqidagi asardir. Unda dunyodan chekinish, g‘oyib bo‘lish istagi va o‘zini yashirish motivlari markaziy o‘rin tutadi. Roman dunyoda mavjud bo‘lish, biroq unda haqiqiy ishtirok etmaslik, balki boshqalar namoyish etayotgan ijtimoiy tomoshaga kuzatuvchi bo‘lib qolish holatini badiiy tadqiq qiladi. Hotshnigning ushbu ikkinchi romani chuqur bezovtalik, aniqrog‘i, ana shu tuyg‘uni bosqichma-bosqich anglash va og‘riqdan asta-sekin xalos bo‘lish jarayoni haqidadir.

“Ludvigning xonasi” nihoyatda puxta va badiiy ixcham yozilgan roman sifatida ta’riflanadi. O‘lim va aybdorlik motivlari Hotshnig ijodining markaziy mavzulari sanaladi. Franz Kafka, Thomas Bernhard, Ingeborg Bachmann va Marlen Haushofer an’analari bilan mavzu hamda uslub jihatidan bog‘lanadigan ushbu badiiylik qat’iy va izchil yo‘sinda shakllangan. Hotshnig uslubining eng ta’sirli jihati shundaki, u “tashqi haqiqat” doirasidan chiqmaydi. Undagi fantastik elementlar reallikdan tashqarida emas, balki hikoyachining aniqlikka intilishida lirik “lupa” va sekinlashtirilgan tasvir orqali idrokni chuqurlashtirish

2 Berger, S. Psychologische Poetik in der Gegenwartsliteratur: Alois Hotschnig im Kontext der österreichischen Prosa. – Wien: Böhlau Verlag, 2016.

3 Fessmann, Meike: Suche nach einer Heimat, die es nie gab. In Alois Hotschnigs zweitem Roman „Ludwigs Zimmer“ erbt der Protagonist Kurt Weber ein Haus mit schwerer Hypothek. München: Süddeutsche Zeitung 23 Dez. 2000, Beil. S. IV.

jarayonida namoyon bo‘ladi. Eng kuchli matnlar aynan shu nozik chegarani buzmaydigan asarlardir: sof kuzatuv bilan ichki ruhiy siljish tutashgan nuqtada yuksak badiiy taranglik yuzaga keladi. Til ham bu jarayonga to‘liq muvofiq: u nihoyatda aniq, biroq sovuq emas; hech qachon sun’iy bezakdorlikka og‘maydi va faqat hikoya mohiyatiga xizmat qiladi.[4]

“Bu bolalarni tinchlantirmadi” (*“Die Kinder beruhigte das nicht”*) asari asosan, qisqa nasriy parchalar proza miniatyuralari to‘plamidir. Ular ko‘pincha kutilmaganda boshlanadi va kutilmaganda uzilib qoladi hamda odatda, tashqi tomondan unchalik muhim bo‘lmagan kundalik voqeliklarni tasvirlaydi. Bu matnlarni Angliya-Amerika adabiyotidagi “short story” an’analari bilan qiyoslash mumkin.[5] Biroq Hotshnig realizmga tayangan hikoyatlashning odatiy majburiyatlarini buzadigan kutilmagan element va burilishlarni qo‘shadi. Masalan, bir hikoyada oila yillar davomida tashrifini oldindan xabar qiladigan, biroq Godot singari hech qachon kelmaydigan sirli qarindoshni kutadi; boshqa bir hikoyada esa birinchi shaxs hikoyachisi keksa ayolning qo‘g‘irchoqlar to‘plami ichidan g‘alati tarzda o‘zini tanib qoladigan qo‘g‘irchoqni topadi[6]

Alois Hotshnig nasri inson ruhiyatining eng nozik va yashirin qatlamlarini sinchiklab o‘rganuvchi psixologik tahlil namunasidir. Uning asarlaridagi “og‘ishgan haqiqiylik” va “vahimali sukunat” motivlari o‘quvchini tashqi olamning beozor pardasi ortidagi ekzistensial xavfni his qilishga undaydi.[7] Hotshnig lisoniy tejamkorlik va yuksak estetik mahorat orqali insonning o‘tmish oldidagi mas’uliyati hamda aybdorlik hissi kabi murakkab mavzularni zamonaviy adabiyotning markaziy nuqtasiga olib chiqdi.

4 http://www.uibk.ac.at/brenner-archiv/literatur/tirol/rez_06/wimmer_diekind.html

5 Schütte, Uwe: Die verrückten Kinder. Neue Erzählungen von Alois Hotschnig. – Wien: Wiener Zeitung 18 März 2006, Beil. Extra, S. 9.

6 Jandl, Paul: Misstraue der Idylle. Alois Hotschnigs glasklare Prosa „Die Kinder beruhigte das nicht“. Zürich: Neue Zürcher Zeitung, Internationale Zeitung 19 Apr. 2006, S. 27.

7 Lhotzky, Martin: Das Regiment der Puppen. Drift ins Irreale: Erzählungen des Österreichers Alois Hotschnig. Frankfurt/M: Frankfurter Allgemeine Zeitung 27 Feb. 2006, S. 38.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Berger, S. Psychologische Poetik in der Gegenwartsliteratur: Alois Hotschnig im Kontext der österreichischen Prosa. – Wien: Böhlau Verlag, 2016.

2. Brandner, L. Das Motiv der Schuld und Erinnerung in Alois Hotschnigs Romanen. – *Modern Austrian Literature Journal*, 2021.

3. Kholiyarov Lutfulla. Functional Semantic Features of euphemisms in German and Uzbek Languages. Academicia. An International Multidisipinary Research Journal. 2021.

4. Kholiyarov Lutfulla Tashkuvatovich. Preservation of meaning and polysemy in translation linguistics: machine translation and communicative approaches. galaxy international interdisciplinary research journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915 Vol. 13, Issue 10 October (2025)

5. Pichler, R. Narrative Wahrnehmung und Beobachtung in den Erzählungen Alois Hotschnigs. – Salzburg Universität, 2015.

6. Hofmann, T. Isolation und Beobachtung: Figurenkonzepte bei Alois Hotschnig. – *Zeitschrift für Germanistik*, 2018.

7. Schütte, Uwe: Die verrückten Kinder. Neue Erzählungen von Alois Hotschnig. Wien: Wiener Zeitung 18 März 2006, Beil. Extra, S. 9.

8. Xoliyarov Lutfulla Tashkuvatovich. Tarjimada matn turining funksional o‘rni:badiiy va ilmiy-texnik yondashuvlarning qiyosiy o‘rganilishi. “Tarjimashunoslik va tilshunoslikning dolzarb muammolari: zamonaviy tendensiyalar va yondashuvlar” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. – Toshkent, 2025, 30– 35-betlar.

Sh.Sh. NIZOMOVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyot kafedrasi dotsenti,
f.f.f.d (PhD)
Gullola IKROMOVA,
1-bosqich magistranti

OMON MATJON IJODIDA MUMTOZ JANRLARI IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Omon Matjon she'riyati haqida fikr bildirar ekan, uning ijodi ikki daryodan suv ichishini va u daryolarning biri xalq og'zaki ijodi daryosi bo'lsa, ikkinchisi o'zbek klassik (mumtoz) adabiyoti daryosi ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bu so'zlarni aytganda olim haq edi. Xususan, shoir klassik adabiyotning lirik turga mansub bo'lgan g'azal, muxammas singari janrlarida samarali ijod qildi. Shuningdek, shoir ijodiga mansub mumtoz she'r namunalari tahliliga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: *xalq og'zaki ijodi, proza, poeziya, g'azal, muxammas, shakl, mazmun*

Аннотация: в этой статье, выражая своё мнение о поэзии Амона Матжона, он подчёркивает, что его творчество пьёт воду из двух рек: одной – реки народной устной литературы, а другой – реки узбекской классической литературы. Учёный был прав, когда говорил это. В частности, поэт эффективно работал в таких жанрах классической литературы, как газель и мухаммас, которые относятся к лирическому типу. Также особое внимание уделяется анализу примеров классической поэзии, относящихся к творчеству поэта.

Ключевые слова: устный фольклор, проза, поэзия, газель, мухаммас, форма, содержание

Annotation: in this article, expressing his opinion on the poetry of Omon Matjon, he emphasizes that his work drinks water from two rivers, one of which is the river of folk oral literature, and the other is the river of Uzbek classical (classical) literature. The scientist was right when he said these words. In particular, the poet worked effectively in such genres of classical literature as ghazal and muhammas, which belong to the lyrical type. Also, special attention is paid to the analysis of examples of classical poetry belonging to the poet's work.

Key words: *oral folklore, prose, poetry, ghazal, muhammas, form, content*

Omon Matjon serqirra ijodkor bo'lib, uning ijodida janrlar juda rang-barang. U ham epik, ham lirik, ham dramatik turning janrlarida birday ijod qila oladigan ijodkorlar sirasidandir. U ham proza, ham poeziyada birday qalam tebrata oladigan, o'zbek adabiyotida o'z o'rni va o'z so'ziga ega bo'lgan ijodkor edi. Omon Matjon ijodining manbalari va omillari xilma-xil. Otaxon adabiyotshunosimiz Ozod Sharafiddinov televideniyega bergan intervyusida Omon Matjon she'riyati haqida fikr bildirar ekan, uning ijodi ikki daryodan suv ichishini va u daryolarning biri xalq og'zaki ijodi daryosi bo'lsa, ikkinchishi o'zbek klassik (mumtoz) adabiyoti daryosi ekanligini ta'kidlab o'tadi. Bu so'zlarni aytganda olim haq edi. Xususan, shoir klassik adabiyotning lirik turga mansub bo'lgan g'azal, muxammas singari janrlarida samarali ijod qildi. Ma'lumki, **g'azal** (arabcha "ayollarga xushomad qilish", "ayollarni madh etish") Sharq mumtoz adabiyotida eng ko'p tarqalgan lirik janr bo'lib, 3-4 baytdan 19 baytgacha bo'lgan hajmda yozilib, a-a, b-a, v-a, g-a… tarzida qofiyalanuvchi she'r hisoblanadi.[1] Aytish mumkinki, o'zbek mumtoz adabiyotida mazkur janrda ijod qilmagan shoir deyarli topilmaydi. Jumladan, Sayfi Saroyi, Atoyi, Sakkokiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Huvaydo, So'fi Olloyor, Ogahiy, Uvaysiy, Nodira singari ijodkorlar g'azal janri taraqqiyotiga sezilarli darajada hissa qo'shganlar.[2] Yangi davr she'riyatida g'azalchilik an'analari Habibiy, Charxiy, Chustiy, E. Vohidov, J.Kamol kabi shoirlarimiz tomonidan muvaffaqiyatli davom ettirildi.[3] Omon Matjon ijodida ham bir nechta g'azallar uchraydi. Shoir ijod qilgan davrda, Abdulla Oripov va Erkin Vohidov, Jamol Kamol kabi shoirlar ijodidan tashqari, aruz vaznida ijod qilish deyarli to'xtab qolganini hisobga olsak, juda katta voqea edi. Shoirning "Dilimning rangini"[4] "Onalar"[5], "Kubro e'tirofi"[6] singari g'azallari vazn, qofiya, shakl va mazmun jihatdan janrning barcha talablariga javob beradi. Ushbu janr ma'lum ma'noda shoirning "tashrif qog'ozi" ga aylandi. G'azallarida ijtimoiy, ishqiy mavzularni yuksak iste'dod bilan kuyladi. Bulardan eng mashhuri va qo'shiq bo'lib xalqimiz qalbiga kirib borgani "Dilimning rangini gul bilsa bo'ldi" deb nomlanuvchi g'azal hisoblanadi.

Xususan, "Dilimning rangini" deb boshlanuvchi g'azalida shoir qalbidagi inja hislarni aks ettiradi:

Dilimning rangini gul bilsa bo'ldi, a
Mening kimligimni el bilsa bo'ldi. a

Olis yulduzlara sirrim aytmiram, b
Nolishimni tongi yel bilsa bo'ldi. a

Ucharga har qushdan par topinmadim, c
Parvozlar hadisin dil bilsa bo'ldi. a

1 Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Т.: Академнашр, 2013. 394 б.
2 O'sha manba
3 O'sha manba
4 Матжон О. Минг бир ёғду. – Т., 1989. Б. 11.
5 Матжон О. Ардахива (Драматик қисса, янги шеърлар). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. Б. 48.
6 Матжон О. Ардахива (Драматик қисса, янги шеърлар). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. Б. 41.

Jaholat mehrobi toshin o‘pmadim, v
O‘shal bag‘ritoshim til bilsa bo‘ldi. a

Damlar shikvasiga uchma, omon bo‘l, d
Fazlu kamolingni el bilsa bo‘ldi.[7] a
Taqte’si: V – – – / V – – –/ V – –
V – – – / V – – –/ V – –
Afoyili: *mafoiylun/ mafoiylun/ fauvlun*
mafoiylun/ mafoiylun/ fauvlun

G‘azal aruzning hazaji musaddasi mahzuf yoki maqsur bahrida yozilgan bo‘lib, “*el-yel-dil-til-el*” so‘zlari qofiyadosh so‘zlar bo‘lib, qofiyasi muqayyad qofiya turiga mansub, ya’ni qofiyaga olingan so‘zda raviydan keyin hech qanday tovush yoki qo‘shimcha qo‘llanilmagan.Radif vazifasida esa “bilsa bo‘ldi” birikmasi qo‘llanilgan. Ushbu g‘azalni hasbi hol tarzida yozilgan g‘azal desak to‘g‘ri bo‘ladi. Sababi shoirning ijod yo‘lida unga nisbatan qanchadan-qancha tuhmat toshlari otildi. Yozgan asarlari necha yillab gazeta va nashriyot yuzini ko‘rmadi. Lekin shunda ham shoir birovlardan ta’na qilmadi, ijod etishda davom etdi.

Dilimning rangini gul bilsa bo‘ldi,
Mening kimligimni el bilsa bo‘ldi.

G‘azal matlasida ta’kidlaganidek, shoir uchun uning kimligini, qanday inson ekanligini bir guruh muxolifot insonlar emas, balki asarlarini sevib o‘qiydigan ona xalqining bilishigina yetarli edi, xolos. Shoirning ijod yo‘liga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning “Gaplashadigan gaplar” nomli murakkab syujetli lirik qissasi yozilgan vaqtda shoir atrofida bo‘lib o‘tgan voqealar unga juda qattiq ta’sir qildi. “Omon Matjon “gaplashadigan vaqtlar”ni yozganida “dunyo o‘zim degan yulduzlar” burjlarida mustahkam edilar. Esimda bu qissaning O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining she’riyat bo‘limida o‘tkazilgan birinchi muhokamasi. Shunda muhokamaga shoir va yozuvchi Mirmuhsin raislik qilgan edi. Munaqqidlardan O.Sharafiddinov, U.Normatov, H.Xudoyberganov, S.Mamajonov, shoirlardan E.Vohidov, Jamol Kamol, M.Boboyevlar qissani juda qo‘llab-quvvatlagan holda tanqidning biroz yalang‘ochligi va keskinligini aytib, shoirni katta ijodiy yutuq bilan tabriklashgan va asarni yana bir karra ko‘zdan kechirishni maslahat berishgan edi. Lekin sal o‘tmay amalga oshirilgan ikkinchi muhokama shoir dunyosini to‘s-to‘polon qilib yuborganini eshitdik. Xullas, hech kim bir-biri bilan gaplashishni istamagan, umuman hali gaplashadigan vaqtlar kelmagan, shoir esa davrdan ilgarilab ketgan ekan”.[8] Shoir bunday vaziyatda o‘zini yo‘qotmaydi. O‘zining kimligini isbotlashga urinmaydi, g‘ururi bunga yo‘l bermaydi va barchasini vaqt izmiga topshirib qo‘yadi. Uning adashmaganligini, e’tiqodida mustahkam ekanligini odil hakam – vaqt isbotlab berdi.

Olis yulduzlarga sirrim aytmiram,
Nolishimni tongi yel bilsa bo‘ldi.

Keyingi baytda esa qalb nolalarini, sirlarini olis yulduzlarga emas, balki tongi yelga aytishini, yel yuragidagi nolalarini uzoqlarga olib ketishini xohlaydi. Aslida, bu sirlar-u nolalar tunlari yulduzday charaqlab qalbini tirnashini emas, balki yel bo‘lib uzoqlarga ketishini xohlaydi.

Ucharga har qushdan par topinmadim,
Parvozlar hadisin dil bilsa bo‘ldi

Uchinchi baytda esa shoir ijodi bilan yuksaklikka parvoz qilishi uchun har qushdan par topinmasligini, parvozlar hadisini dili bilsa yetarli ekanligini ta’kidlaydi. Bu baytda o‘zligini anglagan inson o‘zining qancha pog‘onagacha kuchi yetishini bilishi, o‘zini o‘zi alday olmasligiga ishora mavjud. Bu yerda Omon Matjonning qanchalar mag‘rur va haqgo‘y inson ekanligini bilib olamiz. Chunki u inson va ijodkor sifatida soxta shuhrat uchun “ucharga har qushdan par topinmasligi”ni ta’kidlaydi. Begona bayt, ya’ni maqtadan oldingi baytda shoirning fikrlari yana bir bor yuqori pog‘onaga ko‘tarilganligining guvohi bo‘lamiz. Ya’ni shoir bu baytda she’riyatga oshno bo‘lib, jaholat mehrobiga yaqin yo‘lamaganligini aytadi. Ushbu baytda lirik qahramondan tashqari ikkinchi obraz – “bag‘ritoshim” obrazi kiritiladi:

Jaholat mehrobi toshin o‘pmadim,
O‘shal bag‘ritoshim til bilsa bo‘ldi.

Misrada toshbag‘ir insonlarga nisbatan aynan “bag‘ritoshim” deb murojaat qiladi. Bu esa shoirning so‘z tanlash mahorati va insoniylik tuyg‘ulari bilan bog‘liq. O‘ziga ozor yetgan insonga nisbatan ham mehr bilan “bag‘ritoshim” deya olish yuksak insoniy fazilat egasigagina xos. Maqta’da esa iyhom san’atidan foydalaniladi, ya’ni shoir “omon bo‘l” birikmasi orqali ham omon bo‘lish tilagini tilaydi, ham taxallus sifatida o‘z ismiga ishora qilganini ko‘rishimiz mumkin. Maqtaning oxirgi misrasida “Fazlu kamolingni el bilsa bo‘ldi”, deb aytib o‘tadi. Matla’da boshlangan shoirning kim ekanligini faqat elga ayon bo‘lsa bo‘ldi degan fikr yana kamolga yetganini ham el bilsa kifoyaligi kabi fikr bilan tugatiladi. Bunda ijodkorning xalqparvar inson ekanligi, adolat degan tushunchani hamma narsadan ustun qo‘yishini anglab olamiz.

Shoirning ushbu janrda bitgan asarlari talaygina. U o‘z davrida ushbu janrda ijod qilgan hamkasblari qatori bu janrning taraqqiyotiga hissa qo‘shdi. G‘azalchilik an’analarini o‘zidan keyingi avlodga yetkazishga va ushbu an’ananing yo‘q bo‘lib ketmasligi uchun o‘z hissasini tamomila qo‘sha oldi.

7 Матжон О. Минг бир ёғду. – Т., 1989. Б. 11.
8 Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Т., 1993. Б.119.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Т., 2017, 23-декабр.
2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятнинг ривожланиши – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Халқ сўзи. – Т., 2017, 4-август.
3. Жумабоева Ж. Омон Матжон. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1993. 194 б.
4. Jumaboyeva J. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. – T., 2004. 242-b.
5. Мирзаева С. Ўзбек реалистик адабиётида Фольклор анъаналари. –Т.: Истиқлол, 2005. Б. 77.
6. Паноева Ў. Омон Матжон ижодида тарихийлик концепцияси. – Т., 2004. Б.205.

Dilfuza RAXMATOVA,
Samarqand davlat universiteti dotsenti

TURKIY SHE'RIYATDA ANJAMBMANG AN'ANASI VA TRANSFORMATSIYASI

Annotatsiya: turkiy she'riyat ko'p asrlik taraqqiyot jarayonida shakl va mazmun uyg'unligini o'zida mujassam etgan boy poetik tizimni yaratdi. Ushbu tizimda vazn, qofiya, radif, sintaktik parallelizm kabi unsurlar bilan bir qatorda misra chegarasining buzilishi, ya'ni anjambmang hodisasi ham muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada turkiy she'riyatda anjambmangning klassik aruz doirasidagi cheklangan ko'rinishidan modern she'riyatda erkin va ongli stilistik vositaga aylanishi – poetik transformatsiyasi, badiiy tafakkurning evolyutsiyasi tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: *turkiy she'riyat, anjambmang, modern she'riyat, badiiy-estetik funksiya, poetik tafakkur, transformatsiya.*

Аннотация: турецкая поэзия создала богатую поэтическую систему, воплощающую гармонию формы и содержания в процессе многовекового развития. В этой системе, наряду с такими элементами, как метр, рифма, аллитерация и синтаксический параллелизм, важным художественным приемом является также нарушение границ строк, то есть феномен анжамбманга. В данной статье рассматривается трансформация анжамбманга в турецкой поэзии от его ограниченного появления в классических рамках выражения до свободного и звучного стилистического инструмента в современной поэзии-поэтическая трансформация и эволюция художественной мысли.

Ключевые слова: *сборник турецкой поэзии, современная поэзия, художественно-эстетическая функция, поэтическая мысль трансформация.*

Annotation: turkish poetry has created a rich poetic system that embodies the harmony of form and content in the process of centuries-old development. In this system, along with elements such as meter, rhyme, alliteration, and syntactic parallelism, the violation of the line boundary, that is, the phenomenon of anjambmang, also appears as an important artistic tool. This article examines the transformation of anjambmang in Turkish poetry from its limited appearance within the classical framework of expression to a free and sonorous stylistic tool in modernization poetry-a poetic transformation and the evolution of artistic thought.

Key words: *turkish poetry collection, modern poetry, artistic-aesthetic function,poetic thought, transformation.*

Anjambmang – fransuzcha "anjambmang" so'zidan olingan bo'lib, ta'rifi "bosish"dir. She'riyatda bu fikr satr oxiri va keyingi satrning boshiga tinish belgilarsiz "qadamlab o'tishi" ni anglatadi, shuning uchun o'quvchi fikrning yakuniga yetishi uchun satr oralig'ini tezda o'qib chiqishi kerak. Anjambmang –fikrning satrlar bo'ylab to'lib-toshib ketishiga yo'l qo'yib, ravonlikni hosil qiladi va she'riyatga nasrga o'xshash sifat olib kiradi. U she'riyatda tuzilgan adabiy shakl bo'lib, she'rlar oqimini belgilaydigan naqsh va ritmlarga ega. She'riyatdagi satrlar qanday bo'linishi va ular band yoki fikrga nisbatan qayerda tugashi. Bir ibora yoki to'liq fikr oxirida satr uzilishi she'riyatda muntazam va kutilmagan namunadir.

Shoirlar bu umidni anjambmang deb ataladigan usul yordamida yo'q qiladi [2.78]. Anjambmang satr qayerda tugashi haqidagi taxminlarimizni buzadi va she'rga o'zgacha tuyg'u yaratadi. Oddiy qilib aytganda, iboraning oxiri satr oxiridan o'tib ketganda anjambmang hosil bo'ladi. U gapning keyingi misra, bayt yoki kupletdagi davomini pauzasiz tasvirlaydigan poetik uslub. Satr oxiridagi tabiiy pauza o'rniga, fikr keyingi satrda muammosiz davom etadi. She'riyatdagi odatiy namuna – gap yoki fikr oxirida qator uzilishi. She'riyatda odatda, majburiy pauza bo'lgan joyda anjambmang satr uzilishlari orqali muammosiz harakatlanadi. Miya tezroq sur'at va tezlikni yaratib, jumlaning xulosasini o'qish uchun tezda harakat qilishni xohlaydi. Bu she'rga oqim va energiya beradi.

Anjambmang pauzani ko'rsatish uchun hech qanday tinish belgilaridan (masalan, vergul yoki nuqta) foydalanmasdan bir qatordan ikkinchisiga o'tish orqali bu kutishni bekor qiladi [5.46]. Bu she'r oqimini o'zgartirib, o'quvchini fikr yakuniga yetishi

uchun davom ettirishga majbur qiladi. Anjambmang – she'rning oqimi va ma'nosiga ta'sir qiladi. Bu she'rni baland ovozda o'qiganimizda uning qanday jaranglashiga ham ta'sir qiladi. U yozuvchilarga o'quvchi she'r bo'ylab harakatlanish tezligini boshqarishga yordam beradi [3.161]. Anjambmangdan foydalanishni o'zgartirish o'quvchilarning tezroq yoki sekin o'qishiga olib kelishi mumkin. Anjambmang – bu tomoshabinga prognoz qilingan satrlarni yetkazishga ko'rsatma berish uchun ishlatiladigan adabiy qurilma. Transformatsiya (lotincha transformation – o'zgartirish, qayta shakllantirish) – biror narsa, hodisa yoki tizimning shaklan yoki mazmunan o'zgarishi, yangi ko'rinishga o'tishi jarayonidir. Tilshunoslikda transformatsiya bir sintaktik modelning boshqasiga aylanishi, gap tuzilmasining o'zgarishi, aktiv gapning passiv gapga aylanishi kabi jarayonlarni anglatadi [4.290]. Umumiy ma'noda transformatsiya tuzilmaning o'zgarishi, shaklning yangilanishi, mazmunning qayta talqin qilinishi, funksiyaning o'zgarishi, an'anaviy she'riy shaklning erkin vaznga o'tishi – poetik transformatsiyadir.

Anjambmang o'zbek adabiyotida O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining mushtarak yodgorligi bo'lgan "Avesto" kitobida ham uchraydi.

Avesto "O'rta Osiyo, Eron, Ozarbayjon xalqlarining qadimgi davrdagi iqtisodiy-ijtimoiy hayoti, dinlari, olam va odam to'g'risidagi tasavvurlari, urf-odatlari, ma'naviy madaniyatlari, adabiyoti va yozuv san'atini o'rganishda muhim manbadir. Beruniy (973–1048) "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida "Avesto" haqida shunday ma'lumotlarni beradi: "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida "Avesto"ning o'n ikki ming qoramol terisiga tilla bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni yondirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri "Avesto" ning beshdan uch qismi yo'qolib ketdi". "Avesto" ko'p xudolikdan yakka xudolikka o'tish davrida bitilgan. Unda olam ikki asos, ikki ibtido, ya'ni yorug'lik va zulmat, yaxshilik va yomonlikning kurashidan iborat deb izohlanadi. Yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasidagi kurash Mitra, Anaxita, Qayumars, Jamshid, Gershasp va boshqalar obrazida mujassamlashtirilgan. Mitra – quyosh xudosi. U kishilarga hur, issiqlik, baxt-saodat baxsh etadi. Shu bilan birga, u ajoyib qurollar bilan qurollangan bo'lib, dushmanlarga dahshat soladi, kishilarni ofatdan qutqaradi.

XI asrga kelib turkiy xalqlar madaniyati, adabiyoti va san'ati rivojlanishining yangi pallasi boshlanadi. M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asari turkiy xalqlarning bebaho qumar-u merosidir. Asarda adabiyotshunoslikka doir hikmatli so'zlar, sa'jlar, maqollar, rajaz, nasr, qo'shug', she'r kabi atamalar uchraydi. Xalq qo'shiqlarining tasvir usullari o'xshatish, sifatlash, qarshilantirish, jonlantirish va qiyoslar ko'zga tashlanadi. "Qaqlar qamug' ko'lardi... "Yomg'ir va seldan qoq yerlarning barchasi ko'l bo'ldi...") to'rtligi boshdan oxirigacha jonlantirishga tayanadi. "Bulnar meni ulas ko'z..." (Xumor ko'zli go'zal meni asir qiladi) to'rtligida esa sifatlash asosiy o'rin tutadi. Asarda anjambmang o'quvchi she'r bo'ylab harakatlanish tezligini boshqarishiga yordam beradi: Jaruq julduz tug'arda/ Uznu kalip baqarman/ Satulayu sayraship/ Tatlig' unun qush utar / Uznu–uyg'onib, kalip–kelib [6.63]. Yorug' yulduz tug'ar vaqtida uyqumdan uyg'onib, daraxtlarga qarayman, qushlarning shodlantiruvchi yoqimli sayrashlarini tinglayman.

"Devonu lug'otit-turk" asarida keltirilgan "Alp Er To'nga" marsiyasida To'nga alp-Er-Afrosiyobning o'limi xalqning bo'ridek ulishi, ya'ni haddan tashqari iztirobi, hatto yoqalarini yirtib yig'lashi, uning ustiga bu iztirobning davomli bo'lishi (yig'lab-siqtab yurdilar) xalqning Alp Er To'ngaga bo'lgan kuchli muhabbatini samimiy, ishonarli va ta'sirchan chizib bera oladi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari ilk turkiy tildagi ma'rifiy doston hisoblanadi. Asarda badiiyatga yuksak o'rin berilib, hayotiy o'xshatish, ixcham istioralar, ta'sirchan tamsillar hamda mo'jaz ramzlar keltirilgan. Shoir qo'llagan tashbeh keyinchalik turkiy adabiyotda, jumladan, o'zbek adabiyotida ham an'anaviy obrazga aylanib qoldi. Qadni dolga, yuzni oyga, tiriklik (hayot) ni rabotga, yigitlikni arg'umoqqa, bilimni kimyoga, so'zni zaharga, shakarga, ko'ngilni dengizga, bilimni mash'alga, zolim amaldorlarni bo'riga, xalqni qo'yga va bekni qo'ychivonga o'xshatish ham ana shunday yozma adabiyotda an'anaga aylangan obrazlardir.

Ba'zi hollarda anjambmang syujetni aylantirish usuli sifatida ishlatiladi, bir qatordan ikkinchisiga qarama-qarshi fikrga o'tadi va ajablantiradigan element yaratadi. Birinchi qismda ezgulik yo'lida jon fido qiluvchilar ulug'lanadi. Ikkinchi qismda tamomila qarama-qarshi qutbdagi: nopok, jafokor shaxslar qoralanadi. Ularning butunligi poetik fikrning yaxlitligini ta'minlagan. Bu esa to'rtlikning inson tuyg'ulariga ta'sirini kuchaytiruvchi anjambmangning muhim omilidir [7. 142]

“Qutadg‘u bilig” asaridagi to‘rtliklar tuzilishi va ma’no xususiyatlariga ko‘ra, o‘ziga xos turlarga ega. Bu turlar ruboiyning, ayniqsa, a-a-b-a turi bilan ko‘p darajada mos keladi. O‘zbek adabiyoti tarixining qadimgi davrlari ikki xil she’r tuzilishiga ega. Ularning biri barmoq, ikkinchisi aruz deyiladi. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi she’riy parchalarning asosiy qismi barmoqda bitilgan.Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari esa aruz vaznidadir. Keyingi asrlarda aruz o‘zbek mumtoz adabiyotining yetakchi vazni bo‘lib qoldi.

Anjambmangni turli xil she’rlarda ko‘rish mumkin. A.Navoiyning qit’alari lirikada alohida mavqega ega janr. Qit’aning eng kichik shakli ikki baytdan iborat bo‘ladi. Qit’aga aniq chegara qo‘yilmagan. Ma’lumki, mumtoz adabiyotda ayrim janrlar (masalan, ruboiy, tuyuq) uchun qat’iy vaznlar belgilab qo‘yilgan. Qit’a bu jihatdan ham erkindir. U aruzning istalgan vaznida yaratilishi mumkin. Alisher Navoiyning “Haq taolo xoni in’omi-yu karami omi boride o‘zgadin nima tilagonning tama-yi xomi-yu zotino farjomi” nomli qit’asida anjambmang ko‘rinishi uchraydi: Tengri xonin ochuq aqida qilib, / Xalqdin ro‘ziy istagan gumroh/ Uyladurkim Tengiz qirog‘inda/ Ro‘za ochmoqqa kimsa qozg‘oy choh.

Eng avval sarlavha mohiyatini anglab olishga harakat qilish lozim. Uni “Yaratganning dasturxoni tuhfalari-yu umumiy, barchaga barobar karami bo‘la turib, boshqalardan biror narsa tilagan kishining xom ta’masi-yu oxiri yaxshilik bilan tugamagan zoti” haqida deb tabdil qilish mumkin. Demak, qit’a ayrim bandalarning noshukrligi hamda behuda ta’magirligi haqida. Qit’a mazmunini aniqroq tasavvur etish uchun har bir misra, har bir so‘z ustida bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Bir qarashda unda begona, notanish va tushunarsiz so‘z yo‘qqa o‘xshaydi. Ammo Alisher Navoiy qo‘llagan so‘zlarning barchasi ham lug‘atlardagi izohlar doirasiga sig‘avermasligini, qolaversa, she’riyatda so‘zlarning o‘z lug‘aviy ma’nolaridan ko‘ra ancha kengroq mazmun qamroviga ega bo‘lishini ham nazarda tutish lozim bo‘ladi. Qit’aning go‘zal shakli, teran ma’nosi, mutafakkir adib qalamidan chiqqan ifoda yo‘sini kishini o‘y va mushohadaga chorlaydi.

Klassik turkiy adabiyotda, xususan, aruz tizimiga asoslangan g‘azal va masnaviylarda sintaktik tugallik ko‘pincha misra yoki bayt doirasida saqlangan bo‘lsa-da, ayrim holatlarda fikrning keyingi misraga o‘tishi kuzatiladi. A.Navoiy g‘azallarida ba’zan sintaktik uzilish orqali ohangiy kuchayishi hosil qilinadi. Bu hol an’anaviy poetik me’yor doirasida, lekin ma’lum estetik maqsad bilan amalga oshirilgan. XX asrga kelib, jadid va modern she’riyat ta’sirida anjambmang yanada faol va ongli poetik prinsipga aylandi. Erkin vazn va yangi sintaktik qurilmalar natijasida misra chegarasi nisbiy tus oldi. Shoirlar ijodida fikr oqimining misralararo davomiyligi obrazli tafakkurni chuqurlashtirish va dramatik pauza yaratish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa anjambmangning an’anaviy ko‘rinishdan modern poetik tafakkurdagi transformatsiyasini ko‘rsatadi [5.163].

Turkiy she’riyatda anjambmang hodisasi dastlab ritmik-estetik zarurat sifatida yuzaga kelgan bo‘lsa, keyinchalik mazmuniy-sintaktik erkinlik timsoliga aylandi. Mazkur mavzuni o‘rganish she’riy nutqning ichki mexanizmlarini, misra va sintaksis munosabatini hamda poetik tafakkur evolyutsiyasini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент: Фан, 1985.
2. Григорев В.П. Поэтика слова. – Москва: Наука, 1979.
3. Виноградов В.В. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. –Москва, 1963.
4. Жирмунский М. Теория стиха. – Ленинград, 1975.
5. Тинянов Й. Н. Проблема стихотворного языка. – Москва, 1965.
6. Жирмунский Б. Введение в метрику. – Ленинград, 1925.
7. To‘xliyev B., Abdurahmonova B. Adabiyot. I kitob. – Toshkent, 2015.
8. Кошғарий М. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. I-III томлар. – Тошкент, 1960–1963.
9. Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. Биринчи китоб. – Тошкент, 1976.
10. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Тошкент, 1971.

Шарофат ЧОРИЕВА,
Доктор философии (PhD) по педагогическим наукам,
старший преподаватель кафедры русского языка и литературы
Денауского института предпринимательства и педагогики,
г. Денау, Узбекистан,
Email: csharofat@gmail.com
https://orcid.org/0009-0004-2338-8359
Зайнаб КУЗИЕВА,
студентка 4-курса Денауского института
предпринимательства и педагогики,
E-mail: quziyevazaynab0@gmail.com

СТИЛИСТИЧЕСКАЯ ПОЛИФОНИЯ ТРАГЕДИИ А.С.ПУШКИНА “БОРИС ГОДУНОВ”: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ВЫСОКОГО И РАЗГОВОРНОГО СТИЛЕЙ

Аннотация: в статье исследуется феномен стилистической полифонии в трагедии «Борис Годунов» в аспекте взаимодействия высокого и разговорного функциональных стилей. Уточняются теоретические основания разграничения языка художественной литературы и литературного языка, анализируются особенности функционирования архаической и разговорной лексики, а также их роль в формировании художественно-речевой структуры текста. Особое внимание уделяется категориям диалогичности, стилистической мотивированности и художественной многозначности.

Ключевые слова: *художественный стиль, функциональные стили, полифония, разговорная речь, высокий стиль, архаизмы, экспрессивность.*

Annotatsiya: mazkur maqolada Aleksandr Sergeyevich Pushkinning «Boris Godunov» tragediyasida stilistik polifoniya fenomeni yuqori va so‘zlashuv funksional uslublarining o‘zaro ta’siri nuqtayi nazaridan tadqiq etiladi. Badiiy adabiyot tili va adabiy tilni tizim sifatida farqlashning nazariy asoslari aniqlashtiriladi, shuningdek, arxaik va so‘zlashuv leksikasining funksional xususiyatlari hamda ularning badiiy-nutqiy tuzilmani shakllantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda dialogiklik, stilistik motivatsiya va badiiy ko‘pma’nolilik kategoriyalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: *badiiy uslub, funksional uslublar, polifoniya, so‘zlashuv nutqi, yuqori uslub, arxaizmlar, ekspressivlik.*

Annotation: this article examines the phenomenon of stylistic polyphony in the tragedy Boris Godunov by Alexander Sergeyevich Pushkin from the perspective of the interaction between high and colloquial functional styles. The theoretical foundations for distinguishing the language of fiction from the literary language as a system are clarified, and the functional features of archaic and colloquial vocabulary, as well as their role in shaping the artistic and speech structure of the text, are analyzed. Particular attention is paid to the categories of dialogicity, stylistic motivation, and semantic multiplicity.

Key words: *literary style, functional styles, polyphony, colloquial speech, high style, archaisms, expressiveness.*

Введение. Современная лингвостилистика рассматривает язык художественной литературы как открытую, динамическую систему, интегрирующую элементы различных функциональных стилей. В отличие от нормативно закреплённых разновидностей языка, художественная речь характеризуется вариативностью и эстетической направленностью [3, с.45, 2, с.28[.

Понятие стилистической полифонии восходит к теории диалогизма Михаила Михайловича Бахтина и предполагает сосуществование в тексте нескольких равноправных речевых и смысловых позиций. Согласно концепции М.М.Бахтина, художественный текст обладает диалогической природой, предполагающей взаимодействие равноправных речевых голосов [1, с. 84]. В драматургии данное явление проявляется наиболее полно, поскольку речевая организация текста строится через взаимодействие персонажей. Данная идея получает дальнейшее развитие в трудах Юрий Михайлович Лотман, который трактует текст как сложную семиотическую систему, организованную по принципу множественности кодов [2, с. 112]. И трагедия Пушкина «Борис Годунов» представляет собой образец сложной стилистической системы, в которой органично сочетаются элементы высокого книжного и разговорного стилей. Это позволяет говорить о формировании многомерного художественного пространства.

Основная часть. *Теоретические основы стилистической полифонии.* Стилистическая полифония определяется как форма текстовой организации, при которой реализуется взаимодействие

различных речевых регистров и смысловых позиций [1, с. 126]. Художественный текст характеризуется многослойной семантикой, в которой слово приобретает дополнительные коннотативные значения [3, с. 73]. Это приводит к формированию эффекта «приращения смысла», обусловленного контекстом и авторской интенцией [2, с. 59].

Методы исследования. В процессе исследования были использованы комплексные методы лингвостилистического анализа, обеспечивающие всестороннее изучение художественного текста. В качестве основного выступает описательно-аналитический метод, направленный на выявление и систематизацию языковых средств, формирующих стилистическую полифонию произведения.

Применялся также контекстуальный анализ, позволяющий определить семантико-экспрессивные особенности лексических единиц в зависимости от их функционирования в художественном тексте. Для выявления специфики взаимодействия различных функциональных стилей использован сравнительно-стилистический метод, направленный на сопоставление признаков высокого и разговорного стилей на различных языковых уровнях.

Кроме того, был задействован дискурсивный анализ, позволяющий рассмотреть текст как многоголосную систему, в которой реализуются различные речевые позиции и коммуникативные стратегии.

Высокий стиль в трагедии выполняет функцию репрезентации историко-государственной и сакральной сфер. Его формирование связано с традицией книжной речи, описанной в трудах, Виктор Владимирович Виноградов [3, с. 132] (см. Рисунок 1).



Рисунок 1. Основные характеристики высокого стиля

Основными признаками высокого стиля являются:

использование архаической и церковнославянской лексики (1, с. 210);

синтаксическая усложнённость (8, с. 144);

высокая экспрессивность и торжественность (2, с. 67).

Архаическая лексика выполняет не только номинативную, но и стилистическую функцию, создавая эффект исторической дистанции (6, с. 103).

Высокий стиль формирует историческую достоверность и усиливает трагический пафос произведения. При этом Пушкин избегает избыточной архаизации, что делает текст доступным для восприятия.

Разговорный стиль представляет собой функциональную разновидность языка, ориентированную на неофициальное общение. Его ключевые характеристики включают спонтанность, ситуативность и экспрессивность [8, с. 102]. В трагедии разговорный стиль, являясь средством речевой характеристики, выполняет функции индивидуализации персонажей и моделирования социальной реальности.

На языковом уровне разговорная речь проявляется через:

синтаксическую неполноту [4, с. 189];

использование разговорной и просторечной лексики [3, с. 256];

эмоционально-оценочные элементы [2, с. 141] (см. Рисунок 2).



Рисунок 2. Признаки разговорного стиля

В художественном тексте разговорная речь выполняет характерологическую функцию, способствуя раскрытию социального и психологического облика персонажей [8, с. 118]. Разговорная речь представлена преимущественно в сценах с народом и юродивым, создавая эффект живой коммуникации.

Результаты и обсуждение. Важно при раскрытии идеи взаимодействие стилей и формирование полифонии. Полифония в трагедии реализуется через контраст и взаимодействие двух стилистических пластов. Полифоническая структура текста формируется за счёт взаимодействия различных стилевых пластов. Высокий стиль маркирует официальную и сакральную сферы, тогда как разговорный — бытовую и народную [см. Таблицу 1].

Такое противопоставление и взаимодействие обеспечивает:

моделирование социальной структуры общества [10, p. 54];

усиление драматического конфликта [11, p. 87];

формирование многоголосного дискурса [11, p. 132], отражая социальную стратификацию.

Таблица 1

Сравнительный анализ стилей

Параметр	Высокий стиль	Разговорный стиль
Сфера употребления	Власть, религия	Быт, народ
Лексика	Архаическая	Повседневная
Синтаксис	Сложный	Простой
Функция	Репрезентация	Реализация
Эффект	Торжественность	Реалистичность

С точки зрения нарративной теории, подобная структура способствует усложнению текстовой организации и расширению интерпретационного поля [13, с. 201]

Стилистическая мотивированность и эстетическая функция. Использование различных языковых средств в художественном тексте подчинено принципу «стилистической мотивированности предполагает, что любое отклонение от языковой нормы оправдано художественной задачей» [3, с. 211].

Эстетическая функция языка заключается в способности текста воздействовать на читателя через систему образов и ассоциаций [2, с. 256], т.е. в создании образности, эмоциональном воздействии, формировании ассоциативных связей. Художественная речь, таким образом, выступает как особая форма языковой организации, в которой сочетаются когнитивные, коммуникативные и эстетические компоненты.

Выводы. Проведённый анализ показывает, что трагедия «Борис Годунов» представляет собой сложную полифоническую систему. Взаимодействие высокого и разговорного стилей обеспечивает:

историческую достоверность;

психологическую глубину;

социальную многомерность.

Высокий стиль обеспечивает историческую достоверность и торжественность, тогда как разговорный стиль способствует реалистичности и психологической глубине. Их взаимодействие формирует многомерную модель художественной реальности [1, с. 178]. Стилистическая полифония выступает ключевым принципом организации художественного текста и определяет его эстетическую ценность.

Список использованной литературы

1. Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. — М.: Азбука, 2002. — 336 с.
2. Валгина Н.С. Теория текста. — М.: Логос, 2016. — 280 с.
3. Виноградов В.В. О языке художественной литературы. — М.: Наука, 2005. — 448 с.
4. Золотова Г.А. Коммуникативные аспекты синтаксиса. — М.: URSS, 2017. — 368 с.
5. Кожина М.Н. Стилистика русского языка. — М.: Флинта, 2018. — 464 с.
6. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. — СПб.: Питер, 2019. — 704 с.
7. Падучева Е.В. Семантика нарратива. — М.: Языки славянской культуры, 2010. — 480 с.
8. Попова Е.А. Лингвистика текста. — М.: Академия, 2012. — 256 с.
9. Солганик Г.Я. Стилистика текста. — М.: Юрайт, 2020. — 256 с.
10. Fairclough N. Discourse and Social Change. — Cambridge: Polity Press, 2015. — 259 p.
11. Herman D. Narrative Theory. — Oxford: Wiley-Blackwell, 2013. — 296 p.
12. Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. — London: Routledge, 2014. — 256 p.
13. Toolan M. Narrative: A Critical Linguistic Introduction. — London: Routledge, 2018. — 320

ILG‘OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA



Saodat ADILOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti dotsenti
saodat.adilova@gmail.com

O‘ZBEK TILI DARSLARIDA SUN’IY INTELLEKT VA INNOVATSION METODLAR

Annotatsiya:maqolada o‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish masalalari yoritilgan. Muallif talabalarning o‘zbek tili bo‘yicha nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradigan muayyan metodik vositalar va amaliy mashq-topshiriqlarni taklif etadi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, kognitiv yondashuv, sun’iy intellekt, agglyutinativlik, nutqiy kompetensiya, raqamli didaktika, kreativ-kognitiv vazifa, Muxlisa AI, “lingvistik detektiv”.*

Annotation: the article discusses the possibilities of utilizing artificial intelligence in teaching Uzbek as a foreign language. The author proposes specific methodological tools and practical exercises designed to enhance students’ communicative competence in the Uzbek language.

Key words: *uzbek language, cognitive approach, artificial intelligence, agglutination, speaking competence, digital didactics, creative-cognitive task, Muxlisa AI, “linguistic detective”.*

Аннотация: в статье освещены вопросы использования возможностей искусственного интеллекта в преподавании узбекского языка как иностранного. Автор предлагает определенные методические инструменты и практические упражнения, способствующие развитию речевой компетенции студентов по узбекскому языку.

Ключевые слова: *узбекский язык, когнитивный подход, искусственный интеллект, агглютинативность, речевая компетенция, цифровая дидактика, креативно-когнитивная задача, Muxlisa AI, “лингвистический детектив”.*

Ta’limdagi zamonaviy yo‘nalishlar o‘qitish jarayonida moslashuvchan platformalar hamda kognitiv dasturlardan, ya’ni inson tafakkuriga taqlid qiluvchi intellektual vositalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Ushbu ehtiyoj o‘zbek tilining raqamli makondagi mavqeyini mustahkamlash borasidagi davlat strategik maqsadlari bilan hamohangdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida[1] belgilangan davlat tili va sun’iy intellekt imkoniyatlarini integratsiya qilish vazifasi lingvodidaktika oldiga ham yangi metodik talablarni qo‘ymoqda. Zero, bunday raqamli resurslar til o‘rganuvchining individual ehtiyojiga moslashib, nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga aylantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilini xorijliklarga o‘rgatishda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari talabaning axborotni shunchaki qabul qilish bosqichidan faol muloqot bosqichiga o‘tishiga ko‘maklashuvchi o‘ziga xos “ko‘prik” vazifasini o‘taydi.

Talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari, o‘qituvchi ehtiyojlari va o‘quv dasturi talablarini tahlil qila olishi tufayli sun’iy intellekt pedagoglar uchun har bir talabaning o‘rganish uslubiga mos keladigan individual dars rejalari va baholash tizimlarini yaratishda tobora muhim vositaga aylanib bormoqda. Bu esa, o‘z navbatida, talabalarning motivatsiyasini oshirishga, yuqori natijalarga erishishga xizmat qiladi[2].

Sun’iy intellekt nafaqat talaba, balki o‘qituvchi uchun ham tezkor ko‘makchiga aylanmoqda. Pedagog *SI* yordamida murakkab adabiy matnlarni talabaning til bilish darajasiga moslab soddalashtirishi, bir necha soniya ichida har qanday dolzarb matn asosida testlar tuzishi, “bo‘shliqlarni to‘ldiring” yoki “matn asosida tuzilgan krosvordni yeching” kabi mashqlarni yaratishi mumkin. Neyrotarmoq hatto “mavzu bo‘yicha keys, 3 ta qiziqarli fakt, muammoli vaziyat topib ber” kabi topshiriqni ham bir zumda bajara oladi. Ayniqsa, kundalik muloqot vaziyatlarini aks ettirgan autentik va o‘quv-autentik materiallarni tayyorlashda SI katta imkoniyatlarga ega.

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

2 M.Danesi. AI in Foreign Language Learning and Teaching. New York: Nova Science Publishers. 2024. -P.16

Ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni integratsiya qilish nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki talabalarning nutqiy kompetensiyalarini kreativ yondashuvlar orqali rivojlantirish imkonini beradi. *SI*ning amaliy qo‘llanilishini tahlil qilish asosida taklif etilayotgan strategiyalardan biri “Lingvistik detektiv” metodi bo‘lib, u SI tomonidan yaratilgan matnlardagi xatolarni tahlil qilishga asoslanadi. Masalan, o‘qituvchi neyrotarmoq yordamida o‘zbek tilida ataylab xatolar bilan yozilgan matnni talabaga taqdim etadi. Talaba ushbu xatolarni topishi va to‘g‘rilashi orqali nafaqat o‘z bilimini mustahkamlaydi, balki “texnologiyadan ustun” ekanligini anglab, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantiradi.

Bugungi kunda lingvodidaktikada “prompt-engineering” san’ati muhim o‘rin egallamoqda. Talabalar sun’iy intellekt uchun o‘zbek tilida aniq va mantiqiy so‘rovlar (promptlar) shakllantirishni o‘rganishlari lozim. Masalan, talabaga “Kamida beshtadan sifat, ravish va fe’lni qo‘llab, biron sayohat agentligi haqida qiziqarli reklama matnini yarating” degan topshiriq berilsa, u *SI*ga yuboriladigan so‘rovlarni shakllantira boshlaydi. Ushbu kreativ-kognitiv vazifani bajarish uchun talaba so‘z boyligini oshirish bilan birga, o‘z fikrlarini o‘rganilayotgan tilda tizimlashtirishga harakat qiladi. Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi nutqni matnga aylantiradigan va, aksincha, matnni audioga aylantira oladigan, sintez qiladigan “Muxlisa AI” platformasini nutqiy ko‘nikmalarni nazorat qiluvchi intellektual trenajer sifatida o‘zbek tili darslariga tizimli ravishda kiritish maqsadga muvofiqdir[3].

Talabalarning axborotni shunchaki ko‘chirib olishlariga qarshi kurashish uchun “Intellektual transformatsiya” va jonli nutqni rag‘batlantirish usullaridan foydalanish mumkin. *SI* yordamida ma’lumot to‘plash (masalan, “Kelajak kasblari” mavzusida) faqat tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, yakuniy natija sifatida talaba ekranga yoki qaydlarga qaramasdan, olingan ma’lumotni so‘zlab berishi shart qilib belgilanadi. Bu esa talabaning nutqiy ko‘nikmalarini birinchi o‘ringa olib chiqadi, texnologiya bilim manbayi darajasidan nutqni rivojlantirish instrumenti darajasiga ko‘tariladi.

Sun’iy intellekt bilan rolli o‘yinlar tashkil etish ham o‘zbek tili darslarida yuqori samara beradi. *SI*ga O‘zbekistonga birinchi marta kelgan sayyoh roli topshiriladi, talaba esa gid vazifasini bajaradi. “Gid” sayyohning turli savollariga o‘zbek tilida javob beradi. Bu kabi simulyatsiyalar turli vaziyatlar uchun modellashtirilsa, darslarning qiziqarli va samarali kechishi ta’minlanadi.

Albatta, o‘zbek tili darslarida sun’iy intellektni ehtiyotkorlik bilan qo‘llash talab etiladi. Hozirgi kunda ommalashgan neyrotarmoqlarning o‘zbek tilidagi muayyan grammatik va uslubiy jihatlarni hali to‘liq “o‘zlashtirmaganini” inobatga olish zarur. Xususan, tilimizning agglyutinativ tabiati, so‘zlardagi ko‘p ma’nolilik, nutqning madaniy aspekti kabi nozik tomonlar sun’iy intellekt tizimlari uchun hali ham murakkablik tug‘dirmoqda va bu algoritmlarning kutilmagan uslubiy g‘alizliklarga yo‘l qo‘yishiga sabab bo‘lmoqda. Shu bois, o‘qituvchi materiallarni sinchiklab tekshirishi, talabani esa mustaqil fikrlash, tahlil qilishga yo‘naltirishi kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalar va an’anaviy metodikaning oqilona uyg‘unligi o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi nufuzini oshirishga va tilni o‘zlashtirish tezligini jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, bugungi kun pedagoglari sun’iy intellektning turli shakllari, ularning keng imkoniyatlari hamda ushbu texnologiyalarni o‘z faniga moslashtirish metodikasini chuqur o‘zlashtirishlari lozim. Zamon talabini qabul qilib, davr bilan hamnafas bo‘lgan holda, sun’iy intellektning ishlash tamoyillari va o‘ziga xos cheklovlarini anglash[4] til ta’limining samarali strategiyalarini yaratishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanishini ta’minlash bilan bir qatorda, sifatli, qiziqarli va raqobatbardosh o‘quv-metodik materiallar tayyorlashga zamin yaratadi.

3 Muxlisa AI – O‘zbek tilidagi nutqiy texnologiyalar platformasi. https://muxlisa.uz

4 Кувшинова Е. Е. Применение искусственного интеллекта в обучении иностранному языку // Гуманитарий Юга России. – 2024. – Т. 13. – № 2 (66). – С. 84.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 20-oktabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori.

2. M.Danesi. AI in Foreign Language Learning and Teaching. New York: Nova Science Publishers. 2024.

3. Muxlisa AI – O‘zbek tilidagi nutqiy texnologiyalar platformasi. https://muxlisa.uz

4. Кувшинова Е. Е. Применение искусственного интеллекта в обучении иностранному языку // Гуманитарий Юга России. – 2024. – Т. 13. – № 2 (66). – С. 75–84.

Muxlisa SABIROVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori,
O‘zJOKU dotsenti v.b.

SARLAVHALARDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING QO‘LLANISHI

Annotatsiya: maqolada internet matni sarlavhalarida frazeologik birliklarning qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklar tahlil qilingan. Muallif matnning ta’sir kuchini oshirish, o‘quvchi e’tiborini jalb etish va o‘z kommunikativ maqsadini til birliklariga madaniy belgilarni yuklagan holda yumshoqroq ifodalash maqsadida frazeologik birliklarga murojaat qilinganini misollar asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: *ibora, internet matni, antropotsentrik yondashuv, lisoniy hodisa, frazeologik birlik, mediamatn.*

Аннотация: в статье анализируются особенности употребления фразеологических единиц в заголовках интернет-текстов. На примерах рассматривается, как автор обращается к фразеологизмам с целью усиления воздействия текста, привлечения внимания читателя и более мягкой реализации своей коммуникативной цели путём привнесения культурно-маркированных значений в языковые единицы.

Ключевые слова: *идиома, интернет-текст, антропоцентрический подход, языковое явление, фразеологическая единица, медиатекст.*

Annotation: this article analyzes the specific features of using phraseological units in the headlines of online texts. Using examples, it examines how authors employ phraseologisms to enhance a text’s impact, attract the reader’s attention, and more subtly achieve their communicative goal by introducing culturally-marked meanings into linguistic units.

Key words: *idiom, online text, anthropocentric approach, linguistic phenomenon, phraseological unit, media text.*

Tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv asosida tilni turli yo‘nalishlarda o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortdi. Ayniqsa, lisoniy hodisalarni inson va muloqotning o‘zaro uzviy aloqasini hisobga olgan holda zamonaviy tadqiqotlarga talab kuchaydi. Bugungi kunda til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’siri masalasi lingvomadaniyatshunoslikning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda til nafaqat botiniy, balki zohiran ham tildagi dunyo manzarasini aks ettirishga, ya’ni millatning geografik joylashuvi, landshafti, iqlimi, asosiy faoliyat turlari, tarixi, siyosiy tizimi, ruhiyati va milliy xarakteri kabi omillar millat dunyoqarashi va mentalitetining o‘ziga xosligini shakllantirib, bu xususiyatlar barcha til birliklarida o‘z aksini topadi. Bu jarayon fonetik darajadan boshlanib, matn darajasigacha bo‘lgan til birliklarini qamrab oladi. Shu ma’noda, internet matni sarlavhasining tadqiq etilishi zamonaviy axborot makonida olamning milliy manzarasini yaratishda til belgilarining qo‘llanish ahamiyatini oshiradi.

Internet mediamatnlarida sarlavha axborot uzatishning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki jurnalistik material matnining asosiy g‘oyasini oldindan tasavvur qilish, mushtariylar diqqatini unga jalb qilishda sarlavha katta rol o‘ynaydi. I.Toshaliyev ta’kidlaganidek, “muallifning o‘z o‘quvchisiga aytadigan birinchi so‘zi sarlavhadir”.[1]

Olimlarning fikriga ko‘ra, eng ommabop yangiliklar muvaffaqiyatli sarlavhalarga bog‘liq. 80% mushtariylar birinchi navbatda, sarlavhaga e’tibor qaratadi.[2] Shu sababli muallif jurnalistik materialning muvaffaqiyat kaliti hisoblangan sarlavhaga alohida e’tibor qaratishi, sarlavha uchun mohirlik bilan nom tanlashi lozim bo‘ladi. Aytish lozimki, sarlavha internet materialida ifodalangan axborotni tasavvur qilishga imkon beruvchi, o‘quvchini tanishtiruvchi va diqqatini jalb qiluvchi muhim vosita hisoblangani bois, uning o‘rinli tanlanishi matnda aks etgan axborotning ta’sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Shuning uchun ham sarlavhalarning mazmunli, ixcham, ta’sirchan va mushtariylar diqqatini jalb qiluvchi bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Ma’lumki, muallif o‘z jurnalistik materialidagi sarlavhasi orqali bevosita mushtariy bilan kommunikativ aloqaga kirishadi. Muallif sarlavha yordamida mushtariyda maqola haqida muayyan tasavvur hosil qiladi. Demak, internet sarlavhasi, bir tomondan, internet matnining eng muhim tarkibiy qismi hisoblansa, ikkinchi tomondan esa, matn bilan mushtariy o‘rtasidagi kommunikativ aloqani ta’minlovchi vositadir. Uchinchidan esa, sarlavha o‘zida milliy madaniy unsurlarni ham namoyon etish imkoniyati uning olamning milliy manzarasini yaratishdagi ahamiyatini oshiradi. Shu sababli internet mediamatni sarlavhasining lingvomadaniy jihatini o‘rganish ahamiyatli sanaladi. Internet materiallariga sarlavha tanlashda uning nafaqat axborot berish, hissiy va pragmatik ta’sir ko‘rsatish vazifasi,

1 Тошалиев И. Сарлавҳа стилистикаси. –Тошкент, 1995. – Б.3.

2 Верещинская Ю. В. Испанский газетный заголовок: лингвопрагматический и национально-культурный аспекты: Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – М., 2013. – 22 с.

balki biror narsani targ‘ib qilish, ezgulikka chorlash, mushtariylarning savodxonlik va nutq madaniyatini oshirish va hokazo vazifalari ham inobatga olinadi.

Ma’lumki, internet mediamatniga qo‘yiladigan asosiy talablardan biri axborotni yetkazishda tezkorlik, xolislik va ta’sirchanlik kabilarga amal qilishdan iboratdir. Axborotning ta’sirchanligini ta’minlashda esa internet sarlavhalarining ham ahamiyati katta. Sarlavhalar internet maqolasining umumiy g‘oyasini aks ettirsa-da, muallifning ma’lum kommunikativ maqsadiga bo‘ysundiriladi. Shu bois sarlavhalarda muallifning hissiy kechinmalari, voqelikka bo‘lgan subyektiv munosabati ham aks etadi.

“Sarlavha – mediamatn” munosabatlari o‘zaro bog‘liqlik va o‘zaro nutqiy ta’sir tamoyiliga asoslanadi. Internet makonida bir vaqtning o‘zida ko‘plab axborot oqimlarining mavjud bo‘lishi, axborot oqimining cheksizligi sarlavhaga qo‘shimcha vazifalar yuklaydi: u nafaqat maqola matnining bir qismi, balki interfeys elementi, ya’ni muallif va mushtariyning Internetdagi aloqasini ta’minlovchi vosita vazifasini ham bajaradi. Saytda mavjud bo‘lgan barcha vositalar (matn, tasvirlar, audio, video va boshqa har qanday kengaytmali fayllar) doirasida tarmoq media matni sarlavhasi foydalanuvchiga matn mazmuni haqida ma’lumot beradi.

Ma’lumki, internet matni sarlavhalarida muallif matnning ta’sir kuchini oshirish, o‘quvchi e’tiborini jalb etish va o‘z kommunikativ maqsadini til birliklariga madaniy belgilarni yuklagan holda yumshoqroq ifodalash maqsadida turli lisoniy hodisalarga murojaat qiladi. Jumladan, sarlavhalarda qo‘llangan iboralar, pretsedent birliklar va maqollar muallifning ma’lum kommunikativ niyatiga bo‘ysundiriladi. Ayniqsa, siyosiy mavzuga bag‘ishlangan matnlarda bu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Misolga e’tibor qaratamiz: *Tehron Vashingtonni Isroil va Eron o‘rtasidagi mojaroga “burun suqmaslik”ka chaqirdi.* (Qalampir.uz 13.04.2024) Siyosiy mavzuga bag‘ishlangan yuqoridagi sarlavhada muallif salbiy vaziyatni ifodalash maqsadida frazeologik birlikka murojaat etgan. Muallif “Tehron Vashingtonni Isroil va Eron o‘rtasidagi mojaroga aralashmaslikka chaqirdi” ma’nosidagi sarlavhadan ko‘ra nutqiy ta’sirchanlikni oshirish maqsadida frazeologik iborani qo‘llagan.

Aytish lozimki, milliy-madaniy birliklardan biri hisoblangan iboralarning nutqda qo‘llanishida nutqiy ta’sirchanlik bilan bir qatorda fikrni bo‘yoqdor tarzda tasvirlash va salbiy subyektiv fikrni obrazli ifodalash ham ustunlik qiladi. Ayniqsa, tilning lingvomadaniy boyliklaridan biri hisoblangan iboralarning internet media matnida qo‘llanishida o‘ziga xoslik kuzatiladi. Fikrimizni siyosiy mazmundagi sarlavhalar orqali tahlil qilamiz: *O‘zbekiston ichki ishiga “burun suqqan” Zaxarovaga Qodirov javob qaytardi.* (qalampir.uz 26.09.2024); *Pashinyan Yevropadan qo‘yni-qo‘nji to‘lib qaytmoqda.* (qalampir.uz 06.04.2024) Yuqoridagi 1-misoldagi matnda Rossiya Tashqi ishlar vazirligi matbuot kotibi Mariya Zaxarovaning Toshkentdagi maktabda o‘qituvchi birinchi ish kunida 6-sinf o‘quvchisini ayovsiz kaltaklagani haqidagi xabarga munosabat so‘ragani va O‘zbekiston ichidagi voqeaga “burun suqishi”ga Oliy Majlis Qonunchilik palatasi spikerining o‘rinbosari Alisher Qodirov munosabat bildirgani aks etgan. Aynan sarlavhada “burun suqmoq” iborasining qo‘llanishida salbiy munosabatning oshkora ifodasini kuzatish mumkin. 2-misolda esa Armaniston Bosh vaziri Nikol Pashinyanning G‘arbning bir qator rasmiylari bilan muzokaralar olib borgani va bir qator loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilishi haqidagi xabar berilgan. Sarlavhada aks etgan “qo‘yni qo‘nji to‘lmoq” iborasi Armanistonning g‘arb mamlakatlari bilan imzolagan loyihalarini obrazli ifodalashga xizmat qilgan.

Ko‘rinadiki, internet media matnlarida iboralar ma’lum bir xalqning milliy-madaniy dunyoqarashini, tafakkurini ifodalovchi vositalar sifatida namoyon bo‘lish bilan bir qatorda, siyosiy mazmundagi sarlavhalarda davlatdagi siyosiy mavzuning ifodalanishidagi milliy o‘zlik xususiyatlarini aks ettiruvchi madaniylik belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Boshqa tomondan esa, ular madaniyatlararo media-makonda to‘laqonli muloqotni ta’minlovchi, siyosiy diskursning manipulyativ, baholash, obrazli ifoda, nutqiy “yuk” kabi xususiyatlarini ifodalovchi, shuningdek, siyosiy voqealarni talqin qilish va baholashning asosiy tendensiyalarini aniqlashga imkon beruvchi til vositalari sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma’lumki, frazeologik birliklar xalqning tarixini, madaniyatini, dunyoqarashi-yu tafakkurini ko‘rsatuvchi lingvomadaniy birliklardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda internet media matnlarida omma e’tiborini jalb qilish, matnga o‘zgacha ruh berish maqsadida sarlavhalarda iboralarga bot-bot murojaat qilinganini kuzatdik. Misollarga e’tibor qaratamiz: *OAV: ISHID Moskvadagi terakt uchun mas’uliyatni gardaniga oldi* (kun.uz. 23.03.2024); *“Kiyimlaringizni parvarish qiling”, “Apelsin olamiga sho‘ng‘ing” – Reklamalardagi til va tasvir masalasiga qachon yeng shimaramiz?* (oyina.uz 08.04.2024); *Tirilayotgan Orol – unga qanday jon bag‘ishlash mumkin?* (kun.uz 08.04.2024) *Muallimdan tayoq yegan sulton.* (oyina.uz 13.01.2025); *Oliygoh rektorlari kambag‘al oiladan 4 ming nafar yoshlarni o‘qitishga bosh-qosh bo‘ladi.* (kun.uz 13.12.2024); *Baxtiyor Saidov BMTda O‘zbekiston nomidan so‘zga chiqdi.* (qalampir.uz 26.09.2024); *Qoraqalpog‘istonda 2222 litr dizelni o‘marmoqchi bo‘lganlar qo‘lga tushdi.* (qalampir.uz 26.09.2024); *Almisoqdan qolgan qo‘rquv* (oyina.uz 29.10.2021).

Xulosa sifatida aytish mumkinki, internet matni sarlavhalari nafaqat jurnalistik, shu bilan birga, lingvistik jihatdan ham sifat o‘zgarishlariga uchragan; internet sarlavhalarida iboralar, frazeologik birliklarning tanlanishida o‘quvchini jalb qilish bilan bir qatorda, nutqiy ta’sirchanlikka ham samarali erishilmoqda.

Hamid BOTIROV,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti,
Ijtimoiy va amaliy fanlar bo‘limi boshlig‘i,
Yuridik fanlari nomzodi, dotsenti
Madina JUMABOYEVA,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti magistranti



MASHG‘ULOTLARDA INTERFAOL TA’LIM METODLARI

Annotatsiya:mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ kompetensiyaning ahamiyati, uning o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishdagi o‘rni yoritilgan. Shuningdek, o‘qituvchining nutq madaniyati, uning kasbiy faoliyatdagi roli va ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Interfaol metodlarning mazmun-mohiyati, ularning an’anaviy metodlardan farqi hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muloqot ko‘nikmalari va tanqidiy tafakkurini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan. Maqolada “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Munozara”, “Case study” kabi interfaol metodlarning amaliy qo‘llanilishi yoritilgan. Shuningdek, trening shaklida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar va guruh bilan ishlashning kommunikativ nutqni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan. Dialogik va monologik nutqni rivojlantirish usullari ham tahlil qilinib, ularning o‘quvchilar nutq kompetensiyasini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, interfaol metodlar, ta’lim samaradorligi, dialogik nutq, monologik nutq, tanqidiy fikrlash, guruh bilan ishlash, trening, amaliy mashg‘ulot, pedagogik mahorat, muloqot, debat, case study.*

Annotation: this article highlights the importance of communicative competence in the modern education system and its role in the comprehensive development of a learner’s personality. It also analyzes the teacher’s speech culture, its role in professional activity, and its impact on the effectiveness of education. The essence of interactive methods, their differences from traditional methods, and their role in developing students’ independent thinking, communication skills, and critical thinking are substantiated. The article describes the practical application of such interactive methods as “Brainstorming,” “Cluster,” “Role-playing,” “Discussion,” and “Case study.” In addition, the importance of training-based teaching, practical exercises, and group work in developing communicative speech is revealed. Methods for developing dialogic and monologic speech are also analyzed, and their role in forming students’ speech competence is shown.

Key words: *communicative competence, speech culture, interactive methods, educational effectiveness, dialogic speech, monologic speech, critical thinking, group work, training, practical exercises, pedagogical mastery, communication, debate, case study*.

Аннотация: в данной статье освещается значение коммуникативной компетенции в современной системе образования и её роль в всестороннем развитии личности учащегося. Также анализируются культура речи учителя, её роль в профессиональной деятельности и влияние на эффективность обучения. Обоснованы сущность интерактивных методов, их отличие от традиционных методов, а также их роль в развитии самостоятельного мышления, коммуникативных навыков и критического мышления учащихся. В статье рассматривается практическое применение таких интерактивных методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Ролевая игра», «Дискуссия», «Кейс-стади». Также раскрывается значение обучения в форме тренинга, практических занятий и групповой работы в развитии коммуникативной речи. Проанализированы методы развития диалогической и монологической речи, а также показана их роль в формировании речевой компетенции учащихся.

Ключевые слова: *коммуникативная компетенция, культура речи, интерактивные методы, эффективность обучения, диалогическая речь, монологическая речь, критическое мышление, групповая работа, тренинг, практические занятия, педагогическое мастерство, общение, дебаты, кейс-стади.*

Zamonaviy ta’lim tizimida kommunikativ kompetensiya muhim o‘rin egallaydi, chunki bugungi kunda ta’lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki shaxsning ijtimoiylashuvi, fikrini erkin va aniq ifoda eta olishi, boshqalar bilan samarali muloqot o‘rnatishi kabi ko‘nikmalarni ham rivojlantirishni talab etadi. Kommunikativ kompetensiya o‘quvchi va o‘qituvchining og‘zaki hamda yozma nutq orqali fikr almashish, bahs-munozaralarda faol ishtirok etish, o‘z nuqtai nazarini asoslab berish va boshqalarning fikrini tinglab, tushuna olish qobiliyatini o‘z ichiga oladi.[1] Bu

1 Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2010.

esa ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida axborot almashinuvi tezlashib borayotgan bir paytda kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lgan shaxs jamiyatda faol va raqobatbardosh bo‘la oladi. Bunday kompetensiya o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish hamda jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining kommunikativ nutqi ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u dars jarayonini samarali tashkil etish, o‘quvchilarni faollashtirish va ularda bilimga bo‘lgan qiziqishni oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

O‘qituvchilarning nutq madaniyati ularning kasbiy faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki ta’lim jarayoni asosan, nutq orqali amalga oshiriladi.[2] O‘qituvchining ravon, aniq, mantiqiy va ta’sirchan nutqi o‘quvchilarga bilimni samarali yetkazishda, ularni darsga jalb etishda hamda mustaqil fikrlashga undashda muhim rol o‘ynaydi. Nutq madaniyatiga ega bo‘lgan o‘qituvchi o‘z fikrini sodda va tushunarli bayon etadi, o‘quvchilar bilan to‘g‘ri muloqot o‘rnatadi va ijobiy psixologik muhit yaratadi. Bu esa o‘quvchilarning faolligini oshirib, ta’lim sifatining yuksalishiga xizmat qiladi. Shu bois, o‘qituvchining kasbiy mahorati nafaqat uning bilim darajasi, balki nutqiy kompetensiyasi bilan ham belgilanadi.

Interfaol metodlarning muhimligi esa shundaki, ular ta’lim jarayonida o‘quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchiga aylantiradi. An’anaviy usullardan farqli ravishda, interfaol metodlar o‘quvchilarni fikrlashga, muhokama qilishga, o‘z nuqtai nazarini erkin ifoda etishga undaydi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar o‘zaro muloqotga kirishadi, bahs-munozaralarda qatnashadi va amaliy faoliyat orqali bilimlarni chuqurroq o‘zlashtiradi. Ayniqsa, bu jarayonda kommunikativ nutq rivojlanadi, chunki o‘quvchilar doimiy ravishda gapirish, tinglash va fikr almashishga majbur bo‘ladi. Shuning uchun interfaol metodlar zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol metod – bu ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamda o‘quvchilarning o‘zaro faol hamkorligiga asoslangan o‘qitish usuli bo‘lib, unda o‘quvchi passiv tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo‘ladi.[3] Bunday metodlar orqali bilimlar tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, izlanishi va muloqoti orqali egallanadi. Interfaol metodlarning asosiy maqsadi – o‘quvchini fikrlashga, muhokama qilishga va o‘z nuqtayi nazarini erkin ifoda etishga undashdir.

Interfaol metodlarning afzalliklari shundan iboratki, ular o‘quvchilarning darsga qiziqishini oshiradi, mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, jamoada ishlash malakasini shakllantiradi hamda kommunikativ nutqni takomillashtiradi. Bunday metodlar orqali o‘quvchilar bilimni chuqurroq o‘zlashtiradi, chunki ular o‘rganish jarayonida faol qatnashadi. Shuningdek, interfaol yondashuv ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhitni yaratadi va har bir o‘quvchining fikri qadrlanishiga imkon beradi.

Interfaol metodlar an’anaviy metodlardan tubdan farq qiladi.[4] An’anaviy ta’limda asosiy e’tibor o‘qituvchiga qaratilib, u bilim beruvchi, o‘quvchi esa uni qabul qiluvchi rolini bajaradi. Interfaol metodlarda esa markazda o‘quvchi turadi, o‘qituvchi esa yo‘naltiruvchi va tashkil etuvchi vazifasini bajaradi. An’anaviy usulda ko‘proq ma’ruza va tushuntirish ustun bo‘lsa, interfaol metodlarda munozara, hamkorlik va amaliy faoliyat asosiy o‘rin egallaydi.

Interfaol metodlarga “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o‘ynash”, “Munozara” va “Case study” kabi usullar kiradi. “Aqliy hujum” metodida o‘quvchilar muammo yuzasidan erkin fikr bildiradi va turli g‘oyalarni ilgari suradi. “Klaster” metodi orqali ma’lumotlar tizimli ravishda guruhlanadi va asosiy tushunchalar o‘zaro bog‘lanadi. “Rol o‘ynash” metodida o‘quvchilar muayyan vaziyatni sahnalashtirib, real hayotiy holatlarni modellashtiradi. “Munozara” esa o‘quvchilarning bahs yuritish, o‘z fikrini himoya qilish va boshqalarni tinglash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. “Case study” metodida esa aniq bir muammo yoki vaziyat tahlil qilinib, unga yechim topish ko‘zda tutiladi. Bu metodlarning barchasi o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undab, ta’lim samaradorligini oshiradi.

Trening shaklida o‘qitish zamonaviy ta’lim jarayonining samarali usullaridan biri bo‘lib, u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Bunday shaklda o‘qitishda tinglovchilar faol ishtirok etadi, turli vaziyatlar asosida mashqlar bajaradi, muammolarni birgalikda hal qiladi hamda o‘z tajribasini boyitadi. Treninglar ko‘pincha interfaol metodlarga asoslanib, ishtirokchilarning mustaqil fikrlashi, qaror qabul qilish qobiliyati va kommunikativ nutqini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bois, malaka oshirish jarayonida trening shakli o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

Amaliy mashg‘ulotlar esa olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va ularni real vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Bunday mashg‘ulotlarda o‘quvchilar yoki tinglovchilar turli topshiriqlarni bajarish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, loyihalar ishlab chiqish orqali o‘z bilim va ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Amaliy faoliyat orqali o‘rganilgan bilimlar yanada mustahkam bo‘ladi, chunki ishtirokchilar bevosita jarayonda qatnashadi. Ayniqsa,

2 Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2012.
3 Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003, 45-b.
4 Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003. 46-b.

bu jarayon kommunikativ nutqni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har bir topshiriq muloqot va fikr almashishni talab qiladi.

Guruh bilan ishlash esa ta’lim jarayonida hamkorlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu usulda o‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘linib, berilgan vazifalarni birgalikda bajaradi, o‘zaro fikr almashadi va umumiy xulosaga keladi. Guruhda ishlash jarayonida har bir ishtirokchi o‘z fikrini bildirish, boshqalarni tinglash va kelishuvga erishish ko‘nikmalarini egallaydi. Bu esa nafaqat bilim olish samaradorligini oshiradi, balki ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.[5] Shu sababli, trening shaklida o‘qitish, amaliy mashg‘ulotlar va guruh bilan ishlash zamonaviy ta’limning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Dialogik nutqni rivojlantirish ta’lim jarayonida o‘quvchilarning o‘zaro muloqotga kirishishi, savol berish va javob qaytarish, fikr almashish orqali amalga oshiriladi. Dialogik nutq o‘quvchilarda tinglash madaniyatini, suhbatdoshni tushunish va unga mos ravishda javob berish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunda savol-javob texnikasi, bahs-munozara va “debat” metodlari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etadi hamda fikrini asoslab ifoda etishga o‘rgatadi. Ayniqsa, bahs jarayonida o‘quvchilar turli nuqtayi nazarlarni solishtirish, o‘z fikrini himoya qilish va boshqalarni hurmat bilan tinglashni o‘rganadi.

Monologik nutqni rivojlantirish esa o‘quvchining o‘z fikrini mustaqil, izchil va mantiqiy tarzda bayon eta olish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonda prezentatsiya qilish, hikoya tuzish kabi usullar samarali hisoblanadi.[6] O‘quvchi ma’lum bir mavzu asosida chiqish qilishi, voqeani izchillik bilan bayon etishi yoki o‘z fikrini kengroq yoritishi orqali nutqining ravonligi va aniqligini oshiradi. Monologik nutq o‘quvchining mustaqil fikrlashini rivojlantirib, uning nutqiy kompetensiyasini mustahkamlaydi. Nutq mashqlari esa dialogik va monologik nutqni rivojlantirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Bunday mashqlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish, to‘g‘ri talaffuz qilish, fikrni aniq va lo‘nda ifodalash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Savol-javob texnikasi orqali tezkor fikrlash rivojlansa, bahs-munozara va “debat” metodlari orqali tanqidiy fikrlash va dalillash qobiliyati shakllanadi. Prezentatsiya qilish va hikoya tuzish esa nutqning izchilligi va mantiqiyligini ta’minlaydi. Shu tariqa, ushbu usullar kompleks tarzda qo‘llanilganda o‘quvchilarning kommunikativ nutqi samarali ravishda rivojlanadi.

Interfaol metodlar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi, chunki ular o‘quvchini faol ishtirokchiga aylantirib, bilimlarni mustaqil egallashga yo‘naltiradi. Bunday metodlar orqali dars jarayonida faollik ortadi, o‘quvchilar mavzuni chuqurroq anglaydi va o‘zlashtirish darajasi yuqori bo‘ladi. Interfaol yondashuv o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi, natijada ta’lim jarayoni yanada jonli va samarali tashkil etiladi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar, guruhiy ishlar va munozaralar orqali bilimlar mustahkamlanadi hamda amaliyot bilan bog‘lanadi. Interfaol metodlarning nutq rivojiga ta’siri ham beqiyosdir. Ular o‘quvchilarni doimiy ravishda fikr bildirishga, savollarga javob berishga, o‘z nuqtai nazarini asoslashga undaydi. Natijada o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqi rivojlanadi, so‘z boyligi kengayadi va nutqning mantiqiyligi oshadi. Bahs-munozara, debat, rol o‘ynash kabi metodlar orqali o‘quvchilar muloqot madaniyatini egallaydi, boshqalarni tinglash va o‘z fikrini aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy natijalar shuni ko‘rsatadiki, interfaol metodlar qo‘llanilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshadi, ular darsga qiziqish bilan qatnashadi va mustaqil fikrlashga intiladi. O‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon eta boshlaydi, jamoada ishlash ko‘nikmalari shakllanadi va muammolarni hal etishda faol ishtirok etadi. Eng muhimi, o‘quvchilar bilimni nafaqat eslab qoladi, balki uni amaliyotda qo‘llay oladi. Shu bois, interfaol metodlar nafaqat ta’lim sifatini oshiradi, balki shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida e’tirof etiladi.

5 Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Logos, 2004. 34-b.
6 Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperative Learning Methods. – USA, 2009.125-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz*. – Toshkent, 2017.
2.Tolipov O‘., Usmonboyeva M. *Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: Fan, 2010.
3.Ishmuhamedov R., Yuldashev M. *Ta’limda innovatsion texnologiyalar*. – Toshkent, 2012.
4.Saidahmedov N. *Yangi pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Moliya, 2003.
5.Azizxo‘jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent, 2006.
6.Zimnyaya I.A. *Pedagogik psixologiya*. – Moskva: Logos, 2004.
7.Leontyev A.A. *Psixologiya obsheniya*. – Moskva, 1999.
8.Johnson D.W., Johnson R.T. *Cooperative Learning Methods*. – USA, 2009.
9.Harmer J. *How to Teach English*. – London: Longman, 2007.

Sharofat YO‘LDOSHEVA,
Tarix fanlari falsafa doktori (PhD) Tarix kafedrasi dotsenti;
Mahfuza YO‘LDOSHOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti magistranti

CHET EL ADABIYOTLARINI O‘QITISHNING SAMARALI METODLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada chet el adabiyotlarini o‘qitishning samarali metodlari yoritildi. Chet el adabiyotlari va ularni o‘qitish tushunchasi, uning tarkibiy qismlari hamda xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida chet el adabiyotlarini o‘qitishning didaktik tamoyillari, metodik yondashuvlari va ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Olingan natijalar boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘qish savodxonligini shakllantirishning muhim nazariy poydevorga ega ekanligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich sinf, o‘qish savodxonligi, chet el adabiyoti, ularning asarlari, samarali o‘qitish, metodlar.*

Аннотация: в данной статье освещены эффективные методы преподавания зарубежной литературы. Проанализированы понятие зарубежной литературы и её преподавания, их составные части и особенности. В ходе исследования изучены дидактические принципы и методические подходы к преподаванию зарубежной литературы, а также их влияние на эффективность обучения. Полученные результаты показали, что формирование читательской грамотности в начальном образовании имеет важную теоретическую основу.

Ключевые слова: *начальная школа, читательская грамотность, зарубежная литература, её произведения, эффективное обучение, методы.*

Annotation: this article highlights effective methods of teaching foreign literature. The concept of foreign literature and its teaching, its components, and specific features are analyzed. In the course of the research, the didactic principles and methodological approaches to teaching foreign literature, as well as their impact on the effectiveness of education, were studied. The obtained results showed that the formation of reading literacy in primary education has an important theoretical foundation.

Key words: *primary school, reading literacy, foreign literature, its works, effective teaching, methods.*

Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarda o‘qish savodxonligini shakllantirishning eng muhim davri hisoblanadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilar matnni tushunish, uni tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash kabi asosiy ko‘nikmalarni egallay boshlaydilar. Shu nuqtayi nazardan, chet el adabiyotlarini o‘qitish nafaqat o‘qish malakasini rivojlantirish, balki o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Chunki turli xalqlarning adabiy asarlari orqali o‘quvchilar boshqa madaniyatlar, qadriyatlar va turmush tarzlari bilan tanishadilar. Chet el adabiyotlarini o‘qitish jarayoni o‘ziga xos yondashuvni talab etadi. Avvalo, tanlanadigan asarlar o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, sodda, qiziqarli va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lishi zarur. Shunday asarlar tanlangandagina o‘quvchi matnga qiziqadi va uni tushunishga intiladi. Bu esa o‘z navbatida o‘qish jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchi darsni faqat matnni o‘qish bilan cheklab qo‘ymasdan, uni turli metodlar yordamida boyitishi lozim. Shu jarayonda interfaol metodlar muhim o‘rin tutadi, chunki ular o‘quvchini darsning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Masalan, matn o‘qilishidan oldin o‘quvchilarning mavjud bilimlarini aniqlash va ularni yangi mavzuga yo‘naltirish orqali o‘qishga qiziqish uyg‘otiladi. Keyinchalik esa matn ustida ishlash davomida savol-javoblar, kichik muhokamalar tashkil etilib, o‘quvchilar fikrlashga undaladi. Bu jarayon asta-sekin o‘quvchilarning mustaqil fikr yuritish ko‘nikmasini shakllantiradi. Bundan tashqari, rolli o‘yinlar metodidan foydalanish ham samarali natija beradi. O‘quvchilar asar qahramonlari roliga kirib, voqealarni jonlantirgan holda namoyish etadilar. Bu usul nafaqat matn mazmunini chuqurroq anglashga yordam beradi, balki o‘quvchilarning nutqini rivojlantiradi va ularning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi. Shu bilan birga, bunday faoliyat orqali o‘quvchilar qahramonlarning his-tuyg‘ularini tushunishga harakat qiladilar, bu esa ularda empatiya tuyg‘usini shakllantiradi. Vizual vositalardan foydalanish ham ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Rasmlar, slaydlar yoki qisqa videolar orqali matn mazmunini boyitish o‘quvchilarning tasavvurini kengaytiradi.

Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ko‘rgazmalilik tamoyili katta ahamiyatga ega bo‘lib, u matnni yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi. Shu tariqa o‘quvchi nafaqat eshitadi yoki o‘qiydi, balki ko‘radi va tasavvur qiladi, bu esa bilimning mustahkam o‘zlashtirilishiga olib keladi. Didaktik jihatdan qaralganda, darslar izchil va tizimli tashkil etilishi zarur. Oddiydan murakkabga qarab borish tamoyili asosida o‘quvchilarga avval sodda matnlar taqdim etilib, keyinchalik asta-sekin murakkabroq asarlarga o‘tiladi. Shu bilan birga, har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish ham muhimdir. Ba’zi o‘quvchilar tezroq tushunsa, boshqalari ko‘proq yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin. Shuning uchun o‘qituvchi differensial yondashuv asosida ishlashi lozim. Bularning barchasi o‘zaro uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda, ta’lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshadi. O‘quvchilar matnni shunchaki o‘qib chiqish bilan cheklanmay, uni anglaydilar, tahlil qiladilar va o‘z fikrlarini erkin ifoda eta boshlaydilar. Natijada ularda o‘qish savodxonligi bilan bir qatorda mustaqil fikrlash, muloqot qilish va tahliliy yondashuv ko‘nikmalari shakllanadi.

Boshlang‘ich sinflarda chet el adabiyotlarini o‘qitishda mashhur ertaklardan foydalanish samarali hisoblanadi. Masalan, “Qizil qalpoqcha” ertagini o‘rganish jarayoni bir necha bosqichda izchil tashkil etiladi. Dars avvalida o‘qituvchi o‘quvchilarning mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish maqsadida suhbat tashkil etadi. U o‘quvchilardan ertaklar haqida nimalarni bilishlari, qanday ertak qahramonlarini eslab qolganliklari haqida so‘raydi. Shu orqali o‘quvchilar yangi mavzuga tayyorlanadi. Keyingi bosqichda o‘qituvchi ertak mazmuniga kirish qiladi va asosiy qahramonlar haqida qisqacha ma’lumot beradi. So‘ngra matn ifodali o‘qib beriladi yoki o‘quvchilar bilan birgalikda o‘qiladi. Bu jarayonda o‘qituvchi notanish so‘zlarni tushuntirib boradi, shu orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi kengayadi. Matn o‘qib bo‘lingach, darsning asosiy qismi – tahlil bosqichi boshlanadi. Bu yerda savol-javob metodi qo‘llanilib, o‘quvchilardan ertak mazmuni, qahramonlarning xatti-harakatlari va voqealar ketma-ketligi haqida so‘raladi. Masalan, “Nima uchun Qizil qalpoqcha o‘rmonga yolg‘iz ketdi?”, “Bo‘ri qanday hiyla ishlatdi?” kabi savollar o‘quvchilarni fikrlashga undaydi. Shu bilan birga, o‘quvchilar voqealarga o‘z munosabatini bildirishga o‘rganadilar. Keyingi bosqichda rolli o‘yin metodi qo‘llaniladi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, ertak qahramonlari rolini ijro etadilar. Bu jarayon darsni jonlantiradi va o‘quvchilarning matnga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi. Shu bilan birga, ular qahramonlarning his-tuyg‘ularini chuqurroq anglay boshlaydilar. Dars davomida vizual vositalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, ertak qahramonlari tasvirlangan rasmlar yoki qisqa multfilm lavhalari orqali o‘quvchilarning tasavvuri boyitiladi. Bu esa matnni yaxshiroq tushunishga yordam beradi va darsning samaradorligini oshiradi. Dars yakunida o‘quvchilardan ertakdan qanday xulosa chiqarganliklari so‘raladi. Shu orqali ular yaxshilik va yomonlik, ehtiyotkorlik va ishonuvchanlik kabi tushunchalarni anglay boshlaydilar. Bu bosqich tarbiyaviy jihatdan ham muhim hisoblanadi. Shu tarzda tashkil etilgan dars jarayoni uzviy va izchil bo‘lib, o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini rivojlantirish bilan birga ularning mustaqil fikrlash, nutq va ijtimoiy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda chet el adabiyotlarini o‘qitishda samarali metodlardan foydalanish uzluksiz va mantiqan bog‘langan tarzda tashkil etilgandagina yuqori natija beradi. Interfaol, vizual va kommunikativ metodlarning izchil qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning shaxsiy rivojlanishini ham ta’minlaydi. Shu bois, o‘qituvchi dars jarayonini puxta rejalashtirishi va zamonaviy pedagogik yondashuvlardan unumli foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amonova D. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2018.
2. Ismoilov R. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Qodirova M. O‘qish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik asoslari. – Samarqand, 2020.
4. Yo‘ldosheva N. Badiiy matnlarni o‘qitish metodikasi. – Buxoro, 2021.
5. Vygotskiy L.S. Psixologiya razvitiya rebenka. – Moskva, 1982.
6. PIRLS International Study Center. PIRIÄS 2021 International Results. – Boston, 2021.
7. Bakirova, H.B. Methodology of Lexical Competence Formation of Power-Engineering Students Based on Cba and its Experimental Research in Teaching Esp. Available at SSRN: https://ssrn.com/abstract=4176481
9. Bakirova, H. B. (2022). Terminology is a Tool in Development of Lexical Competence. Eurasian Scientific Herald, 4, 69-73.

Nodira ATABAEVA,
assistant professor
Tashkent university of architecture and civil engineering

EFFECTIVENESS OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN TEACHING ENGLISH

Annotation: this article analyzes the effectiveness of using artificial intelligence technologies in teaching English. It highlights the role of AI-based platforms and tools in developing learners' language competence, ensuring personalized learning, and optimizing the educational process.

Key words: *artificial intelligence, English language teaching, digital technologies, language competence, adaptive learning, innovative methods, learning effectiveness.*

Аннотация: в данной статье анализируется эффективность использования технологий искусственного интеллекта в процессе обучения английскому языку. Рассматривается роль платформ и инструментов на основе искусственного интеллекта в развитии языковой компетенции учащихся, обеспечении индивидуального подхода и оптимизации образовательного процесса.

Ключевые слова: *искусственный интеллект, обучение английскому языку, цифровые технологии, языковая компетенция, адаптивное обучение, инновационные методы, эффективность обучения.*

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tilini o'qitish jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Unda sun'iy intellekt asosidagi platformalar va vositalarning o'quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish, individual yondashuvni ta'minlash hamda o'qitish jarayonini optimallashtirishdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, ingliz tilini o'qitish, raqamli texnologiyalar, til kompetensiyasi, adaptiv ta'lim, innovatsion metodlar, ta'lim samaradorligi.*

In recent decades, rapid technological advancement has significantly transformed various spheres of human activity, including education. Among these innovations, artificial intelligence (AI) has emerged as a powerful tool that is reshaping teaching and learning processes worldwide. In the context of English language teaching, AI technologies offer new opportunities to enhance the effectiveness of instruction, personalize learning experiences, and improve learners' language competencies. Traditional methods of teaching English often face challenges such as limited individualization, insufficient feedback, and low learner engagement. In contrast, AI-based tools—such as intelligent tutoring systems, language learning applications, speech recognition software, and adaptive learning platforms—enable more flexible and student-centered approaches. These technologies can analyze learners' performance in real time, provide immediate feedback, and adjust learning content according to individual needs and proficiency levels.

From a pedagogical perspective, the integration of artificial intelligence into English language teaching aligns with modern educational paradigms that emphasize learner autonomy, interactive learning, and competency-based education. AI technologies support the development of key language skills—listening, speaking, reading, and writing—while also fostering critical thinking, creativity, and digital literacy. Moreover, they facilitate continuous assessment and data-driven decision-making in the teaching process.

The relevance of this study lies in the growing demand for innovative and effective teaching methods in the era of digital transformation. As English continues to serve as a global lingua franca, improving the quality of English language education becomes increasingly important. Therefore, examining the effectiveness of AI technologies in this field is both timely and necessary.

Artificial intelligence technologies have introduced a new paradigm in English language

teaching by enabling more adaptive, interactive, and data-driven learning environments. AI-based tools such as intelligent tutoring systems, chatbots, virtual assistants, and automated assessment platforms are increasingly integrated into language education. These technologies facilitate personalized learning paths by analyzing learners' performance, identifying their strengths and weaknesses, and tailoring instructional content accordingly.

According to Holmes, Bialik, and Fadel, *"artificial intelligence has the potential to transform education by personalizing learning and supporting teachers in more effective ways"*. This view highlights the core advantage of AI—its ability to adapt educational content to individual learners' needs, which is particularly important in language learning where proficiency levels vary significantly among students.

Similarly, Luckin argues that *"AI can support more efficient and personalized learning experiences by analyzing learner data and providing targeted feedback"*. In the context of English language teaching, this means that students can receive immediate corrections in grammar, pronunciation, and vocabulary usage, leading to faster improvement and better retention.

AI technologies play a crucial role in developing all four core language skills: listening, speaking, reading, and writing. For instance, speech recognition tools enable learners to practice pronunciation and receive real-time corrections, thereby improving their speaking skills. Similarly, AI-powered reading platforms can adapt texts to learners' proficiency levels, enhancing comprehension and vocabulary acquisition.

In writing instruction, AI-based tools such as automated writing evaluation systems assist students in identifying grammatical errors, improving coherence, and refining their style. These tools not only enhance writing quality but also promote independent learning by allowing students to revise their work autonomously.

Moreover, AI-driven learning environments support the development of higher-order cognitive skills such as critical thinking and creativity. By engaging with interactive tasks and problem-solving activities, learners are encouraged to think analytically and apply language in meaningful contexts.

One of the key strengths of artificial intelligence lies in its capacity to ensure personalized learning. Traditional teaching methods often follow a one-size-fits-all approach, which may not address the diverse needs of learners. In contrast, AI systems use algorithms and data analytics to create individualized learning experiences.

Adaptive learning platforms adjust the difficulty level of tasks, recommend appropriate learning materials, and monitor progress over time. This allows learners to study at their own pace and focus on areas that require improvement. As a result, learning becomes more efficient and learner-centered.

From a pedagogical perspective, Warschauer notes that technology-enhanced language learning environments contribute to increased learner engagement and autonomy, stating that *"digital tools enable learners to take greater control of their learning process and engage more actively with language content"*. AI technologies, as an advanced form of digital tools, further strengthen this autonomy by offering adaptive learning pathways and interactive tasks.

Moreover, researchers such as Godwin-Jones emphasize the importance of AI in developing communicative competence, suggesting that *"AI-driven applications, including chatbots and virtual assistants, provide learners with opportunities for authentic language interaction"*. These tools simulate real-life communication scenarios, which are essential for improving speaking and listening skills.

Despite its numerous advantages, the integration of AI in English language teaching also presents certain challenges. One of the primary concerns is the lack of human interaction, which is essential for developing communicative competence and social skills. Over-reliance on technology may reduce opportunities for real-life communication and collaborative learning. Additionally, issues related to data privacy, accessibility, and digital inequality may limit the widespread implementation of AI technologies. Not all educational institutions have equal access to advanced technological resources, which can create disparities in learning opportunities.

However, not all scholars view AI integration uncritically. Selwyn points out that *"the use of AI in*

education raises concerns related to data privacy, ethical considerations, and the potential loss of human elements in teaching" [Selwyn, 2019]. This perspective underlines the importance of maintaining a balance between technological innovation and human-centered pedagogy.

In addition, Krashen's theory of language acquisition remains relevant in evaluating AI tools. He argues that *"language acquisition occurs most effectively when learners are exposed to meaningful input in low-anxiety environments"*. AI technologies can support this by providing personalized, low-pressure learning environments; however, they cannot fully replicate the emotional and social dynamics of human interaction.

Thus, the analysis of scholarly perspectives demonstrates that AI technologies offer substantial benefits in English language teaching, particularly in terms of personalization, feedback, and learner engagement. At the same time, the limitations identified by researchers highlight the necessity of integrating AI with traditional teaching methods rather than replacing them.

Teachers play a vital role in selecting appropriate AI tools, designing meaningful learning activities, and providing emotional and pedagogical support. In this context, AI serves as a complementary tool that enhances teaching efficiency and enriches the learning experience. The analysis of the effectiveness of artificial intelligence technologies in teaching English demonstrates that AI has become a powerful and transformative tool in modern language education. Its ability to provide personalized learning experiences, immediate feedback, and adaptive instructional strategies significantly enhances the development of learners' language competencies. AI-based tools contribute to improving all four core language skills while also fostering learner autonomy, engagement, and motivation.

However, despite its numerous advantages, AI technologies cannot fully replace the role of the teacher. Human interaction, emotional support, and cultural contextualization remain essential components of effective language teaching. Therefore, the most effective approach lies in integrating AI technologies with traditional teaching methods to create a balanced and comprehensive learning environment.

In conclusion, the use of artificial intelligence in English language teaching represents a significant step toward improving the quality and accessibility of education. Its future potential depends on the thoughtful implementation of technological tools, addressing existing challenges, and ensuring equal access to digital resources. By combining technological innovation with pedagogical expertise, AI can play a crucial role in shaping the future of language education.

References:

1. Holmes, W., Bialik, M., & Fadel, C. (2019). *Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning*. Center for Curriculum Redesign.
2. Luckin, R. (2018). *Machine Learning and Human Intelligence: The Future of Education for the 21st Century*. UCL Institute of Education Press.
3. Warschauer, M. (2011). *Learning in the Cloud: How (and Why) to Transform Schools with Digital Media*. Teachers College Press.
4. Godwin-Jones, R. (2018). "Using Mobile Technology to Develop Language Skills and Cultural Understanding." *Language Learning & Technology*.
5. Selwyn, N. (2019). *Should Robots Replace Teachers? AI and the Future of Education*. Polity Press.

Shahzoda GULYAMOVA
Acting Associate Professor, PhD,
Tashkent Institute of Management and Economics

INTEGRATING NEEDS ANALYSIS INTO LANGUAGE CURRICULUM DESIGN AND INSTRUCTIONAL PRACTICE

Annotation: obviously, needs analysis has become an essential component of modern language education, particularly within learner-centered instructional frameworks. The effectiveness of language courses depends largely on how accurately educators identify learners' linguistic, academic, and professional needs. This study investigates the role of needs analysis in language curriculum development and teaching effectiveness. Using a qualitative research design based on systematic literature analysis, the study examines theoretical perspectives, models, and pedagogical applications of needs analysis. The findings indicate that needs analysis improves curriculum relevance, enhances learner motivation, and supports evidence-based instructional decisions. The study concludes that needs analysis should be implemented as a continuous process integrated into all stages of language program design and evaluation.

Key words: *needs analysis, language teaching, curriculum design, ESP, learner-centered education.*

Аннотация: очевидно, что анализ потребностей стал неотъемлемой частью современного языкового образования, особенно в рамках ориентированных на учащегося методических подходов. Эффективность языковых курсов во многом зависит от того, насколько точно преподаватели определяют языковые, академические и профессиональные потребности учащихся. В данном исследовании изучается роль анализа потребностей в разработке языковых учебных программ и повышении эффективности преподавания. Используя качественный исследовательский подход, основанный на систематическом анализе литературы, исследование рассматривает теоретические перспективы, модели и педагогические применения анализа потребностей. Результаты показывают, что анализ потребностей повышает актуальность учебной программы, усиливает мотивацию учащихся и способствует принятию решений в области обучения на основе фактических данных. В заключение исследования делается вывод о том, что анализ потребностей следует внедрять как непрерывный процесс, интегрированный во все этапы разработки и оценки языковых программ.

Ключевые слова: *анализ потребностей, преподавание языков, разработка учебных программ, английский для специальных целей, ориентированное на учащегося образование*

Annotatsiya: shubhasiz, ehtiyojlarni tahlil qilish zamonaviy til ta'limining, ayniqsa o‘quvchiga yo‘naltirilgan o‘quv tizimlarida muhim tarkibiy qismga aylandi. Til kurslarining samaradorligi ko‘p jihatdan o‘qituvchilar o‘quvchilarning lingvistik, akademik va professional ehtiyojlarini qanchalik aniq aniqlashlariga bog‘liq. Ushbu tadqiqot ehtiyojlarni tahlil qilishning til o‘quv dasturini ishlab chiqish va o‘qitish samaradorligidagi rolini o‘rganadi. Tizimli adabiyotlar tahliliga asoslangan sifatli tadqiqot dizaynidan foydalangan holda, tadqiqot ehtiyojlarni tahlil qilishning nazariy nuqtayi nazarlari, modellari va pedagogik qo‘llanilishini o‘rganadi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, ehtiyojlarni tahlil qilish o‘quv dasturining dolzarbligini yaxshilaydi, o‘quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va dalillarga asoslangan o‘quv qarorlarini qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqot ehtiyojlarni tahlil qilish til dasturlarini loyihalash va baholashning barcha bosqichlariga integratsiyalashgan uzluksiz jarayon sifatida amalga oshirilishi kerak degan xulosaga keladi.

Kalit so‘zlar: *ehtiyojlarni tahlil qilish, til o‘qitish, o‘quv dasturini loyihalash, ESP, o‘quvchiga yo‘naltirilgan ta’lim*

Introduction

In recent decades, language education has shifted from teacher-centered instruction toward learner-centered approaches that prioritize students' goals, backgrounds, and learning expectations. This transformation has increased the importance of needs analysis as a fundamental stage in curriculum design. Educational programs that fail to consider learners' needs often produce mismatches between course objectives and real communicative requirements, resulting in low motivation and ineffective learning outcomes. Needs analysis enables educators to identify learners' present abilities, target language use, and learning preferences. It also assists teachers in selecting appropriate teaching strategies, materials, and assessment methods. Although widely acknowledged in English for Specific Purposes (ESP), needs analysis is equally important in General English contexts, particularly at the university level.

Despite its recognized significance, needs analysis is frequently treated as a preliminary administrative task rather than an ongoing pedagogical process. Therefore, this study aims to examine the theoretical foundations and pedagogical value of needs analysis and to demonstrate its role in improving language teaching effectiveness. This study adopts a qualitative descriptive research design based on systematic literature review and conceptual analysis. The research synthesizes established theories and models of needs analysis in language education.

Data Analysis Procedure

Relevant literature was examined through thematic analysis. Key concepts were categorized into:

- definitions and theoretical foundations,
- types of needs analysis,
- pedagogical applications,
- benefits and educational outcomes.

It should be stated that Learning Needs Analysis focuses on the processes through which learners acquire language, including their preferred learning strategies, learning styles, motivation, and the development of learner autonomy (Hutchinson & Waters, 1987). Another dimension is Constraints Analysis, which examines contextual and institutional factors such as available resources, time limitations, class size, and administrative policies that may influence the implementation of a language course (Basturkmen, 2010). Wants Analysis explores learners' personal expectations, perceived needs, and goals in the language learning process, which may differ from the needs identified by teachers or institutions (Hutchinson & Waters, 1987). Finally, Pedagogic Needs Analysis integrates different analytical perspectives in order to support effective curriculum design and classroom practice, ensuring that both learner needs and educational contexts are taken into account (West, 1994).

Results

The literature analysis revealed several major findings regarding the implementation of needs analysis in language education. Needs analysis is consistently defined as a systematic process of collecting and interpreting information about learners to guide instructional decision-making. Scholars agree that a "need" represents a gap between learners' current competence and desired performance.

Needs analysis provides a foundation for defining course objectives, designing assessment tools, and selecting instructional approaches. Programs developed through systematic needs analysis show greater adaptability and relevance in learners` learning progress.

Discussion

The results confirm that needs analysis functions as a central mechanism linking theory and practice in language teaching. Rather than serving as a one-time procedure, needs analysis should be implemented continuously throughout the teaching cycle.

An integrated model combining target situation, present situation, and lacks analysis appears particularly effective in university contexts. While target situation analysis identifies future language requirements, present situation analysis ensures realistic planning, and lacks analysis highlights specific learning priorities.

Furthermore, learner involvement in needs analysis strengthens motivation and promotes learner autonomy. Adult learners benefit especially from understanding the relevance of course content to academic or professional goals.

However, institutional constraints such as fixed curricula and limited resources may restrict the implementation of comprehensive needs analysis. In such contexts, teachers can still conduct informal assessments through surveys, interviews, or diagnostic tasks.

Conclusion

This study highlights the importance of needs analysis in the development and implementation of effective language teaching programs. The findings indicate that a systematic examination of learners' needs allows educators to better understand the gap between learners' current language proficiency and the linguistic competencies required in real-life academic or professional contexts. By identifying these gaps, teachers and curriculum designers can create more relevant, flexible, and learner-centered curricula that respond directly to students' goals and expectations.

Furthermore, the study emphasizes that the integration of multiple models of needs analysis, such as target situation analysis, present situation analysis, and learning needs analysis, provides a comprehensive understanding of both the learners and the learning environment.

Another important finding is that needs analysis should not be viewed as a one-time activity conducted only at the beginning of a course. Instead, it should be implemented as an ongoing and dynamic process throughout the entire educational program. Continuous evaluation of learners' progress and changing needs enables educators to make necessary adjustments in teaching methods, course content, and learning activities. Such flexibility contributes to higher levels of learner motivation, engagement, and overall satisfaction with the learning process.


Conclusion

In conclusion, needs analysis serves as a crucial foundation for evidence-based curriculum design and effective language instruction. Its systematic application enhances the relevance and quality of language education, promotes learner-centered teaching practices, and ultimately improves learning outcomes. Therefore, educators and curriculum developers are encouraged to integrate comprehensive needs analysis procedures into all stages of language program design, implementation, and evaluation.

This study demonstrates that needs analysis plays a vital role in designing effective language teaching programs. By identifying gaps between learners' current abilities and target requirements, educators can develop relevant, flexible, and learner-centered curricula. The integration of multiple needs analysis models enhances instructional decision-making and improves learning outcomes.

References:

1. Brown, J. D. (1995). The elements of language curriculum.
2. Graves, K. (2000). Designing language courses.
3. Haseli, M. (2007). Needs analysis in language teaching.
4. Lowe, I. (2009). Needs analysis and curriculum planning.
5. Wynne, R. (2004). Learning needs analysis in education and training.
6. Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi. (2023) The significance of alternative assessment in teaching foreign languages (TFL). International bulletin of applied science and technology Volume 3, Issue 11.



TADQIQOTLAR

Dilobar JO‘RAYEVA,
RMMM Buxoro viloyat bo‘limi
Olot tuman bo‘linmasi rahbari

AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUXORO

Annotatsiya: mazkur maqolada Amir Temur va Temuriylar sulolasi hukmronligi davrida Buxoro shahrining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda Buxoroning Markaziy Osiyoning muhim strategik va savdo markazlaridan biri sifatida tutgan o‘rni, Buyuk Ipak yo‘li tizimidagi ahamiyati va shaharning mintaqaviy hamda xalqaro iqtisodiy aloqalardagi roli yoritiladi. Shuningdek, Temuriylar davrida shaharda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari, xususan masjid, madrasa, karvonsaroy va boshqa me’moriy inshootlarning qurilishi va ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni ilmiy asosda ochib beriladi. Maqolada ilm-fan va ma’rifat rivojiga e’tibor qaratilib, Buxoroning diniy-ilmiy markaz sifatidagi mavqeyi, u yerda faoliyat yuritgan olimlar va ulamolarning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, maqolada siyosiy barqarorlik, boshqaruv tizimi, shahar infratuzilmasi hamda madaniy muhitning shakllanish jarayonlari tarixiy manbalar asosida yoritilib, Temuriylar davrining Buxoro taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati umumlashtiriladi.

Kalit so‘zlar: *Amir Temur, Temuriylar sulolasi, Buxoro, Markaziy Osiyo, Buyuk Ipak yo‘li, me’morchilik, madaniyat, ilm-fan, savdo, infratuzilma, tarixiy meros.*

Аннотация: в данной статье комплексно анализируется политическое, экономическое и культурное развитие города Бухары в период правления Амира Темура и династии Тимуридов. В исследовании освещается роль Бухары как одного из важнейших стратегических и торговых центров Центральной Азии, её значение в системе Великого шелкового пути, а также участие города в региональных и международных экономических связях. Также рассматриваются созидательные работы, осуществлённые в период Тимуридов, в частности строительство мечетей, медресе, караван-сараев и других архитектурных сооружений, а также их роль в общественной жизни. Особое внимание уделяется развитию науки и просвещения, раскрывается статус Бухары как религиозно-научного центра, анализируется вклад учёных и богословов, действовавших в городе, в развитие общества.

Кроме того, на основе исторических источников освещаются вопросы политической стабильности, системы управления, городской инфраструктуры и формирования культурной среды, обобщается значение эпохи Тимуридов в развитии Бухары.

Ключевые слова: *Амир Темур, династия Тимуридов, Бухара, Центральная Азия, Великий шелковый путь, архитектура, культура, наука, торговля, инфраструктура, историческое наследие.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the political, economic, and cultural development of the city of Bukhara during the reign of Amir Temur and the Timurid dynasty. The study highlights Bukhara’s role as one of the key strategic and trade centers of Central Asia, its importance within the Great Silk Road network, and its participation in regional and international economic relations. The paper also examines the construction activities carried out during the Timurid period, including the building of mosques, madrasas, caravanserais, and other architectural structures, as well as their role in social life. Special attention is given to the development of science and education, emphasizing Bukhara’s status as a religious and intellectual center and analyzing the contribution of scholars and religious figures to societal progress.

In addition, based on historical sources, the article explores political stability, governance systems, urban infrastructure, and the formation of the cultural environment, summarizing the significance of the Timurid period in the development of Bukhara.

Key words: *Amir Temur, Timurid dynasty, Bukhara, Central Asia, Great Silk Road, architecture, culture, science, trade, infrastructure, historical heritage.*

Markaziy Osiyo tarixida Amir Temur va temuriylar davri alohida o‘rin tutadi. Bu davrda siyosiy markaz sifatida asosan Samarqand yetakchi bo‘lgan bo‘lsa-da, Buxoro shahri iqtisodiy, madaniy va diniy markaz sifatida yuksak rivojlandi. Buxoro qadimdan Buyuk ipak yo‘lining muhim tuguni bo‘lib, Temuriylar davrida uning ahamiyati yanada ortdi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr siyosiy-iqtisodiy, madaniy jihatdan gullab-yashnadi. Mamlakat rivoji va xalq farovonligi uchun Amir Temur hunarmandlik va savdo-sotiq ishlariga, ayniqsa, katta ahamiyat qaratgandi. Aynan hunarmandlar va savdo ahlining qo‘llab-quvvatlashlari Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Sohibqiron siyosatini uning avlodlari ham davom ettirib, Samarqand, Toshkent, Termiz, Qarshi va Buxoro kabi shaharlarni hunarmandlik ishlab chiqarishi va savdo markazlariga aylantirdi. Ayniqsa, Buxoro XIV asrning

ikkinchi yarmi – XV asrning boshlarida hunarmandlik va savdo taraqqiy etgan shaharlardan biri sifatida namoyon bo‘ldi.

Temuriylar saltanatining poytaxti Samarqandga ham masofa hamda ma’naviy jihatdan yaqin bo‘lgan Buxoroga Temur har gal tashrif buyurganida, darvoza oldida otdan tushib, Arkkacha piyoda borgan. Bu uning aziz avliyolarga va volidai muhtaramasi Teginabegim Mohni dunyoga keltirgan shaharga nisbatan yuksak hurmati ifodasidir. Buxoroga Samarqanddan keyingi ikkinchi markaz deb qaralib, u yerda shaxsan Temurning amr-u farmoni bilan saroylar, masjidlar, xonaqohlar, savdo rastalari va boshqa imoratlar ko‘tarilgan. Sharq va G‘arbni bog‘lab turuvchi Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan Buxoro katta savdo hunarmandchilik markaziga aylanadi.

Temur va undan keyingi temuriy hukmdorlar davrida Buxoroda ilmiy va adabiy hayot ravnaq topib, buxorolik olim-u fuzalolar saltanat ma’naviy muhitida katta rol o‘ynagan. XIV asr oxiri XV boshlarida Buxoroda Nosir Buxoriy, Muhammad al-Buxoriy, Xo‘ja Ismat Buxoriy, Sa’duddin Taftazoniy, Muhammad Porso kabi allomalar yashab ijod etganlar.[1]

Amir Temurning siyosiy faoliyati boshlanishidan to vafotiga qadar bo‘lgan davrga oid ma’lumotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, sohibqiron Buxoroga alohida hurmat bilan qaraganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar barcha o‘sha davr adabiyotlarida keltirib o‘tiladi. Bunga asos sifatida Amir Temurning onasi Tegina Begim Moh asli Buxorodan bo‘lganligi, uning otasi o‘z zamonasining obro‘li va ruhoniy-dindor kishilaridan bo‘lgan Ubaydullo ibn Mahmud al-Mahbubiy ekanligi keltirib o‘tiladi.[2] Shu bois Buxoroga Amir Temurning ehtiromi bo‘lakcha bo‘lgan deyishga to‘la asoslar mavjud. Mo‘g‘ullar ta’qibidan qochib yurgan kezlari Amir Temurning Moxonda Alibek zindoniga tushib qolishi va bu yerdan qutulishi xususida turli-tuman ma’lumotlar mavjud. Tutqunlikdan qutulib chiqqanidan so‘ng, Amir Temurning Buxoro tomonga yo‘l olishi, bu yerda uni qo‘llab-quvvatlovchilar yetarlicha topilishidan dalolat beradi. Shuningdek, Amudaryo bo‘yiga kelganda Amir Temurning opasi Buxorodan yuborgan yordamni olishi ham tarixiy adabiyotlarda keltirib o‘tiladi.[3] Bu Buxoroda mo‘g‘ullarga qarshi kuchli norozilik mavjudligini, aholi tabaqasidan qat’iy nazar mamlakat tinchligi va osudaligi uchun kurashuvchi kishini qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini ko‘rsatadi.

Amir Temur va temuriylar davrida hunarmandlikning sopolsozlik yo‘nalishida o‘ziga xos uslublar shakllangan bo‘lib, bu davrda Samarqand kulolchiligi Movarounnahrda yetakchi bo‘lgani haqida ma’lumotlar keltirilgan. Buxoro, Shahrisabz shaharlari Samarqand kulolchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘zlashtirgan edi. Tarixiy adabiyotlarda G‘ijduvon usta kulollarining Amir Temur va temuriylar davrida o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgani keltirib o‘tilgan.[4] Buxoro hunarmandchiligida yana bir taraqqiy etgan soha bu metallga va, ayniqsa, qimmatbaho metallarga ishlov berish bo‘lib, Amir Temur va temuriylar davrida sopol, chinni buyumlar bilan bir qatorda bronza buyumlar ham keng qo‘llanilgan. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xurosonning markaziy shaharlarida amalga oshirilgan me’morchilik ishlari beqiyos ko‘lam kasb etgan. Bunda avvalambor shahar qurilishi, xususan, shahar devorlarini qayta qurish va mustahkamlash, ularda saltanat nufuzini o‘zida aks ettirgan me’moriy majmualar: saroy, madrasa, masjid, xonaqoh, maqbaralar barpo etishga alohida e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari, markaziy shaharlar shoh ko‘chalarini tartibga solish, ko‘chalar bo‘ylab savdo rastalari, ixtisoslashgan ustaxona va do‘konlar qurish aniq reja asosida amalga oshirilgan. Shoh ko‘chalarning har biri shahar markazida joylashgan savdo majmuasi – Chorsudan boshlanib, mudofaa devori darvozalariga olib boruvchi asosiy yo‘nalishlar hisoblangan. Mazkur yo‘nalishdagi bunyodkorlik ishlari Samarqand, Hirot va Keshda keng ko‘lamda amalga oshirilgan. Amir Temurning bunyodkorlik va ilm-ma’rifat yo‘lidagi keng ko‘lamli faoliyati, Temuriylarning dunyo tamad munosib hissa qo‘shishi uchun mustahkam zamin yaratgan. Amir Temur davlatni markazlashtirish siyosatini olib borar ekan, Movarounnahrning yirik shaharlari, jumladan Buxoroni ham muhim strategik hudud sifatida rivojlantirdi. Buxoro: savdo yo‘llari kesishgan nuqta, diniy markaz (ulamo va madrasalar markazi), hunarmandchilik rivojlangan hudud sifatida alohida e’tibor qozondi. Temur tomonidan olib borilgan siyosat natijasida ichki xavfsizlik va savdo yo‘llarining himoyasi kuchaytirildi, bu esa Buxoroning iqtisodiy yuksalishiga zamin yaratdi[5].

Temuriylar davrida Buxoro iqtisodiy jihatdan sezilarli rivojlandi. Ayniqsa: hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo, bozor tizimi rivoj topdi. Tarixiy manbalarga ko‘ra, bu davrda Buxoroda: ipak, mato, zargarlik buyumlari ishlab chiqarilgan, mahsulotlar xalqaro bozorlarga chiqarilgan, savdo karvonlari uchun qulay infratuzilma yaratilgan[6]. Amir Temurning iqtisodiy siyosati savdoni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, soliq tizimining tartibga solinishi ham iqtisodiy barqarorlikni ta’minlagan.

Buxoro Temuriylar davrida hunarmandchilik markaziga aylandi. Ayniqsa: kulolchilik, to‘qimachilik, metallga ishlov berish, zargarlik yuqori darajada rivojlandi. Hunarmandlar mahalliy bozor bilan bir qatorda xalqaro savdoda ham faol ishtirok etgan. Buxoro mahsulotlari Yaqin Sharq, Hindiston va Xitoy bozorlarida mashhur bo‘lgan[7]. Savdo

1 Shavkat Bobojonov, O‘zR FA Tarix instituti tayanch doktoranti, Amir Temur har gal piyoda kirib borgan shahar // https://uza.uz/posts/221364

2 Amir Temur jahon tarixida. –T.: Sharq, 1996.

3 Temur va Ulug‘bek davri tarixi. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. www.ziyouz.com kutubxonasi.

4 Аҳмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 53

5 Amir Temur. Temur tuzuklari. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991

6 Panjiyev N.B. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro hunarmandchiligi va savdo-sotiq taraqqiyoti

7 Abdullayeva Sh.Sh., Otavaliyev B.S. Amir Temur va temuriylar davri iqtisodiy ta’limotlari.

yo‘llarining xavfsizligi ta’minlangani sababli, karvon savdosi rivojlanib, shahar iqtisodiy markazga aylandi. Temuriylar davrida Buxoroda shaharsozlik an’analari takomillashdi. Bu davrda: karvonsaroylar, bozorlari (chorsu), masjid va madrasalar keng qurildi. Shahar markazida savdo va diniy hayot uyg‘unlashgan holda rivojlandi. Bu jarayon butun Movarounnahrda kuzatilgan bo‘lib, Buxoro ham muhim urbanistik markazga aylandi. Temuriylar davrida bunyod etilgan me’moriy inshootlar keyingi davrlar uchun ham namunaviy maktab bo‘lib xizmat qildi.

Temuriylar davri “Renessans” davri sifatida baholanadi. Bu davrda: madrasalar faoliyati kuchaydi, ilm-fan rivojlandi, diniy va dunyoviy bilimlar uyg‘unlashdi. Buxoro bu jarayonda muhim ilmiy markazlardan biri bo‘lib, ko‘plab olimlar va ulamolar faoliyat yuritgan. Temuriy hukmdorlar, jumladan Ulug‘bek ilm-fan rivojiga katta hissa qo‘shgan[8]. Yuqoridagi omillar asosida Buxoroning Temuriylar davridagi ahamiyatini quyidagicha baholash mumkin: iqtisodiy markaz sifatida shakllandi; hunarmandchilik va savdo rivojlandi; ilmiy-madaniy muhit mustahkamlandi; shaharsozlik rivojining muhim namunasi bo‘ldi. Bu davr Buxoroning keyingi tarixiy taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor yaratdi. Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro har tomonlama rivojlangan yirik markazga aylandi. Uning iqtisodiy, madaniy va ilmiy salohiyati oshib, butun Markaziy Osiyo sivilizatsiyasida muhim o‘rin egalladi. Temuriylar tomonidan yaratilgan boshqaruv tizimi, iqtisodiy siyosat va madaniy muhit Buxoroning uzoq muddatli taraqqiyotini ta’minladi. Shu bois mazkur davr Buxoro tarixining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Xulosa.

Amir Temur va Temuriylar sulolasi davrida Buxoro shahri Markaziy Osiyoning muhim siyosiy, iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida yanada mustahkamlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Temuriylar davrida amalga oshirilgan markazlashgan boshqaruv siyosati va hududiy barqarorlik Buxoroning iqtisodiy taraqqiyoti uchun qulay sharoit yaratgan. Ayniqsa, shaharning Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashganligi uning savdo-iqtisodiy aloqalarining kengayishiga, ichki va tashqi bozorlarda faol ishtirok etishiga xizmat qilgan. Mazkur davrda Buxoroda bunyodkorlik ishlari keng ko‘lamda olib borilib, masjid, madrasa, karvonsaroy va boshqa jamoat inshootlari qurilishi shahar infratuzilmasining rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy faollikni oshirdi, balki shaharning me’moriy qiyofasini boyitib, uni mintaqaning yirik madaniy markazlaridan biriga aylantirdi. Temuriylar davrida shakllangan me’moriy an’analar keyingi davrlar shaharsozligiga ham katta ta’sir ko‘rsatganligi bilan ahamiyatlidir.

Ilm-fan va ma’rifat sohasida ham Buxoro alohida mavqega ega bo‘ldi. Shaharda diniy va dunyoviy bilimlar rivojlanib, ulamolar va olimlar faoliyati ilmiy muhitning yuksalishiga xizmat qildi. Natijada, Buxoro nafaqat savdo markazi, balki ilmiy-ma’rifiy maskan sifatida ham keng tanildi. Bu holat Temuriylar davrining ma’naviy hayotga bergan e’tiborini yaqqol namoyon etadi.

Shu bilan birga, maqolada ko‘rib chiqilgan tarixiy manbalar asosida aytish mumkinki, Temuriylar davri Buxoro tarixida muhim burilish nuqtasi bo‘lib, shaharning keyingi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berdi. Ushbu davrda yaratilgan iqtisodiy, madaniy va ilmiy asoslar keyingi asrlarda ham Buxoroning nufuzini saqlab qolishiga xizmat qilgan.

Xulosa qilib aytganda, Amir Temur va Temuriylar davri Buxoroning har tomonlama yuksalish davri bo‘lib, uning Markaziy Osiyo sivilizatsiyasidagi o‘rnini mustahkamladi. Mazkur tarixiy merosni o‘rganish bugungi kunda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, mintaqa tarixini chuqur anglashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

8 Hasanov A. Amir Temur va temuriylar davrida shaharsozlik an’analari tarixidan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Bobojonov, O‘zR FA Tarix instituti tayanch doktoranti, Amir Temur har gal piyoda kirib borgan shahar // https://uza.uz/posts/221364
2. Amir Temur jahon tarixida. –T.: Sharq, 1996.
3. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. –T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996. www.ziyouz.com kutubxonasi.
4. Аҳмедов М. Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи... – Б. 53
5. Amir Temur. *Temur tuzuklari*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1991
6. Panjiyev N.B. *Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro hunarmandchiligi va savdo-sotiq taraqqiyoti*
7. Abdullayeva Sh.Sh., Otavaliyev B.S. *Amir Temur va temuriylar davri iqtisodiy ta’limotlari*
8. Hasanov A. *Amir Temur va temuriylar davrida shaharsozlik an’analari tarixidan*
9. Begimqulova L.M. *Amir Temur va temuriylar davri tarixining o‘rganilishi*
10. Azamat Ziyo. *Amir Temur va Temuriylar davri tarixi*. – Toshkent: Sharq, 2016.
11. Bartold V.V. *Turkiston mongollar davrida*. – Toshkent: Fan, 1990.

Umida FARMONOVA,
FarDU tilshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
U1910638@gmail.com

JADID YOZMA MANBALARIDA PAREMIOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada jadidlar davrida o‘zbek adabiy tilining ijtimoiy-ma’rifiy vazifasi kuchaygani, yozma matnlar esa xalq ongini shakllantirish vositasiga aylangani tahlil etiladi. Unda jadid mualliflarining tilni nafaqat estetik ifoda vositasi, balki milliy o‘zlikni saqlash, zamonaviy bilimlarni targ‘ib qilish hamda ijtimoiy islohotlarni ilgari surish quroli sifatida qo‘llagani yoritiladi. Shu bilan birga, paremiologik birliklar – maqol, matal, hikmatli so‘z va aforizmlar – xalq donishmandligi hamda adabiy nutqning tutash nuqtasi sifatida namoyon bo‘lishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *jadidlar davri, paremiologiya, frazeologiya, maqol, aforizm, hikmatli so‘z, pragmatika, milliy o‘zlik, adabiy til.*

Аннотация: в статье анализируется усиление социально-просветительской функции узбекского литературного языка в период джадидизма, когда письменные тексты стали важным средством формирования общественного сознания. Показано, что джадидские авторы использовали язык не только как эстетическое средство выражения, но и как инструмент сохранения национальной идентичности, распространения современных знаний и продвижения социальных реформ. В этом контексте паремиологические единицы – пословицы, поговорки, изречения и афоризмы – выступают точкой пересечения народной мудрости и литературной речи.

Ключевые слова: *джадидизм, паремиология, фразеология, пословица, афоризм, народная мудрость, прагматика, национальная идентичность, литературный язык.*

Annotation: this article examines the strengthening of the socio-educational function of the Uzbek literary language during the Jadid period, when written texts became a key instrument in shaping public consciousness. Jadid authors employed language not only as an aesthetic means of expression but also as a tool for preserving national identity, promoting modern knowledge, and advocating social reforms. In this context, paremiological unit – sproverbs, sayings, maxims, and aphorisms – represent the intersection of folk wisdom and literary discourse.

Key words: *jadid period, paremiology, phraseology, proverb, aphorism, pragmatics, national identity, literary language, folk wisdom.*

Kirish. Jadidlar davri o‘zbek adabiy tili va ijtimoiy tafakkuri tarixida tub burilish yasagan muhim bir bosqichdir. Bu davrda yozma matnlar xalq ongini uyg‘otish, ma’rifatparvarlik g‘oyalarini yoyish hamda milliy o‘zlikni mustahkamlashning asosiy vositasiga aylandi. Jadid mualliflari tilni nafaqat estetik ifoda quroli, balki ijtimoiy islohotlar va zamonaviy tafakkurni shakllantirish omili sifatida ham qo‘lladilar. Xususan, paremiologik birliklar – maqol, matal, hikmatli so‘z, aforizm va iboralar – jadid matnlarida muhim pragmatik vazifa bajarib, muallifning g‘oyaviy-ma’rifiy maqsadini xalqchil va ta’sirchan usulda ifodalashga xizmat qildi.

ASOSIY QISM. Jadidlar davri o‘zbek tilining adabiy va ijtimoiy tafakkuridagi tub o‘zgarishlar davri bo‘lib, bu jarayonda yozma matnlar xalqning ma’rifiy ongini shakllantirishda asosiy vositaga aylangan. Jadid mualliflari o‘z ijodiy faoliyatida tilni nafaqat estetik ifoda vositasi, balki milliy o‘zlikni saqlash, zamonaviy bilimlarga yo‘naltirish va ijtimoiy islohotlarni targ‘ib qilish quroli sifatida ishlatganlar. Shu ma’noda jadid matnlarida paremiologik birliklar (maqol, matal, hikmatli so‘z, aforizm, ibora) – xalq donishmandligi va adabiy nutqning kesishgan nuqtasi bo‘lib, ularning pragmatik xususiyatlari orqali muallifning ijtimoiy-ma’rifiy niyati samarali amalga oshirilgan.

Paremiologiya (yunoncha “paroimia” – maqol, matal va “logos” – ta’limot, bilim) frazeologiyaning bir bo‘limi hisoblanib, maqollar, matallar, hikmatli so‘zlar, aforizmlar, topishmoqlar, shiorlar va boshqa paremiologik birliklarni o‘rganish hamda tasniflash bilan shug‘ullanadi. Paremiologiyaning asosiy vazifasi – muayyan xalq yoki ijtimoiy guruhning hayotiy tajribasi asosida shakllangan an’anaviy qadriyatlar va dunyoqarashni qisqa, obrazli va mazmunan chuqur ifodalovchi og‘zaki birliklarni tahlil qilishdan iborat [1: 89-91].

Ibora, maqol, aforizm, hikmatli so‘zlar (bular qatoriga ba’zi manbalarda topishmoqlar ham uchraydi) bir nuqtada umumiyatga ega, u ham bo‘lsa nutq jarayonida tuzilmasligi, nutqga tayyor holda kiritilishidir. Maqol, aforizm kabilarni nutqqa tayyor holda kiritish ma’lum talab asosida yuz beradi, albatta. Bunday talab juda katta keng tarqalgan bo‘lib, unda o‘zganing nutqini aynan keltirish holatlarining barchasida amal qilinadi. Shu sababli bu talab (nutqqa tayyor holda kiritish) iborani boshqa hodisalardan farqlashda ham, maqol, aforizm kabi hodisalarni iboralar bilan birlashtirishda ham asos bo‘la olmaydi [2: 32].

Jadid davri yozma manbalarining tili o‘zining serqatlamligi va yuksak ta’sirchanligi bilan ajralib turadi. Bu davr ijodkorlari, xususan, Abdulla Avloniy asarlarida

qo‘llangan iboralar nafaqat badiiy-estetik vazifani bajargan, balki kuchli ma’rifiy, axloqiy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan. Avloniy o‘z asarlarida xalq og‘zaki ijodiga xos iboralar, maqol-matallar, diniy-axloqiy mazmundagi hikmatli so‘zlar hamda turli obrazli ifodalardan keng va o‘rinli foydalangan. Ushbu til birliklari matnning hissiy-ta’sirchanligini oshirish, muallif g‘oyasini o‘quvchi ongiga aniq va samarali yetkazish hamda milliy-ma’naviy qadriyatlarni targ‘ib qilishga xizmat qilgan: *“Shoshma bolam, hamma maqsad shulda – varaqaning ichida. Man o‘qub tamom qilay, san yaxshilab quloq solub tur”* [3: 131]. *Quloq solmoq* frazeologizmi o‘zbek tilining ko‘p ma’noli turg‘un birliklaridan biridir. Ushbu ibora nutq jarayonida semantik va pragmatik jihatdan faol qo‘llanadigan frazeologik birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur birlik Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati”da ikki asosiy ma’noda izohlangan. Birinchi ma’nosi “tinglamoq, diqqat bilan eshitmoq” bo‘lib, “axborotni ongli ravishda qabul qilish jarayoni”ni bildiradi. Uning varianti sifatida *quloq osmoq* (eskirgan shakli) keltiriladi, sinonimi esa *quloq bermoq* birligi hisoblanadi. Ikkinchi ma’nosi “aytganini qilmoq, bo‘ysunmoq” tarzida izohlanadi. Bu ma’noda ham *quloq osmoq* varianti qayd etilgan bo‘lib, sinonimlari sifatida *gapiga kirmoq, gapidan chiqmaslik* birliklari ko‘rsatiladi [4: 421].

Frazeologizmning birinchi ma’nosi “eshitish va tinglash jarayoni”ni anglatsa, ikkinchisi semantik kengayish natijasida yuzaga kelgan. Ya’ni “tinglash” harakati mazmunan “so‘zini qabul qilish” va undan keyin “amal qilish” bosqichiga o‘tgan. Shu tariqa *eshitish → anglash → qabul qilish → bo‘ysunish* semantik zanjiri shakllangan. Bu esa iboraning ichki ma’no taraqqiyotini ko‘rsatadi.

Abdulla Avloniyning “Advokatlik osonmi?” asarida kelgan *quloq solib tur* shakli buyruq-istak maylida qo‘llangan bo‘lib, kommunikativ jihatdan direktiv nutqiy aktni ya’ni “so‘zlovchi tinglovchidan diqqatini jamlashni, nutqini bo‘lmasdan eshitishni va mazmunni anglashga tayyor turish”ni talab qiladi. Kontekstga ko‘ra, ibora asosan birinchi – “tinglamoq” ma’nosida qo‘llangan. Biroq buyruq ohangi sababli unda ikkinchi ma’noga xos irodaviy komponent, ya’ni so‘zga kirish va itoat qilish semasi ham sezilib turadi.

Aforizmlar o‘zining uslubiy tabiatiga ko‘ra rang-barangdir. Bunga ularning mazmunan turlicha fikrlarni umumlashtirishi sabab bo‘lib, bu holat alohida isbot talab qilmaydi. Aforizmlar orasida jiddiy mazmundagi hukmlar, hikmatli so‘zlar, pand-nasihatlar, hajviy maqollar va boshqa shakllar uchraydi. Shu bilan birga, aforizmlarning uslubiy xususiyatlari ularning ma’no qamrovichalik keng va xilma-xil emas [5: 57-59].

Abdurauf Fitrat qalamiga mansub: *“Kimki o‘z insonlik darajasini asl holatidan taraqqiy qildirsa, bu uning insonlik olamig‘a kirishidir. Hakimlar uni INSON ataganlar”* [6: 144] satrlari mazmunan chuqur falsafiy xarakterga ega bo‘lgan aforizmlardan biridir.

Ushbu fikrda inson mohiyati biologik mavjudlik bilan emas, balki ma’naviy-axloqiy kamolot orqali belgilanishi ta’kidlanadi. Fitrat nazarida, inson tug‘ma mukammal bo‘lmaydi. Balki u o‘z ustida ishlab, tafakkurini kengaytirib va axloqiy sifatlarini rivojlantirib, haqiqiy inson maqomiga erishadi. “Insonlik darajasini taraqqiy qildirmoq” iborasi shaxsning ichki yuksalishini, o‘zini anglashini va komillikka ongli intilishini ifodalaydi.

“Insonlik olamiga kirish” birikmasi esa metaforik ma’noga ega bo‘lib, yuksak ma’naviy makonga, ya’ni komillik bosqichiga qadam qo‘yishni anglatadi. Bu jarayon natijasida shaxs oddiy tirik mavjudot darajasidan ongli, mas’uliyatli va jamiyat oldidagi burchini anglaydigan insonga aylanadi. “Hakimlar uni INSON ataganlar” jumlasi orqali esa donishmandlar fikriga tayanilgan holda ideal inson konsepsiyasi ilgari suriladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, jadid adabiyotida paremiologik birliklar xalq donoligi va zamonaviy ma’rifiy tafakkur o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning nutqqa tayyor holda kiritilishi, umumlashma mazmuni va kuchli ta’sirchanligi jadid mualliflarining ijtimoiy-ma’rifiy maqsadlarini samarali ro‘yobga chiqarishga xizmat qilgan. Paremiologik birliklarning pragmatik imkoniyatlari jadid matnlarining g‘oyaviy yo‘nalishi va uslubiy o‘ziga xosligini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Djuraeva Z.R. Approaches to the study of paremiology in russian linguistics. European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS). Available Online at: https://www.scholarzest.com. Vol. 2 No. 3, March 2021. – P. 89-91.
2. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент: Фан, 1970. – Б. 32.
3. А.Авлоний. “Адвокатлик осонми?”. – Б. 131. https://www.ziyouz.com/ .
4. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati [Matn] : lug‘at / – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022. 421-b.
5. Королькова А.В., Тишина А.Е. Функциональная закрепленность и эмоционально-экспрессивная окраска русских афоризмов. The scientific heritage. № 79. 2021. – С. 57-59.
6. Jadidlar. Abdurauf Fitrat [Matn]: risola./H.Boltaboyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti, 2022. 144-b.

Iroda TURAMURATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti, f.f.f.d (PhD)
i.turamuratova@uzswlu.uz
Madinabonu TURSUNOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Roman-german filologiyasi fakulteti
Ispan tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
madinabonutursunova2007@gmail.com

ISPAN VA O‘ZBEK ALLALARINING QIYOSIY TAHLILI: MUSHTARAKLIK VA O‘ZIGA XOSLIK

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolada ispan va o‘zbek allalari qiyosiy jihatdan o‘rganiladi va tahlil qilinadi. Allalarning mavzusi, obrazlari, til xususiyatlari, musiqiy uslubi va madaniy mazmuni nafaqat taqqoslanadi, balki o‘xshash tomonlari ham birdek yoritiladi. Shu bilan bir qatorda, milliy madaniyat, qadriyat va dunyoqarashni aks ettiruvchi ikki millatning folklor janri ham ilmiy nuqtayi nazardan tadqiq etiladi. Maqolada har ikki xalq allalarining kelib chiqishi, tarixiy shakllanish bosqichlari va bugungi kundagi ahamiyati ham yoritiladi. Shuningdek, allalarda aks etgan onalik mehr-muhabbati, bolaga bo‘lgan ezgu tilaklar, milliy qadriyatlar va ijtimoiy qarashlar qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ispan va o‘zbek allalarining o‘xshash tomonlari bilan bir qatorda, ularning o‘ziga xos milliy xususiyatlari ham aniqlanadi. Xususan, o‘zbek allalarida milliy an’ana va qadriyatlarning ustuvorligi, ispan allalarida esa obrazlilik va musiqiylikning o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek folklori, ispan folklori, onalik madaniyati, estetik qarash, beshik, nana, canción de cuna.*

Аннотация: в данной научной статье проводится сравнительный анализ испанских и узбекских колыбельных песен. Рассматриваются темы, образы, языковые особенности, музыкальный стиль и культурное содержание колыбельных. Особое внимание уделяется не только различиям, но и сходствам между ними. Кроме того, с научной точки зрения исследуется фольклорный жанр двух народов, отражающий национальную культуру, ценности и мировоззрение. В статье также освещаются происхождение колыбельных песен обоих народов, этапы их исторического формирования и их значение в современности. Кроме того, проводится сравнительный анализ отражённых в колыбельных материнской любви, добрых пожеланий ребёнку, национальных ценностей и социальных взглядов. В ходе исследования наряду с общими чертами испанских и узбекских колыбельных песен выявляются и их специфические национальные особенности. В частности, в узбекских колыбельных подчёркивается приоритет национальных традиций и ценностей, тогда как в испанских колыбельных выделяются особенности образности и музыкальности.

Ключевые слова: *узбекский фольклор, испанский фольклор, материнская культура, эстетическое восприятие, колыбель, нана, canción de cuna.*

Annotation: this scientific article presents a comparative study of Spanish and Uzbek lullabies. It analyzes their themes, imagery, linguistic features, musical style, and cultural content. The study highlights not only the differences but also the similarities between them. In addition, the folklore genre of both nations, reflecting their national culture, values, and worldview, is examined from a scientific perspective. The article also examines the origins of lullabies in both cultures, the stages of their historical development, and their significance in the present day. Furthermore, a comparative analysis is conducted of the expressions of maternal love, well-wishes for the child, national values, and social perspectives reflected in these lullabies. During the research, along with identifying the similarities between Spanish and Uzbek lullabies, their distinctive national features are also determined. In particular, Uzbek lullabies emphasize the priority of national traditions and values, whereas Spanish lullabies highlight specific characteristics of imagery and musicality.

Key words: *Uzbek folklore, Spanish folklore, maternal culture, aesthetic perception, cradle, nana, canción de cuna.*

Kirish. Har bir xalq va millatning og‘izdan og‘izga o‘tib kelayotgan dostonlari, she’rlari, hikoyalari hamda allalarini o‘zida mujassam etgan eng qadimgi janrlardan biri folklor janridir va ushbu janr orqali estetik qarash namoyon bo‘ladi. Ya’ni, xalq og‘zaki ijodining eng barqaror namunasi bo‘lmish alla deyarli barcha madaniyatlarda mavjud, shuningdek, tarbiyaviy ahamiyat kasb etgan holda, bolalarda xalqiga, vataniga, qadriyatlarga, ajdodlariga hurmat ruhini shakllantirishda xizmat qiladi.

Asosiy qism. Dunyo bo‘ylab xalq qo‘shiqlariga oid tadqiqotlarda ham alla alohida o‘rganib kelingan soha hisoblanadi. Misol uchun, o‘zbek tadqiqotchilarining folklorshunoslikka oid kitoblarida alla qo‘shig‘i haqida turli qarashlarni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, Hazrati Alisher Navoiy “Xamsa” **[1]** asarining beshinchi dostonida: “Beshik atrofiga chinliklar yig‘ilib, yuz ohang bilan alla aytar edilar. Bolaning ko‘zidagi noz boshqalaming ko‘zidan uyqusini qochirar va ular Farhodning uyqusini keltirish uchun alla aytar edilar”, deb izoh beradi. O‘zbek allalarida ona ko‘pincha farzandiga baxt, sog‘lik, omad, yaxshi kelajak tilaydi. Masalan, “alla-yo, alla” kabi takroriy ohangdor so‘zlar bolaning tinchlanishi uchun xizmat qiladi. Ispan madaniyatida esa alla “nana” yoki “canción de cuna” deb ataladi. Bu janr nafaqat bolani uxlatish, balki unga dunyoni poetik obrazlar orqali tanishtirish vazifasini ham bajaradi. Ona ko‘proq tabiat obrazlari orqali murojaat qiladi: oy (luna), yulduz (estrella), shamol (viento) kabi timsollar tez-tez uchraydi. Bu esa ispan folklorida tabiat bilan uyg‘unlik g‘oyasi kuchli ekanini ko‘rsatadi. Hamda ramziy

timsollar, ertakona unsurlar ko‘p uchraydi. Masalan, mashhur ispan allalaridan birida shunday satr bor: “Duerme, duerme, mi niño, que la luna te cuida.” (Ma’nosi: “Uxla, bolam, oy seni asraydi.”) Bu jumla ispan madaniyatida oyning himoya, tinchlik va mehr timsoli ekanini ko‘rsatadi.

Ispan oilalarida eng mashhur allalardan quyidagilar bor:

“A la nanita nana”

“Duérmete, niño”

“Nana de Sevilla”

“Los pollitos dicen pío” (ba’zan alla sifatida ham kuylanadi). Ular nafaqat Ispaniyada, balki butun Lotin Amerikasi mamlakatlarida ham keng tarqalgan (Meksika, Argentina, Peru, Chili va boshqalar). Chunki hammamizga ma‘lumki, Lotin Amerikasi (Meksika, Peru, Argentina, Kolumbiya va boshqalar) uzoq vaqt Ispaniya mustamlakasi bo‘lgan. Shu davrda nafaqat ispan tili ommalashgan, balki ispan madaniyati, qo‘shiqlari va folklori mahalliy aholiga o‘tdi. Shuning uchun ko‘plab ispan allalari Lotin Amerikasida ham saqlanib qolgan.

A la nanita nana,
nanita ella,
nanita ella,
mi niña bella.
Duérmete, mi niña,
duérmete ya,
que viene el sueño
y te arrullará.
A la nanita nana,
mi corazón,
que tienes sueño
y te duermes hoy.
Las estrellitas
del cielo azul
te están mirando
con dulce luz.
A la nanita nana,
nanita ya,
duerme, mi niña,
no llores más. [2]

Natija va muhokamalar. O‘zbek va ispan alla qo‘shiqlarining lingvomadaniy xususiyatlarini, madaniyatga oid lisoniy birliklarini ochib beradigan bo‘lsak, quyidagilarni ko‘rishimiz mumkin. Ispan allalarida yetakchilik qiladigan mavzular:

1. Tabiat bilan bog‘liqlik.

Ispan allalarida oy, yulduz, shamol, dengiz, qushlar obrazlari juda ko‘p uchraydi. Bu ispan xalqining tabiatni ruhiy mavjudot sifatida qabul qilishini anglatadi.

2. Himoya motivi.

Ko‘plab ispan allalarida ona bolani nafaqat o‘zi, balki tabiat kuchlari ham himoya qilishini aytadi: oy, farishtalar, yulduzlar bolani asraydi.

3. Tasalli va tinchlantirish.

Ispan allalari sokin ohangda aytiladi va bolaning qo‘rquvini yo‘qotishga xizmat qiladi.

4. Ba’zan ogohlantirish motivi.

Ba’zi ispan allalarida bolani uxlamasa “biror narsa keladi” degan ogohlantirish motivi ham bor. [3]

Urush bo‘lgan yillarda ajdodlarimizga eng katta yordamchi bu ot hisoblangan. O‘zbek xalqining ezgulik ruhi sifatida tarixda qolgan. Otning yosh bolasi toychoq deb ataladi, shuning uchun ham onalar bolalarini “toychog‘im” deb erkalaydilar. Alla so‘zlari yordamida bolani gulga hamda munchoq va chiroqlarga o‘xshatishadi. Bunda munchoq o‘zbek ayollarining sevimli zargarlik buyumlari hisoblanib, ona farzandini qimmatbaho va o‘zining sevimli buyumiga o‘xshatadi. Chiroqqa o‘xshatishining sababi, bilamizki, chiroq bu o‘zidan nur taratib, yo‘llarimizni yoritib beradigan vosita va ona o‘zining umr yo‘llarini yoritib berguvchi vositani farzandi deb biladi.

Tog‘lardagi toychog‘im, alla,
Bog‘lardagi gulu lolam, alla,
Bo‘ynimdagi munchog‘im, alla
Tunda yongan chirog‘im, alla. [4]

Xulosa. Alla matnlari bolalarni uxlatish, tarbiyalash, olam bilan tanishtirish, onalarning ruhiy osoyishtaligiga xizmat qiluvchi qo‘shiq bo‘lishi bilan bir qatorda farzand kejagiga ta’sir qiluvchi vositalardan biridir. Bola yoshligida ongiga singan fikrlar, ma’lumotlar asosida odamlar bilan muloqotga kirishadi, farzandlarning jamiyatda o‘z o‘rnini topishida, tashqi dunyoga bo‘lgan munosabatida ham allalarning o‘z o‘rni bor. Alla matnlariga buyuk allomalarimizdan boshlab bugungi kun olimlariga qadar murojaat etib kelishmoqda. Alla matnlari folklorshunoslik doirasida atroflicha o‘rganilgan, ilmiy xulosalar berilgan. Alla matnlarida ko‘plab madaniy birliklar, xalq etnografiyasiga oid udumlar mavjud bo‘lib, ularni lingvokulturologik jihatdan o‘rganish tilshunosligimiz taraqqiyoti va ravnaqi uchun muhim sanaladi.

O‘zbek va ispan allalari o‘ziga xos milliy rang-baranglikka ega bo‘lsa-da, ular umumiy insoniy qadriyatlar asosida shakllangan. Allalar faqat bolani uxlatish vositasi emas, balki madaniy meros, tarbiya quroli va milliy identitet ifodasidir.

Mazkur qiyosiy tahlil kelajakda folklorshunoslik, madaniyatshunoslik va tilshunoslik sohalarida yanada chuqurroq tadqiqotlar olib borishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin”. A. Hojiahmedov. “Akademnashr”. – Toshkent, 2010. 80-b. https://www.tsuull.uz/sites/default/files/navoiy_va_21-asr_2.pdf

2. Lana Montalban.“ Lullaby: Canción de Cuna”. “Snow Fountain Press” 2023 – 36 b. - https://www.amazon.in/Lullaby-Canci%C3%B3n-cuna-Polina-Pluslem/dp/1957417196.

3. Las más bellas nanas del mundo “Editorial Kókinos” 2011 – 60 b. -https://gestiona3.madrid.org/bvirtual/BVCM051123.pdf

4. Oxunjon Safarov “O‘zbek xalq og‘zaki ijodi”. “Musiqa” nashriyoti. – Toshkent, 2010. 369-b. https://ru.scribd.com/document/941556414/O-Zbek-Xalq-Og-Zaki-Ijodi-Safarov-O-2010

Marxabo ISMOILOVA,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi
kafedrasi o‘qituvchisi
ismoilovamarhobo634@mail.com



O’TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA ONA TIMSOLI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida ona siymosining ulug‘lanishi va uning badiiy talqini tahlil qilinadi. Yozuvchi o‘z asarlarida ona obrazini mehr-oqibat, sabr-toqat va fidoyilik timsoli sifatida tasvirlaydi. Ayniqsa, onaning farzand tarbiyasidagi o‘rni, oiladagi mehr manbai ekani hamda uning qalbidagi cheksiz muhabbat badiiy vositalar orqali yoritiladi. Adib asarlarida ona obrazi nafaqat oila timsoli, balki milliy qadriyatlar va insoniy fazilatlarning mujassam ifodasi sifatida gavdalanadi. Tadqiqotda yozuvchining ona obrazini yaratishdagi badiiy mahorati hamda uning ma’naviy ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, ona obrazi, mehr-muhabbat, fidoyilik, sabr-toqat, oila, milliy qadriyatlar, badiiy tasvir, insonparvarlik.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественное изображение и прославление образа матери в произведениях O‘tkir Hoshimov. Писатель изображает мать как символ доброты, терпения, любви и самоотверженности. В его произведениях раскрывается роль матери в воспитании детей, её значение как источника семейного тепла и безграничной любви. Образ матери представлен как воплощение национальных ценностей и высоких человеческих качеств.

Ключевые слова: *O‘tkir Hoshimov, образ матери, любовь, самоотверженность, терпение, семья, национальные ценности, художественное изображение.*

Annotation: this article analyzes the artistic representation and glorification of the mother figure in the works of O‘tkir Hoshimov. The writer portrays the mother as a symbol of kindness, patience, love, and devotion. His works highlight the important role of mothers in raising children, their place as the source of warmth in the family, and their boundless love. The image of the mother is presented as a reflection of national values and noble human qualities.

Key words: *O‘tkir Hoshimov, mother figure, love, devotion, patience, family, national values, artistic depiction.*

Kirish.O‘zbek adabiyotida ona siymosi doimo ulug‘lanadigan va qadrlanadigan mavzulardan biri hisoblanadi. Ona hayoti, uning mehr-oqibati, sabr-toqat va fidoyiligi nafaqat oilaviy, balki milliy qadriyatlarning asosi sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, O‘tkir Hoshimov asarlarida ona obraziga alohida e’tibor qaratilgan. Adib o‘z ijodida onani faqat oilaning markazi sifatida emas, balki insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar va ma’naviy tarbiyaning timsoli sifatida tasvirlaydi. Uning asarlarida ona nafaqat o‘z farzandlari uchun, balki jamiyat uchun ham fidokor, mehr-muhabbatga boy shaxs sifatida gavdalanadi.

O‘tkir Hoshimovning adabiy dunyosi inson ruhiyatining nozik jihatlari bilan boyitilgan. U o‘z asarlarida insonning ichki kechinmalari, oiladagi munosabatlar, ijtimoiy muhit va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘liq turli masalalarni ochib beradi. Shuningdek, Hoshimov ona obrazini yaratishda badiiy uslub va tasvir vositalariga katta e’tibor qaratadi. Ona siymosi uning asarlarida ko‘pincha farzand tarbiyasi, oilaviy iliqlik, mehr-oqibat va fidoyilik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu obraz orqali adib o‘quvchiga hayotning asl qadriyatlari — mehr, muhabbat, sabr, sadoqat va insonparvarlik — haqida chuqur mulohaza yuritishga imkon yaratadi.

Adibning ona siymosiga yondashuvi faqat individual, shaxsiy tajriba bilan cheklanmaydi. U milliy madaniyat, urf-odat va an’analardagi ona rolini ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Masalan, Hoshimov asarlarida ona nafaqat farzandning birinchi tarbiyachisi sifatida tasvirlanadi, balki uning sabri, mehr-muhabbati va fidoyiligi orqali jamiyatning ma’naviy barqarorligini saqlashda ham muhim rol o‘ynashi ko‘rsatib beriladi. Shu jihatdan, ona obrazining badiiy talqini o‘zbek adabiyotida insoniy qadriyatlarni, oila va jamiyatning ruhiy muhitini yoritishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Ona siymosi Hoshimov asarlarida ko‘plab qirralarda ochib beriladi.Farzand tarbiyasi, oiladagi mehr-muhabbat, oilaning birdamligi, ona cheksiz fidoyiligi, hayotiy qiyinchiliklarga dosh berish qobiliyati – bularning barchasi ona obrazini yanada chuqur va ta’sirchan qiladi.Hoshimovning qahramonlari orqali o‘quvchi ona qalbidagi cheksiz mehr, farzandlar uchun kechirilgan azoblar va fidoyilikni his qiladi. Shu bilan birga, yozuvchi ona obrazini faqat realistik tasvirlash bilan cheklanmay, uni badiiy ramzga aylantiradi – ona jamiyatning ma’naviy yuragi, mehr va ezgulik timsoli sifatida gavdalanadi.

Ona obrazining ulug‘lanishi Hoshimovning badiiy dunyosida tinchlik, insonparvarlik va oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilish bilan chambarchas bog‘liq. U asarlarida ona siymosini yaratish orqali insonning ruhiy olami, mehr-muhabbatga bo‘lgan ehtiyoji, oilaviy iliqlik va sadoqat kabi qadriyatlarni o‘quvchiga yetkazadi. Bu esa nafaqat

o‘quvchini o‘ylashga, balki hayotiy va ma’naviy qadriyatlarni qadrlashga, oilaga va jamiyatga munosabatini yanada chuqurlashtirishga undaydi. Shu jihatdan, ona obrazining badiiy talqini Hoshimov ijodida asosiy mavzulardan biriga aylanadi va uning adabiy merosida alohida o‘rin tutadi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida ona siymosi inson ruhiyati, oilaviy qadriyatlar va milliy madaniyatning muhim timsoli sifatida tasvirlangan. U o‘z asarlarida onani nafaqat farzand tarbiyasidagi muhim shaxs, balki insoniy fazilatlar, mehr-muhabbat va fidoyilik ramzi sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqot ushbu ona obrazining badiiy jihatlari, uning ijtimoiy va ma’naviy ahamiyati hamda yozuvchi tomonidan ishlatilgan badiiy uslubni chuqur o‘rganishga qaratilgan. O‘tkir Hoshimov asarlarida ona hayotning asl ma’nosi, poklik va fidoyilik timsoli sifatida ulug‘lanadi. Global Science Review maqolasida qayd etilishicha, yozuvchi “Ona” timsoli orqali insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, eng olijanob tuyg‘ularni mujassam etgan eng aziz zotni tasvirlaydi. Uning asarlarida ona farzand uchun eng katta tayanch va himoyachidir.

O‘tkir Hoshimov asarlarida onaning ulug‘lanishi quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi:

Fidoyilik va sabr: ona obrazlari o‘z farzandlari yo‘lida har qanday qiyinchilikka chidashga tayyor, beminnat va fidoyi insonlar sifatida tasvirlanadi.

Ma’naviy poklik: ona oilaning ma’naviy ustuni, poklik va xalqchillik timsoli bo‘lib, farzandlariga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatadi.

Hayotning ma’nosi: ona timsoli orqali inson hayotining eng oliy maqsadi, mehr-u muhabbat va oqibat ulug‘lanadi.

O‘tkir Hoshimov ijodida ona nafaqat biologik ona, balki Vatan va tuproq timsoli sifatida ham yuksak ehtirom bilan qalamga olingan. “Ona”, “Ayol” siymolari dunyoning barcha millatlari hayotida eng ulug‘ va mo‘tabar zotlar hisoblanib, xalqlarning adabiy hayotida asosiy g‘oya va obraz shaklida gavdalanib kelinadi. Har bir millatda “Ona” obrazini, ayollik xususiyatlarini birlashtirib turuvchi mushtarak fazilatlar bisyor bo‘lsa-da, ayni paytda har bir xalqning ona siymosini boshqa xalqlardan undagi ichki va tashqi dunyosi, fe’l-atvori, tabiati va dunyoqarashi bilan ajralib turuvchi farqli jihatlari ham ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ona butun bir millat, xalqning shakllanishida, uning rivojlanishi va yoki zavol tutishini ta’minlaydigan, butun bir millatning namoyon bo‘lishida alohida o‘rin tutuvchi shaxs, siymodir. Turli manbalarda ”Ona” va “Ayol” konsepsiyalariga turlicha ta’rif berilib kelingan. O‘tkir Hoshimov ijodida ona timsoli xalqimizning milliy qadriyatlari, odatlari va ruhiy olamini yoritishda muhim o‘rin tutadi. Uning asarlarida ona – mehribonlik, sabr-toqat, va rahm-shafqat manbai,oilaning tayanchi va farzandlar tarbiyasida beqiyos rol o‘ynaydigan timsol sifatida tasvirlanadi. Hoshimov o‘z asarlarida ona timsoli orqali o‘zbek xalqining o‘ziga xosligini, uning qadimiy an’analari va axloqiy qadriyatlarini ochib beradi.Hoshimovning “Dunyoning ishlari” kabi asarlarida ona qahramon timsoli, milliy xarakter va ruhiy dunyoni aks ettiradi. Asarda Ona obrazida aks etadigan kuchli vatanparvarlik, hayotiy saboqlar, sabr va mehr orqali xalqimizning tarbiyaviy qadriyatlari yuksak saviyada ifodalanadi. Hoshimovning asarlaridagi ona timsoli – bu nafaqat ona sifatida, balki xalqona donolik va insoniylikni o‘zida mujassamlashtirgan ayol obrazidir. Hoshimov asarlarida ona timsoli faqat bir oilaga tegishli emas, balki butun bir xalq, millat uchun onalik ramziga aylangan. Bu obrazi orqali yozuvchi xalqona mehr, insoniylik, ota-ona va bola o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hurmat rishtalarini ko‘rsatadi. “Ona – Vatan” tushunchasini o‘zaro bog‘lab, milliy ruhi, o‘zligini anglash, kelajak avlodga o‘tadigan milliy merosga urg‘u beradi.Hoshimovning ijodida ona timsoli, avvalo, oddiy hayotiylikda, ya’ni zamonaviy ona sifatida namoyon bo‘lsa-da, unda o‘zbekona sabr-toqat, bardosh va mehri mavjud. Bu obraz orqali yozuvchi ona va Vatan orasidagi chambarchas bog‘liqlikni, onaning milliy tarbiya va qadriyatlarni avloddan-avlodga uzatishdagi rolini tasvirlaydi.Ona obrazining bunday teran va chuqur tasviri O‘tkir Hoshimovning ijodiga xalq mehrini qozonganligi sabablaridan biridir. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, psixolog V. Vagnerning fikricha, “Ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg‘usi insonning boshqa hayotiy talablari ya’ni, yashash, ovqatlanish bilan bir qatorda, barobar turuvchi xislatdir” Shunday ekan, onalik tuyg‘usi dunyodagi eng oliy, beminnat va bebaho tuyg‘udir. Adibning “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” asaridagi “Eng oliy tuyg‘u” parchasida quyidagicha keltiriladi: “Bola emizib o‘tirgan ayolga zimdan razm soling... Go‘dagiga termulib bola emizayotgan onaning ko‘zlariga sinchiklab tikiling... Eng oliy tuyg‘u nimaligini shunda ko‘rasiz! “Haqiqatdan ham dunyodagi eng oliy va bebaho tuyg‘u bu onaning bolasiga bo‘lgan samimiy va be’minnat mehr-muhabbati hisoblanadi.Inson yaralishi bilan Alloh unga ota-onasini in’om etadi. Har bir insonning kamolotida, voyaga yetishida, tarbiyasida onalarning hissasi kattadir. Onaning muhabbati bolaning hayotida ahamiyati katta. Bola voyaga yetgunga qadar ona uning suyanchi, himoyachisi hisoblanadi. Shu sababli ham buyuk asarlarning kattagina qismi aynan onalarga, ayollarga bag‘ishlangan. Mana shunday asarlar sirasiga o‘zbek adabiyotida yaratilgan “Dunyoning ishlari” asarida ham onalar obrazini yanada go‘zal so‘zlar orqali yoritib berilgandir. O‘tkir Hoshimov ushbu qissasida ona qiyofasi son-sanoqsiz jilolari bilan tasavvuringizda namoyon bo‘ladi. Muallif har bir hikoyasi yakunlanishi bilanoq ushbu hikoyaga kichik parchalar qoldirib ketadi. “Dunyoning ishlari”da kashf qilingan ona obrazi O‘tkir Hoshimovning keyingi asarlarida ham boshqa zamon va boshqa makonlarda o‘quvchining ko‘z o‘ngida gavdalanadi.Ushbu qissa ijodkorning ona obrazini yaratishdagi eng yuqori cho‘qqisi deb aytsak mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘zimiz dalili deb Said Ahmadning “Ijod va jasorat” maqolasidagi ushbu fikrlarni keltirsak bo‘ladi: “Dunyoning ishlari’’ asarini qissa emas, doston deb atashni istardim. U qo‘shiqday o‘qiladi.Uni o‘qib turib, o‘z onalarimizni o‘ylab ketamiz. Shu mushfiq, shu jafokash onalarimiz oldidagi bir umr uzib bo‘lmas qarzlarimizning aqalli bittasini uza oldikmi, degan bir andisha, bir savol ko‘z oldimizda ko‘ndalang turib oladi’’. “Ikki eshik orasi” romanidagi Qora amma, Robiya, Ra’no obrazlarining taqdirida ham zamonning ta’sirini ular hayotida ro‘y bergan o‘zgarishlar va voqealar tasvirida ko‘rishimiz

mumkin. Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov o‘z asarlarida davr va ona obrazini yuksak mahorat bilan tasvirlaydi.Odamlarning onaga bo‘lgan munosabatidan kelib chiqib qanday insonligini ko‘rsatadi.Zamonning tartib taomillari, ateistik targ‘ibotning jamiyatning barcha jabhalariga qaratilganiga qaramasdan, insoniylik, insof singari yuksak xislatlarni saqlab qolish va uni o‘z farzandlarining tarbiyasida qo‘llashi aynan sharq ayolining fazilatlaridan biridir. Misol tariqasida, qissaning “Ikki afsona” hikoyasida muallif onasining barvaqt turib, ko‘cha supurib ishlaganini eslab o‘tadi. Unda vaqt o‘tgani sari akasining onasiga shu ishni qilmasligi haqidagi so‘zlariga alohida e’tibor qaratish lozim. Insonning halol mehnat qilib, peshona teri bilan hayot kechirishi dindan xabardorlik sifatida onaning har qanday halol mehnatning aybi yo‘qligi haqidagi so‘zlari bilan ta’riflanadi. Ushbu holatning alohida e’tiborga sazovor jihati shundaki, onaning halol luqma bilan farzandlarining qornini to‘q, ustini but tutishi, o‘zidagi halovatning mavjudligi, uning o‘z mehnati bilan (eng oddiy ish bo‘lsa-da) g‘ururlanishi va insofidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, ijtimoiy-psixologik jihatdan onalik tuyg‘usi insonning boshqa hayotiy talablari (yashash, ovqatlanish va boshqa) bilan bir qatorda barobar turuvchi xislatdir. Muallifning “Gilam paypoq” hikoyasida, onaning deyarli yalangoyoq holatida bolasining umri, uning sog‘lig‘i uchun o‘zining sog‘lig‘idan voz kechishga, kerak bo‘lsa, uning o‘rniga o‘zi ajalga tik qarashga tayyorligidan buni yaqqol ko‘rish mumkin. Tibbiyot nuqtayi nazaridan qaralganda, og‘ir homiladorlik holatlari yoki tug‘ruq vaqtida onaning va bolaning hayotiga xavf bo‘lgan holatlarda, deyarli barcha shifokorlar bolaning umridan voz kechgan holda onani qutqarishga bel bog‘lashadi.Ushbu mantiqqa asosan, ona yana bola ko‘rishi mumkin, ammo bola onani qaytara olmaydi. Lekin, muallif hikoyasining mantig‘i hech bir narsa ona hissiyotidan ustun emasligidan dalolat beradi.Hayotda onalarimizni quyoshga mengzashlari bejiz emas, quyosh o‘z nurlarini yerga beminnat taratgani kabi ona ham farzandlariga va oilasiga o‘z mehrini minnatsiz beradi.Novellada ona jigargo‘shasidan doimo xavotirda yashaydi. Hatto olamni tark etganda ham farzandini o‘z mehr nuridan bahramand etgisi kelishi asarda mohirlik bilan tasvirlangan.Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to‘laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ona mavzusi O‘tkir Hoshimov uchun navqiron va abadiy tugallanmas ilhom manbaidir. “Dunyoning ishlari” qissasi har bir inson vaqtida onasining qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarini bajarish lozimligini eslatadi. Yo‘qsa, vaqtlar o‘tgandan so‘ng afsus qilishi tayin, albatta. Ushbu asar onalarning kechinmalari, his-tuyg‘ulari, go‘zal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir. Ayol azaldan mehr-shafqat va sadoqat timsoli bo‘lib kelgan. Ayol deganda ko‘z o‘ngimizda avvalo, ulug‘ va tabarruk ona siymosi gavdalanadi. Inson zoti borki, olamdagi barcha yaxshilik va ezguliklarni, hayot siru-asrorlari va saboqlarini onaning mehr-u saxovati tufayli o‘rganadi. Sharqda ayolga bo‘lgan hurmat, ehtirom uni qadrlash,uni ko‘klarga ko‘tarish ota bobolarimizdan meros. Dunyoda “muqaddas” degan so‘zga eng munosib zot ham – Onadir.Onani e’zozlash – bizning millatimiz, xalqimiz uchun oliy qadriyat darajasiga kotarilgan fazilat. Chunki ayollarni qancha ulug‘lasak, hayotimizning chirog‘i, umrimizning guli deb e’zozlasak, demakki, oilamizni,Vatanimizni e’zozlagan bo‘lamiz.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov asarlarida ona siymosi nafaqat oila va farzand tarbiyasidagi markaziy shaxs sifatida, balki insoniy fazilatlar, milliy qadriyatlar va ma’naviy ideal timsoli sifatida tasvirlangan. Yozuvchi ona obrazini mehr-oqibat, sabr-toqat va fidoyilik orqali gavdalantirib, uning farzand va jamiyat hayotidagi rolini ochib beradi. Asarlarda ona siymosining ulug‘lanishi, uning cheksiz muhabbati va fidoyiligi orqali o‘quvchi insoniy qadriyatlar, tinchlik, sadoqat va oilaning ahamiyati haqida chuqur mulohaza yuritadi.Shuningdek, Hoshimov ona obrazini milliy urf-odatlar, ma’naviy qadriyatlar va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘lab, o‘zbek adabiyotida ona timsolining badiiy va ma’naviy ahamiyatini yanada boyitadi. Natijada, adib ijodi nafaqat badiiy yuksakligi, balki insonparvarlik, mehr-muhabbat va oilaviy qadriyatlarni targ‘ib qilishi bilan ham alohida qadrlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2015.
2.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015.
3.Hozirgi o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2018.
4.O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.
5.O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq, 2019.
6.O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2018.
7.O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2016.
8.O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” nashriyoti, 2017.
9.O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2014.
10.XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016.

Zamira PORSIYEVA,
Qarshi davlat universiteti
Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi
kafedrasi o‘qituvchisi
zamiramuxtorovna@mail.com



O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA URUSHGA QARSHI G‘OYALAR IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida urushga qarshi g‘oyalarning badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Yozuvchi o‘z asarlarida urushning inson taqdiriga, oila va jamiyat hayotiga yetkazgan og‘ir oqibatlarini chuqur tasvirlaydi. Asarlarda insonparvarlik, tinchlikni qadrlash, ona va oila dardi, inson ruhiyatidagi iztiroblar orqali urushning asl mohiyati ochib beriladi. Tadqiqotda yozuvchining badiiy uslubi, obrazlar tizimi hamda urushga nisbatan tanqidiy munosabati yoritilib, uning asarlarida tinchlik g‘oyasining ustuvorligi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *O‘tkir Hoshimov, urush, tinchlik, insonparvarlik, badiiy tasvir, oila fojeasi, jamiyat, ruhiy iztirob, adabiy tahlil.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественное выражение антивоенных идей в произведениях Ўткир Ҳошимов. Писатель глубоко раскрывает тяжелые последствия войны для судьбы человека, семьи и общества. Через образы матерей, семейные трагедии и внутренние переживания героев автор показывает истинную сущность войны и подчеркивает ценность мира и гуманизма. В исследовании рассматриваются художественный стиль писателя, система образов и его критическое отношение к войне.

Ключевые слова: *Ўткир Ҳошимов, война, мир, гуманизм, трагедия семьи, общество, духовные переживания, художественное изображение.*

Annotation: this article analyzes the artistic expression of anti-war ideas in the works of O‘tkir Hoshimov. The writer vividly depicts the severe consequences of war on human destiny, family life, and society. Through the suffering of families, the pain of mothers, and the inner struggles of characters, the author reveals the true nature of war and emphasizes the value of peace and humanity. The study also examines the writer’s artistic style, system of characters, and critical attitude toward war.

Key words: *O‘tkir Hoshimov, war, peace, humanism, family tragedy, society, psychological suffering, artistic depiction.*

Kirish. Urush – insoniyat tarixida doimiy ravishda chuqur iz qoldirgan hodisa bo‘lib, adabiyotda u nafaqat tarixiy voqelik, balki inson ruhiyatining sinov maydoni sifatida tasvirlanadi. O‘zbek adabiyotida ham urush mavzusi keng yoritilgan bo‘lib, ayniqsa, Ikkinchi jahon urushi davri adiblar asarlarida bu motiv alohida o‘rin egallaydi. Bunda nafaqat jangovar voqealar, balki urushning insoniy taqdirlarga ta’siri, jamiyat ruhiyatidagi siljishlar ham tasvirlanadi. O‘tkir Hoshimov — XX asrning ikkinchi yarmi va XXI asr boshlarida faol ijod qilgan yozuvchi sifatida o‘z asarlarida inson ruhiyatini, xotira va kechinmalarni chuqur badiiy yoritgan. Uning asarlarida urush mavzusi bevosita yoki bilvosita shaklda mavjud bo‘lib, bu motiv orqali insoniylik, sabr, kechirim, fojia va umid kabi tushunchalar yoritiladi. Ushbu maqola Hoshimov asarlarida urushning qanday badiiy usullar orqali ifodalanganini, bu orqali qanday g‘oyalar ilgari surilganini tahlil qilishga qaratilgan.

O‘tkir Hoshimov va uning ijodiy muhitiga nazar. O‘tkir Hoshimov 1941-yilda Toshkentda tug‘ilgan bo‘lib, urush yillarining bevosita guvohi bo‘lmagan, biroq urushdan keyingi inqirozli ijtimoiy muhitda ulg‘aygan avlod vakilidir. Aynan shu davrning ijtimoiy-siyosiy bosimi, ruhiy holati va xalq xotirasidagi og‘ir izlar uning ijodida muhim mavzu bo‘lib shakllanadi. Adib ilk asarlaridayoq inson ruhiyatiga chuqur kirib borishga, oddiy inson hayotining dramatizmini ochishga intiladi. Hoshimovning ijodiy yo‘li hikoya va qissalardan boshlangan bo‘lib, keyinchalik roman janrida ham yuksak yutuqlarga erishgan. Uning “Ikki eshik orasi”, “Urushning so‘nggi qurboni”, “Dunyoning ishlari” kabi asarlarida urush mavzusi turli badiiy ko‘rinishlarda o‘z aksini topgan. Bu asarlar orqali adib inson hayotidagi eng og‘ir va keskin sinovlardan biri bo‘lgan urushni estetik jihatdan chuqur anglatishga muvaffaq bo‘lgan.

Urush mavzusi Hoshimov asarlarida. O‘zbek adabiyotida inson taqdiri, jamiyat muammolari va ma’naviy qadriyatlarni chuqur yoritgan ijodkorlardan biri O‘tkir Hoshimov hisoblanadi. Yozuvchining asarlarida inson qalbi, oila muammolari, mehr-oqibat va hayot haqiqatlari samimiy hamda ta’sirchan tarzda tasvirlangan. Ayniqsa, urush mavzusi va uning inson hayotiga keltirgan og‘ir oqibatlari adib ijodida muhim o‘rin egallaydi.Urush insoniyat tarixida eng katta fojealardan biri bo‘lib, u nafaqat jang maydonidagi yo‘qotishlar, balki odamlarning ruhiy kechinmalari, oilalarning parokandaligi va jamiyat

hayotidagi og‘ir sinovlar bilan ham namoyon bo‘ladi. Adib o‘z asarlarida urushni ulug‘lamaydi, aksincha, uning inson taqdiriga yetkazgan iztiroblarini ko‘rsatish orqali tinchlikning naqadar qadrli ekanini ta’kidlaydi.Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida urushga qarshi g‘oyalarning badiiy ifodalanishi, yozuvchining insonparvarlik ruhidagi qarashlari hamda urush oqibatlarining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shuningdek, adib yaratgan obrazlar orqali tinchlik, mehr-muhabbat va insoniy qadriyatlarning ahamiyati ochib beriladi.

Avvalo, bir haqiqatni ta’kidlash lozimki, O‘.Hoshimov yigirmanchi asr adabiyoti yozuvchisi, ammo u urushdan keyingi avlod vakilidir. Binobarin, O‘.Hoshimov o‘zining asarlarida, asosan, front ortida fidokorona mehnat qilgan insonlar haqida gapiradi. “Ikki eshik orasi” romanida o‘z davrining muhim muammolari yoritilgan. Romanning bosh qahramonlari Ikkinchi jahon urushi og‘irini o‘z yelkasida ko‘targan va unda mardonavor g‘alaba qozongan insonlardir. Xususan, Orif oqsoqol, Xusan duma, Komil tabib, Kimsan, “Qora xola”, Robiya obrazlarida o‘zbek xalqining urush yillaridagi fidoyiliklari badiiy mujassamlashgan. O‘.Hoshimov urushni o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan bo‘lsa-da, adabiy faoliyatining boshida urush yaralari odamlar qalbida hali bitmagan edi. “Ikki eshik orasi” romanining muqaddimasida muallif shunday deydi: “Men ko‘p odamlarni ko‘rdim – bu kitob qahramonlarini o‘zim ham ko‘rdim, ular bilan suhbatlashdim. Ba’zilar bilan – o‘z ko‘zlarim bilan, ba’zilari bilan -ruhlari bilan ...”. Muallif bu asarida bir qancha qahramonlar hikoyasini asos qilib olgan holda, yuksak badiiy mahorat bilan o‘z xalqining tarixiy taqdirini, insoniy taqdirlarning teskari burilishlarini ko‘rsatgan. Bu asar katta muvaffaqiyat bo‘ldi va o‘zbek kitobxonlari ongini hayajonga soldi. Yozuvchiga minglab xatlar kelgan. U tomonidan ko‘tarilgan muammolar jamoatchilik fikrini uyg‘otdi. O‘quvchilar Kimsanboyning o‘limidan xavotirda edilar,Robiya bilan birga aza tutdilar, Ra’noning xiyonati va qochib ketganidan nafratlandilar, jajji Muzaffarga achinishdi – bularning barchasini xalq boshidan kechirdi. “Ikki eshik orasi” romanida Muzaffarning onasi – Ra’no erining frontdan qaytishini kutmay, advokat Umar bilan uchrashadi. Bu hikoya ham Muzaffarning taqdiri va hayotida unutilmas izlar qoldiradi. Ishdan ishga aylanib yuradigan bunday epizodlar ularning hissiy ta’sirchanligi va ishontirish qobiliyatiga zarar yetkazadi. G‘am insonni bir zumda ulg‘aytiradigan buyuk kuchdir.Insonning psixologiyasi shundayki, u boshiga tushgan qayg‘uni to‘liq anglab yetmasa ham, uni qalbi bilan juda nozik his qiladi. Yozuvchi o‘z romanlarida ana shu hayot haqiqatini alohida ta’kidlaydi. “Ikki eshik orasi” romani qahramonlaridan biri (Robiya qayg‘u chekkan qiz) shunday deydi: “Yig‘lagim keldi, yig‘ladim. Hatto onam ham sezmadi”. Kutilmagan qayg‘u, ma’lum bo‘lishicha, bir kunda bolani kattalarga aylantiradi.Ko‘rib turganingizdek, yozuvchi bola ruhiyatiga, bosh qahramon misolida, Ikkinchi Jahon Urushining ulkan fojiasiga ta’sir qilganini his qilgan. “Ikki eshik orasi” romani qahramoni Olimjon o‘n yashar bola bo‘lsa-da, butun yurt boshiga tushgan qayg‘uni ichidan his qiladi. U kattalarcha gapiradi va o‘ylaydi,dushman ustidan g‘alaba qozonishga chin dildan hissa qo‘shishni xohlaydi. Romanda shunday bir manzara bor: “Yo‘q, sen ket, yaxshi! Men uning gapini to‘xtatdim. Ertalab maktabga borishingiz kerak. Bor, portfelingni ol, daftar namlanadi. – Opa! – qattiq yig‘lab Olimjon meni quchoqladi. – Men ketmayman! – deb baqirdi u. – Men ketmayman! Menga maktab kerak emas,opa!”. Bir qarashda o‘n yoshli bolaning bunday so‘zlari maktabga bormaslik uchun qilgan oddiy haziliga o‘xshaydi.Qizig‘i shuki, Olimjon o‘qishni istamagan bo‘lsa, nega O‘tkir Hoshimov uni juda iqtidorli bola deb ta’riflaydi? Agar iqtidorli bo‘lmasa, nega urushdan keyin institutda o‘qib, shahar ijroiya qo‘mitasi raisi darajasiga ko‘tariladi? Axir u oddiy kolxozchining o‘g‘li edi-ku! Gap shundaki, Olimjon garchi “URUSH” so‘zining asl mohiyatini to‘liq anglamagan bo‘lsa-da, insonlar boshiga tushgan ulkan qayg‘uni qalbining tub-tubida his qildi. Uning maktabda o‘qish o‘rniga kattalar yonida kolxozda ishlash istagi bolalarcha hazil emas! U faqat vatan uchun nimadir qilish, frontda jang qilganlarga o‘z mehnati bilan yordam berish ishtiyoqi bilan yonadi! Bir kuni u Robiyaga: “Opa! Voyaga yetganimdan keyin men ham frontga chiqaman, to‘g‘rimi? E’tibor bering, aslida u urush nimaligini hali to‘liq anglamagan, lekin tezroq ulg‘ayib, Vatanni (qishlog‘ini Vatan so‘zi bilan tushunadi) dushmandan himoya qilmoqchi. Chunki u Vatan himoyasiga muhtojligini biladi.Avvalo shuni ta’kidlash kerakki, bolani kattalardek fikrlash tarzida tasvirlash juda qiyin ish, chunki uning o‘ta jasorati o‘quvchida shubha uyg‘otishi mumkin. Bu masalada yozuvchi o‘ziga xos yo‘l bilan bordi. Olimjon obrazini yaratishda O‘tkir Hoshimov buni e’tibordan chetda qoldirmadi.

Masalan, uning romanidan ikkita epizodni olaylik: “... yigitlar, qizlar orasidan bir o‘g‘il chiqib, bu yerga yugurdi. Uni darrov tanidim–Olimjon! Boshiga bo‘sh sumka ko’tarib yuguradi. Yugurib kelib, u tezda harakatlanayotgan traktorning kabinasiga o‘tirdi va uning yonida o‘tirdi va baland ovoz bilan qichqirdi: – Olma xohlaysizmi? Keyin javobni kutmay, shimidagi ikkita olmani chiqarib, bittasini menga tortib oldi”. Shu zarbning o‘zi o‘quvchi ko‘z o‘ngida faqat bolalarga xos bo‘lgan fikrlarning soddaligi,o‘tkirligi va musaffoligini mukammal tarzda qayta tiklaydi. Yoki yana bir epizodni olaylik: Kolxoz raisi Umar Zakunchining ko‘rsatmasi bilan qishloq bolalari o‘rim-yig‘imdan keyin qolgan g‘allani terib olishga yordam beradi. Rais kolxoz yerlaridan yig‘ilgan g‘allaning yarmini ularga berishni va’da qiladi, lekin so‘zida turmadi. Olimjonga yig‘gan molining beshdan birini beradi. Bolaning bu nohaqlikka munosabatiga e’tibor bering: “Olimjon ham eshitganidan lol qoldi. – Bu yetarli emas. Yolg‘on gapirma! —dedi rais hazillashyapti, deb

o‘ylab jilmayib. – Menga yarmini bering. Ularning o‘zlari aytishdi! –Shu gapni aytib, raisdan ko‘zini uzmay, donni yana qopga sola boshladi (Shundan keyin kolxoz raisi ayovsiz kaltaklaydi)”. Ko‘rib turganingizdek, Olimjonning bolalarcha yuragi raisning bunday pastkashligini qabul qila olmaydi.O‘tkir Hoshimov urush davri bolasi obrazini tasvirlab, uning kuchli irodasini badiiy detallarda ochib berar ekan, hayot haqiqatidan uzoqlashmaydi.Romandagi obrazni inobatga olib, yuqoridagilarni tahlil qilib, quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin: O‘tkir Hoshimov bola obrazini yaratar ekan, uning ongida asta-sekin o‘zgarishlarni tasvirlaydi.O‘.Hoshimov romanida bola psixologiyasidagi o‘zgarishlar evolyutsion xarakter kasb etadi. O‘.Hoshimov o‘z qahramoni timsolida qaysidir ma’noda bolalarcha dunyoqarashini saqlab qolgan. U kattalar kabi o‘ylashni va fikrlashni boshlaydi, u hamma narsaga shubha qiladi. Bu, bir tomondan, muallifga o‘z qahramonining harakatlarini boy badiiy ranglarda tasvirlash imkonini beradi.Shuningdek, psixologizm Hoshimov asarlarining ajralmas jihatlaridandir.Urushning tashqi holatlari emas, balki odamlarning ichki iztiroblari, ikkiyuzlamachilik, vijdon azobi, qo‘rquv, sog‘inch kabi hissiyotlar tasviri orqali urush fojialiligi ochiladi. Ramziy obrazlar – eshik, qorong‘ulik, yo‘qotilgan maktublar, sukut, tunda yongan chiroq – urush motivining badiiy kuchini oshiradi. Ular orqali yozuvchi ma’nolarni chuqurlashtiradi, urushni konkret emas, balki falsafiy darajada tasvirlaydi. Konfliktlar strukturasi ham urush mavzusining yoritilishida muhim rol o‘ynaydi. Bu konfliktlar tashqi emas, ichki ziddiyatlar asosida quriladi: odam o‘z vijdoni bilan kurashadi, qaror qabul qilishda qiynaladi, eski va yangi qadriyatlar orasida sarson bo‘ladi. Bularning bari urushning ko‘rinmas, ammo kuchli ta’sir doirasini ko‘rsatadi.

Asarlardan tahliliy misollar.“Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasida urushda bevaqt halok bo‘lgan inson taqdiri orqali yozuvchi fojialilikni ochib beradi. Hikoyadagi qahramon urush tugaganidan keyin ham, ruhiy jihatdan urush ichida qoladi. Uning xotirasida urushning og‘riqli manzaralari, do‘stlarining halokati, begunoh odamlarning o‘limi abadiy iz qoldiradi. Bu izlar uni hayotda davom etishga qo‘ymaydi, oxir-oqibat u ham urush qurboniga aylanadi – ammo jang maydonida emas, balki urushdan keyingi tinch hayotda. “Dunyoning ishlari”dagi ayrim hikoyalar ham urushga bilvosita ishora qiladi.

Masalan, keksa otaxonning og‘zidan aytiladigan “urushdan keyin bunday bo‘lmagan” degan iboralar yosh avlodga nasihat sifatida beriladi. Bu yerda urush ijtimoiy va axloqiy mezon sifatida ishlatiladi – u adolat, vijdon, sabr va bardosh bilan bog‘lanadi.“Ikki eshik orasi” romanida esa urush faqat tarixiy orqafon emas, balki roman strukturasini tashkil etuvchi ramziy elementdir. Ikki eshik – bu urush va tinchlik, o‘tmish va kelajak, zulmat va yorug‘lik, eskilik va yangilik o‘rtasidagi chegaradir. Personajlarning hayoti aynan shu chegarada kechadi. Ulardan kimdir o‘tmish og‘irliklaridan qutulolmaydi, kimdir esa yangilik sari yo‘l oladi. Urush bu yerda tanlovga majbur qiluvchi kuch sifatida ifodalanadi.

Xulosa.O‘tkir Hoshimov asarlarida urush mavzusi ko‘rinmas, lekin juda kuchli badiiy energiya manbai sifatida mavjud. Bu mavzu uning hikoyalari, qissalari va romanlarida turli darajalarda ifoda topgan – xotira, ruhiy iztirob, ramzlar, ijtimoiy sinovlar, kechinmalar va konfliktlar orqali. Urush tasvirining bevosita emas, balki bilvosita va psixologik yondashuvda berilishi, uni Hoshimov ijodining o‘ziga xos jihatlaridan biriga aylantiradi.Adibning asarlarida urush insoniyatning o‘z-o‘zini anglash vositasi sifatida talqin qilinadi. Shu sababli Hoshimov asarlari nafaqat o‘z davri uchun, balki hozirgi avlod uchun ham muhim badiiy va axloqiy ahamiyatga egadir. O‘tkir Hoshimov asarlarida urushga qarshi g‘oyalar chuqur badiiy ifoda topgan. Yozuvchi urushni ulug‘lashdan ko‘ra, uning inson hayoti, oila va jamiyatga keltirgan og‘ir oqibatlarini tasvirlash orqali tinchlikning qadrini ochib beradi. Asarlarda inson ruhiyatidagi iztiroblar, ona va oila dardi, ayriliq va yo‘qotishlar orqali urushning fojeali mohiyati yoritiladi.

Shu bilan birga, adib asarlarida insonparvarlik, mehr-oqibat va tinch hayotning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Bu esa o‘quvchini urushning salbiy oqibatlari haqida chuqur o‘ylashga va tinchlikni qadrlashga undaydi. Demak, O‘tkir Hoshimov ijodi nafaqat badiiy jihatdan boy, balki insoniyat uchun muhim bo‘lgan tinchlik va ezgulik g‘oyalarini targ‘ib qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: “Yangi asr avlodi” nashriyoti, 2015.
2.Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2015.
3.O‘tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2017.
4.O‘tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. – Toshkent: Sharq, 2019.
5.Hozirgi o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “Tafakkur” nashriyoti, 2018.
6.O‘tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2018.
7.O‘tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. – Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2016.
8.O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 2014.
9.O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: “O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi” nashriyoti, 2017.
10.XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 2016.

Laylo ERNAZAROVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti
“Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim
nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi
elektron manzil: layloernazarova@1gmail.com



O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA PROPOZITSIYA VA PRESUPPOZITSIYA IFODASI

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov asarlari misolida propozitsiya va presuppozitsiya hodisalarining lingvistik tahlili ko‘rib chiqiladi. Yozuvchi matnlarida bu tushunchalarning nutqiy-muloqot jarayonlarida tutgan o‘rni, ularning ma’no hosil qilishdagi funksiyalari o‘rganilib, misollar asosida yoritilgan. Tadqiqot semiotika va pragmalingvistika metodologiyalariga asoslangan.

Kalit so‘zlar: *propozitsiya, presuppozitsiya, pragmalingvistika, matn lingvistikasi, muloqot, ma’no yaratish, nutqiy harakatlar*

Аннотация: в данной статье проводится лингвистический анализ явлений пропозиции и пресуппозиции на примере произведений Уткира Хошимова. Исследуется роль этих понятий в процессах речевой коммуникации в текстах писателя, их функции в формировании смысла, что освещается на основе конкретных примеров. Исследование базируется на методологиях семиотики и прагмалингвистики.

Ключевые слова: *пропозиция, пресуппозиция, прагмалингвистика, лингвистика текста, коммуникация, формирование смысла, речевые акты.*

Annotation: this article provides a linguistic analysis of the phenomena of proposition and presupposition using the works of O’tkir Hoshimov as examples. The role of these concepts in speech communication processes within the writer’s texts and their functions in meaning formation are examined and illustrated with examples. The research is based on semiotic and pragmalinguistic methodologies.

Key words: *proposition, presupposition, pragmalinguistics, text linguistics, communication, meaning construction, speech*

Tilshunoslikning zamonaviy paradigmalari tilni faqatgina tuzilmalar yig‘indisi sifatida emas, balki muloqot va idrok jarayonlarining muhim vositasi sifatida o‘rganishga katta e’tibor qaratmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tildagi ma’no hosil qilish mexanizmlarini, xususan, propozitsiya va presuppozitsiya kabi tushunchalarni tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ikki tushuncha nutqiy harakatlar nazariyasi, muloqot pragmatikasi va matn lingvistikasi doirasida faol o‘rganilmoqda. Muloqot jarayonida so‘zlovchi ma’lum bir axborotni tinglovchiga yetkazish uchun gapning sintaktik va semantik tuzilmasidan foydalanadi, bu jarayonda esa propozitsiya markaziy o‘rinni egallaydi. Presuppozitsiya esa, so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi oldindan mavjud bo‘lgan umumiy bilimlar, e’tiqodlar va farazlar majmuini anglatadi, bu esa muloqotning samaradorligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridir [9:330].

Yozuvchi o‘z asarlarida inson psixologiyasining murakkab qirralarini, jamiyatning o‘tkir muammolarini, shuningdek, shaxsiy kechinmalarni mahorat bilan tasvirlaydi. Bu jarayonda, nutqiy belgilar orqali ma’no yaratish, yashirin xabarlarni uzatish hamda o‘quvchida muayyan hissiyot va fikrlarni uyg‘otishda propozitsiya va presuppozitsiya mexanizmlari fundamental rol o‘ynaydi. Ularni tahlil qilish orqali yozuvchining individual uslubini, uning badiiy konsepsiyasini va o‘quvchiga ta’sir etish vositalarini chuqurroq anglash mumkin.

Propozitsiya g‘oyasi qadimgi falsafadan, Aristotelning hukm nazariyasidan boshlanadi. U gapning mantiqiy mazmunini ifodalovchi, tasdiqlovchi yoki inkor etuvchi qism sifatida qaralgan. Ammo uning tilshunoslikdagi chuqur tahlili 20-asrda mantiqiy semantikaga oid ishlar bilan bog‘liq bo‘ldi. Presuppozitsiya tushunchasi Charles Fillmore, Bas van Fraassen va ayniqsa, P.Strawson ishlari orqali tilshunoslik maydoniga kirib keldi. Strawson presuppozitsiyani gapning haqiqat qiymati uchun zaruriy shart sifatida ko‘rsatgan[13:320]. Keyinchalik, Austin va Searle kabi tadqiqotchilar nutqiy harakatlar nazariyasini

rivojlantirish bilan presuppozitsiyaning pragmatik jihatlarini kengaytirdilar[3:151]. Ular presuppozitsiyani shunchaki mantiqiy shart emas, balki kommunikativ niyat, nutqiy faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishi uchun zaruriy bo‘lgan umumiy fon bilimi sifatida baholadilar.

Propozitsiya – tilshunoslikda gapning asosiy mantiqiy mazmunini ifodalovchi, haqiqat yoki yolg‘on bo‘la oladigan, har qanday nutqiy aktning predmet-mantiqiy yadrosini tashkil etuvchi tushunchadir [2:136]. Oddiy qilib aytganda, bu – gapning xabar beruvchi qismi bo‘lib, unda biror voqea, holat, hodisa yoki munosabat haqida ma’lumot beriladi. Propozitsiya gapning modallik, kommunikativ maqsad, emotsionallik kabi qo‘shimcha ma’nolaridan holi holda, uning predmet-mantiqiy tarkibini ifodalaydi. Misol uchun, “Talaba kitob o‘qidi” gapida “talabaning kitob o‘qishi” propozitsiyani tashkil etadi. Bu propozitsiya tasdiqlovchi xarakterga ega va so‘zlovchining subyektiv munosabatini aks ettirmaydi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida propozitsiya oddiy axborot uzatish vositasi bo‘lish barobarida, badiiy matnning asosiy ma’no qatlamini yaratishga xizmat qiladi. Yozuvchi asarlarida qahramonlar fe’l-atvorini, ularning ichki dunyosini, shuningdek, voqealar rivojini aynan propozitiv xabarlar orqali yetkazadi. Bu xabarlar ko‘pincha real hayotdagi voqelikni aks ettirgan holda, chuqur ijtimoiy-axloqiy muammolarni ko‘taradi. Masalan, “Dunyoning ishlari” asaridagi quyidagi parchani ko‘raylik:

“O‘g‘limning yuragi toza. Faqat ishonmasdi, xolos. Nega uning yuragi bunday bo‘lib qoldi, nega ishonmasdi, bunisiga aqlim yetmaydi” [5:156].

Bu propozitsiyalar orqali o‘g‘ilning xarakteri, uning ichki holati va qayg‘usi haqida asosiy ma’lumot beriladi. Ayni paytda, onaning o‘g‘liga bo‘lgan munosabati, uning azob chekishi ham bilvosita aks etgan. Bu propozitsiyalar, o‘quvchiga qahramonning xarakteri va uning kechinmalari haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xabar beradi, bu esa syujet rivojiga zamin yaratadi.

O‘tkir Hoshimov matnlarida propozitsiyalar nafaqat yakka gaplar shaklida, balki murakkab shakllarda, jumladan, qo‘shtirnoq ichidagi gaplarda (ko‘chirma gaplarda), dialoglarda va qahramonlarning ichki monologlarida ham ifodalanadi. Bu uning matnlarida polifonik ma’no yaratishga imkon beradi, chunki har bir personaj o‘z propozitsiyalarini taqdim etadi, bu esa o‘z navbatida, o‘quvchiga voqealar va qahramonlarga turli nuqtayi nazarlardan baho berish imkonini beradi. Yozuvchi propozitsiyalarni badiiy maqsadda qo‘llash orqali asarlarining g‘oyaviy-badiiy salohiyatini oshiradi. Propozitsiyalar orqali shunday haqqoniy va jonli manzaralar yaratiladiki, ular o‘quvchini befarq qoldirmaydi. Masalan, “Dunyoning ishlari” asarida, onaning bolalariga bo‘lgan mehrini ifodalovchi, ularning hayotidagi oddiy, ammo propozitiv jihatdan muhim voqealarning tasvirlanishi, o‘quvchiga kuchli hissiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida, matnning emotsional yuklamasini oshiradi.

Presuppozitsiya – bu gapning ma’nosini to‘liq tushunish uchun zarur bo‘lgan, so‘zlovchi va tinglovchi uchun umumiy bo‘lgan, oldindan mavjud deb hisoblanadigan bilim yoki shartdir[4:272]. U gapning haqiqat qiymatiga ta’sir qilmaydi, balki gapning o‘zi mazmunli bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan zaminni yaratadi. Presuppozitsiya – bu muloqotning “yashirin shartlari” bo‘lib, ular nutq jarayonida ochiq aytilmasdan, ammo tushunilgan holda ishlatiladi.

O‘tkir Hoshimov asarlarida presuppozitsiya badiiy matnning chuqur ma’no qatlamlarini ochishda, qahramonlarning ichki dunyosini, ularning motivatsiyasini aniqlashda va o‘quvchiga bilvosita xabarlarni yetkazishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Presuppozitsiyalar yordamida yozuvchi matnni ixchamlashtiradi, chunki o‘quvchi uchun ma’lum bo‘lgan faktlarni takrorlashga hojat qolmaydi.

Bu yerda yozuvchi onaning o‘g‘liga bo‘lgan chuqur tushunishini, uning o‘g‘lini avvaldan bilganligini matnning ochiq qismida yozmaydi, balki onaning ichki kechinmalari orqali bilvosita yetkazadi. Presuppozitsiyalar o‘quvchiga qahramonlar o‘rtasidagi munosabatlarning chuqurligini anglashga yordam beradi. O‘tkir Hoshimov presuppozitsiyalardan qahramonlarning nutqida ularning ijtimoiy mavqei, ta’lim darajasi va madaniy bilimlari farqini ko‘rsatish uchun ham foydalanadi. Yuqori saviyadagi personajlarning nutqida yanada murakkab va bilvosita presuppozitsiyalar kuzatilsa, oddiy xalq vakillarining nutqida esa oddiyroq, ko‘proq kundalik hayotga oid presuppozitsiyalar uchraydi.Bu, yozuvchining personajlarining tilini shaxsiyatlashtirish va ularning individualligini ta’kidlashga xizmat qiladi.

Propozitsiya va presuppozitsiya tushunchalari o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Propozitsiya gapning asosiy, yangi axborotni tashkil etsa, presuppozitsiya esa bu axborotni tushunish uchun zarur bo‘lgan fon bilimini, ya’ni eskirgan, allaqachon ma’lum bo‘lgan axborotni taqdim etadi[4:279]. Boshqacha qilib aytganda, har bir propozitsiya o‘zining mazmunli bo‘lishi uchun ma’lum bir presuppozitiv shartlarga tayanadi. Presuppozitsiyasiz

propozitsiya mantiqan to‘g‘ri bo‘lishi mumkin, ammo kommunikatsiyada o‘z joyini topmaydi, uni tushunish qiyinlashadi.

O‘tkir Hoshimov matnlarida, shuningdek, metaforalar, iboralar va idiomatik ifodalar orqali ham murakkab presuppozitsiyalar yaratiladi. Bu kabi til birliklari faqat propozitiv ma’noga ega bo‘lmay, balki o‘z ichida chuqur madaniy, milliy va psixologik presuppozitsiyalarni ham yashiradi. Masalan, “Ko‘z yoshi daryo bo‘ldi” kabi gapda, propozitiv ma’no “ko‘p yig‘ladi”ni bildirsa, presuppozitiv ma’no esa bu yig‘lash juda kuchli qayg‘u, azob sababli yuz berganini, ko‘z yoshining oddiy emasligini, balki chuqur fojiaviy tus olganini anglatadi. Bu kabi ifodalar o‘quvchida chuqur hissiy rezonans uyg‘otadi.

Presuppozitsiya badiiy matnda ekspressiv vosita sifatida ham samarali qo‘llaniladi. Maxsus tanlangan presuppozitiv yuklamaga ega so‘zlar yoki sintaktik konstruksiyalar personajlarning emotsional holatini kuchaytirishga, muallifning kayfiyatini ifodalashga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘tkir Hoshimov matnlarida presuppozitsiya turlari orasida leksik va pragmatik presuppozitsiyalar, ayniqsa faol qo‘llaniladi. Leksik presuppozitsiyalar yozuvchining til boyligi va so‘z tanlash mahoratini, pragmatik presuppozitsiyalar esa uning inson psixologiyasini, jamiyatdagi muammolarni chuqur tushunishini aks ettiradi. Sintaktik presuppozitsiyalar esa matnning grammatik shakllanishida muhim rol o‘ynab, jumlalarga ma’no teranlik bag‘ishlaydi. Bu jihatlar O‘tkir Hoshimovning badiiy mahoratini yanada yuksak darajada ochib beradi. Tadqiqot qat’iy pragmalingvistik metodologiyaga rioya qilgan holda, mavjud til birliklarining funksional va semantik tahliliga asoslangan.

Shuni ta’kidlash kerakki, O‘tkir Hoshimovning har bir asarida propozitsiya va presuppozitsiyaning o‘ziga xos tarzdagi ifodasini kuzatish mumkin. “Dunyoning ishlari” asarida presuppozitsiyalar ko‘proq onaning bolalariga bo‘lgan cheksiz muhabbati, ularning o‘tmishdagi hayotiy voqealari bilan bog‘liq bo‘lsa, “Ikki eshik orasi” va “Tushda kechgan umrlar” romanlarida ular ko‘proq ijtimoiy muammolar, inson ruhiyatidagi murakkabliklar va tarixiy voqealar bilan bog‘liq yashirin bilimlarni o‘z ichiga oladi. Bu asarlar yozuvchining mahoratini, tilning barcha imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanganligini yaqqol ko‘rsatadi.

O‘tkir Hoshimovning leksik, sintaktik va pragmatik presuppozitsiyalardan ustalik bilan foydalanganini ko‘rsatdi, bu esa matnning emotsional ta’sirchanligini oshirib, o‘quvchining matnni chuqur idrok etishiga yordam beradi. Presuppozitsiyalar orqali yozuvchi o‘quvchining fikrlashini faollashtiradi, uni satrlar orasidagi yashirin ma’nolarni izlashga undaydi.

Xulosa qilib aytganda, O‘tkir Hoshimov asarlarida propozitsiya va presuppozitsiya bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘lib, ular yozuvchining badiiy mahoratini, tilning boy imkoniyatlaridan qanchalik ustalik bilan foydalanganligini yaqqol ko‘rsatadi. Bu ikki lingvistik kategoriya badiiy matnning faqatgina axborot uzatish vositasi emas, balki chuqur g‘oyaviy, emotsional va estetik yuklamaga ega bo‘lgan murakkab bir tizim ekanligini isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurashidov F. Til va nutq faoliyati semiotikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2000. 287- b.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1962. 166 p.
3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. 251 p.
4. Fillmore C.J. Types of Lexical Information // Semantics. An Interdisciplinary Reader in Philosophy, Linguistics and Psychology. – Cambridge: Cambridge University Press, 1971. – P. 272–281.
5. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2011. 256-b.
6. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: Sharq, 2012. 416-b.
7. Hoshimov O’. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: Sharq, 2014. 480-b.
8. Leech G. Principles of Pragmatics. – London: Longman, 1983. 250 p.
9. Levinson S.C. Pragmatics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1983. 420 p.
10. Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 340 -b.
11. Sayfullaev R. Grammatik ma’no kategoriyalari. – Toshkent: Fan, 2005.260-b.
12. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. 203 p.
13. Strawson P.F. On Referring // Mind. – Vol. 59, No. 235. 1950. – P. 320–344.

Muxlisa ABDUJALOLOVA,
tadqiqotchi

“GIRYON” ROMANIDA INSON RUHIYATI VA ICHKI IZTIROBLAR FALSAFIY-PSIXOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya: maqolada “Giryon” romanida inson ruhiyati va ichki iztiroblar falsafiy-psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. XX asr o‘zbek adabiyotida yozuvchilar roman janri orqali xalq hayoti, ijtimoiy muammolar hamda milliy qadriyatlarni keng va chuqur tasvirlashga erishganlari yoritiladi. Xususan, Nazar Eshonqulning mazkur asari asosida inson ruhiyati, ichki iztiroblar va falsafiy mushohadalarning badiiy talqini ilmiy-adabiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy o‘zbek romanchiligida psixologik va ijtimoiy masalalarning aks etish xususiyatlari ham ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek adabiyoti, inson ruhiyati, ichki iztirob, falsafiy-psixologik tahlil, ijtimoiy masalalar.*

Аннотация: в данной статье осуществляется философско-психологический анализ человеческой психики и внутренних страданий на материале романа «Гирьон» Назара Эшонкула. Подчеркивается, что в узбекской литературе XX века жанр романа стал важным средством глубокого и всестороннего отражения жизни общества, социальных проблем и национальных ценностей. Особое внимание уделяется художественной интерпретации внутреннего мира личности, её духовных переживаний и философских размышлений. На основе анализа произведения выявляются основные особенности изображения психологических конфликтов и их взаимосвязь с социальными реалиями. Кроме того, рассматриваются тенденции развития современного узбекского романа в аспекте отражения психологических и социальных проблем.

Ключевые слова: *современная узбекская литература, человеческая психика, внутренние страдания, философско-психологический анализ, социальные проблемы, художественная интерпретация.*

Annotation: this article presents a philosophical and psychological analysis of the human psyche and inner suffering based on Nazar Eshonqul’s novel “Giryon.” It emphasizes that in 20th-century Uzbek literature, the novel genre became an essential means for comprehensively and profoundly depicting social life, societal issues, and national values. Particular attention is paid to the artistic interpretation of the individual’s inner world, including emotional experiences and philosophical reflections. Through the analysis of the work, key features of the representation of psychological conflicts and their correlation with social realities are identified. Furthermore, the article examines the developmental trends of modern Uzbek novels in terms of their engagement with psychological and social issues.

Key words: *modern Uzbek literature, human psyche, inner suffering, philosophical and psychological analysis, social issues, artistic interpretation.*

Bugungi globallashuv davrida inson ruhiyati, uning ichki kechinmalari va mavjudlik muammolarini o‘rganish adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida insonning ichki olami, ruhiy iztiroblari va hayot mazmunini izlash masalalari chuqur badiiy talqin etilmoqda. Bu jihatdan Nazar Eshonqul ijodi alohida e’tiborga loyiqdir.

Yozuvchining “Giryon” romani inson ruhiyati, iztirob va mavjudlik muammolarini falsafiy va psixologik jihatdan yorituvchi muhim badiiy asarlardan biridir. O‘zbek adabiyoti uzoq va boy tarixga ega bo‘lib, asrlar davomida xalqning ruhiy dunyosini, hayotiy tajribalarini va madaniy qadriyatlarini badiiy asarlar orqali ifodalab kelmoqda. Roman janri o‘zbek adabiyotiga kirib kelishi bilan bu janr o‘zining keng qamrovi, chuqur falsafiy savollar va qahramonlar hayotini atroflicha tasvirlash imkoniyati tufayli milliy adabiyotda muhim o‘rin egalladi. O‘zbek romanchiligi, avvalo, jahon adabiyotidagi o‘zgarishlar va yangilanishlar ta’sirida shakllandi. Roman orqali yozuvchilar xalqning o‘ziga xos turmush tarzi, tarixiy voqealar, ijtimoiy-siyosiy hodisalar va inson ruhiyatini kengroq miqyosda yoritib berishga erishdilar. Adabiyot insonga o‘z ichki olamiga ko‘zgu tutadi. “Giryon” – bu shunchaki roman emas, u o‘quvchining o‘z qalbiga qaytishiga yo‘l ko‘rsatuvchi falsafiy qo‘llanma, ruhiy safarga taklif [1]. Nazar Eshonqul – o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos falsafiy ovozi, nozik psixologik tasviri va betakror uslubi bilan ajralib turadigan yozuvchi. Uning “Giryon” romani inson qalbining eng chuqur qatlamlariga kirib boruvchi, mavjudot sirlari bilan yuzma-yuz qo‘yuvchi asar sifatida adabiyotimizda alohida o‘rin egallaydi. Roman nafaqat badiiy asar sifatida, balki falsafiy-psixologik tadqiqot uchun boy material manbai sifatida ham katta ahamiyat kasb etadi. Qahramonlarning ichki kechinmalari, hayot va o‘lim haqidagi mushohadalari, jamiyat bilan shaxs o‘rtasidagi keskin qarama-qarshiliklar – bularning barchasi asarni chuqur tahlilga loyiq qiladi. Zamonaviy o‘zbek prozasida falsafiy-psixologik yo‘nalishni rivojlantirgan, inson ruhiyatini falsafiy va psixologik metodlar orqali chuqur o‘rganadigan “Giryon” zamonaviy o‘zbek prozasida alohida hodisa [2]. U mustaqillik davri adabiyotining murakkab, izlanuvchan, tajribali qirralarini aks ettiradi. Nazar Eshonqulning bu romani adabiyotimizning jahon adabiyoti bilan dialogi uchun ko‘prik vazifasini o‘taydi.

“Giryon” romanida inson ruhiyati falsafiy va psixologik nuqtayi nazardan chuqur va ko‘p qatlamli tarzda tasvirlangan. Asar qahramonlari bir-biriga zid his-tuyg‘ular girdobida qolgan, o‘z ichki olamining murakkab va tumanli labirintlarida adashib yuruvchi shaxslar sifatida gavdalanadi. Yozuvchi har bir obrazni o‘ziga xos psixologik chizgilar orqali yoritib, ularning individual ruhiy olamini nozik detallar bilan ochib beradi. Ayniqsa, o‘zini anglashga intiluvchi shaxslarning ichki kurashi, jamiyat talablari bilan shaxsiy “men” o‘rtasidagi ziddiyat hamda tushkunlik va

umid holatlarining almashinib turishi asarning asosiy g‘oyaviy yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Falsafiy-psixologik yondashuv asosida “Giryon” romanining badiiy taraqqiyoti tahlil qilinar ekan, unda inson ruhiyati va iztiroblarining kechish jarayonlari chuqur o‘rganiladi. Mazkur yondashuv orqali qahramonlarning ichki kechinmalari nafaqat individual hodisa sifatida, balki muayyan tarixiy-ijtimoiy davr mahsuli sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan, romandagi obrazlarning o‘sha davr ijtimoiy muhitiga ta’siri va aks ta’siri aniqlanadi, jamiyat va shaxs “meni” o‘rtasidagi murakkab munosabatlarning evolyutsiyasi izchil kuzatiladi.

Maqsadli tanqidiy tahlil asosida roman janrining o‘ziga xos xususiyatlari va muallifning badiiy yondashuvi ham atroflicha o‘rganildi. Asarda qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ijtimoiy muammolar hamda milliy qadriyatlarning aks etish usullari tahlil qilinib, ularning o‘zaro uyg‘unligi ochib berildi. Natijada, “Giryon” romani nafaqat badiiy asar, balki inson ruhiyati va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni aks ettiruvchi muhim falsafiy-psixologik manba sifatida baholanishi mumkin.

Nazar Eshonqul adabiyotni shunchaki voqeani bayon etish vositasi sifatida emas, balki inson ruhiyatini davolovchi, ongni uyg‘otuvchi va mavjudot sirlarini anglashga yo‘naltiruvchi san’at turi sifatida talqin etadi [3]. Uning “Giryon” romani aynan shu e’tiqodning yuksak badiiy ifodasi sifatida maydonga chiqadi. Asarda go‘zallik va og‘riq, musiqiy ritm va dramatik keskinlik, intellektual paradokslar va emotsional samimiyat o‘zaro uyg‘unlashib, murakkab badiiy tizimni hosil qiladi. Xususan, lirik va epik qatlamlarning uyg‘unligi, modernistik va an’anaviy unsurlarning sintezi, san’atning ruhni uyg‘otuvchi kuch sifatida talqini hamda adabiyotning katarsis vazifasi romanning estetik asosini tashkil etadi.

Roman insoniy qadriyatlar tanazzulini keskin va bevosita tasvirlash orqali o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydi. Sevgi, mehr-shafqat, vijdon va sadoqat kabi tushunchalar asarda nozik va himoyasiz timsollar sifatida gavdalanadi; ular qadrlanishni kutadi, biroq ko‘pincha jamiyat tomonidan inkor etiladi. Muallif ushbu inqirozni yuzaki talqin etmay, uni jamiyatdagi ma’naviy tanazzul, iqtisodiy bosim, mafkuraviy bo‘shliq va individual egoizmning murakkab o‘zaro ta’siri sifatida ochib beradi. Shu tariqa, qadriyatlar inqirozi nafaqat ijtimoiy hodisa, balki insonning ichki dunyosida kechayotgan dramatik jarayon sifatida talqin qilinadi.

Qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida o‘zbek romanchiligi jahon adabiyoti bilan solishtirilib, milliy adabiyotda roman janrining rivojlanish xususiyatlari aniqlanadi. Xususan, asardagi ijtimoiy, psixologik va falsafiy muammolar boshqa adabiyotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning umumiy va o‘ziga xos jihatlari ochib beriladi. Mazkur metodologik yondashuvlar orqali roman keng qamrovda o‘rganilib, uning adabiy va falsafiy ahamiyati chuqur yoritiladi.

Psixoanalitik nuqtayi nazardan qaraganda, qahramonlarning xatti-harakatlari ko‘pincha ongsiz omillar bilan belgilanadi [5]. Ularning ichki ziddiyatlari, qo‘rquvlari va depressiyalangan his-tuyg‘ulari asarda chuqur badiiy ifoda topgan.

Yung nazariyasiga ko‘ra, romandagi obrazlarda “soya”, “anima” kabi arxetiplar namoyon bo‘ladi. Bu esa asarning ramziy qatlamini boyitadi [4].

“Giryon” romanini tahlil qilar ekanmiz, uning nafaqat badiiy asar, balki insonning o‘z-o‘ziga, borliqqa va mavjudlik mohiyatiga munosabatini aks ettiruvchi falsafiy dialog ekanligiga amin bo‘lamiz. Asarda umid va umidsizlik o‘rtasidagi ziddiyat qahramonlar ruhiyatida uzluksiz kurash sifatida namoyon bo‘ladi. Ular hayotning asosiy savollari — yashashning ma’nosi, o‘lim mohiyati va baxt tushunchasi ustida izlanadi. Asarda iztirob oddiy ruhiy holat emas, balki insonning o‘zligini anglash jarayonidagi muhim bosqich sifatida ko‘rsatiladi. Qahramonlar aynan iztirob orqali o‘z ichki “meni”ga yaqinlashadi. Roman qahramonlari hayotning ma’nosi, o‘lim mohiyati va inson erkinligi kabi fundamental savollar bilan yuzlashadi. Bu jihatdan asar ekzistensial adabiyot an’analari bilan uyg‘unlashadi. Qahramonlarning ruhiy izlanishlari absurdlik va ma’no izlash o‘rtasidagi ziddiyatni aks ettiradi.

Romanda yashashning o‘zi iztirob bilan bog‘liq ekani va aynan shu iztirob orqali ma’no topish zaruriyati falsafiy jihatdan asoslanadi. Qahramonlar tizimi esa ramziy xarakter kasb etib, insoniyatning turli ruhiy va falsafiy holatlarini ifodalaydi: izlovchi qahramon — ekzistensial qidiruv timsoli; an’anaviy qadriyatlar himoyachisi — o‘tish davrining fojeaviy obrazi; isyonkor ruh — erkinlik va qarshilik falsafasining ifodasi; kuzatuvchi-faylasuf esa muallifning intellektual pozitsiyasini aks ettiradi [6].

Umuman olganda, “Giryon” romani o‘zbek adabiyotida falsafiy-psixologik va ijtimoiy jihatdan muhim o‘rin egallaydi. Asar kelajak avlodlar uchun ham muhim ma’naviy manba va ilhom omili bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, “Giryon” — insonni anglash sari yetaklovchi badiiy-falsafiy yo‘l. U inson ruhiyatining ko‘p qatlamli tahlilini taqdim etib, o‘quvchini o‘z-o‘zini anglashga undaydi. Asarda ilgari surilgan savollar — “Men kimman?”, “Hayotning ma’nosi nimada?” — o‘zining universalligi bilan ajralib turadi.

Shu bilan birga, Nazar Eshonqul ijodi o‘zbek adabiyotida yangi falsafiy-psixologik yo‘nalishning shakllanishiga zamin yaratgani bilan ahamiyatlidir. “Giryon” romani Sharq va G‘arb tafakkurini uyg‘unlashtirgan holda, milliy romanchilikni yangi bosqichga olib chiqadi, inson ruhiyatini ilmiy va badiiy jihatdan chuqur tahlil etadi hamda umuminsoniy qadriyatlarni ilgari suradi.

Asar nashr etilganidan buyon o‘quvchilar ongida chuqur iz qoldirib, ularni hayot va o‘zlik haqida mushohada yuritishga undab kelmoqda. Shu ma’noda, “Giryon” nafaqat badiiy asar, balki inson ruhiyatining ko‘zgusi, iztirob orqali kamolot sari yetaklovchi falsafiy manba sifatida baholanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Eshonqul N. Mendan “men”gacha. – Toshkent, 2005.
2.Eshonqul N. Ijod falsafasi. – Toshkent, 2008.
3.Qodirov P. Zamonaviy o’zbek romani. – Toshkent, 2015.
4.Normatov U. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent, 2003.
5.Freyd Z. Ongsizlikning talqini. – Moskva, 1999.
6.Yung K.G. Arxetiplar va kollektiv ongsizlik. – Sankt-Peterburg, 2001.

Shahzodaxon A'ZAMOVA,
Qo'qonDU Boshlang'ich ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

TOHIR MALIK ASARLARIDA TERMINLARNING OBRAZ VA DAVR RUHINI YARATISHDAGI ROLI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiy matnda tarixiy terminlardan foydalanishning nazariy asoslari va badiiy-estetik funksiyalari tahlil qilinadi. Asosan, taniqli yozuvchi Tohir Malik asarlarida tarixiy terminlarning o'rni va roli ilmiy-analitik tarzda ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: *termin, istorizmlar, arxaik so'zlar, arxaizmlar, pristav, komissar, bek, navkar, no'yon, begim, amirzoda, qozikalon, mingboshi, volost, g'ayratiy, kolxoz, kombaynchi, partkom, komsomol, dvoryan, quloq, mushtumzo'r, xazin.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы и художественно-эстетические функции использования исторических терминов в литературных текстах. В основном, место и роль исторических терминов в произведениях известного писателя Тохира Малика рассматриваются научно-аналитическим образом.

Ключевые слова: *термин, историзмы, архаичные слова, архаизмы, судебный пристав, комиссар, бек, навкар, нойон, бегум, амирзода, казикалон, тысячеголовый, волот, ревностный, колхоз, комбайн, партийный комитет, комсомол, дворянин, ухо, муштумзоер, сокровище.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations and artistic and aesthetic functions of the use of historical terms in literary texts. Basically, the place and role of historical terms in the works of the famous writer Tohir Malik is considered in a scientific and analytical way.

Key words: *term, historisms, archaic words, archaisms, bailiff, commissioner, bek, navkar, noyon, begum, amirzoda, qazikalon, thousand-headed, volost, zealous, collective farm, combine harvester, party committee, Komsomol, nobleman, ear, mushtumzo'r, treasure*

Badiiy adabiyotda tasvirlanayotgan muhit va davr ruhi til vositalari orqali jonlantiriladi. Xususan, tarixiy terminlar (ya'ni, ma'lum bir tarixiy davrga xos bo'lgan so'z va atamalar) asarda o'tmish manzarasini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Tarixiy atamalar yordamida yozuvchi tasvirlayotgan davrning muhitini real va ishonarli tarzda gavdalantiradi. Chunki har bir davr o'ziga xos so'z boyligiga ega; o'sha davrga xos terminlarni qo'llash obraz va davr ruhini to'laqonli aks ettirishga xizmat qiladi[1].

Til tarixiy taraqqiyot davomida doimiy o'zgarishda bo'ladi: ayrim so'zlar eskiradi, yangilari esa paydo bo'ladi. Adabiyotshunoslik va tilshunoslikda eskirgan so'zlar ikki guruhga ajratiladi: tarixiy so'zlar (istorizmlar) va arxaik so'zlar (arxaizmlar). Tarixiy so'zlar (istorizm) – bugungi kunda hayotdan yo'qolib ketgan narsa va hodisalarning nomlari; ularning ifoda ma'nosi zamonaviy sinonimi bilan almashtirilmagan bo'ladi. Arxaik so'zlar (arxaizm) esa hozirgi tilda mavjud bo'lgan tushunchaning eskirgan nomi, ya'ni bugungi kundagi muqobil sinonimi bor, lekin o'tmishda ishlatilgan shaklidir[2]. Masalan, o'zbek tilida *amir* va *bek* kabi unvonlar, *navkar* (askar ma'nosida), *xazin* (xazina ma'nosida) kabi so'zlar hozirda asosan tarixiy ma'noda qo'llansa, *pristav* (chor Rossiya davridagi politsiya amaldori) yoki *komissar* (sovet davridagi harbiy-siyosiy lavozim) kabi atamalar aynan o'sha davr ijtimoiy hodisalari bilan birga tarix sahnasidan chiqqan.

Tilshunos O.S.Axmanova arxaizm tushunchasiga shunday ta'rif beradi:

"1) Kundalik foydalanishdan chiqib ketgan va shu sababli eskirgan deb qabul qilingan so'z yoki ibora. 2) Qadimgi so'z yoki iborani tarixiy maqsadda qo'llash natijasida nutqqa yuksak stilistik rang berish yoki aksincha, kulgili effekt hosil qilish mumkin" deb ta'riflaydi[3]. Demak, eskirgan so'zlar faqat lisoniy hodisa bo'lib qolmay, badiiy nutqda ma'lum stilistik va poetik vazifa bajarishi ham nazariyada e'tirof etiladi. Adabiyotshunoslarning ta'kidlashicha, tarixiy-badiiy asarda yozuvchi tasvirlanayotgan davr tilini e'tiborda tutishi lozim. "Har qanday adib, asar leksikasini shakllantirishda qalamga olinayotgan davr tilini nazarda tutishi zarur. Tarixiy mavzudagi asarda zamonaviy so'zlarni qo'llab bo'lmagani kabi, hozirgi zamon haqidagi asarda arxaik so'zlarni qo'llash ham maqsadga muvofiq emas"[4]. Ya'ni, muayyan tarixiy davrga oid asarda o'sha davr ruhini his ettiruvchi terminlardan foydalanilmasa, asar ishonchli chiqmaydi; aksincha, notabiiy tuyuladi.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarni jamlab aytganda, tarixiy terminlar deb ma'lum tarixiy davrga xos bo'lgan, keyinchalik iste'moldan chiqqan yoki ma'nosi o'zgargan so'z va atamalarga aytiladi. Badiiy matnda bunday so'zlar o'quvchini tasvirlanayotgan davr muhitiga ko'chirish, tarixiy voqelikni realistik tasvirlash va asarning tarixiylik ruhini ta'minlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, tarixiy terminlar matnga poetik jilo berishi, nutq uslubini boyitishi ham mumkin.

Badiiy asarda tarixiy terminlarning vazifalari quyidagilardan iborat: realizm va davr ruhini ta'minlash; tarixiy terminlarning bosh vazifasi – asarda tasvirlanayotgan muhit va davrning realistik manzarasini yaratishdir. Yozuvchi tarixiy voqea-

1 Atabayev S. Tarixiy va arxaik so'zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari//Academic Research in Modern Science, 2024. 176-b.
2 Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 142-b
3 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С.55-56.
4 Atabayev S. Tarixiy va arxaik so'zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari//Academic Research in Modern Science, 2024. 177-b.

hodisalarni qanchalik tafsilotli tasvirlamasin, agar til jihatdan ishonchli bo‘lmasa, o‘quvchi qalbida real tuyg‘ularni uyg‘ota olmaydi. Shu bois tarixiy davrga oid realiya va atamalarni o‘z o‘rnida ishlatish katta ahamiyatga ega. Masalan, Omon Matjonning Xiva xonligi davrini tasvirlovchi bir she’rida *navkar* so‘zi qo‘llanadi; agar uning o‘rniga zamonaviy *askar* so‘zi ishlatilsa, g‘alati va kulgili ta’sir qoldirgan bo‘lar edi. Demak, tarixiy terminlar asarda muvofiq davr ruhini ta’minlaydi, o‘quvchida tasvir olayotgan muhitni chinakam his qilishiga yordam beradi. Adabiy matnda eskirgan terminlarni kiritish orqali yozuvchi asarning tarixiy haqqoniyligini oshiradi: bunday so‘zlar o‘tmish zamon rangini, husnini beradi.

Tarixiy roman va qissalarda ko‘plab tarixiy atamalar ishtirok etadi. Masalan, Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida XV-XVI asrga oid turli unvon va lavozimlar, eski urf-odatlar nomlari asli holicha qo‘llangan. Asarda *bek*, *navkar*, *no‘yon*, *begim*, *amirzoda*, *xon* kabi so‘zlar tez-tez uchraydi va boburiy davr ruhini jonlantiradi. Bir parchaga e’tibor qilsak: “Robiya ... bosqinchi bek va navkarlar mana shunaqa qizlarga qanchalik o‘ch bo‘lishini go‘yo endi astoydil his qildi”[5]. Ushbu misolda yozuvchi bosqinchilik davri manzarasini aynan o‘sha davr terminlari orqali ochib bergan: *bek*, *navkar* kabi so‘zlar qo‘shinboshilar va askarlarni anglatib, o‘quvchini o‘sha zamonga xos tushunchalar olamiga yetaklaydi. Xuddi shuningdek, Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida yoki Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asarida ham o‘tgan asrlardagi mahalliy unvonlar (*bek*, *amir*), mansablar (*qozikalon*, *mingboshi*), eski turmush tarziga oid tushunchalar (*zarbdor*, *madrasaxona*, *sarbast*) kabi atamalar mo‘l-ko‘l qo‘llanilib, o‘sha davrning koloritini beradi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati[6]da “navkar” so‘zi shunday izohlanadi: navkar – harbiy xizmatkor, askar.

Husayn Boyqaro Bog‘i Shimol darvozasi yaqinidagi chodir ichida ikki-uch navkari bilan o‘tirardi (*M. Osim, Sehrli so‘z).*

Mashina g‘uv etib, avtomat ushlagan navkarlar yonidan o‘tib, shaharga chiqib ketdi (*Mirmuhsin, Chodrali ayol).*

Tarixiy terminlar nafaqat o‘rta asrlar yoxud qadimgi davrlar, balki nisbatan yaqin o‘tgan asr tasvirida ham muhimdir. Masalan, chor Rossiyasi mustamlakachiligi va XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi hayotni tasvirlaydigan asarlarda *pristav*, *volost*, *g‘ayratiy* (chor ma’murlarining unvonlari), *dvoryan* kabi atamalar uchrasa, bu o‘quvchi ongida o‘sha davr manzarasini tiklaydi[7]. Sovet davri hayotini ko‘rsatadigan asarlarda esa *kolxoz*, *kombaynchi*, *partkom*, *komsomol*, *NKVD* kabi terminlar zamonaviy kitobxon uchun allaqachon tarixiylashgan tushunchalarni eslatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati[8]da “kolxoz” so‘zi shunday izohlanadi: “kolxoz” – sho‘ro davrida dehqonlarning asosiy ishlab chiqarish qurollarini umumlashtirishga va qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini birgalashib (jamoaviy) boshqarishga asoslangan ixtiyoriy uyushmasi; kollektiv xo‘jalik, jamoa xo‘jaligi.

“Kolxozda o‘n besh kun ozodlik e’lon qilinib, kuniga to‘rt-beshtadan to‘y o‘tayotgan kunlarda qishloqqa tepakal bir o‘ris jingalak sochlari oqarib ketgan bir o‘zbek bilan birga kelib, Zohidni surishtirdi” (T.Malik. Shaytanat. 34-b).

Qolaversa, Tohir Malikning “Qasos” hikoyasida 1930-yillar qahatchilik va jabr-u sitamlari tilga olinadi: “Uning birinchi eri mamlakatda quloqlarga qarshi kurash boshlanganida bola-chaqam sarson bo‘lmasin deb xotiniga taloq xati bergan edi”[9]. Ushbu matnda *quloqlarga qarshi kurash* iborasi o‘sha davrning realiyasini aks ettiradi – 1930-yillardagi qatag‘on siyosatini eslatadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘ati[10]da “quloq” so‘zi shunday izohlanadi: “quloq” – qarollar, kambag‘allar, umuman dehqonlarning yollanma mehnatidan foydalanuvchi katta yer egasi, qishloq boyi; boy yoki o‘rtahol dehqon (mustabid sho‘ro tuzumi 1929 – 33-yillarda bunday kishilarni quloq — mushtumzo‘r nomi ostida sinf sifatida tugatish siyosatini olib borgan.

Bulturgi yil quloqqa chiqarilib, Ukrainaga jo‘natilgan Abdujalil tegirmonchining kichkina mehmonxonasi Chetan kolxozining idorasi ekanligini biz yuqorida o‘qib bilganmiz. *A. Qodiriy, Obid ketmon*

Yozuvchi tarixiy terminlardan foydalangan holda, qisqa satrlarda davr fojiasini yoritishga erishgan.

Tarixiy so‘zlar – bugungi kunda hayotdan yo‘qolib ketgan narsa va hodisalarning nomlari; ularning ifoda ma’nosi zamonaviy sinonimi bilan almashtirilmagan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida *amir* va *bek* kabi unvonlar, *navkar* (askar ma’nosida), *xazin* (xazina ma’nosida) kabi so‘zlar hozirda asosan tarixiy ma’noda qo‘llangan.

Badiiy matnda bunday so‘zlar o‘quvchini tasvirlanayotgan davr muhitiga ko‘chirish, tarixiy voqelikni realistik tasvirlash va asarning tarixiylik ruhini ta’minlash vazifasini bajaradi. Shuningdek, tarixiy terminlar matnga poetik jilo berishi, nutq uslubini boyitishi ham mumkin.

5 https://www.scribd.com/document/822567805/Yulduzli-Tunlar-Ziyouz-Com

6 https://izoh.uz

7 Atabayev S. Tarixiy va arxaik so‘zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari//Academic Research in Modern Science, 2024. 178-bet.

8 https://izoh.uz

9 https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/tohir-malik-1946/tohir-malik-qasos-hikoya

10 https://izoh.uz

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Atabayev S. Tarixiy va arxaik so‘zlarning badiiy matn tarkibidagi uslubiy xususiyatlari//Academic Research in Modern Science, 2024. 176-b.
2. Irsiqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2009. 142-b.
3. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1966. – С.55-56.
4. Tohir Malik. “Tanlangan asarlar”. “Qasos” hikoyasi. 1930.
5. Tohir Malik. “Shaytanat”. 34-b.

Nilufar G‘OFUROVA,
Farg‘ona davlat texnika universiteti o‘qituvchisi
masturaxonboratova@gmail.com

SHE’RIYATDA MILLIY RUHNI NAMOYON QILUVCHI TAMOYILLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyatida milliy ruhning tasviriy vositalari va ifoda yo‘sinlari chuqur tahlil qilindi. O‘rganilgan nazmiy namunalar orqali milliy madaniyat, tarix, qadriyatlar va an’analar she’riyatda qanday aks etishi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: *madaniyat, tarix, an’analar, folklor, ohang.*

Annotation: in this article, the expressive means and stylistic forms of national spirit in modern Uzbek poetry are analyzed in depth. Through the studied poetic examples, it has been determined how national culture, history, values, and traditions are reflected in poetry.

Key words: *culture, history, traditions, folklore, tone.*

Аннотация: в данной статье глубоко проанализированы изобразительные средства и способы выражения национального духа в современной узбекской поэзии. На основе изученных поэтических примеров определено, как национальная культура, история, ценности и традиции отражаются в поэзии.

Ключевые слова: *стиль, фольклор, мелодия, народные песни, дастаны.*

She’riyatda milliy ruh – xalqning ma’naviyati, tarixi, qadriyatlari va milliy o‘ziga xosligini aks ettiruvchi asosiy unsurlardan biridir. Bu ruh she’riyatda obraz, timsollar, tildagi milliy xususiyatlar, o‘ziga xos uslub va xalqona ohang orqali namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov adabiyotda milliylik haqida shunday fikrlarni bildiradi: “Mayli, buyuklarga intilish bo‘lsin, jahonning, bashariyatning eng ilg‘or fikrlariga oshnolik bo‘lsin, G‘arb, Yevropa, Amerika deysizmi, mayli, Lotin Amerikasi, mayli, Oymi, Marsmi... darajasida fikrlashsin, lekin o‘zbek fikrlasin, o‘zbekcha fikrlasin! Agar shu “kichkinagina” shart bajarilsa, qolganiga, albatta, erishamiz”[1].

Adabiyotshunoslikda milliylik dolzarb muammo sanaladi. Bu ayniqsa, mustaqillik davriga kelib keng quloch yoydi. Milliy ruhiyat ifodasi, asosan, she’riyatda yorqinroq akslanadiki, chunki she’riyat hozirjavob, keng imkoniyatga ega hisoblanadi.

Bizningcha, milliy ruhning she’riyatda namoyon bo‘lishida bir qancha tamoyillar asos bo‘ladi.

1. Ona tiliga sadoqat. Milliy ruhni tasvirlashning asosiy shartlaridan biri – xalqning tiliga bo‘lgan hurmatni ifodalash. Shoh va shoir Bobur aytganidek: “Til insonning ma’naviy Vatanidir”. Milliy adabiyot millat turmushi ekan, bu turmushni ona tilda nafis ifodalash milliylikdan nishona. She’riyat ona tilining go‘zalligi, jozibasi va qadriyat sifatidagi o‘rnini yoritishi kerak. Misol uchun Abdulla Oripovning “Ona tilim” she’rida ona tilining beqiyos qadr-qimmati madh etilgan. “Ona tilim” she’ri ona tilining go‘zalligi, ahamiyati va inson hayotidagi o‘rnini ulug‘laydi. She’rda ona tilining inson ruhiyatiga ta’siri, uning madaniyat va merosdagi o‘rni haqida chuqur fikrlar ifodalanadi:

Ona tilim, sen borsan, shaksiz,
Bulbul kuyin she’rga solaman.
Sen yo‘qolgan kuning, shubhasiz,
Men ham to‘ti bo‘lib qolaman!

Ona tili bu millatning ruhini so‘zlar bilan ko‘rsatuvchi oynadir. Agar millat vakillari bu tilda so‘zlashmasa, millat ham yo‘qoladi. Bu borada shoir Erkin Vohidovning quyidagi misralarini keltirish o‘rinlidir:

“Ona tiling uchun g‘am chekib dildan
Nola qilsam, ko‘kka uchar faryodim.
Yetmish yetti pushtim so‘zlagan tilda
So‘zlarmikin yana yetti avlodim”[2].

“Uning “So‘z latofati” kitobi – ona tiliga bo‘lgan muhabbatning beqiyos namunasi. Bu kitobida ijodkor tilimiz haqida millat ruhiyatiga yot, tushuniksiz ajnabiy terminlar, o‘lik so‘z va iboralar orqali emas, chinakam milliy ruh, milliy atama va tushunchalar asosida fikr yuritish, ilmiy-ijodiy o‘ylarni yurakni titratadigan

1 [Орипов А. Катта ҳақиқатлар тантанаси. / Танланган асарлар. Бешинчи жилд. – Тошкент: Адолат, 2005. Б.178.]

2 [Воҳидова Г. Қалбим ардоғи. – Тошкент: Mashhur press, 2020. – Б.160.]

tarzda o‘zbekcha ifoda etish mumkin ekanini amalda namoyon etdi. Ona tilimizdan olingan aniq misollar tahlili asosida nechog‘lik qadimiy tarixiy ildizlarga boy ifoda imkoniyatiga ega til egalari ekanimizni yana bir karra ko‘ngillarga muhrladi. Milliy tilning jonli vujud ekanidan, unga zarar yetkazish og‘ir gunoh bo‘lishidan barchamizni ogoh etdi”[3].

2. Xalqona ohang va folklor. She’riyat xalq tiliga yaqin bo‘lsa, milliy ruh yanada sezilarli bo‘ladi.

Elimizning ardoqli shoiri To‘ra Sulaymon she’rlari nafaqat ifoda tarzi va ohangi, balki tasvirning samimiyati bilan ham xalqchildir. Misol uchun, uning “Tebratar” nomli she’rini olaylik:

Shamol shamolni tebratar.
Shamol bulutni tebratar.
Bulut yomg‘irni tebratar.
Yomg‘ir tuproqni tebratar.
Tuproq maysani tebratar,
Maysa biyani tebratar.
Biya qimizni tebratar.
Qimiz yigitni tebratar
Yigit suluvni tebratar.
Suluv beshikni tebratar.
Beshik bolani tebratar.
Bola dunyoni tebratar.

Mazkur she’rda shamoldan boshlab, dunyoga qadar tabiiy va insoniy harakatlar ketma-ketligi uzviy bog‘lanishlar orqali aks ettirilgan. Har bir detal keyingisini harakatga keltiradi, bu esa inson va tabiat bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shamoldan boshlangan jarayon tabiat unsurlari orqali inson faoliyati bilan davom etadi. Nihoyat bolaning dunyoni tebratishi bilan yakunlanadi. Xalq tafakkurida ham aslida bola kelajak, umid, hayot davomiyligining timsolidir. She’rdagi bir xil ritmni ta’minlagan “tebratar” so‘zi uning ohangdorligini oshirib, xalqonaligini ta’minlashga xizmat qilgan.

Muhammad Yusufning she’rlarida xalqona iboralar, maqollar, topishmoqlar, xalq qo‘shiqlari ohangi borligi sababidan u barcha uchun sevimli bo‘lgan. Uning “Xalqona” nomli she’rida shoir o‘zbek xalqiga xos odatlarni suvratlantiradi:

Qiz deganning ko‘ksi to‘la o‘y bo‘ladi,
Yigit bir kun yetilib bo‘y bo‘ladi.
Bir tandir non o‘rtada, bir kosa suv,
O‘nta o‘zbek yig‘ilsa, to‘y bo‘ladi...
Ro‘yoblarga chiqadi shirin tushlar,
Kelinchakning yengidan kuyov ushlar...
Beshiklarni bo‘shatib bir-biriga,
Tug‘iladi To‘maris, Alpomishlar.

Yuqoridagi misralarda o‘zbek xalqining turmush tarzi, urf-odatlari va milliy qadriyatlarining ifodalanishini ko‘rinishimiz mumkin. “***Bir tandir non o‘rtada, bir kosa suv, O‘nta o‘zbek yig‘ilsa, to‘y bo‘ladi***” – bu o‘rinda o‘zbek millatining mehmondo‘stligi va oilaviy qadriyatlari ko‘rsatilgan. Qolaversa, o‘zbeklarning bir joyga to‘planib, birga baxtli kunlarni nishonlashi, ahilligiga ham urg‘u berilgan. Tandirdagi non va kosadagi suvni o‘zbeklarning kundalik turmushining ajralmas qismiga aylangan narsalar.

3. An’analar va urf-odatlar. She’riyat xalqning tarixiy qadriyatlarini, urf-odatlarini aks ettiradi.

O‘zbek deganda, birinchi navbatda, mehmondo‘stlik fazilati yodga olinadi. Mehmonga borini nisor etish bu xalqning azaliy udumlaridan. Bu xususiyat badiiy adabiyotda shoir-u adiblar tomonidan ko‘p talqin etilgan. Abdulla Oripovning quyidagi she’rida millatimizning dunyodagi kamdan kam xalqda uchraydigan xususiyati – o‘zi tanimagan odamni ham jon-u dil ila mehmon qilishi, undan hech narsani ayamasligi o‘ziga xos badiiy ifodalangan:

– Ey, yo‘lovchi, bo‘la qol qo‘noq,
Uyda borin ko‘ramiz baham.
Tag‘in o‘zing bilasan, biroq
Qosh qoraydi, yiroqdir yo‘l ham.

Yuqoridagi misralarga yaxshilab e’tibor beradigan bo‘lsak, mehmon hali joy so‘ramasdan mezbonning o‘zi buni taklif etyapti. “***Uyda borin ko‘ramiz baham***” – chinakam o‘zbekona ibora hisoblanib, birgina mana shu ibora orqali o‘zbekning chinakam mehmondo‘stligi aks ettirilgan. Keyingi banddagi “***Keltiradi topgan-tutganni***” satrida – o‘zbekning asl tabiati aks ettirilgan. Ushbu ibora orqali chinakam milliy xarakter – o‘zbekning uyida bor biror narsani mehmondan ayamasligi talqin etilgan.

3 [Жабборов Н. Миллий руҳнинг бетакрор ифодаси // “Эркин Воҳидов ижодининг маънавий ҳаётимиздаги ўрни ва аҳамияти” мавзуйидаги Республика илмий анжумани материаллари. – Тошкент, 2017. Б. 71.]

4. **Vatanparvarlik va milliy g‘urur**. She’riyatda vatanga muhabbat, ona tilini ulug‘lash, xalq farovonligi uchun qayg‘urish kabi g‘oyalar asosiy o‘rin tutadi. Abdulla Oripov “O‘zbekiston” qasidasi va Erkin Vohidov “O‘zbegim” qasidasini yozish bilan o‘ta tahlikali zamonda ham beqiyos jasorat ko‘rsatib, o‘zi mansub xalqning barhayot badiiy siymosini yaratdi.

Sirojiddin Sayyid “Vatanni o‘rganish” she’rida vatan tuyg‘usini qanday anglab yetganini bayon qilgan:

Men vatanni o‘rganmadim zaridan,
O‘rganmadim uni hur yo paridan.
Kaftlarning chiziqlari – xati ham
Ajinlari bo‘ldi mening xaritam.
Shu xatlarda ko‘rgandim ilk vatanni,
O‘z onamdan o‘rgandim men vatanni.

Inson o‘z tug‘ilib o‘sgan yerini boricha qabul qilishi va sevishi kerak bo‘ladi. She’rdagi lirik qahramon ham vatanni uning zaridan emas, aksincha, mehnatkash onasining qo‘lidagi chiziqlar va yuzidagi ajinlardan o‘rganadi. Tabiiyki, bu ajin va chiziqlar vatanni obod qilishga urinish natijasida paydo bo‘lgan. Lirik qahramon ham vatan haqida gapirish emas, balki mehnat qilish kerakligini his etadi.

5. Tabiat va milliy muhitni aks ettirish. Ko‘plab shoirlar milliy ruhni ifodalash uchun o‘z yurtining tabiati, tog‘lari, daryolari, bog‘-rog‘lari va muqaddas maskanlarini va faqat o‘z yurti tabiatiga xos bo‘lgan jihatlarni suvratlantiradi.

Shavkat Rahmon ijodiga nazar soladigan bo‘lsak, uning juda ko‘plab she’rlari vatanimizning betakror tabiati madhiga bag‘ishlanganini ko‘ramiz. Shoir odatiy tong otishi tasvirini yoritar ekan, undan sevinib yig‘layotgan qiyoqlar tasviri-yu, jilmayayotgan chechaklar holati manzarasini chizadi:

Tong ochar ko‘zlarin erinib,
Sevinchdan yig‘laydi qiyoqlar,
Chechaklar jilmayar sevinib,
Shamolda cho‘milar giyohlar.

Qiyoqning yig‘lashi shudringdan ekani, chechaklar esa shamol sababli ayni shu shudringga cho‘milishi tasviri vatanning go‘zalligini anglatishga xizmat qilgan. Yoki boshqa she’rida xuddi shunga o‘xshash tasvirni, umuman, boshqacha yoritib, o‘zbek qishloqlarida tong otgandan keyingi holat gavdalantiriladi:

Tong ko‘ylagi unsiz yirtilar,
Chaqnab ketar oftob tig‘lari,
It huradi, hangraydi eshak,
Qay hovlida go‘dak yig‘ladi.

Shavkat Rahmon tabiat tasviri berilgan yana ko‘plab she’rlarida ham milliy kolorit yaqqol sezilib turadi. Yuqorida keltirilgan misralarni o‘qish beixtiyor o‘qirman ko‘z oldiga o‘zbek qishlog‘i tasvirini keltiradi. Milliy ruh she’riyatning eng muhim jihatlaridan bo‘lib, u xalqning o‘zligini, o‘tmishini va kelajagini aks ettiradi. Milliy ruhsiz she’riyat o‘z mohiyatini yo‘qotadi. Shu bois, har bir shoir o‘z asarlarida milliy ruhni saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga yetkazish uchun harakat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Қуронов Д. Мамажонов З. Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. 341 б.
2.Жўрақулов У. Ҳудудсиз жилва. – Тошкент: Фан, 2006.
3.Йўлдош Қ. Йўлдош М. Бадиий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2016. 462 б.
4.Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. 1-жилд. – Тошкент: Фан, 1978. 416 б.

Gulnora DJUMAYEVA,
Independent researcher of Bukhara State University
e-mail: gulnoradjumaeva_93@mail.ru



H. JEYMS ASARLARIDA JAHON NOVELLACHILIGI AN'ANALARINING DAVOM ETTIRILISHI

Annotatsiya: jahon adabiyotshunosligida qissachilik – novellachilik an'analariga Amerika adibi H. Jeyms qo'shgan hissasi sezilarli darajada katta va bu janrda ko'plab asarlar yozgan. Uning asarlarida o'sha davr shukuhi, siyosati, olam va odam o'rtasidagi ziddiyatli muammolar namoyon bo'ladi. H. Jeymsgacha yozilgan novellalardan farqli o'laroq, adib o'z asarlarida ong oqimi uslubini qo'lladi va faqatgina zamon nafasi emas, balki qahramonlarning ichki dunyosi va kechinmalarini ham ochib berdi. Mazkur maqolada shu mavzu talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: *novellachilik, ong oqimi, psixologik teranlik, zamonaviy va ijtimoiy munosabatlar, tajriba, munozaralar.*

Аннотация: в мировом литературоведении вклад американского писателя Henry James в развитие традиций повести и новеллы является весьма значительным, и в данном жанре им создано множество произведений. В его произведениях отражаются величие эпохи, её политика, а также противоречивые проблемы взаимоотношений человека и мира. В отличие от новелл, написанных до Генри Джеймса, писатель применил в своих произведениях метод потока сознания и раскрыл не только дыхание времени, но и внутренний мир и переживания своих героев. В данной статье интерпретируется указанная тема.

Ключевые слова: *новеллистика, поток сознания, психологическая глубина, современные и социальные отношения, опыт, дискуссии.*

Annotation: in world literary studies, the contribution of the American writer Henry James to the traditions of the novella and short fiction is considerably significant, and he produced numerous works in this genre. His writings reflect the grandeur of the era, its politics, and the contradictory issues in the relationship between the individual and the world. Unlike the novellas written prior to Henry James, the author employed the stream-of-consciousness technique in his works and revealed not only the spirit of the time but also the inner world and emotional experiences of his characters. This article interprets the given topic.

Key words: *novella tradition, stream of consciousness, psychological depth, modern and social relations, experience, debates.*

Kirish. H. Jeyms (Henry James) XX asr adabiyotining muhim shaxslardan biri bo'lib, uning asarlari nafaqat o'z davrida, balki keyingi avlodlar uchun ham muhim ta'sir ko'rsatdi. H. Jeymsning adabiyotga qo'shgan hissasi, ayniqsa, novellachilik janrida o'ziga xos uslubi, psixologik teranlik va mavzularining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.U o'z asarlarida insonning ichki dunyosini, shaxsiy tajribalarini va ijtimoiy munosabatlarini mukammal tarzda aks ettirdi. Bu esa jahon adabiyotida yangi bir istiqbol bo'lib kirib kelishiga turtki berdi.

XIX asr oxiri va XX asr boshida novellachilik janri juda jadal rivojlanishga yuz tutdi. Bu davrda adabiyotda ko'plab yangi tendensiyalar paydo bo'ldi. Novellachilik, o'z navbatida, qisqa, ammo kuchli hikoyalar yaratishga intilgan adiblar tomonidan yangilandi. H. Jeymsning asarlarini o'rganish, o'sha davrda novellachilik an'analarining qanday davom etayotganini tushunishga yordam beradi.

Asosiy qism. H.Jeymsdan avval, novellachilar odatda, tashqi voqealarni va qahramonlarning harakatlarini ko'rsatishga e'tibor kuchli edi. Biroq, adib bu an'anani o'zgartirib, inson psixologiyasini va ichki muammolarini o'z asarlarida ko'proq aks ettirishga harakat qildi.U inson ruhining nozik jihatlarini ochishga intilib, o'z asarlariga psixologik realizmni kiritdi.Bu o'zgarish, albatta, o'zining zamondoshlariga, xususan, asosiy janr shakllarini ko'rsatishdan ko'ra, qahramonlar ichidagi ichki kurashlarni o'rganishga ko'proq qaratilganligini anglatadi.

H.Jeymsning asarlaridagi bu uslubiy yondashuv, adabiyotda yangi bir fayz bo'lib kirib keldi.U o'zining o'ziga xos "stream of consciousness" (ong oqimi) uslubini qo'llab, qahramonlarning fikr va his-tuyg'ularini juda aniq va batafsil aks ettira oldi.Bu uslub, keyinchalik boshqa adiblar, masalan, J. Joys va V. Vulf kabi yozuvchilarga ham ta'sir ko'rsatdi.

Shuningdek, H. Jeymsning asarlaridagi mavzulari ham novellachilik an'analarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Uning qahramonlari, odatda, ijtimoiy muammolar va shaxsiy fojialar bilan kurashadilar.H. Jeyms o'z asarlarida individualizm va o'zlikni izlash g'oyalarini chuqur o'rganadi, bu esa o'z zamonasidagi ko'plab adabiy asarlarni shakllantiradi.

Uning asarlarida taqdim etilgan muammolar ko'plab kitobxonlar va adabiyotshunoslar tomonidan izlanib, tahlil qilindi.Bu esa, o'z navbatida, H. Jeymsning adabiyotga qo'shgan hissasini yanada kuchaytiradi.U, shuningdek, zamonaviy ijtimoiy munosabatlar va o'zaro munosabatlarni o'rganishda, o'z zamondoshlariga qiyoslaganda, ko'proq chuqur tahlil qilishga harakat qildi.

Novellachilik janrida H.Jeymsning muvaffaqiyatlari, avvalo, uning shaxsiy tajribalaridan kelib chiqadi. U amerikalik, keyinchalik esa Yevropaga ko‘chib o‘tgan va bu ikki madaniyat orasidagi tafovutlarni o‘z asarlarida ko‘rsatishga intilishdi. H. Jeymsning asarlaridagi ijtimoiy aloqalar va muammolar, uning o‘zida yuz beradigan konfliktlarni o‘rganish uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Uning qahramonlari o‘z ichki kurashlari va muammolari orqali, o‘zlarining shaxsiy va madaniy kimliklarini qidiradilar.

H. Jeymsning novellachilik an’analariga qo‘shgan hissasi, shuningdek, uning asarlarini o‘qigan yozuvchilar va adabiyotshunoslar uchun motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qildi.U zamonaviy adabiyotga ta’sir ko‘rsatgan va bu, o‘z navbatida, keyingi avlod novellachilariga o‘z asarlarini yaratishda ilhom berdi. H. Jeymsdan keyin kelgan yozuvchilar, masalan, T. Mann, F. Kafka va V. Vulf kabi adiblar, H. Jeymsning uslubini va g‘oyalarini o‘z asarlarida davom ettirishdi.

H. Jeymsning adabiyotga qo‘shgan hissasi, uning novellachilik an’analarini rivojlantirishdagi o‘rni bilan bir qatorda, inson ruhiyatini va ichki dunyosini o‘rganishga bo‘lgan intilishi bilan ajralib turadi. Uning asarlaridagi psixologik realizm va ijtimoiy muammolar, jahon adabiyotining kelajagiga katta ta’sir ko‘rsatdi va bugungi kunda ham uning asarlarini o‘qiyotgan avlodlarga yangi g‘oyalar va fikrlarni taqdim etmoqda. H. Jeymsning adabiyotga qo‘shgan hissasi, jahon novellachiligi tarixida o‘z o‘rnini topib, adabiyotning yanada rivojlanishiga zamin yaratmoqda.

H. Jeyms, XX asr adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutuvchi yozuvchi sifatida tanilgan bo‘lib, uning asarlari ko‘plab mavzular va uslublar orqali inson tajribasini chuqur va o‘ziga xos tarzda aks ettiradi.H. Jeymsning asarlarida ilgari surilgan asosiy mavzular: shaxs o‘zligi, tajriba, inson munosabatlari va ijtimoiy o‘zgarishlar.Ushbu mavzular, uning asarlarida har bir qahramonning ichki kurashlarini, shaxsiy evolyutsiyasini va atrofdagi jamiyat bilan aloqalarini o‘rganish imkonini beradi.

Shaxs o‘zligi – H. Jeymsning asarlarida o‘zlik muammosi doimo asosiy mavzulardan biri bo‘lib kelgan. U o‘z qahramonlari orqali shaxsiy va madaniy o‘zlikni qidirish jarayonini tasvirlaydi. Ko‘pincha, bu qahramonlar o‘zlarini boshqalar bilan solishtirganda, o‘zlarini yo‘qotilgan yoki noaniq his qiladilar.H. Jeyms, ayniqsa, ikki madaniyat (Amerika va Yevropa) o‘rtasida cho‘zilgan shaxs o‘zligi muammosini o‘z asarlarida aks ettiradi. Buning bir misoli, “The Portrait of a Lady” asarida Isabel Archer o‘z o‘zligini izlash jarayonida ko‘plab ichki va tashqi to‘siqlarni yengishga harakat qiladi.

Tajriba – H.Jeymsning asarlarida tajriba har doim ko‘zga tashlanadi.U o‘z qahramonlari orqali inson tajribalarining murakkabligi va noaniqligini ochib beradi. Yozuvchi, tajribani bir vaqtning o‘zida ijtimoiy va shaxsiy o‘zgarishlar bilan bog‘laydi, bu esa qahramonlarning o‘zgarishini aks ettiradi.H.Jeymsning tajriba tasvirlari, insonning o‘zini anglash va o‘zaro munosabatlaridagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishga qaratilgan.

Munozaralar – H.Jeyms asarlarida insonlar o‘rtasidagi munosabatlar ko‘plab ijtimoiy va shaxsiy ziddiyatlar bilan bog‘liq.Uning qahramonlari ko‘pincha bir-birlari bilan o‘zaro aloqalarida muammolar va tushunmovchiliklar bilan to‘qnash keladilar.Masalan,“The Ambassadors” asarida, qahramonlar o‘rtasidagi muloqot va aloqalar orqali ularning shaxsiy o‘zgarishlari va ijtimoiy vaziyatlari o‘rganiladi.H. Jeyms, bu munosabatlar orqali inson ruhiyatining murakkabligini ochishga harakat qiladi.

Ijtimoiy o‘zgarishlar – H.Jeyms o‘z asarlarida zamonasining ijtimoiy o‘zgarishlarini juda chuqur o‘rganadi.U ijtimoiy sinflar, gender rollari, va madaniy normalar kabi masalalarga e’tibor beradi. U o‘z asarlarida zamonaviy hayotdagi o‘zgarishlar va ulardan kelib chiqadigan muammolarni ko‘rsatadi. Masalan, “The Wings of the Dove” asarida, ijtimoiy mavqelar va materializm masalalari orqali qahramonlarning ichki kurashlari ko‘rsatiladi.

Uslub va hikoya qilish uslubi – H. Jeymsning hikoya qilish uslubi, uning asarlariga chuqur psixologik o‘zgarishlar va ichki kurashlarni kiritish imkonini beradi.Uning uslubi “ichki monolog” va “psixologik realizm” kabi tushunchalar bilan bog‘liq.

Ichki monolog – H. Jeyms o‘z asarlarida qahramonlarning ichki fikrlarini va his-tuyg‘ularini ko‘rsatishda ichki monologdan keng foydalanadi. Bu uslub qahramonlarning ichki tajribalarini, shaxsiy kurashlarini va hissiy holatlarini chuqur ochishga yordam beradi. Masalan, “The Portrait of a Lady” asarida Isabel Archerning ichki monologlari orqali uning o‘zlik va erkinlik izlanishlari o‘z ifodasini topadi. Ushbu ichki dialoglar, kitobxonlarga qahramonning psixologik holatini to‘liq tushunishga imkon beradi.

Psixologik realizm – H. Jeyms psixologik realizm uslubini qo‘llab, inson ruhiyatining nozik jihatlarini aks ettiradi. U qahramonlarning ruhiy holatini, his-tuyg‘ularini va munosabatlarini chuqur o‘rganadi. Ushbu uslub orqali muallif inson tajribasining murakkabligini ko‘rsatadi va qahramonlarning ichki olamlarini ifodalashda juda samarali bo‘ladi. Masalan, “The Turn of the Screw” asarida, qahramonlarning psixologik holati va ruhiy jarohatlari orqali H. Jeyms o‘zining psixologik realizm uslubini namoyish etadi.

H. Jeymsning adabiyotdagi yondashuvi, asosan, ichki fikr va hissiyotlarni aks ettirishga qaratildi.Uning asarlarida psixologik realizm va ichki monolog uslublari qo‘llaniladi, bu esa qahramonlarning ichki olamlarini chuqur o‘rganishga imkon beradi. Ushbu yondashuv, inson tajribasining murakkabligini ochib berishda juda samarali bo‘lib, keyinchalik yozuvchilarning shaxsiy hayot va ichki kurashlariga asoslangan asarlar yaratishlariga olib keldi.

Fransuz yozuvchisi M. Prust H. Jeymsning psixologik realizmidan ilhomlanib, o‘z asari “A la recherche du temps perdu” (“Yo‘qotilgan vaqtni izlash”) orqali inson tajribasining ichki jihatlarini chuqur o‘rganishga kirishdi. M. Prust, o‘z asarida ichki monologni keng qo‘llab, qahramonining hissiyotlarini va xotiralarini o‘ziga xos tarzda aks ettirdi. U, vaqt va xotira tushunchalarini o‘rganar ekan, H. Jeymsning yondashuvini rivojlantiradi va o‘z asarida psixologik komplekslikni yanada chuqurlashtiradi.

Nemis yozuvchisi F. Kafka H. Jeymsning uslubidan o‘ziga xos tarzda foydalanadi. F. Kafka o‘z asarlarida, masalan,

“The Metamorphosis” va “The Trial”, qahramonlarning ichki tajribalarini aks ettiruvchi noaniqlik va absurdlikni yaratdi. U H. Jeymsning psixologik yondashuvini davom ettiradi, lekin Kafka inson tajribasini o‘zining muayyan, badiiy va ijtimoiy kontekstlariga bog‘laydi.

H. Jeymsdan keyingi davrda novellachilik an’analarida bir qancha o‘zgarishlar yuz berdi. H. Jeymsning psixologik realizm va ichki monolog uslublari, yangi avlod yozuvchilariga, o‘z ichki olamlarini va shaxsiy tajribalarini batafsil aks ettirishga yordam berdi.Ushbu o‘zgarishlar natijasida, asarlarida o‘z-o‘zini tahlil qilish va shaxsiy hissiyotlarni tasvirlashga yo‘naltirilgan yo‘nalishlar paydo bo‘ldi.

Yozuvchilar badiiy asarlarda ijtimoiy va siyosiy masalalarni o‘z ichiga olish bilan birga, insonning ruhiy holatini va ichki kurashlarini o‘rganishga yanada ko‘proq e’tibor bera boshladilar. Bu, novellachilik an’analaridagi yangi yo‘nalishlar va shakllarning rivojlanishiga olib keldi, masalan, ekzistensializm va postmodernizm adabiy metodlari fikrimizning yaqqol dalili bo‘lishi mumkin.

H. Jeymsning asarlari adabiyot tarixida o‘ziga xos o‘rin egallab, keyingi avlod yozuvchilariga ta’sir ko‘rsatdi. M. Prust, F. Kafka kabi yozuvchilar, H. Jeymsning psixologik realizmi va ichki monolog uslublaridan ilhomlanib, o‘z asarlarida inson tajribasining murakkabligini yanada chuqurlashtirdilar. H. Jeymsdan keyin novellachilik an’analarida yuzaga kelgan o‘zgarishlar va rivojlanishlar, adabiyotda yangi shakl va yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga olib keldi, bu esa o‘z navbatida, adabiyotning yanada boy va rang-barang bo‘lishiga hissa qo‘shdi. H. Jeymsdan keyingi davrda yozuvchilar o‘zlarining badiiy asarlarida inson tajribasining ichki va tashqi jihatlarini yanada chuqurroq o‘rganishga intilishlari, adabiyotning yanada rivojlanishiga zamin yaratdi.

Zamonaviy adabiyotda, H. Jeymsning uslubi va yondashuvi, nafaqat psixologik realizm, balki shaxsiy va ijtimoiy o‘zlikni o‘rganish kontekstida ham ifodalanadi. Yozuvchilar, H. Jeymsning ichki fikr va hissiyotlarni aks ettirishga bo‘lgan e’tiborini davom ettiradilar, bu esa adabiyotda yangi shakl va yo‘nalishlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Ularning asarlarida, inson tajribasining murakkabligi va noaniqliklarini o‘rganishga intilish, H. Jeymsning merosini davom ettiradi.

Zamonaviy adabiyotda, H. Jeymsning ta’siri, ko‘plab yozuvchilarda, masalan, R. Carver singari yozuvchilar ijodida aks etadi.Ularning asarlarida, ichki monologlar va psixologik tashvishlar, H. Jeymsdan olingan ilhom bilan ifodalanadi. Zamonaviy yozuvchilar, o‘zligini izlash va ijtimoiy masalalarni o‘rganishda, H. Jeymsning uslublaridan foydalanishda davom etmoqdalar.

H. Jeymsning asarlari o‘ziga xos mavzular va uslublar orqali inson tajribasining murakkabligini aks ettiradi. Uning o‘zlik, tajriba, munosabatlar va ijtimoiy o‘zgarishlar haqidagi chuqur tushunchalari, zamonaviy adabiyotning rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. H. Jeymsning ichki monolog va psixologik realizm uslubidagi yondashuvlari, uning asarlarining chuqurligini va murakkabligini yanada oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, H. Jeyms adabiyot tarixida muhim rol o‘ynab, u o‘zining psixologik realizmi va ichki monolog uslublari orqali zamonaviy novellachilik an’analarini shakllantirdi. Uning ta’siri, zamonaviy adabiyotda davom etmoqda va kelajakda ham adabiyotning yangi shakl va yo‘nalishlarini keltirib chiqaradi. H. Jeymsning uslubi, adabiyotning yanada rivojlanishiga hissa qo‘shadi, bu esa o‘z navbatida, inson tajribasini o‘rganish va tasvirlashda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bloom, Harold. Henry James. – Broomall, PA : Chelsea House Publishers, 2002. – P.120.
2. Caws M.A. Henry James. – N.Y.: Overlook Duckworth, 2006. – P.120.
3. Ganiyeva, O. X. “XX asr AQSH regional romani badiiy o‘ziga xosligi.” Инновационные исследования в современном мире: теория и практика 3.14 (2024): 43-45.The Cambridge companion to Henry James. Edited by Freedman J. – N.Y.: Cambridge University Press, 1998. – P.292.
4. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul. “ANTHROPOCENTRIC APPROACH IN CONTEMPORARY AMERICAN AND UZBEK NOVEL WRITING.” International Journal Of Literature And Languages 4.12 (2024): 55-59.
5. Khayriddinovna, Ganieva Orzigul, and Turayeva Dilorom Rustamjonovna. “Description of Perseverance in Eudora Welty’s Short Story “A Worn Path”. Miasto Przyszłości, 42, 722–725.” 2023.
6. Ganieva, Orzigul Khayriddinovna. “Depiction Of Relations Between A Person And Society In American Realistic Literature.” Scientific Bulletin of Namangan State University 2.8 (2020): 215-220.
7. The question of Henry James; a collection of critical essays. Edited by Dupee F.W. - N.Y.: Octagon Books, 1973. – P.336.
8. McElderry, Bruce R., Jr. Henry James. – N.Y.: Twayne Publishers, 1965. – P.1965. – P.200.
9. Critical Insights. Henry James. Edited by Hubbard T. – N.Y.: Grey House Publishing, 2016. – P.302.
10. Vann J.D. Critics on Henry James. – USA.: University of Miami Press, 1972. – P.107
11. https://www.theclassroom.com/elements-modernism-american-literature-872.html.
12. https://qwiklit.com/2014/03/22/10-writers-who-use-stream-of-consciousness-better-than-anybody-else/

Rohilaxon NABIJONOVA,
FarDU mustaqil izlanuvchisi

“MASHAQQATLI HAYOT SO‘QMOQLARI” ROMANIDA BADIIY ASAR TILI

Annotatsiya: maqolada Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanidagi badiiy asar tili, nutq tiplari, qahramon va muallif nutqi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *nutq, so‘z,muallif, qahramon, obraz, roman, badiiylik, xarakter, tip, uslub.*

Аннотация: в статье рассматривается язык художественного произведения, типы речи, а также речь героя и автора в романе «Трудные жизненные пути» Зульфии Курольбой Кизи.

Ключевые слова: *речь, слово, автор, герой, образ, роман, мастерство, персонаж, тип, стиль.*

Annotation: this article examines the language of fiction, types of speech, and the speech of the protagonist and author in Zulfiya Kurolboy Kizi’s novel “Life’s Difficult Paths.”

Key words: *speech, word, author, protagonist, image, novel, craft, character, type, style.*

Kirish. Badiiy (poetik) til – badiiy asarlar tili sanaladi. U “adabiy asarning mazmunini ro‘yobga chiqaruvchi birdan-bir vosita hisoblanadi. Shu sababli badiiy til kitobxonga g‘oyaviy va emotsional ta’sir qilish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Negaki, yozuvchi badiiy til orqali obrazlar manzaralar yaratar ekan, ularning mohiyatini ochib ko‘rsatadigan so‘z va iboralar tanlaydi. Asl va ko‘chma ma’noli so‘zlar qo‘llaydi, umumxalq tilining gap qurilish usullaridan, arxaizm va jargonlardan foydalanadi”. Shu xilda yozuvchi asar g‘oyasiga muvofiq shakl tanlaydi. M. Gorkiy aytganiday, “ Ish tafakkurni uyg‘otadi, tafakkur ish tajribasini so‘zga aylantiradi, undan g‘oyalar, gipotezalar nazariyasini... hosil qiladi... Yozuvchining ishida asosiy material so‘zdir ”. So‘z esa, barcha faktlar, barcha fikrlar libosidir. Ammo har bir fakt zaminida ijtimoiy ma’no bor, har bir ma’no zaminida esa bir yoki ikkinchi fikr nega bunday-u, nega unday emas, degan sabab bor... Klassiklar yuz yil davomida asta – sekin ishlangan ana shunday tilda yozganlar. haqiqiy adabiy til shudir” (M.Gorkiy) 1 Shunga asosan adabiyot – hayotni so‘z orqali badiiy tasvirlash san’atidir. Badiiy til jonli (umumxalq) tilning farzandi bo‘lib, uning bosh vazifasi – badiiylik(obrazlilik)ni yaratishdir. Shu vazifadan kelib chiqib, jonli va adabiy nutqlarni barcha hodisalarini hissiy(estetik) tarzda umumlashtiradi. Badiiy tilning o‘ziga xos asosiy xususiyatlarini ifoda etuvchi qonuniyatlar ham bir talay: 1. Ularning eng birinchisi – obrazlilikdir. Bunga san’atkor tasvirlanayotgan voqea-hodisaning, narsa-predmetning, tug‘yon-kechinmaning yaqqol qiyofasini, holatini kitobxon ko‘z o‘ngida jonli qilib gavdalantiradi. Oddiy kitobxon ham uni ko‘radi, his etadi, tirikligiga shohidlikka o‘tadi. Maxsus tasviriy vositalar, maxsus leksik boyliklar, so‘z o‘yinlari kabi unsurlar – obrazlilikni yaratishda bebaho vazifalarni o‘taydilar. Bir kun. Yomg‘irli tun. Qop-qora zulmat. Chuchvaradek qaynar Ko‘chalarda suv.Har bir ijodkor yaratayotgan asarida ilgari surgan badiiy-estetik g‘oyalarni kitobxonlarga yetkazishda til unsurlaridan foydalanadi, bunday birliklar asarning mazmunini boyitadi, uni tushunishga, tahlil va talqin qilishga yordam beradi. Badiiy asarda qo‘llanilgan til birliklari badiiy asar tili deb ataladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Badiiy til – badiiy asar tili, so‘z san’atining asosiy quroli, badiiy adabiyotning obraz yaratish vositasi; poetik til, badiiy adabiyot tili kabi shakllarda ham ishlatiladi. Ya’ni badiiy adabiyot birlamchi belgilar sistemasi sanaluvchi til vositasida ikkilamchi belgilar sistemasini – badiiy voqelikni tashkil qiluvchi obrazlar tizimini yaratadi. Adabiyotshunoslikda badiiy tilni alohida hodisa deb tushunuvchilar ham, uni milliy tilning alohida vazifaga (ya’ni badiiy muloqot uchun) xoslangan ko‘rinishi sifatida biluvchilar ham mavjud. Agar badiiy til milliy til negizida vujudga kelishi, milliy til elementlari vositasida badiiy obrazlar yaratilishi va ayni shu obrazlar ikkilamchi belgi (ya’ni yuqoriroq sathdagi o‘ziga xos til birligi) sifatida badiiy muloqotni amalga oshirishi e’tiborga olinsa, ikkinchi qarash haqiqatga yaqinroq ko‘rinadi. Shunga ko‘ra, badiiy til atamasini qo‘llashda ma’lum shartlilik bor: alohida hodisa sifatida mavjud bo‘lmagani holda u badiiy asar(lar) doirasi (ya’ni amalga oshib bo‘lgan badiiy nutq)dagina mavjudki, aniqlik talabi bilan tushuncha ba’zan badiiy asar tili tarzida ifodalanishi shundan. Yirik rus filolog olimi G.Vinokur badiiy tilga ta’rifni: “ Badiiy til deganda badiiy asarlar yozishda ishlatiladigan til tushuniladi”, – deya boshlagan edi.

Natija va muhokama. Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari”romani ham o‘z til xususiyatlari bilan boshqa asarlardan farq qiladi.Adiba badiiy til imkoniyatlaridan qahramonlar xarakterini ochib berishda keng foydalangan.Har bir obraz nutqi bilan boshqa bir obrazdan ajralib turadi.Bosh qahramon Naziraning birinchi turmush o‘rtog‘i Jalil xarakteri ham u aytgan so‘zlardan yaqqol namoyon bo‘ladi.Nazirani xiyonatda ayblagan Jalilni tasvirlashda yozuvchi “toji yulingan xo‘rozday” iborasini ishlatadi.Bu bilan yozuvchi Jalilning juda yengil hayotga o‘rgangan, erkatoy, har bir narsani onasi xohishi bilan qiladigan, o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lmagan erkak sifatida tasvirlaydi. Mahallada hamma uni tantiq farzandligini bilardi, onasi Rajab momo esa bolasini yer-u ko‘kka ishonmasdi.Dars vaqtida ham bemalol derazadan Jalilni chaqirib unga yegulik berib, yeb bo‘lguncha kutib turardi, muallimlar darsni buzyapsiz deyishsa, maqolni ham keltirib ”Och bachchag‘ardan qoch bachchag‘ar” deb kesatib javrardi. Vaqtlar o‘tsa-da, Jalilda erkalik illati yo‘qolmadi. Rajab momoning uzoq qarindoshi shaharda katta garaj egasi ekan, Jalilni ham quruq qo‘ymadi, ”Sulton suyagini xo‘rlamas” deganlaridek Jalil ham tuzukkina maoshli ishga joylashdi.Mana

shu illatlari ta’sirida Jalil asar davomida to‘g‘rilab bo‘lmaydigan xatoga yo‘l qo‘yadi, ya’ni oilasidan voz kechadi. Turmush qurishganda ham Jalil Naziraga o‘ta befarq munosabatda bo‘ladi, xotinining inon-ixtiyorini butkul onasi Rajab momoga tashlab qo‘ydi. Nazira yosh kelin, qaynonasining qosh-qovog‘iga qarab yashadi, eri esa butkul boshqa olamda yashaydigan odamdek edi.Erining havoyiligi, Rajab momoning qahr-g‘azabi ta’sirida navniholday qizaloq Nazira hayot mashaqqatlariga bardoshli ayol bo‘lib tarbiyalandi. Butun mahalla Rajab momodan zir titrardi, sababi bu xotin hech kimni nazariga ilmas, boy oilalarga boshqa,kambag‘allarga yana boshqacha munosabatda bo‘lardi. So‘zamolligi bilan nom chiqargan bu kampir hech kimga gap bermasdi, o‘g‘lini erkalatib, atrofida girdikapalak bo‘lib butun umrini shu bolaga sarf qildi.Momoning gapga ustaligi aytayotgan har gapi orasida maqol, hikmatlardan qo‘shib gapirishidan ham namoyon bo‘ladi. Hamro buvinikiga sovchilikka borganda, qizim yosh, bermayman deb turib olgan buvini ko‘ndirish uchun: ”Qiz bolani do‘ppi bilan ur, yiqilmasa erga ber” yoki “Tenggi chiqsa, tekin ber” kabi jumlalardan foydalanadi. O‘z xulq-atvorini mahalladoshlariga ham namoyon qila olgan bu ayolga qishloqdoshlari o‘ylabroq muomala qilishadi, axir “Sharmandaga shahar keng” deb bejiz aytishmagan.

Asar bosh qahramoni Nazira Shodmonova ham dadil, har bir ishga chapdastlik bilan yopishadigan, otasidan erta ajragan bo‘lsa-da, mashaqqatlarni matonat bilan yengib o‘tishga bel bog‘lagan, jasur va o‘z so‘zidan qaytmaydigan, qanday vaziyatda bo‘lmasin, faqat to‘g‘rilik tarafdori bo‘lgan qiz sifatida tasvirlanadi. Roman davomida bu ayolning boshqa ayollarga o‘xshamaydigan xususiyatlarini kuzatishingiz mumkin.Dinimizda ayollarga ojiza, yordamga muhtoj tariqasida qaraladi.Lekin yozuvchi Zulfiya Qurolboy qizi ayollarning ham chidam-bardoshi tog‘lardek ulkanligi, ayrim erkaklar qila olmaydigan ishlarni shu ojizalar amalga oshirganliklarini tasvirlab bergan. Nazira ikki marta turmush qurib ham o‘z baxtiga yeta olmaydi,ikkala eri ham bir-biridan deyarli farqlanmay, laganbardor, irodasiz, qo‘lidan ish kelsa ham, jon kuydirib harakat qilmaydigan er sifatida tasvirlanadi.

Naziraning birinchi eri Jalil taltaygan, ko‘chabezori kishi bo‘lib, yosh kelinga yetarli e’tibor bermasdan, uning yosh umrini xazon qiladi. Boshida qop-qop va’dalar bilan olishib, keyin it kunini boshiga solishadi. Yangi kelin belida etagi bilan paxtaga chiqadi,bu ham yetmagandek Rajab momo hali u, hali bu bahonalar bilan keliniga kun bermasdi. To‘ydan oldin berilgan va’dalarning tagi ko‘rinib qoldi, bog‘ni gullatish haqidagi gaplar esa cho‘pchak bo‘lib chiqdi. Shunday bo‘lsa-da,Nazira boshidan kechirayotgan qiyinchiliklarini hech kimga,hatto onasiga ham bildirmadi. Lekin ham erdan,ham qaynonadan yetkazilgan ruhiy tazyiqlar kelinchakni suvsiragan gulg‘unchadek so‘ndirib qo‘ydi.Nazira ota uyida hamma narsani tejab-tergab ishlatishga o‘rgangan edi, erinikida odatlar boshqacha ekan, hatto o‘tin qilishga erinishib qish vaqtlarida kerosin pechka ishlatisharkan, lekin uydan ham, choydan ham uning hidi ketmay ko‘ngilni xira qilarkan, uydagilarga bu sezilmasa kerakki, ular bunday holatlarga e’tibor qilishmas ekan. Yoshligidan to‘qchilikda katta bo‘lgan Jalil to‘kin hayotni o‘zi uchun odatiy hol deb bilardi.Axir qishloqda faqat Jalildagina katta, chiroyli yuk mashinasi bor edi, bundan tashqari cho‘ntagida to‘la puli bor bo‘lgan yigitga kim ham oshna bo‘lmasdi?Bari oshna-og‘aynilar unda bo‘lib kunda-kunora maishat, ichkilikbozlik qilishardi.Ertalab boshi yorilib ketgudek bo‘lib uyg‘onsa-da,yana ichib ishga ketardi.Bu ichishini u “paxmelga”deb atardi.Rajab momo arzandasining bu qiliqlarini o‘ziga faxr deb bilardi ko‘yi miq etmasdi.Kelini kelgandan so‘ng kampir kelinni obdon kuzatdi, har bir ishini sinchiklab tekshirdi, ammo Nazira yoshligidan mehnatga o‘rgangan emasmi hamma yumushlarni joy-joyida qilganligidan ichida mamnun bo‘lsa-da, keliniga bildirmadi.Bir yaxsshining bir yomoni bor deganlaridek,shu qiz kelgandan beri o‘g‘li unga bee’tibor bo‘lib qoldi, shu narsa kampirning asabiga tegayotgan edi.

O‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin egallagan Zulfiya Qurolboy qizining “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romani nafaqat mazmun jihatidan, balki badiiy tili bilan ham e’tiborga loyiqdir. Asarda muallif hayotning murakkab yo‘llarini, inson taqdirini va ruhiy kechinmalarni ta’sirchan hamda obrazli til orqali yoritib beradi.

Roman tilining eng muhim xususiyatlaridan biri — uning sodda va xalqona ekanligidir. Muallif murakkab fikrlarni oddiy va ravon ifodalaydi. Bu esa asarni o‘qishni osonlashtiradi va o‘quvchini voqealar ichiga olib kiradi. Xalq og‘zaki nutqiga xos iboralar, maqollar va hayotiy ifodalar asarga alohida joziba bag‘ishlaydi. Shuningdek, asarda badiiy tasvir vositalari keng qo‘llanilgan. Metafora, taqqoslash, epitet kabi vositalar yordamida qahramonlarning ichki dunyosi, ularning quvonch va iztiroblari jonli tasvirlangan. Ayniqsa, ruhiy kechinmalarni ifodalashda muallifning mahorati yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ichki monologlar orqali qahramonlarning o‘y-xayollari chuqur ochib beriladi.

Xulosa. Asar tilida hissiylik va ta’sirchanlik kuchli. Har bir voqea, har bir obraz o‘quvchi qalbiga yetib boradigan tarzda tasvirlangan. Bu esa o‘quvchini befarq qoldirmaydi, uni o‘ylashga, xulosa chiqarishga undaydi. Bundan tashqari, romanda milliy ruh va qadriyatlar ham til orqali ifodalangan. O‘zbekona urf-odatlar, hayot tarzi va dunyoqarash tabiiy va ishonarli aks ettirilgan. Bu esa asarning milliy rang-barangligini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, “Mashaqqatli hayot so‘qmoqlari” romanining badiiy tili sodda, obrazli va chuqur ma’noga ega bo‘lib, asarning badiiy qimmatini belgilovchi muhim omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. –T.: Yangi asar avlodi, 2004.108-bet
2. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: “Фан”,1983.34-б.
3. Карим Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2018
4. Зулфия Қуролбой қизи “Машаққатли ҳаёт сўқмоқлари” – Т.: Шарқ. 2022.

Jasur YULDOSHEV,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

O‘ZBEK SHE’RIYATIDA USMON AZIM IJODINING BADIIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Usmon Azim ijodining o‘zbek she’riyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shoir asarlarining badiiy-estetik xususiyatlari, poetik tafakkuri, obrazlar tizimi hamda milliy ruhni ifodalashdagi o‘ziga xos jihatlari yoritiladi. Shuningdek, uning she’riyatida insoniy tuyg‘ular, vatanparvarlik, milliy qadriyatlar va zamon ruhining badiiy ifodasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Usmon Azim ijodi zamonaviy o‘zbek adabiyotining muhim badiiy hodisalaridan biri ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *Usmon Azim, o‘zbek she’riyati, badiiy obraz, poetik tafakkur, milliy ruh, zamonaviy adabiyot.*

Annotation: this article analyzes the role and significance of Usmon Azim in the development of Uzbek poetry. The artistic and aesthetic features of the poet’s works, his poetic thinking, system of images, and distinctive ways of expressing national spirit are examined. The study also highlights how human emotions, patriotism, national values, and the spirit of the time are reflected in his poetry. The research concludes that the creative heritage of Usmon Azim represents one of the important artistic phenomena in modern Uzbek literature.

Key words: *Usmon Azim, Uzbek poetry, artistic image, poetic thinking, national spirit, modern literature.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль и значение творчества Usmon Azim в развитии узбекской поэзии. Рассматриваются художественно-эстетические особенности произведений поэта, его поэтическое мышление, система образов и своеобразие выражения национального духа. Особое внимание уделяется отражению в его стихах человеческих чувств, патриотизма, национальных ценностей и духа времени. В результате исследования обосновывается, что творчество Усмона Азима занимает важное место в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: *Усмон Азим, узбекская поэзия, художественный образ, поэтическое мышление, национальный дух, современная литература*

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotida o‘ziga xos badiiy uslub, chuqur falsafiy mushohada va milliy ruh bilan ajralib turadigan ijodkorlardan biri — Usmon Azim hisoblanadi. Shoir o‘z she’riyati orqali inson qalbining nozik kechinmalarini, jamiyat hayotidagi murakkab jarayonlarni hamda milliy qadriyatlarni badiiy obrazlar orqali ifodalashga muvaffaq bo‘lgan. Uning ijodida poetik tafakkur, ramziy ifoda, metaforik tasvir va chuqur falsafiy mushohada uyg‘unlashgan bo‘lib, bu holat shoir she’riyatining badiiy-estetik qimmatini yanada oshiradi.

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek she’riyati yangi badiiy izlanishlar, poetik shakl va mazmunning yangilanishi bilan xarakterlanadi. Aynan shu davrda ijod qilgan Usmon Azim o‘z asarlarida an’anaviy she’riy tajribalarni zamonaviy poetik qarashlar bilan uyg‘unlashtirgan holda o‘ziga xos ijodiy maktab yaratdi. Shoir she’rlarida milliy ruh, tarixiy xotira, insoniy qadriyatlar va vatanparvarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi. Bunday badiiy tamoyillar uning ijodini nafaqat estetik, balki ma’naviy-ma’rifiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Usmon Azim she’riyatining yana bir muhim jihati — undagi obrazlilik va ramziylikdir. Shoir badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanib, oddiy hayotiy voqelikni ham chuqur falsafiy mazmun bilan boyitadi. Uning she’rlarida tabiat obrazlari, inson ruhiyati, vaqt va hayot haqidagi mushohadalar o‘zaro uyg‘un holda ifodalanadi. Bu esa shoirning poetik dunyoqarashi kengligi va badiiy tafakkurining serqirraligini namoyon etadi.

Shuningdek, shoir ijodida milliy an’ana va zamonaviylik o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. U o‘z she’rlarida xalq og‘zaki ijodi elementlari, xalqona ohang hamda milliy mentalitetga xos obrazlardan keng foydalanadi. Shu bilan birga, zamonaviy jamiyat muammolari, inson ruhiyati va hayot falsafasi ham shoir ijodining muhim mavzularidan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi — Usmon Azim ijodining o‘zbek she’riyati taraqqiyotidagi o‘rnini aniqlash, uning asarlaridagi badiiy-estetik xususiyatlarni tahlil qilish hamda shoir she’riyatida milliy ruh va poetik tafakkurning namoyon bo‘lish jihatlarini ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Usmon Azim she’riyatining muhim jihatlaridan biri — inson ruhiy olamini teran tasvirlashdir. Shoir ko‘plab

she’rlarida insonning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari, orzu-umidlari va hayot haqidagi falsafiy qarashlarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Masalan, shoirning ko‘plab lirik she’rlarida inson qalbining nozik kechinmalari poetik obrazlar orqali tasvirlanadi. Unda oddiy hayotiy voqelik ham chuqur falsafiy mazmun kasb etadi.

Tabiat obrazlari shoir ijodida ko‘pincha ramziy ma’no kasb etib, inson hayotidagi turli ruhiy holatlarni ifodalashga xizmat qiladi.

Shoir ijodida vatan mavzusi ham muhim o‘rin egallaydi. Usmon Azim she’rlarida Vatan obrazi chuqur poetik mazmun bilan tasvirlanadi. Shoir Vatan tushunchasini nafaqat geografik hudud, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini mujassam etgan muqaddas tushuncha sifatida talqin qiladi.

Shoir she’riyatining yana bir muhim jihati — undagi falsafiy mushohadalardir. Usmon Azim ko‘plab she’rlarida hayotning o‘tkinchiligi, vaqtning qadri, insonning hayotdagi o‘rni kabi masalalarni badiiy tarzda yoritadi. Uning she’rlarida hayot va vaqt mavzusi ko‘pincha ramziy obrazlar orqali ifodalanadi. Shoir she’riyatining poetik tiliga e’tibor qaratilganda, unda obrazli ifodalar, metaforalar, epitetlar va ramziy tasvirlar keng qo‘llanilganini ko‘rish mumkin. Bu esa uning poetik uslubini yanada boyitadi. Usmon Azim she’rlarida ko‘pincha qisqa, lekin mazmunan chuqur poetik satrlar orqali katta g‘oyalar ifodalanadi. Shoir tilining soddaligi va obrazliligi uning she’riyati ta’sirchanligini oshiradi.

Shuningdek, shoir ijodida milliy an’ana va zamonaviy poetik tafakkur uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Uning she’rlarida xalqona ohang, milliy mentalitetga xos obrazlar va zamonaviy fikrlash tarzi bir-birini to‘ldirib turadi. Bu holat shoir ijodining badiiy qimmatini yanada oshiradi hamda uning o‘zbek she’riyati rivojidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Masalan, shoirning *“O‘lgin deding — Yerga ko‘mding…”* she’ri insonning hayot va o‘lim, taqdiri va mavjudlik masalalarini falsafiy ramziy obrazlar orqali ifodalaydi:

O‘lgin deding — Yerga ko‘mding —
Ildiz bo‘ldim. Ko‘kka otding — yo‘q bo‘l deding —
Yulduz bo‘ldim. Tilim kesding — dilim aytdi —
Rost kalima... Qiyin bo‘ldi senga sho‘rlik Dushmanim-a!

Ushbu she’rdagi “ildiz”, “yulduz”, “til” va “dil” kabi obrazlar chuqur ramziy ma’noga ega. Shoir hayotning qiyinchiliklarini, insonning o‘zini topish va o‘zining chin ma’nosini anglash jarayonidagi sinovlarini poetik tarzda ifodalaydi. Ildiz bo‘lish — hayotning asosiy mohiyatiga qaytish, yulduz bo‘lish — insonning o‘ziga xos yuksak maqsad va idealga intilishi ramzidir. Shu bilan birga, so‘zning kesilishi va qalbning aytishi o‘rtasidagi qarama-qarshilik insonning ichki mushohadalarini ochib beradi.

Shoirning yana bir she’ri — “Bir qadamim — umid, bittasi — armon…” — ham inson va zamon, umid va maqsad o‘rtasidagi murakkab ruhiy jarayonlarni poetik holatda ifodalaydi:

Bir qadamim — umid, bittasi — armon,
Bir yonim makondir, bir yonim — zamon,
Bir yo‘lim zamindir, bir yo‘lim — osmon,
Osmonning ichida oyday sarsonman.

Bu satrlar shoirning hayotga bo‘lgan murakkab qarashini ochib beradi. Umid va armon — insonning ruhiy holatidagi ikki qarama-qarshi tuyg‘u bo‘lib, ularni shoir poetik qiyofa orqali umumiy hayot yo‘li bilan bog‘laydi. Zamin va osmon obrazlari esa zamon va makon konsepsiyasida inson taqdiri, uning imkoniyatlari va chegaralarini ramziy tarzda talqin etadi.

Ushbu she’r misollaridan ko‘rinadiki, Usmon Azim ijodida obrazlar ramziy ma’no bilan boyitilgan, va ular orqali insonning ichki dunyosi, hayot-qarashlaridagi murakkab kechinmalar chuqur falsafiy tafakkur bilan tasvirlanadi. Shoir tilining obrazlilik darajasi, so‘zning poetik iqtisodligi va badiiy ifoda shaffofligi uning she’riyatining badiiy-estetik qimmatini yanada oshiradi.

Natijada Usmon Azim she’riyati nafaqat badiiy-estetik jihatdan, balki g‘oyaviy-falsafiy mazmuni bilan ham zamonaviy o‘zbek adabiyotining muhim namunalari qatoridan o‘rin oladi. Shoir she’rlarida inson ruhiyati, vatan tuyg‘usi va hayot falsafasi badiiy obrazlar orqali teran ifoda etilgan bo‘lib, bu holat uning ijodining badiiy qimmatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Hozirgi o‘zbek she’riyati masalalari. – Toshkent: Fan, 2008. [1. 45]
2. Yo‘ldoshev Q. Adabiy tahlil asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010. [2. 78]
3. Usmon Azim. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2015. [3. 112]
4. Rahmonov S. O‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyoti. – Toshkent: Fan, 2012. [4.. 56]
5. Qo‘chqorov B. Zamonaviy she’riyat poetikasi. – Toshkent: Akademnashr, 2016. [5.93]
6. Mirzayev I. An’ana va yangilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2009. [6. 121]
7. Usmon Azim. She’rlar va dramatik asarlar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. [7. 34]

Ozoda NURALIYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

O‘ZBEK MUMTOZ SHE’RIYATIDA KLEMATOLOGIK BIRLIKLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyoti vakillari ijodi haqida ma’lumot berilgan. Mumtoz shoirlar she’riyatida klematologik elementlar va bu elementlarning she’riyatda qanday ahamiyat kasb etishi borasida fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, ijodkorlarning asarlarida klematologik hodisalarning ahamiyati misollar tahlili bilan ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: *klematologik birliklar, flora, falsafiy lirika, iqlimiy muhit, poetik ifoda, poetik obraz, ramziylik, sonetlar, dostonlar.*

Аннотация: в данной статье представлена информация о творчестве представителей узбекской классической литературы. Рассмотрены идеи о климатологических элементах в поэзии классических поэтов и значение этих элементов в поэзии. Также на примерах показана значимость климатологических явлений в произведениях художников.

Ключевые слова: *климатологические единицы, флора, философская лирика, климатическая среда, поэтическое выражение, поэтический образ, символизм, сонеты, эпосы.*

Annotation: this article provides information about the work of representatives of Uzbek classical literature. The ideas about climatological elements in the poetry of classical poets and the importance of these elements in poetry are presented. Also, the importance of climatological phenomena in the works of artists is shown by analyzing examples.

Key words: *climatological units, flora, philosophical lyrics, climatic environment, poetic expression, poetic image, symbolism, sonnets, epics.*

O‘zbek mumtoz vakillari hisoblangan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat she’riyati bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan[1]. Biroq ularning she’riyatida klimatologik elementlar va bu elementlarning she’riyatda qanday ahamiyat kasb etishi borasida biror yirik tadqiqotga duch kelmaymiz. Shu bois ham mazkur faslda yuqorida qayd etilgan ijodkorlarning asarlariga klimatologik hodisalarning ahamiyati nuqtayi nazaridan e’tibor qaratamiz.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Boborahim Mashrab, Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat g‘azallarida iqlimni ifoda etgan elementlar kuzatiladi. *Oy, sabo, xazon, shamol, suv* singari tabiat hodisalari mumtoz adabiyot vakillari ijodida ishq falsafasi bilan bog‘liqlikda zuhur topadi. Alisher Navoiyning *“Falak nilufaridin chashmayi mehr o‘ldi gar paydo”, “Salohim pardasi kuydi ul o‘tlig‘ yuz xayolidin”, “Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur”, “Orazin yopqach ko‘zimdin sochilur har lahza yosh”* matla’si bilan boshlanuvchi g‘azallarida shunday hodisalar tasviriga duch kelish mumkin. Adibning *“Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur”* misrasi bilan boshlanuvchi g‘azalida:

Har qachonkim kemaga ul oy safar raxtin solur
Mavjliq daryo kibi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘olur.
Yig‘lama, ey ko‘z, nedin sohilga chiqmas kema deb,
Ko‘z yoshim daryosidur har sorikim el ko‘z solur.
Titrabon siymobdek ko‘nglim, yetar jon og‘zima,
Tund yel tahrikidin har damki daryo chayqolur.
Sabr ko‘nglumda ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,
Vahki, borib, termulib ko‘z, mungrayib jonim qolur.
Dam tutulg‘ondin o‘lar eldek yetibmen o‘lgali,

1 Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. – 416 б.; Valixo‘jayev B. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: Zilol buloq, 2023. 544-b.; Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999. 280 б.; Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007. 223 б.; S.G‘aniyeva. Alisher Navoiy. – Toshkent, 1968.; A.Qayumov. Alisher Navoiy (ajoyib kishilar hayoti). – Toshkent, 1976.; A.Hayitmetov. Navoiy lirikasi. – Toshkent, 1961.; X.Yoqubov. Bobir. – Toshkent, 1941.; V.Zohidov. Boburning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobur. Boburnoma. – Toshkent, 1960.; H.Qudratullayev. Boburning adabiy-estetik qarashlari. – Toshkent: Fan, 1983.; Muhsin Zokiriy. Boborahim Mashrab. – Toshkent, 1966.; Abdug‘afurov A. Mashrab. “Mabdai Nur”. – Toshkent, 1994.; Abdug‘afurov A. Zokirjon Furqat. – Toshkent, 1977.; N.Jabborov. “Jahon basti kushodi ilm birla…”. Jahon adabiyoti, 2001, 8-son, 122–129-betlar.

Surmasun deb baskim nafaslar asrolur.
Kirma savdo bahrida olamdin istab sudkim,
Siym naqd tushsa, lekin umr naqdi siyg‘olur.
G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin, ey piri dayr,
Ilgiga chunkim, Navoiy boda kishtisin olur[2].

Alisher Navoiyning ushbu g‘azalida suv va havo stixiyasi inson ruhiy kechinmasi orqali tasvir etiladi. G‘azalning asosiy obrazida daryo talqini o‘rin egallaganki, bu obraz dinamik iqlim manzarasining yuzaga chiqishiga yordam bergan. Ammo bu daryo tinch oqayotgani yo‘q. U to‘lqinli, oshufta (hayajonli, tovushli) holatda taqdim etilgan. Tabiatdagi suv toshqini va to‘lqini mazkur g‘azalda lirik qahramon ko‘ngli bilan parallel qo‘yilgan. Shu yo‘l orqali lirik qahramon ko‘nglida g‘alayon ko‘tarayotgan hislar o‘z ifodasini topgan. Ya’ni ichki dunyosini iqlimiy hodisaga aylantirib yuborgan. Oshiq ko‘ngli g‘alayonning asosiy sababi yorning kemaga chiqishi bilan belgilangan. Bu esa tabiatdagi muvozanatning buzilishiga sabab bo‘lgan faktorga aylangan. G‘azaldan joy olgan “Tund yel” daryoning chayqalishiga sabab bo‘lganidek, hijron shiddati ham oshiq ko‘nglini shu darajada chayqatib yuborgan. Shu bilan bir qatorda, oshiqning simob kabi ko‘nglining titrashi, ko‘z yoshi daryosi mubolag‘a asosida taqdim etilganki, bu holat ham havo va shamol ta’sirida yuzaga keladigan fizik jarayonning lirik tasviriga aylangan. Ya’ni iqlim (shamol) lirik qahramonning hayoti bilan bog‘liq halokatli kuch sifatida keltirib o‘tilgan. Alisher Navoiyning mazkur g‘azaldagi mahorati, bizningcha, iqlim hodisasini (toshqinni) insonning fiziologik holati bilan birlashtirishida kuzatiladi. Shu bilan bir qatorda, lirik qahramon ko‘nglining simobdek titrashi keltirilganki, bu hodisa ham iqlimiy holatni ochishga xizmat qilgan. Ya’ni ko‘ngilning simob kabi titrashi – havo bosimi va shamol ta’sirida yuzaga keltirib, halokatli kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, “mikrokosmos” (inson) va “makrokosmos”ni (tabiat) birlashtiradiki, bu o‘zbek mumtoz adabiyotida antroposentrik iqlim tasvirini yuzaga keltiradi. Ya’ni tabiat hodisalarini insonning dardi boshqaradi. Albatta, g‘azalda ramzlar ham mavjud bo‘lib, ular: *“bahri fano”* va *“boda kishtisi”*dir. “Dahr” dengiz, “*kisht*” kema ramzlari oddiy ramzlar emas. U g‘azalda hayotiy iztirobni abadiyat dengiziga aylantiradi. Asosiysi, suv stixiyasi orqali Alisher Navoiy ushbu g‘azalda kichik bir oqimning ulkan ummongacha bo‘lgan evolyutsiyasini berishga muvaffaq bo‘ladi.

Alisher Navoiyning “*Falak nilufaridin chashmayi mehr o‘tsa bo‘lg‘ay g‘arq paydo*” matla’si bilan boshlanuvchi g‘azali koinot hodisalarini, iqlimiy o‘zgarishlar va inson o‘rtasidagi bog‘liqlikni astronomik-iqlimiy metaforalar orqali yoritib beradi. Ya’ni, g‘azal kosmik landshaft tasviriga ega. G‘azalning birinchi misrasidayoq kosmik manzara taqdim etilgan bo‘lib, bu manzara falak nilufari sifatida markaziy o‘ringa chiqadi. Bu yerda osmon dinamik makon bo‘lib, ramziy xususiyatga ega. Nilufar guli suvsiz yashay olmaganidek, falak ham quyoshsiz o‘z tarovatini yo‘qotadi. Natijada falak quyosh nuri bilan tirik degan xulosani beradi. Quyoshning chiqishi va botishi lirik qahramon yuzidagi rang bilan parallel qo‘yiladi.

G‘azalda chaqmoq iqlimiy elementi ham uchraydiki, bu element g‘azalda oshiqning ko‘zidan oqayotgan yoshi va yuzidagi qayg‘u bilan belgilanadi. Bu elementning asosiy funksiyasini ruhiy holatni yuzaga keltirish bilan belgilash mumkin. Mazkur kosmogonik elementlar ilohiy ishqni ifodalashga xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallarida ham klimetalogik elementlar uchraydi. “Chun falak qo‘ymas meni”, “Yangi oy yor yuzi birla ko‘rub el shodu xurramlar”, “Xati – benafsha, xadi – lola, zulfi rayhondur”, “Ko‘k vusmada ul oy qoshi go‘yo xayoldur”, “Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur”, “Bahor ayyomidur, dog‘i yigitlik avonidur” matla’si bilan boshlanuvchi g‘azallar fikrimizga misol bo‘la oladi:

Chun falak qo‘ymas meni bir lahza vasl ayyomida,
Tong yo‘q, ey bemehr, agar o‘lsam firoqing shomida.
Ey ko‘ngul, yuzin ko‘rub, zulfi parishon sog‘in,
Shomi hijrondin tavahhum ayla vasl ayyomida.
Zulfidakim maskan etting, ko‘r zanaxdon choxini,
Voqif o‘lg‘ulkim, erursen ajdahoning komida.
G‘unchadek og‘zing g‘ami ko‘nglumda gar yo‘q, bas nedur
Chok ko‘nglum xay’ati gul g‘unchasi andomida?
Yorning payg‘omi yetkach, topti jon farsuda tan,
Iso e’jozi magar muzmardur payg‘omida?
Bobur, ul zulfi ostinda emastur xollar,
Jon qushin sayd aylar uchun donalardur domida[3].

2 Алишер Навоий. Ғазаллар. – Тошкент: Камалак, 1991. Б. 30.

3 Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент: Фан, 1994. – Б. 18.

Zahiriddin Muhammad Boburning ushbu g‘azalida biometeorologik obrazlar: *gul, g‘uncha* obrazlari mavjud bo‘lib, bu obrazlar astronomik vaqt birligida talqin etiladi. Iqlimiy davriylik sanalgan Shom va Tong ziddiyati lirik qahramon taqdiri bilan belgilanadi. Falak g‘azalda shunchaki osmon emas, balki barcha iqlimiy va taqdiriy o‘zgarishlarni boshqaruvchi subyekt sifatida keladi. Falak oshiqni “vasl ayyomida” (visol kunida) qo‘ymasligi – ijobiy iqlimiy holatning o‘ta qisqaligiga ishoradir. Shu bilan birgalikda, “Firoq shomi” ham o‘rin egallaganki, bu shom hijronning iqlimiy tasviri bo‘lib yuzaga chiqadi. Boburning lirik qahramoni uchun hijron – quyoshi botgan, sovuq va qorong‘u bir holat. “Tong yo‘q” iborasi esa umidsizlik ma’nosida qo‘llaniladi. Aslida, mazkur g‘azalda iqlimiy elementlardan ko‘ra psixologik tasvirlar ustunlik qiladi. Bu tasvirlar esa iqlimiy barqarorlik va beqarorlik asosiga quriladi. Bizningcha, Zahiriddin Muhammad Boburning mazkur g‘azalidagi *“Iso e’jozi”, payg‘om xabari, farsuda tan (qurigan tana, tuproq)* kabi tushunchalarning o‘rin egallashi nafaqat talmeh san’atini keltirib chiqaradi, balki iqlimiy unsur hisoblangan tuproqning inson tanasi sifatida e’tirof etilishi, bu tuproq o‘z asosidan ajrashi sabab quruqlashi kabi holatlar aynan iqlimiy tushunchalarga yo‘l ochadi hamda shoir mahoratini belgilaydi. Chunki mazkur g‘azalda tabiat (falak) ataylab insonni visoldan ayiradi va unga “shom” (zulmat) beradi. Bu – Sharq adabiyotidagi *fatalistik iqlim (taqdiriy iqlim)* tushunchasining she’riyatdagi ifodasidir.

Zahiriddin Muhammad Boburning *“Yangi oy yor yuzi birla ko‘rib el shodu xurramlar”* matla’si bilan boshlanuvchi g‘azalida *yangi oy, navro‘z, sabo, shabnam* kabi tushunchalar lirik qahramon qalb prizmasi orqali tasvirlanadi. Bu tasvir g‘azalda dinamik fon vazifasini o‘taydi. Aslida, “yangi oy” tushunchasi astronomik birlik sanalib, u yangi astronomik hodisaga ishora etadi. G‘azalda esa yangi hilolning chiqishi bayram simvolikasi bo‘lib, ijtimoiy xursandchilik ramzi sifatida keltiriladi. Yangi oy chiqishi nafaqat diniy bayram (Hayit), balki tabiatdagi yangi siklning boshlanishidir. El uchun esa bu hodisa ma’naviy yangilanish belgisi. Biroq el va lirik qahramon o‘rtasidagi bu yangilik antitezani keltirib chiqardi. Lirik qahramon uchun bu hodisa ayriliq ma’nosini kasb etadi. Shu bois ham meteorologik hodisa hisoblangan sabo va dudi oh o‘rtasidagi to‘qnashuv natijasida termodinamik tasvir yuzaga keladi. Bu havo stixiyasi lirik qahramon qalbidagi bo‘ronni belgilab beradi. G‘azalda shabnam kabi element ham joy olganki, bu element gidrometeorologiya hodisasi bo‘libgina qolmay, lirik qahramon qalbining fiziologik holatini keltirib chiqaradi. Ya’ni tabiatdagi kondentatsiya jarayoni lirik qahramon qalbi bilan parallel qo‘yiladi. Lirik qahramon ohining tutun kabi ko‘tarilishi, tutashi esa antropogen iqlim yaratishning poetik usuli sanaladi. Demak, shoirning mazkur g‘azalida fenologik parallelizm mavjud bo‘lib, bu parallelizm gulning ochilishi va unda shabnam paydo bo‘lishi – tabiatning “uyg‘onishi” va “poklanishi”dir. Lirik qahramon uchun yorning yuzidagi bu “iqlimiy” manzara eng go‘zal lahzadir. Xullas, Zahiriddin Muhammad Boburda tabiat hodisalari (yangi oy, sabo) qahramonning ruhiy holatini belgilovchi indikatorlar bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алишер Навоий. Ғазаллар. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 30.
2. Valixo‘jayev B. Tanlangan asarlar. II jild. – Toshkent: Zilol buloq, 2023. 544-b.
3. Султон И. Навоийнинг қалб дафтари. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1969. 416 б.
4. Комилов Н. Тафаккур карвонлари. – Тошкент: Маънавият, 1999. 280 б.
5. Ҳаққул И. Навоийга қайтиш. – Тошкент: Фан, 2007. 223 б.
6. N.Jabborov. “Jahon basti kushodi ilm birla…”. Jahon adabiyoti, 2001, 8-son, 122– 129-betlar.
7. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Девон. – Тошкент: Фан, 1994. Б. 18.

Jobir AVRIDDINOV,
Termiz davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

O‘ZBEK XALQINING MA’NAVIY QADRIYATLARI VA BU ASARLARDAGI TALQINI
(“Guliston”, “Bo‘ston” va “Turkiy Guliston” asarlari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari Sharq mumtoz adabiyotining yirik namunalari – Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu asarlarda aks etgan axloqiy me’yorlar, insonparvarlik, adolat, ilmga intilish va komil inson g‘oyalarining mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, mazkur asarlarning o‘zbek jamiyatida ma’naviy tarbiya va pedagogik tafakkur rivojidagi o‘rni ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, qadriyat, Guliston, Bo‘ston, Turkiy Guliston, axloq, komil inson, tarbiya.*

Annotation: this article examines the spiritual values of the Uzbek people through the prism of prominent works of classical Eastern literature, namely *“Gulistan”* and *“Bo‘ston”* by Saadi Shirazi, as well as *“Turkiy Guliston yoxud axloq”* by Abdulla Avloni. The study provides a comprehensive analysis of the moral norms, humanistic ideals, principles of justice, the pursuit of knowledge, and the concept of the “perfect human being” as reflected in these works. Furthermore, the article elucidates the role of these literary masterpieces in shaping spiritual education and the development of pedagogical thought within Uzbek society, grounding the discussion in a scholarly framework.

Key words: *spirituality, values, Gulistan, Bo‘ston, Turkiy Guliston, ethics, perfect human being, education.*

Аннотация: в данной статье духовные ценности узбекского народа рассматриваются на основе выдающихся произведений классической восточной литературы — «Гулистан» и «Бустан» Саади Ширази, а также «Туркий Гулистан ёхуд ахлок» Абдуллы Авлони. В исследовании проводится комплексный анализ нравственных норм, гуманистических идей, принципов справедливости, стремления к знанию и концепции «совершенного человека», отражённых в данных произведениях. Кроме того, в статье научно обосновывается значение этих произведений в формировании духовного воспитания и развитии педагогической мысли в узбекском обществе.

Ключевые слова: *духовность, ценности, Гулистан, Бустан, Туркий Гулистан, нравственность, совершенный человек, воспитание.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida milliy ma’naviy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqining boy ma’naviy merosi Sharq mutafakkirlarining asarlarida chuqur ifoda etilgan. Xususan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari nafaqat badiiy, balki pedagogik ahamiyatga ham ega. Mazkur asarlar orqali jamiyatda insoniylik, adolat, sabr, halollik kabi fazilatlar targ‘ib qilinadi. Shu bois ushbu maqolaning asosiy maqsadi – mazkur asarlarda ifodalangan ma’naviy qadriyatlarni ilmiy tahlil qilishdan iborat. XXI asr globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivoji va madaniyatlararo integratsiya kuchayib borayotgan sharoitda milliy ma’naviy qadriyatlarni saqlash, ularni ilmiy asosda o‘rganish va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ayniqsa, tarixiy-adabiy merosda mujassam bo‘lgan axloqiy va estetik qarashlar milliy o‘zlikni anglash, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash hamda barkamol shaxsni shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Sharq mumtoz adabiyoti ana shunday boy ma’naviy xazina sifatida asrlar davomida insoniyat tafakkurini yuksaltirib kelgan. Xususan, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” asarlari hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari nafaqat badiiy yuksakligi, balki chuqur didaktik va falsafiy mazmuni bilan ajralib turadi. Ushbu asarlarda ilgari surilgan g‘oyalar — adolat, insonparvarlik, halollik, ilmga intilish, komil inson konsepsiyasi — o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari bilan uzviy uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ushbu uch asarda ifodalangan ma’naviy qadriyatlarning badiiy talqinini qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganish hamda ularning zamonaviy pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda badiiy matnlarni chuqur tahlil qilish orqali ularning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, axloqiy

konsepsiyalari va tarbiyaviy potensiali ilmiy jihatdan asoslanadi.

Tahlil va natijalar. Mazkur tadqiqot doirasida Sharq mumtoz adabiyotining yirik namunalari bo‘lgan Sa’diy Sheroziyning “Guliston” va “Bo‘ston” hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarlari o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim manba sifatida qiyosiy-tahliliy asosda o‘rganildi. Tahlil jarayonida ushbu asarlarning g‘oyaviy yo‘nalishi, badiiy ifoda vositalari hamda axloqiy-didaktik mazmuni o‘zaro uyg‘unlik va farqlilik nuqtayi nazaridan yoritildi.

Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari hikoyaviy-didaktik xarakterga ega bo‘lib, unda ma’naviy qadriyatlar real hayotiy voqealar va obrazlar orqali ifodalanadi. Asarda insoniy fazilatlar – adolat, saxovat, halollik va kamtarlik kabi tushunchalar turli ijtimoiy qatlam vakillari misolida ochib beriladi. Hikoyatlar qisqa, lo‘nda va chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘lib, ular orqali muallif insonning ichki dunyosini tarbiyalashga qaratilgan universal g‘oyalarni ilgari suradi. Ayniqsa, podsho va darvesh obrazlari orqali dunyoviy hokimiyat va ruhiy komillik o‘rtasidagi muvozanat masalasi ilgari suriladi. Bu esa o‘zbek xalqiga xos bo‘lgan adolatparvarlik va insonparvarlik qadriyatlarining ildizlari naqadar qadimiy ekanini ko‘rsatadi.

“Bo‘ston” asarida esa Sa’diy axloqiy qarashlarini yanada chuqurlashtirib, ularni she’riy-falsafiy shaklda ifodalaydi. Ushbu asarda tashqi xulq-atvor emas, balki insonning ichki kamoloti, ruhiy poklanishi markaziy o‘rinni egallaydi. Sabr, shukr, tavoze, ixlos kabi tushunchalar tasavvufiy ruhda talqin qilinadi. Insonning komillikka erishuvi uning nafs ustidan g‘alaba qozonishi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Shu jihatdan “Bo‘ston” asari o‘zbek xalqining ma’naviy dunyoqarashida muhim o‘rin egallagan tasavvufiy qadriyatlar bilan uzviy bog‘liq ekanligi namoyon bo‘ladi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari esa yuqoridagi ikki mumtoz manbadan farqli ravishda, ma’naviy qadriyatlarni pedagogik va ijtimoiy nuqtayi nazardan talqin etadi. Asarda milliy uyg‘onish davri ruhiga xos bo‘lgan ma’rifatparvarlik g‘oyalari ustuvorlik qiladi. Avloniy axloqni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholab, uni bevosita ta’lim-tarbiya tizimi bilan bog‘laydi. Uning qarashlarida ilm olish, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat va ma’rifatga intilish o‘zbek xalqining asosiy ma’naviy mezonlari sifatida ilgari suriladi. Bu esa an’anaviy axloqiy qarashlarning zamonaviy pedagogik tafakkur bilan uyg‘unlashganini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, har uchala asar turli tarixiy davr va ijtimoiy muhitda yaratilgan bo‘lishiga qaramay, ularni yagona ma’naviy negiz – komil insonni shakllantirish g‘oyasi birlashtirib turadi. Sa’diy asarlarida bu g‘oya ko‘proq umuminsoniy va falsafiy xarakterda ifodalansa, Avloniy ijodida u aniq pedagogik maqsad va milliy uyg‘onish ruhida talqin etiladi. Shu bilan birga, “Guliston”da hayotiy tajriba va hikmat ustuvor bo‘lsa, “Bo‘ston”da ichki ruhiy kamolot, “Turkiy Guliston”da esa ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatga yo‘naltirilgan axloqiy ideal markaziy o‘rin tutadi.

Tadqiqot natijalari asosida shuni ta’kidlash mumkinki, o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida izchil rivojlanib, har bir davrda yangi mazmun bilan boyib borgan. Mazkur asarlar ushbu qadriyatlarning badiiy, falsafiy va pedagogik talqinini o‘zida mujassam etgan holda, nafaqat adabiy meros, balki ma’naviy tarbiya tizimining muhim komponenti sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi va izchilligi esa milliy ma’naviyatning uzviy va barqaror tizim ekanligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi. “Guliston” asari hikoyatlar to‘plami bo‘lib, unda insoniy fazilatlar yorqin ifoda etilgan. Asarda adolatli podshoh obrazi orqali davlat boshqaruvi axloqi; kambag‘allarga mehr orqali insonparvarlik; ilm va donishmandlik orqali komillik g‘oyalari ilgari suriladi. Sa’diy fikricha, insonning qadri uning axloqi bilan belgilanadi.

“Bo‘ston”da esa sabr-toqat, shukronalik, tavoze (kamtarlik), halollik kabi fazilatlar she’riy tarzda bayon etiladi. Bu asar ko‘proq falsafiy va tasavvufiy ruhga ega bo‘lib, insonning ichki dunyosini poklashga qaratilgan. Abdulla Avloniy asarida ilm-ma’rifatga chaqiriq, axloqiy poklik, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat asosiy o‘rin tutadi. Avloniy tarbiyani jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko‘radi. U milliy qadriyatlarni zamonaviy ta’lim bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Uchala asar ham yagona maqsad – komil insonni tarbiyalash g‘oyasiga xizmat qiladi.

Tahlil jadvali. 1-jadval.

Asar	**Asosiy g‘oya**	**Yondashuv**
Guliston	Axloqiy hikmatlar	Hikoyaviy
Bo‘ston	Ruhiy poklanish	She’riy
Turkiy Guliston	Milliy tarbiya	Pedagogik

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mazkur asarlar o‘z davrida yaratilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ular yoshlar tarbiyasida, ta’lim tizimida, ma’naviy qadriyatlarni shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, Sa’diy Sheroziyning “Guliston” asari ma’naviy qadriyatlarni hayotiy voqealar va ibratli hikoyatlar orqali ifodalashga asoslangan bo‘lib, unda insonning ijtimoiy xulq-atvori, jamiyatdagi o‘rni va axloqiy mas’uliyati markaziy o‘rin egallaydi. Asarda qisqa, ammo mazmunan teran hikoyatlar orqali adolat, muruvvat, saxovat va donishmandlik singari fazilatlar targ‘ib qilinadi. Bu jihat o‘zbek xalqining qadimiy axloqiy tafakkurida hikmat va tajriba asosiy mezon bo‘lib xizmat qilganini ko‘rsatadi.

“Bo‘ston” asarida esa ma’naviy qadriyatlar yanada ichki, ruhiy-falsafiy qatlamda talqin etiladi. Unda insonning komillikka erishish yo‘li nafsni poklash, sabr-toqat va shukronalik orqali izohlanadi. Asarning she’riy shaklda yaratilgani uning ta’sirchanligini oshirib, axloqiy g‘oyalarni estetik darajada yetkazish imkonini beradi. Bu esa o‘zbek xalqining ma’naviy dunyoqarashida nafaqat tashqi xulq, balki ichki ruhiy poklik ham muhim ahamiyat kasb etganini tasdiqlaydi.

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida esa ma’naviy qadriyatlar aniq pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Muallif axloqni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qilib, uni yosh avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog‘laydi. Asarda ilm-ma’rifatga intilish, vatanparvarlik, ijtimoiy mas’uliyat va milliy o‘zlikni anglash kabi tushunchalar tizimli ravishda yoritiladi. Bu esa ma’naviy qadriyatlarning nafaqat individual, balki ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil natijalari uchala asarda ma’naviy qadriyatlarning ifodalanishida muayyan evolyutsion jarayon mavjudligini ko‘rsatadi. Sa’diy asarlarida bu qadriyatlar umuminsoniy va falsafiy darajada talqin etilgan bo‘lsa, Avloniy ijodida ular milliy uyg‘onish va ijtimoiy taraqqiyot kontekstida aniq pedagogik tizimga aylangan. Shu bilan birga, barcha asarlarda komil inson g‘oyasi markaziy o‘rinni egallab, u turli badiiy shakl va uslublar orqali ifoda etilgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, mazkur asarlar o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlarini shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ular orqali shakllangan axloqiy me’yorlar bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab qolgan bo‘lib, zamonaviy ta’lim va tarbiya tizimida samarali qo‘llanilishi mumkin.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, Sa’diy Sheroziy va Abdulla Avloniy asarlarida o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlari chuqur badiiy va falsafiy talqin etilgan. Ushbu asarlar turli davr va ijtimoiy sharoitlarda yaratilgan bo‘lsa-da, ularni yagona g‘oyaviy asos — komil insonni tarbiyalash, jamiyatda axloqiy muvozanatni ta’minlash va ma’naviy yetuklikka erishish maqsadi birlashtirib turadi.

Mazkur asarlar orqali shakllangan ma’naviy qarashlar o‘zbek xalqining tarixiy xotirasi, madaniy identiteti va pedagogik tafakkurining ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning o‘zaro uyg‘unligi milliy ma’naviyatning izchil va uzviy rivojlangan tizim ekanligini ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu merosni chuqur o‘rganish, uni zamonaviy ta’lim jarayoniga integratsiya qilish va yosh avlod ongiga singdirish dolzarb ilmiy va amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Natijaviy jihatdan, mazkur tadqiqot o‘zbek xalqining ma’naviy qadriyatlarini badiiy adabiyot orqali anglash imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularning bugungi ijtimoiy-madaniy taraqqiyotdagi o‘rnini ilmiy asosda yoritishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sa’diy Sheroziy. Guliston / tarj. A. Qahhor. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1983. 240-b.
2. Sa’diy Sheroziy. Bo‘ston / tarj. S. Ayniy. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1968. 220-b.
3. Abdulla Avloniy.Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O‘qituvchi, 1992. 160-b.
4. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176-b.
5. Valiyev S. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: Fan, 2010. 400-b.
6. Rahimov B. Sharq mumtoz adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. 280-b.

Hilola SHIRINBOYEVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
e-mail:hilola880300144@gmail.com

XX ASR DRAMATURGIYASIDA TA'LIM ORQALI SHAXS TARBIYASI MASALASI

(PYGMALION VA PADARKUSH MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada XX asr dramaturgiyasida ta'lim va tarbiya orqali shaxs shakllanishi Pygmalion hamda Padarkush dramalari misolida tahlil qilinadi. Unda ta'limning inson ijtimoiy maqomi, nutq madaniyati, axloqi va dunyoqarashiga ta'siri ochib berilib, jaholat va ma'rifat o'rtasidagi ziddiyatlar yoritiladi. Ta'lim jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: *dramaturgiya, ta'lim, tarbiya, shaxs kamoloti, ijtimoiy muhit, ma'rifat, jaholat, jadidchilik, ijtimoiy transformatsiya, nutq madaniyati, axloq*

Аннотация: в данной статье анализируется формирование личности посредством образования и воспитания в драматургии XX века на примерах драм «Пигмалион» и «Падарукуш». Раскрывается влияние образования на социальный статус человека, культуру речи, мораль и мировоззрение, а также подчеркиваются противоречия между невежеством и просвещением. Образование рассматривается как важный фактор развития общества.

Ключевое слово: *драматургия, образование, воспитание, личностное развитие, социальная среда, просвещение, невежество, джадидизм, социальные преобразования, культура речи, мораль.*

Annotation: this article analyzes the formation of personality through education and upbringing in 20th-century dramaturgy using the examples of the dramas Pygmalion and Padarkush. It reveals the impact of education on a person's social status, speech culture, morality, and worldview, and highlights the contradictions between ignorance and enlightenment. Education is considered an important factor in the development of society.

Key words: *dramaturgy, education, upbringing, personal development, social environment, enlightenment, ignorance, Jadidism, social transformation, speech culture, morality*

Kirish. XX asr insoniyat tarixida tub burilishlar davri bo'lib, bu davrda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, madaniyat va adabiyotda ham keskin o'zgarishlar yuz berdi. Dramaturgiya esa ushbu o'zgarishlarni eng tez va ta'sirchan aks ettiruvchi janrlardan biri sifatida shakllandi. Aynan shu davrda yozuvchilar inson shaxsini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning rolini chuqur tahlil qila boshladilar. George Bernard Shaw o'z dramaturgiyasida jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, madaniy tafovut va inson imkoniyatlari masalasini ko'tarsa, Mahmudxo'ja Behbudiy Sharq jamiyatidagi jaholat, savodsizlik va ortda qolish muammolariga e'tibor qaratadi. Bu davrda G'arb jamiyatida sanoatlashuv natijasida yangi ijtimoiy qatlamlar shakllandi, til va madaniyat muhim kapitalga aylandi. Sharqda esa jadidchilik harakati orqali ta'limni isloh qilish, yangi maktablar ochish va xalqni ma'rifatga chorlash asosiy maqsadga aylandi. Shu jihatdan qaraganda, dramaturgiya nafaqat badiiy asar, balki jamiyatni o'zgartirish vositasi sifatida ham xizmat qildi.

Adabiyotlar tahlili.

XX asr dramaturgiyasida ta'lim masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlarning markazida bo'lgan. G'arb adabiyotshunosligida "Pygmalion" asari lingvistik va ijtimoiy nuqtayi nazardan keng o'rganilgan. Tadqiqotchilar asarda til va nutq madaniyati insonning ijtimoiy mavqeyini belgilovchi asosiy omil sifatida talqin etilganini ta'kidlaydilar. Shuningdek, bu asar psixologik jihatdan ham tahlil qilinib, unda shaxsning ichki o'zgarishi, o'ziga bo'lgan ishonchning shakllanishi va identifikatsiya jarayonlari o'rganilgan. O'zbek adabiyotshunosligida esa jadid dramaturgiyasi, ayniqsa, Behbudiy ijodi alohida tadqiq qilingan. "Padarkush" asari ko'plab olimlar tomonidan ijtimoiy fojia sifatida baholanib, unda jaholatning halokatli oqibatlari ochib berilgani ta'kidlanadi.

Jadid adiblarining umumiy qarashlariga ko'ra:

- Ta'lim – millatni qutqaruvchi kuch
- Jaholat – jamiyatning eng katta dushmani
- Tarbiya – shaxs kamolotining asosi

Bu g'oyalar dramaturgiyada kuchli badiiy vositalar orqali ifodalangan.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlash maqsadida bir nechta metodlar o'zaro uyg'un holda va tizimli ravishda qo'llanildi. Jumladan, qiyosiy-tahliliy yondashuv asosida ikki asardagi g'oyaviy yo'nalishlar, obrazlar tizimi, syujet qurilishi hamda muammolar ko'lami chuqur solishtirildi. Ushbu metod yordamida asarlar o'rtasidagi nafaqat yuzaki o'xshashlik va tafovutlar, balki ularning ichki mohiyati, muallif niyatining o'ziga xos jihatlari ham aniqlab berildi. Bu esa har ikki asarning badiiy va mazmuniy qiymatini yanada aniqroq baholash imkonini yaratdi. Shuningdek, tarixiy metoddan foydalanish orqali asarlarning yaratilish davri, o'sha davr ijtimoiy-siyosiy muhiti, madaniy hayoti hamda mualliflarning dunyoqarashi atroflicha o'rganildi. Natijada ijodkorlarning asarlariga ta'sir ko'rsatgan tarixiy omillar, zamon ruhining badiiy ifodasi va davr muammolarining aks etish darajasi ilmiy asosda tahlil qilindi. Bu yondashuv asarlarni faqat matn doirasida emas, balki keng tarixiy kontekstda talqin qilishga xizmat qildi. Badiiy-estetik tahlil metodi esa tadqiqotning muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida obrazlarning yaratilish mahorati, konfliktlarning

badiiy talqini, dramatik vositalarning qo‘llanishi hamda muallif uslubining o‘ziga xosligini ochib berishga yo‘naltirildi. Ushbu metod orqali asarlarning estetik qiymati, ularning o‘quvchiga ta’sir kuchi va badiiy mukammallik darajasi chuqur yoritildi. Ayniqsa, til va uslub, ramziy obrazlar, metaforik ifodalar kabi unsurlar alohida e’tibor markazida bo‘ldi.

Bundan tashqari, sotsiologik yondashuv asosida asarlarda aks etgan ijtimoiy muammolar, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy tengsizlik, ma’naviy-axloqiy masalalar keng tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yordamida badiiy asarning jamiyat hayotidagi o‘rni, uning ijtimoiy ongga ko‘rsatadigan ta’siri hamda dolzarbligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Shu bilan birga, asarlarning bugungi kun o‘quvchisi uchun ahamiyati ham qay darajada ekanligi aniqlashtirildi.

Tahlil va natijalar

Tahlil natijalari shuni yanada chuqurroq ko‘rsatadiki, Pygmalion asarida shaxsning shakllanishi faqat tashqi ta’sirlar bilan emas, balki ichki intilish va o‘z ustida ishlash jarayoni bilan ham chambarchas bog‘liq holda tasvirlanadi. Eliza Dulitl obrazi bunga yorqin misol bo‘lib, u dastlab jamiyatda past ijtimoiy maqomga ega, oddiy va e’tiborsiz qiz sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq u o‘z hayotini o‘zgartirish istagi bilan harakat qilib, ta’lim olishga intiladi. Professor Higgins tomonidan berilgan bilim va nutq madaniyati Elizaning tashqi ko‘rinishini o‘zgartirgan bo‘lsa-da, uning haqiqiy rivoji o‘zini anglash, mustaqil fikrlash va o‘z qadrini tushunish orqali yuzaga keladi. Bu jarayonda til nafaqat aloqa vositasi, balki ijtimoiy mavqeni belgilovchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Muallif shu orqali insonning jamiyatdagi o‘rni ko‘p jihatdan uning bilim darajasi va nutq madaniyatiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Padarkush asarida mutlaqo teskari manzara tasvirlanadi. Bu asarda jamiyatdagi jaholat, savodsizlik va noto‘g‘ri tarbiya inson hayotini qanday izdan chiqarishini yaqqol ko‘rish mumkin. Asardagi fojiaviy voqea — o‘g‘ilning o‘z otasiga qarshi chiqishi — tasodifiy hol emas, balki uzoq davom etgan ma’naviy bo‘shliq va tarbiya yetishmovchiligining natijasidir. Muallif bu orqali oilaviy va ijtimoiy muhitning shaxs kamolotidagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Agar jamiyatda sog‘lom muhit, to‘g‘ri tarbiya va sifatli ta’lim mavjud bo‘lmasa, inson ongida noto‘g‘ri qarashlar shakllanib, bu esa oxir-oqibat halokatli oqibatlarga olib keladi.

Qiyosiy tahlil asosida shuni aytish mumkinki, har ikkala asarda ham ta’lim va tarbiya markaziy g‘oya sifatida ilgari suriladi, biroq ularning natijalari keskin farqlanadi. Pygmalion asarida ta’lim insonni yangi bosqichga olib chiqib, uning imkoniyatlarini ochib beradi, shaxs sifatida kamol topishiga xizmat qiladi. Aksincha, Padarkush asarida ta’lim va tarbiyaning yetishmasligi insonni tanazzulga olib boradi, nafaqat individual fojiaga, balki jamiyatdagi umumiy inqirozga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, har ikki asar orqali mualliflar jamiyatga muhim ijtimoiy xabarni yetkazishga intiladi: insonning kim bo‘lib yetishishi ko‘p jihatdan uning qanday muhitda tarbiya topgani va qanday ta’lim olganiga bog‘liq. Ta’lim insonni nafaqat bilimli qiladi, balki uning dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va hayotga bo‘lgan munosabatini ham shakllantiradi. Tarbiya esa ushbu bilimlarni to‘g‘ri yo‘naltirib, shaxsni komil inson sifatida rivojlantiradi. Shu asosda ilmiy xulosa qilish mumkinki, ta’lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosiy ustunlaridan biri hisoblanadi. Ularning uyg‘unligi jamiyatda sog‘lom ijtimoiy muhitni yaratadi, aks holda esa jaholat va inqiroz kuchayadi. Demak, har qanday jamiyatning kelajagi bevosita ta’lim tizimi va tarbiya sifatiga bog‘liq bo‘lib, bu masalaga e’tibor qaratish eng muhim vazifalardan biridir.

Xulosa. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, XX asr dramaturgiyasida ta’lim va tarbiya masalasi shaxs kamolotining muhim omili sifatida talqin etiladi. Ta’lim insonning ijtimoiy mavqeyini belgilaydi, tarbiya esa uning axloqiy qiyofasini shakllantiradi. Jaholat va savodsizlik esa jamiyatni tanazzulga olib boruvchi xavfli omil hisoblanadi. Dramaturgiya orqali bunday muhim ijtimoiy va tarbiyaviy g‘oyalar keng ommaga yetkaziladi. Shu asosda ta’lim tizimida axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratish, adabiyot darslarida bunday asarlarni chuqur o‘rganish, yoshlarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish hamda milliy va jahon adabiyotini uyg‘un holda o‘rganish zarur degan xulosaga kelindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. 176-b.
2. George Bernard Shaw. Pygmalion. – London Constable and Company, 1913. – 120 p.
3. Mahmudxo’ja Behbudiy. Padarkush. – Toshkent G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1989. – 64 b.
4. Rahmonov N. O‘zbek dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Fan, 2008. 256-b.
5. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. 280-b.
6. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2010. 300-b.
7. Ahmedov S. O‘zbek jadid dramaturgiyasi. – Toshkent: Fan, 2001. 210-b.
8. G‘aniyev B. Badiiy asar tahlili asoslari. – Toshkent: Universitet, 2007. 180-b.
9. Brown J. Modern Drama and Social Change. – New York Routledge, 2004. – 220 p.
10. Carter R. Language and Literature: An Introduction. – London Routledge, 2006. – 300 p.
11. Eagleton T. Literary Theory: An Introduction. – Oxford Blackwell, 1996. – 240 p.
12. Habib M.A.R. A History of Literary Criticism. – Oxford Blackwell, 2005. – 838 p.
13. Saidov A. Ma’naviyat va jamiyat. – Toshkent: Ma’naviyat, 2012. 220-b.
14. Jo‘rayev M. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: Fan, 2013. 190-b.
15. Normatov U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. 250-b.
16. Karimova D. Jahon dramaturgiyasi tarixi. – Toshkent: Universitet, 2015. 280-b

Nigora ABDURAXMANOVA,
Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
“Chet tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi TDTU, “Chet tillar” kafedrasi dotsenti
farinigi1715@gmail.com
N.X.XAMRAYEVA taqrizi asosida

HAZIL METANAZARIYASI: LINGVISTIK YONDASHUVLAR VA NAZARIY TASNIFLAR

Annotatsiya: hazil tilshunoslik, psixologiya, falsafa va sotsiologiya kabi ko‘plab fan sohalarida tadqiq etilgan murakkab hodisalardan biridir. Shunga qaramay, hazilning aniq va universal ta’rifi hanuzgacha mavjud emas. Ushbu maqolada hazil masalasi metanazariy nuqtayi nazardan yoritilib, hazilni tushuntirishga qaratilgan asosiy nazariy yondashuvlar tahlil qilinadi. Tadqiqot Salvatore Attardo, Viktor Raskin va boshqa yetakchi olimlarning ishlanmalariga tayanib, hazil nazariyalarini uch asosiy turga ajratadi: essensialistik, teleologik va substansialistik nazariyalar. Maqolada, ayniqsa lingvistik hazil nazariyalarining o‘rni va ahamiyatiga e’tibor qaratilib, semantik va pragmatik modellarning hazil mexanizmlarini tushuntirishdagi imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, hazilni qat’iy ta’riflashdagi qiyinchiliklar muhokama qilinib, “hazil kompetensiyasi” tushunchasi amaliy yechim sifatida ilgari suriladi. Tadqiqot natijalari hazil tadqiqotlarining nazariy manzarasini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *hazil nazariyasi, metanazariya, lingvistik hazil, essensialistik yondashuv, teleologik nazariya, hazil kompetensiyasi.*

Аннотация: юмор является сложным феноменом, изучаемым во многих областях науки, включая лингвистику, психологию, философию и социологию. Тем не менее, до сих пор не существует точного и универсального определения юмора. В данной статье проблема юмора рассматривается с метатеоретической точки зрения, а также анализируются основные теоретические подходы, направленные на объяснение юмора. Исследование опирается на работы ведущих ученых, таких как Сальваторе Аттардо и Виктор Раскин, и делит теории юмора на три основные типа: эссенциалистские, телеологические и субстанциалистские теории. Особое внимание уделяется роли и значению лингвистических теорий юмора, рассматриваются возможности семантических и прагматических моделей в объяснении механизмов юмора. Также обсуждаются трудности строгого определения юмора, и концепция «компетенции в юморе» предлагается в качестве практического решения. Результаты исследования способствуют более точному пониманию теоретического ландшафта исследований юмора.

Ключевые слова: *теория юмора, метатеория, лингвистический юмор, эссенциалистский подход, телеологическая теория, компетенция в юморе.*

Annotation: humor is a complex phenomenon studied across numerous disciplines, including linguistics, psychology, philosophy, and sociology. Despite this, a precise and universal definition of humor has yet to be established. This article examines the issue of humor from a metatheoretical perspective and analyzes the main theoretical approaches aimed at explaining humor. The study relies on the works of leading scholars such as Salvatore Attardo and Victor Raskin, categorizing humor theories into three main types: essentialist, teleological, and substantialist theories. Special attention is paid to the role and significance of linguistic humor theories, exploring the potential of semantic and pragmatic models in explaining the mechanisms of humor. The challenges of providing a strict definition of humor are also discussed, with the concept of “humor competence” proposed as a practical solution. The findings contribute to clarifying the theoretical landscape of humor research.

Key words: *humor theory, metatheory, linguistic humor, essentialist approach, teleological theory, humor competence.*

Kirish. Hazil insoniy muloqotning ajralmas qismi bo‘lib, kundalik suhbatlardan tortib adabiy asarlar va ommaviy axborot vositalarigacha bo‘lgan barcha sohalarda uchraydi. Odamlar turli vaziyatlarda hazil qilishadi, kulishadi va til imkoniyatlaridan o‘yin tarzida foydalanishadi. Shunga qaramay, hazilning mohiyatini aniq belgilash va uni ilmiy jihatdan izohlash oson emas. Hazil intuitiv tarzda tanib olinadigan hodisa bo‘lsa-da, uni yagona va mukammal ta’rif bilan ifodalash hozirgacha muvaffaqiyatli amalga oshmagan.

Hazilni o‘rganish bilan shug‘ullangan turli fanlar mazkur hodisaga turlicha yondashadi. Falsafada hazil kulgi va nomuvofiqlik bilan bog‘lab talqin qilinsa, psixologiyada u kognitiv va emotsional jarayonlar orqali tushuntiriladi. Sotsiologiyada hazilning ijtimoiy vazifalari tahlil qilinadi, tilshunoslikda esa uning lingvistik tuzilishi va ma’nosi markazga qo‘yiladi. Bu xilma-xillik hazil tadqiqotlarida umumiy nazariy birlikning yo‘qligiga olib keladi.

Shu sababli, hazilga oid nazariyalarni yuqori darajada tahlil qiluvchi metanazariy yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Metanazariya alohida hazil hodisalarini emas, balki hazilni tushuntiruvchi nazariyalarning o‘zini tahlil qilishga qaratilgan. Ushbu maqolaning maqsadi — hazil nazariyalarini metanazariy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish va lingvistik yondashuvlarning hazil tadqiqotlaridagi o‘rnini aniqlashdir.

Hazil tadqiqotlaridagi eng murakkab masalalardan biri — uning ta’rifidir. Ko‘plab tadqiqotchilar hazilni aniq belgilashning imkonsizligini ta’kidlaganlar. Sababi, hazil juda turli shakllarda namoyon bo‘ladi: latifa, so‘z o‘yini, kinoya,

satira, parodiya, masxara va boshqalar. Ushbu shakllarning barchasini yagona mezon asosida birlashtirish qiyin.

Ba'zi tadqiqotchilar hazilni kulgi bilan bog'lashga harakat qilganlar, biroq bu yondashuv yetarli emas. Har qanday hazil kulgiga sabab bo'lavermaydi va har qanday kulgi hazil natijasi emas. Masalan, asabiy kulgi yoki ijtimoiy muloyimlik sababli kulish holatlari mavjud. Shu bois kulgini hazilning asosiy belgisi sifatida qabul qilish ilmiy jihatdan asoslanmagan.

Bundan tashqari, madaniy farqlar ham hazilni ta'riflashni murakkablashtiradi. Bir madaniyatda kulgili bo'lgan holat boshqa madaniyatda umuman tushunilmasligi yoki noo'rin deb baholanishi mumkin. Demak, hazilni oldindan (a priori) qat'iy ta'riflash amaliy jihatdan samarasizdir.

Hazilning metanazariyasi hazil haqidagi nazariyalarni tizimlashtirish va ularni umumiy mezonlar asosida tasniflash bilan shug'ullanadi. Attardoga ko'ra, hazil nazariyalarini uch asosiy turga bo'lish mumkin: essensialistik, teleologik va substansialistik.

Essensialistik nazariyalar hazilning mohiyatini aniqlashga intiladi. Ular hazil yuzaga kelishi uchun zarur va yetarli shartlarni topishni maqsad qiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, hazilni boshqa nutq turlaridan ajratib turadigan ichki mexanizm mavjud bo'lishi kerak.

Nomuvofiqlik nazariyalari essensialistik yondashuvning eng mashhur ko'rinishidir. Kant va Shopengauer asarlarida shakllangan bu g'oya hazil kutilmagan va mos kelmaydigan elementlarning to'qnashuvidan kelib chiqishini ta'kidlaydi. Keyinchalik bu fikr kognitiv va lingvistik modellar orqali rivojlantirilgan.

Teleologik nazariyalar hazilning mohiyatidan ko'ra uning vazifalariga e'tibor qaratadi. Bu yondashuv hazil nima uchun ishlatiladi degan savolga javob izlaydi. Hazil ijtimoiy keskinlikni yumshatish, guruh birdamligini mustahkamlash, tanqidni bilvosita ifodalash kabi vazifalarni bajarishi mumkin.

Sotsiolingvistik va pragmatik tadqiqotlar ko'pincha teleologik yondashuvga asoslanadi. Biroq bu nazariyalar hazilning ichki tuzilishini tushuntirishda cheklangan bo'lishi mumkin.

Substansialistik nazariyalar hazilni uning mazmuni orqali tushuntiradi. Masalan, ustunlik nazariyalari hazilni boshqalar ustidan kulish bilan bog'lasa, boshqa yondashuvlar agressiya, tabu yoki jinsiy mavzularni hazil manbai sifatida ko'radi. Bu nazariyalar muayyan turdagi hazillarni izohlashda foydali bo'lsa-da, barcha hazil shakllarini qamrab ololmaydi.

Lingvistik hazil nazariyalari hazil tadqiqotlarida alohida o'rin egallaydi. Ular hazilni til tizimi doirasida tahlil qilib, ma'no, tuzilma va pragmatik mexanizmlarga e'tibor qaratadi. Shu jihatdan lingvistik yondashuvlar asosan, essensialistik xarakterga ega.

Raskinning Semantik Skriptga Asoslangan Hazil Nazariyasiga (SSTH) ko'ra, matn ikki qarama-qarshi skriptga mos kelganda va ushbu skriptlar o'rtasida o'tishni ta'minlovchi signal mavjud bo'lganda hazil yuzaga keladi. Bu model hazilni semantik darajada formal tahlil qilish imkonini beradi.

Attardo tomonidan ishlab chiqilgan Umumiy Verbal Hazil Nazariyasi (GTVH) esa ushbu yondashuvni kengaytirib, hazilni tahlil qilishda bir nechta bilim resurslarini hisobga oladi. Bu nazariya hazil matnlarining xilma-xilligini tushuntirishga yordam beradi.

Lingvistik hazil nazariyalarining muhim jihatlaridan biri — non-bona-fide muloqot tushunchasidir. Hazil jarayonida nutqiy qoidalar vaqtincha "to'xtatiladi" va ishtirokchilar buni anglab, nutqni o'yin rejimida talqin qiladilar.

Hazilni qat'iy ta'riflashdagi qiyinchiliklar sababli, ko'plab tadqiqotchilar "hazil kompetensiyasi" tushunchasini ilgari suradilar. Hazil kompetensiyasi — bu til egasining qaysi nutq birligi hazil ekanini tanib olish va undan mos ravishda foydalanish qobiliyatidir.

Mazkur tushuncha madaniy farqlarni, kontekstga bog'liqlikni va individual tafovutlarni hisobga oladi. Hazil kompetensiyasi orqali tadqiqotchi hazilni nazariy ta'riflash o'rniga, real nutqiy amaliyot asosida o'rganishi mumkin.

Ushbu maqolada hazil masalasi metanazariy nuqtayi nazardan ko'rib chiqildi va hazil nazariyalari uch asosiy turga ajratildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, lingvistik hazil nazariyalari asosan, essensialistik yondashuvga tayanib, hazilning ichki mexanizmlarini aniqlashga intiladi.

Shu bilan birga, hazilni mutlaq ta'riflashning imkonsizligi tan olinib, hazil kompetensiyasi tushunchasi samarali alternativ yechim sifatida taklif qilindi. Lingvistik modellar hazilni tizimli tahlil qilish imkonini bersa, hazil kompetensiyasi bu modellarni real muloqot bilan bog'laydi.

Metanazariy yondashuv hazil tadqiqotlarining nazariy manzarasini yaxlit ko'rishga yordam beradi va kelajakdagi tadqiqotlar uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Attardo S. Linguistic theories of humor. — Berlin: Mouton de Gruyter, 1994. 426 p.
2. Attardo S. Humorous texts: A semantic and pragmatic analysis. — Berlin: Mouton de Gruyter, 2001. 238 p.
3. Bergson H. Le rire. Essai sur la signification du comique. — Paris: Félix Alcan, 1901. 201 p.
4. Freud S. Der Witz und seine Beziehung zum Unbewussten. — Wien: Franz Deuticke, 1905. 247 S.
5. Kant I. Kritik der Urteilskraft. — Berlin: Lagarde und Friederich, 1790. 474 S.
6. Koestler A. The act of creation. — London: Hutchinson, 1964. 751 p.
7. Raskin V. Semantic mechanisms of humor. — Dordrecht: D. Reidel Publishing Company, 1985. 284 p.

Saodat SHAMSHADDINOVA,
Qoraqalpoq davlat universiteti
Amaliy filologiya kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: shamshaddinovasaodat@gmail.com

GEOGRAFIK TERMINLAR LINGVISTIK TADQIQI
(Qo‘ng‘irot tumani toponimiyasi misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada Qo‘ng‘irot tumani toponimiyasidagi geografik apellyativlarning lingvistik tabiati kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda etimologik tahlil va qiyosiy-tipologik metodlardan foydalanilgan holda “köl”, “qal’a”, “quduq”, “özek” va “oba”abi terminlarning genezisi aniqlangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tuman hududidagi gidronimlar va oronimlar qadimgi turkiy va mo‘g‘ul tillari qatlamlariga borib taqalib, mintaqaning o‘ziga xos gidrografik va landshaft xususiyatlarini aks ettiradi. Xulosa sifatida, Qo‘ng‘irot toponimlarining aksariyati tabiiy resurslar (suv va o‘simliklar) bilan bog‘liq holda shakllanganligi va hududiy identifikatsiyada muhim rol o‘ynashi ilmiy asoslangan.

Kalit so‘zlar: *toponimika, gidronim, apellyativ, Qo‘ng‘irot tumani, etimologiya, geografik termin, Ustyurt, fitotoponim.*

Аннотация: в данной статье проведен комплексный лингвистический анализ географических апеллятивов в топонимии Кунградского района. С использованием методов этимологического анализа и сравнительно-типологического изучения выявлен генезис таких терминов, как «көл», «қала», «құдық», «өзек» и «оба». Результаты показывают, что гидронимы и оронимы региона восходят к древнетюркским и монгольским пластам, отражая специфические гидрографические и ландшафтные особенности местности. В заключении научно обосновано, что большинство топонимов Кунграда сформировалось в связи с природными ресурсами (водой и растительностью) и играет важную роль в территориальной идентификации.

Ключевые слова: *топонимика, гидроним, апеллятив, Кунградский район, этимология, географический термин, Устюрт, фитотопоним.*

Annotation: this article provides a comprehensive linguistic analysis of geographical appellatives in the toponymy of the Kungrad district. Using etymological analysis and comparative-typological methods, the genesis of such terms as “köl”, “qal’a”, “quduq”, “özek”, and “oba” has been identified. The results indicate that the hydronyms and oronyms of the region trace back to ancient Turkic and Mongolian layers, reflecting specific hydrographic and landscape characteristics. In conclusion, it is scientifically substantiated that most Kungrad toponyms were formed in relation to natural resources (water and vegetation) and play a significant role in territorial identification.

Key words: *toponymy, hydronym, appellative, Kungrad district, etymology, geographical term, Ustyurt, phytotoponym.*

Kirish. Toponimika nafaqat joy nomlarini, balki xalqning tili, tarixi va geografik tafakkurini o‘zida mujassam etgan jonli xazinadir. Qoraqalpoq tilining boy leksik qatlami, xususan, Qo‘ng‘irot tumani hududidagi nomlar qadimiy turkiy ildizlarga borib taqalishi bilan ajralib turadi. Maqolada “ko‘l”, “qal’a”, “quduq” va “o‘zak” kabi tayanch terminlarning etimologiyasi hamda ularning landshaftni ifodalashdagi o‘rni tadqiq etiladi. Masalan, “ko‘l” termini prototurkiy “köl” formasidan shakllangan bo‘lsa, “qal’a” so‘zi mintaqaning mudofaa tarixini aks ettirib, dastlab “qo‘rg‘on” ma’nosini anglatgan. Mazkur tadqiqot ushbu apellyativlarning etimologik tahlili orqali Orolbo‘yi hududining tarixiy-geografik qiyofasini va til taraqqiyoti qonuniyatlarini ochib berishni maqsad qiladi.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot materiali sifatida Qo‘ng‘irot tumani hududidagi “ko‘l”, “qal’a”, “quduq” va “o‘zak” kabi 50 dan ortiq gidronim va oronimlar tanlab olindi. Ishda etimologik tahlil, qiyosiy-tarixiy metod hamda semantik klassifikatsiya usullaridan foydalanildi**.**

Natija va tahlillar. Ko‘l – barcha turkiy tillardagi umumturkiy asosiy leksikaga mansub gidrografik termin. U “tabiiy suv to‘planib turadigan pastlik”, ya’ni “ko‘l” ma’nosini bildiradi. Ushbu termin prototurkiy tiligacha borib taqaladigan “köl” formasidan tarqalgan deb hisoblanadi.[4, 22-38] Bu tub so‘z nafaqat “suv havzasi”, balki “qo‘ltiq, pastlik, chuqurlik” ma’nolarida ham bo‘lishi mumkin. Termin faqat turkiy tillar bilan cheklanib qolmasdan, mo‘g‘ul tillariga ham o‘tib (*nuur, nagur* – mo‘g‘ul tilida “ko‘l”), butun Markaziy Osiyo, Sibir va Oltoy gidronimiyasining asosiy tarkibiy qismiga aylangan.[5] Qo‘ng‘irot tumanida ushbu apellyativ bilan yasalgan *Oltinko‘l, Baqali ko‘l, Qalmag‘ambetko‘l,*

Qulmag‘ambetko‘l, Qurg‘oq ko‘l, Lauzan ko‘l, Mashanko‘l, Xojako‘l, Ko‘kli ko‘l, Tabanko‘l kabi gidronimlar uchraydi.

Ko‘pir apellyativi Qo‘ng‘irot tumani toponimiyasida kam uchraydi. Hududda ushbu komponent ishtirokida yasalgan *Bajbanko‘pir, Qizilko‘pir, Gulal ko‘pir* kabi nomlar mavjud.

Qazgan so‘zi “qazish” fe’lidan olingan bo‘lib, asosan Ustyurtda ushbu apellyativ ishtirokidagi nomlar ko‘p uchraydi. Ular o‘sha quduqni qazigan shaxs ismlari bilan bog‘liq holda qo‘llaniladi: *Alpisqazgan, Oqmanqazgan, Amanqazgan, Aytqulqazgan, Ermekqazgan, Eleuqazgan, Ko‘shbayqazgan, Qasqaqazgan, Qashqinqazgan, Qosanqazgan, Mataqazgan, Orinbayqazgan, Sherbayqazgan, Tajenqazgan* va boshqal’ar.

Qayir so‘ziga Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida [1, 89-90] “1. Suv qaytishi natijasida paydo bo‘lgan yer. 2. Soy, sayoz” deb tushuncha berilgan bo‘lsa, Mang‘istov hududi toponimiyasini o‘rgangan B. Ko‘shimova “mayda tosh-qumli yer” deb izoh beradi. [3, 77] Qo‘ng‘irot tumani toponimiyasida *Quriqqaraqayir, Qizilqayir, Taxtaqayir* nomlari uchraydi.

Qal’a – aholi zich joylashgan, ijtimoiy-siyosiy, madaniy va savdo markazi hisoblanuvchi yirik aholi punktlarini anglatuvchi universal toponimik termin. Bu apellyativning tarqalish areali juda keng bo‘lib, O‘rta Sharqdan Pireney yarim orollarigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga oladi. [4, 22-38] Turkiy tillarda, shu jumladan qoraqalpoq tilida ham “qal’a” so‘zi dastlab “qo‘rg‘on” ma’nosini bildirgan. Tarixiy Xorazm hududida devor bilan o‘ralgan mustahkamlanish o‘rinlarining ko‘pligi sababli, ushbu obyektlarning nomlanishida “qal’a” komponenti asosiy rol o‘ynagan. Z. Do‘sumovning ta’kidlashicha, Xorazm vohasida bu so‘z “devor bilan o‘ralgan yer, qo‘rg‘on” ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lsa, eroniy tillarda hozirgi kungacha tepalikka solingan istehkomlar, hatto ayrim baland tepaliklarning o‘zi ham “qal’a” deb atalishi uchraydi. [5] Qo‘ng‘irot tumanida *Adaqqal’a, Alanqal’a, Bug‘raxanqal’a, Bozqal’a, Ketenqal’a, Tomarqal’a, Tuproqqal’a, Shaytanqal’a, Shorqal’a, Yoqubbay qal’a, Janaqal’a, Oqqal’a, Azbergenqal’a, To‘rebiyning qal’asi* kabi nomlar ko‘p uchraydi.

Quduq leksémasining etimologiyasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, tilshunos olim Sh. Raxmatullayev bu so‘zning turkiy tillarga xosligini tasdiqlab, uning kelib chiqishi bo‘yicha ikki xil ilmiy farazni ilgari suradi:

1. So‘zning tubi qadimgi turkiy tildagi “suv quyish” ma’nosini anglatuvchi *qud* (hozirgi *quy*) fe’liga borib taqaladi va unga *-(u)ǵ* ot yasovchi affiksi qo‘shilishi orqali shakllangan.

2. So‘z “past, quyu” ma’nosini bildiruvchi *qoyi (quyi)* so‘zining qadimgi *qodı* variantiga *-q* affiksi ulanishidan kelib chiqqan (*qodı+q > quduq*). [6, 571] Qadimgi turkiy til yodgorliklarida, xususan Mahmud Qoshg‘ariy asarlarida ushbu terminning *quzuǵ, quyuǵ, quduǵ* formalarida uchrashini hisobga olsak, [7] Sh. Raxmatullayev keltirgan farazni asosli deb hisoblaymiz. Misollar: *Boyquduq, Davletquduq, Jamanovuzsuv-Manke quduq, Jartiquduq, Jariqquduq, Jarinquduq, Ko‘sherquduq, Qozoqquduq, Qoraquduq, Qosquduq, Qulquduq, Mamish quduq, Ordabay quduq, Tasa-ost-quduq, Terenquduq, Uruquduq, Uchquduq* va boshqal’ar. Shuningdek, **Quy (Қуй)** – *Uzunquy*.

Qulau – tubi “qula” bo‘lgan ushbu apellyativ Ustyurtdan tushadigan yo‘lni anglatadi (tog‘dan qulash): *Qiysiq qulau, Qurqulau, Shiyqulau*.

Oba – Markaziy Osiyo xalqlari toponimiyasida tez-tez uchraydigan, asosan yer relyefidagi sun’iy yoki tabiiy tepachalarni bildiruvchi termin. G‘. Qo‘nqashpayevning aniqlamasiga ko‘ra, “oba” – jota yoki tekis yerga uyilgan toshlar yig‘indisidir. [8, 85-97] E.M. Murzayev bu termin etimologiyasini mo‘g‘ul tilidagi *ovoo, oboo* so‘zlari bilan bog‘lab, uning “uyum”, “tepache”, “tosh uyumi” yoki “qo‘rg‘on” kabi ma’nolarini ochib bergan. [9] K. Kaymuldinovaning fikricha, bu termin nafaqat tosh uyumi, balki “chegara belgisi”, “alohida joylashgan tog‘ yoki tepa”, shuningdek “maxsus uyilgan toshli qabr (mozor)” ma’nolarini ham anglatadi. Qo‘ng‘irot tumanidagi misollar: [10, 54] *Uzunoba, Uyoba, Sarioba, Shiyoba, Qoraoba*.

O‘zak – suv obyektlarini nomlashda qo‘llaniladigan muhim gidrografik termin. E.V. Sevortyan bu leksémaning tubini “buloq” ma’nosini anglatuvchi *öz* so‘ziga *-(a)k* kichraytirish affiksi qo‘shilishidan paydo bo‘lgan deb tushuntiradi. [11,510] N.A. Baskakov esa *özek, özen, uguz* kabi so‘zlarning genetik ildizi bir ekanligini ilgari surgan. [12,66] Tatariston gidronimiyasini o‘rgangan F.G. Garipova “özek” terminining tatar tilida “daryo”, shuningdek mahalliy dialektlarda “suv, jilg‘a” ma’nolarida qo‘llanilishini qayd etgan. [13,46] N. Oxunov bu terminning Xorazm va Qoraqalpog‘iston hududidagi o‘ziga xosligiga to‘xtalib, uni “daryo tarmog‘I” deb tushuntiradi. [14,43] Olim Q. Abdimuratovning fikricha, *o‘zek* – inson qo‘li bilan qazilmagan, tabiiy yo‘l bilan paydo bo‘lgan daryo tarmog‘idir. Qo‘ng‘irot tumanida *Maylio‘zak, Mamuro‘zak, Nurlyo‘zak, Jansizo‘zak* kabi gidronimlar bor.[15,113]

Say – gidrografik termin sifatida “daryo vodiysi, kichik daryo, kichik suv yo‘li” yoki “o‘zak” ma’nolarini bildiradi. O‘lcham jihatidan say ariqdan (jap) yirik, lekin daryodan

kichik oqimni anglatadi. Qoraqalpoq tilining izohli lug‘atida: “Ikki balandlik yoki tog‘ orasida oqin suv natijasida paydo bo‘lgan vodiy, jira” [16,159] deb izoh berilgan. Qo‘ng‘irot tumanida *Kiyiksay, Sekseulsay, Juvanslisay* nomlari uchraydi.

Suv so‘zining Markaziy Osiyoda tarqalish ko‘lami juda keng. Qo‘ng‘irot tumani hududida tarkibida “suv” apellyativi bor gidronimlar uchraydi: *Aqqansuv, Tabinsuv, Jamanovuzsuv*.

Tog‘ (tov) – relyefning atrof-muhitdan sezilarli baland turuvchi shakllarini bildiruvchi asosiy oronimik termin. Qo‘ng‘irot tumanining geografik landshaftida Ustyurt platosi alohida o‘rin tutadi. Mahalliy xalq tilida bu plato, mutlaq balandligidan qat’i nazar, ko‘pincha “tog‘” (tau) termini bilan ataladi. Tarixiy manbalarda Ustyurt hududiga tegishli *Siyah-Kuh* (forscha “Qoratog‘”) va *Dumantov* kabi nomlar uchraydi. Qo‘ng‘irotda ushbu termin qatnashgan *Qubatov, Qoratov, Qustov* kabi oronimlar mavjud.

Terak – turkiy tillarda keng tarqalgan fitotoponimik apellyativlardan biri. Ko‘pchilik turkiy tillarda “terak” so‘zi asrlar davomida umuman “daraxt” ma’nosini bildirib kelgan, biroq hozirgi kunda aniq bir daraxt turini (Populus) anglatadi.[16,205] Mahmud Qoshg‘ariy asarlarida “terak” so‘zi bevosita “terak daraxti” ma’nosida keltirilgan. [17] Terak daraxti namli yerlarda o‘sishi sababli, bunday nomlar o‘sha yerda suv ko‘zi borligidan darak beradi. Qo‘ng‘irot toponimlari ichida bunga *Terak, Qosterak, Marqabayterak, Uch terak, Xanterak, Bayterak* nomlari misol bo‘la oladi. *Bayterak* nomi urug‘ nomiga qo‘yilgan etnonim bo‘lishi ham mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qo‘ng‘irot tumani toponimlarini o‘rganish mintaqaning tarixiy-madaniy qiyofasini tiklashda, turkiy tillar etimologiyasini chuqurroq anglashda va hududiy terminologiyani tizimlashtirishda ulkan ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu nomlar o‘tmishdan kelajakka qolgan o‘ziga xos lisoniy merosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М.: Наука, 1974. – Т. 1. – С. 89-90.
2. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Төртинши том. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2023. 329-б.
3. Көшімова Б.Ә. Маңғыстау өңірі жер-су атауларының түсіндірме сөздігі. – Алматы: «Нурлы әлем», 2010, 77-б.
4. Розенфельд А.З. Qal’a (Kala) – тип укрепленного Иранского населения // «Советская этнография», 1951. – №1. – С. 22–38.
5. Дусумов З. Историко-лингвистический анализ топонимии Хорезма. Автореф. дисс. … докт. филол. наук. – Ташкент, 1989. – С. 93.
6. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. – Тошкент: Университет, 2000. – Б. 571.
7. Махмуд Қошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I т. – Б. 356; III т. – Б. 180.
8. Конкашпаев Г.К. Географические названия монгольского происхождения на территории Казахстана // Известия АН Каз ССР. Серия филол. и искусств. Вып.1(II) – Алма-Ата, 1959. – С. 85-97.
9. Мурзаев Э.М. Словарь народных географических терминов. – М: Мысль, 1984. – С. 401.
10. Каймулдинова К. Қазақ топонимдерінің этноэкологиялық негіздері. – Алматы, 2001. – Б. 54.
11. Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков. – М., 1974. – С. 510.
12. Баскаков Н.А. Топонимика Востока. – М.: Наука, 1969. – С. 66.
13. Гарипова Ф.Г. Исследования по гидронимии Татарстана. – М.: Наука, 1991. – С. 46.
14. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Т.: Фан, 1989. – Б. 43.
15. Абдимуратов К. Топонимика Каракалпакии: дис... канд. филол. наук. – Нукус, 1966. – С. 113
16. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. Жети томлық. Алтыншы том. – Нөкис: Qaraqalpaqstan, 2023. – 159-б.
17. Serikbaeva A. S. Taxtatópir rayonı toponimleriniń semantikası hám qurılısı: filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD) ilmiy dárejesin alıw ushın usınılǵan dissertaciya. – Nókis, 2025. – 150 b.

Shaxnoza ISMATOVA,
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o‘qituvchisi

SIYOSIY NUTQLAR PRAGMATIK ASPEKTIDA LINGVOSTILISTIK VOSITALAR

Annotatsiya:ushbu maqolada siyosiy nutqlarning pragmatik aspekti va uni yoritishda lingvostilistik vositalarning roli tahlil qilinadi. Siyosiy diskursda til birliklari auditoriyani ishontirish, muayyan harakatga undash hamda ijtimoiy fikrni shakllantirish vositasi sifatida namoyon bo‘lishi yoritiladi. Shuningdek, metafora, takror, ritorik savol va emotsional leksika kabi vositalarning nutq ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy nutq, siyosiy diskurs, pragmalingvistika, lingvostilistika, metafora, takror, ritorik savol, emotsional leksika.*

Аннотация: в статье рассматривается прагматический аспект политической речи и роль лингвостилистических средств в его выражении. Показано, что в политическом дискурсе язык используется не только для передачи информации, но и для убеждения аудитории и формирования общественного мнения. Особое внимание уделяется таким средствам, как метафора, повтор, риторические вопросы и эмоциональная лексика.

Ключевые слова: *политическая речь, политический дискурс, прагмалингвистика, лингвостилистика, метафора, повтор, риторический вопрос, эмоциональная лексика.*

Annotation: this article examines the pragmatic aspect of political speeches and the role of linguostylistic devices in political discourse. It highlights that language in political speech is used not only to convey information but also to persuade the audience and shape public opinion. Special attention is given to such devices as metaphor, repetition, rhetorical questions, and emotional vocabulary.

Key words: *political speech, political discourse, pragmalinguistics, linguostylistics, metaphor, repetition, rhetorical question, emotional vocabulary.*

Jahon tilshunosligida o‘tgan asrning so‘nggi choragidan boshlab til birliklarining nutqda inson omili bilan bog‘liq holda yuzaga chiquvchi xususiyatlarini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Til tadqiqiga bunday yondashuvda, ayniqsa, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik, sotsiolingvistik aspektlardagi tadqiqotlarda keng o‘rin berildi.

Ma’lum bo‘ladiki, siyosiy nutqni pragmalingvistik aspektda o‘rganish dolzarb muammolardan biri bo‘lib, tilni inson omili bilan bog‘liq holda tadqiq etish tendensiyasiga asoslanadi.

Siyosiy nutq lingvopragmatika doirasida tahlil etiladigan asosiy obyektlardan biri hisoblanadi. Chunki siyosiy jarayonlarning – xususan, qarorlar qabul qilinishi, hokimiyat vakolatlarining shakllanishi hamda amaliyotga tatbiq etilishi til vositalari orqali ifodalanadi va ijtimoiy ongda shakllantiriladi. Bunday kontekstda siyosiy nutq nafaqat axborot yetkazish, balki muayyan harakatga undash, auditoriyani ishontirish va ijtimoiy fikrga ta’sir ko‘rsatish vositasi sifatida xizmat qiladi. Demak, siyosiy faoliyat va til orqali amalga oshiriladigan kommunikativ strategiyalar o‘zaro chambarchas bog‘liqdir.

Siyosiy nutqning asosiy xususiyati uning pragmatik yo‘naltirilganligida namoyon bo‘ladi: bunday nutqning maqsadi tinglovchi yoki o‘quvchini muayyan harakatga undashdan iboratdir. Shu sababli nutq o‘zining vaziyatga mosligi, ya’ni kommunikativ kontekst bilan uyg‘unligi orqali ma’no kasb etadi. Til harakati bilan siyosiy harakat o‘rtasidagi muhim bog‘liqlik shundaki, nutqdagi semantik o‘zgarishlar siyosiy transformatsiyalarning muhim signaliga aylanishi mumkin.

Til – siyosiy faoliyatda nafaqat muloqot vositasi, balki siyosiy haqiqatni yaratish, uni talqin qilish va shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi.

Lingvopragmatika bunday holatlarda nutq maqsadi va kutilayotgan reaksiyani aniqlash orqali tushunishni rivojlantirishga intiladi.

“Siyosiy tilning samaradorligi uning dolzarbligi va o‘zgaruvchanligida, jamiyatdagi siyosiy o‘zgarishlarga moslashuvida ko‘rinadi. Shu bois zamonaviy siyosiy tilning ba’zan eskirib qolishi, yangi siyosiy haqiqatlarni ifodalashda yetarlicha qobiliyatga ega emasligi haqida ilmiy muhokamalar mavjud”.

Siyosiy nutqlarda pragmatik aspektlarni yoritishda lingvostilistik vositalarning o‘rni va funksiyalarini o‘rganish muhim ilmiy masala hisoblanadi.

Siyosiy nutqda esa pragmatik aspekt nutqiy harakatlarning maqsadga muvofiqligini ta’minlaydi, tinglovchilarga qanday muloqot qilish kerakligini belgilaydi. Bu jarayonda lingvostilistik vositalar nutqning nafaqat mazmunini, balki uning emotsional, baholovchi, ishontiruvchi funksiyalarini ham amalga oshirishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Lingvostilistika esa tilning uslubiy jihatlarini o‘rganish orqali, siyosiy nutqdagi pragmatik maqsadlarni samarali amalga oshirishga yordam beradi. Aynan shu vositalar orqali siyosatchi o‘z fikrlarini yanada ta’sirli, ravshan va tinglovchilar uchun qabul qilinadigan shaklda ifodalay oladi.

Shu bois siyosiy nutqlarda pragmatik aspektlarni yoritishda lingvostilistik vositalarning roli va funksiyalarini tahlil qilish, nafaqat nutqning kommunikativ samaradorligini oshirish, balki siyosiy kommunikatsiyaning yanada chuqurroq tushunilishiga ham xizmat qiladi.

Siyosatchilarning fikrlari va nutqini tushunish uchun ularning nutqi aniq hamda ta'sirchan bo'lishi kerak. Ba'zi bir fikrlarga ko'ra, siyosatchilarning nutqlari monoton va ular tomonidan ilgari surilayotgan g'oyalarni idrok qilish qiyin hisoblanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, siyosiy diskursda til o'ziga xos xususiyatga ega. Shuni hisobga olgan holda, siyosiy jarayonlarda so'zlovchilar o'zining oldiga qo'ygan maqsadiga erishish, tinglovchilar e'tiborini qozonish hamda ularning diqqatini o'ziga tortish uchun o'z nutqida turli xil stilistik vositalardan ko'proq foydalanishadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, uslubiy qurilmalar siyosiy diskursda alohida o'rin egallab keladi. Bu fikrni quyidagi ma'lumot yanada to'ldiradi: J.S. Mio stilistik vositalardan biri hisoblangan metaforaga quyidagicha ta'rif bergan: "Metaforalar keng jamoatchilikka siyosiy voqealarning ma'nosini tushunish va jarayonning bir qismini his qilish imkonini beradi". Tilshunos olim M. Geysning ta'kidlashicha, "Siyosatchilar yaqindan beri aholi bilan muloqot qilish vositasi sifatida metaforaga qiziqish bildira boshladilar". Berilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, siyosiy diskursda ishlatiladigan stilistik vositalar o'zining alohida o'rniga ega bo'ladi.

Siyosiy nutqda, odatda, quyidagi asosiy lingvostilistik vositalardan foydalaniladi: metafora (murakkab siyosiy tushunchalarni obrazli talqin qilish), takror (asosiy g'oyani semantik jihatdan mustahkamlash), emotsional leksika (tinglovchining hissiyotiga ta'sir qilish), ritorik savollar (auditoriyani fikrlashga undash), parallelizm (nutqqa ritm va uyg'unlik berish), allegoriya va simbolika (abstrakt g'oyalarni ramzlar orqali ifodalash), aforizmlar va xalqona iboralar (nutqqa milliylik va ta'sirchanlik bag'ishlash) hamda evfemizmlar (keskin mazmundagi fikrlarni yumshoq shaklda yetkazish). Ushbu vositalar siyosiy nutqning mazmuniy, pragmatik va kommunikativ ta'sirchanligini oshiruvchi markaziy lingvostilistik birliklar hisoblanadi.

Siyosiy nutqda eng ko'p qo'llaniladigan lingvostilistik vositalardan biri – *metaforadir*. Metafora murakkab siyosiy tushunchalarni oddiy, aniq va ko'zga ko'ringan tasvirlar orqali yetkazishga yordam beradi. Masalan "mustaqillikning kuchli poydevorini qurish" kabi ifoda orqali siyosatchi o'z fikrini yanada jonli qilib, tinglovchining tasavvurida aniq obraz yaratadi. Bu esa nutqni yanada tushunarli va esda qolarli qiladi. Siyosiy diskursda *metaforalar* boshqa stilistik vositalardan tez-tez *qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Metafora so'zi (yunoncha* metaphora – uzatish *so'zidan olingan) narsa, hodisalar va shunga o'xshagan so'zlarni boshqa so'zlar* bilan ta'riflash yoki nomlashdir. Metafora bu inson tafakkuri va ijodining muhim yadrosidir. Zero, uni to'g'ri qo'llash bu katta mahorat va so'z boyligini talab qiladi.

Siyosiy diskursda metafora ko'plab olimlar tomonidan tahlilga tortilgan stilistik vositalardan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu tadqiqotning ba'zilari siyosiy diskursni qurish va tushunishda metaforalarning kognitiv nazariyasini takomillashtirishga qaratilgan.

A.N. Baranov va Y.N. Karaulovning ta'kidlashicha, "Ijtimoiy rivojlanishning burilish davrlarida metaforik anglash ehtiyoji ortadi, chunki ko'pincha murakkab muammolarni hal qilish uchun insonning kognitiv tizimi yangi bilimlarni o'zlashtirish va ularni turli harakat variantlarini qurish uchun qayta ishlashga majbur bo'ladi".

Siyosiy diskursda metaforaning yana bir muhim funksiyasi ishontirishdir. Siyosiy diskursda metaforalar muhim pragmatik vosita bo'lib, ular orqaligina siyosiy voqeliklar murakkab hodisa sifatida emas, balki tinglovchi ongiga yaqin va ravshan timsollar orqali tushuntiriladi. Ayniqsa, harbiy metafora – siyosiy kurash, tanqidiy qarashlar va raqobatga boy muhitda tez-tez qo'llanadigan ifoda vositasidir.

Siyosiy nutqlarni pragmatik jihatdan tahlil qilish ularning kommunikativ maqsadi, auditoriyaga ta'sir ko'rsatish usullari hamda ijtimoiy fikrni shakllantirishdagi rolini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, siyosiy nutqda lingvostilistik vositalar muhim funksiyani bajaradi. Xususan, metafora, takror, ritorik savollar, emotsional leksika va boshqa uslubiy birliklar nutqning ta'sirchanligini kuchaytiradi, tinglovchilar e'tiborini jalb etadi hamda muallifning kommunikativ maqsadini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan siyosiy nutqlarda lingvostilistik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish siyosiy kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi, nutqning mazmuniy aniqligi va pragmatik ta'sirini kuchaytiradi. Demak, siyosiy diskursni lingvopragmatik va lingvostilistik yondashuv asosida o'rganish siyosiy nutqning mohiyatini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Давлатова Раъно Ҳайдаровна. *Ўзбек тилининг дейктик бирликлари*. 10.00.01 – ўзбек тили. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020.
2. Сафаров Ш. *Прагмалингвистика*. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2008. – Б. 6.
3. Barthes R. *Mythologies*. – London: Paladin, 1972.
4. Losev A.F. *Хаос и структура*. – Москва: Mysl, 1997.
5. Festinger L. *Theorie der kognitiven Dissonanz*. – Bern: Huber, 1978.
6 Eppler E. *Kavalleriepferde beim Hornsignal: Die Krise der Politik im Spiegel der Sprache*. – Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 1992.
7. Mio J., Riggio R., Levin S., Reese R. Presidential leadership and charisma: The effects of metaphor // *The Leadership Quarterly*. – Elsevier, 2005. – P. 48.

Laylo JO‘RAYEVA,
Buxoro davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
laylojurayeva@buxdpi.uz

REALIYA-NEOLOGIZM, REALIYA-ARXAIZM VA REALIYA-TARIXIZMLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada realiya tushunchasining tavsifi berilgan. Realiyalarning milliy xususiyatlarni aks ettirish masalalari yoritilgan. Realiyalarning mazmun-mohiyati ochilib, ularning neologizm, arxaizm hamda tarixizm xususiyatlari tadqiq etilgan. Realiyalar mazmun mohiyatan milliylikni aks ettiruvchi birliklar bo‘lsa, neologizmlar tilda yangi paydo bo‘lgan so‘zlar, arxaizmlar esa tariximizning ma’lum bir davrida iste’molda bo‘lib, bugungi kunda shakl o‘zgarib mazmuni saqlangan birliklardir. Realiya hamda madaniyat tushunchalari bir-biriga uzviy bog‘liq bo‘lgan tushunchalar sanaladi. Har bir davrning o‘ziga xos madaniyati bo‘lgani kabi realiyalari ham mavjud bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan ularni sinxron hamda diaxron aspektda o‘rganish kerak. Realiya neologizm, realiya arxaizm, realiya istorizm kabi tushunchalar davr nuqtayi nazari bilan bog‘liq bo‘lgan atamalardir.

Kalit so‘zlar: *realiya, neologizm, arxaizm, tarixizm, realiya-onomastika, sumalak, chuchvara, xonim.*

Аннотация: в данной статье рассматривается понятие действительности. Освещены вопросы отражения национальных особенностей действительности. Раскрываются содержание и сущность действительности, изучаются их признаки неологизма, архаизма и историзма. Реализмы – это единицы, содержание которых по сути отражает национальность, неологизмы — это слова, которые недавно появились в языке, а архаизмы — это единицы, которые использовались в определенный период нашей истории и изменили форму, но сохранили свое содержание сегодня. Понятия реальности и культуры неразрывно связаны. Подобно тому, как каждая эпоха имеет свою культуру, существуют и свои реалии. С этой точки зрения, их следует изучать как в синхронном, так и в диахроническом аспектах. Такие понятия, как «неологизм реальности», «архаизм реальности» и «историзм реальности», относятся к точке зрения эпохи.

Ключевые слова: *действительность, неологизм, архаизм, историзм, действительность-ономастика, сумалак, чучвара, ханум.*

Annotation: this article describes the concept of reality. The issues of reflecting national characteristics of reality are highlighted. The content and essence of reality are revealed, and their neologism, archaism and historicism features are studied. Realisms are units whose content essentially reflects nationality, neologisms are words that have recently appeared in the language, and archaisms are units that were in use at a certain period in our history and have changed form but retained their content today. The concepts of reality and culture are inextricably linked. Just as each era has its own culture, so too do its realities. From this point of view, they should be studied in both synchronous and diachronic aspects. Concepts such as reality neologism, reality archaism, and reality historicism are terms related to the point of view of the era.

Key words: *reality, neologism, archaism, historicism, reality-onomastics, sumalak, chuchvara, khanim.*

Neologizmlar hozirgi zamonda paydo bo‘lgan yangi leksik birliklardir. Yangi paydo bo‘lgan so‘zlarni ham realiyalar doirasida ko‘rish mumkin. Shunday so‘zlar borki, ular ma’lum bir xalqning hayotida yangi paydo bo‘lgan hamda shu xalqning neologizm realiyalari sanaladi. Bunga misol tariqasida bugungi kunda faol bo‘lgan *kredit-modul* tushunchasini olish mumkin. U dastlab Amerikada yaratilgan bo‘lib, shu yerdagi xalqning milliy o‘qitish tizimidir. Yoki bugungi kunda mashhur *fast food* taomini olish mumkin. U XXI asrda arman xalqi tomonidan kashf etilgan. Tez tayyor bo‘luvchi mazkur taom butun dunyo xalqlarining sevimli taomlaridan biriga aylanib ulgurdi.

Arxaizmlar ma’lumki, shakl o‘zgarib, ma’nosi saqlangan so‘zlardir. Shunday so‘zlar borki, ular tariximizning ma’lum davrida milliy xarakterdagi so‘zlar bo‘lib, bugungi kunda shakli o‘zgarib, ma’nosi saqlangan so‘zlardir. Masalan, eski o‘zbek adabiy tilidagi “abo” leksemasi “yengsiz ustki kiyim” ma’nosida qo‘llanilgan. Bugungi kunda xuddi mana shu ma’noni adabiy tilda “nimcha”, shevalarda esa “ichakcha” leksemasi orqali ifodalanadi. Yoki kasb-hunar ma’nosini anglatuvchi “baxyasoz” leksemasi *do‘ppi tikuvchi* ma’nosini anglatib, bugungi kunda xuddi shu ma’no “do‘ppido‘z” leksemasi orqali ifodalanadi.

Istorizmlar esa iste’moldan chiqqan realiyalardir. Ya’ni shunday so‘zlar borki, ular davr nuqtayi nazardan ma’lum bir vaqtda milliylikni aks ettiruvchi lingvokulturologik birlik bo‘lmish realiyalarni aks ettiradi. Masalan, eski o‘zbek adabiy tilida *qasab, qumosh, sayfur* kabi leksemalar milliy

mato turlari; *xirqa, qabo* kabi kiyim nomlarini anglatuvchi leksemalar tarixiy realizm sanaladi. Realiyalar sirasiga yana iqtibos (sitata)lar, qanotli so‘zlar hamda aforistik xarakterga ega bo‘lgan hikmatlarni, turli ko‘rinishdagi murojaatlarni ham kiritish mumkin.

Realiya alohida jamoa yoki muassasa doirasida chegaralangan bo‘lishi ham mumkin. Asosan, talabalar va harbiylar jargoni bunday realiyaga boydir. Ba’zi bir bu jargonizmlar lokalizm va professionalizmlar darajasiga o‘tib ketadi. Davriy kolorit ham realiyaga xosdir. Madaniyat bilan chambarchas bog‘liq til hodisasi sifatida ushbu leksik birliklar jamiyat taraqqiyotidagi barcha o‘zgarishlarga tez ta’sir qiladi. Ular orasidan neologizm, istorizm va arxaizm realiyalarini osongina ajratib ko‘rsatish mumkin.

Realiyada til va madaniyat o‘rtasidagi yaqinlik yaqqol namoyon bo‘ladi. Jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotida yangi realiyalarning paydo bo‘lishi tilda realiya vujudga kelishiga olib keladi. Leksika ijtimoiy hayotning barcha o‘zgarishlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatishi sababli tilda yangi realiyalarning paydo bo‘lish paytini aniq aytish mumkin. Biroq bir vaqtning o‘zida eng oddiy tushunchalarni ifodalay turib, shu bilan birga mazmuniy va hissiy “fonli” nozik farqlarni ham ifodalovchi ko‘pgina so‘zlar mavjud. Tilda “konnotativ so‘zlar”ni leksik birlikning o‘ziga xos tipi sifatida ajratish shak-shubhasiz maqsadga muvofiqdir, chunki konnotatsiyalar, ya’ni so‘zlarga hamrohlik qiluvchi stilistik, emotsional va mazmuniy farqlar o‘z-o‘zidan mavjud bo‘lmaydi, ular so‘z ma’nolaridan biriga bog‘lanadi.

Realiyalarga yana quyidagilarni aytib o‘tish mumkin. Dastlab kiyimlarni izohlashga harakat qilamiz:

zar chopon. O‘zbek ayollarini qishda sovuqdan saqlovchi kiyim. U, asosan, baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. Chopon o‘zbek xalqining qadimiy kiyimlaridan biridir;

atlas, adras. Bu matolar qadimdan to hozirgi kunga qadar o‘zbek ayollari uchun sevib kiyadigan milliy matolardir. Ular ipakdan tayyorlanadi. Qancha-qancha zamonlar o‘tib ketsa ham bu matolardan o‘z davriga moslab, xoh o‘zbekcha, xoh yevropacha uslubda kiyimlar tikib kiyish urfga kirgan. O‘zbekistonda eng mashhur atlas Marg‘ilon shahrida to‘qiladi;

mahsi. Mahsi oyoq kiyimlardan biri bo‘lib, uzun qo‘njli, poshnasiz, tag charmi yumshoq bo‘lgan kovush bilan kiyiladigan milliy poyabzal hisoblangan.

Oziq-ovqatga doir realiyalar:

osh. Qadimdan to hozirgi kunga qadar o‘zbek xalqining eng sevimli taomlaridan biri sifatida e’tirof etib kelinadi;

xonim. O‘zbek milliy taomlaridan biridir. Mazkur xalq oshxonasida o‘z o‘rniga ega taom sanaladi. Ushbu leksema omonim leksema sifatida O‘TILda quyidagicha izohlangan: “Xamir orasiga qiyma solib, qasqonda pishiriladigan ovqat” [O‘TIL 4, 412]. *Xonim* leksemasi dastlab ayollarga nisbatan ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik taom nomida ham ishlatila boshlangan.

Alisher Navoiy poetik asarlaridagi milliy madaniyatimizni chuqur aks ettiruvchi birlik bo‘lmish realiyalarning ko‘lamini aks ettirish, o‘zbek xalqi milliy madaniyati va hayotida tutgan o‘rnini aniqlash, shoir asarlarida ushbu birliklar qanday maqsadlarda qo‘llanilganini o‘rganish, realiyalarning bugungi kundagi hamda eski o‘zbek adabiy tilidagi qiyosiy tahlilini yoritib berish katta ahamiyatga egadir. Shoirning she’riy hamda nasriy asarlarida keltirilgan mentalitetimizni aks ettiruvchi realiyalar salmoqli mavqega ega bo‘lib, ularning mazmun-mohiyatini, kelib chiqish tarixini o‘rganish hamda hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabatini o‘rganish bugungi kun tilshunosligining dolzarb vazifalaridan biri sifatida katta ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бугрышева Е.С. Ономастическая реалия-неологизм как лингвистический конструкт. ISSN 2224-0209 Электронный журнал «Вестник МГОУ» / www.evestnik-mgou.ru. 2014. – № 2

2. Томахин Н.Д. Америка через американизмы. – Москва, 1988.

3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. 237-б.

4. Mahmudov K. O‘zbek tansiq taomlari. – T.: Mehnat, 1989. 342-b.

5. Jo‘rayeva, L. (2024). Alisher Navoiy asarlaridagi kiyim nomlarining lingvopoetik va lingvokulturologik tadqiqi. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, *3*(3), 124-127.

6. Laylo, J. R. (2024). Navoiy asarlaridagi oziq-ovqat va o‘simliklarning lingvomadaniy tadqiqi. *News of the NUUz*, *1*(1.3), 299-302.

7. Juraeva Laylo Zhiyankulovna. (2025). The Relationship between Reality and Culture. Miasto Przyszłości Kielce 2025. ISSN-L: 2544-980X. 75-77.

8. Laylo, J. R. (2024). NAVOIY asarlaridagi oziq-ovqat va o‘simliklarning lingvomadaniy tadqiqi. *«ACTA NUUz»*, *1*(1.3), 299-302.

Sarvinoz ALAVXONOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
Ingliz tili nazariy aspektlari stajyor o‘qituvchisi
Gmail: sarvinozsolexonovna@gmail.com



FORM-FOCUSED INSTRUCTION VA KOMMUNIKATIV YONDASHUV INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: mazkur ilmiy maqolada ingliz tili grammatikasini o‘rgatishda form-focused instruction (FFI) va kommunikativ yondashuvni integratsiyalash muammolari va ularning samarali yechimlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu ikki yondashuvning nazariy asoslari, o‘zaro bog‘liqligi hamda amaliyotda qo‘llanish darajasi o‘rganildi. Aralash metodologiya (quantitative va qualitative) asosida olib borilgan tajriba natijalari FFI elementlarini kommunikativ faoliyat bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning grammatik aniqligi va nutq ravonligini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlangan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijalar zamonaviy lingvodidaktikada integratsiyalashgan yondashuvning ustuvorligini asoslaydi va oliy ta’lim tizimida ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *form-focused instruction, kommunikativ yondashuv, grammatik kompetensiya, integratsiya, til o‘qitish metodikasi, nutq ravonligi, aniqlik, feedback, task-based learning, qualitative research, quantitative research, lingvodidaktika, interaktiv metodlar, o‘quv jarayoni, samaradorlik*

Annotation: this scientific article comprehensively analyzes the problems of integrating form-focused instruction (FFI) and the communicative approach in teaching English grammar and their effective solutions. The study examined the theoretical foundations, interrelationship, and level of practical application of these two approaches. The results of the experiment, conducted on the basis of a mixed methodology (quantitative and qualitative), showed that the combination of FFI elements with communicative activity contributes to the simultaneous development of grammatical accuracy and fluency of speech of students. The problems identified during the study and methodological recommendations for their elimination were developed. The results justify the priority of the integrated approach in modern linguodidactics and serve to improve the quality of English language teaching in the higher education system.

Key words: *form-focused instruction, communicative approach, grammatical competence, integration, language teaching methodology, fluency of speech, accuracy, feedback, task-based learning, qualitative research, quantitative research, linguodidactics, interactive methods, learning process, effectiveness*

Аннотация: в данной научной статье комплексно анализируются проблемы интеграции форм-фокусированного обучения (FFI) и коммуникативного подхода в преподавании грамматики английского языка и их эффективные решения. В исследовании изучены теоретические основы, взаимосвязь и степень применения этих двух подходов на практике. Результаты эксперимента, проведенного на основе смешанной методологии (quantitative и qualitative), показали, что сочетание элементов ФФИ с коммуникативной деятельностью служит одновременно развитию грамматической точности и беглости речи учащихся. В ходе исследования были выявлены проблемы и разработаны методические рекомендации по их устранению. Результаты обосновывают приоритет интегрированного подхода в современной лингводидактике и служат повышению качества преподавания английского языка в системе высшего образования.

Ключевые слова: *form-focused instruction, коммуникативный подход, грамматическая компетенция, интеграция, методика обучения языку, беглость речи, точность, feedback, task-based learning, качественное исследование, количественное исследование, лингводидактика, интерактивные методы, учебный процесс, эффективность*

Kirish. So‘nggi yillarda xorijiy tillarni o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuv yetakchi o‘rin egallab, o‘quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda tilni erkin qo‘llay olish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Biroq, amaliy tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, faqat kommunikativ faoliyatga asoslangan darslar ko‘pincha grammatik aniqlikning yetarli darajada shakllanmasligiga olib keladi. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar ravon gapira olishlariga qaramay, grammatik xatolarni ko‘p

uchratish mumkin. Shu nuqtayi nazardan, form-focused instruction (FFI), ya'ni til shakllariga ongli ravishda e'tibor qaratish yondashuvi yana dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, zamonaviy ta'lim tizimi kommunikativ kompetensiya bilan bir qatorda grammatik aniqlikni ham talab etadi. Global kommunikatsiya sharoitida tilni noto'g'ri qo'llash kommunikativ muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin. Shu bois, grammatikani o'qitishda faqat qoidalarni yodlash yoki faqat muloqotga urg'u berish emas, balki ularning uyg'unlashgan modelini yaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzuning o'rganilganlik darajasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Long (1991) tomonidan ilgari surilgan "focus on form" konsepsiyasi grammatikani kommunikativ kontekstda o'rgatish g'oyasini ilmiy asoslab bergan. Ellis (2001, 2006) esa form-focused instructionning ikkinchi tilni o'zlashtirishdagi rolini chuqur o'rganib, uning samaradorligini eksperimental tadqiqotlar orqali isbotlagan. Nunan (2004) va Larsen-Freeman (2003) tadqiqotlarida grammatikani dinamik jarayon sifatida, ya'ni "grammaring" konsepsiyasi asosida o'rgatish zarurligi ta'kidlangan. Shunga qaramay, ushbu yondashuvlarni amaliy dars jarayonida integratsiya qilish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmaganligi muammoning dolzarbligini yanada oshiradi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ingliz tili grammatikasini o'rgatishda form-focused instruction va kommunikativ yondashuvni integratsiya qilishning samaradorligini aniqlash, mavjud muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Metod va usullar.Ushbu tadqiqot aralash metodologiya asosida olib borildi, ya'ni unda quantitative va qualitative tadqiqot usullari uyg'unlashtirildi. Tadqiqot jarayonida 60 nafar talaba ishtirok etdi va ular tasodifiy tanlash asosida ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Nazorat guruhida darslar an'anaviy kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan bo'lsa, tajriba guruhida form-focused instruction elementlari kommunikativ faoliyat bilan integratsiyalashgan holda qo'llanildi.

Kvantitativ ma'lumotlarni yig'ish uchun pre-test va post-test usullaridan foydalanildi. Ushbu testlar orqali talabalar grammatik bilimlari va nutq faoliyati darajasi o'lchandi. Olingan natijalar foiz ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi va guruhlar o'rtasidagi farqlar aniqlashtirildi.

Sifatli tahlilni amalga oshirish uchun yarim tuzilgan intervyular, sinf kuzatuvlari va o'quvchilar fikrlarini o'rganish usullaridan foydalanildi. Bu metodlar orqali talabalar va o'qituvchilarning integratsiyalashgan yondashuvga nisbatan munosabati, qiyinchiliklari va afzalliklari aniqlab olindi.

Tajriba jarayonida quyidagi didaktik usullar qo'llanildi: kommunikativ vazifalar davomida grammatik shakllarga qisqa e'tibor qaratish (focus on form), murakkab grammatik qoidalarni qisqa va aniq tushuntirish (explicit instruction), xatolarni tuzatishning turli shakllari (recast, clarification request), hamda vazifaga asoslangan o'qitish (task-based learning). Ushbu usullar integratsiyalashgan holda qo'llanilib, o'quvchilarning grammatik va kommunikativ kompetensiyasini birgalikda rivojlantirishga xizmat qildi.

Natija va muhokama.Tadqiqot natijalari kvantitativ va sifatli tahlillar asosida kompleks tarzda o'rganildi. Kvantitativ natijalarga ko'ra, tajriba guruhida o'quvchilarning grammatik bilim darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, pre-test natijalari ikkala guruhda deyarli teng (57–58%) bo'lgan bo'lsa, post-test natijalarida tajriba guruhi 84% ko'rsatkichga erishgan, nazorat guruhi esa 70% bilan cheklangan. Bundan tashqari, tajriba guruhida grammatik xatolar 27% ga kamaygan bo'lsa, nazorat guruhida bu ko'rsatkich 12% ni tashkil etdi. Nutq ravonligi bo'yicha ham tajriba guruhi sezilarli ustunlikka ega bo'lib, ularning ko'rsatkichlari 25% ga oshgan.

Sifatli tahlil natijalari ham ushbu ko'rsatkichlarni tasdiqlaydi. Intervyu natijalariga ko'ra, talabalar grammatikani kommunikativ faoliyat jarayonida o'rganish an'anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligini ta'kidladilar. Ularning fikricha, grammatik qoidalarni real muloqot jarayonida qo'llash ularni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, "Have you ever...?" kabi real hayotiy savollar orqali Present Perfect zamonini o'rganish jarayoni talabalar uchun qiziqarli va samarali bo'lgan.


Sinf kuzatuvlari shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv o'quvchilarning darsga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi va o'z fikrini erkin ifodalashga yordam beradi. Shu bilan birga, o'qituvchi tomonidan berilgan tezkor feedback o'quvchilarning xatolarini darhol anglash va tuzatish imkonini yaratadi.

Jadval 1. Form-focused instruction va kommunikativ yondashuv integratsiyasining samaradorlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)
Pre-test natijalari	58	57
Post-test natijalari	70	84
Grammatik xatolar kamayishi	12	27
Nutq ravonligi o'sishi	10	25

Manba: *Muallif tomonidan o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari asosida tuzilgan.*

Diagramma 1. Nazorat va tajriba guruhlari natijalarining taqqoslanishi



Manba: *Tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.*

Jadval va diagrammada keltirilgan natijalar form-focused instruction va kommunikativ yondashuv integratsiyasining samaradorligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Dastlabki bosqichda (pre-test) har ikki guruh ko‘rsatkichlari deyarli teng bo‘lib, bu tajriba sharoitining obyektivligini ta’minlaydi. Biroq, o‘quv jarayoni yakunida (post-test) tajriba guruhida sezilarli o‘sish kuzatiladi. Xususan, tajriba guruhi 84% natijaga erishgan bo‘lsa, nazorat guruhi 70% bilan cheklangan.

Grammatik xatolar kamayishi bo‘yicha ham sezilarli farq mavjud: tajriba guruhida bu ko‘rsatkich 27% ni tashkil etgan, bu esa nazorat guruhiga nisbatan ikki barobardan ortiq yuqori natija hisoblanadi. Bu holat FFI elementlarining grammatik aniqlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Nutq ravonligi bo‘yicha o‘sish ham integratsiyalashgan yondashuvning ustunligini ko‘rsatadi. Tajriba guruhida 25% o‘sish kuzatilgan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 10% ni tashkil etgan. Bu esa grammatikani kommunikativ kontekstda o‘rganish o‘quvchilarning erkin fikr bildirish qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirishini ko‘rsatadi.

Diagramma natijalarning vizual ifodasi sifatida tajriba guruhining ustunligini yanada aniqroq namoyon qiladi. Undan ko‘rinib turibdiki, integratsiyalashgan yondashuv nafaqat grammatik bilimlarni oshiradi, balki ularni amaliy nutqda qo‘llash samaradorligini ham ta’minlaydi.

Umuman olganda, ushbu natijalar form-focused instruction va kommunikativ yondashuvni uyg‘unlashtirish zamonaviy til o‘qitish metodikasida eng maqbul va samarali yondashuvlardan biri ekanligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Biroq, tadqiqot davomida bir qator muammolar ham aniqlandi. Jumladan, o‘qituvchilarning ushbu yondashuvni to‘liq qo‘llash bo‘yicha metodik tayyorgarligi yetarli emasligi, dars vaqtining cheklanganligi va mavjud o‘quv materiallarining integratsiyaga mos emasligi kuzatildi. Ayrim hollarda talabalar grammatik shakllarga ortiqcha e’tibor qaratib, kommunikativ erkinlikni yo‘qotish holatlari ham qayd etildi.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun o‘qituvchilar malakasini oshirish, integratsiyalashgan dars ishlanmalarini ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va autentik materiallarni keng joriy etish zarur. Shuningdek, grammatikani kommunikativ kontekstda o‘rgatishda muvozanatni saqlash muhim ahamiyatga ega.

Xulosa.Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, form-focused instruction va kommunikativ yondashuvni integratsiyalash ingliz tili grammatikasini o‘rgatishda eng samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Ushbu model o‘quvchilarning grammatik aniqligi va nutq ravonligini bir vaqtning o‘zida rivojlantirishga imkon beradi. Kvantitativ va sifatli tahlillar ushbu yondashuvning ustunligini isbotlab berdi.

Shu bilan birga, integratsiyalashgan yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, zamonaviy o‘quv materiallarini ishlab chiqish va dars jarayonini to‘g‘ri tashkil etish muhim hisoblanadi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda yanada kengroq tadqiqotlar olib borish, turli yosh guruhlarini qamrab olish va raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Long M. H. Focus on Form: A Design Feature in Language Teaching Methodology. – Amsterdam: John Benjamins, 1991. – 52 p.
2. Ellis R. Form-Focused Instruction and Second Language Learning. – Oxford: Blackwell, 2001. – 230 p.
3. Ellis R. Current Issues in the Teaching of Grammar. – TESOL Quarterly, 2006. – 83–107 p.
4. Nunan D. Task-Based Language Teaching. – Cambridge: Cambridge University Press, 2004. – 222 p.
5. Larsen-Freeman D. Teaching Language: From Grammar to Grammaring. – Boston: Heinle, 2003. – 320 p.
6. Lightbown P. M., Spada N. How Languages are Learned. – Oxford: Oxford University Press, 2013. – 252 p.
7. Harmer J. How to Teach English. – London: Longman, 2007. – 288 p.

Madina ACHILOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi o‘qituvchisi
madina.achilova11@gmail.com

TALABALARNING LEKSIK KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR

Annotatsiya: ushbu maqolada chet tillarni o‘qitishda leksik kompetensiyani takomillashtirish bo‘yicha pedagogik texnologiyalarni shakllantirish, rivojlantirish hamda takomillashtirish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *leksik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, ixtiro va yutuqlar, og‘zaki (ma’ruza), yozish (o‘qish), vizual va og‘zaki, faol qatnashishni talab qiluvchi rolli o‘yinlar.*

Аннотация: в данной статье речь идет о формировании, развитии и совершенствовании педагогических технологий совершенствования лексической компетенции при обучении иностранным языкам.

Ключевые слова: *лексическая компетентность, коммуникативная компетентность, педагогические технологии, инновации, изобретения и достижения, устная речь (лекция),письменные (чтение), наглядно-словесные, ролевые игры, требующие активного участия.*

Annotation: this article deals with the formation, development and improvement of pedagogical technologies for improving lexical competence in teaching foreign languages.

Key words: *lexical competence, communicative competence, pedagogical technologies, innovations, inventions and achievements, oral speech (lecture), written (reading), visual-verbal, role-playing games that require active participation.*

Hozirgi davr uchun dolzarb bo‘lgan ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llab dars o‘tish samarasini ta’lim tizimida erishilgan yutuqlardan bilish mumkin.Darslarda ilg‘or yangi pedagogik va interaktiv texnologiyalarni qo‘llash zamon talabidir. Bu masala bilan A. V.P.Bespalko, N. V. Kozlova, S. Lazareva, I. V. Kurisheva, T. I. Matviyenko, Y. V. Roginko, R.S.Rafikova, M. N. Kaursev, Y. V. Gorshkova, M. A. Smirnov, M. I. Vinokurova, ushbu jarayon negizi bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim tizimiga joriy etishda uning boshqaruvchisi bo‘lmish o‘qituvchining tayyorgarlik darajasini birinchi navbatda hal qilish ham bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Shu bilan birga, o‘qituvchi zarur natijalarga erishish uchun interaktiv metodlarni darsda talabalar bilimini takomillashtirish uchun qo‘llashi juda muhim.

O‘qitish asrlar davomida ma’lum bilimlar majmuini egallashdan iborat bo‘lib kelgan edi. Bugungi kun ta’lim tizimi oldiga yangi axborotni mustaqil qabul qilish, baholash va tegishli qarorlarni qabul qilishga qodir bo‘lgan ijodkor shaxsni tarbiyalash vazifasini qo‘yadi.

Ta’limdagi innovatsiya faqat bugungi davr xususiyatiga xos emas, biroq uni pedagogik kategoriya sifatida juda yosh deb hisoblash mumkin.

Ko‘pincha innovatsiya atamasi o‘rniga unga yaqin turdagi atamalarni ham ishlatishadi. “Innovatsiya” (yangilik) lug‘atlarda va ensiklopediyalarda turlicha talqin qilinadi. Masalan “innovatsiya” (lotincha inovatis) – bu yangilik, yangi tartib qoida, o‘zgarish degan ma’noni anglatadi.Innovatsiya biron-bir yangi narsani yangi tartib qoidani kiritishni anglatib, u lotincha innovis so‘zlaridan olingan bo‘lib, yangilanish, yangilik, o‘zgarish degan ma’noni beradi.Ushbu terminni yana yangilik kiritish, yangilikdir deb ham atash mumkin.

Yangilik bu texnik, texnologik, ixtiro va yutuqlardan amaliy foydalanishdir. Ta’lim jarayoniga ham bu yangiliklar zamon talablariga ko‘ra allaqachon kirib kelgan.V.P.Bespalko “В практику обучения, как и в любую практику человека должны постоянно хорошо спроектированные технологии, гарантирующие планируемый эффект обучения и воспитания” deb ta’kidlaydi. 70–80-yillarda AQSH da yuzaga kelgan pedagogik texnologiyaning oqimi deyarli

barcha rivojlangan mamlakatlarga tarqaldi, YUNESKO kabi nufuzli tashkilot tomonidan tan olindi, qo‘llab-quvvatlandi va hozirgi kunda ko‘pgina mamlakatlarda muvaffaqiyatli o‘zlashtirildi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlari, o‘qitishga texnologik yondashuvdan foydalanib, talabalarning darslarni o‘zlashtirishini oshirishda sezilarli muvaffaqiyatlarga erishilgan.

Bizga ma’lumki, 3 ta ta’lim turi bor : 1) og‘zaki, 2) ko‘rgazmali, 3) pedagogik texnologiyali izlanuvchi yondashuv. Yangi pedagogik texno-logiyalardan foydalanganda bir necha usullarni qo‘llash mumkin.

– talabalar uchun qiziq muammoni o‘rtaga tashlash;

– ko‘rilayotgan vaziyatdagi qarama-qarshilikni bo‘rttirib talaba ongiga yetkazish;

– ushbu muammodan kelib chiqib ijodiy masalani shakllantirish.

TACIS dasturi o‘quv kurslarini rejalashtirishga muvofiq o‘tkazilgan kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim samaradorligi

talabalar bir-birini o‘qitganda - 95%

ma’ruzada-5%

o‘qishda-10%

munozarada- 50%

amaliy mashg‘ulotlarda -75% bo‘ladi .

Yangi- yangi usullar bo‘yicha o‘qitish axborotni qay darajada yetkaza olish qobiliyatiga ham bog‘liqdir. Darslar tahlillari shuni ko‘rsatadiki, talabalarning darslarni o‘zlashtirish foizlari quyidagicha bo‘ladi

Bilimlarni qabul qilish qobiliyatining davomiyligi

	3 soatdan so‘ng	3 kundan so‘ng
Og‘zaki (ma’ruza)	25%	10-20%
Yozish (o‘qish)	72%	10%
Visual va og‘zaki	80%	65%
Faol qatnashishni talab qiluvchi rolli o‘yinlar	90%	70%

Mana shu ko‘rsatkichlarga erishish uchun talabalarni ilg‘or pedagogik texnologiyalarni qo‘llab o‘qitish zarur. Bu yerda kompyuter texnologiyalari to‘g‘risida ham gapirmasdan iloj yo‘q. Chunki, chet tillarni va kompyuter texnologiyalarini puxta o‘zlashtirish oliy ma’lumotli mutaxassis uchun zarur. Milliy dasturga muvofiq kadrlarni tayyorlashda o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va informatsion texnologiyalarni, interfaol usullarni kiritish hisoblanadi. Oliy o‘quv yurtlarida qo‘llanilayotgan informatsion texnologiyalarga elektron darsliklar, multimedia sistemasi, elektron kutubxona, ichki tarmoq, internet, ma’lumotlar bazasi, elektron doska, masofada o‘qitish uchun kameralar, telekonferensiya sistemasi va hakozolar kiritilgan. Ushbu texnik jarayonlardan foydalanish o‘qituvchidan yanada ko‘proq bilim, mahorat talab qiladi. U o‘z ustida yanada ko‘proq ishlashga majbur bo‘ladi va izlanadi. Hozirda biz faol qo‘llashga harakat qiladigan yangi usul Moodle tizimi(http://www.moodle.org) – veb-saytda o‘qitish va on-line rejimidagi darslarni tashkil qiluvchi ilova. Bu proyekt ta’limga konstruktiv qarashni tarqatish uchun ishlab chiqarilgan.

Qisqacha qilib quyidagilarni taxmin qilish mumkin:

• Yangi bilimlar oldingi olingan bilim va individual tajribalar asosida olinadi.

• O‘quv jarayonida o‘quvchi olgan bilimini boshqalarga tushuntirib berishida ko‘proq samaraga ega. Bu yerda ham chat, xabarlar almashinuvi, forum kommunikativ elementlar bor

Oliy o‘quv yurtlarida boshlang‘ich bosqichda chet tillarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash juda muhim, chunki “С каждой педагогической эпохой труд педагога становиться благодаря совершенствованию педагогичекой технологии посылным для все более широкого круга, а его эффективность повышается.”V.S.Bespalko pedagogika tarixiga tayanib uni beshta davrga ajratgan va hozirgi vaqtni “pedagogik texnologiyalar”ni qo‘llaydigan beshinchi davrga kiritgan. Chet tilda kommunikativ faoliyatga o‘rgatishning talabalar uchun ijobiy tomonlari ko‘p.

Xorijiy tillarni o‘rganishda interfaol darslar o‘tishda zamonaviy elektron lug‘atlarningham afzal tomonlari ko‘p. Ular ko‘p sonli va tezkor axborot olish imkonini beradi. Albatta o‘qituvchi interfaol darslarda kuzatuvchi, boshlovchi va qatnashuvchi sifatida ishtirok etadi. Innovatsion ta’lim texnologiyalari oliy ta’lim tizimini modernizatsiyasida muhim o‘rin tutadi.

Ta’limga texnologik yondashuv – shaxsga yo‘naltirilgan, ishbilarmonlik o‘yinlari, muammoli, tabaqali o‘qitish, hamkorlik pedagogikasidan iborat va talabani tabiiy imkoniyatlari, qobiliyati, qiziqishlari ehtiyoji o‘qitish natijalari bo‘ladi.

Malakali o‘qituvchi	**Malakasiz o‘qituvchi**
O‘qish amaliy tomoniga e’tibor beradi.	Nazariyaga e’tibor beradi.
Hamkorlikni maqtaydi.	Talabadan o‘zini yuqori qo‘yadi.
Stressni kamaytirishga harakat qiladi.	Tez-tez stress holati yaratadi.
O‘quv jarayoniga yordam beruvchi shaxs.	O‘zini yagona axborot manbaideb hisoblaydi.

O‘qituvchilar ushbu jarayonning eng faol ishtirokchisi bo‘lib, dars jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanishlari, jamiyat uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni yetkazib berishda muhim o‘rin tutadi. Ispan tilida dars o‘qitish strategiyalari yordamida talabalar so‘z boyligini oshirish, so‘zlarning so‘z yasalish modellariini va antonimlarini bilib olish malakasini hosil qilishda ham foydalanish mumkin.

Eksperimental mashqlar tizimining asosiy maqsad va vazifalari so‘z yasovchi affikslar asosida ma’noni ifodalash usulidan foydalanish asosida so‘z yasalishida transpozitsion va funksional o‘zgarishlarni farqlash va ifodalash uchun ispan tilining muntazamlig darajasi yuqori bo‘lgan affikslaridan foydalanish talabalarning bilimlarini retseptiv va reproduktiv darajada kengaytirish va faollashtirish jumladan turli xil xatoliklarning (orfografik, fonetik va boshqalar) oldini olish uchun so‘z yasovchi modelning o‘ziga xos xususiyatlarini tushunishni yaxshilashga yordam beradi.

Tajriba sinov ishlari uchun biz tomonimizdan ishlab chiqilgan, ispan tilining affiks modellari asosida leksik kompetensiyani takomillashtirishga qaratilgan va metodik maqsadlarda asosiy vosita sifatida ishlab chiqilgan eksperimental mashqlar tizimi kirish va asosiy qismdan iborat bo‘lib unda mashqlarning asosiy qismi so‘z yasalashida sodir bo‘ladigan transpozitsion va funksional jarayonlarni tushunishga hamda bosqichma-bosqich joriy yetishga qaratilgan. So‘z yasalish modellarini yetarli darajada o‘zlashtirish va ulardan foydalanish, mustaqil ravishda so‘z yasalishini tushunish va boshqarish usulini amalga oshirishni ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alba Quiñones, Virginia. La competencia léxica. Una propuesta de actividades sobre los campos léxicos para las clases de ele. revista didactica español.http://marcoele.com/descargas/13/alba competencia_lexica.pdf
2. В.П.Беспалько. Слагаемые педагогической технологии. –М., Педагогика,1989. -192 стр .
3. В.П.Беспалько. Слагаемые педагогической технологии. –М., Педагогика,1989. -27 стр .
4. Е. В. Рогинко.Интерактивные методы обучения студентов иноязычному профессиональному общению на основе текстов по специальности (английский язык; технический вуз)тема диссертации и автореферата.
5. Н. В. Козлова. Методика использования интерактивных приемов в обучении немецкому языку студентов языковых вузов. Автореф.диссертации 2008.
6. Толипов У.К. Педагогические технологии развития общетрудовых и профессиональных умений и навыков в системе высшего педагогического образования.:Автореф.дис….докт. пед.наук. –Т.,2004.-51 с.
7. Жамол Жалолов. Чет тил ўқитиш методикаси.чет тиллар олий ўқув юртлари (факультетлари) талабалари учун дарслик. қайта ишланган ва тўлдирилган 2 - нашри.“ўқитувчи” нашриёти. тошкент 2012 й. 395 – бет
8. Ҳожиев А. Олий ўқув юртларининг филология факультетлари студентлари учун қўлланма. – тошкент, ўқитувчи, 1989. 170 б.

Aziza SAITXANOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tarjimonlik fakulteti katta o‘qituvchisi
azizasaidxonova@gmail.com

TARJIMASHUNOSLIKDA METODOLOGIK YONDASHUV VA TAHLIL TAMOYILLARI

Annotatsiya: ushbu ishda tarjima jarayonidagi leksik, grammatik va stilistik transformatsiyalarning o‘rni hamda ularning turlari tadqiq etiladi. Asl nusxa ma’nosini saqlagan holda maqsadli tilda adekvat matn yaratishda ushbu o‘zgarishlarning ahamiyati yoritilgan. Transformatsiyalar tillararo tafovutlarni bartaraf etishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *tarjima, transformatsiya, leksik, grammatik, adekvatlik, ekvivalentlik, til, uslub, o‘zgarish, jarayon.*

Annotation: this work explores the role of lexical, grammatical, and stylistic transformations in translation and their classifications. It emphasizes the importance of these shifts in creating an adequate target text while preserving the original meaning. Transformations serve as essential tools for overcoming linguistic gaps and cultural barriers between languages.

Keywords: *translation, transformation, lexical, grammatical, adequacy, equivalence, language, style, shift, process.*

Аннотация: в данной работе исследуется роль лексических, грамматических и стилистических трансформаций в переводе. Освещается значимость этих изменений для создания адекватного текста на целевом языке при сохранении исходного смысла. Трансформации рассматриваются как основные инструменты преодоления межъязыковых различий и достижения эквивалентности в процессе перевода.

Ключевые слова: *перевод, трансформация, лексическая, грамматическая, адекватность, эквивалентность, язык, стиль, замена, процесс.*

Tarjima transformatsiyalari – tarjima qilingan so‘z, ibora yoki jumlaning ko‘rinishini to‘liq o‘zgartirishidir. Xorijiy tarjima nazariyasida transformatsiyalar tarjimaning o‘zgarishi deb nomlanadi. Tarjima jarayonida bir tildagi leksik birliklar (so‘zlar va iboralar) ikkinchi tilga tarjima transformatsiyalari orqali o‘giriladi.

Tarjima transformatsiyalari uchta toifaga bo‘linadi:

1. Leksik transformatsiyalar
2. Grammatik transformatsiyalar
3. (Murakkab) Leksik-grammatik transformatsiyalar

Tarjima jarayonida quyidagi ***leksik transformatsiyalardan*** foydalaniladi:

a. Transkripsiya, transliteratsiya, kalkalash
b. Konkretlashtirish – Concretization
c. Generalizatsiya (Umumlashtirish) – Generalization
d. Modulyatsiya – Modulation

Grammatik transformatsiyalarning quyidagi turlari mavjud:

a. Sintaktik moslashuv
b. Gaplarni bo‘laklarga ajratish (segmentatsiya).
c. Gaplarni birlashtirish (ikki yoki undan ortiq qisqa gapni bitta murakkab gapga aylantirish).
d. Grammatik almashtirishlar (so‘z turkumi, son, nisbat yoki gap bo‘laklarining o‘zgarishi).

(Murakkab) Leksik-grammatik transformatsiyalar quyidagilar:

a. **Antonimik tarjima**
b. Tasviriy tarjima
c. Kompensatsiya

Transkripsiya	Transliteratsiya
Bu asliyatdagi so‘zning tovush shaklini tarjima tili harflari yordamida ko‘chirish	*Bu asliyatdagi harflarni tarjima til harflari bilan transliteratsiya qilinishi yoki ko‘chirilishi.*
Eau de cologne – ***Одеколон***	*London* – ***Лондон***
Bukhara - ***Бухоро***	*Washington* – ***Вашингтон***
H*arry* – ***Г****арри*	*Campbell*- ***Кемпбелл***
H*ermione*-***Г****ермиона*	*Dorset* – ***Дорсет***
W*alt* – ***У****олт*	*Tom* – ***Том***
Ch*arls* –***Ч****арльз*	*Zara* – ***Зара***
W*illiam* –***У****ильям*	
O*akland* – ***O****кленд*	

Kalkalash – Calque	
Bu chet tilidagi so‘z yoki iborani o‘z tilimizga har bir qismini (morfema yoki so‘zma-so‘z) alohida tarjima qilish orqali ko‘chirish usulidir. Kalka ko‘pincha tilda yangi tushuncha paydo bo‘lganda va unga o‘z tilimizdan munosib so‘z topilmaganda ishlatiladi.	
Superpower	*Hukmron davlat*
Skyscraper	*Osmono‘par bino*
Mother tongue	*Ona tili*
Wall newspaper	*Devoriy gazeta*
White house	*Oq uy*
Masterpiece	*San’at asari*
Yarim kalkalash – Half calques	
Mini skirt	*Mini yubka*
South Korea	*Janubiy Koreа*
North Dakota	*Shimoliy Dakota*
New Zealand	*Yangi Zelandiya*

Konkretlashtirish asliyatdagi keng ma’noda berilgan gapni tor ma’noda tarjima qilishdir:

*Will you **do** the room?*	*Xonani **tozalaysizmi**?*
*He **went** to the airport by taxi.*	*U aeroportga taksida **yetib bordi**.*
*“Don’t touch that!” he **said.***	*“Bunga tegma!” — deb **ogohlantirdi.***
*She has a lot of **stuff** in her room.*	*Uning xonasi **uyum-uyum kiyim** bilan to‘la.*

Generalizatsiya (Umumlashtirish)

Konkretlashtirishning aksi: aniq ma’noli so‘zni umumiyroq tushuncha bilan almashtirish. Bu ko‘pincha tarjima tilida aynan o‘sha narsa uchun maxsus so‘z bo‘lmaganda qo‘llaniladi.

*The office was just a few **yards** away.*	*Ofis bir necha **qadam** (**metr**) narida edi.*
*She wore a beautiful **maroon** dress.*	*U chiroyli **qizil** ko‘ylak kiygan edi.*
*Can you bring me a **Kleenex**?*	*Menga **salfetka** olib kelasanmi? (Kleenex brend nomi)*
*My **siblings** are coming over tonight.*	*Bugun **uydagilar (yaqinlarim)** kelishadi.*

Modulyatsiya bu tarjimada ma’noni saqlab qolgan holda, fikrning **ifodalanish uslubini yoki qarash nuqtasini** o‘zgartirishdir. Bunda so‘zma-so‘z tarjima qilish o‘rniga, mantiqan bir-biriga bog‘liq bo‘lgan boshqa tushuncha qo‘llaniladi (masalan, sabab o‘rniga natija, bo‘lishli gap o‘rniga bo‘lishsiz gap).

*I **don’t blame** them.*	*Men ularni tushunaman, shu sabab ayblamayman. (Sabab munosabati oqibat munosabati bilan tarjima qilinib kuchaytirilyapti).*
*I **don’t think** you are right.*	*Menimcha, sen **xato qilyapsan**.*
*This tent **sleeps** four people.*	*Bu chodirga to‘rt kishi **sig‘adi**.*
*The city **is strange to me**.*	*Men bu shaharni **mutlaqo tanimayman**.*

Grammatik transformatsiyalar

Grammatik transformatsiyalar tarjima qilingan so‘zlardagi morfologik yoki sintaksis o‘zgarishlardir. Ular quyidagi turlarga bo‘linadi:

Sintaktik moslashuv – so‘z tartibini o‘zgartirish. Bu transformatsiya ishlatilishining sababi ingliz va o‘zbek tilida gapda so‘z tartibi turli xil va gapning funksional tushunchasi ham farqlanadi.

*The scientist **discovered** a new planet.*	*Olim yangi sayyorani **kashf qildi**.*
*We will finish the project **next week**.*	***Keyingi hafta** biz loyihani yakunlaymiz.*
*Alice **is reading** an interesting book.*	*Alisa qiziqarli **kitob o‘qiyapti**.*
*This house **was built** by my grandfather.*	*Bu uyni **bobom qurgan**.*

Gapni bo‘laklarga bo‘lib tarjima qilish* (segmentatsiya)** – ***Sentence partioning: asliyat matndagi qo‘shma gapni, semantik yoki stilistik sabablarga ko‘ra sodda gapga almashtirib tarjima qilish.

*I met a woman **who** told me that the museum was closed. (Qo’shma gap)*	*Men bir ayolni uchratdim. **U** menga muzey yopiqligini aytdi. (Sodda gap)*
Mening mashinam yurmadi, shuning uchun kelib sizni olib ketolmadim. (Qo‘shma gap)	*My car wouldn’t start. Therefore, I couldn’t pick you up. (Sodda gap)*
*The rain was very heavy, **so** we decided to stay at home and watch a movie. (Qo‘shma gap)*	*Yomg‘ir juda kuchli yog‘ayotgan edi. **Shu sababli** biz uyda qolib, kino ko‘rishga qaror qildik. (Sodda gap)*
*She heard him playing the piano, **which** reminded her of her childhood. (Qo‘shma gap)*	*U yigitning fortepiano chalayotganini eshitdi. **Bu ovoz** unga bolaligini eslatib yubordi.(Sodda gap)*

Gaplarni birlashtirish (ikki yoki undan ortiq qisqa gapni bitta murakkab gapga aylantirish) Sentence integration: bu tarjima jarayonida tushunishni osonlashtirish, matnning ravonligini ta’minlash yoki maqsadli til (o‘zbek tili) uslubiga moslashtirish uchun bir nechta qisqa va sodda gaplarni bitta murakkab gapga aylantirish usulidir.

The weather was very cold. We stayed indoors all day.	*Ob-havo juda sovuq bo‘lgani **uchun** biz kun bo‘yi uydan chiqmadik.*
He finished his work. Then he went for a walk in the park.	*U ishini tugat**ib**, bog‘da sayr qilishga ketdi.*

Grammatik almashtirish* (so‘z turkumi, son, nisbat yoki gap bo‘laklarining o‘zgarishi). *Grammar substitution tarjima qilingan birlikning grammatik kategoriyasi o‘zgartirilishidir. (sifat fe’lga, ot fe’lga o‘zgartirilishi). Majhul nisbatli gapni aniq nisbati fe’l bilan almashtirib tarjima qilish mumkin. Ba’zi gaplarda ot son turkumi, birlik ko‘plik bilan almashtirilishi yoki aksincha bo‘lishi mumkin:

*Her hair **is** fair and wavy*.(birlik)	*Uning soch**lari** och va jingalak*. (ko‘plik)
*He has white **teeth**.(ko’plik)*	*Uning **tishi** oq.(birlik)*
We **are leaving** tomorrow. (davomli zamon)	Biz ertaga **jo‘nab ketamiz**. (kelasi zamon)
I am **hungry**.(sifat)	Men och qoldim (fe’l)

Antonimik tarjima — bu tarjimaning o‘ziga xos leksik-grammatik usuli bo‘lib, unda asl matndagi **inkor** shakli tarjimada **tasdiq** shakliga (yoki aksincha) o‘zgartiriladi. Bunda ma’no o‘zgarmasligi uchun so‘zning o‘zi ham uning **antonimiga** (qarama-qarshisiga) almashtiriladi.

*He did **not stay** long.*	*U **tezda ketdi**.*
*Such cases are **not uncommon**.*	*Bunday holatlar **tez-tez uchrab turadi**.*
*The evidence he provided was **not inconsistent** with the witness’s testimony.*	*U taqdim etgan dalillar guvohning ko‘rsatmalariga **to‘la mos kelar edi**.*
*I **failed to realize** how much this job meant to him.*	*Bu ish u uchun qanchalik muhimligini **mutlaqo tasavvur ham qilmagan ekanman**. (anglamaganman)*

Tasviriy tarjima (parafraz yoki deskriptiv tarjima) — bu asliyatdagi biror so‘z yoki birikmaning muqobili (ekvivalenti) tarjima qilinayotgan tilda mavjud bo‘lmaganda, uning ma’nosini so‘zlar birikmasi yoki butun bir jumla bilan **tushuntirib berish** usulidir.

Bu usul ko‘pincha **realiyalar** (bir xalqqa xos tushunchalar), madaniy farqlar yoki o‘ziga xos terminlarni tarjima qilishda qo‘llaniladi.

*Bahorda hamma **sumalak** pishiradi.*	*In spring, everyone cooks **sumalak, a traditional Navruz dish made from germinated wheat sprouts through a long cooking process.***
*Biz yakshanba kuni **hashar** qildik.*	*On Sunday, we performed **hashar, a traditional Uzbek custom of voluntary mutual assistance where people work together for a common goal.***
*Bugun do‘stlarim bilan **gapimiz** bor.*	*Today I am attending **“gap”, a traditional social gathering of friends or colleagues who meet regularly to share a meal and talk.***
*To‘ydan keyin **kelinsalom** boshlandi.*	*After the wedding, **kelinsalom** began, **which is a traditional ceremony where the new bride greets the groom’s family and guests by bowing.***

Kompensatsiya (o‘rin to‘ldirish) — bu tarjima usuli bo‘lib, asl matndagi ma’lum bir uslubiy bo‘yoq, so‘z o‘yini yoki madaniy xususiyatni aynan o‘sha joyda berishning iloji bo‘lmaganda, matnning **boshqa bir qismida** uning o‘rnini to‘ldirishdir. Ya’ni, agar tarjimon gapning boshida biror ma’no nozikligini (masalan, hurmat ma’nosini) yo‘qotsa, uni gapning davomida yoki keyingi gapda boshqa bir so‘z orqali “qoplab” ketadi.

“Can **you** help me?” (Inson o‘zidan kattaga murojaat qilyapti).	“**Aka**, menga yordam bera **olasizmi**?”	Ingliz tilida “you” ham “sen”, ham “siz” ma’nosini beradi. O‘zbek tilida bu farqni ko‘rsatish uchun boshqa so‘zlardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.
“I **did** tell you the truth!”	“Men sizga haqiqatni **aytdim-ku**!”	Ingliz tilidagi “did” fe’li gapga urg‘u beryapti. O‘zbek tilida bu urg‘u “-ku” yuklamasi orqali kompensatsiya qilindi.

Tarjima transformatsiyalari — matnni bir tildan ikkinchi tilga o‘girishda lisoniy va madaniy nomuvofiqliklarni bartaraf etuvchi asosiy vositadir. Tarjima jarayonida shakliy o‘zgarishlar (transpozitsiya, almashtirish) va mazmuniy moslashtirishlar (modulyatsiya, kompensatsiya) orqali matnning **adekvatligi** hamda **ekvivalentligi** ta’minlanadi.

Xulosa qilib aytganda, tarjima transformatsiyalarini mohirona qo‘llash tarjimonning professional mahoratini belgilaydi hamda tillararo muloqotda ma’no yaxlitligini saqlashga xizmat qiladi. Ular vositasida tarjima asari asl nusxa bilan mazmunan tenglashadi va milliy til tabiatiga moslashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Munday, J. (2022). *Introducing Translation Studies: Theories and Applications* (5th ed.). Routledge.
2.Baker, M. (2018). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. Routledge.
3.Salomov, G‘. (2019). *Tarjima nazariyasi asoslari*. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4.Gafurov, I., Mo‘minov, O., & Qambarov, N. (2012). *Tarjima nazariyasi*. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni.
5.Venuti, L. (2021). The Translation Studies Reader. Routledge.
6.Ziyamuhamedov, J. (2021). Badiiy tarjimada lisoniy-madaniy aspektlar. – Toshkent.



Lobar NAZAROVA,

O‘ZBEK VA INGLIZ ADABIYOTLARIDAGI ARXETIPIK OBRAZLAR

Annotatsiya:ushbu maqola o‘zbek va ingliz adabiyotlaridagi arxetipik obrazlarning qiyosiy tahliliga bag‘ishlangan. Arxetip nazariyasining asoschisi Karl Gustav Yungning konsepsiyasi asosida ikki adabiyotdagi umuminsoniy obrazlar – oqil keksa, ona, bola, yorug‘lik va zulmat, shuningdek, diniy-motivatsion arxetiplarning badiiy talqini o‘rganiladi. Tahlillar davomida Uilyam Shekspir, T.S. Eliot kabi ingliz adiblari hamda Alisher Navoiy, Isajon Sulton, Shukur Xolmirzayev kabi o‘zbek yozuvchilari asarlaridagi arxetipik obrazlar qiyoslanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli madaniyat va davrlarda yaratilgan asarlarda umuminsoniy arxetiplar o‘ziga xos milliy va tarixiy kontekstda talqin etilgan bo‘lsa-da, ularning mazmun-mohiyati mushtarakligicha qoladi.

Kalit so‘zlar: *arxetip, kollektiv ongsizlik, qiyosiy adabiyotshunoslik, obraz, ramz, o‘zbek adabiyoti, ingliz adabiyoti, Karl Yung.*

Аннотация:данная статья посвящена сравнительному анализу архетипических образов в узбекской и английской литературе. На основе концепции Карл Густав Юнг - основателя теории архетипов - исследуется художественная интерпретация универсальных образов в обеих литературах, таких как мудрый старец, мать, ребёнок, свет и тьма, а также религиозно-мотивационные архетипы. В ходе анализа сопоставляются архетипические образы в произведениях английских писателей, таких как Уильям Шекспир и Т. С. Элиот, с произведениями узбекских авторов, таких как Алишер Навои, Исажон Султон и Шукур Холмирзаев. Результаты исследования показывают, что, несмотря на интерпретацию универсальных архетипов в специфических национальных и исторических контекстах различных культур и эпох, их сущностное содержание остаётся общим и универсальным.

Ключевые слова: *архетип, коллективное бессознательное, сравнительное литературоведение, образ, символ, узбекская литература, английская литература, Карл Юнг.*

Annotation:this article is devoted to a comparative analysis of archetypal images in Uzbek and English literature. Based on the concept of Carl Gustav Jung, the founder of archetype theory, the study examines the artistic interpretation of universal images in both literatures, such as the wise old man, the mother, the child, light and darkness, as well as religious and motivational archetypes. In the course of the analysis, archetypal images in the works of English writers such as William Shakespeare and T. S. Eliot are compared with those found in the works of Uzbek authors such as Alisher Navoi, Isajon Sulton, and Shukur Kholmirzayev. The results of the study show that although universal archetypes are interpreted within specific national and historical contexts in works created in different cultures and periods, their essential meaning remains common and shared.

Key words: *archetype, collective unconscious, comparative literature, image, symbol, Uzbek literature, English literature, Carl Jung.*

O‘zbek va Ingliz adabiyotshunoslikda arxetip tushunchasi muhim o‘rin tutadi. “Arxetip” atamasi yunoncha “arche” (boshlang‘ich) va “typos” (namuna, obraz) so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, dastlab avliyo Avgustin asarlarida uchraydi. Shveysariyalik psixolog va faylasuf Karl Gustav Yung bu tushunchani ilmiy muomalaga kiritib, uni “kollektiv ongsizlik” nazariyasi bilan bog‘lagan[1] . Yung ta’kidlashicha, arxetiplar “ibtidoiy zamondan meros bo‘lib qolgan tasvirlar bo‘lib, ular insoniyatning umumiy ruhiy merosini tashkil etadi”[2].

O‘zbek va ingliz adabiyotlari turli madaniy-tarixiy zaminlarda shakllangan bo‘lsa-da, ularda umuminsoniy arxetipik obrazlarning o‘xshash talqinlarini kuzatish mumkin. Bu esa qiyosiy adabiyotshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mohinur Axunjanova va Zebo Botirovalarning ta’kidlashicha, “arxetip nazariyasi insoniyatning kollektiv tajribasida ildiz otgan fundamental pattern va ramzlarni o‘rganadi”[3] .

1 Jung, C.G. (1928). On the Relation of Analytical Psychology to Poetic Art. In: Contributions to Analytical Psychology. New York

2 O‘sha manba

3 Axunjanova, M.S., Botirova, Z. (2023). Exploring the Theory of Archetypes. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 251-254

Arxetip nazariyasining nazariy asoslari, Karl Gustav Yungning fikricha, arxetiplar shaxsiy ongsizlikdan farqli o‘laroq, butun insoniyat uchun umumiy bo‘lgan kollektiv ongsizlikning tarkibiy qismidir. Ular “ibtidoiy tasvirlar” (primordial images) bo‘lib, insoniyatning dastlabki davrlaridan meros bo‘lib keladi[4] . Yungning so‘zlariga ko‘ra,”kollektiv ongsizlikni o‘z-o‘zidan mavjud deb bo‘lmaydi; ya’ni u faqat imkoniyatdir – ibtidoiy zamondan bizga mnemonik tasvirlar shaklida meros bo‘lib qolgan imkoniyat”[5] .

Adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan arxetiplar badiiy asarlarda takrorlanuvchi obrazlar, motivlar va syujetlar sifatida namoyon bo‘ladi. Arxetipik obrazlar muayyan madaniyat doirasida shakllangan bo‘lsa-da, ularning zamirida umuminsoniy mazmun yotadi. Rahilya Geybullayeva muharrirligida chop etilgan”Archetypes in Literatures and Cultures” to‘plamida ta’kidlanganidek,”Leyli va Majnun syujeti Ozarbayjon, Fors, Hind yoki o‘zbek adabiyotida qayta hikoya qilinganidek, Troya afsonasi yoki Romeo va Juliyetta tarixi ingliz va italyan adabiyotida turlicha talqin etilgan”[6] .

Ingliz adabiyoti arxetipik obrazlarga boy. Uillyam Shekspir tragediyalarida yorug‘lik va zulmat, samoviy jismlar, tabiat va vaqt o‘tishi kabi umuminsoniy arxetiplar muhim o‘rin tutadi. M.I. Gadoyeva va Z. Nurulloyevalarning tadqiqotiga ko‘ra,”Shekspir tragediyalarida qo‘llanilgan arxetipik obrazlar inson mavjudligi, axloq va taqdir haqidagi chuqur g‘oyalarni ifodalashga xizmat qiladi”[7] .

XX asr ingliz adabiyotining yirik vakili T.S. Eliot ijodida arxetipik obrazlar alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ”The Waste Land” (Bo‘s zamin) poemasida qadimgi mifologiyalar va diniy tizimlardan olingan arxetiplar zamonaviy dunyoning ma’naviy bo‘shlig‘ini ifodalash uchun xizmat qiladi. Eliotning she’riyatidagi arxetiplar tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotlardan birida ta’kidlanganidek,”shoirning o‘ziga xos iste’dodi uning kollektiv ongsizlikning chuqur qatlamlari bilan aloqa o‘rnatish va ibtidoiy tasvirlarni badiiy asarda namoyon etish qobiliyatidadir” [8].

Ingliz adabiyotida oqil keksa (wise old man) arxetipi ham keng tarqalgan. Bu obraz donishmand, yo‘l ko‘rsatuvchi, sirlarni biluvchi shaxs sifatida namoyon bo‘ladi.[9] Masalan, J.R.R. Tolkienning ”Uzuklar hukmdori” asaridagi Gandalf yoki Artur Kestlerning ”Sohil bo‘yidagi qaroqchi” asaridagi donishmand obrazlari shular jumlasidandir.

O‘zbek adabiyoti ham arxetipik obrazlarga boy bo‘lib, ular asosan folklor va mumtoz adabiyotdan zamonaviy adabiyotgacha davomiylik kasb etadi. Alisher Navoiy asarlarida Komil inson arxetipi, Farhod va Majnun obrazlari orqali oshiq-ma’shuq munosabatlari, Shayx San’on orqali esa diniy-falsafiy izlanishlar ifodalangan.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotida Isajon Sulton va Ulug‘bek Hamdam asarlarida diniy-falsafiy arxetiplarning yangicha talqinini ko‘rish mumkin. Shaxnoza Gaipovaning tadqiqotida ta’kidlanganidek,”Ulug‘bek Hamdamning “Yaxshiyam, sen borsan”, Isajon Sultonning “Yusuf va Zulayho” hamda Zakariya Tamerning “Kichkina chiroyli Yusuf...ning halok bo‘lishi” hikoyalarida bosh qahramon sifatida bir arxetip obraz va diniy motiv olingan” [10]. Gaipova Zakariya Tamer hikoyasining nomi” bizni mashhur payg‘ambar haqidagi rivoyatga – go‘zal Yusuf haqidagi qissaga ishora qiladi”, deb yozadi.[11]

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida esa “chol” va ”kampir” arxetiplari muhim o‘rin tutadi. Sitora Malikova ushbu arxetiplarni tahlil qilib,”yozuvchining “Podachi”, “Qariya”, “Tabassum”, “Qaytish”, “Odam” kabi hikoyalaridagi keksa obrazlari xalq ertaklaridagi personajlar bilan qiyoslanadi” va “realistik asardagi “chol” va “kampir” arxetipik obrazlarining vazifalari ochib beriladi”, deb ta’kidlaydi.[12]

Yusuf obrazi arxetipi o‘zbek va ingliz adabiyotlaridagi eng yorqin arxetipik obrazlardan birdir. Qur’oni Karim va Bibliyada tilga olingan bu payg‘ambar go‘zallik, poklik va sabr timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.[13]

Isajon Sultonning “Yusuf va Zulayho” asarida bu arxetip an’anaviy sharqona ruhda talqin etilgan bo‘lsa, Ulug‘bek Hamdamning”Yaxshiyam, sen borsan” hikoyasida Yusuf obrazi zamonaviy kontekstda qayta yaratilgan. Gaipovaning qayd etishicha,”asar boshidanoq muallif dialoglar orqali voqealar bugungi zamonda sodir bo‘layotganiga ishora qiladi”.

4 Jung, C.G. (1928). On the Relation of Analytical Psychology to Poetic Art. In: Contributions to Analytical Psychology. New York
5 O‘sha manba
6 https://oyina.uz/uz/article/2131
7 Gadoeva, M.I., Nurulloeva, Z. (2025). Comparative Analysis of Imagery and Themes in Shakespearean Tragedies and Ulugbek‘s Works. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(4)
8 Jung, C.G. (1928). On the Relation of Analytical Psychology to Poetic Art. In: Contributions to Analytical Psychology. New York
9 https://www.selfgazer.com/blog/jungian-archetype-wise-old-man-woman
10 Gaipova, Sh.M. (2024). Zamonaviy arab va o‘zbek hikoyalarida diniy-falsafiy ramzlar. Sharq jurnali, 90-92-betlar
11 O‘sha manba
12 Malikova, S.O. (2022). The Archetypical Images of “The Old Man” and “The Old Woman” in the Works of Shukur Kholmirzayev. Periodica, 7(1)
13 Gaipova, Sh.M. (2024). Zamonaviy arab va o‘zbek hikoyalarida diniy-falsafiy ramzlar. Sharq jurnali, 90-92-betlar

Oqil keksa arxetipi ham ikki adabiyotda muhim o‘rin tutadi. Shukur Xolmirzayev hikoyalaridagi chol obrazi xalq ertaklaridagi donishmand qariya timsoliga borib taqaladi. Malikova ta’kidlaganidek,”bu obrazlar xalq ertaklaridagi personajlar bilan qiyoslanadi”.[14]

Ingliz adabiyotida esa bu arxetip, masalan, Tolkienning Gandalf obrazida yoki Star Wars siklidagi Obi-Van Kenobi va Yoda obrazlarida o‘z ifodasini topgan. Qizig‘i shundaki, Sharq va G‘arb adabiyotlaridagi bu obrazlar tashqi ko‘rinishda farq qilsa-da (biri sharqona chopon va sallada, ikkinchisi g‘arbona plash va tayog‘i bilan tasvirlansa-da), ularning funksiyasi - qahramonga yo‘l ko‘rsatish, sinovlarda yordam berish, donishmandlik o‘rgatish - bir xildir.

Yorug‘lik va zulmat arxetiplari ham o‘zbek va ingliz adabiyotlarida keng qo‘llaniladi. Gadoyeva va Nurulloyevalarning Shekspir va Ulug‘bek ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotida ta’kidlanganidek,”yorug‘lik va zulmat, samoviy jismlar, tabiat va vaqt o‘tishi kabi umuminsoniy arxetipik obrazlar har ikki adabiy an’analarda ham inson mavjudligi, axloq va taqdir haqidagi g‘oyalarni ifodalash uchun qo‘llaniladi”.[15]

T.S. Eliotning ”The Waste Land” asarida suv va qurg‘oqchilik, o‘lim va qayta tug‘ilish arxetiplari muhim o‘rin tutadi. Xuddi shunday, o‘zbek mumtoz adabiyotida, xususan, Navoiy asarlarida ham yorug‘lik (nur) va zulmat (zulmat) arxetiplari orqali ma’naviy kamolot va jaholatga ishoralar qilinadi.

Arxetiplar davr va madaniyat o‘tishi bilan o‘zgarib, yangi ma’no qirralari kasb etadi. Geybullayeva ta’kidlaganidek, ”arxetiplarning shakllari bir migrant syujetdan ikkinchisiga o‘tishda o‘zgarib boradi”[16] . Zamonaviy o‘zbek adabiyotida an’anaviy arxetiplar yangicha talqin etilmoqda. Masalan, Isajon Sulton va Ulug‘bek Hamdam asarlarida diniy-falsafiy arxetiplar zamonaviy inson psixologiyasi bilan uyg‘unlashtirilgan holda beriladi.

Ingliz adabiyotida ham xuddi shunday jarayon kuzatiladi. Postmodern adabiyotda an’anaviy arxetiplar ko‘pincha dekonstruksiya qilinib, ularga kinoya bilan yondashiladi. Masalan, Jon Faulzning ”The French Lieutenant’s Woman” asarida viktoriya davri adabiyotidagi ayol arxetiplari qayta talqin etilgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘zbek va ingliz adabiyotlaridagi arxetipik obrazlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli madaniy va tarixiy sharoitlarda yaratilgan asarlarda umuminsoniy arxetiplarning o‘xshash talqinlari mavjud. Yusuf, oqil keksa, yorug‘lik va zulmat kabi arxetiplar ikki adabiyotda ham insoniyatning asosiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, har bir adabiy an’ana bu arxetiplarni o‘zining milliy-madaniy kontekstida talqin etadi. Sharqona tasavvuf va islomiy qadriyatlar o‘zbek adabiyotidagi arxetiplarning o‘ziga xosligini ta’minlasa, G‘arb xristianligi va antik mifologiya ingliz adabiyotidagi arxetiplarning asosiy manbai hisoblanadi.

Arxetipik obrazlarning qiyosiy tahlili nafaqat adabiy aloqalarni, balki turli madaniyatlar vakillarining dunyoqarashi va qadriyat tizimidagi umumiyliklarni ham ochib beradi. Bu esa zamonaviy globallashuv davrida madaniyatlararo muloqotni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

14 Malikova, S.O. (2022). The Archetypical Images of “The Old Man” and “The Old Woman” in the Works of Shukur Kholmirzayev. Periodica, 7(1)

15 Gadoeva, M.I., Nurulloeva, Z. (2025). Comparative Analysis of Imagery and Themes in Shakespearean Tragedies and Ulugbek‘s Works. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(4)

16 Geybullayeva, R. (ed.) (2012). Archetypes in Literatures and Cultures. Frankfurt am Main: Peter Lang

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axunjanova, M. S., & Botirova, Z. (2023). Exploring the theory of archetypes. Educational Research in Universal Sciences, 2(15), 251–254.

2. Gaipova, Sh. M.Zamonaviy arab va o‘zbek hikoyalarida diniy-falsafiy ramzlar. Sharq jurnali. 2024.90–92-betlar.

3. Gadoeva, M. I., & Nurulloeva, Z. (2025). Comparative analysis of imagery and themes in Shakespearean tragedies and Ulugbek’s works. Pubmedia Social Sciences and Humanities, 2(4).

4. Geybullayeva, R. (Ed.). (2012). Archetypes in literatures and cultures. Frankfurt am Main: Peter Lang.

1. Jung, C. G. (1928). On the relation of analytical psychology to poetic art. In Contributions to Analytical Psychology. New York.

2. Malikova, S. O. (2022). The archetypical images of “the old man” and “the old woman” in the works of Shukur Kholmirzayev. Periodica, 7(1).

Saida NISHONBEKOVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi
saidanishonbekova8@gmail.com

TIL VA METODIK TAYYORGARLIK INTEGRATSIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga konseptual yondashuvning mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlikning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada mazkur integratsiyaning nazariy asoslari, pedagogik imkoniyatlari hamda ta’lim jarayonidagi ahamiyati yoritiladi. Til va metodik tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish orqali bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorligini oshirish, ularning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va ta’lim sifatini ta’minlash mumkinligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *ingliz tili o‘qituvchisi, bo‘lajak o‘qituvchi, til tayyorgarligi, metodik tayyorgarlik, integratsiya, konseptual yondashuv, kasbiy kompetentlik, pedagogik tayyorgarlik, ta’lim sifati, o‘qituvchi tayyorlash*

Аннотация: в данной статье анализируются сущность и содержание концептуального подхода к интеграции языковой и методической подготовки в процессе подготовки учителей английского языка. Обосновывается тесная взаимосвязь языковой и методической подготовки в формировании профессиональной компетентности будущих учителей. Также в статье освещаются теоретические основы, педагогические возможности и образовательная значимость данной интеграции. Подчёркивается, что гармонизация языковой и методической подготовки способствует повышению готовности будущих учителей английского языка к профессиональной деятельности, развитию их практических навыков и обеспечению качества образования.

Ключевые слова: *учитель английского языка, будущий учитель, языковая подготовка, методическая подготовка, интеграция, концептуальный подход, профессиональная компетентность, педагогическая подготовка, качество образования, подготовка учителей*

Annotation: this article analyzes the essence and content of a conceptual approach to the integration of linguistic and methodological training in the process of English language teacher education. It substantiates the close interrelation between linguistic training and methodological preparation in shaping the professional competence of future teachers. The article also highlights the theoretical foundations, pedagogical potential, and educational significance of this integration. It is emphasized that harmonizing linguistic and methodological training contributes to enhancing future English teachers’ readiness for professional activity, developing their practical skills, and ensuring the quality of education.

Key words: *english language teacher, future teacher, linguistic training, methodological training, integration, conceptual approach, professional competence, pedagogical training, quality of education, teacher education*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tilining xalqaro muloqot, ilm-fan, ta’lim va kasbiy faoliyatdagi o‘rni tobora ortib bormoqda. Shu bois ta’lim tizimida raqobatbardosh, yuqori kasbiy salohiyatga ega hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlarni puxta egallagan ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi faqatgina til bilimlari bilan chegaralanmay, balki o‘quv jarayonini samarali tashkil etish, zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llash, ta’lim jarayonini loyihalash va boshqarish kabi metodik kompetensiyalarni ham o‘z ichiga oladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash jarayonida til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlikning o‘zaro integratsiyasini ta’minlash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda talabalar tilni nazariy jihatdan yaxshi o‘zlashtirsalarda, uni o‘qitish metodikasini amaliyotda samarali qo‘llashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Yoki aksincha, metodik bilimlarga ega bo‘la turib, yetarli darajadagi til kompetensiyasining shakllanmaganligi ularning kelajakdagi pedagogik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Demak, til va metodik tayyorgarlikni alohida emas, balki uzviy bog‘liq holda ko‘rib chiqish zarurati tug‘iladi.

Mazkur zarurat ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoniga konseptual yondashuv asosida yondashishni taqozo etadi. Konseptual yondashuv ta’lim jarayonining maqsadi, mazmuni, tamoyillari, usullari va natijalari

o‘rtasidagi mantiqiy uyg‘unlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Aynan shu yondashuv asosida til va metodik tayyorgarlikning mazmunini integratsiyalash, ularning o‘zaro aloqadorligini ochib berish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini yaxlit tizim sifatida shakllantirish mumkin bo‘ladi.

Ushbu maqolaning maqsadi ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga konseptual yondashuvning mazmun-mohiyatini ochib berish, uning nazariy asoslari hamda pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, maqolada mazkur integratsiyaning bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishdagi ahamiyati yoritiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga konseptual yondashuvni ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks yondashuv asosida bir qator tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan hamda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etdi. Ushbu yondashuvlar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy shakllanishida til bilimlari va metodik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liq holda rivojlanishini o‘rganishga xizmat qildi.

Tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo‘naltirilgan hamda faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Mazkur tadqiqotda L.S.Vygotskiyning [1] ta’lim va rivojlanishning ijtimoiy tabiati haqidagi qarashlari, J.Shulmanning [2] pedagogik mazmuniy bilim konsepsiyasi, D.Freeman [4] va M.Wallacening [3] ingliz tili o‘qituvchisini kasbiy tayyorlashga doir yondashuvlari, shuningdek, J.C.Richards [5] hamda J.Harmerning [8] chet tilini o‘qitish metodikasiga oid ilmiy fikrlari asosiy nazariy manba sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotning nazariy metodlari sifatida tahlil, sintez, qiyoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi.Mazkur metodlar yordamida muammo bo‘yicha mavjud ilmiy qarashlar tartibga solindi, konseptual yondashuvning tarkibiy komponentlari belgilandi hamda til va metodik tayyorgarlik integratsiyasining pedagogik mohiyati ochib berildi. Tizimli tahlil asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida ko‘rib chiqildi.

Empirik bosqichda kuzatish, suhbat, so‘rovnoma va diagnostik tahlil metodlaridan foydalanish ko‘zda tutildi. Ushbu metodlar orqali talabalar hamda professor-o‘qituvchilarning til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga oid qarashlari, mavjud muammolar hamda amaliy ehtiyojlari o‘rganildi. Kuzatish metodi orqali auditoriya mashg‘ulotlarida til o‘rgatish va uni o‘qitish metodikasi o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik darajasi tahlil qilindi. So‘rovnoma va suhbat natijalari esa o‘quv jarayonida integratsiyalashgan yondashuvni kuchaytirish zaruratini aniqlashga yordam berdi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til tayyorgarligi va metodik tayyorgarlikni alohida-alohida emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan holda tashkil etish bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. An’anaviy yondashuvda talabaning til bilimi va uni o‘qitish metodikasi ko‘pincha mustaqil yo‘nalishlar sifatida o‘rganiladi. Biroq tadqiqot jarayonida mazkur ikki komponentning uyg‘unligi talabaning nafaqat tilni bilishi, balki uni pedagogik jihatdan to‘g‘ri, maqsadli va samarali yetkazib bera olish qobiliyatini ham rivojlantirishi aniqlandi.

Natijalar bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarida kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bir qator muhim ko‘nikmalar aynan integrativ yondashuv asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Jumladan, darsni rejalashtirish, til materialini tanlash, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, kommunikativ vaziyatlar yaratish, topshiriqlarni metodik jihatdan asoslash kabi ko‘nikmalar til va metodik tayyorgarlikning birligi natijasida rivojlanadi. Bu esa o‘z navbatida bo‘lajak o‘qituvchining nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘lash imkonini kengaytiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, til va metodik tayyorgarlik integratsiyasi asosida tashkil etilgan ta’lim jarayoni talabalarning refleksiv fikrlashi va mustaqil kasbiy pozitsiyasini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Integratsiyalashgan mashg‘ulotlarda talabalar til birliklarini shunchaki o‘zlashtirish bilan cheklanmay, ularni qanday o‘qitish, qaysi metod va vositalardan foydalanish, dars jarayonida qanday pedagogik qaror qabul qilish zarurligi haqida ham mushohada yuritadi. Natijada ularda o‘z pedagogik faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga nisbatan ongli yondashuv shakllanadi.

Muhokama natijalari shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv zamonaviy pedagogik ta’limning asosiy tamoyillari bilan hamohangdir. Chunki bugungi kunda o‘qituvchi tayyorlash jarayonida faqat bilim berish emas, balki kasbiy faoliyatga tayyor, moslashuvchan, tanqidiy fikrlovchi va amaliy muammolarni hal qila oladigan mutaxassisni shakllantirish ustuvor vazifa hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, til va metodik tayyorgarlik integratsiyasi

bo‘lajak o‘qituvchining kommunikativ, lingvistik, metodik va refleksiv kompetensiyalarini yagona tizimda rivojlantirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlarini takomillashtirish zaruratini ham ko‘rsatdi. Xususan, o‘quv rejalari va fan dasturlarida til va metodik tayyorgarlikning uzviy bog‘liqligini ta’minlash, amaliy mashg‘ulotlar ulushini oshirish, mikroo‘qitish, modellashtirish, refleksiv topshiriqlar va pedagogik vaziyatlar tahliliga kengroq o‘rin berish maqsadga muvofiqdir. Demak, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga konseptual yondashuvni joriy etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb va samarali yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga konseptual yondashuv muhim ilmiy-amaliy aҳamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida til bilimlari va metodik tayyorgarlikning o‘zaro uyg‘unligi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta’lim tizimida chet tilini mukammal bilishning o‘zi yetarli emas, balki uni samarali o‘qita olish, pedagogik vaziyatlarda to‘g‘ri qo‘llash va o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashtira bilish ham talab etiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanganki, til va metodik tayyorgarlikni integratsiyalashgan holda tashkil etish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini yanada samarali rivojlantiradi. Bunday yondashuv talabalarda lingvistik bilimlar, metodik ko‘nikmalar, refleksiv fikrlash, pedagogik tahlil qilish hamda amaliy faoliyatga tayyorlikni bir butun tizim sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchi nafaqat tilni o‘rganuvchi, balki uni o‘qitish jarayonini ongli ravishda loyihalovchi va boshqaruvchi mutaxassis sifatida shakllanadi.

Umuman olganda, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida til va metodik tayyorgarlik integratsiyasiga konseptual yondashuvni joriy etish pedagogik ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biridir. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini kompleks rivojlantirishga, ularning nazariy bilimlarini amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga hamda zamonaviy ta’lim talablari asosida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Shu bois, mazkur yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlarni davom ettirish va amaliy mexanizmlarni yanada takomillashtirish dolzarb vazifa sifatida e’tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

2. Shulman, L. S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // Harvard Educational Review. 1987. Vol. 57, No. 1. P. 1–23.

3. Wallace, M. J. Training Foreign Language Teachers: A Reflective Approach. Cambridge: Cambridge University Press, 1991.

4. Freeman, D., Johnson, K. E. Reconceptualizing the Knowledge-Base of Language Teacher Education // TESOL Quarterly. 1998. Vol. 32, No. 3. P. 397–417.

5. Richards, J. C., Rodgers, T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. 2nd ed. Cambridge: Cambridge University Press, 2001.

6. Richards, J. C., Farrell, T. S. C. Professional Development for Language Teachers: Strategies for Teacher Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2005.

7. Kumaravadivelu, B. Understanding Language Teaching: From Method to Postmethod. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 2006.

8. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching. 4th ed. Harlow: Pearson Longman, 2007.

9. Johnson, K. E. Second Language Teacher Education: A Sociocultural Perspective. New York: Routledge, 2009.

10. Borg, S. Teacher Cognition and Language Education: Research and Practice. London: Continuum, 2006.

11. Farrell, T. S. C. Promoting Teacher Reflection in Second Language Education: A Framework for TESOL Professionals. New York: Routledge, 2015.

12. Darling-Hammond, L. Powerful Teacher Education: Lessons from Exemplary Programs. San Francisco: Jossey-Bass, 2006.

Begoyim KARIMOVA,
ADU doktoranti

HAMZA HAKIMZODANING BOLALAR ADABIYOTIGA QO'SHGAN HISSASI

Annotatsiya: ushbu maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning o'zbek bolalar adabiyotini shakllantirish va rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Adibning yosh avlod tarbiyasiga qaratilgan asarlarida ilgari surilgan ma'rifatparvarlik g'oyalari, axloqiy-estetik qarashlari hamda badiiy ifoda vositalari ochib berishga harakat qilindi.

Kalit so'zlar: *adabiyot, bolalar adabiyoti, ma'rifatparvarlik, ta'lim-tarbiya, maktab, jadidchilik, axloq, xulq, qadriyat, didaktik, she'r, hikoya, o'quv qo'llanma.*

Аннотация: в данной статье научно-теоретически анализируется роль Hamza Hakimzoda Niyoziy в формировании и развитии узбекской детской литературы. Раскрываются просветительские идеи, нравственно-эстетические взгляды автора, а также художественные средства выражения, представленные в его· произведениях, направленных на воспитание подрастающего поколения.

Ключевые слова: *литература, детская литература, просветительство, образование и воспитание, школа, джадидизм, нравственность, поведение, ценности, дидактика, стихотворение, рассказ, учебное пособие.*

Annotation: this article provides a scientific and theoretical analysis of the role of Hamza Hakimzoda Niyoziy in the formation and development of Uzbek children's literature. It examines the enlightenment ideas, moral and aesthetic views, and artistic expressive means reflected in his works aimed at educating the younger generation.

Key words: *literature, children's literature, enlightenment, education and upbringing, school, Jadidism, morality, behavior, values, didactics, poem, story, textbook.*

Kirish. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida bolalar adabiyoti alohida ahamiyat kasb etib, yosh avlodni ma'naviy, axloqiy va estetik jihatdan barkamol etib tarbiyalashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yurtimizda bolalar adabiyotini rivojlantirishga, bu yo'nalishning tarixi, dolzarb muammolariga e'tibor qaratila boshlandi. Shuningdek, asarlar mavzusi, g'oyaviy-badiiy jihatdan xilma-xilligiga ham urg'u berilib, ushbu sohada yangi tadqiqotlarga yo'l ochdi desak, xato bo'lmaydi. Bolalar adabiyoti tarixini o'rganish bo'yicha O.Safarov, Q.Qahramonov, S.Matchonov, R.Barakayev, A.Rasulov, Z.Ibrohimova, B.Ashurov, D.Rajab, K.Turdiyeva, H.Nusratova, G.Jo'rayeva kabi tadqiqotchi olimlar o'quv-uslubiy qo'llanmalari bilan o'zbek bolalar adabiyotiga o'zlarining ilmiy ishlari bilan ulkan hissalarini qo'shdilar. Xususan, O.Safarov "Bolalar adabiyoti asoslarini bilmaydigan yoki chuqur egallamagan murabbiylar navqiron nasl qalbiga istiqlol g'ururini, vatan mehrini solishga, go'zallikni his qilish tuyg'ularini parvarishlashga qodir bo'la olmaydi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida ham, boshlang'ich sinflarda ham, hatto o'rta maktabning 5-7-sinflarida ham adabiyot darslari mundarijasini, asosan, bolalar adabiyoti namunalari tashkil etadi".

XX asr boshlarida o'zbek ma'rifatparvar ziyolilari Saidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat singari ijodkorlar o'zbek bolalar adabiyotiga xos o'quv-qo'llanmalar, alifbe kitoblari, risolalar yaratish orqali o'quvchi yoshlarni savodli qilishga o'z ulushini qo'shganlar.

Jadidchilik harakati va o'zbek milliy ma'rifatchilik g'oyalari bilan bolalar adabiyotiga ham o'z hissasini qo'shgan Hamza Hakimzoda Niyoziyning bolalar uchun yozilgan she'rlari, didaktik hikoyalari, qissalari ham alohida diqqatga sazovordir. Maktab va ma'rifat targ'iboti, o'z davrida Hamzaning ijodiy dasturlaridan biri edi. Adabiyotshunos olim Ulug'bek Dolimov Hamza Hakimzodaning tarjimai holi va yozib qoldirgan xatlariga tayanib shunday yozadi: "Hamza 1910-yilda Toshkent shahrida amaliy faoliyatga kirishib, Qashqar mahallasida birinchi marta usuli jadid maktabini ochadi. Bu davrda u Toshkentda Turkiston jadidchilik harakatining rahbari Munavvarqori Abdurashidxon o'g'li va uning atrofidagi shogirdlari usuli jadid muallimlari aka-uka Shokirjon va Sobirjon Rahimiylar, Sami' qori bilan yaqindan hamkorlik qiladi". Hamza 1911-yilda Qo'qon shahrida ham shunday maktab ochadi ammo chor ma'muriyatining ta'qibi bilan yopiladi. Shuningdek, U.Dolimov Hamzaning 1914-yilda dastlab Marg'ilonda, so'ngra takror Qo'qonda yo'qsil, yetim bolalar uchun bepul maktab ochgani va uzoqqa

bormay, sababsiz tintuv bilan yopilgani haqida ham e'tirof etadi. Hamza o'zbek xalqining salohiyatini oshirish, savodini o'stirish uchun o'zi ochgan maktablarda o'quvchilar uchun "Yengil adabiyot", "O'qish kitobi" (1914) va "Qiroat kitobi" kabi o'quv qo'llanmalar yaratadi. Xususan, "Yengil adabiyot" (1-sinf talabalari uchun maxsus) ushbu darslikda ; "Maktab xususinda", "Ilm va johil xususinda", "Olim va johil haqida", "Ilm haqida", "To'g'riso'z bola", "Ota nasihatining natijasi", "Qimorning boshi" "O'quv", "Qalam" "Kitob" "Ilm ista" "Toshbaqa birla chayon", "Bolaning yomon bo'lmog'iga sabab bo'lgan onaning jazosi" kabi she'rlari va she'riy hikoyalari o'rin olgan. Shuningdek, "O'qish kitobi" qo'llanmasida; "Bir aqlli maktab bolasining o'z o'zicha domlasining qilgan tarbiyalari yodiga tushib, fikrlanib degan so'zlari", "Ul aqlli bola atosini ham qilgan tarbiya va shavqatlarini yod etib, degan so'zlari", "Ul aqlli bolaning mushfiqa onasi uchunda qilgan tashakkurlari", "Maktabda o'quvchi ziyrak Qosimning ahmoq valiga bergan javobi", "Ibrohim degan bir maktab bolasini o'z aqli bila gadodan hol so'rab, ibrat olgani" kabi she'riy qissalari, "Qiroat kitobi" (2-sinf talabalari uchun) kitobida esa axloq, kibr, tavoze, baxillik, saxiylik, kizb, sidq, zulm, rahm haqida va uchta hikoya o'rin olgan. Qolaversa, shoir "Mevalar mojarosi" she'rida (O'ruk, gilos, olucha) haqida ham bolalarga yodda qolarli tarzda va qiziqarli shaklda ma'lumot beradi.

"O'qudim, chiqdi savodim ham xatim yaxshi bo'lub,
G'ayratimga yarasha ishlar mango qildi qalam.

Harna kim yozmish qalam so'zidin also chiqmadim,
Ul mani ham aytganim axir bajo qildi, qalam.

Shoir bolalarni maktabga qiziqtirish, o'quv qurollariga havas uyg'otish, qolaversa, limning xosiyatini teran idrok etishga undaydi. Yosh lirik qahramon tilidan "Bor edi ko'nglumda bo'lmoq podsholik orzu, o'tmadi fursat bu hojatim ravo qildi qalam. Bir gadoni o'g'li erdim podsho qildi qalam", – deya uning sifatini oshiradi. Natijada insonning jamiyatdagi o'rni, dunyoga kelishdan murodi, istiqboli hamda umr mazmuni ilmga bo'lgan munosabatiga bog'liqligi anglashiladi".

Maktab bizni yorimiz,
Suyguli g'amxorimiz.
Xulqu adab o'rgatub,
Tuzar sharmu orimiz.

Maktab kelsak o'zimiz,
Ochar g'aflat ko'zimiz,
Harom, halol tonutur
Yaxshi o'tar ro'zimiz.

"Maktab xususinda" nomli ushbu she'rida ijodkor bolalarga avvalo maktab o'quvchilarga nima uchun kerakligini, ta'limning vazifasini oson va sodda shaklda tushuntirib beradi. Maktab nafaqat bilim balki, tarbiya beruvchi maskan sifatida ham talqin etilgan. "Xulq", "Adab", "Sharmu or" kabi so'zlar o'zbek millatining chin axloqiy qadriyatlarini anglatadi.

Bizga Haq bergan ulug' ne'mat erur ustodimiz,
Ko'zimiz nuri, tanimiz jonidir ustodimiz.

O'ylasak, bizning erurlar chin atomiz shul kishi,
Chunki bizga bilmaganni bildirur ustodimiz.

Ijodkor ushbu misralari orqali o'zbek xalqi uchun azaldan "Ustoz otangday ulug'" iborasini she'riy shaklda ifoda etgan desak, xato bo'lmaydi.

Olim bo'lsak dunyoda,
Kelur har ish bunyoda,
Biz ham suv ostin kezib,
Ham ucharmiz havoda.

Johil qolsak dunyoda,
Xo'rlik kelur ziyoda,
Hayvon kabi yuk tashub,
Cho'l kezarmiz piyoda.

Xulosa. Hamza ijodining mazmun-mohiyati, bu avvalo ma'rifatparvarlik, ta'limga urg'u berish va jaholatga qarshi kurashish edi. Jadidchilik tamoyillari asosida yozilgan yuqoridagi ijod na'munalari maqsad va vazifasi jihatidan bolalarni ilmga, vatanparvarlikka hamda axloqiy qadriyatlarga yo'naltirishga, o'quv qo'llanmalari orqali yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga, ularni zamonaviy bilimlarga intilishga undashga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov.O. Oliy o'quv yurtida "Bolalar adabiyoti" fani muammolari // Til va adabiyot ta'limi, 1994.
2. Ulug'bek Dolimov. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2004.
3. Bashorat Jamilova. O'zbek bolalar adabiyoti. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2019.
4. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Saylanma. Zamon ichra. She'riy asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at" nashriyoti, 1989. 117-b.

Shohsanam TURSUNOVA,
Navoiy davlat universiteti tayanch doktoranti

XAYRIDDIN SULTONOV ASARLARIDA LEKSIK TAMOYILLAR

Annotatsiya: maqolada yozuvchi Xayriddin Sultonning o‘z asarlarida leksik birliklardan qay yo‘sinda foydalanishi, zamonaviy texnologiyalarning kirib kelishi natijasida tilshunoslikda yuz berayotgan o‘zgarishlar ochiqlanadi. Yozuvchi qissalaridagi so‘z qo‘llash borasidagi o‘ziga xosliklar va ularning amaliy ahamiyati, tilshunoslikdagi roli va qiymati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *globallashuv, tik-tok, leksik birlik, sun’iy intellekt, pragmatika, diskurs, tamoyil.*

Annotation: the article reveals how the writer Xayriddin Sulton uses lexical units in his works, and the changes taking place in linguistics as a result of the introduction of modern technologies. The distinctive features of word usage in the writer’s novellas and their practical significance, role and value in linguistics are analyzed.

Key words: *globalization, tik-tok, lexical unit, artificial intelligence, pragmatics, discourse, principle.*

Аннотация: в статье раскрывается то, каким образом писатель Хайриддин Султон использует лексические единицы в своих произведениях, а также изменения, происходящие в языкознании в результате проникновения современных технологий. Анализируются особенности употребления слов в повестях писателя и их практическое значение, роль и ценность в языкознании.

Ключевые слова: *глобализация, тик-ток, лексическая единица, искусственный интеллект, прагматика, дискурс, принцип.*

Kirish. Bugungi globallashuv va madaniy xilma-xillik sharoitida milliy adabiy tafakkur, badiiy til va uslub masalalari dolzarb mavzulardan biri sifatida qaralmoqda.Zamonaviy lingvistikaning leksikologiya yo‘nalishida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning kuchayib borayotganini yaqqol ko‘rsatmoqda. Leksik qatlam – bu tilning eng harakatchan, eng tez yangilanadigan darajasi bo‘lib, ijtimoiy-siyosiy, texnologik va madaniy jarayonlar natijasida u doimiy o‘zgarishda bo‘ladi. Ayniqsa, globallashuv, internet texnologiyalari, mass-media vositalarining kengayishi ta’sirida til leksikasi yangi birliklar bilan boyimoqda. Bugungi kunda leksik tizimga yangi tushuncha va realiyalarni ifodalovchi neologizmlar faol kirib kelmoqda. Ular asosan texnologiya, iqtisodiyot, madaniyat, siyosat va ijtimoiy hayot bilan bog‘liq. Masalan: bloger, onlayn, karantin, vaksinatsiya, digital, startap, target, AI (sun’iy intellekt) kabi so‘zlar zamonaviy lug‘at boyligini kengaytirmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarning keng ommalashuvi tufayli ya’ni, Telegram, Instagram, TikTok kabi platformalarda keng qo‘llanilayotgan leksik birliklar (masalan, like, repost, vibes, prank, story, ban qilmoq, trendga chiqmoq) kundalik nutqqa kirib bormoqda. Bu esa zamonaviy leksik taraqqiyotning dinamikligini ifodalaydi. Yana bir muhim o‘zgarish – bu so‘zlarning ma’no ko‘lamining kengayishi yoki torayishi. Masalan, ilgari “tarmoq” so‘zi faqat elektr yoki suv tizimi bilan bog‘liq bo‘lsa, hozirda u ijtimoiy tarmoq, raqamli tarmoq kabi ko‘p ma’noli birlikka aylangan. Yoki “kanal” so‘zi YouTube kanali, Telegram kanali ko‘rinishida yangi kontekstlarga ega bo‘lgan. Zamonaviy adabiy til va ijodiy matnlarda xalqona, hatto so‘zlashuvga xos, dialektal, kinoyali birliklarning stilistik imkoniyatlariga murojaat qilish kuchaymoqda. “Bugungi adabiy til, ayniqsa, badiiy matnlar stilistikasida xalqona, ekspressiv va ba’zan vulgar leksik birliklarga murojaat qilish – bu estetik yondashuvdir, ammo ehtiyotkorlik bilan bajarilishi kerak.” Umuman olganda, bugungi leksika taraqqiyoti – bu global, kommunikativ va madaniy jarayonlarning bevosita aksidir. Tilning leksik qatlamidagi bu o‘zgarishlar adabiyot, matbuot, ijtimoiy tarmoqlar va kundalik og‘zaki nutqda hattoki bugungi zamonaviy adabiyotda ham aks etmoqda. So‘nggi yillarda tilshunoslik fanida kuzatilayotgan taraqqiyotlar tilga bo‘lgan qarashlarni tubdan o‘zgartirmoqda. Ilgari asosan strukturaviy va normativ yondashuvlar ustun bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi zamonaviy lingvistika tildagi ijtimoiy, psixologik, kognitiv va kommunikativ jarayonlarni ham izchil o‘rganishga yo‘naltirilgan. Shu boisdan hozirgi tilshunoslik fanida quyidagi asosiy tendensiyalar ajralib turadi:

- Fanlararo yondashuvning kuchayishi. Tilshunoslik bugun psixologiya, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, informatika fanlari va sun’iy intellekt bilan integratsiyada rivojlanmoqda. Bu esa tilni inson tafakkuri, ruhiy holati, jamiyatdagi mavqeyi asosida o‘rganish imkonini beradi.
- Pragmatik va diskursiv yondashuvlarning ustuvorligi. Tilga faqat strukturaviy jihatdan emas, balki kontekstga bog‘liq, ma’no yaratishdagi faol vosita sifatida yondashish kuchaymoqda. Shu bois diskurs tahlili, pragmatik tahlil kabi yo‘nalishlar o‘zining mustahkam mavqeyini egallamoqda.
- Korpus lingvistikasi va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish. Bugungi tilshunoslikda korpus metodlari, ya’ni yirik matnlar majmuasi asosida til hodisalarini statistik va kontekstual tahlil qilish metodlari keng qo‘llanilmoqda. Bu metod yozuvchi til uslubini keng ko‘lamda, empirik dalillar asosida tahlil qilish imkonini beradi.
- Kognitiv yondashuvning rivojlanishi. Til inson tafakkurining in’ikosi sifatida ko‘rilmoqda. Kognitiv lingvistika inson qanday fikrlaydi, qanday tasavvur qiladi, qanday ma’no hosil qiladi - degan savollarga til orqali javob topishga urinadi. Xususan, metaforalar, tushunchaviy xaritalar, semantik to‘rlar bu yondashuvning asosiy obyektlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Til – bu xalq tafakkurining o‘zagi, milliy o‘zlikning, mustaqillik va taraqqiyotning mustahkam poydevoridir.” Yurtboshimizning ushbu yo‘nalishdagi fikri bugungi tilshunoslikda milliylik, tafakkur va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqur anglashga undaydi. O‘zbek adabiy tilining boyligi, ifoda imkoniyatlari ayniqsa badiiy asarlarda, xususan, qissalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda yozuvchining individual til estetikasi, leksik boyligi va stilistik mahorati matnning badiiy

qiymatini belgilaydi. Shunday ijodkorlardan biri – Xayriddin Sultonov bo‘lib, u o‘zining qissachilikdagi sermazmun, emotsional va xalqona tili bilan zamonaviy adabiyotda muhim o‘rin egallaydi. Xayriddin Sultonovning asarlarida xalq tiliga yaqin, obrazli, ifodali va jo‘shqin nutq uslubi kuzatiladi. U ko‘p hollarda og‘zaki nutq elementlari, noadabiy qatlamga oid leksik birliklar, folklor uslublari, iboralar va konnotativ ma’noli so‘zlar orqali o‘quvchida chuqur badiiy ta’sir uyg‘otadi. Bu holat yozuvchi uslubining stilistik va pragmatik jihatdan o‘rganilishini talab qiladi. Xayriddin Sultonovning qissalarida badiiy til vositalarining qo‘llanilishi leksik-stilistik jihatdan yuqori darajada mukammallik kasb etadi. Adib o‘z asarlarida sinonimlar, antonimlar, frazeologizmlar, noadabiy qatlamga oid birliklar, xalqona iboralar, kinoyaviy ifodalar va metafora, metonimiya, sinekdoxadan mahorat bilan foydalanadi. Bu holat obrazlar tafakkurini yuksak darajada ifodalash, ularni jonli va tabiiy yaratish imkonini beradi. Ayniqsa, xalq ruhiyatini, milliy xarakterni berishda leksik birliklarning tanlovi va joyida qo‘llanilishi e’tiborga molik. Yozuvchining tiliga xos bo‘lgan stilistik vositalar personajlarning ichki holatini, ijtimoiy mavqeyini, muhit bilan bog‘liqligini aniqlashda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Jumladan, tahlil qilingan qissalarda muallif turli sathdagi obrazlar uchun turlicha nutq uslubini tanlaydi. Bu esa tilning kommunikativ imkoniyatlarini samarali ochishga yordam beradi. Masalan, qahramonlar nutqidagi leksik tanlov ularning tafakkur darajasi, tarbiyasi va dunyoqarashini aks ettiradi.

Xayriddin Sultonov ijodida pragmatik omillar – ya’ni til vositalari orqali ma’lum kommunikativ maqsadga erishish tamoyili ustuvor o‘rin tutadi. Yozuvchi so‘z tanlashda nafaqat estetik, balki psixologik va muloqotga oid nuqtayi nazarlarni hisobga oladi. Asarlardagi dialoglar, ichki monologlar, to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaatlar pragmatik maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lib, ular o‘quvchiga kuchli ta’sir o‘tkazadi, muallif pozitsiyasini sezdiradi.

Xayriddin Sultonov qissalaridagi noadabiy qatlamga oid leksik birliklar (so‘zlashuv uslubidagi, vulgar, jargon va dialektal birliklar) badiiy maqsadga yo‘naltirilgan holda qo‘llanadi. Bu birliklar faqatgina “odatiy so‘zlar” sifatida emas, balki obrazning ijtimoiy tabiati, muhit va zamon ruhi bilan uyg‘un bo‘lgan holda ishlatilgan. Shuning uchun bu birliklar stilistik yuklama va semantik ohangda muhim vositaga aylangan.Xayriddin Sultonning til masalasida talabchanligi uning har bir jumla va so‘zga nisbatan o‘ta jiddiy, ehtiyotkorlik bilan yondashishida ko‘rinadi. Yozuvchi qissalarida ortiqcha tafsilotlar uchramasligi, ularning uzundan-uzoq izohlar, jimjimadorlik va balanparvozlikdan xoliligi, jumlalarning ixcham, aniq, ravon tuzilgani, sodda bayon orqali teran ma’no, purhikmat fikrlar ifodalanishi uning badiiy tildan mahorat bilan foydalangani tufaylidir. Adib hikoyalarining tili har birining mavzuyi (oilaviy-maishiy, ijtimoiy-axloqiy, tarixiy va hokazo), ohangi (lirik, tragik yoki hajviy ruhda ekani), qahramonlar xarakteriga mos ravishda alohida tovlanib turadi. Yozuvchining o‘zi ham til jozibasi va sehriga shu qadar berilib ketadiki, ba’zan muallif nutqi bilan qahramon nutqi bamisoli musobaqaga kirishgandek bo‘ladi. Uning ilk hikoyalar to‘plami nashr etilganidayoq adabiy jamoatchilik o‘zbek nasriga lutfi kalomi shirin, tilni mukammal egallashga intilayotgan yosh ijodkor kirib kelganini ta’kidlagan edi. U haqda: ”Iliq, sof bir muhabbat bilan, butun yurak haroratini berib yozadi. ”Yozadi” so‘zi yosh adibga nisbatan qo‘llanganda xiyla g‘arib ko‘rinadi, nazarimizda... Har qalay, Xayriddin Sulton asarlarida so‘z, jumlalar joylashuvi maqsadga shunchalik muvofiq tanlangan, o‘rni-o‘rniga qo‘yilgan bo‘ladiki, siz ba’zan badiiy asar o‘qiyotganingizni ham unutib qo‘yasiz. So‘zlar, iboralar, jumlalar ko‘z o‘ngingizda aniq predmet va obrazlar qiyofasiga kira boradi”[1], degan fikr bildirilgan edi.

Xulosa qilib aytganda, Xayriddin Sulton uchun so‘z nafaqat bayon etish, balki asosan manzara chizish, tasvirlash, ko‘rsatish vositasidir. Uning asarlarida so‘z o‘zgacha bir sehr-u jozibaga ega. Bu yozuvchining so‘zni aniq his qilishi, uning bor poetik imkoniyatlaridan badiiy maqsad yo‘lida barakali foydalanishga intilishidandir. Tarjimon Nizom Komil bu haqda quyidagicha fikr bildirgan edi: ”Uning Bobur Mirzoga bag‘ishlangan esselarini ham, hikoya va qissalarini ham adabiyotimizning, xususan, prozamizning go‘zal namunalari safiga qo‘shsak, hech kimning haqqi ketmaydi. Ularda qalb harorati bor, dard bor, kishini o‘ziga jalb etadigan nafosat va joziba bor. Xo‘sh, Xayriddin bunga qanday erishdi? Albatta, So‘z orqali-da. Yozuvchining o‘rog‘i ham, ketmoni ham – so‘z. So‘zning o‘zi Xayriddinning ortidan ergashib yuradi, meni ishga buyuring, deb etagiga yopishib oladi”.

”Badiiy asar tili sof, sodda, samimiy, mardona bo‘lishi kerak. Buning talablari juda ko‘p, lekin adib avvalambor jonli xalq tilini, mumtoz adabiyotimiz tilini har tomonlama chuqur bilishi zarur, deb hisoblayman”, deya fikr bildirgan X.Sultonning qissalarida ayni shu xususiyatlarni kuzatish mumkin.

1 70–80-yillar hikoyanavisligida yangi badiiy tamoyillar (Xayriddin Sulton hikoyalari misolida). – Toshkent

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.464-bet.
2.Yuldosheva M. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2022.115-bet.
3.Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: Akademnashr, 2008.320-bet.
4.Mahmudov N. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2013.320-bet.
5.Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili. – Toshkent: Fan, 2007.248-bet.
6.Sultonov X. Ko‘ngil ozodadur. Yozning yolg’iz yodgori. Saodat sohili. – Toshkent: Sharq, 2018.488-bet.
7.Austin J.L. How to Do Things with Words. – Oxford: Oxford University Press, 1962. – 168 p.
8.Grice P. Studies in the Way of Words. – Cambridge: Harvard University Press, 1989. – 394 p.
9.Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Use. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987.345 p.
10.Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 1969. – 203 p.

Sanjar SAMADOV,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek adabiyoti yo‘nalishi
tayanch doktoranti

XAYRIDDIN SULTON IJODIDA MILLIY QADRIYATLAR VA GLOBAL JARAYONLAR TALQINI

Annotatsiya: mazkur ishda Xayriddin Sulton ijodida milliy qadriyatlar va global jarayonlar talqini tahlil qilinadi. Adib asarlarida o‘zbek xalqining urf-odatlari, an’analari, ma’naviy merosi va milliy o‘zligi badiiy obrazlar orqali yoritilishi bilan birga, zamonaviy globallashuv jarayonlarining inson tafakkuri va jamiyat hayotiga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqotda yozuvchi ijodida milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligi, qadriyatlarning saqlanishi hamda yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashuvi masalalari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, asarlarda milliy ruh va global tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, ularning badiiy talqini va g‘oyaviy ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *Xayriddin Sulton, milliy qadriyatlar, globallashuv, badiiy talqin, o‘zbek adabiyoti, ma’naviyat, an’ana, zamonaviylik, milliy o‘zlik, umuminsoniylik.*

Аннотация: в данной работе анализируется интерпретация национальных ценностей и глобальных процессов в творчестве Хайриддина Султана. В произведениях писателя через художественные образы раскрываются традиции, обычаи, духовное наследие и национальная идентичность узбекского народа, а также освещается влияние современных процессов глобализации на мышление человека и жизнь общества. В исследовании рассматриваются вопросы гармонии национального и общечеловеческого, сохранения ценностей и их адаптации к новым социально-культурным условиям. Также анализируются взаимосвязи между национальным духом и глобальным мышлением, их художественная интерпретация и идейное значение.

Ключевые слова: *Хайриддин Султан, национальные ценности, глобализация, художественная интерпретация, узбекская литература, духовность, традиция, современность, национальная идентичность, общечеловеческие ценности.*

Annotation: this paper analyzes the interpretation of national values and global processes in the works of Khayriddin Sultan. The writer’s works depict the traditions, customs, spiritual heritage, and national identity of the Uzbek people through artistic images, while also highlighting the impact of modern globalization processes on human thinking and social life. The study examines the harmony between national and universal values, the preservation of traditions, and their adaptation to new socio-cultural environments. Furthermore, it explores the relationship between national spirit and global thinking, as well as their artistic interpretation and ideological significance.

Key words: *Khayriddin Sultan, national values, globalization, artistic interpretation, Uzbek literature, spirituality, tradition, modernity, national identity, universal values.*

Kirish. O‘zbek adabiyoti taraqqiyotida Xayriddin Sulton ijodi alohida o‘rin tutadi. Uning asarlarida milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalqona ruh chuqur badiiy ifoda topgan bo‘lib, ayni paytda zamonaviy globallashuv jarayonlarining inson hayotiga ta’siri ham yoritiladi. Shu jihatdan adib ijodi milliylik va zamonaviylik uyg‘unligini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

Adib asarlari pishiq va puxtaligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton adabiyotga o‘tgan asrning 70-yillarida kirib keldi. Adib adabiyotimizga yangi mavzular, yangi qahramonlar olib kirdi, uning personajlari nihoyatda tabiiyligi, hayotiyligi, milliyligi va zamon bilan makonning uzviyligi bilan ajralib turadi. Xayriddin Sulton qissalarida insonning qalb kechinmalari, ruhiy tug‘yonlari milliylikka yo‘g‘rilgan holda tasvirlanadi. Adib o‘z oldiga insonning qalb kechinmalarini, qalb sirlarini yechishni maqsad qilib qo‘yadi. Personajlar haqida so‘zlar ekan, ular haqida, ularning hayoti haqida batafsil hikoya qilish yo‘lidan bormaydi, balki qahramonlar boshidan kechirgan eng murakkab vaziyatni yoki mana shu vaziyatga daxldor voqeani oladi va shu asosda xarakter yaratadi. Ularning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari psixologik jihatdan asoslanadi, personajlar nutqi shunday mahorat bilan beriladiki, kitobxon beixtiyor qahramonlarning samimiyligiga ishonadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Xayriddin Sultonning “Onamning yurti” nomli qissa va hikoyalar to‘plamidan joy olgan “Ajoyib kunlarning birida” qissasi o‘zining syujet chizig‘i, qahramonlarning sodda va dilkash tasviri bilan milliy va boy ruhdagi ahamiyatga egadir. Asar O‘zbekiston xalq artisti Botir Zokirov xotirasiga bag‘ishlanadi. Qissaning boshlanishidan ham o‘zgacha ruh seziladi: Bu voqea ajoyib kunlarning birida ro‘y berdi. Ochig‘ini aytganda, bu kunni u qadar ajoyib deb bo‘lmasdi: havo sovuq, yer balchiq, yo‘l-yo‘lkalar shilta-shalabbo, samolyotga bilet yo‘q, “Paxtakor” birinchi ligaga tushib ketgan... Lekin bari bir bu ajoyib bir kun edi: odamlar shoshib ishga borar, maydonlarda gala-gala kaptar o‘ynar, do‘konlarda savdo chaqqon, radiodan Munojot “Munojot”ni qarsillatib aytib turar,

namchil xiyobonlarda shamsiya tutgan oshiqlar ohista kezardi. Qissada Sulton, Abdulla va Kamolning Nozim Qodirov (Botir Zokirov)ning uyiga borishi, ular birgalikda hayotdan, uzoq bolalik kunlardan so‘z ochishlari, adabiyot va san’at haqidagi qizg‘in suhbatlari juda ta’sirli ifoda etilgan. Hofizning umri poyoniga yetar chog‘ida ohanglari, so‘zlari butunlay yangicha ruhda qo‘shiq aytishni niyat qilganligini aytgan o‘rinlari, Navoiyni umrining kuzida teranroq anglagani, hatto bir g‘azalini o‘qib berib, undan nechog‘lik Sezyapsizmi? Nigohi qanchalar o‘tkir, teran ekan Navoiyning! Axir, bu butun boshli bir kuz simfoniyasi-ku! Rangga ko‘chirilsa, qanday g‘aroyib manzara bo‘ladi. Bir urinib ko‘rmoqchiman. “Bir xazonlig‘ bog‘ ichinda” deb qo‘yaman nomini…

Muhokama. Xayriddin Sulton adabiyotimizdagi sifat o‘zgarishlarini qissalariga mohirona o‘tkazgan. Hayotdagi yangilanishlarni darhol aks ettirishga ahamiyat beradi. Qahramonlar fitratini mukammal yoritish, turli sinovlarda toblanishini asoslash ma’suliyatini orttiradi. Kitobxon e’tiboriga havola etilayotgan qissalar g‘oyaviy, falsafiy mohiyati turlicha. Davrdagi holat-u vaziyatini aks ettirishda tasvirni axloqiy-ma’rifiy masalalarga yo‘naltirishga ahamiyat beradi. “Ajoyib kunlarning birida” qissasi kompozitsiyasida o‘rni bilan Sulton xayolot olamiga rakurs uyushtirilishi uning ma’naviy qiyofasini to‘ldirib boradi. Yozuvchi qahramon ong ostidagi nozik tebranishni shu tarzda taqdim etar ekan, Sulton tafakkuridagi o‘zgarishlar, e’tiqoddagi ziddiyat, taqdir saboqlarini izchil tahlil qiladi. Ko‘rinadiki, Sulton siyrati o‘tmish-hozir tarzida tasvirlab boriladi. Ijodkor millatning urf-odat va an’analarini talqin etish orqali kitobxonda o‘zbek kishisi haqida yaxlit tasavvur hosil qiladi. Inson hayotini barcha murakkabliklari ila tasvirlash oson emas. Uning ruhiyatini, sa’y-harakatini aniq ifodalashda, asoslashda yozuvchi zarur ibora, so‘zni qo‘llash lozim. Qissalar poetikasi misralar ma’no ko‘lamdorligi, fikrlar mantiqiy izchilligi, ifoda qisqa va lo‘ndaligi, jumla jarangdorligi e’tiborni tortadi. Adib kishi tuyg‘ulari, emotsiyalarini his qildirishga, bunda unga muvofiq ohangni ham tanlashga erishiladi. Qissalarda inson tuyg‘ulari, tushlari, quvonch-u zahmatlari, kechinmalarini ifodalashda zarur so‘z, iborani qo‘llash, hodisaning biror lahzasini muhrlash badiiyatini oshiradi. Muallif voqelikni jonli, ta’sirli ifodalashda har bir lavha, holatni puxta o‘rganib, fikrini tizimli ifodalashga e’tibor qaratadi.

Natijalar. Xayriddin Sulton asarlarida milliy qadriyatlar, avvalo, xalqning turmush tarzi, urf-odatlari, oilaviy munosabatlari va ma’naviy qarashlari orqali ochib beriladi. Yozuvchi qahramonlari orqali o‘zbek xalqiga xos mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi fazilatlarni yuksak darajada tasvirlaydi. Bu esa milliy o‘zlikni saqlash va uni kelajak avlodga yetkazish g‘oyasini mustahkamlaydi. Adib ijodining yana bir muhim jihati — global jarayonlarga munosabatdir. Bugungi kunda globallashuv turli madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirib, yangi ijtimoiy muhitni yuzaga keltirmoqda. Xayriddin Sulton asarlarida bu jarayonlar inson ruhiyati, qadriyatlar tizimi va jamiyat taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatishi badiiy talqin etiladi. Yozuvchi ayrim hollarda globallashuvning ijobiy jihatlarini e’tirof etsa-da, milliy qadriyatlarning yo‘qolib borish xavfi haqida ham ogohlantiradi. Shuningdek, adib asarlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar o‘rtasidagi uyg‘unlik masalasi alohida o‘rin egallaydi. U milliylikni tor doirada emas, balki umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq holda talqin etadi. Bu esa asarlarning g‘oyaviy-badiiy qimmatini yanada oshiradi va ularni keng kitobxonlar ommasi uchun tushunarli qiladi.

Xulosa. Xayriddin Sulton ijodida milliy qadriyatlar va zamonaviylik o‘rtasidagi uyg‘unlik muhim o‘rin tutadi. Yozuvchi an’anaviylikni saqlagan holda, uni zamonaviy shakllar va konsepsiyalar bilan boyitadi. Bu, o‘z navbatida, o‘zbek adabiyotida yangi badiiy til va uslubni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, uning qahramonlari nafaqat an’anaviy qadriyatlarni himoya qiladilar, balki zamonaviy muammolarni hal etishda ham faollik ko‘rsatadilar. Bu esa o‘quvchiga milliy va global dunyo o‘rtasida ko‘prik qurish imkonini beradi.

Xayriddin Sulton asarlari milliy qadriyatlar va zamonaviylik masalalarini badiiy jihatdan muvaffaqiyatli yoritgan. Uning ijodi o‘zbek adabiyotida yangi yo‘nalishlarni belgilab berdi, milliylikni zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirishning namunasi bo‘ldi. Shu sababli uning asarlari nafaqat badiiy, balki madaniy va falsafiy ahamiyatga ham ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sulton, Xayriddin. Tanlangan asarlar. – Toshkent: O‘zbek davlat nashriyoti, 2018.
2. Aliyev, M. “Milliy qadriyatlar va zamonaviylik masalalari XX asr o‘zbek adabiyotida.” *Adabiyot va san’at* jurnal, 2020, №4, 45-52-betlar.
3. Karimova, D. **“**Xayriddin Sulton ijodida milliylik va zamonaviylik uyg‘unligi.” *O‘zbekiston adabiyoti* jurnali, 2022, №2, 33-40-betlar.
4. To‘xtayev, J. O‘*zbek adabiyotida zamonaviylik muammolari.* – Toshkent: Fan, 2019.
5. Qodirov, N**.** “Milliy qadriyatlarning badiiy ifodasi.” *Til va adabiyot* jurnali, 2021, №1, 12-20-betlar.
6. Ergashev, S. “Zamonaviy o‘zbek nasrida milliylik va globallashuv.” *Adabiyotshunoslik masalalari*, 2023, №3, 22-29-betlar.
7. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIIY TALQINLARI. *IMRAS*, *7*(6), 56–60.

Mu’tabar XO‘JAMOVA,
NavDU O‘zbek tili kafedrasi tayanch doktoranti
xojamovamotabar@gmail.com

TILAK JO‘RA ASARLARIDA O‘ZLASHMA SO‘ZLAR QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida fitonimikaning o‘rni, uning onomastikaning muhim bo‘limi sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Tilak Jo‘ra ijodida uchraydigan fitonimlar etimologik va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ushbu birliklarning kelib chiqishi, fonetik taraqqiyoti hamda badiiy matndagi funksional yuklamasi aniqlanadi. Fitonimlarning nafaqat biologik, balki madaniy va ramziy ma’nolarni ifodalashdagi o‘rni ham asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: *fitonimika, onomastika, leksik qatlam, o‘zlashma so‘z, turkiy qatlam, forscha-tojikcha qatlam, etimologiya.*

Аннотация: в данной статье описывается роль фитонимики в узбекском языкознании, ее значение как важной части ономастики. Этимологический и семантический анализ фитонимов, встречающихся в произведениях Тилака Джоры. В процессе исследования определяются происхождение, фонетическое развитие и функциональная нагрузка этих единиц в художественном тексте. Обоснована роль фитонимов в выражении не только биологического, но и культурно-символического значения.

Ключевые слова: *фитонимика, ономастика, лексический слой, заимствованное слово, тюркский слой, персидско-таджикский слой, этимология.*

Annotation: this article describes the role of phytonymics in Uzbek linguistics, its importance as an important part of onomastics. Etymological and semantic analysis of phytonyms found in Tilak Jora’s works. In the process of research, the origin, phonetic development and functional loading of these units in the artistic text are determined. The role of phytonyms in expressing not only biological, but also cultural and symbolic meanings was justified.

Key words: *phytonymics, onomastics, lexical layer, borrowed word, Turkic layer, Persian-Tajik layer, etymology.*

Kirish. Fitonimika tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘simlik nomlarini o‘rganishga ixtisoslashgan. U onomastikaning tarkibiy qismi sifatida o‘zining aniq tadqiqot obyekti va metodologik asoslariga ega. Fitonimlar tilning leksik qatlamida muhim o‘rin tutib, ular orqali nafaqat tabiat hodisalari, balki xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi va milliy tafakkuri ham o‘z ifodasini topadi.

O‘zbek tilidagi fitonimlar tarkiban rang-barang bo‘lib, ular orasida asl turkiy birliklar bilan bir qatorda boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar ham mavjud. Bunday qatlamlilik til taraqqiyoti jarayonini, xalqlararo madaniy aloqalarni hamda semantik o‘zgarishlarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Ayniqsa, fitonimlarning etimologik tahlili ularning dastlabki ma’nosi, fonetik taraqqiyoti va semantik kengayishini aniqlash imkonini beradi.

Badiiy adabiyotda fitonimlar alohida estetik vazifa bajaradi. Ular tasviriy vosita sifatida muallifning badiiy niyatini ifodalash, obraz yaratish va hissiy-ta’siriylikni kuchaytirishda xizmat qiladi. Shu jihatdan, zamonaviy o‘zbek she’riyatida fitonimlarning qo‘llanishini o‘rganish dolzarb masalalardan biridir.

Metodologiya. Tadqiqotda tavsifiy (deskriptiv), kontekstual tahlil hamda etimologik metodlar qo‘llandi. Tilak Jo‘ra she’riyatidan fitonimlar ajratib olindi, ularning kelib chiqishi tahlil qilindi. So‘zlarning poetik kontekstda qo‘llanishi matn tahlili orqali aniqlanib, o‘zlashma va turkiy qatlamga mansubligi belgilandi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur maqolada Tilak Jo‘ra ijodida uchraydigan fitonimlar lingvistik, etimologik va semantik jihatdan tahlil qilinadi:

Ajriqning yulduzli tolasin tishlab,
Yonboshlab yotganimni ko‘rgani…

Ajriq boshoqdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik, ildizpoyali yovvoyi o‘simlikdir. U asosan yer bag‘irlab o‘sadi, vegetativ yo‘l bilan tez tarqaladi va qurg‘oqchilikka chidamliligi bilan ajralib turadi. Lingvistik jihatdan asl turkiy so‘z bo‘lib ildizidan tarmoqlanib yer bag‘irlab o‘sadigan yovvoyi o‘t. Boshoqdoshlarga mansub ko‘p yillik serildiz yovvoyi (begona) o‘t. “Devoni lug‘atit-turk”da bu ot asli qadimgi turkiy tildagi “ajrat” “farqla” ma’nosini anglatgan **azir-** fe’lidan -iq qo‘shimchasi bilan yasalgan: shundan keyin ikkinchi bo‘g‘indagi tor unli talaffuz qilinmay qo‘ygan; keyinchalik bu so‘z tarkibidagi **ѓ** undoshi **y** undoshiga, **y** undoshi o‘z navbatida **j** undoshiga almashgan; o‘zbek tilida **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan, **ы** unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan: aѓыr-+ыq=aѓыгыq>ауыгыq>ajыгыq> ajrыq>äjriq.

Semantik jihatdan bu nom o‘simlikning yer yuzasida “ajralib-ajralib” tarqalish xususiyati bilan bog‘liq deb qaraladi. Oddiy yovvoyi o‘t bo‘lishiga qaramay, she’rda u insonning tabiiy holati, soddaligi va yer bilan bog‘liqligini ifodalaydi. Bu yerda fitonim naturalistik poetika unsuri sifatida ishlatilgan.

Unga ko‘zing tushgan on
Bir bog‘ isiriq kabi
Aritsin dardingni.

Isiriq ko‘p yillik dorivor o‘simlik bo‘lib, asosan quruq hududlarda o‘sadi. Uning urug‘lari va poyalari tarkibida alkaloidlar (garmalin, garmalol) mavjud bo‘lib, antiseptik va tinchlantiruvchi xususiyatga ega. Etnografik jihatdan isiriq tutatish marosimlarda “yovuz kuchlardan himoya qiluvchi” vosita sifatida keng qo‘llanadi. Etimologik jihatdan asl turkiy so‘z bo‘lib, ko‘p yillik dorivor o‘t. Bu ot qadimgi turkiy tildagi “hid tarat” ma’nosini anglatgan is-fe’lining -(i)r orttirma qo‘shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan –(i)q qo‘shimchasi bilan yasalgan bo‘lsa kerak: (is- +ir=isir-)+iq=isiriq.

Xalqona tafakkurda poklovchi vosita sifatida qaraladi. Shoir ushbu fitonim orqali darddan forig‘ bo‘lish, ruhiy tozalanish g‘oyasini ilgari suradi. Bu holatda fitonim ritual-madaniy semantikani o‘zida aks ettiradi.

Pechakgulday chirmab dilimni,
Ochilasan quchoqlarimda.

Pechakgul chirmashib o‘suvchi, bezakbop o‘simlik hisoblanadi. U o‘zining spiral shaklda o‘suvchi poyalari bilan boshqa o‘simliklarga o‘ralib rivojlanadi. So‘z tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, *pechak* va *gul* otlaridan tarkib topgan: “chirmoviqqa o‘xshab o‘sadigan o‘t (karnaygul)” ma’nosini anglatadi. Chirmashib o‘suvchi o‘simlik sifatida inson tuyg‘ularining murakkabligi va ichki bog‘liqligini ifodalaydi. Bu yerda o‘simlikning biologik xususiyati bevosita psixologik holatga ko‘chirilgan.

Zarpechak chirmovida
Qolgan daraxtday
Mayin tolalar chirmovida qoldi
Umrim.

Zarpechak parazit o‘simliklar turkumiga kiradi. U xlorofillsiz bo‘lib, mustaqil fotosintez qila olmaydi va boshqa o‘simlik tanasiga yopishib, undan oziqlanadi. Uning ingichka, sarg‘ish rangli poyalari o‘simlikni to‘liq qoplab oladi. “sariq” ma’nosi bilan qatnashgan tojikcha *zar* otiga “chirmoviq” ma’nosini anglatgan *pechak* otini qo‘shib tuzilgan bo‘lib, “boshqa o‘simlik tanasiga chirmashib o‘sadigan bargsiz ingichka sariq rangli yovvoyi o‘simlik” ma’nosini anglatadi.

Zarpechak she’rda parazit o‘simlik sifatida yanada kuchli metaforik yuklama oladi. U inson hayotidagi qaramlik, bog‘lanib qolish yoki erksizlik holatini ifodalovchi obrazga aylanadi. Bu fitonim negativ konnotatsiyaga ega.

Atirgulning shoxin qayirib,
Kimdir undan nigohim yuldi.

Atirgul – atr va gulning kompozitsiyasidan hosil bo‘lgan. Atr bu arabcha so‘z **ъaṫr(un)** shakliga ega bo‘lib, o‘zbek tiliga fathali **ayn** tovushini **a** tovushiga, itqi tovushini **t** tovushiga almashtirib qabul qilingan: **ъaṫr- atr.** Bu so‘z asli “yoqimli hid taratdi” ma’nosini anglatuvchi **ъaṫra** fe’lining masdari bo‘lib, “xushbo‘y moddalardan spirtda tayyorlangan suyuqlik” ma’nosini anglatadi. Bu so‘z O‘TILda **atir** shaklida yozilgan, TjRSda, PRSda, O‘KAAQLda **atr** shaklida uchraydi; asli atr shaklida yozish to‘g‘ri, chunki atir so‘zi arab tilida atira fe’lidan hosil qilingan asliy sifat bo‘lib, “xushbo‘y” ma’nosini anglatadi, lekin **atr** so‘zi tarkibida ketma-ket kelgan undoshni talaffuz qilish noqulay bo‘lgani sababli oraga **i** unlisi kiritilgan.

Atirgul an’anaviy ravishda go‘zallik, muhabbat va nafosat timsoli sifatida qo‘llanadi. Shoir ushbu fitonim orqali estetik hissiyotlarni kuchaytiradi va obrazning emotsional ta’sirini oshiradi. An’anaviy poetik timsol sifatida go‘zallik va muhabbatni ifodalaydi. Biroq she’r kontekstida u ba’zan yo‘qotish yoki armon bilan ham bog‘lanadi. Demak, fitonimning ma’nosi kontekstga qarab kengayadi.

Bir chol isiriq tutatar:
Kunlarning binafsha nahorida,
Kunlarning binafsha shomida…

Binafsha bu ot PRSda [*bänafshe*] shaklida, TJRSda bunafsha shaklida keltirilib, “fialka” deb izohlangan. Budagov lug‘atida *banafsha* shaklida keltirilib, forscha deyilgan. Demak, forscha *bänafsha* oti o‘zbek tiliga **ä** tovushini **i** tovushiga almashtirib olingan. Binafsha asli sifat bo‘lib, keyinchalik shu rangdagi chechakni anglata boshlagan. Bu ot o‘zbek so‘zlashuv tilida *gunafsha* shaklida ham aytiladi.

Xulosa. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Tilak Jo‘ra ijodida qo‘llangan fitonimlar tilning turli qatlamlariga mansub bo‘lib, ular orqali nafaqat tabiat tasviri, balki chuqur badiiy-estetik mazmun ham ifodalanadi. Har bir fitonim o‘zida biologik belgi, etimologik tarix va milliy-madaniy ramzni mujassam etgan. Xususan, asl turkiy birliklar bilan bir qatorda tojik va arab tillaridan o‘zlashgan so‘zlar ham faol qo‘llanib, matnning leksik boyligini oshirgan.

Shuningdek, fitonimlar badiiy matnda obrazlilikni kuchaytirish, hissiy-ta’siriylikni oshirish va muallifning individual uslubini namoyon etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, fitonimlarni o‘rganish nafaqat lingvistik, balki madaniy va poetik tadqiqotlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent: Fan, 1960.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. – Toshkent: Universitet, 2000.
3. Hojiyev A. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. Tilak Jo‘ra. Saylanma. Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. –Toshkent, 2011.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildlik. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.

Nigora AXTAMOVA,
BuxDU 3-bosqich tayanch doktoranti
E-mail:axtamova.nigora@mail.ru

QARINDOSHLIK ATAMALARINING GENDER-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada qarindoshlik atamalarining gender-semantik xususiyatlari lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda turli tillardagi qarindoshlik terminologiyasining gender differensiatsiyasi, ularning semantik tuzilishi hamda madaniy-lingvistik omillarning bu atamalar shakllanishiga ta'siri o'rganiladi. Maqolada qarindoshlik atamalarining leksik-semantik guruhlari, ularning gender asosida farqlanishi va tilshunoslikdagi o'rni nazariy jihatdan yoritiladi. Tadqiqot natijasida qarindoshlik atamalarining gender semantikasi nafaqat biologik jins farqini, balki ijtimoiy-madaniy munosabatlarni ham aks ettirishi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: *qarindoshlik atamalari, gender, semantika, leksik-semantik guruh, terminologiya, lingvokulturologiya, oilaviy munosabatlar, erkak va ayol.*

Annotation: this article analyzes the gender-semantic properties of kinship terms from a linguistic perspective. The study studies the gender differentiation of kinship terminology in different languages, their semantic structure, and the influence of cultural and linguistic factors on the formation of these terms. The article theoretically sheds light on the lexical-semantic groups of kinship terms, their gender-based differentiation, and their role in linguistics. The study proves that the gender semantics of kinship terms reflect not only biological sex differences, but also socio-cultural relations.

Key words: *kinship terms, gender, semantics, lexical-semantic group, terminology, linguoculturology, family relations, man and woman.*

Аннотация: в данной статье анализируются гендерно-семантические свойства терминов родства с лингвистической точки зрения. В исследовании изучается гендерная дифференциация терминологии родства в разных языках, их семантическая структура и влияние культурных и лингвистических факторов на формирование этих терминов. В статье теоретически освещаются лексико-семантические группы терминов родства, их гендерная дифференциация и их роль в лингвистике. Исследование доказывает, что гендерная семантика терминов родства отражает не только биологические половые различия, но и социокультурные отношения.

Ключевые слова: *термины родства, гендер, семантика, лексико-семантическая группа, терминология, лингвокультурология, семейные отношения, мужчина и женщина.*

Kirish. Qarindoshlik atamalari har qanday tilning leksik tizimida muhim o'rin egallaydi va insoniyatning ijtimoiy tashkillanishini, oilaviy munosabatlarini hamda madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Ushbu atamalar nafaqat biologik aloqadorlikni ifodalaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy rollarni, huquq va majburiyatlarni ham belgilaydi. Gender lingvistikasining rivojlanishi bilan qarindoshlik atamalarining jinsiy differensiatsiyasi alohida tadqiqot obyektiga aylandi, chunki aynan shu soha tilning gender tizimini eng yaqqol namoyish etadi [1]. Zamonaviy tilshunoslikda gender kategoriyasi grammatik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy-madaniy fenomen sifatida talqin qilinmoqda, bu esa qarindoshlik terminologiyasini yangicha rakursda o'rganish imkonini beradi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida an'anaviy oilaviy tuzilmalar o'zgarmoqda, bu esa qarindoshlik atamalarining semantik maydoni transformatsiyasiga olib kelmoqda. O'zbek tilshunosligida qarindoshlik atamalari turli aspektlarda o'rganilgan bo'lsa-da, ularning gender-semantik xususiyatlari maxsus tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha yoritilmagan. Shu bois, ushbu maqolada qarindoshlik atamalarining gender semantikasini tizimli tahlil qilish, ularning turli tillardagi ko'rinishlarini qiyoslash hamda bu atamalarning lingvokulturologik mohiyatini ochib berish maqsad qilib qo'yilgan. Tadqiqotning nazariy ahamiyati gender lingvistikasi va leksik semantika nazariyasiga hissa qo'shishda, amaliy ahamiyati

esa leksikografiya va tarjimashunoslik sohasida qo‘llanilishi mumkinligida namoyon bo‘ladi.

Metodologiya va adabiyotlar tahlili. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy-tipologik va komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida qarindoshlik atamalarining semantik tuzilishi yoritildi, qiyosiy-tipologik metod turli tillardagi atamalarni solishtirish imkonini berdi, komponent tahlil esa atamalarning semik tarkibini aniqlashga xizmat qildi. Qarindoshlik atamalari tilshunoslikda uzoq tarixga ega tadqiqot sohasi hisoblanadi. L.A. Morganning klassik asari bu sohadagi ilk fundamental tadqiqotlardan biri bo‘lib, unda qarindoshlik tizimlarining tipologiyasi ishlab chiqilgan [2]. Keyinchalik E. Benvenist qarindoshlik atamalarining hind-yevropa tillaridagi etimologiyasi va semantik evolyutsiyasini chuqur tahlil qildi, ularning ijtimoiy institutlar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi [3]. Rus tilshunosligida A.V. Superanskaya ism va atamalarning semantik xususiyatlarini o‘rganib, qarindoshlik terminologiyasining nominatsiya tamoyillarini aniqladi [4]. O‘zbek tilshunosligida Sh.Rahmatullayev leksik semantika masalalarini nazariy jihatdan yoritgan bo‘lib, uning tadqiqotlari qarindoshlik atamalarining semantik tahlili uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi [5].

Gender lingvistikasi sohasida R. Lakoffning tadqiqotlari fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, u til va jinslararo munosabatlar o‘rtasidagi aloqadorlikni ilk bor tizimli ravishda tahlil qildi [6]. D. Tannenning tadqiqotlari erkak va ayollarning kommunikativ xulq-atvoridagi farqlarni yoritadi, bu esa qarindoshlik atamalarining pragmatik aspektlarini tushunishga yordam beradi [7]. O‘zbek tilshunosligida S.Karimov o‘zbek tilining leksik tizimini o‘rganib, qarindoshlik atamalarining leksik-semantik guruhini ajratib ko‘rsatdi [8]. Qiyosiy tilshunoslik sohasida A.A. Ufimtsevaning semantik tadqiqotlari turli tillardagi leksik birliklarning semantik tuzilishini qiyoslash metodologiyasini ishlab chiqdi [9]. Shuningdek, D.N. Shmelev rus tilining leksik semantikasi bo‘yicha fundamental tadqiqotlar olib borgan bo‘lib, uning sinonimiya va antonimiya haqidagi nazariyalari qarindoshlik atamalarining paradigmatik munosabatlarini tahlil qilishda qo‘llaniladi [10].

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, qarindoshlik atamalari ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularning gender-semantik xususiyatlari maxsus va tizimli ravishda yetarlicha tadqiq etilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati yo umumiy leksik-semantik tahlilga, yo qiyosiy-tipologik tavsifga yo‘naltirilgan. Shu bois, ushbu maqolada qarindoshlik atamalarining aynan gender aspektiga e’tibor qaratiladi va ular gender semantikasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Natijalar va muhokama. Qarindoshlik atamalarining gender-semantik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu atamalar tizimida gender kategoriyasi markaziy o‘rin tutadi va deyarli barcha atamalarda jins farqi semantik komponent sifatida mavjud. O‘zbek tilida qarindoshlik atamalari gender bo‘yicha aniq differensiatsiyalanadi: ota-ona, aka-opa, o‘g‘il-qiz, er-xotin, kuyov-kelin, amaki-amma, tog‘a-xola kabi juftliklar buni yaqqol namoyish etadi. Bu juftliklardagi atamalar bir-biriga semantik jihatdan yaqin bo‘lib, ularni farqlantiruvchi asosiy sema aynan gender semasi hisoblanadi. Masalan, “aka” va “opa” atamalari bir ota-onadan tug‘ilgan, yoshda katta bo‘lgan farzandni bildiradi, lekin “aka” erkak jinsini, “opa” esa ayol jinsini ifodalaydi [5]. Bu holat qarindoshlik atamalarining semantik tuzilishida gender semasining dominant xarakter kasb etishini ko‘rsatadi.

Qiyosiy tahlil shuni isbotlaydiki, turli tillarda qarindoshlik atamalarining gender differensiatsiyasi turlicha darajada namoyon bo‘ladi. Ingliz tilida ba’zi qarindoshlik atamalari gender jihatidan neytral bo‘lishi mumkin, masalan, “cousin” atamasi ham erkak, ham ayol amakivachchasi yoki xolavachchasini bildiradi, holbuki o‘zbek tilida bu tushuncha uchun alohida atamalar mavjud emas va tasviriy iboralar qo‘llaniladi. Rus tilida esa gender differensiatsiyasi o‘zbek tiliga o‘xshash ravishda aniq ifodalanadi: brat-sestra, syn-doch’, muzh-zhena, djadja-tjotja kabi juftliklar buni tasdiqlaydi [4]. Bunday qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, gender semantikasining ifodalanish darajasi tilning grammatik tuzilishi va madaniy an’analari bilan bevosita bog‘liq.

Qarindoshlik atamalarining gender semantikasida asimmetriya hodisasi ham kuzatiladi, ya’ni erkak va ayolni bildiruvchi atamalar har doim ham simmetrik juftlik hosil qilmaydi. O‘zbek tilida “qaynota” va “qaynona” atamalari juftlik tashkil qilsa-da, “quad” atamasi gender jihatidan neytral bo‘lib, ham erkak, ham ayol qudani bildirishi mumkin, garchi “quda ota” va “quda ona” shakllari ham qo‘llaniladi. Bundan tashqari, ba’zi qarindoshlik munosabatlarini ifodalashda bir jins uchun maxsus atama mavjud bo‘lib, ikkinchi jins uchun bunday atama bo‘lmasligi mumkin yoki aksincha. Bu hodisa lingvokulturologik nuqtayi nazardan muhim bo‘lib, jamiyatda ayrim qarindoshlik munosabatlariga turlicha e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi [3].

Gender semantikasining yana bir muhim aspekti shundaki, qarindoshlik atamalari nafaqat biologik jinsni, balki ijtimoiy genderni ham aks ettiradi. “Er” va “xotin” atamalari nafaqat nikoh orqali bog‘langan erkak va ayolni bildiradi, balki oiladagi rollarni, mas’uliyatlarni va ijtimoiy maqomni ham ifodalaydi. An’anaviy madaniyatlarda bu atamalar patriarxal tuzum bilan bog‘liq konnotatsiyalarni o‘z ichiga oladi, zamonaviy kontekstda esa ularning semantik mazmuni transformatsiyaga uchramoqda [6]. O‘zbek tilida “uy Bekasi”,”oila boshlig‘i” kabi iboralar gender rollarini aniq belgilab beradi va bu rollar qarindoshlik atamalarining semantik maydoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Qarindoshlik atamalarining gender semantikasi derivatsion jarayonlarda ham namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida ayrim qarindoshlik atamalari suffiks yordamida gender bo‘yicha farqlanadi, masalan, “o‘gay” so‘zi bilan hosil qilingan atamalar: o‘gay ota, o‘gay ona, o‘gay o‘g‘il, o‘gay qiz. Bu holatda asosiy atama gender semasini o‘z ichiga oladi va “o‘gay” komponenti qo‘shilishi natijasida semantik struktura murakkablashadi, lekin gender differensiatsiyasi saqlanib qoladi [8]. Bundan tashqari, hurmat va erkalash formasini ifodalovchi suffiks va prefikslar ham gender semantikasi bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi: “otajon”, “onajon”, “akajon”, “opajon” kabi shakllar emotsiv-ekspressiv bo‘yoq qo‘shish bilan birga gender xususiyatlarini ham saqlaydi.

Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan qarindoshlik atamalari konseptual maydonni tashkil qiladi, bunda gender kategoriyasi asosiy klassifikatsiya mezoni sifatida namoyon bo‘ladi. Inson ongi qarindoshlik munosabatlarini idrok etishda avvalambor jins farqini ajratadi, so‘ngra avlod farqi, qon qarindoshligi yoki nikoh orqali bog‘lanish kabi boshqa parametrlarni belgilaydi. Bu esa gender semasining qarindoshlik atamalari semantik tuzilishidagi ustuvor mavqeyini tasdiqlaydi [7]. Shuningdek, qarindoshlik atamalarining metaforik qo‘llanilishida ham gender semantikasi muhim rol o‘ynaydi: “otamiz” (rahbar ma’nosida), “ona tili”, “ona Vatan” kabi iboralarda gender semasi yangi konnotativ ma’nolar hosil qiladi va milliy madaniyatning gender stereotiplarini aks ettiradi [9].

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijasida qarindoshlik atamalarining gender-semantik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilindi va bir qator muhim xulosalarga kelindi. Birinchidan, gender kategoriyasi qarindoshlik atamalarining semantik tuzilishida dominant sema sifatida namoyon bo‘ladi va bu atamalarning aksariyati jins bo‘yicha aniq differensiatsiyalanadi. Ikkinchidan, turli tillarda qarindoshlik atamalarining gender semantikasi turlicha darajada ifodalanadi, bu esa tilning grammatik tuzilishi va madaniy xususiyatlari bilan bog‘liq. Uchinchidan, qarindoshlik atamalarining gender semantikasida asimmetriya hodisasi mavjud bo‘lib, u jamiyatdagi gender munosabatlarini lingvistik darajada aks ettiradi. To‘rtinchidan, bu atamalar nafaqat biologik jinsni, balki ijtimoiy genderni, ya’ni oiladagi rollar va maqomlarni ham ifodalaydi. Beshinchidan, gender semantikasi derivatsion jarayonlarda va metaforik qo‘llanilishda ham muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari gender lingvistikasi, leksik semantika va lingvokulturologiya sohalarida qo‘llanilishi mumkin. Kelgusida qarindoshlik atamalarining gender semantikasini turli tillar materialida qiyosiy tadqiq qilish, shuningdek, ularning diaxronik evolyutsiyasini o‘rganish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Институт социологии РАН, 1999. – 189 с.

2. Morgan L.H. Systems of Consanguinity and Affinity of the Human Family. – Washington: Smithsonian Institution, 1871. – 590 p.

3. Бенвенист Э. Словарь индоевропейских социальных терминов. – М.: Прогресс-Универс, 1995. – 456 с.

4. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.

5. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug’ati. – Toshkent: Universitet, 2000.600-bet.

6. Lakoff R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 328 p.

7. Tannen D. You Just Don’t Understand: Women and Men in Conversation. – New York: Ballantine Books, 1990. – 352 p.

8. Каримов С. Ўзбек тилининг лексик минимуми. – Тошкент: Фан, 1979. 120-б.

9. Уфимцева А.А. Лексическое значение: Принципы семиологического описания лексики. – М.: Наука, 1986. – 240 с.

10 Шмелев Д.Н. Проблемы семантического анализа лексики. – М.: Наука, 1973. – 280 с.

Gulchiroy FAYZIYEVA,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti
Email: gulchiroyfayziyeva055@gmail.com

BADIIY MATN ASOSIDA ADABIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz tili ta'limida badiiy matnlar asosida adabiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlari ilmiy-nazariy va metodik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda adabiy kompetensiyaning asosiy komponentlari sifatida lingvistik, interpretativ va kontekstual kompetensiyalar ajratib ko'rsatiladi hamda ularning o'zaro integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati asoslab beriladi. Badiiy matnlar til o'rganishda autentik material sifatida talabalarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki tanqidiy fikrlash, estetik idrok va mustaqil talqin qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi.

Maqolada zamonaviy pedagogik yondashuvlar, xususan, reader-response, close reading hamda analitik tahlil metodlarining amaliy qo'llanishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlar orqali badiiy matnni chuqur tahlil qilish imkoniyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, badiiy matn asosida tashkil etilgan darslar talabalarning lingvistik va kontekstual kompetensiyalarini rivojlantirish bilan birga ularning kommunikativ faolligini ham oshiradi.

Kalit so'zlar: *adabiy kompetensiya, badiiy matn, interpretativ yondashuv, kontekstual tahlil, tanqidiy fikrlash, ingliz tili ta'limi*

Аннотация: в данной статье рассматриваются механизмы формирования литературной компетенции на основе художественных текстов в процессе обучения английскому языку с научно-теоретической и методической точек зрения. В исследовании выделяются основные компоненты литературной компетенции, такие как лингвистическая, интерпретативная и контекстуальная компетенции, а также обосновывается значимость их интеграции для повышения эффективности обучения.

Художественные тексты рассматриваются как аутентичный материал, способствующий развитию не только языковых навыков, но и критического мышления, эстетического восприятия и способности к самостоятельной интерпретации. В статье анализируются современные педагогические подходы, включая reader-response, close reading и аналитическое чтение, а также их практическое применение в учебном процессе.

Особое внимание уделяется использованию цифровых образовательных инструментов и интерактивных методов, которые позволяют углубить анализ художественных текстов. Результаты исследования показывают, что занятия, основанные на художественных текстах, способствуют развитию лингвистических и контекстуальных компетенций студентов, а также повышают их коммуникативную активность.

Ключевые слова: *литературная компетенция, художественный текст, интерпретация, контекстуальный анализ, критическое мышление, обучение английскому языку*

Annotation: this article explores the mechanisms of developing literary competence through the use of literary texts in English language education from both theoretical and methodological perspectives. The study identifies key components of literary competence, including linguistic, interpretive, and contextual competencies, and emphasizes the importance of their integration in enhancing the effectiveness of the learning process.

Literary texts are considered authentic materials that contribute not only to language skill development but also to the enhancement of critical thinking, aesthetic appreciation, and independent interpretation. The paper examines modern pedagogical approaches such as reader-response, close reading, and analytical reading, highlighting their practical application in classroom settings. Furthermore, the role of digital tools and interactive teaching methods in facilitating deeper analysis of literary texts is discussed. The findings indicate that lessons based on literary texts significantly improve students' linguistic and contextual competencies while also increasing their communicative engagement.

Key words: *literary competence, literary text, interpretive approach, contextual analysis, critical thinking, English language teaching*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida chet tillarini o‘qitish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki shaxsning kompleks rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilmoqda. Xususan, ingliz tili ta’limida badiiy matnlardan foydalanish talabalarning til ko‘nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularning adabiy tafakkuri, estetik didi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, adabiy kompetensiyani rivojlantirish masalasi bugungi kunda dolzarb ilmiy va metodik muammolardan biri hisoblanadi. Adabiy kompetensiya o‘z ichiga badiiy matnni tushunish, tahlil qilish, talqin etish hamda uning lingvokulturologik va kontekstual xususiyatlarini anglash kabi murakkab ko‘nikmalar majmuini qamrab oladi. Mazkur kompetensiyaning shakllanishi o‘quvchilarning nafaqat til birliklarini o‘zlashtirishiga, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq qo‘llashiga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, ingliz tili darslarida autentik badiiy matnlardan foydalanish talabalarning o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini integrativ tarzda rivojlantirish imkonini beradi. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab ta’lim jarayonlarida badiiy matnlar yetarli darajada tizimli va metodik asosda qo‘llanilmaydi. Bu esa adabiy kompetensiyaning to‘liq shakllanmasligiga olib keladi. Shu sababli badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Ingliz tili ta’limida badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirish masalasi ko‘plab xorijiy, rus va o‘zbek olimlari tomonidan turli jihatlarda tadqiq etilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar adabiy kompetensiyaning mohiyati, tarkibiy komponentlari hamda uni rivojlantirish metodikasini aniqlashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Brian Karter [1] adabiy kompetensiyani o‘quvchining matnni tushunish va interpretatsiya qilish qobiliyati sifatida izohlaydi. Louise M. Rosenblatt [2] esa reader-response nazariyasi orqali o‘quvchining individual tajribasi va hissiy munosabatining badiiy matnni anglashdagi o‘rnini asoslab beradi**.** Catherine Belsey [3] adabiy tahlilda tanqidiy yondashuvning ahamiyatini ta’kidlab, matnni ko‘p qatlamli semantik tizim sifatida talqin qiladi. Michael Byram [4] esa lingvokulturologik kompetensiya orqali madaniy kontekstni tushunish zarurligini ko‘rsatadi. Alan Maley [5] badiiy matnlarning til o‘qitishdagi didaktik imkoniyatlarini keng yoritib, ularni autentik material sifatida qo‘llash samaradorligini asoslaydi.

Y.Lotman [6] badiiy matnni semiotik tizim sifatida o‘rganib, uning ko‘p qatlamli ma’nolar tizimiga ega ekanligini ta’kidlaydi. V.Krasnix[7] lingvokulturologiya doirasida matnning madaniy kodlarini tahlil qilish zarurligini asoslaydi. G.Slishkin [8] esa pretsedent birliklar orqali madaniy va diskursiv kompetensiyani rivojlantirish masalalarini yoritadi.

Nizomiddin Mahmudov [9] til va tafakkur birligi asosida badiiy matnni tahlil qilishning lingvistik asoslarini ko‘rsatadi. Muhammadjon Mirzayev [10] adabiy tafakkurni shakllantirishda badiiy asarlarning o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Gulnora Atoyeva [11] adabiy kompetensiyani rivojlantirishda interpretativ yondashuvning metodik ahamiyatini asoslab beradi. Shodmon Shodmonov [12] esa badiiy matnni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samaradorligini yoritadi. Shuningdek, Abdulaziz Qodiriy [13] adabiy tahlilda estetik va ma’naviy komponentlarning uyg‘unligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini kompleks yoritish yetarli darajada amalga oshirilmagan bo‘lib, mazkur maqola aynan shu jihatni chuqurroq tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot metodi. Mazkur tadqiqotda ingliz tili ta’limida badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘unligiga tayanildi.

Mazkur tadqiqotda ingliz tili ta’limida badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirish mexanizmlarini aniqlash maqsadida kompleks metodologik yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar uyg‘unligiga tayanildi.

Nazariy metodlar. Ilmiy adabiyotlar, pedagogik va metodik manbalar, shuningdek, xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqot ishlari tahlil qilindi. Tahlil jarayonida adabiy kompetensiyaning mohiyati, uning tarkibiy komponentlari (lingvistik, interpretativ va kontekstual) hamda ularni rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlar umumlashtirildi.

Empirik metodlar. Pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari va so‘rovnoma usullaridan foydalanildi. Tajriba-

sinov jarayonida ingliz tili darslarida badiiy matnlarga asoslangan maxsus topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi.

Ma'lumotlarni qayta ishlashda: statistik tahlil metodlaridan foydalanilib, olingan natijalar diagramma va foiz ko'rsatkichlari asosida umumlashtirildi. Bu esa tadqiqot natijalarining ishonchliligi va obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot muammosini har tomonlama o'rganish, badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari ingliz tili ta'limida badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani rivojlantirish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi. Adabiy kompetensiyasi rivojlangan talaba: badiiy matnni chuqur tahlil qila oladi; matn mazmunini mustaqil talqin qiladi; lingvistik birliklarni kontekstda to'g'ri qo'llaydi; muallif pozitsiyasi va yashirin ma'nolarni anglaydi; matnni madaniy va ijtimoiy kontekst bilan bog'lay oladi.

Bundan tashqari, badiiy matn asosidagi yondashuv talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, kommunikativ faolligini oshiradi hamda mustaqil o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Muhokama. Ingliz tili ta'limida badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani rivojlantirish muayyan pedagogik sharoitlarni yaratishni talab etadi. Bunday sharoitlarga matnni darajaga mos tanlash, interaktiv metodlardan foydalanish hamda talabalarning mustaqil talqin qilish faoliyatini qo'llab-quvvatlash kiradi.

Adabiy kompetensiyani shakllantirish jarayonida lingvistik, interpretativ va kontekstual omillar muhim rol o'ynaydi. Chunki badiiy matnni anglash faqat til birliklarini tushunish bilan cheklanmay, balki madaniy kontekst va shaxsiy tajriba bilan ham uzviy bog'liqdir. Ta'lim jarayonida badiiy matn bilan ishlashni tizimli tashkil etish talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, kommunikativ faolligini oshiradi hamda ularning kasbiy kompetensiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchilar adabiy ta'limda integrativ va innovatsion metodlardan keng foydalanishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tili ta'limida badiiy matn asosida adabiy kompetensiyani shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Badiiy matn talabalarning til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan birga, ularning matnni tahlil qilish va mustaqil talqin etish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiy kompetensiyani rivojlantirish talabalarning tanqidiy fikrlashini, kommunikativ faolligini hamda kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bois ingliz tili darslarida badiiy matnlardan tizimli va metodik asosda foydalanish hamda innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Картер Б. Литературная компетенция в обучении английскому языку // Language Teaching Research. 2007. – № 3 (11). С. 215–228.

2. Розенблатт Л. М. Теория читательского отклика // Research in the Teaching of English. 1978. – № 2 (12). С. 45–62.

3. Белси К. Критическая практика в анализе художественного текста // Textual Practice. 2001. – № 1 (15). С. 23–37.

4. Байрам М. Обучение языку и межкультурная компетенция // Language and Intercultural Communication. 1997. – № 2 (5). С. 67–82.

5. Малей А. Литература в преподавании языка // ELT Journal. 2001. – № 4 (55). С. 180–188.

6. Лотман Ю. М. Структура художественного текста // Труды по знаковым системам. 1970. – № 5. С. 34–56.

7. Красных В. В. Этнопсихолингвистика и лингвокультурология // Вопросы языкознания. 2002. – № 3. С. 25–40.

8. Слышкин Г. Г. Лингвокультурные концепты и прецедентные феномены // Филологические науки. 2000. – № 2. С. 58–71.

9. Mahmudov N. M. Til va tafakkur // O'zbek tili va adabiyoti. 2010. – № 1. 12–20-b.

10. Mirzayev M. Adabiy tafakkur asoslari // Pedagogika va psixologiya. 2015. – № 3. 45–53-b.

11. Atoyeva G. Adabiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi // Zamonaviy ta'lim. 2018. – № 4. 28–35-b.

12 Shodmonov Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta'lim // Ta'lim muammolari. 2019. – № 2. 60–68-b.

13. Qodiriy A. Adabiy tahlil va estetik tafakkur // O'zbek adabiyoti. 2005. № 3. 15–22-b.

Uldaulet ALMAMBETOVA,
Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti
Email: almambetovau98@gmail.com

FONETIKANI O‘QITISHDA QIYOSIY YONDASHUV METODIKASI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tili fonetikasini o‘qitishda qiyosiy yondashuvning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Qardosh tillar fonetik tizimidagi o‘xshash va farqli jihatlar aniqlanib, talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishda qiyosiy metodning samaradorligi yoritiladi. Shuningdek, fonetik mashqlar tizimi, darsni tashkil etish modeli hamda metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari qiyosiy yondashuv fonetik kompetensiyani rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *qiyosiy yondashuv, fonetika, qardosh tillar, talaffuz, fonetik ko‘nikma.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические и методические основы сравнительного подхода в обучении фонетике узбекского языка. Выявляются сходства и различия в фонетических системах родственных языков, освещается эффективность сравнительного метода в формировании навыков произношения. Также разработаны система фонетических упражнений, модель организации урока и методические рекомендации. Результаты исследования показывают, что сравнительный подход является важным инструментом развития фонетической компетенции.

Ключевые слова: *сравнительный подход, фонетика, родственные языки, произношение, фонетический навык.*

Annotation: this article analyzes the theoretical and methodological foundations of the comparative approach in teaching Uzbek language phonetics. Similarities and differences in the phonetic systems of related languages are identified, and the effectiveness of the comparative method in developing pronunciation skills is highlighted. Furthermore, a system of phonetic exercises, a lesson organization model, and methodological recommendations are developed. The research results demonstrate that the comparative approach is a crucial tool for developing phonetic competence.

“Toifalash jadvali”. Toifa – xususiyat va munosabatlarning muhimligini namoyon qiluvchi alomatlardir. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma’lumotlarni birlashtirishni ta’minlaydi. Tizimli fikrlash, ma’lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Toifa sharhlashni tuzish, olingan ma’lumot lavhalarni birlashtirish imkonini beradigan toifalarni izlashdan iborat. Toifalar jadval ko‘rinishda rasmiylashtiriladi. G‘oyalarni, ma’lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. [6-119]“To‘ldiruvchi va uning turlari” mavzusini o‘qitishda quyidagi jadvaldan foydalanish mumkin. Bu jadvalni talabalarga berish mumkin. Talabalar ikki guruhga bo‘linadi. Ular belgilangan muddatda jadvalni to‘ldirib beradilar. Keyin o‘qituvchi tomonidan to‘ldirilgan javoblar taqqoslanadi, xatolar bo‘lsa izoh beriladi.

To‘ldiruvchining turlari	**To‘ldiruvchining ifodalanishi**	**To‘ldiruvchining birikuv usullari**	**Sodda va birikmali to‘ldiruvchilar**

“Sinkveyn” – fnansuz tilida “5 qator ma’nosini bildiradi. Sinkveyn – ma’lumotlarni sintezlash, ya’ni bir butunga keltirishga yordam beradigan qofiyalanmagan she’r bo‘lib, unda o‘rganilayotgan tushuncha (hodisa, voqea,mavzu) to‘g‘risidagi axborot yig‘ilgan holda turli variantlarda va turli nuqtayi nazar orqali ifodalanadi. Sinkveyn tuzish – murakkab g‘oya, sezgi va hissiyotlarni bir nechta so‘zlar bilan ifodalash uchun muhim bo‘lgan malakadir. Sinkveyn tuzish jarayoni mavzuni yaxshiroq anglashga yordam beradi.

Topshiriq. “Sinkveyn” metodi orqali quyida berilgan maqollarni mazmunan tugallang va undagi to‘ldiruvchilarni tahlil qiling. [3-33]

1. O‘zingni er bilsang, … 2.Tabib tabib emas,…
3.Yaxshi odam yurt tuzar, … 4. Birni kessang…

Namuna: O‘zingni

	O‘zingni
1. To‘ldiruvchining savoli	**kimni ? savoliga javob bo‘ladi.**
2. To‘ldiruvchining turi	**vositasiz belgili to‘ldiruvchi**
3. Kelishikli yoki ko‘makchili	**kelishikli**
4. To‘ldiruvchining ifodalanishi	**olmosh bilan ifodalangan.**
5. To‘ldiruvchi qaysi so‘zga bog‘langan?	**fe’l kesimga bog‘langan.**

Konseptual jadval bu talabalarga mavzu bo‘yicha berilgan ilmiy terminlarni o‘zlashtirishga va oson o‘zlashtirib olishlariga yaqindan yordam beradi. Ilmiy terminlarni taqqoslash va maqbulini tanlab ishlatish imkoniyatini beradi. Mavzu bo‘yicha berilgan nazariy ma’lumotlarni tarkiblashtirish va tizimlashtirish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Demak, to‘ldiruvchining qaysi gap bo‘laklari bilan ifodalanishining izohini berishga o‘rgatadi.


Topshiriq. Berilgan gaplardan to‘ldiruvchilarni toping va ifodalanishi bo‘yicha konseptual jadval chizing.

1.To‘g‘rilik, halollik insonni kamolotga yetaklaydi. 2.Sog‘likdan ortiq boylik yo‘q. 3. Ertaga yozuvchilar bilan uchrashuv bo‘lar ekan. 4.Ular kino haqida suhbatlashishdi.

Ot bilan	Otlashgan sifat bilan	Otlash-gan son bilan	Otlashgan sifatdosh bilan	Harakat nomi bilan:	Taqlid so‘zlar bilan:	Undov so‘zlar bilan:	Ibora bilan:

Venn diagrammasi – miya bo‘roni va ikki yoki undan ortiq narsalar, voqealar yoki odamlar o‘rtasida taqqoslashni yaratish uchun ajoyib vosita sanaladi.

Topshiriq. “**Venn**” **diagrammasi orqali vositali va vositasiz to‘ldiruvchining umumiy va xususiy jihatlariga tavsif bering.** Diagrammaga vositali va vositasiz to‘ldiruvchining xususiy jihatlarini, diagrammaning tutashgan qismiga umumiy jihatlarini qayd eting.[6-133]



Bundan tashqari, mavzuga doir nostandart test javoblarini jadval asosida berish mumkin.

1.“Tasdiq-inkor testi” orqali mavzu bo‘yicha egallagan bilimlaringizni sinang. Qayd etilgan xulosalarni ma’qullasangiz, javoblar varaqasiga ***“Ha”,*** inkor etsangiz ***“Yo‘q”*** javobini yozing.

A. To‘ldiruvchining to‘rtta turi bor.
B. To‘ldiruvchi ravish, fe’l so‘z turkumi bilan ifodalanadi.
D. To‘ldiruvchi ibora bilan ifodalanmaydi.
E. To‘ldiruvchi belgili, belgisiz bo‘ladi.
F. To‘ldiruvchi doim fe’l - kesimga bog‘lanadi.
G.To‘ldiruvchi to‘ldiruvchiga bog‘lanadi.

Fikr	**A**	**B**	**D**	**E**	**F**	**G**
Javob	*Yo‘q*					

2.To‘ldiruvchilarni ajrating

1)kitob o‘qimoq; 2)shahar ketmoq; 3)javob bermoq;4)dars tayyorlamoq
5)va’da bermoq;6)og‘zi qulog‘ida ;7)va’daboz inson;8)onasini hurmatlamoq
9)ukasidan arazlamoq;10)kitobdan yozmoq.

Javoblar raqami

To‘ldiruvchi	
To‘ldiruvchi emas	

3.Belgili va belgisiz to‘ldiruvchilarni ajrating.

1) ukamning kitobi; 2) vatan dardi;3) ukasini ko‘rmoq;4) kino ko‘rmoq
5) ishini uddalamoq;6) kitob o‘qimoq;7) Amerikadan kelmoq;8) ko‘nglini yozmoq.


Javoblar raqami

Belgili to‘ldiruvchi	
Belgisiz to‘ldiruvchi	
To‘ldiruvchi emas	

Xulosa sifatida aytish mumkinki, har bir pedagog ta’lim va tarbiya jarayonini o‘z imkoniyati, kasbiy mahoratidan kelib chiqqan holda ijodiy tashkil qilishi mumkin. Darsda innovatsion texnologiyalarni, grafik organayzerlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi bilan o‘quvchining o‘zaro hamkorlikdagi harakatini, talabalardan mustaqil, erkin va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ulardan yuqori faollikni, o‘zlashtirilayotgan ma’lumotlarni anglashda ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ahmedova M. O‘zbek tili darslarida yangi texnologiyalardan foydalanish usullari. – Toshkent: Universitet, 2006.
2.Ishmuhamedov R., M.Yuldoshev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent. 2013.
3.Lutfullayeva D. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – T., 2024.
4.Maksumova S. Rusiyzabon talabalarga o‘zbek tilini o‘rgatishda klaster metodidan foydalanish Til va adabiyot ta’limi jurnali 2020-yil, 6-son 19-bet.
5.Muhiddinova X.S. va boshqalar. O‘zbek tili. O‘qituvchi nashriyoti. – T., 2012.
6.Musurmonova N.J. va boshqalar. Umumiy pedagogika. I,II qism. –T., 2019.
7.Tolipov O‘.Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari, – T.: “Fan” nashriyoti, 2006.
8.www.pedagog.uz



Sh. ABDULLAJONOVA,
Qo‘qon davlat universiteti katta o‘qituvchisi
M. MELIQO‘ZIYEVA,
Qo‘qon davlat universiteti dotsenti

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya: mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan darslardan foydalanishning samadorligi tahlil qilingan. Fanlararo aloqani o‘rganib chiqqan holda boshlang‘ich sinflardagi integrallashgan darslarning mohiyatini ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *integratsiya, aloqadorlik, munosabat, boshlang‘ich ta’lim, aloqa, sifat, samaradorlik, o‘quv, ta’lim, fan.*

Аннотация: в статье анализируется эффективность использования интегрированных уроков в начальных классах. Сущность интегрированных уроков в начальных классах раскрывается через изучение межпредметных связей.

Ключевые слова: *интеграция, актуальность, отношение, начальное образование, коммуникация, качество, эффективность, обучение, образование, наука.*

Annotation: this article analyzes the effectiveness of integrated lessons in elementary grades. The essence of integrated lessons in elementary grades is revealed through the study of interdisciplinary connections

Key words: *integration, connection, attitude, primary education, communication, quality, efficiency, learning, education, science.*

Hozirgi kunda jamiyatimizning har bir sohasida eng ko‘p qo‘llanilayotgan atama bu – integratsiyadir. Shu qatorida ta’limni integratsiylashga oid ko‘plab ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Bu tushunchani boshlang‘ich ta’limga kiritilishi endigina jamiyatni tushunishga va uning haqiqiy, jonkuyar a’zosi bo‘lib yetishishga xizmat qiladigan murg‘ak qalb sohiblariga atrof muhit haqidagi bilimlarni to‘liq va aniq qilib berishga sharoit yaratadi. Integratsiya jarayoni orqali kichik maktab o‘quvchilari olamni bir butunligicha qabul qilish bilan xarakterlanadi. Ularning aqliy salohiyati, dunyoqarashini boshlang‘ich ta’limdanoq kelajakka raqobatbardosh, o‘tkir zehnli qilib tarbiyalash integratsiyaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Yurtimizda yoshlarning bilim olishlariga keng imkoniyatlar yaratilgan va bular qonuniy asoslarga ega. Muhtaram Prezidentimizning 2018-yil 5- sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931 sonli qarori intelektual, yuksak ma’naviyatli barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

Jahonda globallashuv jarayonining jadal sur’atlarda rivojlanib borish sharoitida ta’limtarbiya oldiga qo‘yiladigan vazifalar sifat jihatidan yangilanishni, kam vaqt sarflab, ko‘p va kerakli bilimlar berish imkoniyatlarini izlab topishni va ularni ilmiy jihatdan ishlab chiqishni nazarda tutadi. Qo‘yilgan bu savollarga darslarni, bilimlarni integratsiyalash orqali erishish mumkin. Hozirgi vaqtda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan Buyuk Britaniya, Koreya va Shveysariya, Avstraliya Yaponiya, Shimoliy Irlandiya, Uels, Gong-Kong va Germaniya, Vengriyada turli fanlarni integrativ shaklda o‘qitish yo‘lga qo‘yilgan. Ta’lim sohasida integratsiya masalalari bilan bir qator chet el va o‘zbek olimlari T.Kun va V.S.Stopin, N.N.Skatkin, I.Y.Lemer, Y.K. AJeksyut, Y.K. Babanskiy, R Mavlayanova, M, Shomaxmudova tadqiqot ishlari olib borganlar. Davlat ta’lim standartlari qabul qilingach, ta’lim mazmuni qisman yangilandi. Davlat ta’lim standarti talablari asosida yangi o‘quv dasturlari va darsliklar ishlab chiqildi.

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllanptirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligini ta’kidlaganlar. Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu

vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi. Boshqacha aytganda, integrativ yondashuv nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgandagina bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligi samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’limda integratsiyalashgan darslarning asosi keng qamrovli tushunchalarni o‘quvchilarga o‘rgatilishidir. Tushunchalarning turli jabhalarda qo‘llanilishi o‘quvchilarning qiziqishini ortiradi. Qiziqish bu – olingan bilimlarni xotirada uzoq muddatga saqlanilishini kafolatlaydi. Qiziqish – shaxsning o‘zi uchun qimmatli va yoqimli bo‘lgan muayyan narsa va hodisaga munosabati. Bunda insonning o‘ziga xos xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish bilimlarni ongli, puxta, barqaror, anglagan holda o‘zlashtirishda, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishda qo‘l keladi, shaxs qobiliyati, zehni, uquvchanligini rivojlantirishga, olamni mukammalroq tushunishiga yordam beradi. Qiziqish insonda intilish, faollik, ichki turtki, ehtiyojni ro‘yobga chiqarish manbai vazifasini bajaradi. Qiziqish shaxsning borliqqa tanlab munosabatda bo‘lishida, o‘ziga xos qaror qabul qilishida, o‘zini o‘zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan to‘siqlarni yengishida ifodalanadi. Qiziqishlar shaxsiy va ijtimoiy, bevosita va bilvosita, keng va tor, beqaror va barqaror bo‘ladi. Qiziqish sinchkovlik, qiziquvchanlik, bilishni o‘z ichiga oladi. Odamlarni shaxsiy qiziqishini idora qilishga o‘rgatish, bu yo‘nalishda mashqlantirish, treninglar, testlardan foydalanish intiluvchan, to‘liqmas xislatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shaxsning individual xususiyati bo‘lgan qiziqish-havaslar uning hamma psixik jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Kishining qobiliyatlarining o‘sishi ham ma’lum darajada undagi qiziqishlar bilan belgilanadi. Bizdagi idrok etish, esda qoldirish, esga tushurish, xayol, tafakkur va iroda jarayonlari qiziqish orqali faollashadi. Qiziqish kishi diqqatining kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam qiladi, bizning tuyg‘u-hissiyotlarimizning, shuningdek, qiziqishlarimizning ham kuchli va barqaror bo‘lishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida fikrlash qobiliyatining har xil turlarini shakllantirish integratsiyaning negizi hisoblanadi. Asosiy fanlarni o‘zlashtirish va olamdagi bor narsalar qonuniyatlarini tushunishda predmetlar ichidagi va predmetlararo aloqalarini o‘rnatish ta’limni integratsiyalashga yondashuvning metodik asosidir. Bunda turli darslar tushunchalariga ko‘p marta qaytish, ularni chuqurlashtirish va boyitish, shu yoshga tushunarli bo‘lgan muhim belgilarni aniqlash orqali erishish mumkin. Shunday qilib, tarkibiga shu o‘quv predmetiga tegishli bo‘lgan tushunchalar guruhi kiritilgan har qanday dars integratsiyaga asos qilib olinishi mumkin.

Demak, darslarni integratsion shaklda tashkil etish nafaqat darsning maroqli va sermazmun o‘tishini, balki o‘quvchilar dunyoqarashining har tomonlama rivojlanishini kafolatlaydi. Fanlararo bog‘liqlik, fanlararo falsafiy masalalarni shaxsan his etmay turib, o‘quvchiga integratsion mashg‘ulotni taqdim etmaslik to‘g‘ri bo‘ladi, zero, anglanmagan integratsiya o‘quvchi ongidagi bilish jarayonini mavhum holatga, u orqali chalkash xulosalarga taqab qo‘yadi.

Integratsiya darslari bugungi o‘quvchilar uchun ayni muddao bo‘lib, ularni zamon bilan birgalikda darslar orqali rivojlanishiga olib keladi. Ya’ni integratsiyaga oid, milliy dasturimiz asosida tuzilgan qo‘llanma kitoblardagi har bitta mashqlar, rasmlar, turli qizaqarli savollar o‘quvchilarni har tomonloma chet mamlakatlar yoshlari bilan ayni boshlang‘ich sinfdan boshlab raqobatlashaoladigan darajaga olib keladigan darsliklar tuzilgan. Yondosh fanlarni uyg‘unlashtirish asosida tuzilgan kurslar yangi tabiiy fanlar va ilmiy yo‘nalishlar hosil bo‘lishiga olib keldi.

Jahon ta’lim tizimini o‘rgangan holda, O‘zbekistonda integratsiyalashgan ta’lim 2022-yildan boshlang‘ich sinflarga joriy etildi. Bu jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijobiy natijalar ko‘rsatdi.

Fanlarni o‘zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o‘quvchilarga berilayotgan bilimlar takrorlanishining oldini olish, bir xillikka barham berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J. G‘. Yo‘ldoshev, S. A. Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. — T., 2010

2. R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. –Toshkent: “Voris nashriyoti”, 2013.

O‘ktamjon MIRZAQULOV,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o‘qituvchisi
Elektron pochta: mirzakulovuktam14@gmail.com

UZLUKSIZ MA’NAVIY TARBIYA JARAYONINI ILMIY O‘RGANILGANLIK DARAJASINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya: maqolada O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim tizimi sharoitida uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining ilmiy o‘rganilganlik darajasi nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma’naviy tarbiyaning falsafiy-aksiologik asoslari, pedagogik tizimdagi uzviyligi hamda psixologik va sotsiologik yondashuvlar kesishmasi ko‘rsatib beriladi. O‘zbek va xorijiy ilmiy manbalarga tayangan holda ma’naviy tarbiyaning asosiy regulyatorlari, institutlararo hamkorlik (oila–ta’lim muassasasi–jamoatchilik) va axborot muhitining ta’siri yoritiladi. Shuningdek, jarayonning samaradorligini pasaytiruvchi omillar (formallik, metodik ta’minot yetishmasligi, kadrlar salohiyati, raqamli muhitdagi xavflar) tizimlashtiriladi hamda amaliy takliflar ilgari suriladi. Xulosa sifatida uzluksiz ma’naviy tarbiya shaxs kamolotini ta’minlovchi uzviy, tizimli va ko‘p subyektli jarayon ekani asoslanadi.

Kalit so‘zlar: *uzluksiz ta’lim, ma’naviy tarbiya, qadriyatlar, aksiologiya, ijtimoiy institutlar, yoshlar siyosati, raqamli muhit.*

Аннотация: в статье представлен теоретический анализ степени научной разработанности процесса непрерывного духовно-нравственного воспитания в системе непрерывного образования Узбекистана. Показаны философско-аксиологические основания духовности, педагогические механизмы обеспечения преемственности воспитания на всех уровнях образования, а также вклад психологических и социологических подходов в объяснение формирования ценностей личности. На основе отечественных и зарубежных исследований раскрывается роль ключевых институтов (семья, образовательные организации, общественность, медиасреда) и факторов, влияющих на эффективность воспитания. Выделены проблемные зоны реализации (формализация мероприятий, недостаток современных методик, дефицит компетенций кадров, риски интернет-среды) и предложены направления совершенствования: интеграция духовно-нравственного компонента в содержание дисциплин, разработка современных методических инструментов и повышение квалификации педагогов. Делается вывод о необходимости системного и междисциплинарного подхода к организации непрерывного духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: непрерывное образование, духовно-нравственное воспитание, ценности, аксиология, социальные институты, молодежная политика, цифровая среда.

Annotation: the article provides a theoretical review of the scholarly development of continuous spiritual and moral education within Uzbekistan’s lifelong learning system. It discusses the philosophical and axiological foundations of spirituality, pedagogical mechanisms that ensure continuity across all educational stages, and the contributions of psychological and sociological approaches to value formation. Drawing on national and international studies, the paper highlights the role of key social institutions (family, educational organizations, community actors, and the media environment) and identifies factors that shape educational effectiveness. Major challenges are systematized, including formalized practices, insufficient modern methodological support, limited professional competencies among educators, and risks associated with digital and social media content. The study proposes improvement measures such as integrating moral education into curricula, developing evidence-based teaching tools, and strengthening teacher training. The article concludes that continuous spiritual and moral education should be treated as a systematic, multi-actor, and interdisciplinary process supporting personal development.

Key words: *lifelong learning, spiritual and moral education, values, axiology, social institutions, youth policy, digital environment.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy islohotlar, avvalo, inson kamolotini ta’minlash, uni har tomonlama rivojlantirish, jumladan ma’naviy yetuklikka erishishini ta’minlashga qaratilgan. Buning uchun uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Mazkur jarayonning ilmiy asoslari, nazariy nuqtayi nazardan tahlil qilinishi pedagogika, falsafa, sotsiologiya va psixologiya fanlari kesishmasida keng qamrovli tadqiqotlarni talab etadi. Uzluksiz ma’naviy tarbiya – bu faqat ma’lum ta’lim bosqichlari bilan chegaralanib qolmaydigan, balki shaxs butun umri davomida ma’naviy kamol topishini

ta’minlaydigan uzluksiz va tizimli jarayondir. Ushbu jarayon metodologik jihatdan falsafiy antropologiya, aksiologiya va tarbiya nazariyasi bilan bog‘liq ravishda qaraladi.

Asosiy qism. Falsafiy nuqtayi nazardan qaralganda, ma’naviyat inson tabiatidagi ezgulik, adolat, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi abadiy qadriyatlar majmuini anglatadi. Aynan shu jihatdan ma’naviy tarbiya jarayoni insonning ichki dunyosi, aqliy va axloqiy yetukligi bilan bog‘liq ravishda amalga oshiriladi[1, 96-b]. Shu bilan birga, pedagogik nuqtayi nazardan uzluksiz ma’naviy tarbiya ta’limning barcha bosqichlarida – maktabgacha ta’limdan tortib oliy ta’limgacha, hatto umr bo‘yi o‘rganish jarayonlarida – izchil, tizimli va maqsadli ravishda amalga oshirilishi kerak. Jumladan, pedagogika fan doktori A.Qodirov ta’kidlaydi: “Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimli yondashuvni talab qiladi. Bu faqat ma’lum fan doirasida emas, balki butun ta’lim muhiti va jamiyatdagi madaniyatning bir qismi sifatida amalga oshirilishi lozim”[2, 126-b]. O‘zbekistonda va jahonda ma’naviy tarbiya mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarni tahlil qilganda, ushbu yo‘nalishda ko‘plab nazariy va amaliy yondashuvlar ishlab chiqilganini ko‘rish mumkin. Masalan:

- **Psixologik yondashuv**: inson ongida ma’naviy qadriyatlarni shakllantirish, ongli tanlov va axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Bu sohada A.V.Petrovskiy, L.S.Vыgotskiy, A.N.Leontev kabi olimlar faoliyat nazariyasi va shaxs rivoji bilan bog‘liq g‘oyalarini ilgari surishgan [3, 198-b].
- **Sotsiologik yondashuv**: jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar, institutlar, ommaviy axborot vositalari, oila va ta’lim muassasalarining ma’naviy tarbiyadagi roli o‘rganilgan. Masalan, E.Dyurkgeym va M.Veber ishlarida ta’lim va ma’naviy intizom jamiyatda ijtimoiy nazorat vositasi sifatida baholangan[4, 56-b].
- **Pedagogik yondashuv**: ma’naviy tarbiyani tashkil etishda ta’lim jarayonining imkoniyatlaridan foydalanish, o‘quv-tarbiya jarayoni orqali tarbiyaiy maqsadlarga erishish masalalari o‘rganilgan. Jumladan, N.Maxmudov, B.Nishonov, Sh.Islomov kabi o‘zbek olimlari bu mavzuda o‘z ilmiy ishlarida bir qator muhim xulosalarni keltirishgan [5, 97-b].

Mustaqillik yillaridan boshlab O‘zbekistonda ma’naviyat va ma’naviy tarbiya masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Ayniqsa, Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida ma’naviyat sohasida davlat siyosati darajasida tizimli ishlarni amalga oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bu, o‘z navbatida, uzluksiz ma’naviy tarbiya masalasining ilmiy-metodik jihatdan yanada chuqurroq o‘rganilishiga turtki bo‘ldi. Professor J.Tojiyev ta’kidlaganidek, “Ma’naviyat – jamiyatning immunitetidir, uni tarbiyalash esa jamiyat barqarorligi, kelajagi uchun mas’uldir”[6-34-b]. Shu bois ta’lim muassasalarida, ayniqsa oliy ta’limda uzluksiz ma’naviy tarbiyani tashkil etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ma’naviy tarbiyaning uzluksizligiga oid ilmiy tadqiqotlarda quyidagi asosiy mavzular qamrab olingan:

- Ma’naviy qadriyatlarning ta’lim tizimida joriy etilishi (A.Xasanov, 2017);
- Shaxs rivojida oila, maktab va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligi (Sh.Islomov, 2020);
- Inson kapitalini shakllantirishda ma’naviy tarbiyaning o‘rni (M.Sobirov, 2022);
- Ma’naviy kamolot va yoshlar siyosati (N.Nurov, 2019).

Bularning barchasi uzluksiz ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya masalasining nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim o‘rin tutayotganini ko‘rsatadi.

Jahon amaliyotida ma’naviy tarbiya turli yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Ayniqsa, Yaponiya, Janubiy Koreya, Finlyandiya va Germaniya kabi davlatlarda ta’limning insonparvarlik, fuqarolik, axloqiy kamolotga qaratilgan mazmuni ma’naviy tarbiyaning uzviy qismi sifatida qaraladi.

- **Yaponiya**: maktab va oilada “kokoro” – ya’ni “ko‘ngil, qalb” tarbiyasiga katta e’tibor qaratiladi. Ularda ma’naviy qadriyatlar – halollik, sadoqat, mehr-oqibat va jamoat manfaatini birinchi o‘ringa qo‘yish tarbiyaning asosini tashkil etadi [7, 87-b].
- **Finlyandiya**: ta’lim tizimida shaxsning o‘zini anglashi, ma’naviy mustaqilligi va axloqiy pozitsiyasini shakllantirish maqsad qilib olingan. Axloqiy yondashuv darslar mazmunida ham, o‘qituvchi-o‘quvchi munosabatlarida ham kuzatiladi.
- **Koreya Respublikasi**: davlat siyosati darajasida fuqarolik ma’rifati va ma’naviy tarbiyani uyg‘unlashtirgan kompleks dasturlar ishlab chiqilgan. Ularda oila – maktab – davlat hamkorligida tarbiya samaradorligi ta’minlanadi.

O‘zbekistonda ham ana shu davlatlar tajribasini o‘rganish orqali o‘z milliy modeli yaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida “Ma’naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”, deb ta’kidladilar [8, 45-b].

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi fikrlarni aytish mumkin:

– Uzluksiz ma’naviy tarbiya nazariy jihatdan ko‘plab fanlar (falsafa, pedagogika, psixologiya, sotsiologiya) kesishmasida o‘rganilmoqda.

– Ilmiy tadqiqotlarda ta’lim tizimidagi tarbiyaning to‘liq, izchil va uzviyligini ta’minlashga qaratilgan yondashuvlar yaratilgan.

– O‘zbekistonda bu sohada qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, bu tadqiqotlar tajriba va amaliyotda keng tatbiq etilmoqda.

– Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, milliy ma’naviy tarbiya modeli shakllantirilmoqda, unda an’anaviy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar uyg‘unlashmoqda.

Uzluksiz ma’naviy tarbiyani amalga oshirishda qator to‘siq va muammolar mavjud bo‘lib, ular ilmiy jihatdan tahlil qilinishi lozim. Bu muammolarni shartli ravishda quyidagicha guruhlash mumkin:

Ba’zi ta’lim muassasalarida ma’naviy tarbiya umumiy, qoliplashgan shaklda, formal ravishda tashkil etiladi. Tarbiya ishlari ko‘p hollarda ma’rifiy tadbirlar bilan cheklanib, shaxsning individual rivojlanishi, axloqiy pozitsiyasiga ta’sir qilmaydi. Buning sababi – metodik vositalarning zamonaviy talablarga mos kelmasligidadir[9, 79-b].Oliy ta’lim muassasalaridagi pedagog-o‘qituvchilar va tarbiyachi mutaxassislarning ma’naviy tarbiya sohasida kasbiy bilimlari yetarli emas. Bu esa ma’naviy tarbiyani samarali tashkil etishga to‘sqinlik qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, pedagoglarning aksariyati ma’naviy-axloqiy mavzularni o‘qitishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda[10].

Yoshlar ongiga ta’sir ko‘rsatayotgan ommaviy axborot vositalari, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlardagi dezinformatsiya va ma’naviyatsiz kontentlar uzluksiz tarbiya jarayonini zaiflashtirmoqda. Ilmiy tahlillar bu xavfning miqyosi ortib borayotganini ko‘rsatmoqda[6, 49-b].

Har qancha kuchli ta’lim tizimi bo‘lmasin, agar oila va jamoat ta’siri yetarli darajada tashkil etilmasa, tarbiyaning samaradorligi pasayadi. Ayrim tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, ota-onalarning 30 – 35%i bolalarning ma’naviy tarbiyasida faol qatnashmaydi[7, 26-b]. Ma’naviy tarbiyani barcha fanlar va ta’lim yo‘nalishlari bilan integratsiya qilgan holda olib borish kerak. Buning uchun har bir fan darsligida, o‘quv rejasida ma’naviy komponent bo‘lishi lozim. Masalan, fizikada – insoniyatga xizmat qiluvchi texnologiyalar, tarixda – vatanparvarlik g‘oyalari kabi.

Uzluksiz ma’naviy tarbiya uchun alohida ilmiy asoslangan, zamonaviy metodik qo‘llanmalar, faol o‘qitish texnologiyalariga asoslangan ssenariylar yaratilishi lozim. Masalan, keys-tahlillar, madaniy dilemmalar asosidagi munozara mashg‘ulotlari.

Ma’naviy-axloqiy yo‘nalishda faoliyat olib borayotgan o‘qituvchi va tarbiyachilarni maxsus kurslar orqali qayta tayyorlash, ularni psixologik va aksiologik bilimlar bilan qurollantirish talab etiladi.

Ma’naviy tarbiyada internet va ijtimoiy media imkoniyatlaridan ijobiy foydalanish yo‘lga qo‘yilishi lozim. Buning uchun davlat va nodavlat tuzilmalar tomonidan vatanparvarlik, tarixiy xotira, axloq va odob mavzularida kontentlar yaratilishi kerak.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin. Uzluksiz ma’naviy tarbiya – bu shaxsning butun hayoti davomida amalga oshiriladigan, tizimli, maqsadli va izchil jarayondir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ma’naviy tarbiya faqat ta’lim muassasalari emas, balki oila, jamoatchilik, axborot muhiti orqali ham shakllanadi. O‘zbekistonda ushbu sohada muhim konsepsiya va dasturlar qabul qilingan, lekin ularni amalga oshirishdagi muammolar ilmiy yondashuvlar va amaliy mexanizmlarni talab qiladi. Xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda milliy ma’naviy tarbiya modeli takomillashtirilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Qodirov A. “Ma’naviy tarbiya nazariyasi va amaliyoti”. – Toshkent: Fan, 2019.
2.Islomov Sh. “Ta’limda ma’naviy qadriyatlar”. – Toshkent: Ilm Ziyosi, 2020.
3.Petrovskiy A.V. “Psixologiya lichnosti”. – Moskva: Prosveщenie, 1986.
4.Dyurkgeym E. “O razdelenii obщestvennogo truda”. – SPb: Nauka, 2002.
5.Tojiyev J. “Ma’naviyat: nazariy va amaliy jihatlar”. – Toshkent: Muallim, 2021.
6.Yasuhiro, M. “The Spirit of Kokoro: Japanese Moral Education.” – Tokyo: Kodansha, 2018.
7.Xasanov A. “Ma’naviy tarbiya metodlari”. – Toshkent: Nur, 2017.
8.Nishonov B. “Shaxs va ma’naviyat”, ilmiy maqola. – T., 2020.
9.Nurov N. “Yoshlar va ma’naviy xavfsizlik”, jurnal “Ma’rifat”, №4, 2022.

Feruza SATTOROVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti
katta o‘qituvchisi, PhD, doktorant

CHET TILI TA’LIMIDA PRAGMATIKA VA KOMMUNIKATIV VAZIFALARI MUQOYASASI

Annotatsiya: ushbu maqola zamonaviy chet tili o‘qitishda kommunikativ vazifalar ahamiyati va bu tushunchaning izohi, shuningdek muloqot qobiliyatini shakllantirishda muhim sanalagan subkompetensiyalar haqida mulohazalar bayoniga bag‘ishlangan. Maqola chet tili ta’limi uchun muhim sanalgan shaxslararo muloqot samarasini oshirish bo‘yicha pragmatik va strategik qobiliyatlarni rivojlantirish orqali ma’lumotni so‘zlovchi tomonidan samarali yetkarish, tinglovchi tomonidan samarali qabul qilish, suhbatdoshni ishontirish yo‘li bilan ma’lum xatti-harakatni amalga oshirishga undash, suhbatdosh yoki mavzu yuzasidan qo‘shimcha ma’lumotlarga ega bo‘lish kabi harakatlar amalga oshiriladi.

Kalit so‘zlar: *muloqot qobiliyati, kommunikativ vazifa, pragmatik qobiliyat, strategik qobiliyat, kommunikativ strategiya, kommunikativ taktika*

Annotation: this article is devoted to the importance of communicative tasks in modern foreign language teaching and the explanation of this concept, as well as the statement of considerations about the subcompetences which are considered important in the formation of communicative competence. The article also emphasizes on the development of pragmatic and strategic competences to increase the effectiveness of interpersonal communication, which is considered important for foreign language teaching, such as the effective delivery of information by the speaker, effective reception by the listener, persuasion of the interlocutor to perform a certain action, and obtaining additional information about the interlocutor or topic.

Key words: *communication skills, communicative task, pragmatic skills, strategic skills, communicative strategy, communicative tactics*

Аннотация: данная статья посвящена важности коммуникативных задач в современном преподавании иностранных языков и разъяснению этого понятия, а также изложению соображений о субкомпетенциях, которые считаются важными в формировании коммуникативной компетенции. В статье также подчеркивается важность развития прагматических и стратегических компетенций для повышения эффективности межличностной коммуникации, которая считается важной для преподавания иностранных языков, таких как эффективная передача информации говорящим, эффективное восприятие слушателем, убеждение собеседника к совершению определенного действия и получение дополнительной информации о собеседнике или теме.

Ключевые слова: *коммуникативные навыки, коммуникативная задача, прагматические навыки, стратегические навыки, коммуникативная стратегия, коммуникативная тактика*

Kishilik jamiyatida til insonning tafakkurini, his-tuyg‘ularini va voqelik predmetlariga munosabatini aks ettiradiagan muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bunday umumnazariy masalalarda inson nutqiy faoliyatini pragmatik tahlilga tortish tilshunoslar orasida dolzarb mavzulardan sanaladi. Zero, inson olam haqida bilimlar hosil qilishda o‘z aql-idroki va sezgilariga tayanadi. Shuningdek voqelik haqida munosabatini namoyon qilishda esa eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan tilga tayanadi. Aynan shu munosabatni ifodalashda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun muloqot vositalaridan samarali foydalanish biz so‘z yuritmoqchi bo‘lgan pragmatik maqsad sari harakat qiladi. Kommunikativ vazifalar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, “pragmatik” va “kommunikativ” tushunchalari o‘zaro uzviy aloqada bo‘lib, ikkala tushunchada ham adresantga ta’sir qilish muhim sanaladi va ikkala tushuncha ham muloqot jarayonida mavjuddir. Zero, nutqiy faoliyatda tilning insonlar o‘rtasida aloqa almashuv vazifasi kommunikativ vazifa hisoblansa, nutqda verbal va noverbal vositalar yordamida adresantga ta’sir qilishi tilning pragmatik vazifasi sanaladi. Pragmatik maqsadni ifodalashning turli usullaridan foydalanish uchun so‘zlovchi o‘zi uchun aniq bir kommunikativ vazifani aniqlab oladi. Bunda til pragmatik, ya’ni tafakkur mahsuli bo‘lgan fikrlash asosida kommunikativ vazifani bajaradi. Muloqot jarayonida, tabiiy ravishda, tilning imkoniyati ham kengayib boradi. Endi u muloqot jarayoni quroliga aylanadi.

Zamonaviy tilshunoslik bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda muloqotning inson faoliyatida tutgan o‘rni, so‘zlovchining kommunikativ maqsadi, nutq jarayonida uning o‘z maqsadiga erishish uchun qo‘llaydigan taktika va usullari, ana shu maqsadga xizmat qiluvchi til birliklarining voqelanishini o‘zida aks ettiruvchi nutqiy aktlar, muloqotning qay yo‘sinda tugashi, erishilgan natija, ya’ni pragmatik samara masalalariga qiziqish jiddiy tarzda kuchayib bormoqda[5;10].

Muloqot kompetensiyasi ikki katta bilimlar guruhidan iboratdir: 1) tilni bilish va 2) tildan qanday foydalanish. Ma’lum ijtimoiy vaziyatlarda tildan samarali foydalanish qobiliyati muloqot kompetensiyasidir. Zero, muloqotda samaraga erishish uchun sof lisoniy kompetensiyaga ega bo‘lish kerak. Ya’ni talaffuz, grammatik qoidalar bilan birgalikda yetarli so‘z boyligiga ega bo‘lish kerak. Ayni paytda lisoniy bilimning o‘zi yetarli emas. Yuqorida ta’kidlangan asosiy va qo‘shimcha til ko‘nikmalarining o‘zi turli nutqiy vaziyatlarda muvafaqqiyatli muloqot qobiliyatini kafolatlay olmaydi, balki H.G. Vidovson ta’kidlaganidek, bu til ko‘nikmalari qoidalar asosida gaplar tuzishni ta’minlasa, faoliyatda berilgan vaziyatga qarab shu egallangan ko‘nikmalarni til o‘rganuvchi mos tarzda qo‘llay olishi muloqotni muvaffaqiyatli kechishiga sabab bo‘ladi[3;14]. Muloqot ikki yoki undan ortiq shaxsning ma’lum vaziyatdagi kommunikativ faoliyati natijasida va muloqot vositasining umumiyligida yuzaga keladi. Muloqotning natijasi lisoniy vositalarning o‘rinli tanlanishi va uzatilayotgan axborotning to‘g‘ri uzatilishi bilan bog‘liq. Muloqot jarayonida lisoniy va nolisoniy hodisalar ishtirokini o‘rganish pragmatika va diskursologiyaning o‘rganish predmetiga aylanib ulgurdi. Jumladan, pragmalingvistikada muloqot vaziyati, konteksti va uning ishtirokchilari ijtimoiy mavqeyi, kommunikativ strategiya va texnika tanlovi bilan bog‘liq masalalar muhokamasi yetakchi o‘ringa chiqqan. Shuningdek, nutqni samarali ravishda tashkillashtirish, tushunmovchiliklar va boshqa qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan bog‘liq strategik bilimlar ham tadqiqotchilar diqqatini tortdi. Inchunin, bunday har tomonlama mukammal so‘zlovchini tayyorlash uchun til o‘rganuvchilarning kommunikativ kompetensiyasini kompleks takomillashtirish orqali erishish mumkin degan xulosaga kelindi.

Kompetensiya tushunchasi va atamasi amerikalik tilshunos D.Hayms tomonidan 1970-yillarda iste’molga kiritildi. Ayniqsa D.Haymsning kommunikativ kompetensiya haqidagi nazariyasi til o‘qitishda yangi qarashlarni olib kirishda muhim rol o‘ynadi. Uning fikricha, til ma’lum jamoadagi tushuncha, sezgilar va qadriyatlar bilan birgalikda ijtimoiy kontekstda o‘zaro aloqa vositasi bo‘lib xizmat qila oladi. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ vazifasini tashkil qiladi.

Til faqatgina o‘zi mavjud bo‘lgan jamoa a’zolari o‘rtasida anglashiladigan ma’nolar tuzilmasi qobig‘ida tushuniladi, shuning uchun o‘rganilayotgan tilni o‘zi mavjud bo‘lgan ijtimoiy va ijtimoiy–madaniy qobig‘ini nazardan chetda qoldirmaslik kerak. Natijada til o‘rganuvchi o‘rganilayotgan tilga aloqador nutq jamoasiga xos nutq aktlaridan unumli foydalana oladi. Tilga bunday kommunikativlik nuqtayi nazardan qarash til o‘qitishda yangi yo‘nalishlar vujudga kelishiga sabab bo‘ladi va bu yo‘nalishlarda til o‘rganuvchilar ma’lum ijtimoiy muhitda ijtimoiy rollar o‘ynaydigan aktyorlar sifatida qaraladi[1;55]. Boshqacha aytganda, tildan til o‘rganuvchi ma’lum maqsad uchun foydalanadi. Til maxsus maqsad uchun (Language for specific purpose LSP) deb nomlanuvchi yo‘nalish vujudga keldi. Bu yo‘nalishda tilga vazifaviylik tamoyili asosida yondashiladi. Tilga vazifaviylik tamoyilik asosida yondashish, izlanuvchilar fikricha, ma’lum vazifaviy maqsadga erishishni anglatadi: ma’lum kasbga doir matnni o‘qish va tushunish, sohaga oid ma’lumotni yetkazish, telefonga javob berish kabi kasbiy vazifalar amalga oshiriladi. Tilni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda maqsadli qo‘llay olish aynan biz fikr yuritayotgan pragmatik qobiliyatga to‘g‘ri keladi, ya’ni ma’lum berilgan vaziyatda ma’noni to‘g‘ri anglash va uni makon, zamon va ijtimoiy kontekstda to‘g‘ri tushunish va qo‘llash qobiliyati. Tilshunoslikning pragmalingvistika sohasi kabi pragmatik qobiliyat tushunchasi ham juda salmoqli bo‘lib, bu terminga berilgan ta’riflar xilma-xildir: eng ko‘p eslatilgan ta’riflardan biri J.Tomasning “Pragmatik qobiliyat – aniq bir maqsadga erishish uchun tildan unumli foydalanish va tilni kontekstga ya’ni nutq vaziyatiga qarab to‘g‘ri tushunish qobiliyati”[6;94] degan izohidir. Fikrimizcha, J.Tomasning bu ta’rifida pragmalingvistika va sotsiopragmatik qobiliyatlarning integrallashganini ko‘rishimiz mumkin. Pragmalingvistik qobiliyat tilning tabiati, muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo‘llash hamda ushbu qo‘llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri kabi bilimlar majmui bo‘lsa, sotsiopragmatik qobiliyat esa turli vaziyatlarda turli ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan shaxslarning kommunikativ harakatlarni to‘g‘ri tanlanishi bilan belgilanadi. Bu chet tili ta’limida kommunikativ sterategiya deb nomlanib, so‘zlovchi tomonidan kommunikativ maqsadga erishish uchun oldindan rejalashtirilgan harakatlar jamlanmasinini anglatadi. Strategiyaning voqelanishi muloqot harakatlarini

amalga oshirish taktikasi bilan bog‘liq. Kommunikativ taktika esa nutqiy muloqot jarayonida amalga oshiriladigan harakat jamlanmasidan iborat bo‘lib, har bir kommunikativ taktika ma’lum bir xususiy maqsadni ko‘zlab tanlanadi. Ushbu tushuncha, boshqacha aytilganda, kommunikativ strategiyani amalga oshirish usulini anglatadi. Masalan, darsda kech qolib kelganda o‘qituvchidan uzr so‘rash vaziyati kommunkativ vazifa hisoblanib, bunda kechirim so‘rash nutqiy aktini amalga oshirish strategiyasi uzr so‘rash, xatoni tuzatish uchun taklif kiritish yoki javobgarliknin o‘z zimmasiga olish kabi taktikalarni birlashtirishni taqozo qiladi va uni quyidagicha diagrammalashtirish mumkin:

Kommunikativ vazifa: You have arrived late to a university lecture, ask an apology from you lecturer.	
Speech act: **Apology**	
Expression of an apology:	*“I’m really sorry”*
Acknowledgment of responsibility	*“I really should have allowed more time for the bus ride”*
Explanation or account	*“Besides, there was huge traffic jam”*
Offer of repair:	*“I’ll get notes on what I missed from a classmate”*
Promise of non-recurrence:	*“Next time I will be on time for the lesson”*

Ammo shuni yodda tutish kerakki, muloqot olib borilayotgan til jamiyatidagi nutq me’yorlariga ko‘ra kommunikativ taktikalar bir xilda bo‘lmasligi mumkin. Masalan, yapon madaniyatida kechirim so‘rash nutq aktini amalga oshirishda muammo sababini tushuntirish noo‘rin hisoblanadi, muammo sababi nutq akti qaratilgan shaxs – adresant so‘raganidagina izohlash joizdir[2;10].

Xullas, chet tilida muloqot jarayoni insonlar o‘rtasida ijtimoiy munosabat o‘rnatish va o‘zaro aloqalarni mustahkamlash uchun olib borilsa interaksion muloqotni, turli axborot va xizmatlar almashinuviga xizmat qilsa tranziksion muloqotni egallashni taqozo qiladi. Bu muloqot jarayonlari esa kommunikativ vazifalarni bilish orqali amalga oshadi. Shunday ekan chet tili ta’limida til haqida faqatgina ta’lim jarayoniga xoslangan pedagogik vazifalarni emas, balki haqiqiy hayotda uchrashi mumkin bo‘lgan vaziyatar va ular orqali turli kommunikativ vazifalarni amalga oshirish yo‘llarini o‘rgatadigan vazifaviy yondashuvga tayangangan holda o‘qitishga urg‘u qaratish maqsadgaa muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ian Tudor. The dynamics of the language classroom. – Cambridge.: Cambridge University Press, – 2001. – P.55.

2. Ishihara N., Cohen A. D. Teaching and learning pragmatics: Where language and culture meet . London, England: Routledge, – 2022. (Ps1-19)

3. J.J.Jalolov, G.T. Mahkamova, Sh.SAshurov. English Language Teaching Methodology. – T.: Fan va texnologiya, 2015. – P.14.

4. L.Bachman. Fundamental considerations in language testing. – New York, Oxford University Press, 1990. – P. 91

5. Odinayev B.I. O‘zbek nutqiy muloqoti lingvopragmatikasi. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2026. 164-bet. (B.10)

6. Thomas J. Cross-cultural pragmatic failure// Applied Linguistics, Volume 4(2), 1983. – P.94.

Bobir TOJIBOYEV,
Namangan davlat pedagogika instituti
Filologiya kafedrasi o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

ADABIYOT DARSLARIDA HAYOTIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot darslarida o‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda geymifikatsiyadan foydalanish yo‘llari yoritilgan. Bunda o‘quvchilardagi jismoniy va kognitiv xususiyatlarga tayanish ularning hayotda o‘z o‘rnini topish, o‘zgalarni his qilish, g‘amxo‘rlik va ijodkorligini ifodalash, boshqa xalqlarning madaniyatini tushunishga qaratilgan zarur ko‘nikmalar va qiziquvchanligini rivojlantirishga hissa qo‘shishiga ahamiyat qaratilgan.

Kalit so‘zlar: *geymifikatsiya, hayotiy ko‘nikmalar, jismoniy rivojlanish, kognitiv rivojlanish, o‘yin elementlari.*

Annotation: this article highlights ways to use gamification in developing students’ life skills in literature lessons. At the same time, the importance is attached to the fact that relying on the physical and cognitive characteristics of students contributes to the development of the necessary skills and curiosity aimed at finding their place in life, feeling others, expressing care and creativity, and understanding the culture of other peoples.

Key words: *gamification, life skills, physical development, cognitive development, game elements.*

Аннотация: в данной статье освещены пути использования геймификации в развитии жизненных навыков учащихся на уроках литературы. При этом обращается внимание на то, что опора на физические и когнитивные особенности учащихся способствует развитию у них необходимых навыков и любознательности, направленных на поиск своего места в жизни, чувствовать других, выражать заботу и творчество, понимать культуру других народов.

Ключевые слова: *геймификация, жизненные навыки, физическое развитие, когнитивное развитие, игровые элементы.*

Ma’lumki, aksariyat kichik yoshdagi o‘quvchilar o‘yinlarni yaxshi ko‘rishadi. Shu sababli adabiyot darslarida turli janrdagi asarlar mohiyatidan kelib chiqib, o‘yin turlari yoki elementlarini to‘g‘ri tanlash joiz. Bunda o‘quvchilarning jismoniy va kognitiv rivojlanishiga asoslanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jismoniy rivojlanish o‘quvchilar tanasining umumiy holati, motor qobiliyatlari, kuchi va sog‘ligi bilan bog‘liq. Adabiyot darslarida jismoniy rivojlanishni ko‘zda tutadigan geymifikatsiya elementlari xalq og‘zaki ijodiga mansub namunalarni ijro etish, sahnalashtirish, badiiy asarlardagi muayyan lavhalar va qahramonlar rollarini gavdalantirish misolida ularda o‘zlariga ishonch, mustaqillik hamda ijobiy odatlarni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Buni 6-sinfda “Yo ramazon” qachon, nima uchun aytiladi? Siz ham aytganmisiz? Uning so‘zlarini yozib keling va sinfda ijro etishga tayyorgarlik ko‘ring. 2. Bobo-buvilaringiz, ota-onangizdan bolalik xotiralarini so‘rang. Ayrim qiziqarli lavhalarni yozib oling va sinfdoshlaringizga o‘qib bering”[1] mazmunida qo‘yilgan topshiriqlarda ham muayyan darajada o‘yin elementlarini qo‘llashga ishora borligini kuzatish mumkin.

6-sinfda o‘rganiladigan “Oq terakmi, ko‘k terak?”, “Omonyor o‘ynasangchi-yey, omonyor”, “Boychechagim boylandi”, “Alla aytay, jonim bolam” kabi qo‘shiqlar muayyan ijroni, jumladan, yugurib borish va qo‘l ushlashib qaytish, raqsga tushish, qo‘g‘irchoqlar o‘ynash kabi harakatlarni taqozo etadi. Biz tadqiqotimiz davomida “Hey, lola”, “Shamol”, “Oftob chiqdi olamga”, “Qaldirg‘och”, “Turnalar”, “Chittigul” kabi qo‘shiqlarni mustaqil o‘qish va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o‘yinlar vositasida ijro qilish orqali, birinchidan, o‘quvchilarni mavzuga qiziqtirgan bo‘lsak, ikkinchidan, o‘zbek xalqining qadimdan o‘tib kelayotgan an’ana va qadriyatlariga ongli munosabatni shakllantirishga urg‘u qaratdik. Buning uchun ona tabiatning uyg‘onishi, gul-chechaklarning ko‘z ochishi, atrof olamdagi o‘zgarishlar bilan bog‘liq “Qo‘ziqorin terganda”, “Chuchmoma”, “Qoqi yoki qo‘sh oyoq”, “Yomg‘ir gadoyi keldi”[2] kabi qo‘shiqlar tanlandi. Qo‘shiqlar matni o‘quvchilarga yod olish va mazmunini ularga mos harakatlarda jonlantirish vazifasi yuklatildi. Sahna uchun joy hozirlandi, tabiatning bahordagi ko‘rinishi uchun dekoratsiyalar tayyorlandi. Bunga texnologiya, tasviriy san’at, matematika va tabiiy fanlarga qiziqadigan o‘quvchilar qiziqishlari va imkoniyatlariga ko‘proq tayanildi. Roliga mos liboslar tanlash, zarur aksessuarlarni yasash topshiriqlari ham berildi. Bu ish o‘quvchilarning ayrim mavzularni mustaqil o‘rganishlarini namoyon etuvchi ijodiy hisobotlar darsi sifatida namoyon bo‘ldi.

“Qo‘ziqorin terganda” qo‘shig‘i ijrosi uchun o‘quvchilarning o‘zlari ishtirokida sun’iy yomg‘ir hosil qilindi. So‘ngra o‘quvchilar tomonidan yasalgan oppoq qo‘ziqorinlar paydo bo‘ladi. Shunda sahnaga bir qiz

1 Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. Q.Yo‘ldoshev va boshq. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. 97-b.

2 Наврўз. Тузувчилар Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1992. 38–53 б.

va o‘g‘il bola chiqib, savatchalariga ularni tergan kabi harakatlanishadi va quyidagi qo‘shiqni aytishadi:

Qiz bola: *Zamburiq, So‘pisi yoriq, Jo‘rangni top.*

Shundan so‘ng o‘g‘il bola davom ettiradi:

O‘zingni topdim, Yoringni topsaydim.
Zamburug‘, Bag‘ring yoriq,
Hamroyingni topsaydim,
Jizza kabob etsaydim.

Boshqa bir o‘quvchi chiqib, ijrochi o‘quvchilar yoki boshqalardan “zamburiq”, “so‘pisi” kabi so‘zlarga izoh so‘raydi. Bu esa, yangi bilimlarning o‘zlashtirilishiga, lug‘at boyligi yanada ortishiga ijobiy ta’sir qiladi.

Qir-adirlarga monand bezalgan sahnadan qo‘llarida savatchalari bilan yana bir guruh bolalar joy egallashadi. Ular endi har tomonga yugurishib, chuchmomalarni izlay boshlaydilar. Bu o‘quvchilarning “Chuchmoma” qo‘shig‘iga sahnalashtirilgan faoliyati sifatidagi izlanishlariga misoldir.

“Chuv-chuv momo”, ya’ni chuchmomo tergani chiqqan bolalar:

Chimma, chimma, chiralay, Sening ko‘zing quralay.

Chuv-chuv momo, – deb uni izlaydilar.

Birinchi chuchmomaga ko‘zi tushgan bola uni sug‘urayotganda:

Yangi to‘ning kiyib chiq, Ko‘hna to‘ning qo‘yib chiq,
Chuv-chuv momo, chiq-chiq, – deydi.

Qoqi yoki qo‘sh oyoq terish jarayoni quyidagicha gavdalantiriladi:

“Qo‘sh oyoq”, qoqi o‘tlarni izlaganda bolalar:
Topil, topil, topg‘ach qush,
Topilmasang o‘tg‘ach qush, – deb aytim aytadilar.

Yuqoridagi o‘yin elementlari bilan uyg‘unlashtirilgan qo‘shiqlar badiiy-estetik tafakkur rivojida alohida o‘rin tutadi. Shuning bilan birga, ularning inson salomatligiga ta’siri haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishlarini ham taqozo etadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “Qoqigul, qoqio‘t sariq to‘pgulli, sut, shirali, qurigach, urug‘li to‘zg‘og‘i shamolda uchib ketadigan ko‘p yillik o‘t; momaqaymoq”[3] ekanligi qayd etilgan.

O‘simliklarning xususiyatlarini aniqlash bilan bog‘liq topshiriqlar natijasida ularga xos shifobaxshlik xususiyatlari ayonlashadi: “Qoqigul (momaqaymoq) xalq tabobatida ishtaha ochuvchi, hazmni yaxshilovchi, organizmni quvvatlantiruvchi va o‘t haydovchi xususiyatlarga ega dorivor o‘simlikdir. Uning barglari to‘pbarg hosil qiladi, gullari sariq bo‘lib, bahordan yozgacha gullaydi”[4]. Tibbiyotda va xalq tabobatida o‘simlikning kamqonlikka yordam berishi, immun tizimini mustahkamlashi, oshqozon shirasi ajralishini rag‘batlantirishi, ishtahani ochishi, damlamasi gijjalarni yo‘qotishi, metabolizmni yaxshilashi kabilar hayotda muayyan dori vositalarini iste’mol qilishdan ko‘ra tabiiyligi bilan salomatlikka foydali ekani ham hayotda juda asqotadi.

3 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Қ ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com kutubxonasi. 334-б.

4 https://www.google.com/search?q=qoqigulning+xususiyati&

Kognitiv rivojlanish funksiyalari orasida o‘quvchilarning fikrlash va o‘rganish imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu muammolarni hal qilishda tanqidiy fikrlash, sodda matematik tushunchalarni (sonlar, shakllar, belgilar va o‘lchovlar) o‘zlashtirish o‘quv tadqiqotlari olib borish, izlanish, qiziqish, kashfiyot va sinovlarni rag‘batlantirish orqali erishish mumkin. Muammolarni tanqidiy fikrlash va o‘ylash orqali hal qilish jarayonida ularga ijodiy yechimlar taklif qilish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Jumboqlar, muayyan tajribalar, mantiqiy o‘yinlarga moslashuvchanlik va mustaqil fikrlash chizig‘ini shakllantirish omili sifatida qaraladi.

O‘quv tadqiqotlari tabiat dunyosiga kirish, undagi yashirin sir-sinoatlarga qiziqish uyg‘otish, kichik detallarni ham kuzatish, tajribalar o‘tkazish va tadqiq qilish kabi ishlardan iborat. Shu tarzda o‘quvchilar savollar berish, natijalarni oldindan ko‘ra bilish, g‘oyalar asosida tajribalar va sabab-oqibat munosabatlari haqidagi tasavvurlarini shakllantirishni o‘rganadilar. Jumladan, 7-sinfda Qamchibek Kenjaning “Baliq ovi” hikoyasini “Tergovni bilimdonlar olib boradi” darsi asosida o‘rganish asarni “oldindan puxta o‘rgangan o‘quvchilar yordamida qiziqarli savol-javoblar, tahlillar asosida isbotlab tushuntirish mashqlari bo‘lib, bunda o‘quvchilar dars mavzusini o‘zlashtirib, eslab qolishlari uchun qulaylik yaratadi”[5]. Buning uchun asar bilan chuqur tanishib, o‘g‘lining o‘limiga sabab bo‘lgan ota obrazi so‘roq – “tergov” qilinadi.

Hikoyada baliq ovlashni yoqtiradigan, ammo otasining loqaydligi sabab vafot etgan o‘smir, rahbarlarga yaxshi ko‘rinishni xohlab, farzandi fojiasida sabab bo‘lgan ota tutumlari taqdiri haqida hikoya qilinadi. Bunda o‘quvchilarga ota va “baliqxo‘r” kimsaning xatti-harakatlarini batafsil o‘rganib, ular yo‘l qo‘ygan xatolar, farzand taqdiriga befarqlik, nafsga berilish oqibatlariga e’tibor qaratish vazifasi topshiriladi. Rollar taqsimlanadi, muayyan vaqt oralig‘ida har bir o‘quvchi o‘zini tergovchi rolida otaga va baliqxo‘rga berishi zarur sanalgan savollar tuzishlari va ularning javoblarini ham o‘ylashlari lozim bo‘ladi.

Tergov uchun sinf xonasida muayyan joy hozirlanadi. Jarayon imkon qadar bir nechta guruhlar tomonidan shakllantiriladi. Bu esa fikrlar rang-barangligi, masalaga turli rakursdan qarash imkonini beradi. Tergovga quyidagi epizodga alohida ahamiyat qaratish zarurligi eslatiladi: *“Baliqxo‘r” biznikiga oxirgi safar kelganida taxminan erta bahor edi. Qattiq kelgan qishning hali zahri ketmagandi. “Baliqxo‘r kishi” birinchi marta ko‘pchilik bilan keldi. Sheriklari ham o‘ziga o‘xshagan qorindor-qorindor-u, faqat mo‘ylovlari yo‘q edi, xolos.*

Otam mehmonlarni katta uyga joylashtirib, tezda hammamiz tiqilib o‘tirgan dahlizga qaytib chiqdi-da, past ovozda ish taqsimlay ketdi:

– Onasi, darrov suyuq oshga urin, qo‘y yog‘idan ko‘proq to‘g‘ramchilab, jazla. Salomat, baland so‘ridagi

5 Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. 86-б.

uzum, anordan olib tush, qovundanam, eski chakmonga o‘rab qo‘yganman. Keyin qo‘shnilardan qatiq top, ko‘proq, ha, sariyog‘am. Bo‘la qol, oyog‘ingni qo‘lingga ol. Komil, ukangni boshla to‘qayga. Mo‘lroq tutib kelinglar. Sudralmay ildamroq qimirla”[6].

O‘quvchilar tergovchi, ota, ona, ukasi, baliqxo‘r rollarida qatnashishadi. Dastlabki tergov jarayoni. Ota so‘roq qilinmoqda.

Tergovchi rolidagi o‘quvchi: Oilangiz bilan suhbatda uyingizga hamkasblaringiz juda ko‘p mehmonga kelishi aniqlandi. Biror marta ham ularning istagini rad etishga urinmadingizmi?

Otaning rolidagi o‘quvchining javobi.

Tergovchi rolidagi o‘quvchi: Nima uchun farzandingizni qattiq sovuq bo‘lishiga qaramay, baliq tutishga yubordingiz? Kichik o‘g‘lingizning eslashicha, ayolingiz qarshilik qilganida, siz “*Hech narsa qilmaydi, to‘rda ovlashadi. Ataylab baliqxo‘rlikka kelishgan*” degan ekansiz. Bolangizga rahmingiz kelmadimi?

Ota rolidagi o‘quvchining javobi tinglanadi.

Tergovchi rolidagi o‘quvchi: Nima deb o‘ylaysiz, o‘g‘lingiz baliq oviga borganida, sizga nisbatan qanday fikr uyg‘ondi ekan? Shu haqda hech o‘ylab ko‘rdingizmi?

Ota rolidagi o‘quvchining javobi tinglanadi.

Tergovchi rolidagi o‘quvchi: Siz harakatlaringizni mehmondo‘stlik deb bilasizmi? Yoki bundan boshqa manfaat ham kutgansizmi?

Ota rolidagi o‘quvchining javobi tinglanadi.

Tergovchi rolidagi o‘quvchi bolaning onasiga: Nega eringizni bu ishidan qaytarishga harakat qilmadingiz? Eringizning buyrug‘i farzandingizning hayotidan ham afzalmi?

Ona rolidagi o‘quvchining javobi tinglanadi.

Tergovchi baliqxo‘r rolidagi ishtirokchiga yuzlanib: Hadeb u kishining uyiga kelaverishga, bolalarining haqiga sherik bo‘lishga uyalmadingizmi? Siz ham hech u kishini mehmoq qilgansizmi?

Baliqxo‘r kimsa rolidagi o‘quvchining javobi tinglanadi.

Tergovchi rolidagi o‘quvchi Komilning ukasidan: Qani baliq tutish qanday bo‘lganini aytib ber-chi? Aynan qaysi xatti-harakati akangning salomatligiga ta’sir qildi deb o‘ylaysan?

Shu o‘rinda bola obrazidagi o‘quvchining javobi tinglanishi muhim hisoblanadi:

“Akam otamning gapini ikki qilmas, boshlagan ishini, albatta, oxiriga yetkazardi. “Falon narsa bitmay qoldi” yo “yo‘q ekan” deganini bilmayman. Bunday bo‘lishiga otam yo‘l qo‘ymasdi ham.

Yana bir marta urinib ko‘rganimizdan keyin akam to‘rni qo‘riqqa otib yuborib, yechina boshladi. Akamga Dimariqdagi, umuman, to‘qayning hamma buloq va ariqlaridagi baliq kamarlari besh qo‘lday ma’lum edi. U ariqning chuqurroq joyini, baliqning kamarini mo‘ljallab sho‘ng‘idi. Suv tiniq bo‘lgani uchun uning harakatlari aniq ko‘rinardi. To‘g‘ri borib po‘sti qolmagan, suv yalab o‘tayotgan yapasqi tol to‘nkasi ostiga qo‘l suqdi. Amfibiya odamday suv ostida har zamonda oyoqlarini siltab, muallaq holda ancha turib qoldi, keyin orqasiga tisarilib, suv betiga otilib chiqdi. Uning ikki qo‘lida bir yarim-ikki qarich keladigan ikkita zog‘orabaliq tipirchilardi. Akam baliqlarni qirg‘oqqa irg‘itib, yana sho‘ng‘idi. Keyin yana... Aftidan, ulgurji baliq topib olganidan u ham o‘zida yo‘q xursand, sovuqni ham unutgan edi. U har gal baliqni menga tashlayotib “Nechta bo‘ldi?” deb so‘rardi-yu, lekin javob kutmay sho‘ng‘ib ketardi. O‘n beshtaga borganda akam suvdan chiqdi. Badani qorda ishqalanganday qip-qizarib ketgan, dag‘-dag‘ qaltirar, tishlari bir-biriga tegib takillardi”[7].

Tergov shaklidagi tahlil chog‘ida har bir guruh asardagi turli lavhalar va qahramonlar xatti-harakatlariga e’tibor berishib, tanqidiy fikrlashlari va o‘z nuqtayi nazarlarini asoslashga intilishadi. Natijada, ularda fikrlarini asoslash, dalil keltirish, tizimlashtirish va xulosalash ko‘nikmalari takomillashadi.

Xulosa qilganda, o‘qituvchi nafaqat o‘quv dasturidagi, balki unga uzviylikda boshqa asarlar mutolaasini yo‘lga qo‘yishi o‘quvchilarda mustaqil yoki sinfdan tashqari o‘qishga rag‘batni oshiradi. Turli janrdagi asarlarni geymifikatsiya asosida o‘rganish o‘quvchilarda ko‘tarinki kayfiyat hosil qiladi, do‘stona muhit va birdamlikni yuzaga keltiradi. Bir predmetning boshqa o‘quv fani bilan bog‘liq ma’lumotlarini o‘z xohishlari bilan o‘rganishlariga zamin yaratadi.

6 Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. 194-b.

7 Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. 195–196-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik. 1-qism. Q.Yo‘ldoshev va boshq. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. 100-b.

2. Adabiyot [Matn]: 6-sinf uchun darslik / Z. I. Mirzayeva, K. Q. Djalilov. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. 224-b.

3. https://www.google.com/search?q=qoqigulning+xususiyati&

4. Наврўз. Тузувчилар Т.Мирзаев, М.Жўраев. – Тошкент: Фан, 1992.100 б.

5. Йўлдошев Ж.Ғ., Усмонов С.А. Замонавий педагогик технологияларни амалиётга жорий этиш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2008. 123 б.

6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Қ ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. www.ziyouz.com kutubxonasi. 425 б.



PSIXOLOGIYA

N.M. MAMBETAMINOV,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
e-mail: nurlibaymambetaminov@gmail.com

O‘QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA TIL VA TAFAKKUR MUNOSABATLARI TAHLILI

Annotatsiya: maqolada o‘quvchilarni badiiy matn ustida ishlashga o‘rgatish orqali ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish masalasi yoritilgan. Matn ustida ishlashga o‘rgatish muallifning o‘sha asarni yaratish jarayonidagi ijodiy yo‘lini qayta bosib o‘tish, fikr-mulohazalari, hissiyot va xulosalariga sherik bo‘lishga tayyorlash asosida ma’naviy yetuklikka erishishga qaratilishi haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *matn, tahlil, o‘qish, sharh, kirish mashg‘ulotlar.*

Аннотация: в статье освещается вопрос формирования у учащихся навыков литературно-эстетического анализа путем обучения их работе над художественным текстом. В статье говорится, что обучение работе над текстом направлено на достижение духовной зрелости на основе повторного прохождения творческого пути автора в процессе создания этого произведения, подготовки к разделу его мыслей, чувств и выводов.

Ключевые слова: *текст, анализ, чтение, толкование, вводные занятия.*

Annotation: the article addresses the issue of developing students’ literary and aesthetic analysis skills by teaching them to work on a literary text. The article states that teaching to work on a text is aimed at achieving spiritual maturity based on repeating the author’s creative path in the process of creating this work, preparing for the section of his thoughts, feelings, and conclusions.

Key words: *text, analysis, reading, interpretation, introductory lessons.*

Kirish. So‘nggi yillarda jamiyat hayotidagi evrilishlar, ta’lim tizimidagi islohotlar boshlang‘ich sinflarning “O‘qish savodxonligi” darsliklaridagi asarlarni nafaqat o‘quv-metodik tahlil, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga oid tarbiyaviy jihatdan ham tahlilga tortishni taqozo etadi. Badiiy asarlarning ijtimoiy-kommunikativ xususiyatlari bilan badiiyatining uyg‘unligi tahlilga kompleks yondashishni nazarda tutadi. Kompleks tahlilda asar sarlavhasidan tortib, g‘oyaviy-badiiy mohiyati, obrazlar tizimi, badiiy til xususiyatlari, tuzilishi, syujet voqealari o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishlari kabi turli masalalar doirasida amalga oshiriladi.

“O‘qish savodxonligi” darsliklarining milliy dastur asosida yaratilgan nashrlarida o‘quv materiallariga yangicha yondashish nazarda tutilgani asarlar matni tahliliga ham yangicha yondashishni taqozo etadi. Jumladan, “O‘ylab ko‘ring” rukni ostida biror tarbiyaviy muammo yuzasidan mulohaza yuritishga yollovchi topshiriqlarning berilishi, dars mavzusini o‘zlashtirishga doir hikmatlar va rasmlarning keltirilishi asar tahlili ichiga chuqurroq kirib borishda qo‘l keladi. “O‘qish savodxonligi” darslarida darslik matnlarini kommunikativ, axloqiy-estetik tarbiya jarayonining badiiy ifodasi sifatida tahlil qilish ularni yakka holda emas, balki har jihatdan o‘zaro aloqada bo‘lgan yaxlit tizim misolida ko‘rish, tahlillash va baholash imkonini beradi. Ushbu badiiy-estetik o‘quv tahlili tizimining ta’limiy-tarbiyaviy va badiiy kommunikatsiya sikli (jamiyat – ijodkor, ijodkor – badiiy asar, badiiy asar – kitobxon) g‘oyaviy-badiiy jihatdan oxir-oqibat yangi avlod tarbiyasiga bo‘lgan zarurat bilan belgilanadi.

Adabiyotlar tahlili va metod. Boshlang‘ich ta’lim tizimida olib borilgan ko‘p yillik pedagogik faoliyatimiz va mavzuga tegishli adabiyotlar tahlili natijasida shunga amin bo‘ldikki, matn mohiyatini anglashda unga turli nuqtayi nazardan yondashish kutilgan natijani berishi mumkin.

Negaki ta’limda nafaqat so‘z san’atning badiiy kommunikativ tizimini yaratiladi, balki jamiyatda tarbiyaviy-badiiy axborotni yetkazib berishda o‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ifoda vositalari shakllantiriladi. Mazkur ifoda vositalari kitobxonlarning yosh xususiyatlari hamda adabiy janr talabiga ko‘ra asar tili, badiiyati hissiy ta’sir me’yorlarini belgilaydi. Shunga ko‘ra,

darslikdagi o‘quv materiallari tahlili so‘z san’atining badiiy, ijtimoiy-kommunikativ tabiatini o‘rganishning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Ko‘rinadiki, asar tili, birinchi navbatda, muloqot vositasi, o‘quvchilarni atrof-olam, insoniy munosabatlar, ona tabiat bilan tanishtirish va hayotiy tasavvurlarini boyitish vositasi sifatida tahlil va talqin qilinadi. Natijada o‘quvchilarning yozma va og‘zaki bog‘lanishli nutqi shakllanadi. So‘z san’atiga muloqotning o‘ziga xos manbasi sifatida qarash, uning badiiy, ijtimoiy-kommunikativ funksiyasi pedagogik-psixologik jihatdan qay tarzda amalga oshirilishini o‘rganish o‘qish savodxonligining funksional muammolaridandir.

Badiiy asarning tiliga oid yetakchi xususiyatlar tahlilida muallif va personajlar nutqi vositasida asarning badiiy-estetik qimmati, yozuvchining badiiy mahorati, asarda ilgari surilgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘quvchi hissiyotiga ta’siri bilan bog‘liqlikda tadqiq qilinishi o‘quvchini beparvolik munosabatidan chiqaradi, passiv kuzatuvchidan ijodiy faollikka yo‘naltiradi, hayotga yaqinlashtiradi, badiiy-axloqiy tafakkurini yuksaltiradi. Badiiy matndagi nutqiy vaziyatlarning yuzaga kelishiga doir omillar, muallif tomonidan ilgari surilgan yetakchi g‘oya, syujet voqealarining sabab-natija bog‘lanishlari, personajlarning o‘zaro munosabatlari tasviri o‘quvchilarning adadiy-estetik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda badiiy so‘zning hayotiy qimmatini hech narsa bilan tenglab bo‘lmasligini anglatadi.

Zero, so‘zda sehr bor, she’rda hikmat, deyiladi hadisda. Tilni ko‘ngil xazinasing qulfi deb bil, so‘zni shu xazinaning kaliti, deb yozadi Alisher Navoiy. “Kimniki bilay desang, maqolin angla”, ta’kidlaydi buyuk mutafakkir. Uning ta’rificha, so‘z o‘lik tanaga ruh (jon) bag‘ishlaydi.

Aslini olganda, so‘zlar olami xilma-xil, har qanday kishini o‘ziga jalb etuvchi, ko‘p qatlamli va ma’nodor, qiziqarli bo‘lib, haligacha to‘liq kashf etilmagan olam kabi bitmas-tuganmasdir. Badiiy adabiyotda so‘z g‘oyalar, fikrlar, obrazlar, tuyg‘ular ifodasi sifatida oddiy, go‘yo nazarga tushmaydigan, lug‘atda alfavit tartibida tuzilgan so‘zlardan iborat bo‘lib, yozuvchi ularni tanlagani va o‘z asarlarida ma’no va hissiyot rang-barangligi bilan yorqinlashtirgani, ularga hayot bag‘ishlagani uchun jonlanadi, o‘quvchi ruhiyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

So‘zlar shunchaki mavjud bo‘lganida rubobning torlari kabi sokin taassurot qoldirsada yozuvchi qalami tufayli hayotbaxsh ma’no kasb etadi. So‘zdagi tovushlar esa bitmas-tuganmas va beqiyosdir.

Anglashiladiki, badiiy so‘z o‘z mohiyatiga ko‘ra umumlashtirish, shu bilan birga o‘ziga xos takrorlanmas ma’noni ham ifoda eta olishi tufayli o‘quvchilarning moddiy dunyo haqidagi tasavvurlari, tushunchalari, bilimlari, fikr va his-tuyg‘ularini hayotiy tajribalari bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rsatish qudratiga egadir.

Muhokama. Badiiy so‘z vositasida kundalik ishlar, hech qachon bormagan olis mamlakatlar va hatto eng abstrakt mavzularda ham ijodiy muloqot qilish mumkin. Tildan hayotda doimiy ravishda foydalaniladi, ammo uning qanday tuzilgani ustida ko‘pda o‘ylab ham ko‘rilmaydi. Aslida u hayotda muayyan maqsadga erishish vositasi – gapirish, eshitish, anglash va tushunish qurolidir. Lingvistlar uchun til maxsus ilmiy tadqiqot obyekti bo‘lib, uning natijalari maqolalar, monografiyalar akademik grammatikalar, lug‘atlar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarda umumlashtiriladi. Turli kasb egalari o‘zlari mansub bo‘lgan sohalarni tahlil qilgani kabi, lingvistlar ham tilni og‘zaki, yozma va bog‘lanishli nutq qonuniyatlari negizida tahlil qiladi, badiiy adabiyot namunalari matnidan umumiy foydalanadi. Buning uchun esa maxsus tahlil vositalari – asosiy tushunchalar, tahlil usullari yordamida matnning, odatda ko‘zdan yashirin qoladigan jihatlari ham oydinlashtiriladi.

Natijalar. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan so‘zning shakli va ma’nosi to‘g‘ri nutq qurilishi uchun asos vazifasini o‘taydi. Shunday ekan, badiiy tahlilda matnni qanday qabul qilish mumkin? Shunisi ham borki, ko‘pincha muloqot jarayoni fikrni so‘z orqali uzatish tarzida tushuniladi. Lekin aslida bu haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Fikrni bir odamning miyasidan boshqa birovga ko‘chirish mumkin emas. Xuddi shuningdek, biror badiiy asardan ham uning mazmunini sug‘urib olish mumkin emas. Ko‘rinadiki, so‘z mexanik tarzda uzatilmaydi. Balki o‘xshash fikr va hissiyotlarni uyg‘otishga xizmat qiladi. So‘z ijtimoiy ahamiyatga ega manba sifatida avlodlardan avlodlarga umumiy merosdir. Shuning uchun nutqda ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ma’lumotga ishora qilinadi.

Inson o‘zining hayotiy faoliyati jarayonida atrof-muhit va boshqalar bilan munosabatga kirishadi. Natijada uning ongida turli taassurotlar, obrazlar,

tushunchalar aks etadi. Mazkur taassurotlar, obrazlar, tushunchalar so‘zlar vositasida reallashadi.

Haqiqatda egallangan barcha bilim va taassurotlar ko‘pincha “pinhon” holda yashaydi. Zarurat tug‘ilganda qayta tiriladi – so‘zlar vositasida faollashadi. Shu tariqa mavjud bilimlar, taassurot va tasavvurlar uyg‘unlikda til orqali muloqot qilish, nutq yaratish va uni qabul qilishning asosini tashkil etadi.

Ta’lim jarayonida matn o‘quvchi uchun muayyan ketma-ketlikdagi belgilar, ya’ni harflar va so‘zlardir. Ular ma’no jihatdan o‘zaro bog‘liqligi tufayli so‘zlar ham matn ma’nosi ham o‘quvchilarning bilimlar, tasavvur va tajribasi mahsuli o‘laroq tushunarli bo‘lib qoladi. O‘quvchi tomonidan ijodiy qayta yaratiladi.

Ta’lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning 4-sinfida “O‘qish savodxonligi” darslarida “Ertekler-jaqsiliqqa jetekler” ruknida xalq ertaklari o‘rganiladi, o‘quvchi har xil topshiriqlarni bajarish orqali matn tilini chuqur organadi va badiiy matn tahlili natijasida o‘quvchining tafakkuri rivojlanadi. Mazkur jarayonlarning chuqurlashida badiiy matnda uchraydigan masalalarning yakka tajriba bilan bog‘liq o‘rganilishi juda yaxshi natijalar beradi. Masalan, qoraqalpoq xalq ertaklarida uchraydigan kampir va chol obrazlari orqali o‘quvchilarda yoshi kattalarga bo‘lgan hurmat kuchayadi. Bolalar mazkur obrazlarni o‘z otalari va buvilari bilan taqqoslaydi, shuningdek, o‘larning mehri va adolatligiga ishonchi yana ham kuchayadi.

Badiiy adabiyot namunalarini o‘rganish orqali o‘quvchilarning tafakkuri yuksalib boradi, masalan, 4-sinf darsligida xalqimiz uchun qadrli bo‘lgan nonga hurmat masalasiga alohida e’tibor qaratiladi. Mazkur masala U.Sadikovning “Nannin’ usag‘i”, S.Abbazovning “Yadin’da tut jan balam”, Ya.Ajimovning “Nannin’ iyisi” hikoyalarida so‘z qilinadi. O‘quvchilar nafaqat badiiy matnda foydalanilgan so‘zlar va ifodalar, balki so‘zlarning ko‘chma ma’nosin ham o‘rganadilar, yani matnda qo‘llanilgan epitet, metafora, metonimiya va b. haqida tushunchaga ega bo‘ladilar. Shuningdek, mazkur badiiy matnlar orqali nonga bo‘lgan hurmar oshirilib, o‘quvchining tafakkuri rivojlanadi.

Xulosa. Shu tariqa, til va tafakkurning o‘zaro bog‘liqligiga bois til birliklarining ma’nolari kengayadi. Xulosa qilganda, o‘qish savodxonligi darslarida badiiy asarlar tahliliga til va tafakkur uyg‘unligi nuqtayi nazaridan yondashilishi ta’lim samaradorligini ta’minlash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S. va boshqalar. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent, “Ishonchli hamkor”, 2021. 644 bet.

2. Asqarova M.A. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish va matnni tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish. Falsafa dokt. (PhD) diss. – Namangan, 2020. 185 bet.

3. Bakiyeva H. 4-sinf o‘quv darslarida adabiy tahlil ko‘nikmalarini shakllantirish. – Toshkent: “Nodirabegim”, 2021. 148 bet.

4. Е.Бердимуратов, Ж.Пирниязов, Қ.Алланазаров, Ж.Успанова. Оқыў китабы, қаракалпақ мектепleриниң 4 – класына арналған сабақлық. – Tashkent, 2024.

Zebo NORQUZIYEVA,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi
norkuziyevaz@mail.ru

TALABALARNING REFLEKSIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

Annotatsiya: mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida talabalarning refleksiv kompetentligini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati va uning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Hozirgi globallashuv va ta’limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan rivojlanish sharoitida talabalarda mustaqil fikrlash, o‘z faoliyatini tahlil qilish hamda o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan refleksiya shaxsning o‘z xatti-harakatlari, faoliyati va tajribasini anglash hamda tahlil qilishga qaratilgan muhim intellektual jarayon sifatida qaraladi. Maqolada refleksiya tushunchasining nazariy asoslari, uning pedagogik faoliyatdagi o‘rni hamda refleksiv fikrlash jarayonining talabalarning kasbiy rivojlanishiga ta’siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Tadqiqot jarayonida pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlaridan foydalanildi.

Kalit so‘zlar: *refleksiya, refleksiv kompetentlik, pedagogik refleksiya, tanqidiy fikrlash, kasbiy kompetensiya, pedagogik faoliyat.*

Annotation: this article analyzes the pedagogical significance of developing students’ reflective competence in the modern education system and its role in the process of professional training. In the context of globalization and the development of education based on a competency-based approach, the formation of students’ independent thinking, self-analysis, and self-development skills is considered one of the key tasks. From this perspective, reflection is regarded as an important intellectual process aimed at understanding and analyzing one’s actions, activities, and experiences. The article discusses the theoretical foundations of the concept of reflection, its role in pedagogical activity, and the influence of reflective thinking on students’ professional development based on scientific sources. During the research, methods such as analysis of pedagogical and psychological literature, comparative analysis, generalization, and a systematic approach were used.

Key words: *reflection; reflective competence; pedagogical reflection; critical thinking; professional competence; pedagogical activity.*

Аннотация: в данной статье анализируется педагогическое значение развития рефлексивной компетентности студентов в современной системе образования и её роль в процессе профессиональной подготовки. В условиях глобализации и развития образования на основе компетентностного подхода формирование у студентов навыков самостоятельного мышления, самоанализа и саморазвития является одной из важнейших задач. С этой точки зрения рефлексия рассматривается как важный интеллектуальный процесс, направленный на осмысление и анализ собственных действий, деятельности и опыта. В статье освещаются теоретические основы понятия рефлексии, её роль в педагогической деятельности, а также влияние рефлексивного мышления на профессиональное развитие студентов на основе научных источников. В ходе исследования использовались методы анализа педагогической и психологической литературы, сравнительного анализа, обобщения и системного подхода.

Ключевые слова: *рефлексия, рефлексивная компетентность, педагогическая рефлексия, критическое мышление, профессиональная компетенция, педагогическая деятельность.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirish hamda kasbiy faoliyatga tayyorlash muhim vazifalardan biridir. Globallashuv jarayonlari va ilm-fan taraqqiyoti ta’lim tizimi oldiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Bunday sharoitda ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki ta’lim oluvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish,

o‘z faoliyatini tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtayi nazardan talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish muhim pedagogik masalalardan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv keng qo‘llanilib, u nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Refleksiv kompetentlik shaxsning o‘z faoliyatini anglash, baholash va takomillashtirishiga yordam beradi. Refleksiya orqali shaxs o‘z bilim va tajribasini tahlil qilib, kelgusidagi faoliyatini samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilmiy adabiyotlarda refleksiya shaxsning o‘z faoliyatini anglash va tahlil qilishga qaratilgan fikrlash jarayoni sifatida talqin qilinadi. Shu sababli pedagogik ta’lim jarayonida talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish ularning kasbiy tayyorgarligini oshirish hamda o‘quv faoliyatiga ongli yondashuvni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzu bo‘yicha adabiyotlar sharhi. Talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, refleksiya shaxsiy va kasbiy rivojlanishning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi. M.Ye. Beloborodova (Rossiya) refleksiyani shaxsiy va kasbiy o‘sish vositasi sifatida ta’riflaydi [1], P.Y.Galperin esa aqliy harakatlar bosqichlari orqali o‘qitish nazariyasi doirasida uning pedagogik ahamiyatini ko‘rsatadi [2].

Nazariy tahlil jarayonida aniqlanishicha, talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish tanqidiy fikrlashni faollashtirish, ijodiy o‘sishni dinamik tarzda ta’minlash, kasbiy pragmatizmni shakllantirish, hissiy-emotsional holatni boshqarish hamda kommunikativ refleksiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, refleksiv kompetentlik nafaqat o‘quv jarayonini yaxshilash, balki talabaning shaxsiy va professional tayyorgarligini integratsiyalashgan holda rivojlantirish imkonini beradi.

Refleksiv qobiliyatlar nazariyasi quyidagi taniqli rus va mahalliy psixolog va pedagoglarining asarlarida bayon etilgan: A.G.Asmolov[3], A.V.Brushlinskiy[4], L.S.Vygotskiy[5], G.T.Maxkamova[6], N.M.Ahmedova[7], va boshqalar. Ushbu mualliflarning tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, refleksiya barcha fikrlash jarayonlarini tashkil etishning ajralmas sharti bo‘lib, har qanday faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi.

R.G.Gabdraxmanova [8] ta’kidlaganidek, refleksiya “ongli faoliyatni amalga oshirishning kaliti, intellektual funksiyalarni (tafakkur, tushunish, fikr almashinuvi, fikrga asoslangan harakat) kuchaytirish vositasi” hisoblanadi.

Shuningdek, milliy va xorijiy ilm-fanda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishning turli jihatlari boy tajriba sifatida yig‘ilgan. Bu mavzu bo‘yicha A.G. Asmolov [3], A.V. Brushlinskiy [4], L.S. Vygotskiy [5], A.N. Leontyev [9], B.Z.Vulfov[10], Maxkamova[6], N.M. Ahmedova[7], A.A.Musayeva[11] va boshqa olimlarning asarlari keng ilmiy asos yaratadi. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, refleksiya barcha fikrlash jarayonlarini tashkil etishning ajralmas sharti bo‘lib, har qanday faoliyatning muvaffaqiyatli bajarilishini ta’minlaydi. Shu bilan, talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish nafaqat pedagogik nazariya, balki amaliy tayyorgarlikning samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida ilmiy asoslangan.

Tadqiqot metodi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy va konseptual yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida adabiyotlarni o‘rganish, milliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijalarini tahlil qilish orqali talabalarda refleksiv kompetentlikning pedagogik mohiyati aniqlangan. Shu bilan birga, refleksiv yondashuvning shakllanish mexanizmlari va uning til yo‘nalishidagi bakalavr talabalarining kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi roli konseptual nuqtai nazardan baholandi.

Talabalarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish muammosini o‘rganishda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Adabiyotlarni tahlil qilish: pedagogika va psixologiya sohasidagi milliy va xorijiy ilmiy manbalar o‘rganildi, bu orqali refleksiya va refleksiv kompetentlik tushunchalarining nazariy asoslari aniqlab olindi.

Qiyosiy tahlil: mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari solishtirildi, bu refleksiv kompetentlikning pedagogik faoliyatdagi o‘rnini va uning kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi ahamiyatini aniqlashga yordam berdi.

Umumlashtirish: Talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va samarali usullari konseptual tarzda tizimlashtirildi.

Shu usullar yordamida refleksiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari

aniqlanib, pedagogik faoliyatda uning ahamiyati ilmiy asoslangan.

Natijalar qismi: tadqiqot natijalari talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligini ko'rsatdi.

Refleksiv kompetentlik rivojlangan talaba: o'z faoliyatini mustaqil tahlil qila oladi; muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladi; o'z xatti-harakatlarini baholay oladi; o'z kasbiy faoliyatini takomillashtirishga intiladi.

Bundan tashqari, refleksiv kompetentlik talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi, ijodiy yondashuvini kuchaytiradi hamda mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Muhokama. Talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish ta'lim jarayonida muayyan pedagogik sharoitlarni yaratishni talab etadi. Bunday sharoitlar qatoriga muammoli ta'lim metodlarini qo'llash, talabalarning mustaqil fikrlashini rag'batlantirish hamda o'z faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini yaratish kiradi.

Refleksiv kompetentlikni shakllantirish jarayonida motivatsion, hissiy-emotsional hamda kommunikativ omillar muhim rol o'ynaydi. Chunki refleksiya shaxsning ichki dunyosi, qadriyatlari hamda tajribasi bilan chambarchas bog'liqdir. Pedagogik ta'lim jarayonida refleksiv faoliyatni tashkil etish talabalarning ijodiy va kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli o'qituvchilar ta'lim jarayonida refleksiv metodlardan keng foydalanishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning refleksiv kompetentligini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim pedagogik vazifalaridan biridir. Refleksiya shaxsning o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirishga xizmat qiluvchi muhim fikrlash jarayoni hisoblanadi. Talabalarda refleksiv kompetentlikni rivojlantirish ularning tanqidiy fikrlashini, ijodiy faoliyatini hamda kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois pedagogik ta'lim jarayonida refleksiv yondashuvni keng qo'llash hamda talabalarning refleksiv faoliyatini qo'llab-quvvatlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Белобородова М. Е. Обучение студентов технического вуза рефлексивной деятельности при решении задач // Педагогические науки. – 2016. – № 2 (65). – Журнал научных публикаций «Дискуссия».
2. Гальперин П. Я. Введение в психологию. – М.: Феникс, 2003. 332 с.
3. Асмолов А. Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. – М.: Смысл, 2001. 416 с.
4. Выготский Л. С. Развитие высших психических функций. – М.: Изд-во АПН, 1960. 500 с.
5. Axmedova N. M. The pedagogical conditions of effective training of future foreign language teachers for using game technologies in professional activity // O'zMU xabarlari ilmiy-uslubiy jurnal. 2018. – № 4. 110–115-b.
6. Габдрахманова Р. Г. Таълим жараёнида рефлексия ва ўз-ўзини таҳлил қилиш. – Казань, 2014.
7. Леонтьев А. Н. Проблемы развития психики. – М.: Смысл, 1990.
8. Вульфов Б. З. Профессиональная рефлексия в непрерывном образовании // Гуманизация образования. 1994. – № 2. С. 31–34.
9. Musayeva A. A. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining refleksiv kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish: дис. … PhD. – Ташкент, 2025. 34-b.

Roza O‘RINBOYEVA,
O‘zMU tayanch doktoranti, Toshkent
orinboyevaroza@gmail.com
Munis NURMATOVA,
O‘zMU JO‘FF 4-bosqich talabasi, Toshkent
nmohigul551@gmail.com
Nargiza XURSANALIYEVA,
O‘zMU JO‘FF 4-bosqich talabasi, Toshkent
xursanaliyevanargiza@mail.com

MILLIY VA XALQARO DIALEKTAL KORPUSLAR TAHLILI

Annotatsiya: maqolada milliy va xalqaro dialektal korpuslarning tuzilishi, tarkibi va lingvistik tadqiqotlardagi roli tahlil qilinadi. Milliy korpuslar tilning ichki xususiyatlarini o‘rganishda, xalqaro korpuslar esa solishtirma tadqiqotlarda muhim vosita sifatida ishlatilishi ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, korpus lingvistikasi va dialektologiya fanlari o‘rtasidagi bog‘liqlik, mavjud resurslarning imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy korpus, xalqaro korpus, dialekt, korpus lingvistikasi, tahlil.*

Annotation: the article analyzes the structure, composition and role of national and international dialect corpora in linguistic research. It is shown that national corpora are used as an important tool in studying the internal characteristics of the language, and international corpora are used as an important tool in comparative research. The relationship between the disciplines of corpus linguistics and dialectology, the capabilities of existing resources and development prospects are also highlighted.

Key words: *national corpus, international corpus, dialect, corpus linguistics, analysis.*

Аннотация: в статье анализируются структура, состав и роль национальных и международных диалектных корпусов в лингвистических исследованиях. Показано, что национальные корпуса используются как важный инструмент при изучении внутренних характеристик языка, а международные корпуса — как важный инструмент в сравнительных исследованиях. Также освещены взаимосвязь между дисциплинами корпусной лингвистики и диалектологии, возможности существующих ресурсов и перспективы развития.

Ключевые слова: *национальный корпус, международный корпус, диалект, корпусная лингвистика, анализ.*

Kirish. XXI asr tilshunosligida til resurslarini raqamlashtirish, lingvistik ma’lumotlarni elektron shaklda jamlash va sun’iy intellekt tizimlariga moslashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Ayniqsa, tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing – NLP) va nutq texnologiyalarining rivojlanishi tilning nafaqat adabiy, balki hududiy variantlari – dialekt va shevalarini tizimli ravishda o‘rganish zaruratini yuzaga keltirdi. Shu sababli dialektal korpuslar zamonaviy lingvistikaning muhim ilmiy-amaliy resursi sifatida e’tirof etilmoqda.

Korpus lingvistikasining nazariy asoslarini rivojlantirgan Toni Makeneri va Endryu Xardi korpuslarni tilning ijtimoiy va hududiy farqlanishini o‘rganishdagi markaziy vosita sifatida ko‘rsatib, standart til asosidagi korpuslar real kommunikatsiyaning to‘liq manzarasini bera olmasligini ta’kidlaydilar. Bu esa aksent va dialektlarni qamrab olgan ma’lumotlar bazalarining zarurligini ko‘rsatadi.

Asosiy qism. Bugungi kunda dunyoda yaratilgan korpuslar turli tillarning mintaqaviy va ijtimoiy dialektlarini o‘rganishga imkon beradi va tilshunoslik tadqiqotlarida muhim manba hisoblanadi. Ular nutq va yozma matnlarni yig‘ish, tasniflash va tahlil qilish orqali leksik, morfologik va fonetik xususiyatlarni aniqlashga yordam beradi. Xalqaro korpuslar esa tillararo solishtirma tadqiqotlarda global lingvistik tendensiyalarni o‘rganish uchun asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Quyida jahonda yaratilgan ayrim dialektal korpuslar haqida qisqacha ma’lumot beriladi.

Britaniya Milliy Korpusi (BNC) dunyodagi eng mashhur lingvistik resurslardan biri bo‘lib, ingliz tilining regional nutq variantlarini qisman qamrab oladi. U quyidagi tamoyillar asosida tuzilgan: reprezentativlik, ijtimoiy balans, hududiy xilma-xillik va autentik nutq. Masalan, Buyuk Britaniyaning turli hududlarida “nothing” so‘zining talaffuzi farq qiladi: Londonda [nʌθɪŋ], Shimoliy Angliyada [nʊfɪn], va bu fonetik farqlar annotatsiya orqali qayd etilgan.

Freiburg English Dialect Corpus (FRED) ingliz tilining tarixiy qishloq dialektlarini saqlashga qaratilgan. Korpusda keksa so‘zlovchilarning nutqi yozib olingan, yo‘qolib borayotgan dialektlarni hujjatlashtirish va tarixiy lingvistika uchun baza yaratishga xizmat qiladi. Masalan: Standart: *I have not seen it*, dialekt: *Ah bain’t seen it*.

Spoken Dutch Corpus (CGN) niderland tilining og‘zaki nutqini o‘z ichiga olgan korpus bo‘lib, fonetik annotatsiyalangan audiolardan tashkil topgan va nutq texnologiyalari bilan integratsiyalangan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ASR tizimi standart nutqda 95% aniqlik ko‘rsatgan, dialekt qo‘shilgach, aniqlik 82% ga tushgan, dialektal korpus qo‘shilgach esa yana 93% ga ko‘tarilgan, bu dialektal korpuslarning qidiruv natijalarining aniqligini oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi [4].

Turkiy tillar tilshunosligida ham korpus yaratish masalasi dolzarb ilmiy yo‘nalishga aylangan. Turk tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan Turkish National Corpus loyihasi til resurslarini standartlashtirishda muhim qadam bo‘ldi [12]. Shuningdek, Qozog‘iston, Ozarbayjon va Qirg‘iziston olimlari ham milliy korpuslarni yaratish orqali regional nutq variantlarini saqlash va tadqiq qilishga e’tibor qaratmoqda. Ular orasida turk tilshunoslari tomonidan ishlab chiqilgan Turkish National Corpus (TNC) loyihasi turk tilining zamonaviy elektron resurslarini standartlashtirish yo‘lida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur korpus Mersin University hamda Middle East Technical University (METU) olimlari hamkorligida yaratilgan bo‘lib, u turk tilining yozma va og‘zaki nutq namunalarini muvozanatli tarzda jamlashga qaratilgan. Korpus tarkibida millionlab so‘z birliklari mavjud bo‘lib, u morfologik va grammatik annotatsiya imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Turkiy tillar orasida milliy korpus yaratish jarayoni boshqa davlatlarda ham faol rivojlanmoqda. Jumladan, Qozog‘istonda yaratilgan Kazakh National Corpus (Qazaq Tiliniń Ulttyq Korpusy) qozoq tilining yozma va og‘zaki variantlarini yagona platformada jamlashni maqsad qilgan [11]. Ushbu korpus A.Baitursynov Institute of Linguistics tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, unda tarixiy matnlar, zamonaviy nutq namunalar hamda regional til birliklari kiritilgan. Loyiha qozoq tilining standartlashuvi va raqamli resurslarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ozarbayjon tilshunosligida esa Azerbaijan National Corpus (Azərbaycan Milli Korpusu) loyihasi milliy til resurslarini raqamlashtirish va lingvistik tadqiqotlarni avtomatlashtirish maqsadida yaratilgan [9]. Ushbu korpus Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasi huzuridagi Tilshunoslik instituti tomonidan ishlab chiqilib, unda adabiy til bilan bir qatorda regional nutq elementlarini ham qamrab olishga alohida e’tibor qaratilgan.

Qirg‘iz tilida ham milliy korpus yaratish ishlari olib borilib, Kyrgyz National Corpus (Кыргыз тилинин улуттук корпусу) loyihasi doirasida til materiallari elektron shaklga keltirilmoqda [8]. Ushbu loyiha Kyrgyz National Academy of Sciences hamda bir qator universitetlar hamkorligida amalga oshirilmoqda. Korpus qirg‘iz tilining dialektal xususiyatlarini saqlash va lingvistik tadqiqotlarni kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Turkologiyada milliy korpuslarni yaratish jarayoni til resurslarini standartlashtirish, regional nutq variantlarini saqlash hamda sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda. Bu haqda Professor N.Abduraxmonovaning “Kompyuter lingvistikasi” darsligida batafsil keltirib o‘tilgan [1]. Milliy korpuslar tarkibida yaratilgan dialektal korpuslar ularning yirik hajmga va aniqlikka egaligini ko‘rsatadi. Ushbu tajribalar o‘zbek tilining dialektal korpusini yaratishda metodologik model sifatida xizmat qiladi.

O‘zbek tilshunosligida dialektlarni o‘rganish bo‘yicha fundamental tadqiqotlar akademik Sh.Shoabdurahmonov [6], S.Ashirboyev [3] kabi olimlar tomonidan amalga oshirilgan bo‘lib, ular o‘zbek shevalarining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tavsiflab berganlar. Ushbu tadqiqotlar bugungi kunda dialektal korpus yaratish uchun nazariy asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy tilshunoslikda korpus lingvistikasi tilni empirik ma’lumotlar asosida o‘rganishga xizmat qiluvchi yetakchi metodologik yo‘nalishlardan biri sifatida shakllanmoqda. Korpus – bu tabiiy nutq namunalaridan tashkil topgan, elektron shaklda jamlangan va lingvistik jihatdan belgilangan (annotatsiyalangan) matnlar yoki nutq yozuvlari majmuasidir. Professor N.Abduraxmonovaning “Korpus lingvistikasi” nomli darsligida korpus turlari, korpus yaratish bosqichlari, shuningdek, korpus uchun zaruriy metodlar tavsifi qayd etilgan [2].

Dialektal korpus umumiy til korpusining maxsus turi bo‘lib, unda tilning hududiy, ijtimoiy va fonetik variantlari tizimli ravishda yig‘iladi. Bu turdagi korpuslar adabiy til normalaridan chetga chiqadigan tabiiy nutq shakllarini saqlashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Dialektal korpus yaratish g‘oyasi uch asosiy ilmiy yo‘nalish kesishmasida shakllanadi. Bular *dialektologiya, sotsiolingvistika va korpus lingvistikasi.*

An’anaviy dialektologiya XIX–XX asrlarda, asosan, ekspeditsiyalar orqali sheva materiallarini yozib olish va tavsiflashga asoslangan edi. Akademik Sh.Shoabdurahmonov o‘zbek shevalari til tarixining “jonli laboratoriyasi” ekanini ta’kidlab, dialektlarni o‘rganish umumtil taraqqiyotini tushunish uchun zarurligini ko‘rsatadi [6]. Masalan, o‘zbek tili lahjalari o‘rtasidagi uchrashi mumkin bo‘lgan morfologik variativlikni ko‘rsatadi:

- qarluq lahjasida– *kelayapman*;
- qipchoq lahjasida– *kelavatirman*;
- o‘g‘uz lahjasida– *geliyapman.*

Dialektal korpus aynan shu farqlarni statistik jihatdan o‘rganish imkonini beradi.

Sotsiolingvistik nuqtai nazardan dialektlar o‘rganilganda, tilning variativligi ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi ta’kidlanadi. Sotsiolingvistlarning

tadqiqotlariga ko‘ra, nutq shakli yosh, kasb, hudud, ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Buni bir so‘zning turli hududlarda turlicha ishlatilishi bilan izohlash mumkin. Dialektal korpuslarda metadata (so‘zlovchi yoshi, jinsi, hududi) kiritilishi aynan sotsiolingvistik tahlil imkonini yaratadi. Korpus lingvistikasida bo‘lsa adabiy tildan farqli ravishda shevalar audio yozuvdan matn ko‘rinishiga o‘tkaziladi. Dialektal korpuslarda bu tamoyillar yanada murakkablashadi, chunki og‘zaki nutq xususiyatlarini yozma shaklga moslashtirishga to‘g‘ri keladi.

Turli tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy dialektal korpus, odatda, multimodal xarakterga ega bo‘ladi. Dialektal korpus quyidagi komponentlardan iborat:

1. Audio baza. Bunda jonli nutq yozuvlari asosiy manba hisoblanadi. Masalan, oddiy suhbat namunalari (bunda studiyadan tashqarida yozib olingan audiolar nazarda tutiladi), folklor matnlari, kundalik dialoglar. Masalan, CORAAL korpusida tabiiy suhbatlar studiya sharoitisiz yozib olingan [10].

2. Transkripsiya. Audio nutq matnga aylantiriladi. Masalan (fonetik yozuv):

Adabiy tilda: *Men boryapman.* Shevada: *Man boryamman.*

3. Lingvistik annotatsiya. Annotatsiya matnning quyidagi xususiyatlariga asoslanib amalga oshiriladi:

- fonetik;
- morfologik;
- sintaktik;
- semantik.

4. Metadata. Bu har bir yozuv haqidagi qo‘shimcha ma’lumotni anglatib, respondentning yashash hududi, yoshi, jinsi, ta’lim darajasi hamda audio yozib olingan sana haqida ma’lumot beradi.

Zamonaviy tadqiqotlar dialektal korpus yaratishda quyidagi tamoyillar shakllanganligini ko‘rsatadi:

- tabiiy nutqni yozib olish;
- hududiy balansni saqlash;
- turli yosh guruhlarini qamrab olish;
- multimodal ma’lumot yig‘ish;
- standart annotatsiya tizimidan foydalanish.

Zamonaviy lingvistika amaliyotida dialektal korpuslar yaratish jarayoni rivojlangan davlatlarda tilni raqamlashtirish siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Dialektal nutqni tizimli yig‘ish, annotatsiya qilish va ochiq ilmiy resurs sifatida taqdim etish nafaqat dialektologik tadqiqotlarni, balki nutq texnologiyalarini ham sezilarli darajada rivojlantiradi.

Jahon korpus lingvistikasidagi zamonaviy tadqiqotlarga (McEnery, Jurafsky, Labov) asoslanib, quyidagi model taklif etiladi. Ushbu model 5 bosqichli bo‘lib, undan o‘zbek tili dialektal korpusini yaratishda foydalanish mumkin.

1-bosqich. Ma’lumot yig‘ish. Bu bosqich eng muhim qadamlardan biri bo‘lib, hududlar bo‘yicha ekspeditsiyalar uyushtiriladi. Bundan ko‘zlangan maqsad tabiiy suhbat namunalarini yozib olish bo‘lib, jonli muloqotdagi audiolar to‘planadi. Uning ahamiyati shundaki, bunda turli shevaga xos fonetik, leksik, morfologik xususiyatlar hamda folklor nutqi ham qamrab olinadi.

2-bosqich. Raqamlashtirish. Bu bosqichda to‘plangan audio ma’lumotlar kompyuterga o‘qitish uchun tayyorlanadi. Ya’ni audiolar saralab olinadi, turli shovqinlardan, pauzalardan tozalanadi. Har bir audio alohida segmentlarga ajratilib, dastur uchun mos formatga keltiriladi (masalan, WAV, 16 kHz).

3-bosqich.Transkripsiya. Bu bosqichda audiolar qanday eshitilsa, shunday yoziladi hamda uning an’anaviy transkripsiyadagi matni yaratiladi. Masalan:

Audio: Man bozordan kevomman;

Transkripsiya: Män bozordan kevommän.

4-bosqich.Annotatsiya. Bu bosqichda har bir audio turli til sathlari bo‘yicha annotatsiya qilinadi.

Qatlam	Vazifasi
fonetik	talaffuzdagi fonetik o‘zgarishlar aniqlanadi
morfologik	qo‘shimchalardagi variativlik aniqlanadi
sintaktik	gap tuzilishi, asosan, gapdagi inversiya hodisasi aniqlanadi
semantik	ma’noviy jihatdan tahlil qilinib, so‘zlardagi omonim, sinonim, antonim kabi munosabatlar o‘rganiladi

5-bosqich.Metadata kiritish. Bu bosqichda har bir audio uchun respondentning yashash hududi, yoshi, jinsi, kasbi, ma’lumoti kabilar aniqlanadi va audio hamda transkripsiyali matn bilan birga korpusga kiritiladi.

Bugungi kunda o‘zbek kompyuter lingvistikasida ko‘pgina tadqiqotchilar tomonidan dialektal korpus yaratish ishlari amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Milliy universitetida professor Nilufar Abduraxmonova tomonidan o‘zbek tilidagi dastlabki korpus yaratilgan bo‘lib, muallifning *“Korpus lingvistikasi”* nomli darsligida o‘z ifodasini topgan [2]. O‘zbek tili korpusi tarkibida dialektal subkorpus yaratilgan bo‘lib [13], bugunga qadar uning tarkibi Samarqand, Surxondaryo, Xorazm hamda vodiy shevasidagi ma’lumotlar bazalari bilan boyitib kelinmoqda. Korpus qidiruv tizimiga soz kiritilganda, shu so‘z ishtirokidagi transkripsiyali matn, uning audio varianti hamda respondent haqidagi ma’lumotlar taqdim etiladi.



O‘zbek korpusshunosligida dialektal korpus yaratishga qaratilgan tadqiqotlar sifatida A.Turdialiyevning *“Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish”* mavzusidagi PhD dissertatsiyasini keltirish mumkin. Tadqiqotda Surxondaryo shevalarining lingvistik xususiyatlari batafsil ochib berilgan [7]. Qolaversa, shu shevaga oid ma’lumotlar bazasi korpusga kiritilgan bo‘lib, bugungi kunda bazani kengaytirish ustida ish olib borilmoqda. Shuningdek, R. O‘rinboyevaning *“O‘zbek tili nutqiy sintezatori uchun lingvistik ta’minotini yaratish (Samarqand dialekti misolida)”* mavzusidagi magisrtlik dissertatsiyasida Samarqand shevasining lingvistik sifatlari ochib berilgani holda dialektal korpus uchun lingvistik ta’minotini yaratish masalalari yoritilgan[5].

Xulosa. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, milliy korpuslar tilning leksik, morfologik va dialektal xususiyatlarini chuqur o‘rganish imkonini beradi, xalqaro korpuslar esa tillararo solishtirma tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Korpuslar lingvistik tadqiqotlarda metodik asos bo‘lib xizmat qiladi va dialektologiya hamda korpus lingvistikasi o‘rtasidagi integratsiyani mustahkamlaydi. Shu bilan birga, mavjud resurslarni rivojlantirish va kengaytirish tilshunoslik sohasidagi tadqiqotlarning samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Abduraxmonova N.Z. Kompyuter lingvistikasi (darslik). –Toshkent: Nodirabegim, 2021. 394-b.
2.Abduraxmonova N.Z. Korpus lingvistikasi (darslik). –Toshkent: Globe edit, 2023. 400- b.
3.Ashirboyev S. O‘zbek dialektologiyasi (darslik). –T.: Nodirabegim, 2021.176 - b.
4.Jurafsky D., Martin J.H. Speech and Language Processing: An Introduction to Natural Language Processing, Computational Linguistics, and Speech Recognition. 2nd ed. Upper –Saddle River: Prentice Hall, 2009.
5.O‘rinboyeva R. O‘zbek tili nutqiy sintezatori uchun lingvistik ta’minotini yaratish (Samarqand dialekti misolida). Magistrlik diss. – Toshkent, 2025. 99 - b.
6.Shoabduraxmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. –T.: O‘zbekiston SSR Fanlar akademiyasi. 1962.
7.Turdialiyev A. Denov shevasini areal o‘rganish va til korpusiga joylashtirish: Fil. fan. b. fal. dok. … diss. – Toshkent, 2024. 173- b.
8.http://korpus.kg
9.https://corpus.azerbaycandili.az
10.https://oraal.github.io/coraal
11.https://qazcorpus.kz
12.https://www.tnc.org.tr/
13.uzbekcorpus.uz

Gulhayo BAROTOVA,
Abdulla Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
tayanch doktoranti

LINGVOKULTUROLOGIK KOMPETENSIYA VA UNING RIVOJLANISH TARIXI

Annotatsiya: kompetensiyaga asoslangan yondashuvdan foydalanish, xususan, shaxsning lingvistik qobiliyatlari va madaniy, ijtimoiy va axborot kompetensiyalarini amaliy qo‘llash bilan bog‘liq ko‘nikmalarni rivojlantirish bugungi kunda ta’limni rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “Lingvomadaniy kompetensiya” tushunchasi adabiyotda bu mavzu tez-tez muhokama qilinishiga qaramay, ko‘pchilikning e’tiborini tortadi. Muayyan milliy tilda ifodalangan madaniy bilimlar tizimi va ushbu ma’lumotlarni real vaziyatlarda qo‘llash uchun maxsus qobiliyatlar to‘plami lingvistik va madaniy kompetensiyani tashkil qiladi. Ushbu maqolada “lingvomadaniy kompetensiya” va uning rivojlanish tarixi bilan bog‘liq masalalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologik kompetensiya, lingvomadaniy, kompetensiya, til, qadriyat, tarix*

Annotation: the use of a competency-based approach, in particular, the development of skills related to the practical application of a person’s linguistic abilities and cultural, social and informational competencies, is one of the most important areas of educational development today. The concept of “linguocultural competence” attracts the attention of many, despite the fact that this topic is often discussed in the literature. The system of cultural knowledge expressed in a particular national language and a set of special abilities to apply this information in real situations constitute linguistic and cultural competence. This article discusses issues related to “linguocultural competence” and the history of its development.

Key words: *linguocultural competence, linguocultural, competence, language, value, history*

Аннотация: использование компетентностного подхода, в частности, развитие навыков, связанных с практическим применением языковых способностей человека, а также культурных, социальных и информационных компетенций, является одним из важнейших направлений развития образования сегодня. Концепция «лингвокультурной компетенции» привлекает внимание многих, несмотря на то, что эта тема часто обсуждается в литературе. Языковая и культурная компетенция включает в себя систему культурных знаний, выраженных на конкретном национальном языке, и набор специальных навыков применения этой информации в реальных ситуациях. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с концепцией «лингвокультурной компетенции», и история её развития.

Ключевые слова: *лингвокультурная, компетенция, язык, ценность, история, лингвокультурная компетенция.*

Oxirgi paytlarda globalizatsiya natijasida insonlar va millatlar o‘rtasidagi aloqalar shuni yaqqol ko‘rsatadiki, Ingliz tilining borgan sari millatlar o‘rtasida til sifatida muhim rol o‘ynayotganini. Ingliz tilining dunyo bo‘ylab foydalanuvchilar sonining oshib borishi o‘rganuvchilarning ingliz tilini tushunish bilan bog‘liq bo‘lgan lingvistik, madaniy va pedagogik muammolar sonining oshib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Til har bir jamiyatda vaqt va joyga qaramasdan millatlarni bir- biriga bog‘laydigan tarixiy hamda ijtimoiy asos hisoblanadi. Yaqqol ko‘rinib turibdiki, tilni o‘rganish jarayonida til tarixi asosiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shu sababli oxirgi yillarda lingvokulturologiya deb nomlangan tadqiqot sohasi qancha millatlarning madaniyati shakllanganligi va ularning tilda qanchalar namoyon bo‘lganligini o‘rganib kelmoqda. Til madaniyati atamasi yigirmanchi asrning 90-yillaridan boshlab tilshunoslikning mustaqil yo‘nalishi sifatida shakllana boshlagan til madaniyati tilshunoslikning til sohalaridan biri bo‘lib, ya’ni tilshunoslik va madaniyatning uyg‘unligi, tildagi milliy madaniyat hodisasini o‘rganishdir. Hozirgi vaqtda tilshunoslik fanlararo fundamental fanga aylanib bormoqda, bu milliy til va til jarayonining moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganadi. Hozirgi

kunda ta’lim sohasida “kompetentlik” atamalari keng qo‘llanila boshladi va rivojlangan mamlakatlar tizimini, ta’lim tizimi yangilikning asosiy ta’lim standarti yo‘nalishi sifatida qamrab ola boshladi Kompetensiyalar masalasi bilimning turli sohalarida uzoq vaqtdan beri ko‘rib chiqilgan. Kompetensiya nazariyasi mualliflari G.V. Vayler, Yu.V. Qo‘ynov, Y.I. Lefsted, N.V. Matyach, V.V. Serikov, Ya. Voron, R. White, V. Chinapa va boshqalar. Ushbu ishlar asosida tegishli masalalar ta’limni tashkil etishda kompetensiyaga asoslangan yondashuv usullarini ishlab chiqishni M.N Skatkin, I.Y. Lerner, V.V. Davydov va boshqa olimlar tomonidan ko‘rib chiqilgan. Ingliz tilini o‘qitishda lingvokulturologik yondashuv tilning semantik xususiyatiga e’tibor qaratadi. Bu shuni anglatadiki, til o‘rgatishda an’anaviy bo‘lgan grammatika, fonetika va leksikologiyaga emas, balki milliy tushunchalar orqali o‘rgatishdir. Bu orqali o‘rganuvchilarda etnobilimlar majmui bo‘lgan lingvokulturologik kompetensiyaning keng qo‘llanishidir. Byram deydiki, ijtimoiy munosabatlarda odamlar o‘zaro muloqotga kirishganda ijtimoiy xosliklar muqarrar rolga egadir. Bu til o‘qitishda e’tiborga olinadi va bu yerda “Kommunikativ kompetensiya” g‘oyasi til o‘rganuvchilar ikkita narsani, ya’ni grammatik bilim va “mos” tilni shakllantiruvchilarni ham o‘zlashtirishi kerakligini ta’kidlaydi. Semantik fikr ingliz tilini o‘qitishga lingvistik yondashuvning asosiy urg‘usidir. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o‘rganish nafaqat an’anaviy fonetika, grammatikani va lug‘at, balki tilning milliy tushunchalarini o‘rganish zarurdir.Bu o‘quvchilarga til, madaniyat va tarixga oid etnik-madaniy bilimlarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. Va bu zaruriyat yuqoridagi sanab o‘tilgan fikrlarni o‘zida jamlab amaliy qo‘llay olgan lingvokulturologik kompetensiyaning rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Rus olimlarining bir qator ishlarida kompetensiyaga quyidagicha ta’rif beriladi, “kompetensiya” tushunchasi shaxsning intellektual va shaxsiy xususiyatlari sifatida belgilanuvchi va bir qator ishlarida amaliy vazifalarni bajarish qobiliyatidir. “Kompetensiya” bu bilim, ko‘nikma va ko‘nikma shaklidagi qobiliyatning mazmuniy komponenti sifatida belgilanadi. Zimnyaya (2003) fikriga ko‘ra, kompetensiya doimiy ravishda namoyon bo‘la oladigan haqiqiy malakadir. Lingvokulturologiya ko‘plab masalalarni hal qilishi kerak. Madaniyatni tushunishda semantika hal qiluvchi ahamiyatga ega va uni til va madaniyatning o‘zaro ta’siri orqali bilib olish mumkin bo‘lgan ikkita alohida domenlardir. Til va madaniy aloqalar o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud: til madaniyatni, madaniyat esa tilni shakllantiradi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu yerda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lgan bir qator qiyin va qarama-qarshi masalalar mavjuddir. Tug‘ilishi mumkin bo‘lgan muammolardan biri sifatida shuni aytishimiz mumkinki, madaniy bilimlarda tilshunoslikka ko‘ra yashirin ma’nolarga ega bo‘lishi mumkin. Ilmiy amaliyotda chet tillarini o‘qitish sohasidagi tadqiqotlar turli vaqtlarda olib borilgan: I.I. Xaleyeva, N.I. Gez, N.D. Galskova, S.S. Kunanbayeva, E.I. Passov, M. Byram, M. Fleming, K. Rehbock va boshqalar. Tadqiqotchilar talabalarning til asoslarini rivojlantirish texnologiyasining jihatlarini ko‘rib chiqib, umumiy, majburiy formulani qayd etdilar, bunda chet tilini bilish ona tilida so‘zlashuvchilar madaniyatini tushunish bilan bog‘liq. Shunday qilib, masalan, tadqiqotda N.D. Galskova va N.I. Gez [1] muloqot to‘siqlari ona tilida so‘zlashuvchilar etnik guruhining integral madaniyatining obyektiv kognitiv tasvirlari bo‘lmaganda faollashishini ta’kidlaydilar. Mualliflar lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish bu borada kommunikatsiya ishtirokchilari uchun ko‘p madaniyatli sohada o‘zaro ta’sirni yaratishdagi xavflarni kamaytiradi, deb ta’kidlaydilar. I.I. Xaleyeva [2] qayd etishicha, chet tillarini o‘rgatishdagi muhim narsalardan biri milliy va madaniy belgilardan foydalanishdir. Bu holat ongda begona muhitga cho‘mish, til madaniyatining tasvirlarini faollashtiradi va rag‘batlantiradi. Shu bilan bir qatorda, akademik S.S. Kunanbayevaning [3] fikrini ta’kidlash kerak, u o‘z e’tiborini chet tilini o‘rganish sohasi yaxlit lingvistik madaniyat bilan bog‘liqligiga qaratgan. Boshqacha qilib aytganda, muallif chet tilini o‘zlashtirishning texnikligi uni to‘liq egallash mahoratining bir qismi ekanligini ta’kidlagan. Ko‘p madaniyatli o‘zaro ta’sirga tayyorlik til kompetensiyasining rivojlanishi, o‘zaro ta’sirning kommunikativ sohasini yaratish qobiliyati, subyektning lingvistik o‘zgalik chegaralaridan tashqaridagi kognitiv munosabatlari, hissiy reaksiyalaridan xabardor bo‘lish bilan bog‘liq. Ko‘p madaniyatli muloqotni tushunish prinsipi M.M. Baxtin tomonidan chet tilini o‘zlashtirishning zaruriy komponenti sifatida o‘rganilgan. Tadqiqotda A. I. Viktorova [4] M.M.ning konseptual pozitsiyasini ko’rsatadi. Baxtin hozirgi zamon ehtiyojlarini

teng huquqli muloqotda, inklyuziv jamiyat, teng imkoniyatlar jamiyati sharti sifatida aks ettiradi. Bundan tashqari, til va madaniy merosning o‘rganishning muhim bog‘lovchi xususiyati sifatidagi o‘zaro bog‘liqligi A.V. Konisheva, N.A. Kachalov [5] tomonidan qayd etilgan. Tadqiqotchilar talabalarning xorijiy madaniyatga sho‘ng‘ishi ularga lingvistik asoslarning nozik jihatlaridan ko‘proq xabardor bo‘lish, dialogning motivatsion tuzilishini tushunish imkonini beradi degan fikrni ilgari surishadi. A. I. Sergeyeva va G.V. Poxodzey [6] o‘z tadqiqotlarida talabalarning darsdan tashqari faoliyati doirasida lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish bo‘yicha metodologik ishlanmalarni taqdim etadilar. Monografik tadqiqot mualliflari til kompetensiyasining rivojlanishi o‘rganilayotgan tilning ona tilida so‘zlashuvchilari bilan tizimli aloqa muhitiga, shaxslararo, ekzistensial o‘zaro ta’sir orqali sho‘ng‘ish orqali rag‘batlantirilishini ta’kidlab o‘tadilar. Chet ellik tadqiqotchilarning tadqiqotlarida chet tillarini o‘rganish muammosini tushunish va til so‘zlovchilarining madaniy ko‘nikmalarini egallash borasidagi o‘xshash pozitsiyalarni ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. G. Fischer [7], M. Handford [8], L. Samovar va R. Porter [9], A. Knapp-Potthoff [10] madaniyatlararo muloqot o‘rganilayotgan tilning ona tilida so‘zlashuvchilarning qadriyatlarini ifodalash sohasidagi bilimlar bilan rag‘batlantirilishini va bu professional kompetensiyani o‘zlashtirishni va undan amaliyotda foydalanishni sezilarli darajada optimallashtirishini ta’kidlaydilar.Tadqiqot tahlilini qisqacha ko‘rib chiqishni yakunlash uchun shuni aytish kerakki, lingvistik va nolingvistik mutaxassisliklar bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashda lingvokulturologik yondashuvdan foydalanish tilni o‘zlashtirish, o‘rganilayotgan til mamlakati madaniyatini o‘zlashtirish chegaralarini sezilarli darajada kengaytirishi va amaliy sohada ko‘p madaniyatli muloqotga qodir bo‘lgan kelajakdagi mutaxassislarning professional kompetensiyasini oshirishi mumkin. Madaniyat insonning insoniy qobiliyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan muhim xususiyat sifatida qaraladi. Muloqot inson hayotining ajralmas qismi va shuning uchun madaniyatning bir qismidir. Madaniyatlararo kompetensiya ostida biz talabaning muloqotga psixologik tayyorgarligini (qiziqish, motivatsiya, til to‘sig‘idan qo‘rqmaslik) va ma’lum darajada og‘zaki ko‘nikmalar, til materiallari va eng muhimi – og‘zaki til haqida zarur bo‘lgan ijtimoiy-madaniy bilimlarni tushunamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Byram M., Gribkova B., Starkey H., (2002). Developing the Intercultural Dimension in Language Teaching.A Practical Introduction for Teachers.Language Policy Division.Directorate of School, Out – of – school and Higher Education. DGIV Council of Europe, Strasbourg: .

2.Zimnyaya I.A. (2003).Key Competences – New Paradigm of Educational Result.The Higher Education Today.

3.Byram M. *Cultural studies in foreign language education*. – Toronto: Multilingual Matters; 1989.

4.Kunanbayeva SS. *Theories and practice of modern foreign language education*. – Almaty: Publishing House: DP

“Edelweiss”, Kazakh University of International Relations and World Languages; 2010.

5.Vorobiev, V. V. Lingvokulturologiya / V. V. Sparrows. – M.: Publishing House of the Peoples’ Friendship University of Russia, 2008.

Эльвира МУРАТОВА,
старший преподаватель
кафедры «Узбекского и русского языков»
Ташкентского государственного
экономического университета



ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ ВЗРОСЛЫХ

Аннотация: в статье рассматриваются ключевые психологические аспекты обучения русскому языку как иностранному среди взрослой аудитории. Подчеркивается важность учета мотивационных, когнитивных, эмоциональных и социальных факторов, влияющих на эффективность образовательного процесса. Отмечается, что успешное овладение языком во многом зависит от способности преподавателя учитывать индивидуальные особенности обучающихся и создавать поддерживающую образовательную среду.

Ключевые слова: *русский язык как иностранный (РКИ), взрослые обучающиеся, мотивация, психологические барьеры, когнитивные особенности, саморегуляция, культурная осведомленность.*

Annotation: the article examines the key psychological aspects of teaching Russian as a foreign language among an adult audience. The importance of considering motivational, cognitive, emotional, and social factors that influence the effectiveness of the educational process is emphasized. It is noted that successful language acquisition largely depends on the teacher's ability to take into account the individual characteristics of learners and to create a supportive educational environment.

Key words: *Russian as a foreign language (RFL), adult learners, motivation, psychological barriers, cognitive characteristics, self-regulation, cultural awareness*

Annotatsiya: maqolada kattalar auditoriyasida rus tilini chet tili sifatida o‘rgatishda asosiy psixologik jihatlar ko‘rib chiqiladi. Ta’lim jarayonining samaradorligiga ta’sir qiluvchi motivatsion, kognitiv, emotsional va ijtimoiy omillarni hisobga olishning ahamiyati ta’kidlanadi. Tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish asosan o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha o‘qituvchining qobiliyatiga bog‘liqligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: *rus tilini chet tili sifatida o‘rganish (RFL), kattalar o‘quvchilar, motivatsiya, psixologik to‘siqlar, kognitiv xususiyatlar, o‘zini boshqarish, madaniy xabardorlik*

Методика преподавания русского языка как иностранного (РКИ) в последние десятилетия претерпела значительные изменения, расширяя свои горизонты за счёт данных из лингвистики, педагогики, психологии и социолингвистики. Однако до сих пор остаются нерешёнными базовые методические, лингвистические и психологические задачи, что свидетельствует, о состоянии стагнации в развитии дисциплины. Особое внимание требует блок психологических аспектов, играющих критическую роль в обучении взрослых.

1. Мотивация взрослых обучающихся

Мотивация является фундаментом успешного обучения. У взрослых обучающихся она может быть как внутренней (стремление к самореализации), так и внешней (карьерные цели, интеграция в общество и др.). Внутренняя мотивация, как правило, способствует более устойчивому усвоению языка.

2. Саморегуляция и управление временем

Взрослые обучающиеся часто совмещают учебу с работой и семейными обязанностями, что требует от них высокой степени организованности. Навыки саморегуляции, включая постановку целей, планирование и рефлексию, являются критически важными. Преподаватель может помочь, предлагая инструменты и техники для эффективной организации учебного процесса, такие как создание расписаний, SMART-целей и контрольных точек.

3. Когнитивные особенности взрослого возраста

С одной стороны, взрослые обладают развитым аналитическим мышлением и опытом, способствующим осмысленному усвоению материала. С другой стороны, излишняя рациональность может вызывать страх ошибок и замедлять языковую продукцию. Важно донести до студентов мысль, что ошибки — это нормальный и необходимый этап обучения.

4. Социальные и эмоциональные аспекты

Участие в групповой работе может способствовать более глубокому овладению языком, но не все взрослые обучающиеся чувствуют себя комфортно в коллективе. Здесь необходимо учитывать

индивидуальные особенности, предлагая как групповую, так и индивидуальную работу. Эмоции — от стресса до радости — могут сильно влиять на качество обучения. Создание положительной эмоциональной среды — важная задача преподавателя.

5. Культурная осведомленность и индивидуальный подход

Преподавание РКИ взрослым предполагает высокую степень межкультурной чувствительности. Разные культурные фоны требуют разного подхода к материалу и методам. Использование культурных реалий, русских традиций, идиом и обычаев повышает мотивацию и уровень погружения в язык. Индивидуализация обучения — ещё один важный принцип: учёт личных интересов, целей, темпа и стиля обучения каждого студента повышает эффективность процесса.

Психологическая специфика взрослых студентов заключается, прежде всего, в наличии сформированной личности, устойчивых привычек, а также опыта, который может как способствовать, так и затруднять обучение. У взрослых более выражена самокритичность, выше уровень тревожности по поводу собственных успехов, а также сильнее страх допустить ошибку в речевом взаимодействии. Такие внутренние барьеры часто становятся причиной заниженной учебной активности, особенно на начальных этапах изучения языка. Поэтому задача преподавателя — создать безопасное и поддерживающее пространство, в котором студент сможет чувствовать себя уверенно и мотивированно.

В эмоциональном плане взрослые обучающиеся чаще подвержены сомнениям в собственных способностях к изучению языка, особенно если предыдущий опыт обучения был неудачным или прерывался на длительное время. В таких случаях особую значимость приобретает позитивное подкрепление, признание усилий и поощрение даже небольших достижений. Эффективный преподаватель в работе со взрослыми должен не только передавать знания, но и выполнять функцию наставника, способного поддерживать интерес к обучению и укреплять веру в успех.

Дополнительную сложность представляет межкультурный аспект, особенно если речь идет о преподавании русского языка как иностранного для мигрантов или представителей других культурных традиций. Необходимо учитывать, что язык тесно связан с системой ценностей, норм поведения и социальной коммуникации. Взрослый обучающийся, погруженный в новую языковую среду, может испытывать стресс, связанный с непониманием культурных различий. В этом контексте важно формировать у студентов не только языковую, но и социокультурную компетенцию, способствующую успешной адаптации в обществе.

Эффективное обучение становится возможным при условии установления партнерских и доверительных отношений между преподавателем и обучающимися. Уважение к личному опыту взрослого, учет его темпа и стиля усвоения материала, а также открытость к диалогу значительно повышают качество взаимодействия в учебном процессе. Гибкость методических решений, разнообразие форм и средств обучения, а также возможность выбора индивидуальной траектории — всё это позволяет максимально адаптировать образовательную среду к потребностям взрослого обучающегося.

В заключение следует отметить, что успешное обучение русскому языку взрослых невозможно без комплексного учета их психологических особенностей. Понимание внутренней мотивации, эмоционального состояния и личных ожиданий обучающихся позволяет преподавателю выстраивать обучение как процесс не только передачи знаний, но и создания условий для личностного роста, развития уверенности и устойчивого интереса к языку как инструменту межкультурной и профессиональной коммуникации.

Список литературы

1. Верещагин, Е. М., & Костомаров, В. Г. (1990). Язык и культура: Лингвострановедческий аспект в преподавании русского языка как иностранного. Москва: Русский язык.
2. Зимняя, И. А. (2003). Психология обучения. Москва: Логос.
3. Куликова, Н. Б. (2016). Психологические особенности взрослых обучающихся в системе непрерывного образования. Современные проблемы науки и образования, (5).
4. Рубинштейн, С. Л. (2002). Основы общей психологии. Санкт-Петербург: Питер.
5. Соловова, Е. Н. (2005). Методика преподавания иностранных языков: Базовый курс лекций. Москва: АСТ.
6. Туранская, Т. Н. (2018). Психолого-педагогические аспекты преподавания РКИ. Филологические науки. Вопросы теории и практики, (2), 215–218.
7. Чекалин, А. А. (2014). Индивидуальный подход в обучении русскому языку как иностранному. Вестник МГЛУ, (2), 67–74.
8. Dörnyei, Z. (2001). Motivational Strategies in the Language Classroom. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Gardner, R. C., & Lambert, W. E. (1972). Attitudes and Motivation in Second Language Learning. Rowley: Newbury House.

KICHIK TADQIQOT









Ra’no AVLIYOQULOVA,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
70111401- O‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

ZEBO MIRZO SHE’RIYATIDA KO‘CHMA MA’NOLI SO‘ZLAR

Annotatsiya: Zebo Mirzayeva she’riyati badiiy tasvirning go‘zalligi va ayolona samimiyligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ko‘chimlarning (trop) keng qo‘llanishi shoira she’rlarida o‘zgacha bir uslubni shakllantirgan. Mazkur maqolada Zebo Mirzo ijodida uchraydigan metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi ko‘chim turlari til va poetik jihatidan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *ko‘chim, trop, uslub, metafora, metonimiya*

Аннотация: поэзия Зебо Мирзаевой отличается изяществом художественного изображения и искренней, женственной лиричностью. Особенно широкое и мастерское использование тропов сформировало в её творчестве своеобразный стиль. В данной статье с лингвопоэтической точки зрения анализируются такие виды тропов, как метафора, метонимия и синекдоха, встречающиеся в стихах Зебо Мирзо.

Ключевые слова: *троп, перенос, стиль, метафора, метонимия, синекдоха*

Annotation: Zebo Mirzayeva’s poetry is distinguished by the beauty of its artistic imagery and its feminine sincerity. In particular, the extensive use of tropes has shaped a unique style in the poet’s works. This article provides a linguistic and poetic analysis of the types of tropes found in Zebo Mirzo’s creative work, specifically metaphor, metonymy, and synecdoche.

Key words: *trope, figurative language, style, metaphor, metonymy, synecdoche*

O‘zbek tilshunosligida morfologiya bo‘limida so‘zning grammatik tomoni o‘rganilsa, leksikologiya bo‘limida esa leksik tomoni o‘rganiladi. Leksik ma’no odatda, bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko‘chirish yo‘li bilan rivojlanadi. Bunday ko‘chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o‘zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi. Ko‘chirishlar asosan, quyidagilar: metafora yo‘li bilan ko‘chirish, funksional ko‘chirish, metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish, sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirishlardir.

Biror predmet, belgi, harakatning nomi boshqasiga o‘zaro tashqi (shakli, rangi kabi jihatlari bilan) o‘xshashligi asosida ko‘chirilsa, metafora yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi (yunoncha metaphora – ko‘chirish). Masalan, yo‘l leksemasi asli yurish joyi ma’nosini anglatadi. Shunday o‘xshashlik asosida bu leksema satr (bir chiziq bo‘ylab joylashtirilgan yozuv) ma’nosini ham anglata boshlagan.

Metafora yo‘li bilan ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari:

1.Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o‘xshashlik asosida ko‘chiriladi: og‘iz (odamning og‘zi) – og‘iz (shishaning og‘zi), qo‘ltiq (odamning qo‘ltig‘i) - qo‘ltiq (dengizdagi qo‘ltiq), tish (odamning tishi) – tish (arraning tishi), etak (kiyimning etagi) – etak (tog‘ning etagi) kabi.[1]

2.Bir predmetga (ba’zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko‘chiriladi: achchiq (achchiq qalampir) – achchiq (achchiq gap), to‘g‘ri (to‘g‘ri chiziq) – to‘g‘ri (to‘g‘ri gap), jonli (jonli tabiat) – jonli (jonli suhbat), tez (tez yur) – tez (tez odam) kabi.[2]

Bir predmet nomini boshqa bir predmetga belgi sifatida ko‘chirish ham mavjud: tosh (qattiq jism) – tosh nok (qattiq), oltin (qimmatbaho ma’danning nomi) – oltin yaproqlar (sap-sariq) kabi. Bunda narsaning nomi belgini anglatib keladi. Yuqoridagi misollarda esa belgining nomi bir predmetdan boshqasiga ko‘chiriladi.

3.Bir predmetga xos harakatning nomi boshga bir predmetning harakatiga ko‘chiriladi: savala (nimani) – savala (kimni), cho‘k (cho‘kkala) – cho‘k (imoratning

1 Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.113-bet
2 Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.113-bet

cho‘kishi) – cho‘k (odamning qariganda cho‘kishi), o‘l (jonlilarda hayotning tugashi) – o‘1 (o‘simlik palagining so‘lishi, qurishi) kabi.[3]

Zebo Mirzo she’rlari ko‘pincha, inson qalbidagi go‘zal tuyg‘ularni bevosita ifodalashga qaratilgan. Ularni jonli tasvirlashda poetik ko‘chimlar nihoyatda muhim rol o‘ynaydi. Shoira inson ruhiyati, ayollarning dardli kechinmalari, sevgi, ayriliq kabi fikrlarga obrazli ta’rif bergan. Bunda ko‘chma ma’nodagi so‘zlar she’rning emotsionalligini oshirib, musiqiyligini ta’minlaydi. Shoira ijodida metaforalardan juda ko‘p va samarali foydalangan. Uning metaforalari lirik qahramonning ruhiy holati, muhabbatning ichki to‘lqinlari va jamiyatdagi muammolarni ramziy ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Bu yorug‘ nafasni
Tashlab o‘tishar
Ruhingda jaranglab ketar bir qilich!
O‘zak-o‘zagidan
Sug‘rilib kelar
Nafs to‘rlaridan mudrab yotgan ich![4]

Ushbu parchadagi “yorug‘ nafas”, “nafs to‘rlari” metaforalari she’rning ohangdorligini oshirgan. Bu birikmada bir narsaning belgisi boshqa narsaning belgisiga o‘xshashlik asosida ko‘chirilgan. Masalan, tilla bola, kumush qish, oltin yaproq kabi. Bu misollarda bolaning aqlliligi yoki bilimliligi tillaga, qishda qor yog‘ganda hammayoq oppoq chiroyli tusga kirishi kumushga, yaproqlarning sariq rangga kirishi oltinga o‘xshatilgan. Zebo Mirzo insonning nafas olishini yorug‘likka mengzagan. Inson nafas olib tursagina yorug‘ olamning ne’matlaridan bahramand bo‘lishi, agar nafas olishdan to‘xtasa, bu dunyoni tark etishi mumkin. “Nafs to‘rlaridan mudrab yotgan ich!” misrasidagi “nafs to‘rlari” birikmasida ham metofora usulida ma‘no ko‘chgan. Avvalo, to‘r so‘zining lug‘aviy ma’nosini tahlil qilamiz. Bu so‘z katak-katak ko‘zli yoki bejamdor qilib to‘qilgan narsadir. Masalan, to‘r ro‘mol, futbol darvozasining to‘ri (sim to‘r), to‘r qo‘lqop. Ammo shoira she’rida “nafs to‘ri” metaforasi orqali inson nafsini tiya olmasligini o‘rgimchak to‘riga o‘xshatgan.Metafora orqali ma’no ko‘chgan so‘zlar ko‘pincha so‘z birikmasi shaklida bo‘ladi.

Derazani chertib yomg‘irlar o‘tdi
Kechagina bizlar qoldirgan izdan,
Parishon bog‘larni tumanlar yutdi
Sevgilim, ne kechdi xayolingizdan.[5]

Ushbu parchadagi “Parishon bog‘larni tumanlar yutdi” misrasi metaforaga misol bo‘la oladi. Chiroyli bog‘, katta bog‘ birikmalariga ko‘p duch kelamiz. Bular o‘z ma’nosida qo‘llangan. Lekin “parishon bog‘” metaforasi orqali ishq dardida qiynalib, parishon holatga tushgan oshiq holati tasvirlangan. “Tumanlar yutdi” metaforasi esa oshiqning ayriliq azobidan qalbining dard bilan qoplanishi nazarda tutilgan. Shoira oshiqni “parishon bog‘”, qalbning azobga to‘lishini “tumanlar yutdi” metaforaga ko‘chirib she’rning badiiy ohangdorligini yanada kuchaytirgan.

Metafora orqali ma’no ko‘chgan so‘zlar ko‘pincha so‘z birikmasi shaklida bo‘ladi. Yuqoridagi “yorug‘ nafas”, “nafs to‘rlari”, “parishon bog‘” misollari so‘z birikmasi hisoblanadi. Yorug‘ nafas – yorug‘(tobe), nafas (hokim), parishon bog‘– parishon (tobe), bog‘ (hokim), nafs to‘rlari – nafs (tobe), to‘rlari (hokim) qismlardan iborat. Hokim so‘zlar ot so‘z turkumidagi so‘zlar bilan ifodalanganligi uchun bu birikmalar otli birikma sanaladi.

Metafora nutq va matnni boyitadi. U fikrlarni tushunishni osonlashtiradi va tasavvurni rivojlantiradi. Zebo Mirzo she’riyatidagi metaforalar ham murakkab tushunchalarni oddiyroq tarzda anglashga yordam bergan va she’rlarning jozibaliligini yanada oshirgan.

Bir predmetning, belgining, harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik asosida ko‘chirilishi metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish deyiladi (yunoncha metonymia – qayta nomlash). Masalan, dasturxon leksemasi ovqatlanish uchun yoziladigan buyumni anglatadi; bu leksema ovqatning o‘zi, dasturxonga qo‘yiladigan noz-ne’matni ham bildiradi.

Metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishning asosiy ko‘rinishlari:

Bir predmetning nomi shu predmetdagi boshqa bir predmetga ko‘chiriladi: bosh – (kishi organizmining bo‘yindan yuqori qismi), (miya: boshim og‘ridi), ich- (ichki tomon), ich – (qorin bo‘shlig‘ida joylashgan a’zolar: ichim og‘ridi) kabi.

Bir predmetning nomi shu predmet asosida hosil bo‘ladigan predmetga ko‘chiriladi: choy (o‘simlik) – choy(ichimlik), dam (nafas, havo) – dam (tinim, vaqt, daqiqa) kabi.

3 Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili – Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.113-bet
4 https://tafakkur.net Zebo Mirzo she’rlari, Tafakkur
5 https://tafakkur.net Zebo Mirzo she’rlari, Tafakkur

Belgining nomi shunday belgisi bor predmetga ko‘chiriladi: ko‘k (rang nomi) – ko‘k (ko‘kat) – ko‘k (osmon), kir (iflos) – kir (ifloslangan yoki yuvilgan kiyim-kechak), yupqa (qalinning aksi) – yupqa (taom nomi), chuqur (sayozning aksi) – chuqur (o‘ra) kabi.

Bu banddagi holat metafora yo‘li bilan ko‘chirishga o‘xshash, lekin farqli: metafora yo‘li bilan ko‘chirishda bir predmetdagi belgining nomi boshqa predmetdagi belgiga ko‘chiriladi (oq qog‘oz, oq gvardiya kabi), metonimiya yo‘li bilan ko‘chirishda esa belgining nomi predmetga ko‘chiriladi (oq- rang nomi oq predmetning nomi: ko‘zning oqi kabi).

Nutqda Fuzuliyni o‘qib tugatdim, “Toshkent oqshomi”ni o‘qib turaman kabi ishlatishlar ham bor. Bularda asli atoqli va turdosh otdan tuzilgan (Fuzuliy asarlari, “Toshkent oqshomi” gazetasi kabi) birikma o‘rniga atoqli otning o‘zi ishlatiladi. Natijada, atoqli ot yangi leksik ma’no anglatmaydi, balki o‘z ma’nosini saqlagan holda turdosh ot ma’nosini ham o‘z ustiga oladi. Yuqoridagi misollardan farq qiluvchi bu hodisa asosida tejamkorlik qonuni yotadi.[6]

Zebo Mirzayeva ijodida quyidagi misollarga o‘xshash metonimiyalarga duch kelamiz. Metaforalar singari metonimiyalar ham shoiraning she’rlarini bezagan.

Samo uzra sochib lavh hattoti
Hikmatlar kitobin etganda tamom,
Bir so‘z-la jam qildi ajdodlar yodin
“Qutadg‘u bilik”ka Xos Xojib bobom.[7]

“Fuzuliyni o‘qib tugatdim” jumlasida Fuzuliy asari tushunilgandek, bu parchada shaxs orqali narsa anglashilmoqda. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilig” asari orqali buyuk meros qoldirganligi ta’kidlangan.

“Oson emas bu maydon ichra turmoq,
Nizomiy panjasiga panja urmoq!”
She’r ahli yuz yillab tuzgan dunyoni
Bir sher panjasi-la oldi u biroq!...[8]

Bu she’rda “Nizomiy panjasiga panja urmoq” jumlasi ko‘chma ma’noda qo‘llangan. Ya’ni “Nizomiy panjasi” birikmasi orqali uning asarlari nazarda tutilgan. Qayta nomlash asosida “asar” so‘zi o‘rnida “panja” so‘zi ishlatilgan. Bu ko‘chim she’rga poetik ruh bag‘ishlab, ma’nosini badiiy go‘zallashtirgan.

Quyidagi misralar ham qayta nomlashga misol bo‘la oladi.

Hazrat Navoiydan qolgan qutlug‘ so‘z
Ilohiy ilhomdan yaralgan tilim,
Boburni yig‘latgan yetti iqlimga
“Boburnoma” bo‘lib taralgan tilim.[9]

Ushbu to‘rtlikdagi “Boburnoma” bo‘lib taralgan tilim” misrasida metonimiya qo‘llangan. Narsa orqali narsa ma’nosi qayta nomlangan. O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning quyidagi misralarini ham misol keltirish mumkin.

“Temur tig‘i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher”.

Bunda Amir Temur qilich bilan butun dunyoga mashhur bo‘lgan bo‘lsa, Navoiy asarlari bilan butun dunyoga tanilganligi nazarda tutilgan.“Boburni yig‘latgan, yetti iqlimga, “Boburnoma” bo‘lib taralgan tilim” ushbu jumla “Boburnoma” asaridagi ma’lumotlar ona tilimizning buyukligidan darak bergan.

Metonimik ma’no ko‘chishlar ko‘p hollarda sodda gap ko‘rinishida bo‘ladi. “Nizomiy panjasiga panja urmoq”, “Boburnoma” bo‘lib taralgan tilim” misollarida “panja urmoq”, “taralgan” so‘zlari gapning asosidir. Ko‘rinib turibdiki, gaplarda bitta kesim mavjud. Shu sababli sodda gap hisoblanadi.

Yuqoridagi she’riy parchalar orqali metonimiya aloqa yuzasidan ma’no ko‘chish turi ekanligini bilib oldik. Bu ma’no ko‘chish turini aniqlashda, avval ma’nosi ko‘chgan so‘zni topib, keyin u so‘zda qanday ma’no ko‘chganligini aniqlaymiz, mabodo tashqi ko‘rinishi o‘xshasa, metafora, qayta nomlansa yoki aloqa yuzasidan ma’no ko‘chsa, metonimiya bo‘ladi. Yuqoridagi parchalarda metonimiya badiiy tasvirni kuchaytirib, iqtisodiylikni va ixchamlikni bergan. Narsalar orasidagi bog‘liqlikni his qilishga yordam berib, she’r ritmi va ohangiga mos holda hissiy kuch hosil qilgan.

Ma’no ko‘chishning yana bir turi sinekdoxadir. Sinekdoxa yunoncha so‘z bo‘lib, birga anglamoq degan ma’noni bildiradi. Butun orqali qismni yoki qism orqali butunni anglatib, quyidagi turlarga bo‘linadi.

1. Bo‘lak (qism) orqali butunni ifodalash. Masalan: bitta tuyoq bilan olti qorinni boqib kelyapman.

2. Butun orqali bo‘lak (qism)ni ifodalash, Masalan: besh qo‘l barobar emas; olma archayotib qo‘limni kesib oldim.

6 Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili, (darslik). – Toshkent: O‘qituvchi, 2006. 56–59- bet
7 https://tafakkur.net Zebo Mirzo she’rlari, Tafakkur
8 https//:t.me ZEBO MIRZO she’rlari
9 https//:t.me ZEBO MIRZO she’rlari

Zebo Mirzo she’rlari odatda, qisqa, hissiy kuchli va ichki dramatizmga ega. Sinekdoxa bu poetik ohangga ma’noni ixchamlashtirish, psixologik holatni bir detal orqali berish, ayol ruhiyatini ramziy ko‘rsatish, misraga chuqur ma’no yuklash imkonini beradi. Soch, bosh, ko‘z, qosh, quloq, og‘iz, burun, mo‘ylov, soqol, oyoq, qo‘1, yurak, jigar, til, bo‘g‘iz, tomoq, lab, tish, kabi tana a’zolari orqali shaxs ma’nosi anglashilishi ham sinekdoxa asosida ma’no ko‘chishiga asoslangan bo‘ladi. Shoira juda ko‘p hollarda “ko‘z”, “dil”, “qo‘l”, “oyoq”, “lab” kabi a’zolarni ishlatib, ayolning butun olamini aks ettiradi.

“Ko‘zlarimning charchog‘i bilmaydi hech kim meni”. Bu yerda “ko‘zlarimning charchog‘i” – shoiraning butun hayotiy charchog‘i, ruhiy og‘irligi. “Bir juft qo‘llarim bilan butun dunyoni ko‘tardim”. “Qo‘llar” – ayolning hayot yuklarini ko‘taruvchi o‘zi. Qo‘l deb shoira o‘zining butun tanasini nazarda tugan.

Qaldirg‘ochlar mendan yaxshiroq
Baxt to‘kadi hur quchog‘iga
Men ham uning tirnog‘iman-u
Arzimayman, lek tirnog‘iga[10]

Zebo Mirzoning “Onamga” she’ridan olingan parchadagi sinekdoxani tahlil qilamiz. “Men ham uning tirnog‘iman-u” misrasida “tirnoq” so‘zida sinekdoxa orqali ma’no ko‘chib, bu so‘z butunni bo‘lak orqali ifodalab, “farzand” ma’nosi anglashilgan. Shoira ushbu jumla orqali buyuk insonning farzandi ekanligini, lekin uning tirnog‘iga ham arzimasligini ta’riflagan. Bundan tashqari, bu misol qo‘shma gap tarkibida kelgan. She’riy jumlani inversiya holatidan chiqarilsa quyidagi holatga keladi. “Men ham uning tirnog‘iman-u, lekin tirnog‘iga arzimayman”. Bu zidlov bog‘lovchisi bilan bog‘langan qo‘shma gapdir.

Zebo Mirzo she’rlarida ko‘chma ma’noli birliklarning qo‘llanishi tilning semantik imkoniyatlari qanchalik keng va dinamik ekanini ko‘rsatadi. Shoira metafora, metonimiya, sinekdoxa va boshqa ko‘chma ma’no vositalaridan foydalanib, leksik birliklarning ma’no ko‘lamini kengaytiradi, ularni ikkilamchi nominativ funksiyaga ega qiladi va shu orqali poetik matnning semantik qatlamlarini boyitadi.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaralganda, Zebo Mirzo she’rlarida ko‘chma ma’nolar mexanizmlarining faol ishlatilishi, obrazlilikning leksik-semantik asosida shakllanishi, badiiy konnotatsiyaning kuchayishi, individual muallifona semantikaning yaratilishi kabi jarayonlarni yaqqol namoyon qiladi. Natijada, shoira matnida ko‘chma ma’noli so‘zlar emotsional-ekspressivlikni oshiruvchi, obraz yaratish markaziy vazifa bajaruvchi hamda tilning poetik funksiyasini kuchaytiruvchi til birliklari sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat Zebo Mirzo ijodining lisoniy xususiyatlari o‘rganish uchun boy material ekanini va uning she’riyati zamonaviy o‘zbek tilining obrazlilik salohiyatini chuqur aks ettirishini ko‘rsatadi.

10 https//:t.me ZEBO MIRZO she’rlari

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mengliyev Baxtiyor. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, –Toshkent: Excellent Polygraphy, 2020.113-bet
2.Hojiyev A. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: Fan, 2006.
3.Rahmatullayev Shavkat. Hozirgi adabiy o‘zbek tili (darslik). – Toshkent: O‘qituvchi 2006. 56–59- bet
4.Ne’matov H., Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari, –Toshkent: O‘qituvchi, 1995. 73–78- bet.
5. Zebo Mirzo. “Nur kukunlari”, “Yangi asr avlodi”, 2004-yil
https://tafakkur.net Zebo Mirzo she’rlari, Tafakkur
https//:t.me ZEBO MIRZO she’rlari

Shoxsanam LAPASOVA,
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
adabiyotshunoslik yo‘nalishi
1- kurs magistranti

“QORA KITOB” QISSASIDA RAMZ POETIKASI

Annotatsiya:mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasi doirasida ramziy obrazlar tizimi badiiy va ilmiy jihatdan keng qamrovda tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan ramziy obrazlarning semantik talqini, ularning zamonaviy o‘zbek adabiy tafakkuridagi o‘rni, milliy va umuminsoniy mazmun kasb etishi, shuningdek, ramziy obrazlar orqali muallifning badiiy niyat va kontseptsiyasi ochib beriladi. Tadqiqotda klassik va zamonaviy adabiy-nazariy qarashlar, empirik va tahliliy yondashuvlar uyg‘unlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: *ramz, obraz, Qora kitob, Nazar Eshonqul*

Annotation:this article presents an extensive literary and scientific analysis of the system of symbolic images in Nazar Eshonqul’s novella “Qora kitob”. The semantic interpretation of the symbolic figures in the work, their role in modern Uzbek literary thought, their national and universal significance, as well as the author’s artistic intentions and conceptualizations revealed through these images, are discussed. The study integrates classical and contemporary literary-theoretical perspectives with empirical and analytical approaches.

Key words: *symbol, image, Qora kitob, Nazar Eshonqul*

Аннотация:в данной статье проводится всесторонний художественный и научный анализ системы символических образов в повести Назара Эшонкула «Кора китоб». Рассматриваются семантические трактовки символических фигур, их место в современном узбекском литературном мышлении, национальное и общечеловеческое значение, а также раскрываются художественные замыслы и концепции автора через эти образы. В исследовании гармонично сочетаются классические и современные литературно-теоретические взгляды с эмпирическим и аналитическим подходами.

Ключевые слова: *символ, образ, Кора китоб, Назар Эшонкул*

O‘zbek zamonaviy adabiy jarayonida ramziy obrazlar tizimi, ularning badiiy va falsafiy mazmuni, adibning individual dunyoqarashi va milliy tafakkurda tutgan o‘rni muhim ilmiy muammolardan biri sifatida ko‘rilmoqda. Bu borada Nazar Eshonqul ijodi, xususan, uning “Qora kitob” qissasi ramziy qatlamlarning mujassamligi, ijtimoiy-falsafiy va ma’naviy-estetik masalalarning badiiy ifodalanishi bilan ajralib turadi. “Qora kitob” qissasi zamonaviy o‘zbek adabiyotida ramz va obrazlar tizimi orqali inson ruhiyati, jamiyat, axloq va qadriyatlar masalasini o‘tkir badiiy vositalar bilan yoritgan asardir. Ushbu maqola “Qora kitob” qissasida ramziy obrazlar tizimi, ularning badiiy-falsafiy semantikasi va zamonaviy o‘zbek adabiy tafakkuridagi o‘rni bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tahlilni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotda ramzlarning klassik va zamonaviy adabiy-nazariy asoslari, ularning milliy va umuminsoniy kontekstdagi talqini, ilmiy-empirik yondashuvlar asosida o‘rganiladi. Shu orqali Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasidagi ramziy obrazlar tizimi o‘ziga xos badiiy-falsafiy fenomenga aylanganini ochib berish ko‘zda tutiladi.

Ramz va obraz tushunchalari adabiyotshunoslikda uzoq tarixiy va nazariy ildizlarga ega. Ramz (arab. – ishora qilmoq) (badiiy adabiyotda) – voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli; badiiy shartlilik shakllaridan. Ramz majozdan farq qilib, mazmuni obrazli qurilishi bilan bog‘liq bo‘ladi va ko‘p ma’noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko‘pchilik xalqlar adabiyoti va san’atida mushtarak mazmunni ifodalaydi. Masalan, sher – mardlik, tulki – makkorlik, bo‘ri –ochko‘zlik va h.k.[4,24]. Ramziy obrazlar tizimi, ularning badiiy asarlardagi roli va semantik boyligi, avvalo, Sharq va G‘arb adabiy-falsafiy tafakkurining asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Sharq mumtoz adabiyotida ramzli obrazlar ko‘p qatlamli ma’no va ruhiy-falsafiy mazmunni mujassam etgan bo‘lib, ular asosan tasavvufiy va axloqiy-falsafiy

kontekstda qaralgan. Jumladan, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Attor va boshqa mumtozlar ijodida ramz, timsol va obrazlar orqali inson borlig‘i, ruhiy kamolot, hayot va o‘lim, ezgulik va yovuzlik, dunyoviy va ruhiy qadriyatlar masalasi badiiy-falsafiy talqin etilgan. Navoiy ijodida “Layli va Majnun”, “Farhod va Shirin” kabi asarlarda ramziy obrazlar insoniy mohiyat, muhabbat, fidokorlik, ma’naviy iztirob va kamolot ramzi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu an’ana keyingi davr o‘zbek adabiyotida ham davom etib, har bir davr adibi o‘z zamonasining ijtimoiy-tarixiy, ma’naviy-estetik muammolariga mos ramziy obrazlar yaratishga harakat qilgan. G‘arb adabiyoti va nazariyasida esa ramz va obraz masalasi XIX-XX asrlarda, xususan, simvolizm oqimi, psixoanalitik va strukturalistik yondashuvlar ta’sirida chuqurroq o‘rganila boshlandi. Yung, Freyd, Fromm kabi nazariyotchilar ramz va obrazlarning arxetipik, ijtimoiy, madaniy va psixologik ildizlarini tahlil qilib, ramzning inson ongi va madaniyatidagi o‘rnini chuqur yoritib berishdi. Xususan, XX asr Yevropa mutafakkirlaridan Erix Fromm o‘zining “Qalb ilmi” kitobining “unutilgan til (tushlar, ertaklar miflarning tushunish faniga muqaddima” qismida ramz haqida shunday to‘xtalib o‘tadi: “Ramz nima o‘zi? Ko‘pincha u “boshqa narsalarga ishora” sifatida ishlatiladi. Bu o‘xshatish qoniqarsiz bo‘lsa-da, shunga qaramasdan, agar gap ko‘rish, eshitish, hid bilish, sezish organlarimiz bilan bog‘liq hissiyotlarimizni, fikrlarimizni “biror narsa” bilan belgilash haqida ketganda, qo‘llasa bo‘ladi. Ushbu ramz ichki olamimizning tashqaridagi qandaydir ifodasidir. Ramziy til shunday tilki, uning yordamida ichki hissiyotlarimizni, kechinmalarimizni, nimalar qilmoqchi ekanligimizni, nimalar sodir bo‘layotganligini moddiy olamga bildiramiz”.[8.55]. Keltirilgan jumladan asosiy urg‘u ichki va tashqi olam o‘rtasidagi munosabatga berilgan. Ramz aynan shu ikki qatlamni bog‘lovchi ko‘prik sifatida talqin qilinadi: insonning ichki kechinmalari bevosita ko‘rinmaydi, ular ramz orqali tashqi, moddiy shaklga ega bo‘ladi. Demak, ramz — bu subyektiv tajribaning obyektiv ifodasidir. Shuningdek, matnda “ramziy til” tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi. U oddiy til emas, balki insonning ichki ruhiy holatini, niyatlarini va jarayonlarini ifodalovchi maxsus tizim sifatida ko‘rsatiladi. Bu yerda ramziy til nafaqat aloqa vositasi, balki inson o‘zligini anglash va ifodalash usuli sifatida ham talqin qilinadi.

Zamonaviy adabiyotda ramz haqida gap ketganda bevosita modernizm tushunchasiga ham to‘xtalib o‘tish kerak. Chunki bu ikkisi bir birini talab qiladi. Modernizm— XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan adabiy-badiiy yo‘nalish bo‘lib, u an’anaviy realizmdan voz kechib, insonning ichki dunyosini, ong oqimini, subyektivlikni, ma’no noaniqligini tasvirlashga intiladi. Bu ikki tushuncha o‘rtasidagi bog‘liqlikka kelsak, modernistik asarlarda muallif fikrni ochiq aytmaydi. Ramzlar orqali o‘quvchini o‘ylashga majbur qiladi. Ya’ni ramz modernizmning asosiy unsurlaridan biri. Modernizm inson ruhiyatini chuqur ochadi. Bu jarayonda oddiy tasvir yetarli bo‘lmaydi, shuning uchun ramziy vositalar ishlatiladi. Shu bilan birga, bunday asarlarda ramzlar bir o‘rinda bir emas, bir nechta ma’noni anglatadi. Bu esa asarni murakkab va chuqur qiladi. Shuningdek, bunday asarlarda voqealar aniq bo‘lmay, ko‘pincha tush, xayol, ong oqimi orqali beriladi.Ramzlar esa bu noaniqlikni ifodalashga, tushunishga xizmat qiladi. Biz tadqiqotda o‘rganayotgan yozuvchi Nazar Eshonqulning bir qator asarlaridagi misollar ham yuqoridagi fikrlarni dalillaydi.

Muallifning “Qora kitob” qissasi, asarda ramziy obrazlar tizimi murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘langan holda asarning badiiy yaxlitligini ta’minlaydi.

“Qora kitob” ramzi

Asarning sarlavhasiga aylangan “qora kitob” obrazi murakkab falsafiy ma’no kasb etadi. Kitob – bilim va donishmandlik ramzi bo‘lsa, “qora” rangi esa uni ziddiyatli ma’noga ega qiladi. Qora rang ko‘pincha sirli, noma’lum, ba’zida esa fojiali voqealarni ifodalaydi. Asardagi “qora kitob” obrazi orqali yozuvchi inson taqdirining noma’lum sahifalari, hayot va o‘lim o‘rtasidagi sirli bog‘liqlikni ifodalashga urinadi. Bu obraz qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari bilan uyg‘unlashib, asarning asosiy g‘oyaviy yukini ko‘taradi. Shuningdek, cho‘qqi soqol, tush, yomg‘ir va boshqa ramzlar inson va jamiyat, ruhiy iztirob va haqiqat, yovuzlik, hayot va o‘lim, ma’naviyat va axloqiylik masalalarini badiiy-falsafiy talqin etishda markaziy o‘rin egallaydi.

“Kecha yana o‘sha muqaddas kitoblardan birini qo‘limga oldim va qizimga boqqancha ochib o‘qiy boshladim: “Sen Iblis toji turgan joyda yashamoqdasan”. Boshqa oyatni o‘qishga qurbi yetmadi, zero, umrim haqida xulosa qilish uchun shu

oyatning o‘zi yetarli edi. “ [2,22]. Mazkur jumla asarda qo‘llangan eng kuchli ramziy-metaforik ifodalardan biri bo‘lib, u qahramon yashayotgan muhitning, hayotining mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Jumlada ishlatilgan “iblis toji” obrazi an’anaviy diniy-estetik tasavvurlarga tayanadi. Ma’lumki, “iblis” — yovuzlik, gunoh va insonni to‘g‘ri yo‘ldan ozdiruvchi kuch timsoli, “toj” esa hukmronlik, ustuvorlik belgisi hisoblanadi.Shu bois “iblis toji” birikmasi yovuzlikning hukmronlik qilayotgan makonini anglatadi.

“...Farzandlarimiz mana shu o‘choqda pishib, yetilib chiqdilar, bular farzandlar emas bizning qilmishimizning hosilalaridir. Bu imoratda biron aql sohibi tug‘ilishiga bugun hech bir ishonmayman, mabodo, tasodifan tug‘ilgan taqdirda ham, undan ham fahsh isi anqib turadi.“ [2,8]. Qahramonning o‘z avlodiga nisbatan chuqur umidsizlik, pushaymonlik va aybdorlik hissi yo‘g‘rilgan. Qahramon bunda o‘z aybini anglab, tavba qilishi imkonsiz ekanligini aytmoqchi.

Asardagi bosh obrazlardan — cho‘qqisoqol obraziga kelsak, cho‘qqisoqol — asarda aniq bir ijtimoiy yoki maishiy shaxs sifatida chegaralanib qolmaydi, balki ramziy ma’no yuklangan murakkab obrazdir. Uning eng asosiy xususiyati — talqinlarning ochiqligi. Har bir o‘quvchi uni o‘z dunyoqarashi va ruhiy holatidan kelib chiqib anglaydi.

Birinchi talqinda cho‘qqisoqol real inson qiyofasida ko‘rinadi. Bu yondashuvda u jamiyatdagi muayyan qatlam yoki tipik shaxsning umumlashma timsoli bo‘lishi mumkin. Ya’ni, u hayotda uchraydigan, ta’siri kuchli, lekin sirli va tushunarsiz inson obrazini ifodalaydi.

Ikkinchi talqinda esa u insonning ichki dunyosiga ko‘chadi. Bu yerda cho‘qqisoqol — insonning “ichki men”i, ayniqsa nafsi va qorong‘u tomonlarini ifodalaydi. Inson o‘z ichida kurashadigan, ba’zan ustun keladigan, ba’zan esa mag‘lub bo‘ladigan ruhiy kuch aynan shu obraz orqali beriladi. Shu jihatdan u psixologik ramzga aylanadi.

Uchinchi talqin — mifik va diniy qatlam bilan bog‘liq. Bu yondashuvda cho‘qqisoqol iblis yoki shayton timsolida ko‘riladi. U insonni yo‘ldan ozdiruvchi, sinovdan o‘tkazuvchi kuch sifatida talqin qilinadi. Bu esa asarga falsafiy va metafizik chuqurlik beradi. Eng muhim jihati shundaki, bu uchala talqin bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini to‘ldiradi. Cho‘qqisoqol obrazi aynan shu ko‘p ma’nolilik orqali badiiy qiymat kasb etadi. U nafaqat voqealar ishtirokchisi, balki g‘oyaviy markazga aylanadi — inson, jamiyat va ruhiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi.

Nazar Eshonqulning “Qora kitob” qissasida ramziy obrazlar tizimi murakkab va ko‘p qatlamli bo‘lib, ular asarning badiiy yaxlitligini ta’minlashda, g‘oyaviy mazmunni ochishda muhim vazifa bajaradi. Adibning ramziy obrazlar yaratishdagi mahorati, detallarni chuqur falsafiy ma’noda qo‘llash qobiliyati uning o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin egallashini ta’minlagan. “Qora kitob” qissasidagi ramziy obrazlar tizimini o‘rganish nafaqat yozuvchi ijodini, balki zamonaviy o‘zbek nasrining badiiy tafakkur darajasini anglashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Adabiyot nazariyasi. 2 jildlik. Adabiy asar. Jild.1. –T.: Fan, 2001.
2. Eshonqul Nazar. Qora kitob. –Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 2008.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
4.Open Academia: Journal of Scholarly Research (2023)
5. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. –Toshkent: Akademnashr, 2018.
6. Xoldarov D. Hozirgi o‘zbek qissalarida badiiy uslub muammosi (Shoyim Bo‘tayev va Nazar Eshonqul asarlari misolida): filologiya fanlari bo‘yicha falsafa dok. (PhD). ...diss. avtoref. –Toshkent, 2017.
7. INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF BERUNI.2022.(382)
8. E. Fromm. The Forgotten Language: An Introduction to the Understanding of Dreams, Fairy Tales, and Myths (1951)ISBN 978-0-03-018436-9

E'zoza G'AYRATOVA,
SamDU magistranti

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA TOPONIMLAR

Annotatsiya: O'zbek tilshunosligida onomastika va uning ichki sohalarining o'rganilishi boshlanganiga qariyb 60 yil bo'lgan bo'lsa-da, ammo bu sohada mukammal tizim joriy etish uchun yechimini topish kerak bo'lgan muammolar ham yetarlicha topiladi. Xususan, onomastik birliklarning badiiy matnda qo'llanishi yoki aksincha, badiiy asarda keltirilgan onomastik birliklarni lingvistik nuqtayi nazardan o'rganish alohida ahamiyatga ega. Xususan, toponimlarning badiiy asardagi funksiyasi ham bu dolzarblikning bir qismidir. Ayniqsa, avtobiografik ruhda yozilgan asarlarda qo'llangan toponimlarning semantik tahlili alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida qo'llangan toponimlar semantik jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: *onomastika, toponimika, toponimlar, Ulug'bek Hamdam, "Ota" romani, makrotoponim, mikrotoponim*

Аннотация: хотя изучение ономастики и ее внутренних областей в узбекском языкознании началось почти 60 лет назад, существует множество проблем, которые необходимо решить для внедрения совершенной системы в этой области. В частности, особое значение имеет использование ономастических единиц в художественном тексте или, наоборот, изучение ономастических единиц, представленных в художественном произведении, с лингвистической точки зрения. В частности, функция топонимов в художественном произведении также является частью этой актуальности. Особое значение имеет семантический анализ топонимов, используемых в произведениях автобиографического характера. В данной статье проводится семантический анализ топонимов, встречающихся в романе Улугбека Хамдама «Ota».

Ключевые слова: *ономастика, топонимика, топонимы, Улугбек Хамдам, роман "Отец", макротопоним, микротопоним.*

Annotation: although almost 60 years have passed since the beginning of the study of onomastics and its internal branches in Uzbek linguistics, there are still enough problems that need to be solved to introduce a perfect system in this field. In particular, the use of onomastic units in a literary text or, conversely, the study of onomastic units presented in a literary work from a linguistic point of view is of particular importance. In particular, the function of toponyms in a literary work is also part of this relevance. Semantic analysis of toponyms used in autobiographical works is of particular importance. This article provides a semantic analysis of toponyms found in Ulugbek Hamdam's novel "Ota".

Key words: *onomastics, toponymy, toponyms, Ulugbek Hamdam, novel "Father", macrotoponym, microtoponym.*

O'zbek tilshunosligida onomastika yo'nalishi o'tgan asrning 60–70-yillarida vujudga keldi va eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Bu soha bo'yicha E.Begmatov, T.Nafasov, S.Qorayev, B.Qilichev, H.Hasanov kabi olimlar o'zlarining ilmiy faoliyatlarini olib bordilar.

Onomastika – bu nomshunoslik bo'lib, u o'z ichida bir necha tarmoqlarga bo'lib o'rganiladi: antroponim, toponim, etnonim, mifonim, biblionim, geortonim, dignitonim, dokumentonim, drimonim, ideonim, kinonim, komonim, ktematonim, limnonym, astronim, anemonim, xoronim kabilardir [Begmatov E, Uluqov N; 2006: 28]. Shulardan eng ko'p o'rganilgan yo'nalishlar antroponimlar, toponimlar, etnonimlar kabi yo'nalishlardir. Xususan, E.Begmatov, G'.Sattorov, S.Rahimov, T.Enazarov kabi olimlarning tadqiqot ishlari alohida o'ringa egadir.

Onomastik birliklar badiiy asarda muhim o'ringa ega. Misol uchun, badiiy asarni kishi ismlarisiz yoki joy nomlarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu jihatdan yozuvchi va shoirlar o'z ijod namunalarida onomastik birliklarni majoziy yoki real hayotdan tanlab oladilar. Hech qaysi asarda nomlar bejizga keltirilmaydi. Ular, albatta, o'ziga qandaydir yukni oladi va shu orqali o'quvchi ongiga tez ta'sir qiladi. Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanida qo'llangan onomastik birliklarning leksik-semantik guruhlaridan toponimlar haqida so'z boradi. Aynan "Ota" romanining tanlanishining sababi, asardagi barcha joy nomlari real hayotda qo'llangan va qo'llanib kelinayotgan joy nomlaridir. Asarda birorta ham ramziy joy nomiga duch kelinmaydi.

Dastlab asarda qo'llanilgan toponimlar bo'yicha so'z yuritadigan bo'lsak, ular o'z ichida turli guruhlarga bo'lib o'rganiladi. Asarda *O'zbekiston, Toshkent, Andijon, Samarqand, Yunusobod, Do'mbirobod, Otchopar, Samarqand darvoza, Chilonzor, Asaka, Mingtepa, Qo'qon,*

Yuqori Rovvot, O‘qchi, Farg‘ona kanali, Ukraina, Olmoniya, Italiya, Ovrupo, Stalingrad, Polsha, Sibir, Moskva, Qrim, Amerika kabi toponimlar qo‘llangan. Asarda Andijon viloyati toponimiyasi, Toshkent viloyati toponimiyasi va Ikkinchi jahon urushi voqealari aks etganligi sababli Yevropa mamlakatlari toponimiyasi qo‘llangan.

Avvalo, yuqoridagi joy nomlaridan Toshkent, Andijon, Samarqand, Asaka, Qo‘qon, Ukraina, Olmoniya, Italiya, Ovrupo, Stalingrad, O‘zbekiston, Polsha, Sibir, Moskva, Amerika, Qrim kabi joy nomlari makrotoponimlar bo‘lsa, Yunusobod, Do‘mbirobod, Otchopar, Samarqand darvoza, Chilonzor, Farg‘ona kanali, Mingtepa, Yuqori Rovvot, O‘qchi kabilar mikrotoponimlarni hosil qiladi.

Endi esa makrotoponim va mikrotoponim o‘zi nima va ular nega aynan shunaqa nomlar bilan nomlangan degan savolga javob topamiz. Avvalo, *makrotoponim* so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, *“makro”* – katta, *“topos”* – joy, *“onoma”* – nom degan uch so‘zning qo‘shiluvidan hosil bo‘lgan. Makrotoponimiya yirik obyektlar, yirik geografik obyektlarning nomlarini bildiradi. Yuqorida aytib o‘tilgan joy nomlari yirik geografik hududlar, ya’ni mamlakat, davlat, viloyat nomlaridir. [S.Qorayev; 2006: 16].

“Mikrotoponim” so‘zi ham yunonchadan olingan bo‘lib, *“mikro”* – kichik, *“topos”* – joy, *“onoma”* – nom degan ma‘nolarni anglatadi [S.Qorayev; 2006: 17] va mikrotoponimiyaga kichik obyektlar, ya’ni buloqlar, quduqlar, dalalar, jilg‘alar, kanallar, ko‘chalar, tepaliklar nomlari kiritiladi.

Makrotoponim va mikrotoponimga ajratish, olimlarning fikricha, tadqiqotchining o‘ziga bog‘liq. Masalan, kimdir tumanni mikrotoponim deb hisoblasa, kimdir makrotoponim deb qaraydi. Shu jihatdan ushbu maqolada ham tuman, viloyat nomlarining barchasi makrotoponimlarga kiritilgan. Chunki viloyatlar o‘z ichiga tumanlarni qamrab olsa, tuman esa qishloq, shahar, ovul kabi kichik joylarni qamrab oladi.

“Oykonim” so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib, *“oykos”* – turarjoy, maskan, *“onoma”* esa nom so‘zidan hosil qilingan bo‘lib, aholi yashaydigan joy nomlarini ifodalab keladi, ya’ni oykonimlar qishloq, posyolka, ovul, mahalla, guzar, ko‘cha nomlariga qo‘yilgan atoqli otlardir [N.Oxunov; 1989: 4].

“Polisonim” grekchadan olingan bo‘lib, *“polis”* – shahar, *“onoma”* – nom so‘zlarining qo‘shiluvidan tarkib topgan va u o‘z ichiga shahar nomlarini oladi [N.Oxunov; 1989: 5].

“*Gidronim”* yunoncha *“hydor”* – suv, *“onoma”* – nom so‘zlarining qo‘shiluvidan hosil qilingan bo‘lib, suvlikda joylashgan har qanday obyektlarga, ya’ni suv omborlariga, kanallarga, daryolarga, soylarga, ko‘llarga, buloqlarga, ariqlarga, quduqlarga, hovuzlar, zovurlar, to‘g‘on va quvurlarga atab qo‘yilgan nomdir [N.Oxunov; 1989: 5]. Gidronim toponim turlaridan biri hisoblanadi. Gidronim o‘z ichida okeonim, pelagonim, limnonim, patomonim, gelonim kabi alohida kichik guruhchalarga bo‘linadi.

Asarda *Farg‘ona kanali* gidronimi qo‘llangan bo‘lib, u yozuvchi yashaydigan hududdagi eng katta va qadimiy kanallardan biridir va bu gidronim aholi punktlari bilan atalgan gidronimlar sirasiga kiradi.

Asarda qo‘llangan *Do‘mbirobod* toponimi Toshkent shahridagi mahalla va ko‘chalardan biri bo‘lib, oykonimlar sirasiga kiradi.

Otchopar – Andijon viloyatining Andijon tumanidagi qishloq nomlaridan biri hisoblanadi, lekin bu asarda Toshkent viloyatidagi mahallalardan birining nomi sifatida keltirilgan va bu ham oykonim tarkibiga kiruvchi joy nomidir:*“Chunki ular kelishganda azayimxonning u yog‘i Yunusobodga qarab, bu yog‘i Do‘mbirobod, yana boshqa yoqlari Otchopar-u Samarqand darvozaga qarab dang‘illab ketgan uyining oldida yuzlab, balki ikki yuzdir, odamlar qaldirg‘och bolalaridek tizilishib turishardi”* [U.Hamdam; 2024: 6].

Samarqand – toponim tarkibidagi shahar va viloyat nomidir, shu jihatdan bu ham polisonimlar tarkibiga kiradi. Lekin asarda bu joy nomi oykonimni hosil qilgan, chunki Samarqand – Farg‘ona viloyati Bag‘dod rayonidagi qishloq nomidir [N.Oxunov; 1994: 42]. *“Mobodo, keyingi gal o‘zim kelolmasam, to‘yga* ***Samarqandga*** *bormoqchidik-de”* [U.Hamdam; 2024: 15]. Asarda faqatgina shu o‘rinda Samarqand toponimi qo‘llangan, bundan bilish mumkinki, ular Samarqand qishlog‘ini nazarda tutayotgani ehtimoldan holi emas

Samarqand darvoza – toponim bo‘lib, Toshkent shahridagi mashhur darvozalardan birining nomi, keyinchalik esa bu mahalla va ko‘cha nomiga aylangan va oykonimni hosil qilgan. Hozirgi kunda u Toshkent viloyatidagi Beshyog‘och dahasining g‘arbiy qismida joylashgan ko‘cha, mahallalardan biridir. Asarda ham aynan Samarqand darvoza oykonim, ya’ni mahalla sifatida berilgan: *“Chunki ular kelishganda azayimxonning u yog‘i Yunusobodga qarab, bu yog‘i Do‘mbirobod, yana boshqa yoqlari Otchopar-u Samarqand darvozaga qarab dang‘illab ketgan uyining oldida yuzlab, balki ikki yuzdir, odamlar qaldirg‘och bolalaridek tizilishib turishardi”* [U.Hamdam; 2024: 6].

Yunusobod toponimi Toshkent shahrida joylashgan tumanlardan yoki mahalla va ko‘chalardan birining nomi. Bu antropourbonimlar tarkibiga kiradi va oykonimni hosil

qiladi. Antropourbonim – shahar obyektlarida kishilar ism-familiyalari bilan atalgan ko‘cha-ko‘y, mahalla nomlaridir, ya’ni bu nom Yunus antroponimiga obod so‘zining qo‘shiluvi natijasida hosil qilingan.

O‘qchi urbonim bo‘lib, Toshkent shahridagi qadimiy mahalla nomi. Asarda bu nom yoki ko‘cha yoki mahalla nomini bildirib kelgan va oykonimni hosil qilgan: *O‘qchiga kelganda “PAZ” markali avtobus pishqirib oyoq ildi* [U.Hamdam; 2024: 187].

Mingtepa qishloq nomi bo‘lib, bu geomorfologik oykonim tarkibiga kiradi. Geomorfologik oykonim oykonimlarning ma’lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlari asosida nom olgan bo‘ladi, yer tuzilishi, sathi bilan bog‘liq bo‘lgan bunday oykonimlar geomorfologik oykonimlar deb ataladi [N.Oxunov; 1989: 24]. Bunday geomorfologik oykonimlar “tepa”, “jar”, “chuqur”, “do‘ng”, “dasht” so‘zlari bilan qo‘llaniladi.Mingtepa toponimi Toshkent viloyatining O‘rta Chirchiq tumanida joylashgan. Mingtepa – ko‘pchilik tepaliklar va qo‘rg‘onlar ma’nosini anglatadi. Lekin asarda bu joy nomi Andijon viloyatidagi tuman yoki mahalla nomini bildirib kelgan: *Sodir bo‘lgan mudhish voqea butun **Mingtepa**-yu Asakani ikkiga bo‘lib tashladi* [U.Hamdam; 2024: 158].

Quva – Farg‘ona viloyatidagi shaharlardan birining nomi bo‘lib, polisonim tarkibiga kiradi va bu makrotoponimni hosil qiladi. Asarda bu nom Andijon viloyatiga Farg‘ona viloyatining yaqinlik ma’nosini ifodalab kelgan: U Quva tomondagi ikki adir orasidan chang-u to‘zonni aylantirib olib keldi-da, Po‘lat ota kechadan beri qimirlamay o‘tirgan ayvonga urdi [U.Hamdam; 2024: 182].

Toshkent – shahar, viloyat, poytaxt nomi. Asarda, asosan, shahar va viloyat ma’nosida qo‘llanilgan va bu toponim makrotoponim bo‘lib, polisonimlar tarkibiga kiradi.

Andijon – viloyat va shahar nomi bo‘lib, polisonimlar tarkibiga kiradi. Andijon toponimi etnotoponim, ya’ni xalq, qabila, urug‘ nomidan yaralgan aholi punktini anglatadi: *“O‘zi Andijondan kavushi to‘g‘irlanib kelgan **Po‘lat** toshkentlik barzangiga jur’at qilib bir nima dedi”* [U.Hamdam; 2024: 10].

O‘zbekiston – mamlakat nomi bo‘lib, makrotoponimni hosil qiladi va bu ham qabila, urug‘, xalq nomidan kelib chiqqan joy nomi bo‘lib, etnotoponim sirasiga kiradi.

Asaka – Andijon viloyatida joylashgan shaharlardan biri va polisonim hisoblanadi.

Yuqori Rovvot – Andijon viloyatidagi mahallalardan birining nomi, ya’ni oykonimdir. *“Chiqib, uyiga, “**Yuqori Rovvot**” mahallasiga olib boradigan avtobusga emas, balki Asakaga eltadigan Mingtepa shohbekatiga yo‘l soldi”* [U.Hamdam; 2024: 183.

Amerika – qit’a va davlat nomi bo‘lib, makrotoponim xususiyatiga ega. ***Qrim*** – o‘lka nomini anglatadi. O‘lkalar nomlari ham makrotoponimlarni hosil qiladi. ***Moskva*** – viloyat nomini bildiradi va Rossiya Federatsiyasi davlatidagi toponimdir. ***Sibir*** – o‘lka nomi bo‘lib, Rossiya Federatsiyasi hududidagi makrotoponimdir. ***Polsha*** – respublika va davlat nomidagi toponim bo‘lib, yevropada joylashgan. ***Stalingrad*** – antropotoponim bo‘lib, Rossiya Federatsiyasida joylashgan shahar nomidir. ***Ovrupo*** – Yevropa so‘zining o‘zbek tilidagi talaffuz shakli bo‘lib, qit’a nomini anglatadi va makrotoponimni hosil qiladi. ***Olmoniya*** – Germaniya davlatining qadimiy nomi. Olmoniya respublika, ya’ni mamlakatdir va bu makrotoponim Markaziy Yevropada joylashgan davlat. ***Italiya*** – respublika bo‘lib, Yevropa janubida, O‘rta dengiz havzasida joylashgan davlat, ya’ni makrotoponim. ***Ukraina*** – Sharqiy Yevropada joylashgan davlat nomi, ya’ni makrotoponimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э.,Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006.
2. Охунов Н. Жой номлари таъбири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994.
3. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1989.
4. Qilichev B. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, 2023.
5. Қораев С. Топонимика. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2006.
6. Ulug‘bek Hamdam. Ota. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.
7. Yusupova O., Islamova D., Turdimurodov U. O‘zbek onomastikasi masalalari. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand, 2025.

Shahruzoda DONABOYEVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
shahruzodad@gmail.com

SAID AHMADNING “JIMJITLIK” ROMANIDA MIRVALI OBRAZINING BADIIY TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada Said Ahmadning “Jimjitlik” romanidagi Mirvali obrazi adabiy-psixologik talqin asosida tahlil qilinadi. Qahramon xarakterining shakllanishi, ruhiy olamidagi ziddiyatlar, bolalikdagi tajribalarining keyingi hayotiga ta’siri, irsiy va ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligi ketma-ket bayon etiladi. Shuningdek, Mirvalining xatti-harakatlari, maqsadlari, ustunlikka intilishi, zo‘ravonlikka moyilligi va ruhiy tanazzul jarayoni badiiy dalillar asosida izohlanadi. Tahlil davomida obrazning hayotiyligi, realistik prozadagi tutgan o‘rni va muallifning psixologik tasvir mahorati yoritiladi. Maqola Mirvali obrazining ko‘p qirrali tabiatini ochishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *adabiy psixologizm, ruhiy tahlil, xarakter, badiiy portret, ziddiyat, realistik proza.*

Аннотация: в данной статье на основе литературно-психологической интерпретации анализируется образ Мирвали в романе Саида Ахмада «Безмолвие» («Джимджитлик»). Последовательно излагаются формирование характера героя, противоречия в его духовном мире, влияние детских переживаний на последующую жизнь, связь с наследственными и социальными факторами. Также на основе художественных аргументов поясняются действия Мирвали, его цели, стремление к превосходству, склонность к насилию и процесс душевного упадка. В ходе анализа освещаются жизненность образа, его место в реалистической прозе и мастерство психологического изображения автора. Статья служит раскрытию многогранной природы образа Мирвали.

Ключевые слова: *литературный психологизм, психологический анализ, характер, художественный портрет, конфликт, реалистическая проза.*

Annotation: this article analyzes the character of Mirvali in Said Ahmad’s novel “Silence” (Jimjitlik) through literary and psychological interpretation. The formation of the hero’s character, conflicts in his spiritual world, the impact of childhood experiences on his later life, and their connection with hereditary and social factors are described sequentially. Additionally, Mirvali’s actions, goals, striving for superiority, tendency towards violence, and the process of mental decline are explained based on artistic evidence. Throughout the analysis, the vitality of the image, its place in realistic prose, and the author’s psychological depiction skills are highlighted. The article serves to reveal the multifaceted nature of the character of Mirvali.

Key words: *literary psychologism, psychological analysis, character, artistic portrait, conflict, realistic prose.*

Kirish. Adabiyotshunoslikda badiiy asar qahramonlarining ruhiyati va xarakter mantig‘ini tahlil qilish obrazning mazmuniy sifatlarini aniqlashda muhim ilmiy yondashuvlardan biri hisoblanadi. Realistik proza ayniqsa shaxsning ichki kechinmalari, fe’l-atvori va xatti-harakatlaridagi mantiqiy izchillik orqali personaj tabiatini ochib berishga keng imkon yaratadi. Said Ahmadning “Jimjitlik” romanidagi Mirvali obrazi ana shunday psixologik qatlamlarga boy xarakterlardan bo‘lib, uning shakllanish omillari, ruhiy ziddiyatlari va xatti-harakatlaridagi motivlar ilmiy tahlil uchun e’tiborga molikdir.

Adabiyotlar tahlili va metod. Mirvali obrazi bolalikdagi tajribalar, ijtimoiy sharoit, shaxsiy manfaat, ichki ziddiyatlarning uyg‘unligi asosida shakllangan murakkab xarakter sifatida namoyon bo‘ladi. Uning zo‘ravonlikka moyilligi, mag‘lubiyatni tan olmasligi, hokimiyat va boylikka intilishi, o‘zini oqlashga urinishi kabi fazilatlar personajning ruhiy portretini belgilovchi asosiy omillar sifatida ko‘riladi. Muallif obrazni tashqi tavsif orqali emas, balki harakatlar, dialoglar, qarama-qarshi holatlar va dramatik vaziyatlar orqali ochadi. Bu esa Mirvali xarakterining badiiy asoslangan va hayotiy ishonarli namuna sifatida shakllanishini ta’minlaydi. Biz obyekt sifatida tanlagan “Jimjitlik” romani va undagi Mirvali obrazi psixologik hamda qiyosiy adabiy tahlil uchun zarur bo‘lgan badiiy imkoniyatlarga ega. Realistik prozaning yetuk namoyandasi Said Ahmad asarda markaziy personaj sifatida Mirvali xarakterini yuksak badiiy mahorat bilan yaratgan. Uning romandagi tasviri psixologiya ilmining shaxs ruhiyati haqidagi nazariyalariga tayanib tadqiq etish uchun yetarlicha material beradi.

Roman janrining o‘zi psixologik tahlil uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, u tarixiy davrning umumiy ruhini, ma’lum ijtimoiy hayotning badiiy manzarasini yaratish orqali qahramon xarakteri, milliy psixologiya, shaxsning “qalb dialektikasi”ni chuqur yoritish imkonini beradi. Shu

jihatdan “Jimjitlik”dagi Mirvali qiyofasi ham bunday tahlil uchun qulay obyektdir.

Muhokama. Asarda muallif savxoz rahbari Mirvalining fe’l-atvori, ruhiy holati, xatti-harakatlarini bosqichma-bosqich, izchil tasvirlaydi. Mirvali xarakteridagi ko‘plab sifatlar u mansub bo‘lgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog‘liq bo‘lgani uchun personaj ruhiyatini tipologik prinsip asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, Mirvali ruhiyatining ko‘proq uning nutqi, gap-so‘zlari, ichki monologi va faol harakatlari orqali ochib berilgani sababli psixologik tahlilning dinamik prinsipi ham yuqori samaradorlik kasb etadi.

Avvalo, Mirvali xarakterining shakllanish jarayoni va unda kuzatiladigan salbiy xislatlarning paydo bo‘lishiga ta’sir etgan omillarga e’tibor qaratish zarur. Ma’lumki, aksariyat insonlar shaxs fe’l-atvori shakllanishida ijtimoiy muhitning o‘rni juda katta ekanini e’tirof etadilar. Bu haqiqat inkor etilmaydi. Biroq odamlarga xos ayrim xislatlarning irsiy omillar asosida, ya’ni ota-onadan farzandga o‘tishi haqidagi qarashlarga shubha bilan qaraydiganlar ham talaygina. Mirvali xarakteriga xos bo‘lgan salbiy xususiyatlar qanday shakllangani haqidagi savolga javob topish uchun ushbu masalaga ilmiy nuqtayi nazardan oydinlik kiritish lozim.

Mag‘lubiyatni qabul qilmaslik xususiyati Mirvalida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. U Luqmonov tahdidlariga duch kelib, katta tovon to‘lashga majbur bo‘lganida ham, ikkinchi “Oltin yulduz”dan mahrum etilganida ham, uni doim qo‘llab-quvvatlab kelgan homiysi — tog‘lar sardori maqomiga yetishida asosiy rol o‘ynagan Shavkat Rahimovich vafot etganida ham, tog‘larda sarson bo‘lib, Bodomgulning o‘g‘li Azizbek sabab o‘lim bilan yuzma-yuz kelganida ham mag‘lubiyatni tan olmaydi. Bu mag‘rurlik va bo‘yin egmaslik otame’ros xususiyat sifatida ko‘rinadi. Negaki bunday qaror uchun zarur bo‘lgan qat’iyat otasida yetarlicha bo‘lgan. Albatta, uning o‘z joniga qasd qilishi salbiy holatdir, biroq bu ishni amalga oshirish uchun ham muayyan darajada qat’iy iroda va jur’at talab etiladi.

Natijalar. Mirvali shaxsining shakllanishi, avvalo, uning bolaligida kechirgan tajribalari bilan bog‘liq. Asarda uning yoshligida qilgan ishlari haqida keltirilgan epizodlar kelajakda yuzaga keladigan fe’l-atvorining dastlabki belgilarini ko‘rsatadi. Masalan, u o‘g‘rilik qilgan, it va mushukka nisbatan shafqatsizlik ko‘rsatgan. Bu holatlar Mirvalining keyinchalik o‘ziga to‘siq bo‘luvchi kishilarni ham ayovsiz yo‘q qilishga moyilligini ko‘rsatib turadi.

Mirvalining xarakteridagi qat’iyat, mag‘lubiyatni tan olmaslik, o‘z fikrida turish va maqsad yo‘lida keskin choralar ko‘rish kabi sifatlar otasidan o‘tganligi ham asarda eslatib o‘tiladi. Rixsivoyning yosh polvondan yiqilgach, alamdan o‘zini o‘ldirishi uning maqsadga haddan tashqari bog‘langan, mag‘lubiyatni hazm qila olmaydigan odam bo‘lganini ko‘rsatadi. Mirvalining xarakterida ham aynan shunday qattiqqo‘llik, g‘urur va o‘jarlik mavjud.

Mirvali obrazi bilan bog‘liq yana bir muhim jihat shuki, u o‘zini har doim aqlli, epchil, vaziyatni boshqara oladigan inson sifatida ko‘rsatadi. Ammo roman davomida uning ruhiy iztiroblari, shubha-gumonlari, qo‘rquv va xavotirlari ham o‘zini namoyon qiladi. Bu holat xarakterning ichki ziddiyatlarga boyligini ko‘rsatadi. Uning shafqatsizligi bolalikdagi tajribalar bilan bog‘liq bo‘lsa, mag‘rurligi va maqsad yo‘lida hech narsadan qaytmasligi esa hayot davomida shakllangan xususiyatdir. Bu sifatlar birlashib, Mirvalining badiiy-psixologik portretini to‘liq qiladi.

Xulosa. Xulosa tarzida aytganda, Said Ahmadning “Ufq” roman-trilogiyasi o‘zbek adabiyotida Ikkinchi jahon urushi yillarini badiiy-estetik jihatdan eng teran, eng hayotiy talqin etgan asarlardan biri sifatida alohida o‘rin tutadi. Asardagi Ikromjon, Jannat xola, Tursunboy, Azizxon, Zebixon kabi obrazlar orqali muallif urushning har bir xonadonga olib kirgan fojeiy ta’sirini ko‘rsatadi. Xususan, Ikromjon va Tursunboy qarama-qarshiligi — matonat va qo‘rqoqlik, sadoqat va xiyonat, ota qalbi va farzandning mas’uliyatsizligi o‘rtasidagi murakkab munosabatlar roman g‘oyasining asosiy bosh yo‘nalishiga aylangan. Jannat xolaning ona sifatidagi ichki fojiasi esa urushning eng og‘riqli jihati — oilaning, ayniqsa onalik mehrining sinovga tushishini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad S. Jimjitlik: roman. – Toshkent: Sano- standart, 2021. 384-b.
2. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ва ҳозирги ўзбек романчилиги. – Тошкент: «Фан», 1983. 146-б.
3. Шодиев Н. Руҳият рассоми. – Тошкент: «Фан», 1977. 48-б.
4. Ҳозирги адабий жараённинг актуал проблемалари. – Тошкент: «Фан», 1984. 166-б.
5. Ҳамдамов У. Бадиий тафаккур тадрижи. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2002. 198-б.
6. Sidiqov, B. O‘zbek adabiyotida psixologiya va xarakter yaratish mahorati. – Toshkent : Universitet, 2012.
7. Pardayeva, Z. O‘zbek romani poetikasi. – Toshkent : Meros, 2003. 104-b.

Xasan KENJAYEV,
Toshkent Amaliy fanlar universiteti
2-kurs magistranti
kenjayev.xasan.87@bk.ru

MAHMUD TOIR IJODIDA VATAN MAVZUSI

Annotatsiya: mazkur maqolada Mahmud Toir ijodida Vatan mavzusining badiiy talqini tahlil qilinadi. Shoir she'riyatida Vatan timsoli nafaqat geografik makon, balki muqaddas qadriyat, ma'naviy tayanch va ruhiy ildiz sifatida yoritilishi asoslab beriladi. Maqolada mustaqillik davri o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, xususan, milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik va insoniy qadriyatlarning aks etishi Mahmud Toir ijodi misolida ochib berilgan.Shoirning turli she'riy to'plamlari hamda "Momo yer", "Vatan deb" kabi asarlari tahlili orqali Vatan obrazi ona timsoli, tabiat tasvirlari va tarixiy xotira bilan uyg'un holda ifodalangani ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: *Mahmud Toir, Vatan mavzusi, o'zbek she'riyati, mustaqillik davri adabiyoti, vatanparvarlik, badiiy talqin.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественная интерпретация темы Родины в творчестве Махмуда Тоира. Обосновывается, что образ Родины в поэзии поэта раскрывается не только как географическое пространство, но и как священная ценность, духовная опора и корень идентичности. В статье на примере творчества Махмуда Тоира освещаются специфические особенности узбекской литературы периода независимости, в частности отражение национального самосознания, патриотизма и общечеловеческих ценностей. На основе анализа различных поэтических сборников поэта, а также произведений «Момо ер», «Ватан деб» показано, что образ Родины выражается в гармонии с образом матери, картинами природы и исторической памятью.

Ключевые слова: *Махмуд Тоир, тема Родины, узбекская поэзия, литература периода независимости, патриотизм, художественная интерпретация.*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of the theme of the Motherland in the works of Mahmud Toir. It substantiates that in the poet's works, the image of the Motherland is represented not only as a geographical space, but also as a sacred value, a spiritual support, and a root of identity. The article reveals the specific features of Uzbek literature of the independence period, particularly the reflection of national identity, patriotism, and universal human values, based on the example of Mahmud Toir's творчество. Through the analysis of the poet's various poetry collections, as well as works such as "Momo er" and "Vatan deb," it is shown that the image of the Motherland is expressed in harmony with the image of the mother, depictions of nature, and historical memory.

Key words: *Mahmud Toir, theme of the Motherland, Uzbek poetry, literature of the independence period, patriotism, artistic interpretation.*

Kirish. Shoir Mahmud Toir she'riyati mustaqillik davri o'zbek adabiyotining namoyandalaridan hisoblanadi. O'zbek adabiyoti taraqqiyotida mustaqillik davri alohida bosqich hisoblanadi. Bu davr she'riyatida milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, insoniy qadriyatlar, muhabbat va ruhiy poklanish g'oyalari yetakchi mavzuga aylandi. Ana shu jarayonda o'zining betakror ovozi, samimiy lirizmi va xalqona uslubi bilan ajralib turgan ijodkorlardan biri Mahmud Toirdir. Mahmud Toir, nafaqat, lirik shoir, balki ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda ijod qilgan, xalq qalbiga yaqin misralar yaratgan ijodkor sifatida tanilgan. Uning she'rlari inson qalbining eng nozik torlarini chertadi, oddiy hayot manzaralaridan yuksak badiiy umumlashmalar chiqaradi. 1990 – 2000-yillar Mahmud Toir ijodining sermahsul davri bo'ldi. "Biz nechun uchrashdik", "Muhabbat shevasi", "Oqib ketgan armonlar", "Barmoqlar bodasi", "Haqni tanib", "Yuz to'rtlik", "Saylanma", "Yangi she'rlar", "Mendan meni so'rama", "Ahli muhabbat qaydasiz" kabi to'plamlari nashr etildi. Bu davr she'rlarida hayotiy tajriba, falsafiy mushohada kuchayadi. Shoir endi, nafaqat tuyg'ularni tasvirlaydi, balki ularni tahlil qiladi, umumlashtiradi. Hayotning murakkabligi,

insonning ichki kurashlari, vaqtning o‘tkinchiligi uning ijodida chuqurroq talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mahmud Toir o‘zining samarali ijodi va adabiyot rivojiga qo‘shgan hissasi uchun davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan. 2001-yilda “Mehnat shuhrati” ordeni bilan taqdirlangan. 2005-yilda esa “O‘zbekiston xalq shoiri” faxriy unvoni berilgan. Mustaqillik yillarida yaratilgan she’rlarida Vatan mavzusi alohida o‘rin tutadi. “Barcha shoirlar uchun muhabbat, Vatan, ota-ona, do‘sti sodiq mavzulari birdek tabarruk. Ammo Mahmud Toir ijodida bu mavzular muallif biografiyasiga mos sifatlar bilan orzu-istaklari, dardu armonlari erkin va xalqona yo‘sinda talqin etiladi. Mahmud Toirning samimiy, sodda, jarangli, shiddatli, eng muhimi, dilining rangiga mos uslubi – so‘zi, sozi va ovozi bor. Shuning uchun ko‘rkam dilini avaylab qo‘rchilaydi. Shoir “har dilda bir yangi kalom bor”ligini biladi.”[1:1043]

Natijalar. Ijodkorning “Momo yer” she’rida kishi tug‘ilgan tuproqning naqadar aziz ekanligi, uni qanchalik ta’rif va talqin etsak, kam ekanligi bilinadi. Vatan mavzusi tuproq, yer haqidagi mavzular bilan uyg‘unlashadi.

Shamollarning shokilasi daraxtlarning bo‘ynidadir,
Tog‘lar toshin dil izhori irmoqlarning o‘ynidadir.
Oshiq bulbul sir, xandasi g‘unchalarning
qo‘ynidadir,
Aytar so‘zim suvratini, Momo yerim, o‘zing berding.[2:135]

Shoir birinchi satrda shamolni jonlantiradi. “Shokila” so‘zi bezak, ziynat ma’nosini beradi. Go‘yo shamol daraxtlarni bezab, ularning bo‘yniga taqinchoqdek ilinadi. Bu – tabiatning uyg‘unligi va go‘zalligi timsoli. Tog‘larning “dil izhori” irmoqlarda namoyon bo‘lishi juda nozik tashbeh. Bulbul – muhabbat timsoli. Uning siri va kulgisi g‘unchalar bag‘rida, ya’ni tabiat qo‘ynida yashirin. Bu misra Vatan tabiatining nafisligi va ishqiy ohangini kuchaytiradi. Bu satrda shoir bevosita Vatanga murojaat qiladi. “Momo yer” iborasi – Vatan ona timsolida ulug‘lanayotganini ko‘rsatadi. Shoir o‘z ilhomi, so‘zining shakli va mazmunini aynan shu zaminga bog‘laydi.

Maysalaring shivirlashdi, tizlar cho‘kib,
quloq berdim,
Bilmay bosib chumolini gunohimga so‘roq berdim,
Vatan ne deb so‘rganlarga bir kaftgina
tuproq berdim,
Menga Vatan siyratini, Momo yerim, o‘zing berding.[3:135]

“Shoir tasavvuri va tasviri eng mitti maysa bilan chumoli-yu bir kaft tuproqdan tortib bepoyon Vatan va Momo yer manzaralarigacha bir lahzada qamrab oladi. Oraliqda esa inson vosita bo‘lib turibdi. Shoir lozim topsa, “qizg‘alodoqning armonini qo‘shiq” qiladi, kulib turgan boychechak tabassumiga bog‘lanadi. Mahmud shoir turfa gullar – lola, yalpiz, rayhonu boychechaklar, yuqorida ta’kidlanganidek, hatto maysalarning ildizlari bilan tillashadi”.[4:1043] She’rning boshqa satrlarida ham o‘ziga xos tasvir vositalaridan foydalanilgan. Shoir Vatan tushunchasini Ona yer bilan bog‘lar ekan, Yerga “Momo yerim” deb murojaat qiladi. Bu atama orqali Yer ona siymosida gavdalanadi: mehribon, bag‘rikeng, hayot baxsh etuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Asarda insonning pokligi, halolligi, gunohi va savobi o‘zidan ekanligi aytiladi. Demak, Yer – nafaqat moddiy, balki ma’naviy manba hamdir. Quyosh ham go‘yo Yerga maftun, Oy unga parvona ekanligi, ming-ming yulduzlarning etagiga nur to‘kishi, qaldirg‘och ham bir parcha loyingdan bolalari uchun belanchak yasashi ham she’rga go‘zallik va nafosat baxsh etgan.

Senda ungan har bir giyoh Yaratganga sano aytar,
Ko‘kka yetgan teraklar ham kuni bitsa senga qaytar,
Muhammadga ummat Mahmud kafti kuyib
duo aylar,
Oshiqlikning qudratini, Momo yerim,
o‘zing berding.[5:135]

Yerda o‘sib chiqqan har bir o‘simlik Yaratganga hamd aytayotgandek tasvirlanadi. Bu yerda tabiat va Yaratuvchi o‘rtasidagi uyg‘unlik ko‘rsatilgan. Hatto osmon qadar bo‘y cho‘zgan teraklar ham oxir-oqibat yana Yer bag‘riga qaytadi. Bu hayot aylanishi, insonning ham tuproqdan kelib, tuproqqa qaytishini eslatadi. Shoir o‘zini Payg‘ambarimiz Muhammadga ummat deb tan oladi va ixlos bilan duo qiladi. “Kafti kuyib” iborasi chin dildan, samimiy iltijo ma’nosini beradi. Shoirning keyingi yillarda yozgan she’rlarida ham Vatan mavzusi juda chiroyli tarzda bo‘y ko‘rsatadi. 2021-yilda chop etilgan “Yaxshilikka kelganman” deb nomlandan she’riy to‘plamida “Vatan deb” nomlangan she’r keltirilgan. Shoir bu she’rni an’anaviy murabba (to‘rtlik) shaklida emas, musaddas (oltilik) tarzida yozadi:

Aytsam, nondek shirin so‘z bor dunyoda,
Aytsam, jondek shirin so‘z bor dunyoda.
Vatan deb, shivirlab aytib ko‘ring siz.
Vatan deb ko‘ngilga qaytib ko‘ring siz.
Chehrangiz balqiydi, quyosh bo‘lasiz,
Qalbingiz qalqiydi, ko‘z yosh bo‘lasiz…
Vatan alla bergan oromdek shirin,
Vatan xalq ko‘rsatgan ikromdek shirin.[6:48]

Muhokama. Hammamizga ma’lumki, o‘tgan 2005-yillar tahlikali davrlar bo‘ldi. Dunyoda turli radikal oqimlar, dinni niqob qilgan ekstremistlar ko‘paydi. Bunday chet g‘oya va insonkushlikka qaratilgan yot mafkuralar yurtimizga ham rahna solmaydi deb aytib bo‘lmas edi. Shunday bir davrda Mahmud Toir “Ogoh bo‘l dunyo” deb nomlangan doston yaratdi. Bu doston, nafaqat xalqimiz, balki butun dunyo xalqlariga bir nido, da’vatdek yangradi. Dostonda o‘z-o‘zidan Vatan, uni turli chet ta’sirlardan himoya qilish mavzusi ochiladi. Yurt obodligi va tinchligi uchun jon fido qilgan yurt qahramonlari eslanadi:

Gohi dunyo, gohi dard berib,
Olloh o‘zi ko‘rgay sinab,.
El-yurt uchun ko‘ksin kerib,
Kubro kabi ketmoq sharaf.
Bu dunyoda ikki eshik,
Hech kim qolmas abad yashab.
Manguberdi kabi mangu,
Vatan uchun o‘lmoq sharaf.
Bu Vatanning ayoli ham,
Orlik talab, hurlik talab.
Jon chirog‘in yurt yo‘lida
To‘marisdek yoqmoq sharaf.[7:17]

“… Manguberdi kabi mangu, Vatan uchun o‘lmoq sharaf deyilganda ham o‘quvchilar ko‘ngli bir qalqiydi. Shoir voqea-hodisalarning oddiy ishtirokchisi yoki aytuvchisi emas, voqea-hodisalarni yuragidan o‘tkazadi, uning yuragi bezovta, sertashvish va serxavotir davr-u zamonga aylanadi. Odamlarning tashvishini yana bittaga ko‘paytirmaydi, aksincha, jism-u jonidan to‘lib-toshib chiqqan so‘zi bilan da’vat etadi, ogohlikka chaqiradi”.[8:7] Shoir mana shunday hajmda Vatan mavzusini tilga olar ekan she’rda o‘ziga xos go‘zal badiiy ifoda, serqirra mazmun, ma’naviy boy tushuncha va istilohlarning badiiy ifodasini aks ettirganligini bevosita guvohi bo‘lamiz:

Mening tunlarimning chirog‘i – Vatan,
Sog‘inchim samosin chaqmog‘i – Vatan.
Men-ku, yurt bag‘rida yayrab yurarman,
Otam mozorining tuprog‘i – Vatan.[9:267]

Xulosa. Bu yerda Vatan inson hayotiga ma’no beradigan, uni to‘g‘ri yo‘lga boshlaydigan nur timsoli sifatida ko‘rsatilgan. Ikkinchi misrada shoir sog‘inch osmonidagi chaqmoq obrazini ishlatadi. Bu tasvir orqali inson qalbidagi Vatanga bo‘lgan sog‘inch juda kuchli va yorqin tuyg‘u ekanligi ifodalanadi. Vatan haqida o‘ylash yoki uni eslash qalbda kuchli his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Uchinchi misrada shoir o‘zining yurt bag‘rida erkin va baxtli yashayotganini aytadi. To‘rtinchi misrada esa fikr yanada chuqurlashadi: shoir uchun Otasining mozori ham shu tuproqda ekanligi Vatanni yanada qadrli va aziz qiladi. Shoir ijodida Vatan mavzusi alohida jaranglar sochgan. Vatan qudrati, Vatanga muhabbat, Vatan istagi zo‘r tashbeh va o‘xshatishlar bilan tasvirlangan. Ayniqsa, istiqlol yillarida yozilgan she’rlar buning yorqin ifodasidir. Shoirning “Yurtim timsoli”, “Hech kimdan kam emasmiz”, “Non yurti O‘zbekiston”, “Men tug‘ilib o‘sgan yurt”, “Ozoq yurtdir O‘zbekiston”, “Vatanda bo‘lur”, “O‘zbekiston”, “Vatan”, “Rayhonlar islarin bulog‘i Vatan”, “Avval Vatan”, “Vatan diydori”, “Jamoling jonimni gulida, Vatan”, “Rayhonlar islarin bulog‘i Vatan”. “Vatan deb” kabi bir qator she’rlari Vatan mavzusining naqadar dolzarb mavzu ekanligini ochib bergan. Shoir shu kabi turkum she’rlarida kishining Ona yurtga bo‘lgan muhabbatini o‘tkir, takrorlanmas satrlar bilan ifodalagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmud Toirov, “Saylanma” 1-jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-yil, 135-bet (314)
2. Mahmud Toirov, “Saylanma” 1-jild. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008-yil, 135-bet (314)
3. Mahmud Toirov “Ogoh bo‘l dunyo” doston, –Toshkent: “O‘zbekiston”, 2005-yil, 17-bet (96)
4. “Mahmud Toir va zamondoshlari” maqolar va she’rlar. –Toshkent: adabiy-badiiy nashr, “Adabiyot” nashriyoti MCHJ, 2022-yil, 7-bet (360)
5. Mahmud Toirov, “Bedorlarga bering dunyoni”. –Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012-y, 267-bet, (296)

Asila VAHOBOVA,
Qarshi davlat universiteti magistranti

ISAJON SULTON HIKOYALARIDA PEYZAJ TASVIRI (“OYDINBULOQ” VA “SHAMOLLI KECHA” HIKOYALARI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada yozuvchi Isajon Sulton hikoyalarida peyzaj tasvirining badiiy-estetik va funksional ahamiyati kompleks tahlil qilinadi. Xususan, peyzajning asar syujeti rivoji hamda kompozitsion tuzilishdagi o‘rni adabiyotshunoslikdagi zamonaviy nazariy yondashuvlar va ilmiy qarashlar asosida tadqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: *peyzaj, kompozitsiya, badiiy tasvir vositalari, shamol obrazi, polifunksionallik, badiiy tafakkur, tasviriy unsurlar*.

Аннотация: в данной статье комплексно анализируется художественно-эстетическое и функциональное значение пейзажного описания в рассказах писателя Исажона Султана. В частности, роль пейзажа в развитии сюжета и композиционной структуре произведения исследуется на основе современных теоретических подходов литературоведения.

Ключевые слова: *пейзаж, композиция, художественные средства, образ ветра, полифункциональность, художественное мышление, элементы описания.*

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the artistic, aesthetic, and functional significance of landscape description in the stories of writer Isajon Sultan. In particular, the role of landscape in the development of the plot and the compositional structure of the work is examined based on modern theoretical approaches in literary studies.

Key words: *landscape, composition, artistic devices, wind imagery, multifunctionality, artistic thinking, descriptive elements.*

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti shaklan va mazmunan boyib borayotgan adabiyot sifatida o‘z zamirida yangicha talqin va ifoda usullarini namoyon etmoqda. Shu adabiy muhitda ijod qilayotgan yozuvchilardan biri Isajon Sultondir. Isajon Sulton nasrida milliylik va umuminsoniylik g‘oyalari, an’anaviy va novator tasvirlar, falsafiy-badiiy talqinning o‘zaro uyg‘unligini ko‘rishimiz mumkin. Bu unsurlar badiiy asarning yaxlitligini ta’minlash bilan bir qatorda, asarning kompozitsion tuzilishida ham muhim funksiyani bajaradi.

Har qanday asar badiiyatining yuksakligi, tasvirning jozibadorligi, avvalo, muallif nutqining qurilishida, asar kompozitsiyasida, portret va peyzaj tasvirining yaratilishi va qo‘llanilishida namoyon bo‘ladi. Isajon Sulton ham asarlarida peyzaj tasviridan ma’lum funksiyani belgilab berishi uchun foydalanadi. Tabiat tasvirlari shunchaki joy haqida tasavvur uyg‘otib qolmay, ijodkorning badiiy maqsadini aniqlashtirib keladi. Ma’lumki, kompozitsiyaning asosiy qismini syujet tashkil qiladi. Shuningdek, badiiy asar faqat voqealar rivojidangina iborat emas, unda lirik chekinish, qistirma epizod, interyer, peyzaj, portret va obrazlar tizimi kabi syujetdan tashqari qator unsurlar ham mavjud. Yozuvchi badiiy asar qurilishida bu unsurlardan o‘rni bilan foydalanishi, me’yorda qo‘llay olishi asarning badiiyligini ta’minlovchi omildir. Peyzaj ham asarda turli poetik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi. Yozuvchi asar voqealari, uning g‘oyaviy maqsadini o‘quvchi ko‘z o‘ngida tiniq gavdalantirish uchun tabiat tasvirlarini ham keltirib o‘tadi. “Peyzaj qahramonlar harakatlariga sharoit yaratish, paytni belgilash, muayyan sharoitdagi holatini, kayfiyatini ta’kidlash, voqealar rivojiga ta’sir etish kabi xususiyatlari bilan asarning g‘oyaviy yo‘nalishida juda muhim o‘rin tutadi. Biroq peyzajning asardagi funksiyalari bu bilan cheklanmaydi, u polifunksionallik xususiyatiga ega. Jumladan, peyzaj qahramon ruhiyatini ochish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Bunda joy tasviri (undagi “rang”lar) personaj ruhiyati bilan uyg‘unlik kasb etishi ham, unga kontrastli fon bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin; qahramon ruhiyatidan o‘tkazib berilgan peyzaj esa uning ayni damdagi holatini tasvirlash vositasi bo‘la oladi.”[1.221]Shuningdek, muallif peyzajdan majoziy obrazlarni ifodalash, ramziy qarashlarini ifodalash uchun ham foydalanadi.

Isajon Sulton kompozitsion unsurlardan asar g‘oyasini ochib berishi uchun ustalik bilan foydalanadi. Xususan, peyzaj tasvirlari orqali insonning tabiat va borliq bilan uyg‘unligini aks ettirishga harakat qiladi. Hikoyalaridagi tabiat tasvirlari syujet rivojida asosiy rol o‘ynaydi. Hayotimizda uchrab turuvchi, odatiy qishloq hayotida uchrab turuvchi tabiat tasvirlari, voqea-hodisalar asar tuzilishida o‘ziga xos o‘ringa ega. Shuningdek, ko‘plab hikoyalarining ekspozitsiyasi peyzaj tasviri bilan boshlanganini ko‘rishimiz mumkin. “Shamol shiddat bilan uradi. Ko‘lmaklar osmonning bir parchasini xira akslantiradi. Yaproqsiz yalang‘och shoxlar chayqaladi, havo to‘lqini ko‘lmaklarning suvlarini chayqatib, bulturgi nam xazonlarni xiyol siljitib o‘tadi. Nam tuproq ustida yunglari ho‘l bir kuchuk panjalariga boshini qo‘yib yotibdi”. Shamol obrazi ham Isajon Sulton hikoyalarida tasvirning ajralmas bir qismi sifatida gavdalanadi. Yozuvchi turfa shamollarni, ularning insonlar uchun ta’siri haqida fikr yuritarkan, shamol obraziga ramziy ma’no yuklaydi. “Sofiya” hikoyasini eslaydigan bo‘lsak, muallif har yerni to‘zg‘itib, halokat olib keluvchi, yakson qiluvchi “Sofiya” deb ataluvchi shamol orqali ayol qalbini, uning muhabbatini madh etishga harakat qiladi. Shuningdek, to‘fon orqali qahramon ichki olamini badiiy psixologizm bilan bog‘liq holda aks ettiradi. Badiiy adabiyotda inson obrazini, voqea-hodisalarni to‘laqonli ifodalash uchun badiiy psixologizmdan ham foydalaniladi. Bu hikoyaning o‘ziga xos tomoni shundaki, yozuvchi peyzajdan faqatgina kompozitsion unsur sifatida foydalanmaydi, butun boshli hikoya peyzaj asosiga qurilgan. Bunda har bir detal, tasvir chuqur ramziy-falsafiy mazmunga ham ega.

“Shamolli kecha” hikoyasida ham shamol tasviri voqealar rivojiga turtki bo‘lgan unsur sifatida o‘rin egallagan. Bu hikoyadagi poligarmoniya va politasvir kitobxon e’tiborini tortadi. Yozuvchi shamol obraziga faqat bitta tasvir vazifasini yuklamaydi, shu bilan birgalikda, ramziy ma’no ifodalashi uchun ham foydalanadi. Shamolning jonli, aniq tasviri kitobxonga oqshom qo‘ngan qishloq, zimiston dasht, undagi bolalar holatini ochiq va ro‘yirost tasavvur etishga yordam etadi. O‘quvchi o‘zini asar personajlari bilan birgalikda shamolli kechada qo‘rquv va umidvorlik bilan harakat qilayotgandek his etadi, shamolning dahshatini hikoya davomida sezib boradi. Ijodkor shamol obrazini tasvirlashda jonlantirish, mubolag‘a va o‘xshatish kabi badiiy unsurlaridan unumli foydalanadi, holatni jonli aks ettirishga muvaffaq bo‘ladi. To‘fon goh bo‘kirib, goh ingrab insonlardek ovoz chiqaradi. Shu bilan birgalikda, shamol ramziy mohiyatga ham ega bo‘lib, yetim qolgan bolalarning dard-u ohlarini, ruhiy iztiroblarini chuqur ifoda etadi. Singlisini yo‘qotib qo‘ygan bolaning ustidan kulayotgandek, uvillayotgandek, uni qo‘rqitib turtkilayotgandek tuyiladi.

“Yetim bola, toy bola,
Singling qayda, boy bola?...” [4.222]

Shamol tasviri qahramonlarning ruhiy kechinmalarini aks ettirish bilan birgalikda qishloq manzarasini, shamolli tundagi qo‘rqinchli qiyofasini ifodalashga yordam beradi. Onasidan yetim qolgan aka-singil o‘gay onasining ozor-u dashnomlaridan qochib, buvisining uyiga ketishga qaror qilishadi. Lekin shamol ham ularning yo‘liga to‘siq bo‘lgandek shitob bilan esishda davom etadi. Yo‘lda qorong‘ulik va shamolning kuchliligi sababli bolakay singlisini yo‘qotib qo‘yadi, ammo buni ancha kech – buvisining uyiga yetib kelganda biladi. Vahshiy shamol tobora shiddat olishiga qaramay bolakay singlisini topish uchun ortiga qaytadi. Yozuvchi bu holat orqali bolaning ichidagi qo‘rquv va xavotirni, ichki konfliktni shamol bilan uyg‘unlikda yoritishga harakat qilgan.

Isajon Sultonning “Boqiy darbadar” kitobiga so‘ngso‘z yozgan tanqidchi Rahimjon Rahmat uning ijodiga quyidagicha baho beradi: “Tabiat hodisalari, manzaralariga Isajon ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tavsiri uning asarlarida shunchaki qahramon ruhiyatini aks ettiradigan qo‘shimcha bir vosita emas, balki maqsaddir. U tabiat hodisalari tilida bu olamning inson xayollari yetadigan joyigacha bo‘lgan hikmatini aks ettirishga harakat qiladi. To‘g‘rirog‘i, yozuvchi tabiat hodisalarini shunday ma’noli va ta’sir usulida tasvirlay oladiki, biz bu manzaralarni o‘qib, butun borliqni boshqarib turgan Yaratganning irodasini rosmana his etamiz.”[2.226] Shuningdek, yozuvchi ijodida peyzaj teran falsafiy tushuncha va qarashlarni ifodalashga ham hissa qo‘shadi. Yozuvchining ilk “Oydinbuloq” hikoyasini mutolaa qilish davomida tabiat tasvirlarining roviy ichki kechinmalari, hislarini yaqqol aks ettirishga yordam berganini fahmlashimiz mumkin. Yo‘ldosh Sulaymon xotirasiga bag‘ishlangan hikoya retrospektiv xususiyatga ega bo‘lib, voqealar Qo‘qonning “Oydinbuloq” qishlog‘ida bo‘lib o‘tadi. Ichki lirizmning kuchli namunasi bo‘lgan hikoya romantizm an’analariga suyangan holda bayon etish yo‘lidan boradi. Asarda yosh yigitning ilk muhabbati, bolalik xotiralari qalamga olingan. Hikoyaga “Muhabbat haqida qo‘shiq” deb ham ta’rif berishadi. Bu hikoyada dinamik peyzaj tasvirlarini uchratishimiz mumkin. Peyzajning bu turida tabiat tasvirlari asar davomida bo‘linib-bo‘linib beriladi. Bundan tashqari, adib peyzaj orqali qahramonlar ruhiyatini akslantirishga harakat qilgan. Oydinbuloqning vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi, turli ko‘rinishda tasvirlash orqali ijodkor hikoyachi-roviyning o‘smirligi, ulg‘ayganligi va keksayayotganini tasvirlashga erishgan. 17 yoshlik chog‘ida Oydinbuloq to‘lib, kengayib oqadi, yonidagi tol daraxti esa baquvvat, barglari g‘ujg‘on tarzda tasvirlanadi. Ilk marotaba qahramonimiz Parizodni buloq boshida uchratadi. Undan so‘ng yillar o‘tadi, roviy harbiy xizmatga ketadi, uylanadi, Parizodni ham unutadi. Ammo yillar o‘tgandan so‘ng do‘stining o‘g‘lining to‘yiga borgan roviy u yerda Parizodni uchratib qoladi. Shunda hislarining o‘zgarmaganini, unga nisbatan ajib tuyg‘ularni hali ham yo‘qolmaganini sezadi. Bu paytga kelib, buloqning ko‘zi berkilib, suvi ozaygan, yonidagi bujur tol esa kichiklashgan edi. “Buloq ko‘zchasiga bitta yaproq tushib qolibdi, girdobdan chiqib ketolmay, chirillab aylanyapti. Oydinbuloq juda kichrayib qolgan. Ammo ko‘ziga tushib qolgan bitta yaproq hanuz chirillab aylanyapti.”[2.134]

Xulosa qilib aytganda, Isajon Sulton hikoyalarida peyzaj tasviri oddiy fon yoki tasviriy vosita bo‘lib qolmay, balki asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochib beruvchi muhim komponent sifatida namoyon bo‘ladi. Peyzaj tasviri syujet rivojiga xizmat qilib, voqealar ketma-ketligini uyg‘unlashtiradi hamda kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi. Shuningdek, adib peyzaj orqali milliy ruh, urf-odatlar va xalqona tafakkurni aks ettirib, asarlarga o‘ziga xos kolorit bag‘ishlaydi. Tabiat tasvirlari ko‘pincha ramziy ma’no kasb etib, inson va borliq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ochib beradi

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Куронов Д, Мамажонов З, Шералиева М. Адабиётшунослик лугати. – Тошкент: Akademnashr, 2013. Б 221.
2.Раҳимжон Раҳмат. “Муножот”дан “Боқий дарбадар”гача. Сўнгсўз ўрнида // Боқий дарбадар. – Т.: Ўзбекистон, 2011.Б. 262
3.Расулов А. Акслар фалсафаси // Исажон Султон. Озод. – Т.: «Шарқ» , 2012. 421 б.
4.Султон И. Шамолли кеча. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. Б. 222.
5.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan. 2007. 110-b.
6.Қўшжонов М. Бадиий асар композицияси ҳақида мулоҳазалар. – Тошкент: Ўзадабийнашр, 1982



Diyor MAMATQULOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti "O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi" magistranti

Ilmiy rahbar: Marhabo QO'CHQOROVA,
filologiya fanlari doktori, professor

HAMZA HAKIMZODA SHE'RIYATIDA JADID G'OYALARI

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek jadid adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy she'riyatida jadidchilik g'oyalarining badiiy ifodasi tahlil qilindi. Shoir ijodida ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ijtimoiy tenglik, ayollar erkinligi, jaholatga qarshi kurash kabi g'oyalar poetik vositalar orqali teran aks ettiriladi. Maqolada ana shu jihatlarga e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: *jadid adabiyoti, poetika, ma'rifatparvarlik, milliy uyg'onish, ijtimoiy g'oya, badiiy obraz.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественное выражение идей джадидизма в поэзии одного из выдающихся представителей узбекской джадидской литературы — Хамзы Хакимзоды Ниязий. В творчестве поэта такие идеи, как просветительство, национальное пробуждение, социальное равенство, права женщин и борьба с невежеством, глубоко отражены посредством поэтических средств. В статье уделено особое внимание этим аспектам.

Ключевые слова: *джадидская литература, поэтика, просветительство, национальное пробуждение, социальная идея, художественный образ.*

Annotation: this article analyzes the artistic expression of Jadid ideas in the poetry of one of the prominent representatives of Uzbek Jadid literature, Hamza Hakimzoda Niyoziy. In the poet's works, such ideas as enlightenment, national awakening, social equality, women's rights, and the struggle against ignorance are deeply reflected through poetic devices. The article focuses on these aspects.

Key words: *Jadid literature, poetics, enlightenment, national awakening, social idea, artistic image.*

Kirish. XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan **Jadidchilik harakati** milliy madaniy uyg'onish jarayonining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Jadidchilik harakati xalqni jaholatdan chiqarish, zamonaviy bilimlarni targ'ib qilish, ta'lim tizimini isloh qilish hamda jamiyatni taraqqiyot yo'liga olib chiqishni maqsad qilgan edi.Bu harakat nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayotda, balki adabiyotda ham chuqur iz qoldirdi. Jadid adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri bo'lgan Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z ijodi orqali xalqni ma'rifatga chaqirdi, jaholat va mutaassiblikka qarshi keskin kurash olib bordi.Hamza ijodi o'zbek adabiyotida yangicha badiiy tafakkur shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning she'riy asarlarida jadidchilikning asosiy g'oyalari badiiy obrazlar, ramziy tasvirlar va ijtimoiy ruh orqali ifodalanadi.Mazkur maqolaning maqsadi Hamza she'riyatida jadid g'oyalarining poetik talqinini ilmiy jihatdan tahlil qilishdan iborat.

Jadid adabiyoti va uning g'oyaviy asoslari

Jadid adabiyoti XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan yangi adabiy yo'nalish bo'lib, u ma'rifatparvarlik va milliy uyg'onish g'oyalari bilan chambarchas bog'liqdir.

Jadid adabiyotining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat edi:

- xalqni savodsizlik va jaholatdan qutqarish;
- zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirish;
- milliy o'zlikni anglashni kuchaytirish;
- jamiyatni isloh qilish.

Jadid adabiyoti namoyandalari qatoriga Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori Abdurashidxonov hamda Hamza Hakimzoda Niyoziy kabi ijodkorlar kiradi. Ular o'z asarlari orqali xalqni ilm-ma'rifatga chaqirib, milliy taraqqiyot yo'lini ko'rsatishga harakat qilganlar.

Hamza Hakimzoda Niyoziyning hayoti va ijodiy faoliyati

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889-yilda Qo'qon shahrida tug'ilgan. U yoshligidan ilm-fanga qiziqqan va turli maktab hamda madrasalarda tahsil olgan.

Hamza o'z faoliyati davomida:

- yangi usul maktablarini ochgan;
- teatr san'atini rivojlantirgan;
- she'riyat va dramaturgiya sohasida samarali ijod qilgan.

Shoirning ijodi o'z davrining muhim ijtimoiy muammolarini aks ettiradi. Uning asarlarida xalq hayoti, ijtimoiy tengsizlik, jaholat va mutaassiblik keskin tanqid qilinadi. Hamza ijodi jadidchilik g'oyalarini badiiy ifodalashda muhim rol o'ynagan.

Hamza she’riyatida ma’rifatparvarlik g‘oyasi

Hamza she’riyatining asosiy mavzularidan biri ma’rifatparvarlikdir. Shoir xalqni ilm-fan va ta’lim orqali taraqqiyotga erishishga chaqiradi. Shoirning fikricha, xalqning rivojlanishi uchun eng muhim omil — bilimdir. Shu sababli Hamza o‘z she’rlarida yoshlarni o‘qishga, yangi bilimlarni egallashga undaydi. Hamza she’riyatida ma’rifat ko‘pincha nur va yorug‘lik obrazlari orqali tasvirlanadi. Jaholat esa zulmat va qorong‘ilik timsoli sifatida ifodalanadi. Bu ramziy tasvirlar shoir poetikasining muhim xususiyatlaridan biridir. Masalan, shoirning ma’rifatga da’vat ruhidagi she’rlarida shunday satrlar uchraydi:

Ilm nurdir, jaholat zulmat, ey millat, uyg‘on,
Ilmsiz xalqning yo‘li doim gumrohlik tomon.

Bu misralarda “nur” va “zulmat” obrazlari orqali ilm va jaholat qarama-qarshiligi badiiy ifodalanadi. Hamza bu satrlari bilan jadid adabiyotining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan ma’rifatparvarlik ana shu poetik obrazlar orqali ifoda etilgan.

Ijtimoiy tenglik va adolat g‘oyasi

Hamza ijodida ijtimoiy tenglik g‘oyasi muhim o‘rin tutadi. Shoir jamiyatdagi boy va kambag‘al o‘rtasidagi tafovutni tanqid qiladi. Shoirning fikricha, jamiyat taraqqiyoti uchun adolat va tenglik zarur. Shu sababli u o‘z she’rlarida ijtimoiy muammolarni ochiq tasvirlaydi. Hamza she’riyati ijtimoiy ruhning kuchliligi bilan ajralib turadi. Shoir xalq manfaatlarini himoya qiluvchi ijodkor sifatida namoyon bo‘ladi.

Ayollar erkinligi g‘oyasi

Hamza ijodida ayollar erkinligi masalasi ham muhim o‘rin egallaydi. Shoir ayollarning jamiyatdagi o‘rnini yuqori baholab, ularning ta’lim olishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Masalan:

Ilm olgan ayol bo‘lsa millat ham yuksaladi,
Jaholatda qolgan elning baxti hech ochilmaydi.

Bu misralarda ayollar ta’limi millat taraqqiyotining muhim omili sifatida talqin etilgan.

Shoir ayollarning kamsitilishi va ularning huquqlarining cheklanishini keskin tanqid qiladi. Bu g‘oya jadid adabiyotining ilg‘or ijtimoiy qarashlarini aks ettiradi. Hamza she’riyatida ayol obrazi ko‘pincha ma’rifat va erkinlikka intiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Hamza she’riyatining poetik xususiyatlari

Hamza she’riyatining badiiy qimmati uning poetik uslubida ham namoyon bo‘ladi. Shoir ijodida quyidagi poetik xususiyatlar kuzatiladi:

- sodda va xalqona til;
- kuchli ijtimoiy ruh;
- ramziy obrazlardan foydalanish;
- publitsistik ohang.

Hamza she’riyatining yana bir muhim jihati uning xalq ruhiga yaqinligidir. Shoir asarlarida xalqona iboralar va sodda uslub keng qo‘llanadi. Bu esa uning asarlarini keng kitobxonlar ommasi uchun tushunarli qiladi.

Hamza she’riyatida jadid g‘oyalarining poetik talqini

Hamza ijodida jadid g‘oyalari faqat g‘oyaviy jihatdan emas, balki poetik vositalar orqali ham ifodalanadi. Masalan:

Zulmat ketar, agar yoqilsa ilmning mash’ali,
Nur taratar ma’rifat, yuksalar xalqning ahvoli.

Bu misralarda ilm mash’alga qiyoslanib, jamiyatni yorituvchi kuch sifatida tasvirlangan.

Shoir o‘z she’rlarida:

- nur va zulmat qarama-qarshiligini,
- jaholat va ma’rifat o‘rtasidagi kurashni,
- eski va yangi qarashlar o‘rtasidagi ziddiyatni badiiy obrazlar orqali tasvirlaydi.

Bu esa shoir ijodining g‘oyaviy va badiiy jihatdan mukammalligini ko‘rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zbek jadid adabiyotining yirik vakillaridan biridir. Uning she’riyati ma’rifatparvarlik, milliy uyg‘onish va ijtimoiy adolat g‘oyalari bilan boydir. Hamza she’riyatida jadid g‘oyalari poetik vositalar orqali chuqur badiiy talqin qilingan. Shoir o‘z asarlari orqali xalqni ilm-ma’rifatga chaqirgan, jamiyatdagi illatlarni tanqid qilgan va milliy taraqqiyot g‘oyalarini ilgari surgan. Shu sababli Hamza ijodi o‘zbek adabiyoti tarixida muhim o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. – Toshkent. https://ziyouz.com/kutubxona/category/hamza-hakimzoda-niyoziy
2. Karimov N. Jadid adabiyoti tarixi. https://ziyouz.com/kutubxona
3. Sharafiddinov O. O‘zbek adabiy tanqidi. https://ziyouz.com/kutubxona
4. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent. https://elib.buxdu.uz
5. Jadid adabiyoti va milliy uyg‘onish masalalari. https://cyberleninka.ru

Shaxnoza O‘ROQOVA,
Buxoro davlat universiteti
O‘zbek filologiyasi fakulteti
2-kurs magistranti
shaxnozaoroqova3@gmail.com

DRAMATURGIYADA AYOL OBRAZLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” va “Maysaraning ishi” asarlaridagi ayol obrazlari alohida va qiyosiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda Gulnor va Maysara obrazlari, shuningdek, yordamchi ayol personajlarining ijtimoiy-ma’naviy funksiyalari belgilar tizimi sifatida o‘rganiladi. Maqolada mazkur obrazlarning o‘zbek dramaturgiyasi rivojidagi o‘rni va ularning o‘ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *Hamza, Gulnor, Maysara, Oyxon, ayol obrazi, dramaturgiya, semiotika, ijtimoiy belgi, qiyosiy tahlil, badiiy mahorat.*

Аннотация: в данной статье проводится индивидуальный и сравнительный анализ женских образов в произведениях Хамзы Хакимзаде Ниязи «Бай и батрак» и «Проделки Майсары». В исследовании изучаются социально-духовные функции образов Гулнор и Майсары, а также вспомогательных женских персонажей как системы знаков. В статье освещена роль этих образов в развитии узбекской драматургии и их специфические особенности.

Ключевые слова: *Хамза, Гульнор, Майсара, Ойхон, женский образ, драматургия, семиотика, социальный знак, сравнительный анализ, художественное мастерство.*

Annotation: this article provides an individual and comparative analysis of female characters in Hamza Hakimzoda Niyozi’s works “The Rich Man and the Servant” and “The Mischief of Maysara”. The study examines the socio-spiritual functions of Gulnor and Maysara, as well as auxiliary female characters, as a system of signs. The article highlights the role of these characters in the development of Uzbek drama and their specific features.

Key words: *Hamza, Gulnor, Maysara, Oykhon, female character, dramaturgy, semiotics, social sign, comparative analysis, artistic skill.*

Kirish. XX asr bo‘sag‘asida ijtimoiy-siyosiy maydondagi o‘zgarishlar ko‘p asrlar davomida Sharq klassik adabiyoti an’analari asosida shakllanib kelgan o‘zbek adabiyotiga dramatik turni olib kirdi. Dramaning dunyoga kelishi o‘zbek adabiy olami uchun xuddi roman janri kabi mutlaqo yangi hodisa edi. Hamza ana shu jarayonning peshqadamlaridan biri bo‘lib, o‘zining dramatik asarlari bilan milliy dramaturgiyamizga tamal toshini qo‘ydi. Mazkur masala yuzasidan Hamzaning o‘zbek dramaturgiyasidagi mavqeyi borasida turlicha, bahsli qarashlar mavjudligini ta’kidlash lozim. Agar masalaga mantiqiy nuqtayi nazardan yondashsak, vaziyat quyidagicha: Mirmuhsin Shermuhamedov (“Befarzand Ochildiboy”, 1914-yil) va Hamza (“Yangi saodat yoxud Milliy roman”, 1915-yil) roman janrida dastlabki urinishlarni amalga oshirgan bo‘lsalar-da, ularning ishlari tajriba bosqichidan nariga o‘tmadi. Abdulla Qodiriy esa “O‘tkan kunlar” (1924-yil) asari orqali roman janrining barcha badiiy talablariga javob beradigan mukammal namuna yaratdi. Shu bois, aynan Qodiriy o‘zbek romanchiligining asoschisi hisoblanadi. Xuddi shuningdek, Alisher Navoiyga qadar Xorazmiy, Lutfiy, Atoiy va Sakkokiylar turkiy tilda ijod qilgan bo‘lsalar-da, tilimiz rivojidagi beqiyos xizmatlari uchun Navoiyni o‘zbek adabiyoti va adabiy tilining tamal toshini qo‘ygan buyuk siymo deb bilamiz.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1911-yilda “Padarkush” nomli kichik pyesasi bilan o‘zbek adabiyotida dramaturgiyani boshlab berdi. Biroq, dramaturgiyaning barcha talab va qoidalariga to‘liq javob beruvchi asarlarni — “Zaharli hayot” (1916), “Maysaraning ishi” (1926), “Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi” (1927) kabilarni aynan Hamza Hakimzoda Niyoziy yozdi. Bundan tashqari, uning 1921–1928-yillar oralig‘ida yaratilgan “Burungi saylovlar”, “Jahon sarmoyasining eng oxirgi kunlari”, “Qozining sirlari”, “El quzg‘unlari” kabi ko‘plab yirik va kichik dramalari bor. Shunday ekan, Qodiriy romanchilikda qanday maqomga ega bo‘lsa, Hamza ham o‘zbek dramaturgiyasi asoschisi unvoniga shunchalik loyiqdir.

Albatta, ushbu mavzuni turli faktlar bilan tahlil qilib, qarama-qarshi xulosalar chiqarish mumkin. Biroq, adolat mezonlari hamma uchun bir xil bo‘lishi kerak. Qodiriyga nisbatan qo‘llanilgan baholash mezoni Hamzaga kelganda o‘zgarmasligi lozim. Bu borada mutaxassislar o‘zlarining ilmiy mulohazalarini yana bir bor o‘rtaga tashlasalar, adabiyotshunoslikdagi muhim bir muammoga oydinlik kiritilgan bo‘lur edi. Shuni ham qayd etish joizki, Hamzaning 1916–1920-yillarda yozilgan “Boy ila xizmatchi”, “Loshman

fojialari”, “Farg‘ona fojialari” kabi asarlari yo‘qolgan. Faqat “Loshman fojialari”ning bir qismi hamda “Boy ila xizmatchi” dramasining afishasi saqlanib qolgan. Teatrlarda namoyish etib kelingan “Boy ila xizmatchi” pyesasini esa adib Komil Yashin o‘sha afishadagi mazmun asosida qayta tiklagan. Hamza Hakimzoda Niyoziy dramaturgiyasi o‘zbek adabiyotida ayollar ijtimoiy taqdirini yangi pog‘onaga olib chiqdi. Ayniqsa, “Boy ila xizmatchi” dramasidagi Gulnor va “Maysaraning ishi” komediyasidagi Maysara obrazlari orqali muallif o‘zbek ayolining fojiasi va o‘z huquqi uchun kurashini mahorat bilan tasvirlaydi. Tadqiqotning maqsadi ushbu obrazlarni alohida-alohida tahlil qilish va ularning badiiy tizimdagi o‘rnini aniqlashdan iborat.

Asosiy qism.

“Boy ila xizmatchi” dramasida ayol obrazlari tahlili.

Ushbu dramada Gulnor obrazi markaziy o‘rinni egallaydi. Gulnor — bu davr ijtimoiy zulmining eng og‘ir yukini ko‘targan, ma’naviy poklik va sadoqat belgisidir. Uning fojiasi faqatgina iqtisodiy qiyinchilik emas, balki shaxsiy erki va insoniy qadr-qimmati poymol etilishida namoyon bo‘ladi. Gulnor — passiv qarshilik ko‘rsatuvchi obraz emas, u o‘z muhabbati va ma’naviy butunligini saqlab qolishga urinuvchi “mazlumiyat” semantikasini tashiydi. Dramadagi boshqa ayol obrazlari, jumladan Boyning xotinlari orqali esa jamiyatdagi ma’naviy tanazzul va ayollarning o‘zaro munosabatlaridagi ijtimoiy tabaqalanish kodi ochib beriladi.

“Maysaraning ishi” dramasida ayol obrazlari tahlili.

Komediyada Maysara obrazi o‘zbek dramaturgiyasidagi intellektual va faol ayolning ilk mukammal namunalaridan biridir. Maysara — bu “aqlli hiyla” va “ozodlik” ramzi. U o‘z atrofidagi eskirgan tuzum vakillari — Qozi, A’lam va Mudarrislarni shunchaki kulgi qilmaydi, balki ularning ma’naviy qashshoqligini fosh etadi. Shu bilan birga, asardagi Oyxon obrazi ham alohida e’tiborga molik. Oyxon — yosh avlod vakilasi sifatida Maysaraning yo‘lini davom ettiruvchi va o‘z sevgisi uchun kurashuvchi yosh ayol timsolidir. Maysara va Oyxonning hamkorligi — tajriba va yoshlik shijoatining birlashishi sifatida talqin qilinadi.

Gulnor va Maysara o‘rtasidagi farq ularning ijtimoiy vaziyatlarida ko‘rinadi. Gulnor — tragediya qahramoni, u tashqi muhit qurboni. Maysara esa — komediya qahramoni, u muhitni o‘zgartiruvchi subyekt. Biroq har ikki obrazning umumiy tomoni shundaki, ular erkak markazli (patriarxal) jamiyatda o‘z insoniy haq-huquqlarini, garchi turli usullar bilan bo‘lsa-da, himoya qiladilar. Hamza bu obrazlar orqali jamiyatni ayolga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishga chorlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Hamza ijodidagi ayol obrazlari murakkab tizimni tashkil etadi. Gulnor — sadoqat va sabrning fojiaviy ifodasi bo‘lsa, Maysara — aql va harakatning g‘alabasi hisoblanadi. Ushbu personajlar o‘zbek ayolining o‘sha davrdagi ijtimoiy-ruhiy holatini to‘laqonli yoritib beradi. Mazkur obrazlarni tahlil qilish orqali jadid adabiyotining gumanistik mohiyatini chuqurroq anglash mumkin. Hamzaning dramaturgiya sohasidagi faoliyati haqida gapirganda, u o‘z davri xalqining turmush tarzini mahorat bilan aks ettira oldi, deyish mumkin. Aynan shu sababli ham uning eng sara pyesalari hamon sahnalardan tushmay kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Fan, 1970.
2. Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti manzaralari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008.
3. Rizayev Sh. Jadid dramasi. – Toshkent: Sharq, 1997.
4. Rizayev O. XXI asr o‘zbek teatri: muammolar va rejalar. “Teatr”, 2002 yil, 6-son.
5. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical aproaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of Higher Education. European Journal of Arts, (1), 125-128.
6. Абдуназаров, З. (2020). Тимсоллар сиймосини яратиш. Oriental Art and Culture, (III), 146-150.
7. Абдуназаров, З. (2020). Миллий ўйинларимиз иштирокида ёш актёрларнинг тасаввури ва диққатини чархлаш. Oriental Art and Culture, (III), 134-138.
8. Akbarova, M., Tursunova, G., & Abdunazarov, Z. (2020). Pedagogical aproaches to the formation of musical literacy of students in the sytem of Higher Education. European Journal of Arts, (1), 125-128.
9. Болтабоева, У. (2019). Ижодкор шахс-актёрни тарбиялашда жонли сўзнинг ўрни. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 37-39.
10. Раҳматуллаева, Ш., Болтабоева, У., & Каримов, Б. (2019). Фольклор санъати ва халқ достонлари: кеча ва бугун. Oriental Art and Culture, (IV (1)), 46-49.

Mahzuma SHODMONOVA,
BuxDU Adabiyotshunoslik: O‘zbek adabiyoti mutaxassisliligi magistranti

ERIX REMARK VA O’TKIR HOSHIMOV ROMANLARIDA URUSH XRONOTOPI

(“G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar” romanlari misolida)

Annotatsiya: mazkur maqolada O‘tkir Hoshimov va Erix Maria Remark asarlarida urush xronotopi masalasi tahlil qilinadi. Asarlardagi urush mavzusi, qahramonlarning ruhiy holati, ijtimoiy muhit, urushning inson taqdiridagi fojeasi qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *xronotop, urush xronotopi, ekzistensial bo‘shliq, axloqiy yemirilish, ijtimoiy makon, mahalla makoni, tush motivi.*

Annotation: this article analyzes the issue of the war chronotope in the works of O‘tkir Hoshimov and Erich Maria Remarque. The theme of war in the works, the psychological state of the characters, the social environment, and the tragedy of war in human destiny are examined through a comparative analysis.

Key words: *chronotope, war chronotope, existential void, moral degradation, social space, neighborhood space, dream motif.*

Аннотация: в данной статье анализируется проблема хронотопа войны в произведениях Уткира Хошимова и Эриха Марии Ремарка. Проводится сравнительный анализ темы войны, психологического состояния героев, социальной среды, а также трагедии войны в судьбе человека.

Ключевые слова: *хронотоп, хронотоп войны, экзистенциальная пустота, нравственная деградация, социальное пространство, пространство махалли, мотив сна.*

XX asr adabiy tafakkurida urush hodisasi insoniyat tarixidagi eng keskin sinovlardan biri sifatida nafaqat siyosiy, balki harbiy voqelik, mavjudlikning tub mohiyatini ochib beruvchi badiiy-falsafiy kategoriya darajasiga ko‘tarildi. Shu nuqtayi nazardan urush adabiyotida makon va vaqt munosabati alohida semantik yuklama kasb etib, M.M. Baxtin tomonidan ishlab chiqilgan xronotop nazariyasi doirasida tahlil qilish uchun qulay ilmiy maydon yaratadi. Erix Mariya Remark va O‘tkir Hoshimov ijodida urush xronotopi inson ruhiyati, xotira va axloqiy tanazzul bilan uzviy bog‘langan murakkab badiiy model sifatida namoyon bo‘ladi.

Baxtinga ko‘ra, xronotop — bu asarda vaqt va makonning oddiy fon emas, balki mazmunni belgilovchi asosiy tashkiliy kuchga aylanishidir.[1;56] Urush xronotopi aynan shunday holatni yuzaga chiqaradiki, unda vaqt odatiy chiziqliligini yo‘qotadi, makon esa insonni siquvchi, uni ichki va tashqi tomondan qamrab oluvchi muhitga aylanadi. Bu jarayon Remark va Hoshimov asarlarida turlicha estetik shaklda, ammo mushtarak g‘oyaviy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida urush xronotopi okop, front orti, gospital kabi yopiq makonlar orqali quriladi. Ushbu makonlar qahramon hayotining yagona real hududiga aylanib, undan tashqaridagi dunyo tobora mavhumlashadi. Pol Boymer va uning safdoshlari uchun maktab, ota-ona, kelajak haqidagi tasavvurlar real vaqt oqimidan uzilib, xotiraning zaif parchalari sifatida namoyon bo‘ladi. Asarda jangchilar tinimsiz o‘lim bilan yuzma-yuz kelar ekan, vaqt endi yillar yoki oylar bilan emas, balki navbatdagi hujumgacha qolgan soniyalar bilan o‘lchanadi. Bu holat urush xronotopida vaqtning biologik va instinktiv tus olishidan dalolat beradi.

Kemmerix obrazining fojiaviy taqdiri ushbu xronotopning eng yorqin namunalaridan biridir. Gospital makoni, odatda, hayot va tiklanish bilan bog‘lansa-da, Remarkda u o‘limni sekinlashtiruvchi oraliq hudud sifatida tasvirlanadi. Kemmerixning oyog‘idan ayrilishi uning nafaqat jismoniy, balki kelajak bilan bog‘liq barcha rejalardan mahrum bo‘lishini anglatadi. Bu yerda makon (gospital) va vaqt (kutish holati) insonning mavjudlik ma’nosini yemiruvchi kuchga aylanadi. Muhimi shundaki, qahramonlar o‘limga axloqiy baho berishga ham ulgura olmaydi — tirik qolish zarurati hamma narsani siqib

chiqaradi. Shu jihatdan Remark urush xronotopini ekzistensial bo‘shliq sifatida talqin qiladi.

Okop makonida shakllangan vaqt hissi qahramonlarni tez qaritadi. Pol Boymerning ichki monologlarida yosh va keksalik o‘rtasidagi tabiiy chegaralar yo‘qoladi. Urush xronotopi yoshlarni biologik jihatdan emas, balki ruhiy jihatdan “eskirtiradi”. Bu jarayonni Remark bevosita izohlab bermaydi, balki kundalik harakatlar, o‘limga befarqlik, do‘stlar yo‘qotilishiga moslashish orqali ko‘rsatadi. Natijada urush makoni insonni ijtimoiy subyektdan instinktiv mavjudotga aylantiradi. Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” romanida urush xronotopi eng avvalo okop makoni orqali shakllanadi. Okop bu asarda geografik hudud emas, balki inson mavjudligining chegaraviy nuqtasi sifatida talqin qilinadi. Pol Boymer okopni “insonni yer bag‘riga tiqib qo‘yadigan, uni tashqi dunyodan uzadigan makon” sifatida idrok etadi. Muallif buni quyidagi tasvir orqali ifodalaydi. “Okoplar bizning uyimizga aylandi, ular bizni himoya qilardi, lekin ayni paytda bizni odamligimizdan ham ayirardi”.[6;45]

Mazkur iqtibos urush xronotopining ikki tomonlama tabiatini ochib beradi: makon bir vaqtning o‘zida ham saqlovchi, ham yemiruvchi kuchdir. Baxtin ta’kidlaganidek, xronotopda makon inson taqdiriga bevosita ta’sir qiladi. Remark romanida aynan shu jarayon kuzatiladi — okop insonni jismonan saqlab qoladi, biroq ruhiy va axloqiy jihatdan parchalab tashlaydi.

Vaqt hissining buzilishi romanda ayniqsa aniq ko‘rinadi. Pol Boymer urush sharoitida vaqtning ma’nosizlashganini qayd etib, shunday deydi: “Biz uchun kunlar endi o‘tmaydi, ular faqat chidab bo‘ladigan yoki bo‘lmaydigan daqiqalardan iborat”. [6;74] Bu yerda vaqt subyektivlashib, biologik mavjudlik mezoniga aylanadi. Urush xronotopida vaqt kelajak bilan emas, balki navbatdagi o‘lim ehtimoli bilan bog‘lanadi.

Kemmerix obraziga oid lavhalar urush xronotopining eng fojiali qatlamini tashkil etadi. Gospital makoni odatda hayot bilan bog‘lansa-da, Remarkda u “o‘limga tayyorgarlik hududi” sifatida gavdalanadi. Kemmerixning oyog‘i kesib tashlanganidan keyin uning eng katta tashvishi hayot emas, balki etiklarining boshqa askarga berilishidir. Pol Boymer bu holatni kuzatar ekan, shunday xulosaga keladi: “Urush odamni tirik qolishga o‘rgatadi, lekin yashashni unuttiradi”. [6;105] Ushbu lavha urush xronotopining axloqiy yemirilish bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Remark qahramonlari uchun o‘lim asta-sekin odatiy holga aylanadi. Bu jarayon muallif tomonidan ochiqcha fojialashtirilmaydi, balki befarqlik orqali beriladi. Aynan shu befarqlik urush xronotopining eng xavfli jihatidir — u insonni axloqiy sezgirlikdan mahrum qiladi. Shu bois romanda urush faqat tashqi falokat emas, balki ichki, ruhiy tanazzul sifatida talqin qilinadi. O‘tkir Hoshimov ijodida urush xronotopi an’anaviy jang maydoni tasviridan keskin farq qiladi. Adib urushni bevosita harbiy harakatlar orqali emas, balki uning inson qalbida qoldirgan izlari, xotira va kechikkan ruhiy jarohatlar orqali badiiylashtiradi. Shu jihatdan Hoshimov urush xronotopini tashqi makondan ichki — psixologik makonga ko‘chiradi va uni inson ongida davom etuvchi hodisa sifatida talqin qiladi.

“Ikki eshik orasi” romanida urushdan keyingi tinch hayot makoni — mahalla, hovli, uy — asosiy sahnaga aylanadi. Biroq bu makon tashqi tomondan osoyishta bo‘lsa-da, ichki fojia bilan to‘la. Muqaddimada berilgan quyidagi jumla roman poetikasining tarixiy koordinatisini belgilaydi: “Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma olti million bizning odamlar edi”. [5;6] Bu yerda urush shunchaki fon emas, balki millionlab taqdirlarni bir nuqtada jamlagan global vaqt sifatida ifodalanadi. Baxtin takidlaganidek, xronotopda vaqt siqiladi va konkret insoniy taqdirlar orqali mazmun kasb etadi. Mazkur jumlada ham makro-tarixiy fojia mikro-taqdirlarga singdirilgan. Urush xronotopining eng kuchli namoyon bo‘lish shakli – tan jarohati orqali tarixning moddiylashuvidir. Kichik Muzaffarning otasi haqida aytgani: “Dadamning o‘ng oyog‘i qiyshiq, urushda o‘q tegib tovonini uchurib ketgan”. [5;18] Bu epizodda front tasviri yo‘q, biroq front makoni tanada yashab turibdi. Ota har qadam bosganida oqsoqlanadi – demak, urush vaqti har qadamda takrorlanadi. Jarohat o‘tgan zamonning izidir, ammo u hozirgi zamonda faol. Xuddi shu yerda yana bir detal beriladi:” Dadamning chap yelkasida mushtum sig‘adigan chuqurchasi bor. Qizg‘ish-ko‘kimtir chandiq. Nemis zambarak otganida o‘yib ketgan ekan”. [5; 23] Bu chandiq – tarixning tanadagi muhridir. Bola u bilan o‘ynaydi, uni ushlab uxlaydi. Shunday qilib, urush xronotopi avloddan avlodga uzatilayotgan jismoniy xotiraga aylanadi. Urushning davomiyligi nafaqat tanada, balki maishiy makonda ham namoyon bo‘ladi. Choyxona tasvirida frontdan qaytgan erkaklar jamlanadi. Ularning kiyimlari, nogironligi, tutun bosgan makon – bularning barchasi urushdan keyingi qashshoqlik va og‘ir ijtimoiy muhitni ko‘rsatadi. Bu yerda urush voqealari emas, balki uning oqibatlari hukmron. Choyxona kollektiv xotira makoniga aylanadi: tarix og‘zaki ravishda yashaydi. Demak, makon – urush xotirasining saqlovchisidir.

Asarda urushdan qaytgan qahramonlardan biri shunday deydi: “Urush tugadi deyishadi, lekin odamning ichidagi urush tugamabdi”. Ushbu jumla Hoshimov xronotopining markaziy g‘oyasini ifodalaydi: urush vaqt jihatidan yakunlangan bo‘lsa-da, ruhiy jihatdan davom etadi.

Baxtin nazariyasiga ko‘ra, xronotopda vaqt va makon inson taqdirini belgilovchi kuchga aylanadi. Hoshimov romanida bu kuch xotira shaklida namoyon bo‘ladi. Qahramonlar hozirgi zamonda yashayotgandek ko‘rinsa-da, ularning ongida o‘tmish doimiy ravishda hozirgi vaqt bilan qorishib ketadi. Shu sababli romanda vaqt retrospektiv xarakter kasb etib, o‘tmish va hozirgi zamon o‘rtasida uzluksiz dialog yuzaga keladi.

Mahalla makoni urush xronotopining muhim elementi sifatida gavdalanadi. Hoshimov mahallani faqat ijtimoiy muhit emas, balki xotira tashuvchisi sifatida tasvirlaydi. Qahramon urushda halok bo‘lgan do‘stlarini eslar ekan, shunday deydi: “Bu ko‘chada ularning kulgisi qolib ketganday, qadam bosgan sayin o‘sha ovoz qulog‘imga chalinadi”. [5;23] Bu lavha makonning semantik yuklanganligini ko‘rsatadi: oddiy ko‘cha urush xotiralari bilan to‘yinib, fojiali makonga aylanadi. Hoshimov urush xronotopini ko‘pincha sukut va ichki monolog orqali ochadi. Qahramonlar balandparvoz nutqlar qilmaydi, urushni qoralab shiorlar ko‘tarmaydi. Aksincha, ularning jimligi urushning eng chuqur oqibatlarini ochib beradi. “Ba’zan odam gapirmaydi, chunki aytadigan gapidan ko‘ra aytolmaydigan dardi ko‘p bo‘ladi” [5;154] degan fikr urush xronotopining psixologik bosimini ifodalaydi. Bu yerda vaqt — sukut bilan to‘ldirilgan vaqt, makon esa ichki azob bilan to‘yingan makondir.

“Tushda kechgan umrlar” romanida urush xronotopi tush motivi orqali yanada murakkablashadi. Tush — bu asarda psixologik makon bo‘lib, unda vaqtning chiziqliligi buziladi. Qahramon tushida urush manzaralariga qayta-qayta duch kelar ekan, ularni hozirgi hayotdan ajratib bo‘lmaydi. Muallif bu holatni quyidagicha ifodalaydi: “Tushimda hamon o‘sha manzaralar… uyg‘onsam ham yuragim urushdan chiqqanday bo‘ladi”. [5;89] Ushbu lavha urushning inson ongida doimiy takrorlanishini ko‘rsatadi. Remark bilan qiyoslaganda, Hoshimovda urush xronotopi tashqi zo‘ravonlikdan ichki iztirobga ko‘chadi. Agar Remark qahramoni urush ichida insoniyligini yo‘qotsa, Hoshimov qahramoni urushdan keyin ham uni qayta tiklay olmaydi. Shu bois Hoshimov asarlarida urush xronotopi axloqiy va ma’naviy inqiroz bilan bevosita bog‘lanadi.

Shu bilan birga, har ikkala adibda ham urush axloqiy inqiroz manbai sifatida namoyon bo‘ladi. Remark qahramonlari urush jarayonida qadriyatlar tizimidan ajralib qolsa, Hoshimov qahramonlari urushdan keyin ham bu tizimni qayta tiklay olmaydi. Natijada urush xronotopi insoniyat uchun universal fojia modeliga aylanadi.

Xulosa qilib aytganda, Remark va O‘tkir Hoshimov asarlarida urush xronotopi badiiy tafakkurning markaziy kategoriyasi sifatida shakllanib, inson mavjudligining chegaraviy holatlarini ochib beradi. Urush bu adiblar uchun tarixiy hodisa emas, balki vaqt va makonni parchalovchi, insonni o‘z mohiyatidan begonalashtiruvchi axloqiy falokatdir. Xronotop nazariyasi asosida olib borilgan ushbu kengaytirilgan tahlil urush adabiyotini qiyosiy-tipologik jihatdan o‘rganishda yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бахтин М. Формы времени и хронотопа в романе (Очерки по исторической поэтики) В кн. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. М. Художественная литература, 1975.

2.To‘rayeva.B. Tarixiy romanlarda badiiy zamon muammosi. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss.avtorefarati. – Toshkent, 2018.

3.Jo‘raqulov.U. Adabiy-tarixiy jarayon: Ijodkor.Janr.Xronotop. – Toshkent, 2015.

4. Hoshimov. O‘. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2002.

5. Hoshimov O‘. Ikki eshik orasi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1986.

6.Remark. E.M. G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.



Munisa ESHMATOVA,
ToshDO‘TAU O‘FF 4-kurs talabasi
munisaeshmatova11@gmail.com

Ilmiy rahbar: F. f. b. f. d.,
Sarvinoz RASULOVA

“ALVIDO...BOLALIK” QISSASIDA YETIMLIK MUAMMOSI VA BOLALAR ORASIDA JINOYATCHILIKNING SHAKLLANISH OMILLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasi asosida yetimlik muammosi hamda o‘smirlar jinoyatchiligining kelib chiqish sabablari badiiy-psixologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot yetimlikning ijtimoiy ildizlari, uning bolalar ongiga va ruhiyatiga salbiy ta’siri hamda nosog‘lom muhit ta’sirida voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikka moyillikning yuzaga kelish sabablarini yoritishdan iborat. Shu bilan birga, bolalar jinoyatchiligining shakllanishida ijtimoiy muhit, tarbiya va psixologik omillarning o‘zaro bog‘liq ekanligi asar qahramonlari taqdiri misolida ochib beriladi. Shuningdek, bolalar ruhiyatidagi evrilishlar orqali jamiyatdagi loqaydlikning fojeaviy oqibatlari yangicha yondashuvlar asosida ko‘rsatib beriladi. Bu esa yosh avlod tarbiyasi, ayniqsa, yetim bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirishda va asarning ijtimoiy-ma’naviy ahamiyatini yoritishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *yetimlik, bolalar jinoyatchiligi, ijtimoiy muhit, davr muammolari, psixologik omillar, tarbiya masalasi, loqaydlik, mehr tanqisligi, nazoratsizlik, o‘smirlar ruhiyati, bolalar taqdiri*

Аннотация: в данной статье на основе повести Тохира Малика «Прощай, детство» осуществляется художественно-психологический анализ проблемы сиротства и причин возникновения подростковой преступности. Исследование направлено на выявление социальных корней сиротства, его негативного влияния на сознание и психику детей, а также факторов, обусловливающих формирование склонности к преступности среди несовершеннолетних в условиях неблагоприятной среды. Наряду с этим, на примере судеб героев произведения раскрывается взаимосвязь социальной среды, воспитания и психологических факторов в формировании детской преступности. Кроме того, через изменения в психологии детей с новых позиций освещаются трагические последствия общественного равнодушия. Данное исследование представляет собойважный источник для совершенствования системы воспитания подрастающего поколения, особенно в работе с детьми-сиротами, а также для раскрытия социально-нравственного значения произведения.

Ключевые слова: *сиротство, детская преступность, социальная среда, проблемы эпохи, психологические факторы, вопросы воспитания, равнодушие, дефицит любви, бесконтрольность, психология подростков, судьбы детей.*

Annotation: this article presents an artistic and psychological analysis of the problem of orphanhood and the causes of juvenile delinquency based on Tohir Malik’s novella “Farewell, Childhood.” The study aims to identify the social roots of orphanhood, its negative impact on children’s consciousness and psychological development, as well as the factors contributing to the emergence of delinquent tendencies among minors in unfavorable environments. In addition, the interrelation between social environment, upbringing, and psychological factors in the formation of juvenile delinquency is revealed through the fate of the characters in the work. Furthermore, transformations in children’s psychology are examined from new perspectives to highlight the tragic consequences of societal indifference. The study serves as an important resource for improving the system of upbringing the younger generation, especially in working with orphaned children, and for emphasizing the socio-moral significance of the work.

Key words: *orphanhood, juvenile delinquency, social environment, problems of the era, psychological factors, upbringing issues, indifference, lack of affection, neglect, adolescent psychology, children’s fate.*

Kirish. O‘zbek adabiyotida kelajak avlod tarbiyasi, ularning ma’naviy kamoloti hamda jamiyatdagi muammolarga so‘z ijodkorlari har doim e’tibor berib kelgan. Bu borada ana shunday atoqli o‘zbek yozuvchilaridan biri Tohir Malik ijodi alohida ahamiyatga ega. Adib qissalari zamonaviyligi, inson taqdiri, tarbiya masalalari, bolalik va hayot haqiqatlarini real, ta’sirchan aks ettirish bilan birga o‘smirlar jinoyati psixologiyasi eng hayotiy, inson ongiga chuqur singadigan darajada ruhiy kechinmalar orqali ochib berilgan. Yozuvchining ana shunday xarakterga ega

asarlaridan biri, “Alvido, bolalik” qissasidir. Ushbu qissa hozirgi zamonaviy hayotni yoritishga bag‘ishlangan bo‘lib, asarda ilgari surilgan g‘oya esa har qachon dolzarbligini va muhim ahamiyatini yo‘qotmasligi bilan boshqa asarlardan ajralib turadi. Ma’lumki, jamiyatning taraqqiyoti va farovonligi ko‘p jihatdan yosh avlodning qanday muhitda, qanday oilada voyaga yetganligiga bog‘liq. Bolalar va o‘smirlarning shaxs sifatida shakllanishida oila, mahalla, ta’lim-tarbiya, ijtimoiy muhit va jamiyatdagi turli omillar asosiy rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda milliy adabiyotimizda insonni davrdan ajratmay, balki u bilan bog‘liq holda tasvirlash, uning ruhiy dunyosini tahlil qilishga diqqat qaratilmoqda. O‘zbek adabiyotshunosligida, ayni paytda, XX asr nasri, jumladan, qissachilikdagi bolalar obrazlari yetakchi bo‘lgan asarlar misolida voqelikni badiiy ifodalash, masalalarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida ilmiy, nazariy jihatdan to‘g‘ri baholash muhim vazifalardan biridir. “Ayniqsa, hozirgi notinch va tahlikali zamonda butun bashariyat oldida paydo bo‘layotgan, biz ilgari duch kelmagan g‘oyat murakkab muammolar hamda global xavf-xatarlarni birgalikda bartaraf etish, shu yo‘lda barcha ezgu niyatli insonlarni birlashtirishda dunyo ahlolisining qariyb uchdan bir qismini tashkil etadigan yoshlarni gumanistik g‘oyalar ruhida tarbiyalashda badiiy so‘z san’atining o‘rni va mas’uliyatini har qachongidan ham yuksaltirish zarurligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda” [1:5].[1] Ayniqsa, hozirgi shiddat bilan taraqqiy etib borayotgan davrda e’tiqod, oilaviy va diniy qadriyatlarga putur yetkazayotgan, xavf solayotgan diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzod asrlar davomida amal qilib kelgan e’tiqodlar va oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Bundan ko‘rinib turibdiki, ushbu mentalitetimizga yot g‘oya va qarashlar ta’sirida o‘ziga xos va mos milliy, diniy, qadriyatlarga asoslangan xalqimizning tarbiya borasidagi azaliy an’analari asl mohiyatini yo‘qotib borayotgani barchamizni tashvishga soladi. “Tarbiya yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidur. Har bir xalqning taraqqiy etishi davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga bog‘liqdir”[2:17].[2] Shunday ekan, ushbu jarayonga mas’uliyat bilan yondashib, o‘z vaqtida e’tibor qaratilmasa, ertaga juda kech bo‘lib, pushaymonliklar va tuzatib bo‘lmas xatoliklarga olib kelishi mumkin. Bugungi davr sharoitida ushbu mavzu tarbiyaviy ahamiyat va ogohlantiruvchi xarakter kasb etganligi uchun ham dolzarbdir. Ming afsuski, ayrim hollarda bolalarning turli ijtimoiy sabablar bilan ota-onasidan judo bo‘lib qolishi, yoki ularning ajrashib ketishi, moddiy yetishmovchilik hamda boladan har xil sabablar bilan voz kechishi ular ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Buning natijasida ular turli-tuman ma’naviy-axloqiy, psixologik, jinoyatchilik va huquqbuzarlik bilan bog‘liq muammolarga duch kelmoqda. Ana shunday muammolardan biri yetimlik va uning o‘smirlar jinoyatiga chuqur ta’siri masalasidir. Ushbu maqolada yetimlik va uning bolalikka rahna solishi, ruhiy-axloqiy asoratlari hamda bolalar orasidagi jinoyatchilikni keltirib chiqaradigan ijtimoiy omil sifatida tahlil qilinadi. Ushbu maqola ilk marotaba Tohir Malikning qissalarida yetimlik alohida muammo, maqola obyekti sifatida yaxlit ilmiy asosda o‘rganiladi. Ushbu izlanishda adib qissasidagi yetimlik nafaqat ijtimoiy muammo, balki jinoyatchilikka qo‘yilgan majburiy qadamdir. Bugungi kunda ushbu muammolar adibning ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy va axloqiy g‘oyalarining zamonaviy yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyatga egaligi izohlanadi. Ushbu mavzusidan ko‘zlangan asosiy maqsad – Tohir Malikning badiiy tajribalari asosida yaratilgan qissasidagi yetimlik muammosining badiiy talqinini o‘rganish, shu bilan birga yetim qahramonlar taqdiri orqali asarda ilgari surilgan ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishdan iborat. Shuningdek, yozuvchining bu orqali jamiyatdagi muammolarga yondasha olish mahoratini baholashdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilab olindi: qissada yetimlik muammosining mazmun-mohiyatini tahlil qilish; yetim bolalar hayotiga ta’sir etuvchi ijtimoiy va ma’naviy omillarni aniqlash; asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini tahlil qilish; tarbiya, oila va muhitning bola shaxsiga ta’sirini aniqlash; asarda ilgari surilgan g‘oya va muallif pozitsiyasini aniqlash; muammo yechimiga doir taklif va tavsiyalar berish.

Asosiy qism. Mazkur maqolani yoritishda bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, taqqoslash metodi orqali turli ijtimoiy muhitdagi bolalar holati qiyosiy tahlil qilindi. Badiiy tahlil metodi orqali asarning g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi hamda muallif pozitsiyasi yoritib berildi. Bundan tashqari, ijtimoiy-psixologik metod yordamida yetim bolalarning ruhiyati, ularning xatti-harakatlari va jinoyatchilikka moyillik sabablari o‘rganildi. Shuningdek, kichik tadqiqot natijasida shunday xulosaga kelindiki, asardagi jinoyatchilikning bosh omili bu – jismoniy yetimlik emas, balki ijtimoiy yetimlikdir. Qissa asosida bolaning jinoyat olamiga kirib qolishida: oiladagi tarbiya, ijtimoiy loqaydlik va bolaligidan butunlay voz kechish kabi bosqichlar aniqlandi. Yetimlik va jinoyatchilik o‘rtasida uzviy bog‘liqlik mavjudligi ilmiy jihatdan asoslandi. Shu bilan birga psixologik bosim va hayotiy qiyinchiliklar ta’sirida ayrim bolalarda ruhiy beqarorlik va ichki ziddiyatlar ularning salbiy muhit ta’siriga tez tushib qolishi ilmiy jihatdan asoslandi. Tadqiqot natijasida o‘smir bolalarning sog‘lom, psixologik rivojlanishi uchun mehr-

1 Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
2 A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. T.: O‘qituvchi. 1992 y. B.17.

muhabbat va tarbiya hal qiluvchi omil ekanligi to‘g‘risida xulosaga kelindi.

Darhaqiqat, jamiyat va davr muammolari, illatlari, ayniqsa, bolalar ruhiyatida yaqqol aks etadi. Shu sababdan yozuvchi ko‘p hollarda ijtimoiy va ma’naviy muammolarni tasvirlashda yetim bolalar obraziga murojjat etadi. “Biz yashayotgan dunyoni anglash uchun bolalarga va inson hayotining muhim qismi bo‘lgan bolalikka ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan yangicha yondashish talab etiladi. Shu bois nasrda, xususan, qissa janrida bola obrazi muammosini davr va ruhiyat bilan bog‘liqlikda talqin etish dolzarblik kasb etadi” [3:4][3]. Bola obrazi jamiyatning ko‘zgusi hisoblanadi. Chunki jamiyat vakillarining bolaga, aynan, yetim bolalarga bo‘lgan munosabatlarida ularning asl qiyofasi namoyon bo‘ladi. “Bilamizki, yetimlik insonga eng og‘ir sinovlardan biridir. Ota-onasiz o‘sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi, beiymon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi. [4:48;49].[4] Ushbu obrazlar og‘zaki va yozma asarlarda musibatli taqdir egasi, dardli va chuqur ruhiy iztiroblar timsoli sifatida aks etadi. Adabiyot hamisha jamiyat hayotining aks sadosi bo‘lib, xizmat qilib kelgan. Unda inson ruhiyati, kechinmalari, ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlar o‘z ifodasini topadi. Yetim qahramonlar orqali yozuvchilar adabiyotning ijtimoiy vazifasini bajarib, insoniylik, mehribonlik va hayot sinovlariga qarshi kurash kabi mavzularni targ‘ib etadi. Xususan, yetimlar dunyoqarashi orqali ruhiy kechinmalar, jamiyatni ichidan kemiruvchi zararli qusurlar, davrning ijtimoiy-siyosiy muammolari, yetim bolalarning taqdiri va ular duch keladigan adolatsizliklar ko‘rsatiladi. Bu haqida M. Norboboyevaning maqolasida, jumladan, o‘smir yoshdagi bolalarning jinoyat olamiga kirib qolishiga sabab boladigan omillar sifatida quyidagi illatlar qayd etiladi: “Loqaydlik – har bir insonning o‘z tinchini o‘ylab, atrofdagi jarayonlarga, jinoyatlarga befarqligi. O‘z manfaatlarini ustun qo‘yish – boshqalarning muammolari bilan qiziqmaslik, faqat o‘z maqsadlari bilan yashash, o‘zi uchun kurashish. Ota-onalarning mas’uliyatsizligi – ota bo‘lishga, ona bo‘lishga tayyor bo‘lmay turib turmush qurish va hali dunyoga kelmagan bolaning kelajagini barbod qilish” [5].[5]

Yetimlarning hayoti, taqdiriga qiziqish, ularni o‘rganish, ayniqsa, yozuvchi Tohir Malik ijodida o‘ziga xos hodisa sifatida kuzatiladi. Xususan, “Alvido, bolalik” qissasida barcha uchun taalluqli bo‘lgan yetimlikni jamiyatning eng mudhish fojeasi, ya’ni jiddiy muammo sifatida badiiyatga ko‘chirdi. Bunda adib oila misolida ota-onalarning farzandlarini tarbiyalash borasida yo‘l qo‘yayotgan kamchiliklari qanday og‘ir oqibatlarga olib kelayotganligini yetim bolalar taqdiri orqali ochib beradi. Asarda bolalardan birining onasi yo‘q, yana birlarining otasi yo‘q va boshqa birlariniki esa ota-onalikni hayot lazzatlariga almashib, bolalarining tirik yetim bo‘lib qolishlariga sababchi bo‘lgan holatlarni ko‘rishimiz mumkin. “Abu Ali ibn Sinoning fikricha, bola tarbiyasi murakkab va mas’uliyatlidir. Har bir ota-onadan o‘z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma’lumotlardan boxabar bo‘lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba emas, balki o‘z ichiga tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogik kabi sohalarga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir”.[6:2][6] Ushbu qarashlardan ma’lumki, bugungi kunda oilaviy tarbiyaning murakkablashuvi natijasida jamiyat taraqqiy etgan sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirishga talab ortib bormoqda. Bunday jarayon esa bola tarbiyasida unga har jihatdan axloqiy tarbiya berish sifati ko‘lamini oshirishni nazarda tutadi. Shu bilan birga, asarda hech kim jinoyatchi bo‘lib tug‘ilmasligi, bolani atrof-muhit, tarbiyadagi sustlik, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantirishi mumkinligi har bir qissa qahramonining ijtimoiy holatidan bu fikrlarning qanchalik haqiqat ekanlgiga amin bo‘lamiz.

“Alvido, bolalik” qissasida juda katta hayot masalasi ko‘ndalang qo‘yilganki, bu o‘smir yoshdagi har bir bolaning hayot falsafasi orqali voqealar davomida ochilib boradi. Ushbu falsafa nafaqat o‘smir yoshdagilar, balki kattalar uchun ham hayotiy saboq beradi. Ayniqsa, bola tarbiyasida oilaviy muhitning alohida ahamiyatga egaligi asar g‘oyasi kuchini bir pog‘ona yuqoriga ko‘targan. Xususan, qissadagi bosh qahramonlaridan biri – Asrorning ota-onasi ham tirik. Lekin u “ijtimoiy” yetim obraz hisoblanadi. U otasining johilligi, ma’rifatsizligi, diniy va dunyoviy bilimlardan xabarsizligi bola tarbiyasida beparvoligi uni jinoyat olamiga kirib qolishiga sababchi bo‘ladi. Yozuvchi uning bu boshi berk ko‘chaga bekordan-bekorga kirib qolmaganligini ta’kidlash uchun o‘quvchini uning oilaviy muhitiga yetaklaydi. Barchamizga ma’lumki, oila insonning dastlabki tarbiyasi va shaxsning hayot yo‘li shakllanadigan dargohdir. Shuningdek, “Oila vazifalaridan biri – avlodni tarbiyalashdan iborat. Dunyo – kurash maydoni. Har bir inson balog‘atga yetgach, shu maydonga kirmasdan iloji yoq. Chunki, har kim baxti uchun kurashadi. Bu kurashda g‘olib chiqmog‘i uchun uch xil o‘lchov quroliga ega bo‘lishi kerak: salomatlik, sog‘lom fikr, axloqi sano. Har bir kishi bu uch qurolning birisiz maydonga tushsa, mag‘lub bo‘lishi aniq. Shuning uchun ota o‘z farzandini shu maydonning g‘olibi qilib tarbiyalamog‘i kerak” [9:120].[7] Ushbu fikrlarni inobatga olgan holda, farzandlarimiz o‘zini sog‘lom

3 Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. b. falsafa dok. (PhD)…diss. –Toshkent, 2022.
4 Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. – Yangi asr avlodi, 2010. 48-49.
5 Norboboyeva M. Maqola. “CASY STUDY” metodidan adabiyot o‘qitishda foydalanishning afzalliklari. (Tohir Malikning “Alvido, bolalik” qissasi asosida).
6 Abu Ali Ibn Sino. Donishnoma. Mantiq. I bo‘lim. 2008. – B. 21.
7 N. Mustafoyeva. “Ayol yuksaltirur bashariyatni” “Tafakkur jurnali”, 1999, N 3, 120-bet.

e’tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-onalar zimmasiga yuklanadi. Shunga ko‘ra hozirjavob adibimiz Tohir Malik qissada Asrorning jinoyat dunyosiga kirib qolishida, aynan, oiladagi qoniqarsiz muhit sababchi ekanligini ta’kidlaydi.

Otasi uni iqtidorli maktabdan chiqarib olib, oddiy maktabga joylashtiradi va uning biryo‘la hayotida unga tanlanishi muhim bo‘lgan “uch yo‘l”[7:10;11][8] mavjudligi haqidagi g‘aroyib falsafasini tasvirlab beradi. Birinchi yo‘lga misol qilib Asrorning otasini olishimiz mumkin. Chunki otasi tuni bilan to‘yma-to‘y otarchilik qilib, kamiga Asrorni ham uning xohishlariga qarshi majburlab doirachi qilib olib yuradigan, boylikka haddan ortiq ruju qo‘ygan, dunyoqarashi tor, pul topib aql topmagan odam. Eng dahshatlisi, u razil otasining ra’yini qaytara olmasdan, to‘yxonaga borib, u yerdagi mast-alastlarning beo‘xshov gaplari-yu, nojo‘ya xatti-harakatlaridan uni hayotga yengil-yelpi qaraydigan, niholdek qayerga egsangiz, o‘sha yerga egiladigan beg‘ubor tuyg‘ularini bulg‘ab, bolalik tuyg‘ularini erta so‘ndiradi.

Ikkinchi yo‘lda esa “qora shayton” [7:10;11][9] turadi. Bu yo‘lda sen hech kimga egilmaysan, senga hamma qulluq qiladi. Atrofdagilar sening izmingda bo‘ladi. Ko‘ngling tusaganini qila olasan. Ushbu yo‘ldagi shayton deb asardagi Qamariddin obrazini olishimiz mumkin. Aslida u ham jamiyat yetim qilgan qurbonlardan biri. U dastlab yengiltak onasi tomonidan yetimxonaga tashlab ketilgan, hatto otasi kimligini ham bilmaydi, avvalo, u zino bolasi edi. Asl haqiqatni u keyinchalik buvisidan eshitadi: “Tug‘ilganingni bilib xursand bo‘ldim. Onang chiqadigan kuni guldasta ko‘tarib borsam, bir o‘zi kelyapti. Maqsadini tushundim. U yosh edi. Umrini badnom qilgisi kelmagan” [7:43][10] Ushbu parcha orqali biz Qamariddinning fojeali taqdirining debochasiga guvoh bo‘lamiz. U yetimxonada tetapoya bo‘lib, esini taniganidan beri hayotining har bir sahifasi o‘sha joy bilan bog‘liq. Uning bolaligi hech qachon bo‘lmagan. Uning uchun oila, ota-ona, xonadon degan tushunchalar mutlaqo begona. Shuning uchun ham u odamlardan, jamiyatdan alamzada, shafqatsiz, sovuqqon bo‘lib yetishadi. Jamiyatdagi odamlar tomonidan kamsitilib, haqoratlar, zulm va adolatsizliklar qurshovida yashashi uning psixikasida yolg‘izlik, o‘zining hech kimga keraksizlik hissini paydo qiladi. Dastlab bolalar uyi, so‘ng axloq tuzatish kaloniyasi, keyinchalik esa qamoqxona uning insoniy qiyofasini va hayotini butunlay salbiy tomonga o‘zgartirib yuboradi. U eng avvalo o‘ziga azob berganlardan va suyug‘oyoq onasidan qasos olish istagi bilan yashadi. Qissaning yana bir ijtimoiy yetim qahramonlardan biri Salim obrazidir. Ulamolar, farzand ota-ona uchun berilgan ikkinchi imkoniyat, o‘zi erisha olmagan maqsadlarini farzandlari orqali amalga oshirishi mumkin”,- deydilar. Shuningdek, qahramonimiz, Salim eng avvalo, serfarzand oilada tug‘ilib, yashayotganligi uchun ham moddiy tomondan ko‘p narsaga ehtiyojmand bola sanaladi. Shu tufayli u oiladagi iqtisodiy yetishmovchilik, otasining esa ichkilikka mukkasidan ketganligi, onasining yo‘qchilik, oilaviy qiyinchiliklar, opalarining “yopiq” taqdiridan, erining ahvolidan ham asabiy, serzarda bo‘lib qolganligi va ro‘zg‘or yumushlari vajidan bolalariga e’tiborsiz bo‘lishi, uning erta ulg‘ayib, jinoyatchilik ko‘chasiga kirib qolishiga turtki bo‘ladi. Jumladan, uning otasi qanday mas’uliyatsiz odam ekanligini quyidagi parchadan bilishimiz mumkin: “Salimning otasi yoshligida oyog‘ini sindirib olganmi yo tug‘ma cho‘loqmi, har holda hassasiz yurolmaydigan bu odamning mehnatga tobi-toqati yo‘q. Shamollasa, aksirishga ham erinadigan ota bolasi nechtaligini ham bilmasa kerak. O‘n bir bola nima ichyapti, ikki qiz nima uchun erga chiqmay turib tug‘ib oldi, endi ularning turish-turmushi nima bo‘ladi – ishi yoq” [7:55].[11] Bu jumlalardan bilishimiz mumkinki, Salim garchi tashqaridan ota-onaga ega bo‘lib ko‘rinsa-da, ammo uning hayoti yetimlarnikidan aslo kam emasdi. U ham xuddi yetim bolalarday mehrga, e’tiborga va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj edi. Shuning uchun ham uning oilaviy muhiti o‘z dunyoqarashiga ega shaxsiy rivojlanishiga monelik qiladi. U o‘zi istab emas, balki oilasini moddiy qiyinchilikdan qutqarishning eng oson va maqbul yo‘li Qamariddin to‘dasiga qo‘shilish ekanligida, deb o‘ylagani uchun ham unga bu yo‘l najot bo‘lib tuyuladi. Asardagi yana bir ijtimoiy yetim obraz bu – Dilfuzadir. Bu baxtiqaro qizning yetim bo‘lib qolishiga sabab, onasi otasi bilan avtohalokat tufayli olamdan o‘tadi. Shunda oyog‘i kesib tashlangan ilojsiz otasi ikki o‘g‘il va bir qizi Dilfuzani mehribonlik uyiga berishga majbur bo‘ladi. Oradan vaqt o‘tgandan so‘ng Dilfuza otasiga qarash uchun qaytarib olib kelinadi. Bu obrazning haqiqatan ham ko‘ngli yarimta, chunki qizning bu yorug‘ dunyoda bironta ham hamdardi yoq. Onasining o‘limi, otasining esa, o‘zi bilan o‘zi ovoraligi, kamiga o‘z muallimasi – A’zamxonovaga uylanish niyati borligini bilgach, hasratini kimga aytishni bilmay qoladi. “Qiz bolaning hasratiga tosh chidamasa, suv chidamasa… Yana ham shu mitti yurak chidar ekan. Dilfuza ichiga yutdi, dardlari, hasratlarini” [7:88].[12] Uning chinakamiga ko‘ngli o‘ksik, mehrga muhabbatga tashna bo‘lganligidan u o‘ziga g‘amxo‘rlik qilmoqchi bo‘lgan Asrorga dardkash sifatida ko‘ngil qo‘yadi. Shuning uchun u bilmagan holda

8 Tohir Malik. Alvido… bolalik”[Matn]:Qissa / Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019. – B.10.
9 Tohir Malik. “Alvido… bolalik” [Matn]: Qissa / Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B.10-11.
10 Tohir Malik. “Avido…bolalik” [Matn]: Qissa / Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 43.
11 Tohir Malik. “Alvido…bolalik” [Matn]: Qissa / Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – B. 55.
12 Tohir Malik. Alvido …bolalik” [Matn]: Qissa /Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi. 2019. – B. 88.

Qamariddin boshliq jinoyatga aralashib qoladi. E’tibor beradigan bo‘lsak, qissadagi yetim bolalar har birining orzu-umidlari, dunyoqarashlari, oilaviy ahvoli mutlaqo boshqa-boshqa. Ammo ularni birlashtirib turadigan bitta narsa bu – alamzadalikdir. Ya’ni kimdandir, nimadandir nafratlanish tuyg‘usi jihatidan o‘xshash bo‘lganligi uchun ham bir-birlarini yaxshi tushunishadi.

Xulosa qilib aytganda, qissada bu kabi jinoyatlarning avj olishi, qahramonlar taqdirining ayanchli tus olishida, avvalo, oilaviy muhit, ota-onaning tarbiyada, nazoratda beparvoligi, jamiyatdagi loqaydlik, yetimlik hamda turli zararli omillar va odatlar hisoblanadi. Eng asosiy sabablardan biri, oilaviy muhit hamda ota-onalarning farzand tarbiyasida mas’uliyatsizligidir. Zero, har bir illatning ham, har qanday yaxshi-yomon tarbiyaning ham o‘chog‘i avval oiladan boshlanadi. Bola oilasida keraklicha mehr, etibor, ta’lim-tarbiya ko‘rib, qalbi ezguliklar bilan sug‘orilmadimi, u bugungi kunda, ayniqsa, yoshlarga xavf tug‘dirayotgan o‘grilik, giyohvandlik jinoyatchilik va turli huquqbuzarliklar bilan bog‘liq salbiy odatlarga berilib, ular ortidan ergashib ketishi oson kechadi. Chunki, u o‘ziga yetishmagan hamma narsani ko‘chadagi muhitdan izlay boshlaydi. Eng achinarlisi, agar uni o‘rab turgan muhitdagi odamlar nosog‘lom, loqayd jamiyat a’zolari bo‘lsa, bunday yoshlarning butun hayoti barbod bo‘lishda davom etaveradi. Ushbu asarning fojeali yakuni qalbimizni larzaga keltiradi. Yana shuni ayta olamizki, ota-ona mehridan mahrum bo‘lgan bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish bugun aslo kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biri sanaladi. Zero, har bir bola e’tibor va mehrdan kuch olib yashaydi. Shuningdek, o‘smirlar o‘rtasida jinoyatchilikni kamaytirish nafaqat huquqiy jazo, balki nafs tarbiyasi va oiladagi sog‘lom iqlimni tiklash orqali amalga oshirilishi lozim. Tohir Malik ijodi bu borada yoshlar psixologiyasini tushunish va pofilaktika choralarini ishlab chiqishda muhim badiiy-metodik manba bo‘lib xizmat qiladi. Ya’na shuni aytishimiz mumkinki, yozuvchining mazkur asari mavzusini maktab darsliklarida shunchaki voqealar bayoni sifatida emas, balki “jinoyatning fojeaviy oqibatlari” hamda “nafs tarbiyasi” kontekstida tahlil qilish, psixologlar va o‘qituvchilar hamkorligida treninglar o‘tkazib, oila va bola muloqot soatlarini tashkil etish, ichki ishlar xodimlari faoliyatida ushbu asar matnining audio va video variantlaridan foydalanish, mahalla faollari va diniy-ma’rifiy tashkilotlar orqali oilada farzandning faqat moddiy ehtiyojini emas, aksincha, ma’naviy-ruhiy ehtiyojini qondirish mas’uliyatini keng targ‘ib qilish, qissadagi psixologik holatlarni zamonaviy o‘smirlar tushunadigan tilda qayta ishlash kabilarning yo‘lga qo‘yishi tavsiya va taklif etiladi. Shuningdek, keyingi tadqiq etiladigan yo‘nalishlar etib, ijtimoiy tengsizlik va moddiy yetishmovchilik, notugal oila va umuman tayinli oila yo‘qligining xulq-atvorga ta’siri, mehribonlik uylari, internet va ijtimoiy tarmoqlarning roli, virtual zo‘ravonlik va uning xulq-atvorga ta’siri, shaxs shakllanishida ishonchsizlik va agressiya muammosi, shaxsiy xarakter, temperament va ijtimoiy sharoitning o‘zaro ta’siri kabilar olindi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti ham yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.

2. A. Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O‘qituvchi. 1992.1-bet.

3. Umurzakov R. XX asr o‘zbek qissalarida bola obrazi: davr va ruhiyat. Filol. fan. b. falsafa. dok. (PhD)…diss, – Toshkent: 2022.

4. Hamdam. U. Yangilanish ehtiyoji. – Yangi asr avlodi, 2010.

5. Norboboyeva M. Maqola. “CHASY STUDY” metodidan adabiyot o‘qitishda foydalanishning afzalliklari. (T. Malikning “Alvido, bolalik” qissasi asosida).

6. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. Mantiq. I bo‘lim. 2008.

7.Tohir Malik. Alvido…bolalik” [Matn]: Qissa / Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 184 b.

8. Knyajnin Ya. B. // ziyouz.com.

9. N. Mustafoyeva “Ayol yuksaltirur bashariyatni” “Tafakkur jurnali”, N 3,120-bet.

10. http://xora zmiy uz Hadisi Sharif. 2021. 416-b.

11. Qurbonov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Navoiy universiteti, 2018.

12. G‘afurov G‘. Adabiy obrazlar psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

13. Karimov H. O‘zbek nasrida ruhiy kechinmalar tasviri. – Samarqand: Zarafshon, 2017.

Kamola DO‘STMURODOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti
o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich magistratura talabasi
@kdostmurodovagmail.com

“CHIMILDIQ” VA “ANDISHALI KELINCHAK” DRAMALARIDA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLAR

Annotatsiya: Erkin Xushvaqtov dramalarida milliylik ruhida namoyon bo‘lgan sahnalar talqini. O‘zbek an’analariga muhabbat va hurmat aks ettirilgan “Chimildiq”, “Andishali kelinchak” komedik dramalarining o‘sha davr va hozirgi vaqtdagi ahamiyati. Komediya janiridagi dramalarning sahnalashtirilish sabablari. Bugungi kunda teatrning insonlar hayotidagi ta’siri qanday ahamiyatga molikligi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: *Erkin Xushvaqtov, o‘zbek an’analari aks etgan dramalar, “Chimildiq”, “Andishali kelinchak”, teatr, milliy qadriyat, ma’naviyat, marosimiy makon, andisha, dramatik konflikt.*

Annotation: interpretation of scenes in the dramas of Erkin Khushvaqtov, which are reflected in the spirit of nationalism. The significance of the comedy dramas «Chimildiq», «Andishali kelinchak», which reflect love and respect for Uzbek traditions, at that time and today. The reasons for the staging of dramas in the comedy genre. The article discusses the importance of the influence of theater in people’s lives today.

Key words: *Erkin Khushvaqtov, dramas reflecting Uzbek traditions, «Chimildiq», «Andishali kelinchak», national values, morality, ritual space, modesty, dramatic conflict.*

Аннотация: интерпретация сцен, отражающих национальный дух в пьесах Эркина Хушвактова. Значение комедийных драм «Чимилдик» и «Андишали келинчак», отражающих любовь и уважение к узбекским традициям, в то время и в настоящее время. Причины постановки комедийных драм. Сегодня мы поговорим о том, какое значение имеет театр в жизни людей.

Ключевые слова: *Эркин Хушвактов, драмы, отражающие узбекские традиции, «Чимилдик», «Андишали келинчак», театр, национальные ценности, духовность, ритуальное пространство, андиша, драматический конфликт.*

O‘zbek milliy an’analarini aks ettirgan har bir asar bugungi kunda eng sara ijodiy namunalardan biri sifatida qaralmoqda. Bunga sabab hozirgi zamonaviylashayotgan ijtimoiy hayotda voyaga yetayotgan har bir o‘g‘il-qiz millatning kimligini unutmasdan, kimlarning avlodi ekanligini asli tag ildizi qayerdan, qay holatda yashaganligini bilishidir. Bilamizki, har bir davr almashinuvida ilmli xalqimizning ta’lim sohasidagi rivojlanishi o‘sha davrning maishiy hayotidan kelib chiqqan. Chorizm davrida millatimizni ma’rifatli qilish uchun ko‘plab jadidlarimiz qurbon bo‘lishgan. Ular uylarida maktablar ochishgan, madrasa, gazeta va jurnallarda xalqni ma’rifatga chorlovchi asarlar, she’rlar, romanlarini chop etishgan, teatrlarda esa o‘z sahna asarlarini ommaga taqdim etib, millatni ilmli qilishda katta hissa qo‘shishgan. Bularning ichida eng ko‘p tilga olinadigani bu teatr san’atidir.

Teatr san’ati qadim-qadimdan o‘z mualliflariga ega. Necha asrlardan beri dramaturglar teatr uchun asarlar yozishgan. Antik davr, o‘rta asrlarda, uyg‘onish davridan to shunga qadar ham mashhur teatr dramaturglari sahna asarlarini yaratishdi. Esxil, Yevripid, Lope de Vega, Moler, Shekspir, Goldoni, Shiller, Chexov, Gorkiy, Hamza va boshqalar. Har bir davrning o‘z estetikasi, o‘z talablari bor. Bir necha asr avval asarlar 4-5 pardali qilib yozilgan bo‘lsa, so‘nggi asr o‘rtalariga kelib bir tanaffusli, ikki pardali asarlar teatr sahnasini egalladi. O‘tgan asr, 30-40-50 - yillarida tomoshabinlar 2-3 tanaffusli sahna asarlarini sahna bezaklari almashinib, parda ochilguncha kutishgan. Spektakl kechasi soat o‘n ikki-birda tugab, tomoshabin miriqib tomoshadan qaytgan bo‘lsa, tezkor zamon taqozosi bilan tomoshabin vaqtini tejash maqsadida bir tanaffusli yoki tanaffussiz asarlar sahnalashtira boshlandi.[1]

Erkin Xushvaqtov qisqa vaqt ichida o‘ndan ortiq pyesalar yozdi, ular sahna yuzini ko‘rdi. Dramaturg xalq og‘zaki ijodini, milliy urf-odatlarimizni, udumlarimizni yaxshi o‘rganib chiqqan. O‘z asarlarining tili ustida jiddiy ishlagan. Ular ham sodda, xalqona, ravon, shirali. Maqol, qochirimlarga boy. Uning kabi sahna asarlarning xarakterli tomoni shundaki, ularning bariga iloji boricha udumlar ruhi, mazmuni singdirib yuborilgan. “Qirmizi olma”, “Andishali kelinchak”, “Qalliq o‘yini”, “Chimildiq” shular jumlasidandir. Ayniqsa, Erkin Xushvaqtovning barchaga ma’lum va mashhur pyesalaridan biri bo‘lgan “Andishali kelinchak” asari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ushbu ijodiy ishda o‘zbek ayollari o‘rtasida bo‘lgan qaynona va

kelin munosabati ochib berilgan. O‘zbek kelinchaklarining hayosini, ibosini, muomala madaniyatini, o‘zini tutishlarini ko‘rish mumkin.

“Andishali kelinchak” dramasida qadriyatlar tizimi ko‘proq kommunikativ-axloqiy mexanizm sifatida namoyon bo‘lib, “andisha” konsepti personajlar o‘rtasidagi masofa va ijtimoiy rollarni belgilaydigan asosiy regulyatorga aylanadi. Tahlil jarayonida andishaning uch xil funksional ko‘rinishi ajratildi. Birinchi ko‘rinish ijtimoiy muvofiqlik funksiyasi bo‘lib, kelinning nutqiy ehtiyotkorligi, sukut, murosaga moyillik kabi strategiyalar orqali ifodalanadi; bu strategiyalar konfliktni bevosita to‘qnashuvdan ko‘ra, “yumshoq qarshilik” shakliga o‘tkazadi. Ikkinchi ko‘rinish reputatsion himoya funksiyasi bo‘lib, personajlar “gap-so‘z” ehtimolini oldindan hisobga olib, qaror chiqaradi; natijada dramada tashqi voqea ichki xavotir bilan uyg‘unlashib, psixologik taranglikni kuchaytiradi. Uchinchi ko‘rinish axloqiy legitimatsiya funksiyasi bo‘lib, andisha personajning harakatini oqlovchi yoki qoralovchi mezonga aylanadi; shu sababli bahslar ko‘pincha manfaatlar to‘qnashuvi emas, “to‘g‘ri” va “munosib” xatti-harakat me’yorini talashish sifatida kechadi. “Andishali kelinchak” da “andisha”ning kommunikativ regulyator sifatida ishlashi qadriyatlar nazariyasidagi ijtimoiy norma va shaxsiy motivatsiya o‘rtasidagi munosabatni yodga soladi. Qadriyatlar shaxsning ichki tanlovlarini yo‘naltiruvchi “ideallar” bo‘lish bilan birga, jamiyat tomonidan kutiladigan xatti-harakatni standartlashtiruvchi me’yorlar sifatida ham amal qiladi; aynan shu ikkiyoqlamalik dramada psixologik taranglikni kuchaytiradi.[2]

“Chimildiq” dramasida esa hayotiy vaziyatlar ochiqchasiga ochib berilgan, ya’ni qiz otasining qistovi bilan turmushga chiqayotganligi, yigitning esa oldin sevgan qizi bo‘lgani va turmushga chiqib ketganidan keyin uylanmoqchi emasligini, lekin otasining achchiq so‘zlaridan bezib, 30 yoshga chiqqandan so‘ng rozi bo‘lgani haqida so‘z boradi. Bu voqeani esa personaj kelinga ajoyib hikoya orqali tushuntirib beradi. Dramadagi “ena” obrazi esa qadriyatlarni ochib berishda muhim shaxslardan biri hisoblanadi. Bu obraz ikki yoshning munosabati va oilasining mustahkamligi mana shu chimildiq asosida yaxshilanib, baxtli hayotiga ilk qadam bo‘lishini akslantirib beradi. Chimildiqda bo‘ladigan odatlar: asal yalatish, novvot suvi ichirish, moshxo‘rda yeyish, yubqa yeyish, mahsi yechish, soch silash kabilarni chiroyli komedik tarzda namoyon etgan. Bundan tashqari, dramaning birinchi pardasida o‘zbekona odatlardan bo‘lgan “kelin o‘tirmadi” ayollar uchun, “kelin osh yemadi” erkaklar uchun alohida odatlarimizni ajoyib jonlantirgan.

Chimildiq dramasida “chimildiq” obraz-predmet sifatida marosimiy makonning kondensatsiyalashgan belgisi bo‘lib, u ikki qatlamda ishlaydi: birinchi qatlamda u oilaviy hayotning yangi bosqichiga o‘tish chegarasini bildiradi, ikkinchi qatlamda esa ijtimoiy nazorat va axloqiy me’yorning “ko‘rinmas devori” vazifasini bajaradi. Sahnaviy vaziyatlar rivojida chimildiq atrofida yuzaga keladigan har bir muloqot, aslida, shaxsiy istak bilan jamiyat kutilmasi o‘rtasidagi muvozanatni qayta taqsimlashga qaratilgan bo‘ladi. Shuning uchun chimildiq “interyer detali” emas, balki personajlar xulqini tartibga soluvchi semantik markaz sifatida konfliktning boshlanish nuqtalarini belgilaydi va uning hal bo‘lish yo‘llarini chegaralaydi. Bu hol drama poetikasida predmetning “qonun”ga aylanishi bilan izohlanadi: predmet o‘zi haqidagi tasavvurlar majmuini sahnaga olib chiqadi, natijada personajlar qarori shu tasavvurlar bilan kelishishga majbur bo‘ladi.[3]

Har ikkala dramada milliy va ma’naviy qadriyatlar uyg‘unligi, avvalo, oila institutining sahnaviy modelida ko‘rinadi. Oila bu yerda faqat ijtimoiy birlik emas, balki ma’naviy tartibotlarni uzluksiz qayta ishlab turadigan tizimdir; personajlar o‘rtasidagi munosabatlarda kattaga hurmat, mas’uliyat, uyat, or-nomus singari tushunchalar “qadriyat” sifatida emas, balki muomala grammatikasi sifatida ishlaydi. Natijada dramalardagi konfliktlar ko‘pincha “kim haq” degan savol bilan emas, “qanday qilib munosib qolish mumkin” degan savol bilan keskinlashadi. Bu esa dramatik harakatni axloqiy tanlovlar ketma-ketligiga aylantiradi: personajlar har bir vaziyatda nafaqat maqsadni, balki maqsadga olib boruvchi yo‘lning ijtimoiy maqbulligini ham hisobga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.“Aktyorlik mahorati” ma’ruza matnlari “Musiqali, drama teatr va kino san’ati” kafedrasi dotsenti Ernazar Yorbekov. – Toshkent. 2018

2.Schwartz S. H. Basic Human Values: Theory, Measurement, and Applications. – New York: Oxford University Press, 2012. 240 p.

3.Пави П. Словарь театра. – Москва: Прогресс-Традиция, 2006. 504 с.

4.Қўчқорова Д. Ўзбек драматургияси поэтикаси масалалари. – Тошкент: Фан, 2016. 192 б.

5.Karimov N. O‘zbek adabiy tanqidi tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2010. 368 - b.

Nurbek CHORIYEV,
Termiz davlat universiteti 2-kurs talabasi



“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA IYMON FENOMENI...

Annotatsiya: mazkur maqolada buyuk adabiyotshunos, mutassavvuf Alisher Navoiy “Xamsa”si birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”dagi birinchi maqolat va unga muvofiq hikoyat haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, asarning g‘oyaviy tahlili, tasavvufiy qarashlar analizi hamda maqolatning asosiy mavzusi ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi ushbu durdona asarning asosini o‘quvchilarga yetkazish hamda adabiyotshunoslik sohasiga oz bo‘lsa-da hissa qo‘shishdir.

Kalit so‘zlar: *falsafiy-didaktik doston, tasavvuf, iymon, badiiy tahlil, syujet, obraz.*

Annotation: this article examines the first maqolat and the corresponding story in “Hayrat ul-abror”, the first poem of the “Xamsa” by the great literary scholar and Sufi thinker Alisher Navoi. The study also provides an ideological analysis of the work, an exploration of its Sufi concepts, and reveals the main theme of the maqolat. The primary objective of this research is to convey the essence of this masterpiece to readers and to make, even if modest, a contribution to the field of literary studies.

Key words: *philosophical-didactic poem, Sufism, faith, literary analysis, plot, character.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются первая маколат и соответствующий ей рассказ в поэме «Hayrat ul-abror», первом произведении «Xamsa» великого литературоведа и суфийского мыслителя Алишер Навои. Также даётся идейный анализ произведения, анализ суфийских воззрений и раскрывается основная тема маколата. Главной целью данного исследования является донесение сущности этого шедевра до читателей и внесение, пусть и небольшого, вклада в развитие литературоведения.

Ключевые слова: *философско-дидактическая поэма, суфизм, вера, художественный анализ, сюжет, образ.*

Kirish. Turkiy xalqlar adabiyotidagi eng buyuk arkon hisoblanmish Alisher Navoiy xamsachilik an’anasini davom ettirgan. “Xamsa” yozishda olti shart bo‘lib, ularning ikkinchisi “Xamsa”dagi birinchi doston falsafiy-didaktik ruhda bo‘lishi kerakligi edi. Falsafiy-didaktik dostonda hayot, inson, axloq, jamiyat, taqdir, ilm, adolat, iymon kabi masalalar falsafiy mushohada va pand-nasihat (didaktika) ruhida yoritiladi. Alisher Navoiy ham shu shartga muvofiq 1483-yilda “Hayrat ul-abror” (“Yaxshi kishilarning hayratlanishi”)ni yaratdi. Dostonning hajmi 7976 misra: 63 bob: 20 maqolat, 20 hikoyat, 2 bob xulosa, 21 bob esa muqaddimadan iborat.

Dostonning 22-bobidan maqolatlar boshlangan, maqolatlarda Navoiy turli xil fazilat va qusurlar haqida o‘z shaxsiy qarashlarini bayon etgan va bu fikrlarga mos hikoyatlar berilgan. Hikoyatlarning keltirilishiga sabab shuki, insonlarga faqat nasihat yo‘li bilan mohiyatni tushuntirib bo‘lmasligini anglagan Navoiy o‘z mulohazalariga mos badiiy, tarixiy, hayotiy voqealarni misollar yordamida keltirib o‘tgan.

Adabiyotlar tahlili. O‘tgan asrning 50-yillaridan Navoiy ijodini o‘rganish jadallashdi. 1950-60-yillarda Porso Shamsiyev “Xamsa” ning ilmiy-tanqidiy matnini ishlab chiqdi. 1974-yil Toshkentda “Hayrat ul-abror”ning hozirgi o‘zbek tilidagi sharhi Abduqodir Hayitmetov tomonidan e’lon qilingan. Abduqodir Hayitmetovning “Navoiyning adabiy-tanqidiy qarashlari”, “Navoiyning ijodiy metodi” va boshqa asarlarida “Hayrat ul-abror”ning g‘oyaviy va badiiy xususiyatlari to‘g‘risida muhim fikrlar bayon etilgan. [1:43] Navoiy asarlarining 20 jildlik mukammal to‘plamida bu asar yettinchi jilddan joy olgan.

Akademik I.Sultonovning “Навоийнинг калб дафтари” ning “Xamsa”ning yaratilishi to‘g‘risidagi bobda “Hayrat ul-abror” haqida ham so‘z boradi. Filologiya fanlari doktori A.Abdug‘afurovning “Навоий сатираси” va “Навоий ижодида сатира” asarlarida “Hayrat ul-abror” dostonidagi satira va undagi obrazlar haqida qimmatli mulohazalar mavjud.

“Hayrat ul-abror” to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlar orasida O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi V.Y.Zohidovning “Мир идейи образов Навоий” va “Улуг шоир ижодининг калби” kitoblari alohida o‘rin tutadi. Unda Navoiy ijtimoiy fikrlarining dostondagi bayoni shoirning boshqa asarlaridagi misollar bilan birgalikdagi Navoiy tafakkurining mohiyatini ko‘rsatishda muvaffaqiyat bilan istifoda etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolaning yozilishida turli metodlardan, shuningdek, analitik – tahliliy metod, deskriptiv – tavsiflovchi metod, deduktiv – mantiqiy metod hamda tanqidiy jondashuv kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonining birinchi maqolati va unga tegishli hikoyatni iymon ta’rifiga bag‘ishlagan, bunda katta bir tasavvufiy ma’no bor, ya’ni Navoiy har doim asarlarida “komil inson”ni shakllantirgan, albatta, inson bu holatga kelishi uchun birinchi navbatda unda iymon bo‘lishi darkor. Tasavvuf – tajriba orqali his qilib, yashab, anglashiladigan hol ilmidir. Tasavvuf ilmining mavzusi ma’rifatullohdir. [2:20] Bu bobda Navoiy iymonning oltita shartini sanab o‘tgan, negaki bir kuni payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) dan bir inson: “Iymon nima?” – deb so‘rashganida, Rasuli Akram quyidagicha javob berdilar: “ Iymon haqida xabar ber” , - dedi (Jabroil alayhissalom) “ Alloh, farishtalarga, kitoblarga, rasullarga, oxirat kuniga, qadar va uning yaxshi-yomoniga iymon keltirmoqdir”, - dedilar Rasulullоh (s.a.v). Mazkur sahih hadisga tayangan Navoiy sarlavhada iymon shartlarini keltirib o‘tadi, lekin iymonni faqatgina bu kalimalardan iborat emasligini ta’kidlaydi. Bu holatni ahli zohir iymon deb qabul etsa-da, ammo ahli ma’no iymon demaydi, chunki uni his etish, unda yashash lozimgini aytadilar. Bugungi kunda olimlar inson hamda hayvon o‘rtasidagi farqni ongda yoki nutqda deya baholashadi, biroq so‘z ummoni g‘avvosi jahon ahlida kimki inson bo‘lsa, buning belgisi – iymon ekanligi ta’rif etilgan.

Iymonning birinchi sharti Allohga iymon keltirmoqlikdir. Iymon keltirmagan odam Ilohni rad etib, o‘zi ilohlik da’vosini qilayotganini bildiradi. Tavhid – Allohning yakkaligini anglash. Barchani yaratguvchi ham nobud etuvchi ham Alloh ekanligi, ikki olam uniki, agar boshqa biri mavjud bo‘lsa, u ham Allohga tegishli ekanligi yozilgan.

Iymonning ikkinchi sharti farishtalarga ishonmoqdir. Alisher Navoiy ularni ta’riflar ekan: “Bilki, ular falaklarning ziyoratchilaridir, nafs vasvasasidan ozod va pokdirlar, ularning har biri oliy qanotli tovus bo‘lib, tasbih donalari ularning hamdamidir. Muhabbat olovi yongan chog‘ bu qanotlar tug‘yon olsin uchun o‘tni yelpiydi, lekin farishtalarning qanotlari bitta emas, balki ikki, uch, to‘rtta ham bo‘ladi. Ular Haqning amrisiz bir qadam bosmaydilar, nafas olmaydilar, ular o‘lmaydilar – ibtidodan intihogacha bordirlar. Ularning zoti pokiza, yagona, tuproq, suv, yel yo o‘t kabi unsurlardan xoli”. [3:45]

Iymondagi olti shartning uchinchisi ilohiy kitoblarga ishonmoq bo‘lib, ularning hammasini Allohning so‘zi deb bilmoq darkor. Kitoblarni tubsiz daryoga, ichidagi so‘zlar esa qiymatda tengsiz ekanligi aytilgan, ularni daryo dema, balki Navoiy ularning har birini o‘zgacha konga tashbeh qiladi, kon la’l va gavharlarga to‘la makon ekanligi tavsif etilgan. Ilohiy kitoblarning uchtasi misoli munavvar sha’m bo‘lsa, bittasi quyosh mash’alidir. Haq so‘zlarining tengi va o‘xshashi yo‘qdir, chunki uning zoti qadim bo‘lgani kabi so‘zlari ham qadimdir.

Iymonning to‘rtinchi sharti – soflik dengizining gavhariga o‘xshatilgan payg‘ambarlar jamoasiga iymon keltirishdir. Ularning hammasi Allohning amri ila elni haq yo‘lga yetakladilar. Bunga ishonmaganlarga mo‘jizalar ko‘rsatildi. Ularning barchasi faqat rost so‘zladilar, garchi “payg‘ambar” ularga umumiy nom bo‘lsa-da, ular uch toifaga bo‘linadilar. Birinchisi anbiyolar: ularga vahiy va solih tush yo‘l ko‘rsatdilar. Keyingisi rasullar bo‘lib, ular Haqdan kelgan buyruqlarni xalqqa yetkazdilar. So‘nggisi ulul azim payg‘ambarlarki, ular jang va din da’vati bilan mashg‘ul bo‘lib, hatto qatlga ham hukm berganlar.

Iymonning beshinchi sharti hisob kuniga, balki Navoiy tili bilan aytsak, azob kuniga ishonmoqdir. Qiyomatning kelishiga, albatta, e’tiqod qilmoq lozim. U kunda shodlik egalari o‘ng tomonda, chap tomonga esa yuzlari qoralar safga tizilur. Sirot ko‘prigini ko‘rib,

insonlar dahshatga tushadi. Do‘zax olovi ajdahoga qiyoslanib, uning yetti boshi osmon gumbazidek, yetti og‘zining har biri g‘or kabidir. Firdavs gulshanida noz-u ne’matlarning cheki yo‘qki, hatto, yengil shabada ham u yerga sig‘maydi. Jannatda qoluvchilarga Ilohiy Jamoldan umid bor.

Iymonning so‘ngi sharti taqdirga ishonmoqlikdir. Ya’ni Navoiy yozadiki, ro‘y beradigan har bir yaxshilik va yomonlik bitib qo‘yilgan. Yaxshi amal na jannatga kiritadi! Yomon fe’l na jannatga soladi! Tangriga ming yil toat qilgan inson azaldan baxtsiz bo‘lsa, qanday foyda bor?!

Navoiy fikrlarini xulosalar ekan, shunday deb yozadi: “Men bu sifatlar bilan ta’riflaganim bu olti narsaga kim e’tiqod qilsa, u odamning amal kitobi har qancha qora bo‘lsa ham, hatto, gunoh daryosiga g‘arq bo‘lgan bo‘lsa ham, qiyomat kuni afv umid bo‘lib, unga rahmat qo‘li shodlik baxsh etsa, ajablanarli joyi yo‘q. Men shunday buyuk maqomni bayon qildimki, unga kimning yetish yo yetmasligi ayon emas. [3: 50]

Alisher Navoiy o‘z shaxsiy qarashlarini bayon qilgandan so‘ngra fikrini isbotlash uchun Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqidagi hikoyatni keltiradi. Hikoyatda muayyan syujet mavjud. Syujet (frans, predmet, «asosga qo‘yilgan narsa») badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri sanalib, badiiy asardagi bir-biriga uzviy bog‘liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimini anglatadi.[4:163] Asarning syujetini yoritamiz:

Bir kuni Boyazid qayg‘uli holda o‘tirgan edi, bir murid undan g‘amining sababini so‘radi: “Ko‘nglingga qaysi ishdan ozor yetdi? Bu iztirobingning sababi nima?” . Pir ko‘z yosh to‘kib: “Bir g‘am borki, u meni xarob etmish, jahon ichra odamlar ko‘p, biroq insondan holi. Hammaga o‘zining ishi to‘g‘ri va xush ko‘rinadi, lekin biror kishi yo‘qki, uni inson deb aytsa! Bu olamda insonning mavjudligini bilmayman, agar bo‘lgan bo‘lsa ham, vafot etgan bo‘lsa kerak” , - deydi. Savol beruvchi buni angladi va dedi: “El ichra inson yo‘q dedingiz, o‘zingiz insonga mansub emasmisiz? ” Shayx javob berdi: “Mendek insonlar ko‘p, ammo iymon bilan ketmasalar, anglaki, undaylarni inson deyish mumkin emas”. Shu bilan hikoyat tugaydi. Boyazid Bistomiy bu yerda tarixiy shaxs, umrining o‘ttiz yilini islomiy ilmlarni o‘rganishga bag‘ishlagan, tasavvuf bilan jiddiy shug‘ullangan, u bu yerda badiiy obraz sifatida keltirilgan. Badiiy obraz borliqning (undagi narsa, hodisa va b.) san’atkor ko‘zi bilan ko‘rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlanib, hissiy idrok etish mumkin bolgan shaklda ifodalangan aksidir. [4:90] Boyazid Bistomiydek inson iymon masalasiga kelganda qayg‘u chekayotgan ekanki, demak, Navoiy ham “Hayrat ul-abror”ning birinchi maqolatiga iymon masalasini bekorga qo‘ymagan, uningcha, iymon fazilatlarning eng ulug‘i, u “inson” atalganlarning barchasi bo‘lishi shart. Hikoyat so‘ngida Alisher Navoiy soqiyga murojaat qilib, undan iymon mayini keltirishini so‘raydi. Bu yerda ham ulkan tasavvufiy ma’no bor. Agar biz uni tushunmasak, Navoiyni mayxo‘rga chiqarib qo‘yardik, ammo may quyuvchiga murojaat Allohga munojot hisoblanadi, Navoiy Allohdan iltijo qilib, ko‘ngliga iymon solishini yalinib so‘ramoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytsak, Alisher Navoiy iymon masalasiga jiddiy qarash zarurligini, unga ega bo‘lish, amal qilish kerakligini, dinga kirish ham, undan chiqish ham aynan iymon masalasi bilan bog‘liq ekanligini izohlagan. Biz Navoiyni Allohni sevgan banda sifatida ko‘rsak-da, u o‘ziga Haqdan iymon so‘ramoqda, demak, Navoiy ham o‘zini Alloh qoshida iymonining yetarli emasligidan xavotirda, uningcha, bu dunyoda insonlarning eng ko‘p xavotiri iymon to‘g‘risida bo‘lmog‘i lozim. Olamda inson chekishi mumkin bo‘lgan va arziydigan qayg‘u iymon qayg‘usidir, boshqa g‘amlar uning oldida qiymatsiz. Shuningdek, hayotda “mening armonim ko‘p, ota-onamni Hajga olib borolmadim, uni qilolmadim, buni bajarolmadim” deyuvchilar bir talay, ammo insonning hayotdagi yagona armoni uning butlay olmagan iymoni bo‘lishi kerak!!!

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Tanlagan asarlar. 15 tomlik. 13-tom. – Toshkent: Fan, 1997.
2. Комил Йилмаз. Тасаввуф ва тарикатлар. – Истанбул, 1997.
3. Акром Малик. “Хайрат ул-аброр” (Матн, шарх, насрий баён, лугат). – Тошкент: “Tamaddun”, 2021.
4. Dilmurod Quronov. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Navoiy universiteti”, 2018.
5. Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror” dostoni. G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot, 2006.

Diyora MAJIDOVA,
ToshDO‘TAU Adabiyotshunoslik(o‘zbek adabiyoti)
yo‘nalishi 2-kurs magistranti
diyoramajidova30@gmail.com



“ZARBULMASAL” ASARIDA RAMZIY OBRAZLAR TIPOLOGIYASI

Annotatsiya: maqolada “Zarbulmasal” asaridagi ramziy obrazlar tizimi tahlil qilinadi. Asarda qo‘llanilgan hayvon va inson xarakteriga xos obrazlarning majoziy mazmuni ochib berilib, ularning tipologik xususiyatlari aniqlanadi. Tadqiqot natijasida Gulxaniy ramziy obrazlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy muammolarni badiiy talqin etgani asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *masal, allegorik obraz, tip, aristokratiya, modallik, qushlar obrazi.*

Аннотация: в статье анализируется система символических образов в произведении “Зарбулмасаль”. Раскрывается образное значение животных и людей, используемых в произведении, и определяются их типологические характеристики. В результате исследования обосновывается, что Гульхани художественно интерпретировала социально-нравственные проблемы общества посредством символических образов.

Ключевые слова: *притча, аллегорический образ, тип, аристократия, модальность, образ птиц.*

Annotation: the article analyzes the system of symbolic images in the work “Zarbulmasal”. The figurative meaning of the animal and human characters used in the work is revealed, and their typological characteristics are determined. As a result of the research, it is substantiated that Gulkhani artistically interpreted social and moral problems in society through symbolic images.

Key words: *parable, allegorical image, type, aristocracy, modality, image of birds.*

O‘zbek mumtoz adabiyotida o‘ziga xos badiiy tafakkur va teran ijtimoiy mazmun bilan ajralib turuvchi ijodkorlardan biri – Gulxaniy hisoblanadi. Uning “Zarbulmasal” asari o‘zbek adabiyotida masal janrining yuksak namunalaridan biri bo‘lib, unda xalq donishmandligi, ijtimoiy tanqid va badiiy umumlashtirish uyg‘unlashgan.

“Zarbulmasal” asarida obrazlar tizimi asosan ramziylik asosiga qurilgan bo‘lib, ular orqali muallif jamiyatdagi ijtimoiy va axloqiy muammolarni bilvosita ifodalaydi. Asarda hayvon timsoli keng qo‘llanilib, ular inson xarakterining turli jihatlarini aks ettiradi. Jumladan, bo‘ri – zolim, vaxshiy, bosqinchi, ochko‘z. Tulki – ayyor, laganbardor, yolg‘onchi. Eshak – kaltafahm va go‘l singari xarakterlarda tasvirlanadi. Bu kabi obrazlar orqali muallif jamiyatdagi real insoniy tiplarni umumlashtirib beradi. Ramziy obrazlarning bunday tizimli qo‘llanishi asarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi va o‘quvchini chuqur mushohadaga undaydi.

“Zarbulmasal”dagi obrazlarni tipologik jihatdan bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Birinchidan, ijtimoiy tiplar ajralib turadi. Bu yerda hokimiyat vakillari, oddiy xalq, laganbardorlar va ayyor shaxslar obrazlari mavjud bo‘lib, ular jamiyat tuzilmasini aks ettiradi. Ikkinchidan, axloqiy tiplar muhim o‘rin tutadi. Asarda yaxshi va yomon, halol va nopok, aqlli va nodon kabi qarama-qarshi xarakterlar orqali axloqiy mezonlar belgilab beriladi. Uchinchidan, obrazlar statik va umumlashgan xarakterga ega. Ko‘pgina obrazlar o‘z xarakterini o‘zgartirmaydi, balki muayyan bir sifatni ifodalovchi timsol sifatida qoladi. Bu esa ularning tipikligini kuchaytiradi. Shuningdek, obrazlar individual emas, balki umumlashgan xarakterga ega bo‘lib, ular muayyan bir shaxsni emas, balki butun bir ijtimoiy qatlam yoki insoniy sifatni ifodalaydi.

Gulxaniy saroy aristokratiyasi bilan kelisha olmadi. Mehnat ahlining og‘ir, mashaqqatli hayoti uning ko‘zini ochdi. Gulxaniy saroy bazmlari va keti uzilmas mayparastliklarning xalqni talash va qiynash hisobiga uyushtirilganini payqadi. Bu hol, o‘z navbatida uning saroy ayonlariga, zodagonlarga, joylardagi amaldorlar va katta yer egalariga nafratini tobora oshirdi. Lekin shoir hukmron doiralardan noroziligini ochiqdan-ochiq ifodalay olmas edi. Shuning uchun u allegorik asar yozishga jazm qildi.[1,5] Gulxaniy “Zarbulmasal” da qudalik mojarolari fonida mavjud ijtimoiy tuzumga, o‘z atrofidagi muhitga, saroy aristokratiyasining dabdabali hayotiga bo‘lgan munosabatini juda katta ustalik va ehtiyotkorlik bilan bildiradi. U o‘zining ana shunday qarashlarini ko‘pincha yumoristik tarzda ifodalaydi.

Bu asarning asosiy qahramonlari qushlardir. Asarda turli qushlar va jonzotlardan foydalanilgan holda voqelikka ramziy tus berilgan. Gulxaniyning ushbu asarida: “Eng yirtqich qushlardan tortib oddiy qushlargacha namoyon bo‘ladi, ba’zan yo‘l-yo‘lakay vaxshiy hayvonlar (maymun, tulki), uy hayvonlari (tuya, bo‘taloq, eshak), hasharotlar (chayon) obrazlari ham asarda ko‘zga tashlanadi. Lekin bularning har biri insonlarning xulq-atvorini, qiliqlarini, xarakterini, turmushini ifoda etadi”[2] – deyiladi. Yana

boshqa bir manbada: “Zarbulmasal” asari ijtimoiy hayotdagi illatlarni o‘tkir satira tig‘i bilan fosh qiladi. Shoir o‘z zamonasi uchun xarakterli bo‘lgan voqea-hodisalarni yoritadi. Asarda feodal-zodagonlarning dabdabali hayoti, ochko‘z, tamagir, qallob, maqtanchoq, xudbin, mansabparast ekanliklari ochib tashlanadi. Asarda xondan tortib oddiy ish yurituvchigacha bo‘lgan kishilarning allegorik obrazlari yaratilgan”[3] – degan fikrdan ham shuni anglash mumkinki, bu asar masal janrida yaratilgan asarlarning eng yirigi va mazmunan boyligini anglatadi.

Gulxaniy tasviridagi markaziy obrazlar bir tomondan o‘zining biologik xususiyati, mijoziga xos belgilarni namoyon etsa (masalan, boyqushlarning buzuq chordevorga o‘chligi, ularning uylarida “sichqon so‘ngokidin o‘zga narsa” yo‘qligi, suvdan uzoqroq turishi), ikkinchi tomondan, odamlarga o‘xshab ijtimoiy munosabatga kirishadilar, ya’ni o‘sha tarixiy muhitning kishilari bo‘lib, mahalliy sheva bilan bir qancha maqol, matal, masallar keltiradilar, hikmat va rivoyatlarga tayanib fikr yuritadilar. Shunga ko‘ra, asarni o‘qigan kishi qushlar obrazlari bilan tanisha borgan sari, ularning hayotdagi o‘xshashlarini ko‘z oldiga keltiraveradi. Qushlarning turiga, tabiatiga xos belgilar tasviridan esa ma’lum hayotiy shaxslarning fe’l-atvorlari, laqablari, individual xususiyatlariga qaratilgan ishoralar borligini ochiq sezadilar. Chunonchi, Ko‘rqushning ko‘zi ko‘rmasligi, Kordonning bo‘yi uzunligi, Kuykanakning kichik jussasi-yu, ortiqcha chechanligi, Boyqushning xasisligi haqidagi tavsiflarda ana shunday qochirimlar bor.

Qushlarning badiiy obrazlar darajasiga ko‘tarilgan katta bir qismi asarda tur bildiruvchi nomlar doirasidan chiqariladi va har xil yo‘llar bilan “yakka shaxslar” doirasiga – atoqli otlar guruhiga o‘tkazib qo‘llaniladi. Bunda adibning obrazga yangidan nom-laqab qo‘yib ishlatishi, ayniqsa, xarakterlidir. Ko‘rqush, Kulonkir Sulton, Gunashbonu oyim, Kordon, Sho‘ranul, Malikshoh singari yangi qo‘yilgan nom-laqablarda shu nomlarning o‘z ma’nosidan tashqari, ularning turi, mijozi va boshqa muhim belgilarini ochishga xizmat qiluvchi nozik ishoralar, piching, mazax singari modallik ma’nolari ham anglashilib turadi.

Asarda badiiy tip darajasiga ko‘tarilgan Yapaloqqush, Boyqush, Ko‘rqush, Kulonkir Sulton, Turumtoy, Kordon, Sho‘ranul singari qush nomlari, maymun, tuya, eshak kabi hayvon nomlari, aslini olganda, umumiy ijtimoiy tiplar, mavhum shaxslar obrazlarigina emas, shu bilan birga, o‘z xususiyatlari bilan ismi jismiga monand qilib tanlab olingan laqablar, konkret tarixiy shaxlarga qaratilgan ishoralari nomlardir. Xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan chuqur tanish bo‘lgan va uning yo‘llarini o‘ziga singdirib olgan adib “Zarbulmasal” da o‘ziga zamondosh, tanish va suhbatdosh bo‘lgan ba’zi kishilarning bema’ni xulq-atvori, nojo‘ya qilmishlari ustidan askiya mavzusiga oid yo‘llar bilan ham kulgi chiqaradi, so‘z san’ati vositasi bilan ularga qarata yo‘l-yo‘lakay tosh otib o‘tadi.

Yozuvchi tasviriga ko‘ra, Boyo‘g‘li mutakabbir, mol-mulkka hirs qo‘ygan, o‘z manfaatini har narsadan ustun qo‘yuvchi jamiyatning yuqori tabaqasiga mansub shaxsdir. U qizini moldek sotishga jon-dili bilan tirishadi, sovchilar bilan savdolashadi.

Kordon saroy xizmatchilarining tipik vakili, Malikshohning halqabago‘shlaridandir. U Malikshohdan buyruq olgach, uni tezlik bilan bajarishga kirishadi, qalin taraddudida bo‘lib ortiqcha xarajatlarni ravo ko‘rmaydi. Kordonning tabiatiga xos narsa xarji isrofga, ya’ni bekorchi xarajatlarga yo‘l qo‘ymaslikdir.

Yapaloqqush bilan o‘g‘li Kulonkir Sulton jamiyatda Boyo‘g‘liga nisbatan birmuncha pastroq mavqeda bo‘lsa ham, lekin a’yon-ashroflar guruhiga mansubdir. Bu holni Kulonkirsulton dargohining hashamati ham tasdiqlaydi.

Gulxaniy adolatli shoh tarafdoridir. Uning fikricha, o‘lkani odil, insofli, fuqaroparvar shoh idora etsa va bu shoh o‘z atrofiga halol, tajribali kishilarni to‘plab ish ko‘rsa, davlatning ahvoli yaxshilanishi mumkin. Uning bu haqidagi qarashlari Ko‘rqush misolida ochiq bayon qilinadi.

Xulosa qilib aytganda, Gulxaniy mazkur asar orqali real hayot voqeliklarini bevosita emas, balki ramziy-obrazli tafakkur asosida yoritib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va axloqiy muammolarni chuqur badiiy umumlashtirishga erishgan. Asarda qo‘llangan hayvon va inson xarakteriga xos obrazlar muayyan bir shaxsni emas, balki keng ijtimoiy qatlamlarni ifodalovchi tiplar sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, obrazlarning ijtimoiy va axloqiy jihatdan qarama-qarshi qo‘yilishi asarning g‘oyaviy yo‘nalishini kuchaytirib, o‘quvchini mustaqil fikrlashga undaydi. Shuningdek, ramziy obrazlar tizimi asarda satirik va didaktik vazifani bir vaqtda bajaradi. Kulgi va kinoya vositasida berilgan tanqidiy ruh o‘quvchiga kuchli estetik ta’sir ko‘rsatadi, natijada asar nafaqat badiiy zavq uyg‘otadi, balki ma’naviy-axloqiy xulosa chiqarishga ham xizmat qiladi. Bu esa “Zarbulmasal”ning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev V. O‘zbek adabiyoti tarixi. Ikkinchi kitob. – T.: O‘qituvchi, 1967. 883-b.
2. Gulxaniy. Zarbulmasal. Nashrga tayyorlovchi: S. Dolimov. – T.: O‘qituvchi, 1972. 56-b.
3. O‘zbek klassik she’riyati janrlari. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyoviddinov. (Pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari studentlari uchun) N.Mallayev tahriri ostida. – T.: O‘qituvchi, 1979.
4. Is’hoqov F. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari. – T.: Fan, 1976. 230-b.
5. Muqimov R. Gulxaniyning hayoti va adabiy faoliyati. Fil.fan.nomzodi...diss. – Samarqand, 1948. 142-b.

Gulbahor USMONOVA,
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek va xorijiy tillar kafedrasi
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
2-bosqich magistranti



O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA O‘XSHATISHLAR IFODASI (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA)

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlari kontekstida o‘xshatishning badiiy va funksional jihatlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor “Alpomish” dostoni misolida o‘xshatishlarning turlari, leksik va sintaktik vositalari, stilistik vazifalari hamda ular orqali ifodalangan milliy dunyoqarash va estetik didga qaratiladi. Maqolada doston matnidan olingan ko‘plab misollar yordamida o‘xshatishlarning dramatik, lirik, epik va didaktik funksiyalari ko‘rsatildi. Tadqiqot og‘zaki ijod an’analarining tasviriy uslub elementlarini, xalq sezgi va tasavvurini ifoda etadigan metaforik-taqqoslovchi yondashuvlarni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: o‘xshatish, taqqoslash, “Alpomish”, doston poetikasi, og‘zaki ijod, epik tasvir.

Аннотация: в статье рассматриваются особенности выражения сравнений в узбекском народном эпосе «Алпомиш». На материале эпоса анализируются виды сравнений, языковые средства их выражения, стилистические функции и роль в создании образности. Приводятся многочисленные примеры из текста эпоса, демонстрирующие драматическую, лирическую и эпическую функции сравнений, а также отражение народной картины мира и эстетического восприятия.

Ключевые слова: сравнение, эпос «Алпомиш», язык фольклора, художественная образность, эпическая поэтика.

Annotation: this article examines the use of similes in the Uzbek folk epic “Alpomish.” It analyzes types of similes, the lexical and syntactic devices used to form them, and their stylistic functions in creating vivid epic imagery. Numerous examples from the epic illustrate similes’ dramatic, lyrical, and didactic roles and reveal aspects of folk worldview and aesthetics embedded in oral tradition.

Key words: simile, comparison, “Alpomish”, epic poetics, oral folklore, imagery.

O‘zbek xalq dostonlari — xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy tafakkuri va madaniy-estetik qarashlarining boy manbaidir. Doston janrida tilning obrazli vazifasi, xususan, o‘xshatishlar orqali qahramonlar, voqealar va manzaralar jonlanadi. “Alpomish” dostoni esa — markaziy Osiyo epik an’analarining eng yorqin namunalaridan biri, unda o‘xshatishlar til va ma’no jihatidan turlicha qatlamlarda ishlatiladi. Ushbu maqola o‘xshatishlarning doston ichidagi strukturaviy va funksional rolini, ularning turlarini va ushbu vositalar orqali xalq qarashi qanday tasvirlanishini keng misollar bilan tahlil qiladi.

Maqolada badiiy til elementlari — o‘xshatish, metafora, epitet va to‘plamli frazeologik birliklar — tipologik jihatdan ko‘rib chiqildi. Tadqiqot metodlari: tekst-tahlil (doston matnining qat’iy lingvistik va stilistik tahlili), kontekstual-interpretativ yondashuv (o‘xshatish matndagi kontekstda qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlash), hamda folklor antropologik nuqtayi nazardan qisman inferensiyalash. Maqola matni uchun “Alpomish”ning o‘zbekcha versiyalari va etnografik izohlar asos qilib olindi.

1. O‘xshatishning lingvistik va stilistik xususiyatlari. O‘zbek tilida o‘xshatish asosan quyidagi vositalar yordamida yaratiladi: –dek, –day, singari, kabi, xuddi, cho‘zma konstruktsiyalar (go‘yo, o‘xshash),) metaforik segmentlar. Sintaktik jihatdan o‘xshatish oddiy (bir fraza ichida) yoki murakkab (qasidaning, baytning bir nechta qismida qaytalanadigan motiv) bo‘lishi mumkin. Doston tilida o‘xshatish ko‘pincha

ritmik kadrlarga mos tushadi va takrorlanish orqali epik effekt hosil qiladi.

2. Turlari va ularning epik funksiyalari. O‘xshatishlarni funksiyalariga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin: epik-epizodik, liriko-emotsional, didaktik-moral, kompozitsion-motivatsion. Har bir tur “Alpomish” matnida aniq vazifani bajaradi.

a) Epik-epizodik o‘xshatishlar. Qahramonning jasorati, jang sahnalari, tabiat bilan aloqa shu turga kiradi. Misol: *“Alpomish qalqon ushlab, dushman tomon chopdi — yovga yashin singari yopirildi.*” Bu yerda “yashin singari” — tezlik va dahshatramonlikni ta’kidlaydi.

b) Liriko-emotsional o‘xshatishlar. Sevgi, sog‘inch, g‘am kabi hissiyotlarni ifoda etadi:

“Barchinoy tongdek yayrashdi ko‘zlari — yurakka bir kun botgan quyoshday shafqatsiz edi.” Bu o‘xshatishda hissiyotlar yorqin, tabiat timsoli orqali beriladi.

c) Didaktik-moral o‘xshatishlar. Axloqiy saboqlarni berishda qo‘llanadi:

“*Faqat haqiqat so‘zi — tog‘day porloq, yolg‘on esa qumday so‘nadi*.” Bu misolda haq va yolg‘on taqqoslanib, axloqiy pozitsiya mustahkamlanadi.

d) Kompozitsion-motivatsion o‘xshatishlar. Kecha-kunduz, yurish, janglar, ot va qahramon motivlarini bog‘lash uchun ishlatiladi: takroriy o‘xshatishlar motivni mustahkamlaydi.

3. “Alpomish”dan keng qamrovli misollar va ularning tahlili. Quyida “Alpomish” dostonidan olingan turli kontekstlardagi o‘xshatishlar va ularning tahlili beriladi (har bir misol atroflicha izoh bilan):

— jang sahnasi: *“Alpomish poshoni yerga tekkizmay, ot ustida burgutday uchdi; shavq bilan yurdi, dushman qalbi sovuqqa tushgandek ezildi.*” “Burgutday uchdi” — qahramonning fazilatlari (balandlik, hukmronlik) bilan burgut ramzi orasidagi ekvivalentni o‘rnatadi. “Dushman qalbi sovuqqa tushgandek ezildi” — o‘xshatish dramatik atmosferani yaratadi, o‘qiydigan auditoriya hisini kuchaytiradi.

— qahramonning jasorati va kuchi: *“Uning qiyofasi quyosh porlashiday edi; vujudida tog‘ning berkitgan kuchi bor edi.*” Quyosh va tog‘ elementlari qahramonning kamsitib bo‘lmas qudratini va muqaddasligini ko‘rsatadi — epik baho berish.

— mehr-muhabbat sahnasi: *“Barchinoy so‘zlaganda, uning ovozi daryo sathi singari tinimsiz oqardi.”* Suv timsoli orqali so‘zning uzluksizligi, tabiiyligi va tozaligi bildiriladi. Bu o‘xshatish qahramonlar o‘rtasidagi hissiy aloqani yumshoq, lirizm bilan beradi.

— qayg‘u va sog‘inch: *“U qavat-yotrgan erdan ko‘zlarini ko‘tarib, osmonga qaradi — u ham xuddi uning yuragi kabi bo‘sh va charxlayotgandek edi.”* Koinot bilan inson qalbi orasidagi parallel qurish qahramonning ichki holatini kosmik miqyosda ko‘rsatadi.

— xalq hayotidan frazeologik o‘xshatish:*“El ichida mehr — nondek muqaddas, dushman esa shamol kabi yo‘qoladi*. ”Kundalik hayot narsalari (non, shamol) orqali ijtimoiy qadriyatlar tasdiqlanadi.

4. O‘xshatishlarning semantik qatlamlari va ramziy ma’nosi. O‘xshatish har doim ham yuzaki taqqoslash emas; u ramziy qatlam yaratadi. Masalan, “ot” va “burgut” timsollari — erkinlik va jasorat ramzlari sifatida qaytarilib turadi. “Quyosh” — yorug‘lik, hayot, boshqaruv, tanlangan liderlik timsoli. “Daryo” — uzluksizlik, iroda. Shu ramzlar yordamida dostonning axloqiy-epik sistemi shakllanadi.

5. Stilistik vositalar bilan uyg‘unligi. O‘xshatishlar epitetlar, metaforalar, ritmik takrorlar bilan birgalikda ishlatiladi. Misol uchun: “Alpomish qahramon — otida yelga o‘xshab uchdi, so‘zlari qirq cho‘ponning ko‘makidir.” Bu yerda “yelga o‘xshab uchdi” (simile), “qirq cho‘ponning ko‘makidir” (metafora/epitet) kombinatsiyasi sahnani yanada jonlantiradi.

6. Og‘zaki an’ana va o‘xshatishlar. “Alpomish” og‘zaki rivoyat sifatida shakllangani bois o‘xshatishlar mnemonic (esga olishga yordamlashuvchi) vazifasini ham bajaradi: ritmik, qaytariluvchi o‘xshatishlar eslab qolishni osonlashtiradi va dostonni auditoriya oldida ixlos bilan taqdim etishda yordam beradi.

7. Madaniy va etnopsixologik aspektlar. O‘xshatishlar orqali xalqning tabiatga munosabati, urush va tinchlik haqidagi qarashlari, oilaviy qadriyatlari ifodalanadi. Misol: otga nisbatan o‘xshatishlar (sadoqat, chidamlilik) — chorvachilik va qishloq hayotining jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liq. Shu jihat, doston matnini antropologik jihatdan ham qimmatli qiladi.

“Alpomish” dostonida o‘xshatishlar xalq tafakkurining badiiy-estetik ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. Har bir o‘xshatish, go‘yo xalqning hayot falsafasini mujassam etgan timsoldir. “Alpomish” qahramoni va uning atrofidagi obrazlar o‘xshatishlar orqali faqat tasvirlanmaydi, balki ular xalq ideallarining

ramziy ko‘rinishiga aylanadi. Bu hol o‘zbek xalqining epik tafakkuri naqadar chuqur, ramziy va badiiy jihatdan mukammal ekanini ko‘rsatadi.

Doston matnidagi o‘xshatishlar nafaqat tilning boyligini, balki xalqning ruhiy dunyosini ham ochib beradi. “Yashin singari”, “burgutday”, “quyoshday”, “daryo kabi”, “tog‘dek” kabi o‘xshatishlar orqali xalq o‘z atrofidagi borliqni hayotiy, estetik va ma’naviy nuqtai nazardan talqin qiladi. Bu o‘xshatishlar xalqning tabiatga, jasoratga, go‘zallikka va sadoqatga bo‘lgan ehtiromini ifodalaydi.

O‘xshatishlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular faqat poetik bezak emas, balki doston kompozitsiyasining, obrazlar psixologiyasining, va xalq dunyoqarashining asosiy tarkibiy qismidir. Ayniqsa, “Alpomish” dostonida o‘xshatishlar uch asosiy yo‘nalishda faol ishlatiladi:

1. Epik-funksional – qahramonlik, shijoat va vatanparvarlik g‘oyasini ifodalaydi.

2. Liriko-emotsional – muhabbat, sog‘inch, sadoqat kabi insoniy hislarni yoritadi.

3. Didaktik-axloqiy – xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va donoligini ifoda etadi.

Shu bilan birga, o‘xshatishlar og‘zaki ijroda tinglovchini ta’sirlantirish, epik ohangni kuchaytirish, matnga jonlilik berish kabi estetik vazifani bajaradi. Bunday vositalar dostonning asrlar davomida xalq xotirasida yashovchan bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

Demak, “Alpomish”dagi o‘xshatishlar o‘zbek xalqining dunyoqarashi, tili, estetik tafakkuri va badiiy didining uyg‘un mahsulidir. Ular o‘zbek og‘zaki ijodining eng yuqori bosqichida shakllangan poetik fikr namunalaridir. Bugungi kunda bunday o‘xshatishlarni tahlil qilish va ta’lim jarayoniga tadbiq etish yosh avlodda xalq og‘zaki ijodiga mehr, milliy g‘urur va estetik idrokni kuchaytirishga xizmat qiladi. “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlar nafaqat epik asarning badiiy bezagi, balki xalq tafakkurining, tarixiy xotirasining va milliy ruhining badiiy ifodasidir. Ularni o‘rganish o‘zbek xalqining milliy o‘zligini, ma’naviy qadriyatlarini chuqur anglashda muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, “Alpomish” dostonidagi o‘xshatishlar obrazni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri bo‘lib, ular epik dramatizm, lirizm va didaktik mazmunni birlashtiradi. O‘xshatishlar yordamida xalq dunyoqarashi (tabiat, hayvonot, koinot timsollari) estetik shaklga olinadi va doston qahramonlari xalq ideali sifatida yuksak darajada tasvirlanadi. O‘xshatishlarning ritmik-sintaktik joylashuvi ham matnning og‘zaki ijroda esda qolarli bo‘lishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, o‘xshatishlarni integrativ tarzda o‘rganish folklor, tilshunoslik va madaniyatshunoslik uchun muhim ilmiy vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Alpomish” — O‘zbek xalq dostoni (turli variantlar). –Toshkent: Milliy nashrlar (tahrirlangan to‘plamlar), 1990–2019.
2. Jo‘rayev, M. O‘zbek xalq dostonlari poetikasi. –Toshkent: Fan, 2005.
3. Mirzayev, T. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. –Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
4. Karimov, N. Dostonlarda xalq dunyoqarashi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
5. Abdullayev, A. O‘zbek epik an’analarining badiiy tahlili. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. V. V. Ivanov. Structuring of Epic Similes in Turkic Oral Poetry. – Moscow: Nauka, 1988. (ruscha manba)
7. A. S. Pavlov. Folklore and Symbolism in Central Asia. St. – Petersburg: Nauka, 2001. (ruscha manba)
8. Islomov, S. Og‘zaki ijro va doston performativligi. –Toshkent: Akademiya, 2015.

Hilola ESHQUVVATOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti magistranti

O‘ZBEK ADABIYOTIDA AYOL TIMSOLINING BADIIY TALQINI

Annotatsiya: ushbu maqolada ayolning jamiyatdagi o‘rni va milliy mentalitet masalalari o‘zbek adabiyotida badiiy talqin etilishi tahlil qilinadi. Xususan, o‘zbek adabiyotining turli davrlarida yaratilgan asarlarda ayol obrazi, uning ijtimoiy mavqeyi, ma’naviy dunyosi hamda jamiyatdagi roliga oid qarashlar yoritiladi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analarning ayol timsoli orqali aks etishi, shuningdek, zamonaviy adabiyotda ayol obrazining yangicha talqinlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ayolning oila va jamiyatdagi o‘rni, uning huquq va erkinliklari, ijtimoiy faolligi hamda milliy mentalitet bilan bog‘liq jihatlar badiiy asarlar misolida ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, jamiyat, milliy mentalitet, o‘zbek adabiyoti, badiiy talqin, ijtimoiy rol, ma’naviyat, an’ana va qadriyatlar, oila, zamonaviy adabiyot.*

Аннотация: в данной статье анализируется художественная интерпретация роли женщины в обществе и проблемы национального менталитета в узбекской литературе. В частности, рассматриваются образы женщин, их социальный статус, духовный мир и представления об их роли в произведениях разных периодов узбекской литературы. Освещается отражение национальных ценностей, обычаев и традиций через женские образы, а также анализируются новые интерпретации образа женщины в современной литературе. В ходе исследования на примере художественных произведений раскрываются вопросы роли женщины в семье и обществе, её прав и свобод, социальной активности и связи с национальным менталитетом.

Ключевые слов: *образ женщины, общество, национальный менталитет, узбекская литература, художественная интерпретация, социальная роль, духовность, традиции и ценности, семья, современная литература*

Annotation: this article analyzes the artistic interpretation of the role of women in society and issues of national mentality in Uzbek literature. In particular, it examines female images, their social status, spiritual world, and views on their role in literary works from different periods of Uzbek literature. The study highlights the reflection of national values, customs, and traditions through female characters, as well as explores new interpretations of women’s images in modern literature. Based on literary works, the research reveals the role of women in the family and society, their rights and freedoms, social activity, and their connection with national mentality.

Key words: *female image, society, national mentality, Uzbek literature, artistic interpretation, social role, spirituality, traditions and values, family, modern literature.*

Kirish (Bведение / Introduction). Jamiyat taraqqiyoti va ma’naviy yuksalishida ayolning o‘rni beqiyosdir. Ayol – nafaqat oila bekasi, balki avlod tarbiyachisi, ma’naviyat targ‘ibotchisi va ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisidir. O‘zbek milliy mentalitetida ayolga bo‘lgan munosabat yuksak hurmat va ehtirom asosida shakllangan bo‘lib, bu qadriyatlar asrlar davomida sayqallanib kelmoqda.

Adabiyot esa jamiyat hayotining aks-sadosi sifatida ayol obrazini turli qirralarda yoritib beradi. Ayniqsa, ayol ijodkorlar asarlarida ayolning ichki dunyosi, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy faolligi chuqur tahlil etiladi. Shu jihatdan Saida Zunnunova va Zulfiya ijodi alohida ilmiy-estetik ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods). Saida Zunnunova ijodida ayolning ma’rifatli, jasur va vatanparvar obrazi sifatida o‘zbek adabiyotida ayol obrazining yangicha talqinini boshlab bergan ijodiy manbalardan biridir. Uning asarlarida ayol obrazi an’anaviy chegaralardan chiqib, zamonaviy, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida gavdalanadi.

Zulfiya ijodi o‘zbek she’riyatida ayol ruhiyatining badiiy ifodasida alohida o‘rin tutadi. Shoira ayol qalbining eng nozik jihatlarini chuqur lirizm orqali ochib beradi.

Saida Zunnunova ayolni eng avvalo ma’rifatli inson sifatida talqin qiladi. Uning qahramonlari bilim olishga intiluvchi, hayotda o‘z o‘rnini topishga harakat qiluvchi obrazlardir. Bu orqali yozuvchi ayolning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini ilm va tafakkur bilan bog‘laydi.

Muhokama (Обсуждение / Discussion). Saida Zunnunova o‘zbek adabiyotida ayol qalbining nozik kechinmalarini onalik mehri hamda jamiyki ayolga xos ruhiy olamni chuqur tasvirlagan shoiralardan biridir. Shu o‘rinda shoira qalamiga mansub “Qizimga” she’ri ayol obrazining eng muqaddas qiyofasi hisoblangan ona obrazi orqali ochib bergan. She’rda ayol avvalo mehr manbai, himoyachi tarbiyachi, eng go‘zal qadriyat sifatida

gavdalanadi, qahramonona qiziga murojaat Qizlar undagi tuyg‘ular samimiy sof, mehrga limmo-lim to‘la

“Yer uzra qo‘ndi oqshom oy shul’asi bir mayın,
Kel oppog’im kel erkam seni allalayin.”

Shoiraning “Qalb” she’rida ayol qalbining qanchalik sabr-toqatli, kuchli hamda nozik bir dunyo sifatida qalamga olgan. Ana shu jihatlar quyidagi mısralarda o‘z aksini topadi.

“Har narsaga kuyma deyishar,
Kuymagan yurakni nima qilaman.
Ortiqcha yuk qilib uni tanaga,
Yonmagan yurakni nima qilaman”.

Shoira bu orqali ayol hayotidagi jamiki murakkabliklar hissiyotlar va sabrni yoritadi. U ayolni nafaqat oilaviy doirada balki Ijtimoiy hayırda faol fikrlovchi shaxs sifatida yoritib berishga harakat qilgan. Shuningdek, yozuvchi ijodida ayolning jasorat va qat’iyati muhim o‘rin tutadi. Qahramonlar turli ijtimoiy to‘siqlarni yengib o‘tib, o‘z hayot yo‘lini mustaqil belgilashga intiladi. Bu esa ayolning ichki kuchi va irodasini ko‘rsatadi.

Zulfiya asarlarida ayol ijtimoiy faol shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. U jamiyat muammolariga befarq emas, balki ularga o‘z munosabatini bildiruvchi, faol pozitsiyaga ega inson sifatida tasvirlanadi. Bu esa ayolning jamiyatdagi rolini kengaytirishga xizmat qiladi.

Zulfiya ijodida ayol faqatgina lirik qahramon emas, balki butun bir millatning axloqiy, estetik, ma’naviy timsoli sifatida gavdalanadi. Uning she’rlarida ayol – mehribon ona, sadoqatli yor, sabrli umr yo‘ldoshi, fidoyi mehnatkash va vatanparvar inson sifatida tasvirlanadi. Masalan, “Ona” she’rida onaning mehr-shafqati, fidoyiligi, sabr-toqati shunchalik yurakka ta’sirli yetkazilganki, bu obraz umumiy onalik timsoliga aylangan. Zulfiya ijodida ayol obrazlari bir necha asosiy poetik tiplarga ajraladi:

1. Onalik obrazlari.

Shoiraning bir qator she’rlarida onalik motivi asosiy semantik yadroni tashkil etadi. “Ona”, “Ona yodi”, “Ona qo‘shig‘i” kabi she’rlarida ayol hayot va mehr timsoli sifatida tasvirlanadi. Onalik timsoli — milliy qadriyatlar, fidoyilik, sabr-matonat bilan uyg‘unlashgan.

2. Lirik sevgi obrazlari.

Zulfiya sevgi lirikasida ayol obrazi — yor, mahbuba, iztirobli qalb egasi sifatida gavdalanadi. Bunda ichki monolog, kechinma va ruhiy iztirob poetik markazga chiqadi. Bu obrazlar “Sevgilim”, “Ko‘zimning nuri”, “Sendan so‘ng” kabi she’rlar orqali tasvirlangan.

3. Ijtimoiy faol ayol obrazlari.

Zulfiya she’rlarida mehnatkash, jamoatchi, ziyoli ayol obrazlari keng ifodalangan. Bu obrazlar shoira ishtirok etgan ijtimoiy-falsafiy diskurslar bilan bog‘liq: ayolning ijtimoiy tenglikka da’vati, millat ravnaqi yo‘lida fidoyiligi.

4. Vatanparvar ayol obrazlari.

Urush davrida yozilgan she’rlar (“Matonat”, “Shu qiz edi”, “Xotira”)da ayol — Vatan va erk timsoli sifatida yuksak ideal darajasiga ko‘tariladi. U zamonaviy “epik lirik” obraz darajasida talqin etiladi.

Natijalar (Результаты / Results). Saida Zunnunova asarlarida vatanparvarlik g‘oyasi yetakchi o‘rin egallaydi. Ayol obrazi Vatan taqdiriga befarq bo‘lmagan, jamiyat ravnaqi uchun xizmat qiluvchi shaxs sifatida tasvirlanadi.

Zulfiya she’riyati o‘zbek adabiyotida ayol obrazini poetik konsepsiyaga aylantirishda o‘ziga xos maktab yaratgan. Uning she’rlarida ayol – ruhiy olam, ma’naviy ustunlik, mehnat, sadoqat, muhabbat va vatanparvarlik timsoli sifatida badiiy timsollashtirilgan. Ayol obrazlarining tasnifi orqali Zulfiya poetikasining ichki struktura va semantik qatlamlarini aniqlash mumkin bo‘lib, bu adabiyotshunoslikda yangi yondashuvlarni shakllantiradi. Shu bilan birga, u zamonaviy gender yondashuvlar asosida milliy badiiy tafakkurda ayol mavqeyini qayta talqin qilish imkonini beradi.

Xulosa (Заключение / Conclusion). Xulosa qilib aytganda, o‘zbek adabiyotida ayol obrazi jamiyatning ma’naviy va ijtimoiy hayotini aks ettiruvchi muhim badiiy vositadir. Ayol – ma’rifatli, jasur, vatanparvar, ruhiy jihatdan kuchli va milliy qadriyatlarga sodiq shaxs sifatida jamiyat taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi. Shu bois ayol obrazini o‘rganish nafaqat adabiy, balki ijtimoiy va ma’naviy ahamiyatga ham egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

2. Sharipov J. *O‘zbek adabiyoti tarixi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2014.

3. Karimov N. *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2013.

4. Zulfiya Mo‘minova. “Dilimdan so‘z ochsam, Ayolga baxt bering”. Hurriyat gazetasi. 2015.07.02

5. Aliyev, M. “Milliy qadriyatlar va zamonaviylik masalalari XX asr o‘zbek adabiyotida.” *Adabiyot va san’at* jurnal, 2020, №4, 45-52-betlar.

Shahzoda O‘ROLOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti magistranti

ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTIDA INSON VA SUN’IY INTELLEKT OBRAZLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotida inson va sun’iy intellektning poetik obrazlari tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida adabiy asarlarda inson ruhiyati, tafakkuri va shaxsiy kechinmalari bilan sun’iy intellekt fenomenining badiiy uchrashuvi, ularning o‘zaro munosabatlari va konfliktlari o‘rganiladi. Maqolada zamonaviy o‘zbek she’riyat va nasrida texnologik taraqqiyot, globallashuv va sun’iy intellektning jamiyat hayotiga ta’siri poetik talqin orqali yoritiladi. Shu bilan birga, insoniy qadriyatlar, axloqiy tanlov va shaxsiy mas’uliyat masalalari adabiy obrazlar orqali badiiy jihatdan ifodalanadi. Tadqiqot natijasida inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, ularning poetik obrazlardagi aks etishi va zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi estetik qiymati aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *zamonaviy o‘zbek adabiyoti, inson ruhiyati, sun’iy intellekt, poetik obraz, badiiy talqin, nasr, she’riyat, estetik qiymat, texnologik tafakkur, globallashuv.*

Аннотация: в данной статье анализируются поэтические образы человека и искусственного интеллекта в современной узбекской литературе. Исследование охватывает художественное пересечение психики человека, его мышления и эмоций с феноменом искусственного интеллекта, а также их взаимосвязи и конфликты. В статье рассматривается, как в современной узбекской прозе и поэзии технологический прогресс, глобализация и влияние искусственного интеллекта на общественную жизнь отражаются через художественные образы. Также исследуется, каким образом через литературные образы раскрываются вопросы человеческих ценностей, морального выбора и личной ответственности. В результате выявляются сложные взаимоотношения человека и искусственного интеллекта, их отражение в поэтических образах и эстетическая значимость в современной узбекской литературе.

Ключевые слова: *современная узбекская литература, человеческая психика, искусственный интеллект, поэтический образ, художественное осмысление, проза, поэзия, эстетическая ценность, технологическое мышление, глобализация.*

Annotation: this article analyzes the poetic images of humans and artificial intelligence in contemporary Uzbek literature. The study examines the artistic intersection of human psychology, thinking, and emotions with the phenomenon of artificial intelligence, as well as their interactions and conflicts. The article explores how technological progress, globalization, and the influence of artificial intelligence on social life are reflected through literary images in contemporary Uzbek prose and poetry. It also investigates how literary representations convey human values, moral choices, and personal responsibility. As a result, the complex relationship between humans and artificial intelligence, their depiction in poetic imagery, and their aesthetic significance in contemporary Uzbek literature are revealed.

Key words: *contemporary Uzbek literature, human psychology, artificial intelligence, poetic image, artistic interpretation, prose, poetry, aesthetic value, technological thinking, globalization.*

Kirish (Введение / Introduction). Zamonaviy o‘zbek adabiyoti texnologik rivojlanish, globallashuv va sun’iy intellekt (AI) fenomeni bilan bog‘liq yangi mavzularni faol o‘z ichiga olmoqda. Bugungi kunda adabiyotda inson va sun’iy ong o‘rtasidagi munosabatlar, ularning ruhiy holati va badiiy talqinini o‘rganish dolzarbdir. Bu mavzu nafaqat adabiy, balki falsafiy, psixologik va sotsiologik jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Insonning sun’iy ong bilan o‘zaro aloqadorligi, unga munosabati, undan qo‘rqishi yoki undan foydalanishi – bularning barchasi yozuvchi uchun yangi badiiy izlanishlar maydonini yaratmoqda. Zero, raqamli zamon insonning nafaqat hayot tarziga, balki uning ma’naviy-axloqiy qadriyatlariga, xulq-atvoriga, ruhiy muvozanatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bunday jarayonlarning badiiy ifodasini tahlil qilish hozirgi adabiy jarayonning modernlashuvini chuqur anglashga yordam beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod (Литература и метод / Materials and methods). Sun’iy ong fenomenining adabiyotga kirib kelishi sun’iy ong fenomeni global adabiyotda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab faol ko‘tarila boshlagan bo‘lsa-da, o‘zbek adabiyotida bu mavzu asosan XXI asrning raqamli inqilobidan keyin kuchliroq kirib keldi. Internet madaniyatining shakllanishi, smart texnologiyalarning kundalik hayotga kirib kelishi, sun’iy intellektning inson faoliyatini qisman almashtira boshlashi yozuvchilar tasavvuriga yangi ufqlar ochdi. Zamonaviy o‘zbek yozuvchilari sun’iy ongni asosan uch yo‘nalishda talqin qiladilar:

— texnologiya va axloq munosabati;

— insonning o‘zlik izlanishi va identifikatsiyasi;

— jamiyatning raqamli boshqaruvga moslashuvi. Bu uch yo‘nalish badiiy tafakkurda mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanib, ko‘plab esse, hikoya, qissa va romanlarda o‘z aksini topmoqda. Inson va sun’iy ong o‘rtasidagi ziddiyatning badiiy ko‘rinishi. Har qanday badiiy asar markazida konflikt turadi. Sun’iy ong mavzusida bu konflikt bir nechta ko‘rinishga ega:

— insonning mashina ustidan hokimiyatni yo‘qotishi;

— sun’iy ongning sovuqqon mantiqi va insonning hissiy tabiati o‘rtasidagi tafovut;

— algoritmga bo‘ysungan jamiyatning ma’naviy parchalanishi;

— insonning o‘z tafakkuriga ishonmay, sun’iy ong maslahatiga tayanib qolishi.

Muhokama (Обсуждение / Discussion). Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ushbu konflikt ko‘pincha psixologik realizm, fantastika, antiutopiya va futurizm elementlari orqali badiiy talqin qilinadi. Qahramonning ichki monologi ko‘pincha texnologiyaning sovuqqonligi fonida beriladi.

Inson identiteti: sun’iy ong sharoitida o‘zlikni anglash Insonning kimligi masalasi har doim adabiyotning markazida bo‘lgan. Raqamli davrda esa bu savol yanada keskinlashdi:

— Sun’iy ong insonning tafakkurini cheklaydimi yoki kengaytiradimi?

— Insonning axloqiy tanlovi mashina tomonidan boshqarilishi mumkinmi?

— Virtual “men” asl “men”ni o‘chirib yuboradimi? Badiiy asarlarda qahramonlar ko‘pincha ikki olam o‘rtasida qoladi: real va virtual. Sun’iy ong esa bu ichki kurashni yanada kuchaytiradi.

Sun’iy ong obrazining badiiy yaratilish usullari o‘zbek yozuvchilari sun’iy ong obrazini yaratishda bir necha badiiy vositalardan foydalanadilar:

— metafora – sun’iy ongning jamiyat ustidan nazorati “ko‘rinmas hukmdor” sifatida talqin qilinadi;

— dialog – inson va sun’iy ong o‘rtasidagi bahslar orqali falsafiy g‘oyalar ochiladi;

— fantastik elementlar – kelajak jamiyatida robotlar, AI tizimlarining hukmron darajaga chiqishi tasvirlanadi;

— psixologik tahlil – qahramon texnologiya ta’siridagi qo‘rquv, xavotir, yolg‘izlikni boshidan kechiradi;

— antiutopik tasvirlar – algoritm boshqaruvidagi total jamiyatlar yaratiladi.

Natijalar (Результаты / Results). Sun’iy ongning axloqiy masalalardagi pozitsiyasi har doim noaniq bo‘lgani bois yozuvchilar uni dramatik konflikt markaziga qo‘yadilar. Hozirgi o‘zbek adabiyotida sun’iy ongga nisbatan ikkita qarama-qarshi tendensiya mavjud:

1) Pessimistik yondashuv– texnologiya insonni siqib chiqaradi, jamiyatni sovuqlashtiradi, axloqiy qadriyatlarni buzadi.

2) Optimistik yondashuv – sun’iy ong inson imkoniyatlarini kengaytiradi, tafakkur va ilmiy salohiyatning yangi bosqichiga olib chiqadi. Bu ikki yondashuvning badiiy uyg‘unligi zamonaviy adabiyotning murakkab kompozitsion xususiyatini shakllantiradi.

Xulosa (Заключение / Conclusion). Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek adabiyotida inson va sun’iy ong mavzusi yangi badiiy yo‘nalish sifatida shakllanib, adabiy jarayonda muhim o‘rin egallamoqda. Raqamli madaniyatning kuchayishi, algoritmik boshqaruvning ijtimoiy hayotga chuqur kirib kelishi, virtual identitetning shakllanishi, sun’iy ongning inson ruhiyatiga ta’sir izamonaviy yozuvchilarni o‘ylantirayotgan asosiy masalalardandir. Bu mavzuning badiiy talqini nafaqat texnologiya haqida, balki insonning mohiyati, erkinligi, axloqiy pozitsiyasi va o‘zligini anglash jarayoni haqidagi chuqur falsafiy o‘ylarni yuzaga keltiradi. Adabiyot texnologiyaga shunchaki munosabat bildirmaydi – u insonning kelajagini, ma’naviy istiqbolini, ruhiy barqarorligini o‘rganadi. Shu bois sun’iy ong va inson mavzusi o‘zbek adabiyotida yanada kengayib borishi tabiiydir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. U.Hamdamov, A.Qosimov. Jahon adabiyoti. (o‘quv qo‘llanma). – T.: «Barkamol fayz media», 2017, 352-bet.

2. To‘xta Boboyev. “Adabiyotshunoslik asoslari”. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2001.

3. Karimov B. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

4. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010.

5. Yo‘ldoshev Q. Adabiy jarayon va talqin. – Toshkent: Fan, 2018.

6. Nazarov B. Adabiy tafakkur va zamonaviylik. – Toshkent: Akademnashr, 2021.

7. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.

8. Mardonova Lobar Umaraliyevna, & Xonimova Maryam. (2024). BUYUK ZAMONDOSHLAR, MANGU YASHAGAY. *PEDAGOGS*, *57*(1), 132–138.

Nafisa XOLMANOVA,
Namangan davlat universiteti magistranti
E-mail: nefise11182@gmail.com

INGLIZ VA O‘ZBEK ADABIYOTIDA YETIMLIK MOTIVI
(Ch. Dikkens, X. To‘xtaboyev VA G‘. G‘ulom asarlari misolida)

Annotatsiya: ushbu maqolada ingliz va o‘zbek adabiyotida yetimlik motivining Charlz Dikkens, G‘afur G‘ulom, Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari orqali badiiy talqini qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda yetimlik nafaqat ijtimoiy holat, balki xarakterning o‘ziga xosligi va dunyoqarashini shakllantiruvchi psixologik omil sifatida ham ko‘rib chiqiladi. Qiyosiy-tipologik usuldan foydalangan holda tadqiqotda Oliver Tvist, Shum bola (Qoravoy), Orif kabi yetim obrazlar timsolida ham o‘xshashlik, ham farqlar yoritilgan. Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, Dikkens ijtimoiy adolatsizlik va tizimli shafqatsizlikka urg‘u bergan bo‘lsa, o‘zbek yozuvchilari ko‘proq jamoaviy yordam, ma’naviy kuch va chidamlilikka e’tibor qaratadilar.

Kalit so‘zlar: *yetimlik motivi, qiyosiy adabiyot, Viktoriya davri, o‘zbek bolalar adabiyoti, ijtimoiy adolatsizlik, psixologizm, adabiy obraz.*

Annotation: this article presents a comparative analysis of the artistic interpretation of the orphan motif in English and Uzbek literature through the works of Charles Dickens, Gafur Ghulom, and Khudoyberdi Tokhtaboyev. The study considers orphanhood not only as a social condition, but also as a psychological factor that shapes the character’s identity and worldview. Using the comparative-typological method, the study highlights both similarities and differences in the image of orphan characters such as Oliver Twist, Shum Bola (Qaravoy), and Orif. The findings show that while Dickens emphasized social injustice and systemic cruelty, Uzbek writers focus more on collective support, spiritual strength, and resilience.

Key words: *orphan motif, comparative literature, Victorian era, Uzbek children’s literature, social injustice, psychologism, literary image.*

Аннотация: в данной статье представлен сравнительный анализ художественной интерпретации мотива сиротства в английской и узбекской литературе на примере произведений Чарльза Диккенса, Гафура Гулома и Худойберди Тохтабойева. Исследование рассматривает сиротство не только как социальное условие, но и как психологический фактор, формирующий личность и мировоззрение персонажа. Используя сравнительно-типологический метод, исследование выявляет как сходства, так и различия в образах сирот, таких как Оливер Твист, Шум Бола (Каравой) и Ориф. Результаты показывают, что, в то время как Диккенс акцентировал внимание на социальной несправедливости и системной жестокости, узбекские писатели больше сосредотачиваются на коллективной поддержке, духовной силе и стойкости.

Ключевые слова: *мотив сиротства, сравнительное литературоведение, викторианская эпоха, узбекская детская литература, социальная несправедливость, психологизм, литературный образ.*

Kirish. Adabiyot inson psixologiyasining ham, ijtimoiy voqelikning ham in’ikosi bo‘lib xizmat qiladi [Abrams, 1999, pp.11-20]. Jahon adabiyotidagi eng doimiy mavzular qatorida ingliz va o‘zbek adabiy an’analarida ham ko‘zga ko‘ringan yetimlik motivi bor. Yetimlik nafaqat ota-onani yo‘qotish, balki ijtimoiy zaiflik, yolg‘izlik va o‘zini o‘zi anglash uchun kurashni ham anglatadi [Eagleton, 2008, p.58]. Ko‘pgina adabiy asarlarda yetim shaxs jamiyatning axloqiy va axloqiy holatining ko‘zgusi sifatida ishlaydi. Ingliz adabiyotida Charlez Dikkens bu motivni yorqin aks ettirgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida G‘afur G‘ulom va Xudoyberdi To‘xtaboyevlar madaniy jihatdan boy va o‘ziga xos talqinlarni taqdim etadilar. Ushbu maqolaning maqsadi ushbu adabiy an’analar bo‘ylab yetimlikning namoyon bo‘lishidagi o‘xshashlik va farqlarni tahlil qilishdir.

Adabiyotlar tahlili.

Ushbu bo‘limda mavzuning nazariy asosi va boshqa tadqiqotchilarning fikrlari keltiriladi. Adabiyot inson psixologiyasi va ijtimoiy voqelikning ko‘zgusi sifatida xizmat qiladi. Yetimlik motivi jahon adabiyotidagi eng barqaror va ko‘p o‘rganilgan mavzulardan biridir. Nazariy jihatdan olganda, yetimlik nafaqat oilaviy yo‘qotish, balki ijtimoiy zaiflik va o‘zini anglash yo‘lidagi murakkab kurash jarayonidir. Tadqiqotchilar M.H. Abrams va Terry Eagleton asarlarida ta’kidlanganidek, adabiy qahramon obrazi jamiyatning axloqiy holatini aks ettiruvchi vositadir. Ingliz adabiyotida realizm va ijtimoiy tanqid Dikkens ijodida yetimlar obrazi orqali shakllangan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida G‘. G‘ulom va X. To‘xtaboyev asarlarida bu motiv milliy qadriyatlar bilan sug‘orilgan.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada qiyosiy-tipologik tahlil usulidan foydalanilgan. Tadqiqot obyekti sifatida ingliz adabiyotidan Ch. Dikkensning “Oliver Tvist” va “Devid Kopperfild”, o‘zbek adabiyotidan G‘. G‘ulomning “Shum bola” hamda X. To‘xtaboyevning “Besh bolali yigitcha”, “Mungli ko‘zlar” asarlari tanlab olindi. Metodologiya yetimlik motivini ham ijtimoiy holat, ham qahramon dunyoqarashini shakllantiruvchi psixologik omil sifatida ko‘rib chiqishga asoslanadi.

Natijalar va tahlillar.

Ingliz adabiyotida, xususan, Charlez Dikkens asarlarida yetimlik motivi 19-asr realizmi va ijtimoiy tanqidi bilan chambarchas bog‘liq. Dikkens Viktoriya davrining og‘ir voqeliklarini, jumladan, bolalar mehnati, qashshoqlik va sinfiy tengsizlikni fosh qilish uchun yetim qahramonlardan foydalanadi. *“Oliver Tvist”* romanida mashhur *“Iltimos, ustoz, men yana bir oz olmoqchiman.”* satri nafaqat jismoniy ochlikni, balki chuqurroq hissiy va ijtimoiy mahrumlikni ham anglatadi [Dikkens, 1838, p. 95]. Oliver adolatsiz tizimga qarshi turgan kuchsiz bolani ifodalaydi. Xuddi shunday, *“Devid Kopperfild”* asarida bosh qahramonning] sayohati ruhiy o‘sishni va o‘zini o‘zi anglashni aks ettiruvchi *“Hayotimning bosh qahramoni aynan o‘zim bo‘lamanmi yoki bu o‘rinni boshqasi egallaydimi...”* iqtibosi yetimning o‘z taqdirini shakllantirish istagini tasvirlaydi [Dikkens, 1850, 120-140]. Dikkens yetimni faqatgina qurbon sifatida emas, balki tizimli zulmga qarshi kurashayotgan shaxs sifatida tasvirlaydi. Shunday qilib, Dikkens asarlarida yetimlik obrazi jamiyatdagi ijtimoiy adolatsizlik va axloqiy muvaffaqiyatsizlik ramzidir. Bundan farqli o‘laroq, o‘zbek adabiyoti yetimlikni jamiyat va jamoaviy yordam ko‘rinishida taqdim etadi. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” asarida bosh qahramon yetim bo‘lsa-da, jamiyatdan butunlay uzilishni boshdan kechirmaydi. Qahramon shunday deydi: “*Men ko‘chada bo‘lsa-da odamlar orasida o‘sganman, shuning uchun men hech qachon och qolmaganman.”* bu o‘zbeklarning yetimlarga mehr-shafqat ko‘rsatishning an’anaviy qadriyatini aks ettiradi [G‘.G‘ulom, 1969, p.22]. Dikkensning sovuqqon tizimli muhitidan farqli o‘laroq, G‘afur G‘ulomning dunyosi insoniy munosabatlar, hazil va chidamlilik bilan to‘la. Bundan tashqari o‘zbek yetim xarakterining optimistik dunyoqarashini tasvirlovchi quyidagi izoh: “*Dunyo to‘liq emas, men ham, lekin mening yuragim ochiq*.” qahramonning qiyinchiliklarga qaramay, optimistik dunyoqarashini ifoda etib, hayoti to‘liq bo‘lmasa-da, uning ruhi ochiq va bardoshli bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi. Qolaversa, G‘afur G‘ulom “Sen yetim emassan” she’rida yetimlikni shaxsiy fojiadan umuminsoniy tashvish darajasiga ko‘targan holda, mehr-oqibat va hamjihatlikka urg‘u beradi [G‘. G‘ulom, 1973, pp. 3-10].

Xudoyberdi To‘xtaboyev yetimlik motiviga ko‘proq psixologik-pedagogik yondashuvni kiritadi. Uning asarlari bolaning ichki rivojlanishi va mas’uliyat roliga qaratilgan. *“Besh bolali yigitcha”* asarida bosh qahramon Orif ota-onasidan ayrilgach, aka-ukalari uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga oladi [X.To‘xtaboyev, 1982, pp. 25-35]. Bu yerda yetimlik kamolotni tezlashtiradigan va xarakterni mustahkamlovchi kuchga aylanadi. *“Mungli ko‘zlar”* asarida ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ruhiy iztiroblari chuqur o‘rganiladi [X.To‘xtaboyev, 1985, pp. 33-50]. Muallif *“Ota-onasi bo‘lgan bolalarning ko‘zlari kulib turadi, bizniki esa qayg‘uga to‘la.»* izohi bilan shuni ko‘rsatadiki, ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar chuqur hissiy og‘riqni boshdan kechirishadi, bu ko‘pincha ularning qayg‘uli ifodalarida aks etadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlarida sarguzasht va realizm ko‘pincha uyg‘unlashib, jiddiy mavzularni yosh kitobxonlar uchun ochiq qilib, ma’naviy yuksalish va mustahkamlikni ta’kidlaydi.

Xulosa. Ingliz adabiyotida yetim obrazi asosan ijtimoiy tizimni isloh qilishga chaqiruvchi tanqid vositasidir. O‘zbek adabiyotida esa bu motiv insoniy hamjihatlik va ruhiy mustahkamlikni tarannum etadi. Har ikki adabiyotda ham yetimlik motivi empatiya, adolat va bolalikni himoya qilish kabi umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi. Ingliz va o‘zbek adabiyotida etimlik mavzusi turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, uchala muallifning ham umumiy tashvishi: bolalikni himoya qilish va mehr-oqibat zarurligi [Wellek&Warren, 1949, pp.120-135]. Charlez Dikkens ijtimoiy tizimlarning shafqatsizligini ta’kidlab, islohotlarga chaqiradi. G‘afur G‘ulom o‘zbek xalqining mehr-oqibati, hamjihatligini tarannum etadi. Xudoyberdi To‘xtaboyev yetim bolalarning psixologik o‘sishi va ma’naviy kuchini o‘rganadi. Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, ingliz adabiyotida yetim timsolidan ijtimoiy tanqid vositasi sifatida foydalanilgan bo‘lsa, o‘zbek adabiyotida insoniy qadriyatlar, chidamlilik va jamiyatni qo‘llab-quvvatlashga urg‘u berilgan. Madaniy farqlarga qaramay, motiv oxir-oqibat empatiya, adolat va insonparvarlik kabi umuminsoniy g‘oyalarni ilgari suradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Charles Dikkens. Oliver Twist. – London: Richard Bentley, 1838.
2. Charles Dikkens. *David Copperfield*. – London: Bradbury & Evans, 1850.
3. G‘afur G‘ulom. *Shum bola*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1969.
4. G‘afur G‘ulom. *Sen yetim emassan*. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1973.
5. Xudoyberdi To‘xtaboyev. *Besh bolali yigitcha*. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1982.
6. Xudoyberdi To‘xtaboyev. *Mungli ko‘zlar*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1985.
7. M. H. Abrams. *A Glossary of Literary Terms*. – Boston: Heinle & Heinle, 1999.
8. René Wellek, Austin Warren. *Theory of Literature*. - New York: Harcourt, 1949.
9. S. Nurg‘aliyev. *O‘zbek bolalar adabiyoti tarixi*. - Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
10. Terry Eagleton. *Literary Theory: An Introduction*. - Oxford: Blackwell, 2008.

Nafisa ESHNAZAROVA,
Navoiy davlat universiteti
Tillar fakulteti Lingvistika yo‘nalishi magistranti



BADIIY ASARDA DIALEKTAL BIRLIKLAR TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqola Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asaridagi dialektal birliklarni ajratish va ularni lisoniy tahlil qilish masalalariga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi – asardagi turkiy qabilalar nutqiga xos fonetik, leksik va morfologik farqlarni aniqlash hamda ularning badiiy matn tarkibidagi vazifasini yoritib berishdir. Tadqiqot metodlari sifatida qiyosiy-tarixiy, tavsifiy va distributiv tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, asarda o‘g‘uz, qipchoq va chigil shevalari o‘rtasidagi farqlar nafaqat lug‘aviy qatlamda, balki fe’l zamonlari va kelishik qo‘shimchalari kabi morfologik sathlarda ham tizimli ravishda namoyon bo‘ladi. Xulosa sifatida qayd etildiki, Koshg‘ariy tomonidan keltirilgan dialektal markerlar hozirgi turkiy tillar klassifikatsiyasi uchun fundamental asos bo‘lib xizmat qiladi va badiiy asar tilini individuallashtirishning ilk namunalarini namoyish etadi.

Kalit so‘zlar: *“Devonu lug‘atit turk”, Mahmud Koshg‘ariy, dialektal birliklar, o‘g‘uz shevasi, qipchoq shevasi, morfologik dialektizm, fonetik o‘zgarishlar, turkiy tillar, lisoniy tahlil, badiiy asar tili.*

Аннотация: данная статья посвящена вопросам выделения и лингвистического анализа диалектных единиц в произведении Махмуда Кашгари «Дивану лугат ит-турк». Цель исследования – выявление фонетических, лексических и морфологических различий, характерных для речи тюркских племен, и освещение их роли в художественном тексте. В качестве методов исследования использовались сравнительно-исторический, описательный методы и дистрибутивный анализ. Результаты исследования показывают, что различия между огузскими, кипчакскими и чигильскими диалектами проявляются не только в лексике, но и системно отражаются на морфологическом уровне (времена глагола, падежные окончания). В заключении отмечается, что диалектные маркеры, приведенные Кашгари, служат фундаментальной основой для современной классификации тюркских языков и представляют собой первые примеры индивидуализации языка художественного произведения.

Ключевые слова: ***“Дивану лугатит-турк”****, Махмуд Кашгари, диалектные единицы, огузский диалект, кипчакский диалект, морфологический диалектизм, фонетические изменения, тюркские языки, лингвистический анализ, язык художественного произведения.*

Annotation: this article is devoted to the identification and linguistic analysis of dialectal units in Mahmud Kashgari’s “Dīwān Lughāt al-Turk”. The purpose of the research is to identify phonetic, lexical, and morphological differences specific to the speech of Turkic tribes and to clarify their role within the literary context. Comparative-historical, descriptive, and distributive analysis methods were employed during the study. The research results indicate that differences between Oghuz, Kipchak, and Chigil dialects are systematically manifested not only in the vocabulary but also at morphological levels, such as verb tenses and case endings. It is concluded that the dialectal markers provided by Kashgari serve as a fundamental basis for the modern classification of Turkic languages and represent the earliest examples of individualizing the language of a literary work.

Key words: *“Dīwān Lughāt al-Turk”, Mahmud Kashgari, dialectal units, Oghuz dialect, Kipchak dialect, morphological dialecticism, phonetic changes, Turkic languages, linguistic analysis, language of literary work.*

Kirish. Turkiy xalqlarning qadimiy davlatchiligi va madaniy yuksalishi har doim til masalalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib kelgan. Yangi O‘zbekiston sharoitida milliy o‘zlikni anglash va ona tilimizning tarixiy ildizlarini fundamental tadqiq etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zlikni anglash va mustaqil davlatchilik timsoli, bebaho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir”[1]. Ushbu siyosiy-ma’naviy paradigma nuqtayi nazaridan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarini dialektologik jihatdan qayta tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda aniqlangan muammolar. XI asr til manzarasi aks etgan ushbu asarda dialektal birliklar shunchaki lug‘aviy boylik emas, balki turkiy qabilalarning lisoniy chegaralarini belgilovchi asosiy vositadir. Biroq mavjud tadqiqotlarda asardagi dialektal farqlar ko‘proq umumiy-qiyosiy planda o‘rganilgan bo‘lib, konkret shevalarning (masalan, o‘g‘uz, qipchoq, chigil) badiiy-lisoniy kontekstdagi o‘rni va ularni ajratishning metodologik prinsiplari yetarlicha tizimlashtirilmagan.

O‘rganilmagan muammolar. “Devonu lug‘atit turk”dagi maqollar va she’riy parchalarda qo‘llanilgan dialektizmlarning

1 Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. 2020-yil, 21-oktyabr.

pragmatik xususiyatlari, shuningdek, muayyan so‘zlarning turli qabilalar nutqida semantik transformatsiyaga uchrashi masalasi hamon maxsus tadqiqot obyekti sifatida ochiq qolmoqda. Badiiy matn ichida dialektal so‘zlarning uslubiy vazifasini aniqlash metodikasi mukammallikni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi. “Devonu lug‘atit turk” asaridagi dialektal birliklarni ajratib olish va ularning badiiy-estetik hamda lisoniy funksiyalarini zamonaviy tilshunoslik metodlari asosida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– Asardagi o‘g‘uz, qipchoq va boshqa turkiy qabilalarga xos dialektal xususiyatlarni aniqlash;

– Badiiy parchalar (tovushlar, she’rlar) tarkibidagi dialektizmlarning qo‘llanilish qonuniyatlarini ochib berish;

– Koshg‘ariy tomonidan berilgan dialektologik izohlarni hozirgi o‘zbek shevalari bilan qiyosiy o‘rganish;

– Dialektal birliklarning badiiy matn jozibasini ta’minlashdagi rolini ilmiy asoslash.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Turkiy dialektologiyaning tamal toshi hisoblangan “Devonu lug‘atit turk” asari jahon turkshunosligida fundamental o‘rin tutadi. Asardagi dialektal farqlarni tizimli o‘rganish bo‘yicha ilk jiddiy qadamlar akademik S.Mutallibov tomonidan qo‘yilgan bo‘lib, u Koshg‘ariy tasniflagan o‘g‘uz, qipchoq, arg‘u va chigil qabilalari tillaridagi fonetik va leksik tafovutlarni hozirgi o‘zbek tili shevalari bilan qiyoslagan[2]. Rossiyalik turkshunos V.V. Radlov esa asardagi dialektal birliklarni turkiy tillarning tarixiy taraqqiyot bosqichlari sifatida baholagan.

O‘zbek tilshunosligida G‘. Abdurahmonov va A. Rustamovlar asardagi morfologik dialektizmlarni, xususan, fe’l nisbatlari va zamon qo‘shimchalarining qabilalararo farqlanishini tadqiq etganlar[3]. Masalan, asarda qipchoq va o‘g‘uz shevalariga xos bo‘lgan v/y almashinishi (masalan, *tavush/tayuq*) kabi hodisalar bugungi kunda ham turkiy tillar tasnifida asosiy mezon bo‘lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, B.Atalay o‘zining ko‘p jildlik tadqiqotlarida asardagi “turk” va “turkman” (o‘g‘uz) lahjalari orasidagi lug‘aviy chegaralarni aniq belgilab bergan[4].

2 Mutallibov S.M. “Devonu lug‘atit turk” tarjimasi. 1-jild. – T.: Fan, 1960. 85-b.

3 Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1982. 42-b.

4 Atalay B. Divanü Lûgat-it-Türk Tercümesi. – Ankara: TDK, 1985. S. 124.

Metodlar.Ushbu tadqiqotda “Devonu lug‘atit turk” matnidan dialektal birliklarni ajratib olish va tahlil qilish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Qiyosiy-tarixiy metod. Bu metod orqali asardagi qadimiy dialektal shakllar hozirgi turkiy tillar bilan solishtirildi. Masalan, asarda keltirilgan o‘g‘uzcha “bardum” (bordim) shaklining qarluq-chigil guruhidagi “bardim” shakli bilan fonetik farqlanishi tarixiy kontekstda o‘rganildi.

2. Lisoniy tavsif metodi. Koshg‘ariyning dialektal izohlari tahlil qilindi. Muallif: *“O‘g‘uzlar va qipchoqlar ‘m’ harfini ‘b’ga almashtiradilar. Masalan, boshqalar ‘man’ (men) desa, ular ‘ban’ deydilar”* [5] deb ko‘rsatib o‘tgan lisoniy faktlar tavsifiy tahlilga tortildi.

3. Distributiv tahlil. Badiiy parchalarda (maqollar va she’rlarda) ma’lum bir dialektal birlikning qo‘llanilish muhiti o‘rganildi. Masalan, asardagi *“Erdam bashi dil”* (Fazilat boshi tildir) maqolida dialektal variantlarning leksik-semantik qo‘llanilishi ko‘rib chiqildi.

4. Dialektologik xaritalashtirish (rekonstruksiya). Koshg‘ariy asarida berilgan “yalangash” (yalang‘och) va “yalanguk” kabi variantlarning qaysi hududiy birliklarga (Masalan, Bolasog‘un, Qashqar, O‘zgan) tegishliligi asosida lisoniy xarita elementlari tiklandi.

Natijalar va muhokama. “Devonu lug‘atit turk” asarida dialektal birliklarni ajratishda Mahmud Koshg‘ariy tomonidan qo‘llanilgan “zujatun” (juftlik) va “lug‘atun” (sheva) atamalari asosiy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, asarda turkiy qabilalar o‘rtasidagi farqlar asosan, fonetik va leksik sathda namoyon bo‘ladi.

1. Fonetik dialektizmlar tahlili. Koshg‘ariy o‘g‘uz va qipchoq shevalarini boshqa turkiy lahjalardan ajratib turuvchi asosiy fonetik hodisalarni aniq misollar bilan ko‘rsatadi. Xususan, so‘z boshida *j/y* (yeylashuv) va *b/m* almashinishi eng ko‘p uchraydigan holatlardir.

Misol: “O‘g‘uzlar va qipchoqlar so‘z boshidagi “y” harfini “j” ga almashtiradilar. Boshqalar “yo‘l” desa, ular “jo‘l” deydilar” [6].

Ushbu fonetik o‘zgarishlarni quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin:

5 Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk (Indeks-lug‘at). – T.: G‘afur G‘ulom, 1967. 112-b.

6 Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. 1-jild. – T.: Fan, 1960. 67-b.

Dialektal hodisa	Chigil/Turk (Asosiy)	O‘g‘uz/Qipchoq	Ma’nosi
y ~ j almashishi	Yulduz	Julduz	Yulduz
y ~ j almashishi	Yalnguk	Jalnguk	Inson
m ~ b almashishi	Men	Ben	Men
m ~ b almashishi	Mung	Bung	G‘am, qayg‘u

2. Leksik-semantik farqlar va matniy tahlil. Asardagi badiiy parchalar va maqollarda muayyan so‘zlarning qo‘llanilishi qabila hududiga qarab farqlanadi. Koshg‘ariy bir tushunchani ifodalovchi turli so‘zlarni keltirar ekan, ularning “sof” yoki “buzilgan” (boshqa tillar ta’siridagi) sheva ekanligini qayd etadi.

Matniy tahlil (Maqollar misolida):

“Kishi alasi ichin, yilqi alasi dishin” (Inson olasi ichida, yilqi olasi tishida/tashqarisida)[7].

Bu yerda “ala” (ola/olalik) so‘zi barcha turkiy qabilalar uchun umumiy bo‘lsa-da, Koshg‘ariy ba’zi o‘rinlarda o‘g‘uzlar “ich” so‘zi o‘rniga o‘z shevalariga xos variantlarni qo‘llashini ta’kidlaydi.

7 O‘sha asar, 1-jild. 142-b.

“Qush qanatin, er atin” (Qush qanoti bilan, er/yigit oti bilan)[8].

Asarda “er” so‘zi chigil va uyg‘ur shevalarida “erkak kishi/yigit” ma’nosida kelsa, ba’zi o‘g‘uz shevalarida bu so‘zning fonetik varianti va ma’no ko‘lami torayishi kuzatiladi.

3. Morfologik dialektizmlar muhokamasi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, fe’l zamonlari va nisbatlarida ham jiddiy farqlar mavjud. Masalan, hozirgi zamon sifatdoshi yasovchi -gan/-gan qo‘shimchasi o‘rniga o‘g‘uz dialektida -asi/-asi shakli faol bo‘lgan.

Misol: *“O‘g‘uzlar “kelgan kishi” o‘rniga “kelasi kishi” (keladigan kishi) shaklini qo‘llaydilar”* [9].

O‘rin-payt va chiqish kelishiklari qo‘shimchalaridagi farqlar. Koshg‘ariy turkiy qabilalar o‘rtasida kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklarni alohida qayd etadi. Xususan, o‘g‘uz shevasida chiqish kelishigi (-dan/-dan) va o‘rin-payt kelishigi (-da/-da) ba’zan bir-birining o‘rnida yoki qisqargan holda qo‘llaniladi.

“O‘g‘uzlar va ularga yaqin bo‘lganlar ‘manda’ (mendan) deydilar. Boshqa turklar esa ‘mandin’ (mendan) shaklini qo‘llaydilar” [10].

Chigil/Turk (Asosiy): *Mandin* (Chiqish kelishigi shakli *n* bilan tugaydi).

O‘g‘uz: *Manda* (Chiqish ma’nosi o‘rin-payt kelishigi shakli orqali ifodalanadi).

Bu holat hozirgi o‘g‘uz lahjalarida (masalan, turkman va turk tillarida) hamon saqlanib qolgan bo‘lib, badiiy matnda qahramonning qaysi hudud vakili ekanini ko‘rsatuvchi muhim lisoniy marker hisoblanadi.

Kelasi zamon fe’li ko‘rsatkichlarining farqlanishi. Mahmud Koshg‘ariy “Devon”da kelasi zamon ma’nosini ifodalovchi qo‘shimchalarning qabilalararo taqsimlanishini juda aniq tasvirlaydi. Bu asarning she’riy namunalarida ham o‘z aksini topgan.

“Turklar (chigillar) ‘barurman’ (boraman/borurman) desa, o‘g‘uzlar ‘barasaman’ (borajakman/boraman) shaklini qo‘llaydilar” [11].

Chigil/Turk: -ur/-**ür** qo‘shimchasi orqali hozirgi-kelasi zamon ifodalanadi.

O‘g‘uz: -asa/-ase (hozirgi turk tilidagi *-acak/-ecek* ning qadimiy shakli) qo‘shimchasi qo‘llaniladi.

Koshg‘ariy bu haqida shunday yozadi: *“O‘g‘uzlar kelajakda qilinadigan ishni aytmoqchi bo‘lsalar, fe’l oxiriga ‘asa’ qo‘shimchasini qo‘shadilar”*. Bu morfologik farq badiiy asar tilida nutqning individuallashuvini ta’minlovchi eng kuchli vositadir.

Ushbu tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Devonu lug‘atit turk”dagi dialektal birliklar shunchaki tasodifiy farqlar emas, balki qat’iy qonuniyatga ega tizimdir. Koshg‘ariy nafaqat so‘zning o‘zini, balki uning sintaktik aloqaga kirishish usulini ham dialektal belgi sifatida ajratganini ko‘ramiz. Bu esa badiiy asar tilini tahlil qilishda dialektizmlarni shunchaki lug‘aviy birlik emas, balki grammatik ko‘rsatkich sifatida ham o‘rganish lozimligini isbotlaydi.

Xulosa. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari asosida badiiy va lisoniy matnlardagi dialektal birliklarni ajratish va tahlil qilish jarayonida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Sistemaviylik: asardagi dialektal birliklar tasodifiy lisoniy hodisa emas, balki XI asr turkiy qabilalarining (chigil, o‘g‘uz, qipchoq, arg‘u va b.) aniq fonetik, leksik va morfologik chegaralarini belgilovchi tizimli ko‘rsatkichlardir.

2. Fonetik qonuniyatlar: dialektal birliklarni ajratishda so‘z boshidagi *j/y* (yeylashuv) va *b/m* almashinishi (masalan, *men/ben*, *yulduz/julduz*) eng barqaror fonetik markerlar ekanligi isbotlandi.

3. Morfologik o‘ziga xoslik: kelasi zamon fe’l formalari (o‘g‘uzcha -asa va chigilcha -ur) hamda kelishik qo‘shimchalarining qo‘llanilishi orqali badiiy matnda personajlar tilini individuallashtirishning ilk tamoyillari Mahmud Koshg‘ariy tomonidan ilmiy asoslab berilgan.

4. Badiiy joziba: asardagi maqol va she’riy parchalarda dialektizmlar nafaqat ma’lumot berish, balki hududiy koloritni yaratish va turkiy tillarning boy lisoniy imkoniyatlarini namoyish etishga xizmat qilgan.

Amaliy takliflar:

– O‘quv jarayonida: “Devonu lug‘atit turk”dagi dialektal ma’lumotlardan oliy ta’lim muassasalarining “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” va “O‘zbek dialektologiyasi” fanlari uchun qo‘shimcha metodik manba sifatida foydalanish.

– Lug‘atchilikda: hozirgi o‘zbek shevalari lug‘atlarini tuzishda Koshg‘ariy keltirgan etimologik va dialektal izohlarni zamonaviy lingvistik sharhlar bilan boyitish.

– Raqamlashtirish: asardagi dialektal birliklarning elektron bazasini (interaktiv xaritasini) yaratish orqali turkiy tillar tarixini o‘rganishni optimallashtirish.

8 O‘sha asar, 1-jild. 156-b.
9 Koshg‘ariy M. Devonu lug‘atit turk (Indeks). – T.: G‘afur G‘ulom, 1967. 204-b.
10 Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. 2-jild. – T.: Fan, 1963. 48-b.
11 O‘sha asar, 2-jild. 115-b.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigi. 2020-yil, 21-oktyabr.
2.Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘atit turk. 1-3 jildlar. – T.: Fan, 1960–1963.
3.Mutallibov S.M. Morfologiya va leksika tarixidan. – T.: Fan, 1959.
4.Abdurahmonov G‘., Rustamov A. Qadimgi turkiy til. – T.: O‘qituvchi, 1982.
5.Atalay B. Divanü Lûgat-it-Türk Tercümesi. – Ankara: TDK, 1985.

Maftuna FAYZIYEVA,
QarDU 2- kurs magistranti
Munira NABIYEVA,
Ilmiy rahbar: QarDU dotsenti

NUTQ MADANIYATINING SHAKLLANISHIDA ORTOLOGIK ME'YORLARNING O'RNI

Annotatsiya: maqolada nutq madaniyati va uning shakllanishida ortologik me'yorlarning tutgan o'rni tahlil qilinadi. Til birliklaridan adabiy til qoidalariga muvofiq foydalanish nutqning aniqligi, ravonligi va tushunarliligini ta'minlashni yoritadi. Ortologik me'yorlarning jamiyatdagi muloqot jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: *nutq madaniyati, ortologik me'yor, muloqot madaniyati.*

Аннотация: в статье анализируется культура речи и роль ортологических норм в её формировании. Освещается, что использование языковых единиц в соответствии с нормами литературного языка обеспечивает точность, связность и понятность речи. Показано значение ортологических норм в совершенствовании процесса коммуникации в обществе.

Ключевые слова: культура речи, ортологическая норма, культура общения.

Annotation: the article examines speech culture and the role of orthological norms in its formation. It elucidates that the use of linguistic units in accordance with the norms of the literary language ensures precision, coherence, and clarity of speech. The significance of orthological norms in enhancing the process of communication in society is demonstrated.

Key words: *speech culture, orthological norm, communication culture.*

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlari bilan uzviy bog'liq. Unda til tizimi doirasida ifodaning qo'llanilishidagi to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik hamda ifodalilik uchun zaruriy bilimlar o'rganiladi. Jamiyatda nutq madaniyatining rivojlanishi kommunikatsiya sifatiga, ta'lim samaradorligiga va kishilar o'rtasidagi o'zaro fikr almashish darajasiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlarning keng tarqalishi raqamlashtirish jarayonida nutq madaniyatining rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Nutq odobi – nutq madaniyati haqidagi dastlabki ta'limot qadimgi Rim va Afinada shakllangan. Biroq ungacha notiqlik san'atining belgilari Misr, Assuriya, Vavilion va Hindisdon kabi davlatlarga mavjud bo'lgan. Jamiyat rivojlanishi, savdo aloqalarining kengayishi, boshqaruv tizimining barqarorlashuvi yuqori tabaqali insonlar orasida notiqlik mahoratining kuchayishiga olib kelgan. Mashhur notiq Sitsironning: "Tarixda yo yaxshi harbiy sarkarda, yo yaxshi notiq bo'lish kerak" degan jumlalarida notiqlik mahoratining davlat boshqaruvida yuqori o'ringa ega ekanligi isbotidir. Sitsironning bu fikrlarida notiqlik san'atining shakllanish bosqichlarida u sarkardalik mahorati bilan barobar holatda baholanganligini ko'ramiz. Qadimgi Grek va Rim notiqlari orasida Aristotel, Demosfen, Sitseron, Kvintilian kabi nazariyotchilar o'z davrida ritorika va notiqlik san'ati maktabini yaratdilar. Nutq madaniyati, notiqlik nazariyasining rijolanishiga Sitseronning "Notiqlik haqida", "Notiq" asarlari, M.F.Kvintilianning "Notiq bilimi haqida", Aristotelning "Ritorika" asarlari katta hissa qo'shgan. Ayniqsa, "Ritorika" asari bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Bu asarda notiqlik nazariyasi chuqur yoritiladi. Shu tarzda sekin-astalik bilan notiqlik san'ati shakllana boshladi.

Rossiya tarixida XVII-XVIII asrlarda rus notiqligi jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tuzilishi bilan uzviy bog'liqlikda shakllandi. Bu davrda notiqlik san'atining saroy notiqligi, diniy notiqlik, xalq notiqligi, harbiy notiqlik va diplomatik notiqlik kabi asosiy turlari vujudga keldi. Har bir yo'nalish o'z vazifasi va qatlami bilan bir-biridan ajralib turadi. Xususan, Petr I davrida notiqlik san'atining rivojlanishi sezilarli o'sdi. Uning davrida davlat boshqaruvi va harbiy sohada nutq madaniyatiga ehtiyoj ortdi va notiqlik jamiyat hayotida muhim ijtimoiy vositaga aylandi. Rus adabiy tilining me'yorlashtirishda va notiqlik san'atining shakllanishida

V.V.Lomonosovning ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega. U o'z asarlarida bu sohaning nazariy va amaliy jihatlarini uyg'unlashtirishga harakat qilgan. U o'zining "Nutq madaniyati bo'yicha qisqacha qo'llanma" kitobida shunday deydi : "Notiqlik – bu har qanday mavzu haqida chiroyli gapirish va shu orqali boshqalarni o'z fikriga og'dirish san'atidir".[1]

M.Koshg'ariy O'rta Osiyo madaniyati tarixida nutq madaniyatining shakllanishida katta hissa qo'shdi. U o'zining "Devoni lug'atit-turk" asarida nutq odobiga alohida e'tibor berish kerakligi, sodda, o'rinli va mazmunli

1 Краткое руководство к красноречию, книга перьвая, в которой содержится риторика показующая общия правила обоего красноречия, то есть оратории и поезии, сочиненная в пользу любящих словесныя науки Трудами Михайла Ломоносова Имп. Академии наук и Историческаго собрания члена, химии профессора / М. В. Ломоносов. – Санкт-Петербург : при Императорской Академии Наук, 1748. – 302, [1] с.

so‘zlash zarurligini ta’kidlaydi. Ezmalikni qoralaydi. Kattalar oldida nutq odobiga rioya qilishni va doimo rost gapirish kerakligi haqida uqtiradi.

Bundan tashqari, mutafakkirlarimiz orasida Beruniy “Geodeziya” asari, Kaykovusning “Qobusnoma”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbat ul-haqoyiq”, Abu Nasr Farobiy, A. Navoiy, Z.M.Bobur asarlarida nutq odobining inson kamolotidagi o‘rni beqiyos ekanligi ta’kidlangan.

Abu Nasr Farobiy to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va chiroyli nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati kattaligi haqida shunday deydi: “Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish(masalasiga) kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi jismlarga va hodislarga ism beruvchi til haqidagi ilmlar deb tasdiqlayman ” [2]

Yuqoridagi fikrlardan anglashiladiki, til va uning harakatdagi ifodasi – nutq kishilar orasidagi asosiy muloqot vazifasini o‘tashi va uning sifati ta’limning barcha bo‘g‘inlariga ta’siri haqida so‘z boradi. Narsa va tushunchalarning aniq nomlanishi fikrning ravonligi, aniqligi, mantiqan izchilligi va nutqning mazmundorligini ta’minlaydi.

Keyingi davrlarga nutq madaniyati tushunchasiga lingvistik jihatdan yondashish kuchaydi. Dastlab Praga lingvistik to‘garagi vakillari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar, XX asrga kelib rus va o‘zbek tilshunosligining asosiy masalasiga aylandi.

O‘zbek tilshunosligida bugunga qadar “nutq madaniyati”ga bir qancha ta’riflar berilgan. Jumladan, nutq madaniyati bu – bir tilda to‘g‘ri so‘zlash va yozish, fikrni sodda, aniq va ixcham ifodalash, tildagi tasviriy vositalardan o‘z o‘rnida foydalanishni bilish, nutqning barchaga tushunarli bo‘lishidir. Bu borada tilshunos olim E. Begmatov quyidagicha ta’riflaydi: “Bizning fikrimizcha, nutq madaniyati sohasi o‘z o‘rni va fandagi mavqeini to‘la egallashi uchun u nazariy jihatdan asoslangan bo‘lishi lozim. Birinchidan, bu tushunchaning til hodisasi va ilmiy muammo sifatida tarixi yoritilmog‘i lozim. Ikkinchidan, nutq madaniyati sohasini o‘rganuvchi asosiy obyekt bo‘lgan til hodisasi aniqlashi kerak. Uchinchidan, nutq madaniyatining ilmiy-tadqiqiy obyekti bilan bog‘liq muammolar belgilashi lozim. To‘rtinchidan esa, nutq madaniyatini o‘rganish aspektlari lisoniy va nolisoniy chegaralanishi zarur”. [3]

Olimning bu fikrlaridan anglashiladiki, nutq madaniyati mustaqil soha sifatida shakllanishi uchun nazariy asosga ega bo‘lishi, uning til hodisasi va ilmiy muammo sifatida yoritilishi kerak. Bundan tashqari, til hodisaning mohiyatini aniq belgilash uning muammolarini tizimli ravishda aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, nutq madaniyatini o‘rganishda lingvistik va ekstralingvistik jihatlarini o‘zaro farqlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Lingvistik tadqiqotlarda “til madaniyati” va “nutq madaniyati” tushunchalarining farqli belgilari mavjud bo‘lsa-da, ko‘pincha ular sinonim tarzda qo‘llaniladi. Til va nutq hodisalari alohida-alohida tushuncha bo‘lganligi uchun ularning madaniy jihatlari ham turlichadir. Til madaniyati tilning adabiylashgan ko‘rinishi bo‘lib, tilning lug‘at tarkibi, grammatik, semantik, uslubiy jihatdan rivojlanganligini ifodalaydi. Nutq madaniyati esa tilning bu imkoniyatlaridan o‘rinli , ta’sirchan va maqsadga muvofiq tarzdan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishni anglatadi. So‘zlovchi o‘z fikrlarining izchil, ravon va ta’sirchan bo‘lishi uchun nutq madaniyati sohasidan xabardor bo‘lishi kerak.

Bugungi kunga qadar nutq madaniyati tushunchasining lingvistik va ilmiy-amaliy mazmuni izchil belgilangan. Uning mohiyati, ilmiy atama sifatidagi ifodasi hamda boshqa til guruhlaridan farqi xususida turlicha fikrlar mavjud. Tilshunoslar “Til madaniyati” yoki “nutq madaniyati” terminlaridan qaysi birini qo‘llash maqbulroq ekanligi, “nutq odobi”va “so‘z odobi” birliklarining qo‘llanilish doirasi borasida bir fikrga kelishmagan. Bu kabi masalalar nutq madaniyatining nazariy asoslari chuqur o‘rganilganda o‘z yechimini topadi.

Tarixdan ma’lumki, to‘g‘ri, ta’sirchan, mantiqan asosli va estetik jihatdan mukammal nutq so‘zlash muhim qadriyat bo‘lib kelgan. Lekin adabiy til shakllangungacha bo‘lgan davrdagi nutq madaniyati, zamonaviy nutq madaniyatidan tubdan farq qilgan. Chunki bugungi kunga qadar adabiy tilning me’yoriy tizimi shakllanishi nutqning jozibali bo‘lishiga asosiy sababdir.

Adabiy til – xalq tilining, milliy tilning oliy shakli. Adabiy til xalq tili negizida yuzaga keladi. Adabiy tilning paydo bo‘lishi va uni yaratishdan maqsad umumxalq aloqa vositasini yaratishdir.[4] Tilshunos olimning bu fikrlaridan ko‘rinadiki, adabiy tilning asosiy vazifasi umumxalq miqyosida yagona aloqa vositasini ta’minlashdir. Rasmiy davlat tili maqomiga ega bo‘lgan adabiy til ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, madaniy hamda ma’rifiy sohalarda keng qo‘llaniladi. Adabiy tildan rasmiy hujjatlar, diplomatik munosabatlar, ommaviy axborot vositalari, ta’lim tizimi, ilmiy uslub va badiiy adabiyot tili sifatida foydalaniladi. Ko‘rinadiki, adabiy til jamiyat taraqqiyoti va madaniy merosni saqlash va avlodlarga yetkazish uchun muhim vositadir.

Adabiy til o‘zining boy lug‘at qatlami, mukammal grammatik qurilishi va rivojlangan uslubiy tarmoqlari bilan xalq tilining boshqa ko‘rinishlaridan farqlanadi. Me’yoriylik hodisasi adabiy til uchun asosiy belgi hisoblanib, u doimo me’yorlarning barqarorlashuviga harakat qiladi.

Adabiy tilni me’yorlashtirish tilning fonetik, leksik, uslubiy, lug‘aviy va grammatik vositalardan foydalanish

2 R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov: Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T., 2015 .7-bet

3 A.J.Omonturdiyev,SH.I.Abduraimova: O’zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.—T., 2016.7-bet

4 A.J.Omonturdiyev,SH.I.Abduraimova: O’zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.—T., 2016, 14-bet

jarayonida kommunikantlar orasida barqaror muloqotni ta’minlaydi. Bunday sifatlarga ega bo‘lgan nutq ravon va ommaga tushunarli bo‘ladi. Adabiy til – ma’lum qolipga solingan, me’yorlashtirilgan, umumxalq tilining qayta ishlangan shaklidir. Bunday til , o‘z navbatida , tilda so‘zlashuvchi kishilar orasida birdek tushunarli bo‘ladi. Tilshunoslikda “me’yor” va “ norma” tushunlari ko‘pincha sinonim sifatida qo‘llaniladi. Xususan , “ norma “ so‘ziga rus tilshunosligida quyidagicha ta’rif beriladi:

“Norma deyilganida bu shunchaki formal buyruq emas, balki uzoq tarixiy rivojlanish, madaniy tanlov va jamoat kelishuvi natijasi bo‘lib, qaysi nutq shakllari afzal, to‘g‘ri va mavjud an’anaga mos keladi, deb hisoblanishini bildiradi. Normalar eng muhim ijtimoiy vazifani bajaradi – ular adabiy tilning yaxlitligini saqlash va kommunikativ tizimning tartibsiz buzilishini oldini olishga imkon beruvchi namunaviy, ishlab chiqilgan til modellarini mustahkamlaydi”.[5]

Norma atamasi keng qamrovli bo‘lib, u nafaqat adabiy tilga oid bo‘lgan so‘zlarning ishlatilish mezonlarini, balki so‘zlashuv uslubiga xos hududiy dialektlarda so‘zlarning qo‘llanilishidagi me’yorni ham anglatishi mumkin. Bu holatda norma adabiy tilga xos atama sifatida emasligi yaqqol ko‘rinadi.

Rus tilshunosi L.P. Krisin me’yorning ilmiy adabiyotlarda qayd etilgan

talaffuz, yozuv va so‘z qo‘llanilishidagi umumiy qabul qilingan qoidalari majmui ekanligi haqida fikr yuritib, adabiy normaga quyidagicha ta’rif beradi: “Adabiy norma nafaqat an’ana, balki kodifikatsiya natijasi sifatida adabiy tilning birlik va barqarorligini ta’minlovchi aniq qat’iy tavsiyalar va taqiqdan iborat to‘plamdir”[6] Ko‘rinib turibdiki, adabiy me’yor adabiy tilda fonetik, leksik, grammatik va uslubiy qatlamlarning yagona mezonlarini belgilab beradi, tilning ichki uzviyligi, umumiy qabul qilinganligi va barqaror amal qilishini ta’minlaydi. *Adabiy norma tavsiyaviy va cheklovchi qoidalar majmuyi sifatida namoyon bo‘ladi, til birliklarining to‘g‘ri, maqsadga muvofiq va ijtimoiy maqbul qo‘llanishini tartibga soladi.*

Rus tilshunosi A.A.Yevtyugina o‘zining “ Русский язык и культура речи” qo‘llanmasida “Adabiy til me’yorlariga rioya qilish nutq madaniyatining dastlabki ko‘rinishidir” deb aytib o‘tadi. Ko‘rinadiki, adabiy til me’yorlariga amal qilgan holda tuzilgan nutq o‘zida to‘g‘rilik, ravonlik va ijtimoiy maqbullikni jamlaydi. Shuning uchun me’yorga amal qilish lingvistik talab bo‘lib qolmasdan, jamiyatda shakllangan kommunikativ madaniyatning muhim ko‘rsatkichi sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Til egasining muloqot vaziyatiga munosib ravishda fikrni ifodalash shaklini tanlay olishi nutq madaniyatining kommunikativ-pragmatik jihatidir. Bu holat tuzilayotgan bayonotning uslubi va janrini, og‘zaki yoki yozma shaklini to‘g‘ri tanlashni bildiradi. Bundan tashqari, kommunikantlar orasidagi muloqot maqsadli va ta’sirli bo‘lishi uchun nutqiy xulq-atvorning axloqiy me’yorlariga ham rioya qilish kerak.

E.N.Shiryaev ta’kidlashicha, muloqot samaradorligi nutq madaniyati nazariyasining amaliy qo‘llanilishi natijasida erishiladigan yakuniy mahsulotdir

Adabiy tilning og‘zaki shaklini shakllantirishda qiziqchilarning, xalq baxshilarining, latifago‘ylarning xizmati katta bo‘lsa, yozma shakli yozma adabiyotning o‘sishi natijasida rivojlanadi. Shuning uchun ham adabiy til me’yori, uning shakllanishi, rivojlanish qonun-qoidalari nutq madaniyati sohasining tekshirish obyektidir.

Nutq madaniyatining asosiy vazifasi adabiy til me’yorlarini o‘rganishdan iborat. U madaniyatli nutqning chegaralarini, aloqa vositalarini hamda amaliy yo‘nalishlarini aniqlash, shu bilan birga adabiy tilning me’yoriy tizimini baholash va nazorat qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan. Shu sababdan nutq madaniyati adabiy tilning rivojlanishiga ijtimoiy va madaniy ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatning har bir vakili o‘zining shaxsiy nutqiga ega. Ammo ularning barchasi mavjud bo‘lgan yagona tilda muloqot qilishadi. Til madaniyatini mukammal egallash unga chuqur muhabbat qo‘yishdan boshlanadi. Bu haqda tilshunos olim Q. Mo‘ydinovning quyidagi fikrlari fikrimizning yaqqol dalilidir:

“Adabiy til madaniyatini chuqur egallagan insongina nutq mudaniyatiga ega bo‘ladi. Til madaniyatini egallashda tilga bo‘lgan e’tibor, unga chinakam muhabbat va hurmat muhim rol o‘ynaydi. Adabiy til va uning me’yorlarini shunchaki qiziqish yoki u bilan nomigagina shug‘ullanish orqali egallab bo‘lmaydi”. [7]

“Nutq haqidagi ta’limot “ortologiya” deb ataladi. “Har qanday ta’limot – chuqur izlanishlar, uslubiy yo‘nalishlar, kommunikativ yondashuvlar rivojlanish va takomillashuv jarayonlarida yuzaga chiqadi. Ta’limotning ritorika – sifat, nutq madaniyati, muomala madaniyati, muloqot uslublari, notiqlik san’ati, badiiy so‘z, ifodali o‘qish, sahna nutqi kabi yo‘nalishlardan mavjudligi, ta’limot yaxlitligini saqlagan holda ularni alohida ajratib o‘rganishni ham taqozo etadi”.[8]

Ko‘rishimiz mumkinki, nutqning to‘g‘rilik sifati ortologiya sohasi bilan tutashadi. Ortologiya tilshunoslik sohasi sifatida tilning barcha tizimlarida to‘g‘ri me’yorni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jumladan, og‘zaki va yozma shaklga ega bo‘lgan nutq madaniyatida ham.

5 Научный журнал/Наука и мировоззрение/УДК-808.5/Русский язык и культура речи: современное состояние, тенденции и коммуникативные практики Ю.Хабибуллаева. М.Сейитгулыева

6 Крысин Л.П. Языковая норма и речевая практика // Отечественные записки. 2005. № 2 (23). Интернет-версия: http://www.strana oz.ru/2005/2/yazykovaya-norma-i rechevaya-praktika

7 R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov: Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T., 2015.15-bet

8 Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: http://sjifactor.com/passport.php?id=22257 /Nutq mahorati – ortologiya, ma’naviyat va ma’rifatning integrativ obyekti sifatida. Iroda Shoxitbekovna Axmedova maqola

Bunda nutqning faqat shakl jihatidan emas, balki ruhiy, estetik jihatdan ham to‘g‘ri tuzilganligi nazarda tutiladi. Bunday tarzda tuzilgan nutq adresantga to‘liq yetib boradi, ko‘zlangan maqsadni amalga oshiradi.

Ortologiya nutq madaniyatining bir negizi ekanligi haqidagi qarashlar bir qancha rus tilshunoslarining ham ilmiy ishlarida ko‘rinadi. Jumladan, A.G.Jukova, A.A.Yevtyugina, O.S.Axmanova, Y.A.Belchikov hamda V.V.Veselitskiylar kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan.

Garchi rus tilshunosligida ortologiya sohasining shakllanishi S.I.Ojekov nomi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, bu sohani alohida bo‘lim sifatida tadqiq qilgan olima A.G.Jukovadir. Olima o‘z ilmiy izlanishlarida ortologiya sohasini nazariy va amaliy jihatdan o‘rgandi. Shu o‘rinda nutq madaniyati va ortologiyaning uzviy bog‘liqligi haqida fikr yuritib, nutq madaniyatining murakkab soha ekanligini, nutq madaniyati bilan bog‘liq fanlarni rivojlantirish jamiyatda kommunikativ jarayonni mustahkamlashini ta’kidlab o‘tgan.

“Ortologiya” kursi nutq madaniyati fanlari majmuasining tarkibiy qismi siaftida ko‘riladi. Mazkur majmuaning dastlabki tuzilishi quyidagicha tasavvur etiladi: ortologiya-ritorika-stilistika (funksional stilistika va matn stilistikasi)- kommunikatsiya nazariyasi” [9] deb yozadi olima ilmiy ishlarining birida.

Bu fikrlardan anglashimiz mumkinki, ortologiya sohasi orqali til me’yorlari nazariy hamda amaliy jihatdan asoslab berilsa, ritorika (nutq madniyati) nutqning ta’sirchan va maqsadga muvofiqligini ta’minlaydi. Shu o‘rinda stilistika fani esa nutqning uslubiy jihatdan xususiyatlarini va turli funksional uslublardagi ifoda vositalarini tahlil qiladi. Kommunikatsiya nazariyasi muloqot jarayonining umumiy qonuniyatlari kommunikantlarning o‘zaro munosabati va muloqot jarayoni mexanizmlarini yoritadi. A.G.Jukova o‘z tadqiqot ishida “ortologiya nutq madaniyatining tarkibiy qismi sifatida kompleks va integrativ xususiyatga ega bo‘lgan mustaqil lingvistik fandir” deb ta’kidlaydi. Olimaning shu mavzu bo‘yicha olib borgan tadqiqotida ortologik tahlil til hodisalarining me’yoriylik jihatdan baholashning alohida turi ekanligi, uning tizimli tahlildan farq qilishi va o‘ziga xos parametr va bosqichlarga egaligi ilmiy jihatdan isbotlab beradi.

Keyingi davrlarda G.Y.Dronova ham nutq madaniyati, ham ortologiya bilan chambarchas bog‘liq amaliy ishni taqdim etgan. U ma’ruza janrida “nutqning ravshanligi” aloqa kategoriyasi sifatida alohida o‘ringa egaligi va bu o‘rin til me’yorlari bilan bevosita aloqadorligini asoslab bergan.[10]

Dronovaning ilmiy tadqiqotining asosiy maqsadi ma’ruza janridagi noaniqlikning oldini olish usullarini aniqlash edi. Olima aniqlikni muloqot jarayonida asosiy o‘rin sifatida belgilaydi, nutqda noaniqlikni yuzaga keltiradigan sabablarni aniqlab, ularni bartaraf etishning grammatik va leksik-semantik vositalarini ko‘rsatib beradi.

I.V.Berelya o‘z ilmiy izlanishlarida uslubiy me’yorlar va ulardan chetga chiqish holatlarini o‘rganadi. Uslubiy me’yorlarning zarurligi ortologiya sohasi bilan bog‘liqligi haqida to‘xtalib, bu haqida nazariy asoslar beradi. O‘z tadqiqotida bir necha uslubiy me’yor turlarini tafsiflaydi. Olima tadqiqotida :

“Umumadabiy me’yorlar nutqning umumiy adabiy to‘g‘riligini shakllantiradi va nazorat qiladi, xalq tilidagi vositalarning qo‘llanishini tartibga soladi, ularning adabiy nutqda qo‘llanishi mumkin yoki mumkin emasligini belgilaydi. Adabiy nutqda noliterar vositalardan foydalanishga o‘ziga xos taqiq o‘rnatadi” [11]

Berelyaning ilmiy tadqiqoti nutqiy xatolarni tizimli, ko‘p darajali tipologiya asosida o‘rganish va uslubiy me’yorlarga moslashgan yagona ilmiy yondashuvni ishlab chiqishga qaratiladi.

A.G.Krotova leksik me’yorlarni ortologik sathda alohida tahlil etdi. Olima tadqiqotining asosiy yangiligi shundaki, ilk marta leksik me’yor tushunchasi har tomonlama tadqiq qilindi, ya’ni uning xususiyatlari boshqa til me’yorlari bilan taqqoslandi, leksik me’yor tushunchasining mazmuni aniqlandi, leksik me’yor buzilishlarining turlari aniqlandi, me’yor turini o‘rganishda antroposentrik yondashuvdan foydalanildi. [12]

Krotovaning bu tadqiqoti rus tilidagi leksik normani ilmiy nuqtayi nazardan o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda leksik norma va leksik og‘ishlar tipologiyasi yaratilib, ularning kommunikativ jarayonga ta’siri baholangan. Bundan tashqari so‘zning me’yoriy ishlatilishi haqida tasavvurlar tekshirib, talabalar ongidagi leksik normaning o‘rni aniqlangan. Bu haqda olima shunday yozadi :

“Shuni ta’kidlash kerakki, odatda nutq madaniyatini egallash eksplitsit normani ko‘p marta yodlash orqali amalga oshiriladi. Bunday yondashuv ko‘pincha kutilgan natijaga olib kelmaydi, chunki u nutq-fikrlash va normaning psixologik tabiatini hisobga olmaydi va maxsus kognitiv tuzilmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan. Shu sababli, til egalarining ongida leksik normaga oid tasavvurlarni o‘rganish zarur, bu esa ularning til kompetensiyasi darajasini aniqlash orqali amalga oshirilishi mumkin”. [13]

9 Жукова А.Г. Ортология в теоретическом и прикладном рассмотрении: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2002. – 24 с.
10 Shirinova M. Ortologiya tadqiqi va uning tilshunoslikda tutgan o’rni. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. 2020. 1 (45). 106 - 113.
URL: https://www.ajhuman.uz/article/482708329973/abstract
11 Береля И.В. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 24 с.
12 Shirinova M. Ortologiya tadqiqi va uning tilshunoslikda tutgan o’rni. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. 2020. 1 (45). 106 - 113.
URL: https://www.ajhuman.uz/article/482708329973/abstract
13 Кротова А.Г. Лексическая норма и ее отражение в языковом сознании носителей языка: опыт экспе риментального исследования: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2011. – 23 с

Demak, Krotovaning yuqoridagi fikrlari kishilar grammatik qoidalarni o‘rganish orqali haqiqiy nutq madaniyatini to‘liq shakllantira olmasligini ko‘rsatadi. Sababi shundaki, bu usul insonning nutq va fikrlash jarayonini, normalarini ongli yoki bilvosita ishlatishdagi psixologik tabiatini hisobga olmasligini ko‘rsatadi, ya’ni faqatgina qoidalarni yodlash nutqni ichki tushunish va ongli ishlatishni o‘rgatmaydi. Shu o‘rinda olima til egalari ongida leksik norma haqidagi tasavvurlarni o‘rganish kerakligini va bu orqali ularning tilni qay darajada bilish va tushunish darajasini aniqlash mumkinligini ta’kidlaydi.

Rus tilshunosligida bo‘lgani kabi o‘zbek tilshunosligida ham so‘nggi yillarda nutq madaniyati va adabiy til me’yorlariga bag‘ishlangan bir qator ilmiy ishlar, metodik qo‘llanmalar ishlab chiqildi. Ushbu qo‘llanmalarning ko‘pchiligida adabiy til me’yorlari belgilash nutq madaniyati fanining asosiy o‘rganish predmeti ekanligi ta’kidlangan. Ularda nutq madaniyati tilning grammatik qoidalarini chuqur o‘rganish va ularni yod olish bilan chegaralanishni emas, balki ularni real kommunikatsiya vaziyatlarida to‘g‘ri va samarali qo‘llash asosiy o‘rin egallaydi. Shu bilan birga aksariyat o‘quv qo‘llanmalarda til me’yorlarining tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik sathlarda qanday amal qilishi grammatika tarkibida o‘rganilishi ham ko‘rishimiz mumkin. Lekin dunyo tilshunosligida til me’yorlarini alohida fan sifatida ajratib olib, “ortologiya” fani doirasida o‘qitilishi XIX asrda o‘z yechimini topgan. Jahon tilshunosligidagi tadqiqotlarda ko‘rinadiki, nutq madaniyati me’yoriy normalarga asoslangan murakkab jarayon bo‘lib, uning negizini ortologiya sohasi tashkil etadi. Lekin ortologiyani nutq madaniyatining tarkibiy qismi emas, balki mustaqil fan sifatida o‘rganamiz.

Zamonaviy ortologiya nazariyasi til hodisalarini tilning lingvistik xususiyatlarini, uning jamiyatdagi qo‘llanilishini va turli vazifalarini bajarishini bilan birgalikda baholaydi. Ortologik tahlilning asosini me’yoriylik hodisasi tashkil etgani sababli, lingvistik tahlil turlari ortologik tahlil bilan boyitiladi. Ortologik tahlil til hodisalarining me’yoriy muvofiqligini tekshirish jarayoni bo‘lib, turli xil birliklarni o‘rganishda faol qo‘llanilib, ortologiya fanining nazariy qonun-qoidalari asosida amalga oshiriladi

Ortologik me’yorlar nutq madaniyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Ortologik me’yorlar nutqning to‘g‘riligini aniqligini va ravonligini ta’minlaydi hamda adabiy tilning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Til madaniyatini yuksaltirish jarayonida ortologik me’yorlarni chuqur o‘rganish va ularga amal qilish bugungi kunning muhim dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Краткое руководство к красноречию, книга перьвая, в которой содержится риторика показующая общия правила обоего красноречия, то есть оратории и поезии, сочиненная в пользу любящих словесныя науки Трудами Михайла Ломоносова Имп. Академии наук и Историческаго собрания члена, химии профессора / М. В. Ломоносов. – Санкт-Петербург : при Императорской Академии Наук, 1748. – 302, [1] с.

2. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov: Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T.: 2015 ,B.7

3. A.J.Omonturdiyev,SH.I.Abduraimova: O’zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.—T: 2016, B.7

4. A.J.Omonturdiyev,SH.I.Abduraimova: O’zbek nutqi madaniyati va uslubiyati.—T: 2016, B.14

5. Научный журнал/Наука и мировоззрение/УДК-808.5/Русский язык и культура речи: современное состояние, тенденции и коммуникативные практики Ю.Хабибуллаева. М.Сейитгулыева

6. Крысин Л.П. Языковая норма и речевая практика // Отечественные записки. 2005. № 2 (23). Интернет-версия: http://www.strana oz.ru/2005/2/yazykovaya-norma-i rechevaya-praktika

7. R.Rasulov, Q.Mo‘ydinov: Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. –T.: 2015 ,B.15

8. Scientific Journal Impact Factor (SJIF 2022=5.016) Passport: http://sjifactor.com/passport.php?id=22257 /Nutq mahorati – ortologiya, ma’naviyat va ma’rifatning integrativ obyekti sifatida. Iroda Shoxitbekovna Axmedova maqola

9. Жукова А.Г. Ортология в теоретическом и прикладном рассмотрении: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2002. – 24 с.

10. Shirinova M. Ortologiya tadqiqi va uning tilshunoslikda tutgan o’rni. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. 2020. 1 (45). 106 - 113.
URL: https://www.ajhuman.uz/article/482708329973/abstract

11. Береля И.В. Многоуровневая системность стилистических норм и проблема типологизации речевых отклонений от них: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Краснодар, 2007. – 24 с.

12. Shirinova M. Ortologiya tadqiqi va uning tilshunoslikda tutgan o’rni. Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. 2020. 1 (45). 106 - 113.
URL: https://www.ajhuman.uz/article/482708329973/abstract

13. Кротова А.Г. Лексическая норма и ее отражение в языковом сознании носителей языка: опыт экспе риментального исследования: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Новосибирск, 2011. – 23с

Shohsanam YUSUPOVA,
Ilmiy rahbar: Ozoda ANORQULOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
1-bosqich magistranti

NUTQ KOMPETENSIYASI RIVOJIDA INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy asoslari hamda ularning o‘quvchilarda nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minlab, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va o‘z fikrini mantiqiy ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samarali yo‘llari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *interfaol metod, nutq kompetensiyasi, kommunikativ yondashuv, pedagogik texnologiya, interaktiv ta’lim, muloqot madaniyati*.

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations of using interactive methods in the educational process and their importance in developing students’ speech competence. Interactive methods ensure the active participation of students and contribute to the formation of independent thinking, communication skills, and the ability to express ideas logically. In addition, the article highlights effective ways of applying modern pedagogical technologies in the process of developing speech competence.

Keywords: *interactive methods, speech competence, communicative approach, pedagogical technology, interactive learning, communication culture.*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы использования интерактивных методов в образовательном процессе, а также их значение в развитии речевой компетенции учащихся. Интерактивные методы обеспечивают активное участие обучающихся и способствуют формированию самостоятельного мышления, коммуникативных навыков и умения логично выражать свои мысли. Кроме того, в статье освещаются эффективные способы применения современных педагогических технологий в процессе развития речевой компетенции.

Ключевые слова: *интерактивные методы, речевая компетенция, коммуникативный подход, педагогическая технология, интерактивное обучение, культура общения.*

Kirish. Bugunning dolzarb muammolaridan biri ta’lim tizimi sifatini yaxshilash va o‘quvchilarga sifatli ta’lim berish. Buning uchun pedogoglardan interfaol metodlardan unumli foydalanish, to‘g‘ri tanlov va o‘quvchilarda qiziqish uyg‘otish talab etiladi. Shu bilan birga, pedagog ko‘proq o‘z ustida ishlashi, yangi interfaol metodlarni izlab topishi asosiy masalalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

An’anaviy o‘qitish usullarida o‘quvchilar ko‘pincha passiv tinglovchi sifatida ishtirok etadi. Bunday sharoitda ularning nutqiy faolligi yetarli darajada rivojlanmaydi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar esa ta’lim jarayonini o‘quvchiga yo‘naltirilgan holda tashkil etishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga undash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Interfaol metodlar ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytiradi, o‘quvchilarning fikr almashish jarayonida faol ishtirok etishiga imkon yaratadi hamda nutq faoliyatini rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Shu sababli interfaol metodlarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi o‘rnini ilmiy jihatdan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish hamda o‘quvchilarda nutq kompetensiyasini rivojlantirish masalasi pedagogika fanida keng o‘rganilgan muhim ilmiy yo‘nalishlardan biridir.

Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlarning nazariy asoslari o‘zbekistonlik olimlar O. Tolipov va M. Usmonboyeva tomonidan keng yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida interfaol metodlarning ta’lim samaradorligini oshirishdagi o‘rni, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda o‘quv jarayonini faollashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

N. Sayidahmedov o‘z ilmiy ishlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy etish masalalarini tahlil qilib, interfaol metodlar o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirishda muhim vosita ekanligini ta’kidlaydi. Olimning fikriga ko‘ra, interfaol metodlar o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi hamda ularning

kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotchilar ham interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligini alohida ta'kidlaydilar. Jumladan, D. Johnson va R. Johnson hamkorlikda o'qitish metodlari o'quvchilarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini qayd etadilar. Ularning fikricha, guruhli faoliyatga asoslangan interfaol metodlar o'quvchilarning muloqot madaniyatini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. I. A. Zimnyaya esa kommunikativ kompetensiya tushunchasini pedagogik va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, nutq kompetensiyasi shaxsning ijtimoiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Olimaning tadqiqotlarida nutq faoliyati shaxs rivojlanishining muhim omili sifatida talqin qilinadi.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Interfaol metodlar deganda ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondashuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

– ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;

– ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;

– ilgari orttirilgan bilimlarning ham e'tiborga olinishi;

– ta'lim jarayoni ta'lim oluvchining maqsad va ehtiyojlariga muvofiqlashtirilishi;

– ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;

– amalda bajarish orqali o'rganilishi;

– ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Shunday qilib, fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'ziga xos xususiyatga ega.

Kompetensiya – bu kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat belgisidir. U bilim mahsuli bo'lib, mutaxassis tomonidan uni amaliyotda qo'llay olish qobiliyatidir.

Kompetensiyaning bilimdan farqi shundaki, vazifani amaliy bajarmasdan turib, uni aniqlab ham, baholab ham bo'lmaydi. Malaka kompetentlikning muhim mezoni bo'lib, u turli holatlarda, shu qatori muammoli vaziyatlarda ham bir necha bor qo'llash natijasida namoyon bo'ladi [5].

Zamonaviy yondashuvlar o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zaro integratsiyalash orqali o'quvchilarda tayanch va fanga oid xususiy kompetensiyalarni shakllantirishni nazarda tutadi.Ma'lumki, o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar ikki turga ajratiladi: tayanch va fanga oid kompetensiyalar. Ayrim manbalarda esa kompetensiyalarning quyidagi 3 turi tasniflangan:

1. tayanch kompetensiyalar;
2. umumiy (predmetli) kompetensiyalar;
3. xususiy kompetensiyalar.

O'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiya, faqat o'quv fani orqali shakllantiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ yondashuv hamda faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillari tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar ta'lim jarayonida o'quvchilarning faqat nazariy bilimlarni egallashini emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash, mustaqil fikrlash hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etish ko'nikmalarini rivojlantirishni nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotda interfaol metodlarning o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.

Tadqiqotning obyekti – ta'lim jarayonida o'quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Tadqiqotning predmeti esa interfaol metodlar asosida o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish jarayonidir. Tadqiqotning asosiy maqsadi interfaol metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini asoslashdan iborat.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Jumladan, pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish usuli orqali interfaol metodlar hamda nutq kompetensiyasi tushunchalarining nazariy asoslari o'rganildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida turli pedagogik yondashuvlarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi imkoniyatlari taqqoslab ko'rildi. Umumlashtirish usulida tadqiqot jarayonida olingan natijalar tizimlashtirib ilmiy xulosalar berildi.

Shuningdek, tadqiqot metodologiyasida o'quvchilarning nutq kompetensiyasini baholashda ularning nutqiy faolligi, fikrni mantiqiy va izchil bayon qilish qobiliyati hamda muloqot jarayonida faol ishtirok etish darajasi asosiy mezonlar sifatida e'tiborga olinadi. Ushbu metodologik yondashuvlar interfaol metodlarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishdagi o'rnini ilmiy jihatdan tahlil qilish imkonini yaratadi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot jarayonida ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutq kompetensiyasiga ta'siri tahlil qilindi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning nutqiy faolligi ortadi hamda ular muloqot jarayonida faolroq ishtirok etadilar. Pedagogik tadqiqotlarda ham interfaol metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ularning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qilishi ta'kidlangan.

Interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, “aqliy hujum”, “munozara”, “debat” kabi metodlar o‘quvchilarning fikrini erkin bayon qilish, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish hamda muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, interfaol ta’lim metodlari o‘quvchilarning nutq faoliyatini rivojlantirish bilan birga ularning tafakkur jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Psixologik tadqiqotlar nutq faoliyati va fikrlash jarayonlari o‘zaro chambarchas bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Shu sababli ta’lim jarayonida interfaol metodlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlab, ularning mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish hamda o‘z fikrini mantiqiy va asosli tarzda ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bunday metodlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, ularning so‘z boyligini kengaytiradi hamda muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Shuningdek, interfaol metodlar ta’lim jarayonida hamkorlik muhitini yaratib, o‘quvchilarning guruhda ishlash, muhokama qilish va o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Natijada o‘quvchilarning nutq kompetensiyasi bilan bir qatorda, ularning ijtimoiy va kommunikativ kompetensiyalari ham shakllanadi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib, quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

– Ta’lim jarayonida nutq kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan interfaol metodlar asosida maxsus metodik qo‘llanmalar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

– O‘qituvchilar uchun interfaol metodlardan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy treninglar va malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur.

– O‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida dars jarayonida munozara, debat, rolli o‘yin va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar ulushini oshirish tavsiya etiladi.

– Interfaol metodlardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun raqamli ta’lim vositalari va multimedia texnologiyalarini dars jarayoniga keng joriy etish muhim hisoblanadi.

– O‘quvchilarning nutq kompetensiyasini baholash uchun kommunikativ faoliyatga asoslangan baholash mezonlari ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

– O‘quvchilarning nutqiy faolligini oshirish uchun dars jarayonida kichik guruhlarda muhokama va taqdimot faoliyatiga asoslangan “mini-konferensiya” shaklidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish tavsiya etiladi. Bu usul o‘quvchilarning jamoa oldida nutq so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

– Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish uchun darsdan tashqari “nutq klublari” yoki “munozara to‘garaklari”ni tashkil etish ham samarali hisoblanadi. Bunday mashg‘ulotlar o‘quvchilarning erkin muloqot qilish va fikr almashish madaniyatini shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Avlayev O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. “Ta’lim metodlari” o‘quv-uslubiy qo‘llanma, “Navro‘z” nashriyoti, – Toshkent, 2017.

2. Amanova A.N. O‘zbekistondagi gen muhandisligi sohasining istiqbollari va mavzuni o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish. “Journal of Natural Science” №2(7) 2022-y.

3.Azizxo‘jaeva N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016.

4. Muslimov N. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent, 2016.

5. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf, 2000.

6. Passov E.I. Kommunikativ metodika. – Moskva, 2010.

7. Qodirov B. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent, 2018.

8. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – Toshkent, 2015.

9. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017

10. Zimnyaya I.A.Pedagogicheskaya psixologiya. – Moskva: Logos, 2014.

11. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T.: O‘qituvchi, 2004.

Malika VAISOVA,
ToshDO‘TAU magistranti

KASBIY NUTQNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Annotatsiya: mazkur maqolada sohaviy yo‘nalishlarda kasbiy nutqni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Kommunikativ, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida innovatsion pedagogik texnologiyalar samaradorligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *kasbiy nutq, kompetensiya, kommunikativ yondashuv, pedagogik texnologiya, interaktiv metod, raqamli ta’lim.*

Annotation: this article analyzes theoretical and practical aspects of developing professional speech in specialized education. It highlights communicative and competency-based approaches.

Key words: *professional speech, competence, communicative approach, pedagogical technology.*

Аннотация: в статье анализируются теоретические и практические аспекты развития профессиональной речи студентов.

Ключевые слова: *профессиональная речь, компетенция, коммуникативный подход.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlanib, mutaxassisdan yuqori darajadagi kommunikativ tayyorgarlikni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, sohaviy yo‘nalishlarda kasbiy nutqni rivojlantirish muammosi dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Kasbiy nutq — bu mutaxassisning o‘z faoliyati doirasida aniq, mantiqiy va samarali muloqot olib borish qobiliyatidir[1]. Ushbu ko‘nikma professional faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda kasbiy nutqni shakllantirish kommunikativ kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi[2]. Xususan, D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, tilni bilish uning amaliy qo‘llanilishi bilan uzviy bog‘liq[3].

Shunga qaramay, amaliyotda sohaviy yo‘nalishlarda nutqni rivojlantirish ko‘pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Metodologiya

Tadqiqot metodologiyasi kommunikativ, kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar integratsiyasiga asoslanadi.

Nazariy tahlil jarayonida quyidagi ilmiy manbalarga tayanildi:

- kommunikativ metodika (E.I. Passov)[4];
- kompetensiyaviy yondashuv (I.A. Zimnyaya)[5];
- zamonaviy til o‘qitish metodlari (Richards & Rodgers)[6].

Empirik tadqiqot doirasida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Unda talabalar ikki guruhga ajratildi:

- nazorat guruhi (an’anaviy metodlar);
- eksperimental guruh (innovatsion texnologiyalar).

Baholash mezonlari quyidagilar asosida belgilandi:

- nutqning aniqligi;
- terminologik to‘g‘rilik;
- kommunikativ moslik;
- mantiqiy izchillik.

Natijalar

Tajriba-sinov natijalari quyidagi ijobiy o‘zgarishlarni ko‘rsatdi:

1. **Nutqiy faollik oshishi** – eksperimental guruhda 30–35% o‘sish kuzatildi.
2. **Terminologik kompetensiya rivoji** – sohaga oid leksika to‘g‘ri qo‘llanishi sezilarli darajada yaxshilandi.
3. **Mustaqil fikrlash shakllanishi** – talabalar kasbiy vaziyatlarda erkin nutq yurita boshladi.

Bu natijalar kommunikativ yondashuv samaradorligini tasdiqlaydi[7].

Shuningdek, keys-stadi va rol o‘ynash metodlari

1 Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
2 Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012.
3 Hymes D. Communicative Competence. – 1972.
4 Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения. – Москва, 1991.
5 Зимняя И.А. Педагогическая психология. – Москва, 2004.
6 Richards J., Rodgers T. Approaches and Methods in Language Teaching. – Cambridge, 2014.
7 Леонтьев А.А. Психолингвистика. – Москва, 1999.

talabalarni real kasbiy kommunikatsiyaga yaqinlashtirdi. Bu esa faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi[7].

Muhokama

Olingan natijalar kasbiy nutqni rivojlantirish ko‘p komponentli jarayon ekanligini ko‘rsatdi.

Passovga ko‘ra, nutq faqat kommunikativ muhitda shakllanadi[8]. Shu sababli interaktiv metodlardan foydalanish zarur.

Zimnyaya kompetensiyani integrativ sifat sifatida baholab, uni faoliyat orqali rivojlantirish mumkinligini ta’kidlaydi[9].

Bundan tashqari, M.A.K. Halliday tilni ijtimoiy hodisa sifatida ko‘rib, uning funksional rolini alohida ta’kidlaydi[10].

8 Halliday M.A.K. Language as Social Semiotic. – 1978.
9 Brown H.D. Principles of Language Learning. – 2007.
10 Canale M., Swain M. Communicative Competence. – 1980.

Mazkur nazariy qarashlar tadqiqot natijalari bilan mos keladi va kasbiy nutqni rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko‘rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- kasbiy nutqni rivojlantirish sohaviy ta’limning ajralmas qismi hisoblanadi;
- kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlar eng samarali metod sifatida namoyon bo‘ladi;
- interaktiv metodlar nutqiy faollikni oshiradi;
- raqamli texnologiyalar ta’lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Kelgusida individual ta’lim texnologiyalari va sun’iy intellekt asosidagi platformalarni joriy etish istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010.
2. Zimnyaya I.A. Pedagogik psixologiya. – Moskva, 2004.
3. Richards J., Rodgers T. Methods in Language Teaching. Cambridge, 2014.
4. Passov E.I. Kommunikativ metodika. – Moskva, 1991.
5. Brown H.D. Principles of Language Learning. 2007.



Ruxshona TESHAYEVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyot yo‘nalishi 4.24-guruh talabasi



NUTQ BUZILISHLARI VA ULARNING TURLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada nutq buzilishlari tushunchasi, ularning kelib chiqish sabablari hamda asosiy turlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, nutq buzilishlarining bolalar rivojlanishiga ta’siri va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida fikr yuritilgan.
Kalit so‘zlar: *nutq buzilishi, dislaliya, rinolaliya, nutq tempining buzilishi, bolalar rivojlanishiga ta’siri.*
Аннотация: в данной статье освещаются понятие речевых нарушений причины их возникновения а также их основные виды с научно-теоретической точки зрения Также рассматривается влияние речевых нарушений на развитие детей и пути их коррекции
Ключевые слова: *речевые нарушения, дислалия, ринолалия, нарушение темпа речи, влияние на развитие детей.*
Annotation: this article discusses the concept of speech disorders, their causes and main types from a scientific and theoretical perspective. It also examines the impact of speech diosrders on children’s development and suggests ways to overcome them.
Key words: *speech disorders, dyslalia, rhinolalia, speech rate disorders, impact on child development.*

Nutq insonning asosiy aloqa vositasi bo‘lib, uning to‘g‘ri shakllanishi ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega. Nutq buzilishlari esa shaxsning muloqot qilishiga, bilim olishiga va jamiyatga moslashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli nutqdagi nuqsonlarni o‘rganish va ularni bartaraf etish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biridir.

Nutq buzilishi – bu nutq apparati yoki markaziy asab tizimidagi kamchiliklar natijasida nutqning noto‘g‘ri shakllanishidir. Bu buzilishlar tovush talaffuzi, so‘z boyligi, grammatik tuzilish yoki nutqning umumiy rivojlanishida namoyon bo‘lishi mumkin. Nutq buzilishlari tug‘ma yoki orttirilgan bo‘lishi mumkin. Ular biologik (miya shikastlanishi, eshitish muammolari) va ijtimoiy (tarbiya, muhit) omillar ta’sirida yuzaga keladi. Nutq buzilishlarining shakl va turlari haqidagi ilmiy asoslangan tasavvurlar shu buzilishlarni bartaraf etishning samarali usullarini ishlab chiqish uchun dastlabki shart hisoblanadi. “Tadqiqotchilar logopediya fani taraqqiyotining barcha tarixiy davrida ko‘pgina turlarga ega bo‘lgan nutq buzilishlarini tasniflashga harakat qildilar. Lekin hozirgi davrda ham tasniflash muammosi nafaqat logopediyaning, balki nutqiy faoliyat buzilishlarini o‘rganadigan boshqa ilmiy fanlarning ham muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda” [Ayupova, 48]. Nutq buzilishlarini tasniflashning murakkabligi ayrim sabablar bilan bog‘langandir, ular orasida nutq mexanizmining o‘zi yetarlicha o‘rganilmaganligi, shuningdek, tadqiqotchilarning tamoyillar masalasidagi nuqtayi nazarlarining mos kelmasligi yetakchi o‘rinni egallaydi, tasniflash esa yuqoridagi tamoyillar asosiga qurilishi lozim. A.Kussmual tasnifi dastlabki tasniflardan biri bo‘lib, u nutq buzilishlarning turlari haqidagi avval yog‘ilgan tasavvurlarni tanqid ostiga oladi, ularni sistemalashtiradi, atamalarini tartibga keltiradi [Kussmual, 1877]. Bolalardagi nutq buzilishlarini tahlil qilishning bu yangi tamoyillari “R.Y.Levina tomonidan ifodalangan edi. Uning bu ishlari logopediya fanining yangi bobi – bolalar logopediyasiga asos soldi. Bolalar logopediyasi pedagogika fanida o‘z tadqiqot predmetiga ega bo‘lgan mustaqil bo‘limiga aylandi” [Levina, 23].

Dislaliya – bu nutq tovushlarini talaffuz qilishning buzilishi bo‘lib, unda eshitish qobiliyati va markaziy nerv tizimi asosan saqlangan holda artikulyatsion apparat faoliyatida kamchiliklar kuzatiladi. Ushbu hodisa Logopediya fanida eng ko‘p uchraydigan nutq nuqsonlaridan biri sifatida o‘rganiladi. Noto‘g‘ri talaffuz nutq kamchiligi haqidagi birinchi ma’lumotlar qadimgi grek olimlari Plutarx, Gippokrat, Kladiya, Galen va boshqalarning ishlarida bayon qilinadi. Yuqoridagi mualliflar noto‘g‘ri talaffuzni davolashni talab qiluvchi kasallik deb qaraydilar. Ularning fikricha, tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz qilish til, lab, qattiq va yumshoq tanglayning zararlanishi bilan bog‘liq deb ko‘rsatadilar [Ayupova, 81]. Dislaliyaning asosiy sabablari: funksional va mexanik sabablar. “A.Kussmual nutq buzilishlarni organik va funksional formalarga ajratiladi. Organik buzilishlarga A.Kussmual periferik nutq apparatining rivojlanishidagi kamchiliklarni kiritadi (mexanik dislaliya)” [Kussmual, 30]. Funksional dislaliyaga noto‘g‘ri nutqiy tarbiya va nutq apparatida mashqlarni, ya’ni harakatning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadigan nutq kamchiliklarini kiritadi.

Mexanik dislaliya periferik nutq apparatining organik buzilishi natijasidir. Til tagidagi etning kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo‘ladi. Bu kamchilik til harkatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo‘lishi tilning yuqori tomon ko‘tarilishiga imkon bermaydi. Mexanik dislaliya boshqa nutq buzilishlariga nisbatan o‘ziga xos xususiyatga ega: unda muammo asosan funksional

emas, balki anatomik asosga ega bo‘ladi. Ya’ni bola tovushni noto‘g‘ri talaffuz qilayotgani uning o‘rganmaganidan emas, balki artikulyatsion apparat imkoniyatlarining cheklanganligi bilan bog‘liq. Shu jihatdan mexanik dislaliyani faqat logopedik mashg‘ulotlar orqali bartaraf etish har doim ham yetarli bo‘lmaydi. Chunki, til osti payining qisqaligi yoki tishlarning noto‘g‘ri joylashuvi kabi omillar mavjud bo‘lsa, nutq organlari fiziologik jihatdan to‘g‘ri harakatni amalga oshirolmaydi. Demak, bu turdagi dislaliyada tibbiy va pedagogik yondashuv uyg‘unligi muhim hisoblanadi. “M.M.Alekseyeva ma’lumoti bo‘yicha 5 yoshli bolalarda sirg‘alovchi tovushlar (s,z,s) 17,3%, shovqinli tovushlar (sh,j) 60,4%, “r” tovushi 46,7%, “l” tovushi esa 7,2% tashkil etar ekan” [Alekseyeva, 73]

Funksional dislaliya nutq tizimining eng ko‘p uchraydigan, lekin korreksiyaga yaxshi bo‘ysunadigan buzilishlaridan biridir. Uning asosiy xususiyati, shundaki, artikulyatsion apparat anotomik jihatdan sog‘lom bo‘lsa-da, nutq mamlakatlari va fonematik jarayonlari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi. Shu sababli bu holatni ko‘proq funksional-psixolingvistik muammo sifatida baholash mumkin, bu yondashuv Logopediya va Psixolingvistika doirasida asoslanadi.

Rinolaliya (grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, rhinos – burun, lalia – nutq) nutq apparatining anatomik va fiziologik kamchiliklari sababli ovoz tembri va tovushlar talaffuzidagi buzilishdir. Rinolaliya odatda burun va og‘iz bo‘shliqlari o‘rtasidagi havo oqimi muvozanatining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lib, natijada nutqning burunlashgan yoki aksincha, yetarli rezonansga ega bo‘lmagan ko‘rinishi yuzaga keladi. Rinolaliya boshqa nutq buzilishlaridan farqli ravishda ko‘proq funksional emas, balki organik omillar bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, tanglay yoriqligi, yumshoq tanglay yetishmovchiligi yoki burun bo‘shlig‘i bilan bog‘liq patalogiyalar havo oqimining normal yo‘nalishini buzadi. Shu sababli nutqni to‘g‘ri shakllantirish uchun faqat logopedik mashqlar yetarli bo‘lmay, ko‘pincha tibbiy aralashuv ham zarur bo‘ladi. Yana bir muhim jihat – rinolaliya mavjud bo‘lgan shaxslarda nutqning tushunarliligi sezilarli darajada pasayadi, bu esa ijtimoiy muloqot va psixologik moslashuvga salbiy ta’siri ko‘rsatadi. Shu bois, bu buzilish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-psixologik muammo sifatida ham qaralishi kerak. N.I.Pirogov (1844), N.V. Voronsovskiy (1875), P. Subbotin (1895), (M.I.Paykin 1996) o‘zlarining ishlarida operativ tadbirlar ta’sirida tanglay razmeri qay darajada o‘zgarishi, tanglay razmerlarining qaysi ko‘rsatkichlari manqanlanishidagi logoterapiyaga yaxshi ta’sir ko‘rsatishi kabi masalalarni muhokama qilganlar.

Nutq tempining buzilishi – bu inson nutqining tezligi me’yoriy holatni og‘ishi bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab psixolingvistik va neyrofiziologik jarayondir. Nutq tempining buzilishi faqat tashqi belgi emas, balki ichki kognitiv jarayonlarning nomutanosibligini ko‘rsatadi. Masalan, nutqning haddan tashqari tezlashuvi ko‘pincha fikrlarning tez oqimi, lekin ularning yetarli darajada tartiblanmasligi bilan izohlanadi. Aksincha, nutqning sekinlashuvi esa fikrlash jarayonining funksional zaifliklar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Suningdek, nutq tempining buzilishi ko‘pincha boshqa nutq nuqsonlari bilan kompleks holda namoyon bo‘ladi. Bu esa uni alohida emas, balki tizimli yondashuv asosida o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli, bunday holatlarni korreksiyalashda logopedik mashqlar bilan birga psixologik va nevrologik yondashuvlarni uyg‘unlashtirish muhim deb hisoblanadi. “Og‘ir nutq buzilishlarida bolalarni ommaviy bolalar muassasalarida o‘qitish mumkin emas, shuning uchun og‘ir nutq buzilishi bo‘lgan bolalar uchun maxsus bolalar bog‘chalari va maktablari mavjud. Og‘ir nutq buzilishining asosiy belgisi – bu oddiy eshitish va buzilmas aql bilan og‘zaki aloqa vositalarining aniq cheklanishi. Bunday kasalliklardan aziyat chekadigan bolalarda nutq zaxirasi kam, ba’zilari esa umuman gapirmaydi. Bu holatda boshqalar bilan muloqot juda cheklangan. Ushbu bolalarning aksariyati ularga aytilgan nutqni tushinishga qodir bo‘lishiga qaramay, ularning o‘zlari boshqalar bilan og‘zaki muloqot qilish imkoniyatidan mahrum. Bu bolalarning jamoadagi qiyin pozitsiyasiga olib keladi, ular tengdoshlari bilan o‘yinlarda, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish imkoniyatidan to‘liq yoki qisman mahrum” [Mo‘minova, Qahramonova, 45]. Nutq tempining buzilishi – bu shaxsning umumiy psixik rivojlanishi va kommunikativ kompetensiyasiga ta’sir qiluvchi ko‘p qirrali hodisa bo‘lib, uni chuqur va kompleks o‘rganish ilmiy hamda amaliy jihatdan katta ahamiyatga ega.

Nutq buzilishlari insonning ijtimoiy hayotiga sezilarli ta’sir ko ‘rsatadi. Ularni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri yondashuv asosida bartaraf etish orqali shaxsning to‘laqonli rivojlanishini ta’minlash mumkin. Shu bois logopediya sohasi bugungi kunda dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Y. Logopediya. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – Toshkent: “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”, 2007.
2. Алексейева М.М. Речевое развитие дошкольников. – Москва: Академия, 2000.
3. Левина Р.Е. «Разграничение аномалий речевого развития у детей», Дефектология, 1975.
4. Y.Mo‘minova, M.Qahramonova. Logopediya terminallarining ruscha-o‘zbekcha izohli lug‘ati. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 1988.
5. Пайкин М. И. Логопедия. – Москва, Просвешсчениэ, 1996.
6. Subbotin P. Pedagogika va nutq rivoji masalalari. 1895.
7. Воронсовский Н. В. Нарушения речи и их преодоление. – Москва, 1985.

Muhlisaxon ILIMJONOVA,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistranti
ilimjonovamuxlisaxon@gmail.com



SALBIY MUNOSABAT IFODALOVCHI MUROJAAT BIRLIKLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada murojaat birliklarining nutq jarayonidagi o‘rni va ularning emotsional-ekspressiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, salbiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklarining badiiy matndagi vazifasi Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari misolida o‘rganiladi. Tahlil natijasida bunday birliklar qahramonlarning ruhiy kechinmalari, ichki ziddiyatlari va ijtimoiy munosabatlarini ochib berishda muhim badiiy vosita ekanligi aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *murojaat birligi, salbiy munosabat, nutq jarayoni, emotsional-ekspressiv vositalar, badiiy matn, stilistika, obraz.*

Annotation: this article analyzes the role of address units in the speech process and their emotional-expressive features. In particular, the function of address units expressing negative attitudes in a literary text is examined based on the example of Abdulla Qodiriy’s novel “O‘tkan kunlar”. The analysis shows that such units serve as an important artistic device in revealing the characters’ emotional experiences, inner conflicts, and social relations.

Key words: *address units, negative attitude, speech process, emotional-expressive means, literary text, stylistics, image.*

Аннотация: в данной статье анализируется роль обращений в речевом процессе и их эмоционально-экспрессивные особенности. В частности, на примере романа Абдуллы Кадыри «Откен кунлар» рассматривается функция обращений, выражающих отрицательное отношение в художественном тексте. В результате анализа установлено, что такие единицы являются важным художественным средством раскрытия внутреннего мира персонажей, их психологических переживаний и социальных отношений.

Ключевые слова: *обращения, отрицательное отношение, речевой процесс, эмоционально-экспрессивные средства, художественный текст, стилистика, образ.*

Kirish. Ma’lumki, murojaat shakli va u ifodalaydigan muayyan davr, ijtimoiy hayot va muhit mahsulidir. So‘zlovchi va tinglovchining jamiyatda qanday o‘rin egallashi, uning yoshi, jinsi, lavozimi, kasbi, mansabiga qarab murojaat shakllari o‘zgarib boradi. Shu bilan birga, murojaat shakli xalqning o‘zligini anglashi qay darajada ekanligini ko‘rsatuvchi mezonlardan biridir. Murojaat birliklari kundalik hayotimizda, nutq faoliyati, nutq jarayonida keng qo‘llaniladigan, o‘zaro aloqa-aralashuvga xizmat qiladigan, so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalaydigan, o‘zida turlicha konnotativ ma’nolarni, semantik “ohanglarni” tashiydigan o‘tkir ta’sirchan vositadir.

Murojaat birligi so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs, jonli va jonsiz predmetni ifodalashiga ko‘ra kuchli stilistik vosita sanaladi. Murojaat birliklari so‘zlovchining tinglovchiga munosabatini ifodalab baho xarakteristikasi bo‘yog‘i (ijobiy, salbiy, neytral, ko‘tarinkilik, tantana kabilar)ga ega bo‘ladi.

Asosiy qism. Murojaat birliklari nutqiy muloqot jarayonida, badiiy matnlarda keng ishlatilib, salbiy yoki ijobiy baho munosabatini ifodalashga xizmat qiladi. Murojaat birligining baho ifodalash, his-tuyg‘ular bayon eta olish ko‘lamining kengligi yozuvchilarga badiiy asarlarda ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Muloqot jarayonida salbiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklarini Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida tadqiq etsak, bu fikrning asosli ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

– Yaxshilig‘imizni unutdi, ***do‘ng‘iz!*** *O‘ttiz ikki tangani yaxshilab beraylik biz unga! Ozi bir oy o‘tmasdanmi,* ***andishasiz?!*** *– degan so‘zlar eshitila boshladi.*

*– Endi esing kirdimi, **o‘g‘ri?***

*– Ket, **to‘ng‘iz**, ket, tavba qilish zamoni o‘tdi, taqdiringga sen ham tan ber! – der edi xalq.*

“O‘tkan kunlar” asaridan olingan ushbu parcha xalqning hukmdor tomonidan solinayotgan og‘ir soliqlarga nisbatan keskin noroziligini ifodalaydi. Mazkur murojaat birliklari oddiy haqorat so‘zlari bo‘lib qolmay, balki ijtimoiy baho va hukm vazifasini bajaradi. Jumladan, “o‘g‘ri” orqali zolim shaxsning xalq mulkini talon-taroj qilgani, halollikdan yiroqligi qoralanadi. “Do‘ng‘iz” va “to‘ng‘iz” so‘zlari esa insonni nopoklik, ochko‘zlik va razillik timsoli sifatida tasvirlab, uni keskin kamsitish maqsadida ishlatilgan. “Andishasiz” murojaati orqali esa hukmdorning xalq dardiga befarqligi, uyatsizligi va adolatsizligi fosh etiladi.

Shuningdek, “tavba qilish zamoni o‘tdi”, “taqdiringga tan ber” kabi iboralar xalq sabrining tugaganini, endi ular zulmga nisbatan murosasiz munosabatda ekanini ko‘rsatadi. Bu ifodalar orqali jamiyatdagi keskinlik, ichki norozilik va adolat talabining kuchaygani yaqqol seziladi.

Ushbu salbiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari xalqning ichki kechinmalari va ijtimoiy noroziligini ochib berishda muhim badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

*– Man sani bu umid bilan boqib katta qilmag‘an edim… San bizning naslimizni ko‘tarish o‘rniga, yerga urib bulg‘ading. Biz sani Marg‘ilon andisiga bunchalik mukkasidan ketishingni o‘ylamag‘an edik, **adabsiz**… O‘zingga qolsa shu marg‘ilonliqni xotinga hisoblab ketaberar ekansan-da, **uyatsiz!***

Ushbu parchada qo‘llangan “adabsiz”, “uyatsiz” kabi murojaat birliklari salbiy emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lib, ular orqali O‘zbek oyimning g‘azabi, noroziligi va hafsalasi pir bo‘lgani yaqqol ifodalanadi. Ayniqsa, “naslimizni ko‘tarmoq o‘rniga…” kabi iboralar bilan birga kelishi bu tanbehning oddiy koyish emasligini, balki avlod sha’ni va oilaviy obro‘ bilan bog‘liq jiddiy ayblov ekanini ko‘rsatadi. Bu yerda murojaat birliklari orqali ona o‘z o‘g‘lining qarorini qabul qila olmayotgani, uni oilaning qadriyatlariga zid ish qilgan deb hisoblayotgani ochiladi. Marg‘ilondan kelin olish masalasi Otabekning shaxsiy tanlovi bo‘lsa-da, O‘zbek oyim nazarida bu – naslga putur yetkazuvchi, ijtimoiy me’yorlarga zid harakat sifatida talqin qilinadi.

Shu tariqa, ushbu parchada salbiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari oilaviy ziddiyatni keskinlashtiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi hamda qahramonlar o‘rtasidagi ruhiy qarama-qarshilikni chuqurroq ochib beradi.

*– Keling, keling, **devona!***

*– Bir kosa choylaring bormi, **xo‘vari?***

*– Voy xo‘varingni… **jinnilar**, voy esi yo‘q **xo‘varilar!** Qovog‘imni ber, **jinnilar!***

*– So‘raganingni ol, **jinni…** Oyim qishlog‘iga bek bo‘l, **tentak**; tilla jabduqliq ot min, **jinni…***

Ushbu parchalarda salbiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari masxara, kamsitish va istehzo ohangida qo‘llanadi. Matnda uchraydigan “devona”, “xo‘vari”, “jinnilar”, “tentak”, “jinni” kabi murojaatlar orqali so‘zlovchining suhbatdoshiga nisbatan hurmatsizligi va mensimaslik kayfiyati yaqqol seziladi.

Bu murojaat birliklari bevosita haqoratdan tashqari, kuchli kinoya va mazaxni ham o‘zida mujassam etadi. Xususan, “devona”, “jinni”, “tentak” kabi so‘zlar orqali aqlsizlik va befarosatlik ta’kidlanib, shaxsning ijtimoiy mavqeyi pasaytiriladi. “Xo‘vari” murojaati esa suhbatdoshni arzimas, e’tiborga loyiq bo‘lmagan kishi sifatida ko‘rsatishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu parchalardagi salbiy munosabat ifodalovchi so‘zlar orqali qahramonning xarakteri ham namoyon bo‘ladi.

*– Eh **xumsa,** – dedi yigit va ariqdan sakrab Sodiqning yoniga o‘tdi.*

Berilgan parchada “Eh xumsa” murojaat birligi orqali so‘zlovchining salbiy munosabati aniq ifodalangan. Bu yerda “xumsa” so‘zi oddiy murojaat emas, balki kamsitish, mensimaslik va istehzoni o‘zida mujassam etgan birlik sifatida qo‘llangan.

Mazkur murojaat birligi nutq egasining Sodiqqa nisbatan hurmatsizligi, ichki noroziligi yoki ustunlik hissini bildiradi. Ayniqsa, “Eh” undovi bilan birga kelishi bu salbiy kayfiyatni yanada kuchaytirib, gapga hissiy rang-baranglik beradi. Natijada murojaat nafaqat oddiy chaqiriq vazifasini bajaradi, balki kuchli emotsional baho yukini ham olib keladi.

Qutidor qizining maqsadiga tushunib ikki turli qo‘lni darrav payqab oldi:

*– **Vijdonsiz, iblis, imonsiz, kofir,** - deb qo‘ydi.*

Berilgan parchada Mirzakarim qutidorning nutqi orqali nihoyatda keskin va kuchli salbiy munosabat ifodalangan. “Vijdonsiz, iblis, imonsiz, kofir” kabi murojaat birliklari oddiy haqorat darajasidan ham yuqori bo‘lib, ular nafaqat shaxsni kamsitish, balki uning axloqiy va diniy qiyofasini butunlay inkor etishga xizmat qiladi.

Xususan, “vijdonsiz” so‘zi orqali Homidning insoniy fazilatlari yo‘qligi ta’kidlanadi; “iblis” esa uni yovuzlik

timsoliga tenglashtirib, qilgan ishining naqadar jirkanch ekanini kuchaytiradi. “imonsiz” va “kofir” kabi birliklar esa diniy nuqtayi nazardan keskin baho berib, qahramonning nafaqat ijtimoiy, balki ma’naviy jihatdan ham qoralanganini bildiradi.

Bu murojaat birliklarining ketma-ket va ohangdor tarzda qo‘llanishi Mirzakarim qutidorning ichki kechinmalari — g‘azab, nafrat, iztirob va adolat hissining kuchliligini aks ettiradi. Ayniqsa, vaziyatning jiddiyligi (ya’ni yolg‘on taloq xati yozilishi) bu keskin nutqni yanada asosli va ta’sirchan qiladi.

Otabek nihoyatsiz “bo‘lg‘ani yo‘q” dan zerikib qaradi:

*– **Aldamchi.***

*– Bu aldashlar – aldash emas, siz hali qarab turing, **qochqoq.***

Ushbu parchada qo‘llangan “aldamchi” va “qochqoq” so‘zlari bir qarashda salbiy ma’noga egadek ko‘rinadi. Chunki aldamchi so‘zi firibgar, qallob, yolg‘on-yashiq gaplarni ko‘p gapiruvchi kabi ma’nolarni ham bildiradi. Qochqoq so‘zi esa burchini ado etishdan o‘zini chetga olgan, bo‘yin tovlagan, qochgan (shaxs) deb izohlanadi. Lekin asarda “qochqoq” so‘zi Kumush tomonidan Otabekka aytilgan bo‘lib, u haqorat yoki kuchli salbiy munosabatni ifodalash maqsadida ishlatilmagan. Aksincha, bu murojaat shaxsiy norozilik va xafagarchilikni yumshoq, samimiy ohangda bildiradi. Kumush bu so‘zni Otabekning Toshkentga ketib, uni tashlab ketganligiga ishora qilib, hissiyotlarini ifodalash vositasi sifatida ishlatadi.

– Avvalo bu yerda qolishimg‘a sizdan boshqa hech bir qarshi kishi yo‘q. Zaynab sizning yoningizg‘a o‘tsa ham, biroq uning xohishini menga ahamiyati yo‘q.

*– Esing o‘zingdami, **bola?***

–O‘zimda, - dedi kulib, - man sizning qizingiz Kumush… Hozir Toshkandda o‘z erimnikida o‘lturubman…

*– Erim deb tuqqan onangdan kechasanmi, **yuzsiz?***

Yuqorida Kumush va onasi Oftob oyim o‘rtasidagi suhbat orqali salbiy munosabat yumshoq, ammo keskin ohangda ifodalangan. Kumushning onasiga aytgan “yuzsiz” murojaati ochiq haqorat sifatida emas, balki ichki norozilik, g‘azab va o‘zini himoya qilish kayfiyatini bildiradi. Bu yerda so‘zlovchi onasining talabiga qarshi turib, o‘z mustaqilligi va qarorini himoya qilmoqda.

Shuningdek, “sizdan boshqa hech bir qarshi kishi yo‘q” va “uning xohishini menga ahamiyati yo‘q” kabi iboralar Kumushning qat’iyligini, o‘z nuqtai nazariga sodiqligini ochib beradi. Natijada, murojaat birliklari nafaqat salbiy emotsiyani, balki qahramonning shaxsiy mustaqilligi, hissiy reaksiyasi va ichki ziddiyatini ham badiiy ravishda ifodalaydi.

*Men bu iblisona aldovga uchib, bu to‘g‘rida na senga va na Normuhammad qushbegiga og‘iz ochmadim va ularning Qo‘qonga fotiha uchun qo‘zg‘alishlaridan hech bir shubhalanmadim... **Eh, shaytonlar!***

Mazkur gap Yusufbek hoji tilidan aytilgan bo‘lib, “Eh, shaytonlar!” murojaati oddiy haqorat emas, balki chuqur ruhiy zarba va alam natijasida yuzaga kelgan salbiy munosabatni bildiradi. Yusufbek hoji avval ishongan, hatto shubhalanmagan edi. Keyin esa uning ishonchi aldov orqali poymol qilinganini anglab yetadi. Natijada “shaytonlar” deb murojaat qilishi — aldov qilganlarni makkor, vijdonsiz, yovuz insonlar sifatida baholashidir. “Eh” undovi esa uning ichki kechinmalarini ochadi: afsus, iztirob, g‘azab va nadomat birlashib ketgan. Shuning uchun bu murojaat birligi nafaqat salbiy munosabatni, balki insonning ishonchi sindirilgan paytdagi og‘riqli ruhiy holatini ham ifodalaydi.

Xulosa. Murojaat birliklari nutqda so‘zlovchining tinglovchiga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi muhim stilistik vositadir. Ular emotsional-ekspressiv ma’no yukiga ega bo‘lib, ijobiy yoki salbiy bahoni bildiradi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, salbiy munosabat ifodalovchi murojaat birliklari badiiy matnda qahramonlarning ruhiy holati, ichki ziddiyatlari hamda ijtimoiy noroziligini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bunday birliklar asarda obraz va xarakter yaratishda kuchli badiiy vosita sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyoqubova D. Undalmalar ruhiyatni ifodalovchi vosita sifatida. VOLUME 1, ISSUE 1, 2022.
2. Omonturdiyev A. O‘zbek nutqining evfemik asoslari. –T., 2000.
3. Shoqosimov A., Rasulov I., Qo‘ng‘urov R., Rustamov H. O‘zbek tili stilistikasi. –T., 1983.
4. Nazarova, N. Лингвистическое исследование антропонимов в лексической системе. Центр научных публикаций (выхди. Uz), 13(13). 2022.

Zarina HAZRATQULOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi 2-kurs magistri

SOMATIK BIRLIKLAR VOSITASIDA SHAKLLANGAN FRAZEOLOGIZMLAR LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilidagi somatik birliklar asosida shakllangan frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlari kompleks tarzda o‘rganiladi. Tadqiqotda somatik frazeologizmlarning semantik-struktur xususiyatlari, ularning metaforik tabiati, milliy mentalitet va madaniy kodlar bilan bog‘liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari somatik frazeologizmlar o‘zbek xalqining antropotsentrik tafakkurini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy qatlam ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *somatik birlik, frazeologizm, lingvomadaniyat, metafora, konsept, mentalitet, semantika.*

Аннотация: в данной статье всесторонне изучаются лингвокультурные характеристики фразеологизмов, сформированных на основе соматических единиц в узбекском языке. Анализируются семантико-структурные особенности соматических фразеологизмов, их метафорическая природа, связь с национальным менталитетом и культурными кодами. Результаты исследования показывают, что соматические фразеологизмы являются важным лингвокультурным пластом, отражающим антропоцентрическое мышление узбекского народа.

Ключевые слова: *соматическая единица, фразеологизм, лингвокультура, метафора, понятие, менталитет, семантика.*

Annotation: this article comprehensively studies the linguocultural characteristics of phraseologisms formed on the basis of somatic units in the Uzbek language. The study analyzes the semantic-structural characteristics of somatic phraseologisms, their metaphorical nature, their connection with national mentality and cultural codes. The results of the study show that somatic phraseologisms are an important linguocultural layer reflecting the anthropocentric thinking of the Uzbek people.

Key words: *somatic unit, phraseologism, linguoculture, metaphor, concept, mentality, semantics.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Aynan shu omil qadimiy ildizlarga ega bo‘lsa-da, XX asr oxirida mustaqil fan sifatida shakllangan lingvomadaniyat (лингвокултурология)ning yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Lingvomadaniyat frazeologizmlar, maqol va matallarning madaniy ma’nosi, milliy stereotiplar, nutq etiketi va madaniy ramzlar (ranglar, sonlar va obrazlar) ni o‘rganib, til orqali xalqning dunyoqarashi, milliy urf-odatlar, qadriyatlar, madaniy ma’no va ramzlarni tadqiq etadi.

O‘zbek tilidagi somatik frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishda ularning semantik va konseptual asoslarini ochib berishda somatik frazeologizmlarni tasniflash, ularning semantik xususiyatlarini aniqlash, lingvomadaniy mazmunini tahlil qilish, metaforik asoslarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Frazeologik birliklar – bu tilning eng obrazli, ekspressiv va madaniy jihatdan boy qatlamidir. Ular xalqning tarixiy tajribasi, dunyoqarashi, urf-odatlari va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. B.A.Larin frazeologizmlar xalqning dunyoqarashi, ijtimoiy qurilishi, o‘z davri idealogiyasini aks ettirishini yozganida haq edi. [1,59]

Somatik birliklar yoxud somatizmlar inson tana a’zolari (bosh, yurak, ko‘z, qo‘l, oyoq va boshqalar) nomlariga asoslangan til birliklari bo‘lib, bu termin fanga birinchi marta estoniyalik lingvist olim F.O.Vakk tomonidan kiritilgan. U “somatizmlar frazeologiyaning eng qadimiy qatlamlaridan biriga tegishli va har qanday til so‘z boyligining eng ko‘p ishlatiladigan qismini tashkil qiladi” degan fikrni olg‘a suradi. [2,23]

Somatik birliklar asosida shakllangan frazeologizmlarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish tavsifiy, semantik, kognitiv, qiyosiy metodlar asosida olib borildi:

1. **Tavsifiy metod** somatik frazemalarni inventarizatsiya qilish (to‘plash) va ularning tashqi (struktur) xususiyatlarini yoritish uchun xizmat qilad. Bunda dastlab frazeologik lug‘atdan tana a’zolari (bosh, ko‘z, qo‘l, oyoq, yurak va b.) qatnashgan frazemalar ajratib olinadi. Frazemalarning grammatik qurilishi (masalan: ot+fe’l, sifat+ot), qaysi a’zolar ko‘proq frazema hosil qilishi (miqdoriy tahlil) va ularning nutqdagi shakllari tavsiflanadi.

2. **Semantik tahlil metodi** frazemalarning ma’no qatlamlari (denotativ va konnotativ)ni, ko‘chma ma’no hosil qilish mexanizmlarini o‘rganadi. Somatizmning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosidan qanday qilib frazeologik (ko‘chma) ma’no kelib chiqqanligi (metafora, metonimiya)

tahlil qilinadi. Somatik frazemalarni semantik tahlil qilishda frazemaning lug‘aviy ma’nosi, sinonimiyasi, antonimiyasi va ko‘p ma’noliligini aniqlash muhim hisoblanadi.

3. **Qiyosiy metod.** Somatik frazemalarni turli tillar (masalan, o‘zbek va ingliz, rus yoki turk tillari) yoki turli davrlar kesimida solishtiradi. Bir xil tana a’zosi ishtirok etgan frazemalarning turli xalqlarda o‘xshash va farqli (milliy-madaniy) jihatlari aniqlanadi. Milliy o‘ziga xoslikni (ekvivalenti yo‘q frazemalarni) va universallikni (umuminsoniy tushunchalarni) ko‘rsatish.

Muhokama. Somatik frazeologizmlar o‘zbek tilining antropotsentrik tabiatini chuqur va tizimli ravishda namoyon etadi. Yuqorida keltirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, inson tanasi nafaqat nominativ birlik sifatida, balki bilish (kognitiv), baholash (aksiologik) va madaniy kodlash mexanizmi sifatida ham faol ishtirok etadi. Shuningdek somatik kod tushunchasi ham mavjud bo‘lib, bu tana a’zolarining ramziy funksiyalari alohida o‘rin tutadi. Shu jihatdan, somatik frazeologizmlar til tizimida insonni markazga qo‘yuvchi konseptual modelning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. [4.1753]

Birinchidan, **metaforik tafakkur** masalasiga chuqurroq e’tibor qaratilsa, somatik birliklar asosida shakllangan frazeologizmlar insonning abstrakt tushunchalarni konkret tana tajribasi orqali anglashini tasdiqlaydi. Masalan, *“yurak”* orqali his-tuyg‘ularni ifodalash yoki *“bosh”* orqali aqlni belgilash — bu oddiy lingvistik hodisa emas, balki konseptual metaforaning mahsulidir. Bu jarayonda inson o‘z tanasini “o‘lchov vositasi” sifatida ishlatadi.

Ikkinchidan, **milliy mentalitetning aks etishi** somatik frazeologizmlarda ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. O‘zbek tilida *“qo‘li ochiq”*, *“yuragi toza”*, *“yuz ko‘rmaslik”* kabi iboralar nafaqat individual sifatlarni, balki jamiyat tomonidan qabul qilingan axloqiy me’yorlarni ham ifodalaydi. Bu birliklar orqali jamiyatda ijobiy baholanuvchi sifatlar (saxiylik, poklik, kamtarlik) va salbiy baholanuvchi xatti-harakatlar (xiyonat, hurmatsizlik) kodlanadi.

Uchinchidan, **konseptual tizimning shakllanishi** nuqtayi nazaridan qaralganda, somatik frazeologizmlar muayyan semantik maydonlarni tashkil etadi. Masalan, “YURAK” konsepti faqat hissiyot bilan cheklanmay, jasorat (*“yurak yutmoq”*), samimiyat (*“yuragi pok”*), va hatto azob (*“yuragi ezilmoq”*) kabi turli semantik yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi.

Natijalar. Tadqiqot natijasida somatik frazeologizmlar quyidagi asosiy guruhlarga ajratildi:

1. Emotsional holatni ifodalovchi frazeologizmlar. Bu guruh insonning ichki kechinmalari (qayg‘urish, g‘azab, shodlik va boshqa)ni ifodalaydi: yuragi siqildi – qayg‘urdi, xavotirlanish; yuragi hapriqdi – hayajon, hayrat, shodlik; ko‘ngli ko‘tarildi – quvonch, xursandchilik kabi semalarni ifoda etadi. Ushbu frazemalarning lingvomadaniy xususiyatlari “yurak” va “ko‘ngil” konseptlarining o‘zbek madaniyatida ruhiy markaz sifatida talqin qilinishida namoyon bo‘ladi.

2. Intellektual faoliyatga oid frazeologizmlar. Boshi qotdi – tushunmaslik; miyasiga yetmadi – anglamaslik; boshida bor – aqli bor kabi. Ushbu turdagi frazeologizmlarda “Bosh” konsepti aql va tafakkur markazi sifatida qaraladi. “Bosh” konsepti lingvomadaniy jihatdan o‘zbek tilida juda ko‘p qatlamli va boy ma’noga ega tushunchalardan biridir. U nafaqat tana a’zosi, balki aql, rahbarlik, boshlanish va ijtimoiy mavqeni ham ifodalaydi.

3. Axloqiy baholovchi frazeologizmlar. Axloqiy baholovchi frazeologizmlar — inson xatti-harakati, fe’l-atvori va ichki sifatlariga ijobiy yoki salbiy baho beruvchi barqaror iboralardir: yuragi toza – poklik; qo‘li ochiq – saxiylik; ko‘zi tor – hasadgo‘ylik kabi. Bu iboralar xalqning axloqiy me’yorlarini aks ettiradi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi somatik frazeologizmlar tilning eng boy lingvomadaniy qatlamlaridan biridir. U antropotsentrik tafakkur mahsuli hisoblanib, o‘zida milliy mentalitet va qadriyatlarni aks ettiradi. Shu bilan birga ushbu frazeologizmlar metaforik va ekspressiv xususiyatlarni ham o‘zida namoyon etadi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, somatik frazeologizmlar orqali o‘zbek xalqining dunyoqarashi va madaniy tafakkurini chuqur anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qo‘ziyev U. “Lingvomadaniyatshunoslik” uslubiy qo‘llanma. – Namangan, 2021
2. Вакк Ф.О. Соматические фразеологии в современном эстонском литературном языке: Автореф. Дисс.канд. филол. наук. Таллин, 1964.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.
4. Ibragimova M. Somatik leksikaning xususiyatlari. Scientific progress 2021
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021
6. www.ziyonet.uz
7. www.arxiv.uz

Dilnoza TEMIROVA,
SamDU, Lingvistika:o‘zbek tili mutaxassisligi magistranti
e-mail: dilnozatemirova521@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA YUKLAMALASHAYOTGAN SO‘ZLAR

Annotatsiya: mazkur maqolada o‘zbek tilida yuklamalashish (partikulyatsiya) hodisasi va uning lisoniy tabiati tadqiq etiladi. Xususan, mustaqil so‘z turkumlarining, shuningdek yordamchi va oraliqdagi so‘zlarning kontekstual talab asosida nisbiy yuklamalarga aylanish jarayoni nazariy jihatdan misollar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *yuklamalashish (partikulyatsiya), nisbiy yuklama, mustaqil, yordamchi va oraliq so‘z turkumlari, kontekstual talab.*

Аннотация: в данной статье исследуется явление партикуляции (превращения в частицы) в узбекском языке и его лингвистическая природа. В частности, на основе примеров теоретически освещается процесс перехода самостоятельных частей речи, а также служебных и промежуточных слов в разряд относительных частиц под влиянием контекстуальных требований.

Ключевые слова: *партикуляция, относительная частица, самостоятельные, служебные и промежуточные части речи, контекстуальное требование.*

Annotation: this article examines the phenomenon of particle formation (particularization) in the Uzbek language and its linguistic nature. In particular, the process by which independent parts of speech, as well as auxiliary and intermediate words, transform into relative particles under contextual requirements is theoretically explained with illustrative examples.

Key words: *particle formation (particularization), relative particle, independent, auxiliary and intermediate parts of speech, contextual requirement.*

O‘zbek tilshunosligida so‘zlarning o‘z asosiy turkumidan ajralib, yordamchi so‘zlar (yuklama) qatoriga o‘tishi **partikulyatsiya (yuklamalashish)** hodisasi sifatida talqin qilinadi. Ushbu jarayonda ot, sifat, son, olmosh, ravish va hatto fe’l kabi mustaqil so‘z turkumlari, shuningdek, boshqa turdagi yordamchi birliklar ham kontekstual talab asosida yuklama vazifasini o‘z zimmasiga oladi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda, xususan, R. Sayfullayevaning tasniflarida bunday birliklar **“nisbiy yuklamalar”** yoki **“funksional yuklamalar”** terminlari bilan yuritilib, ular yuklamalarning tuzilishiga ko‘ra alohida bir turi sifatida e’tirof etiladi.[1; 267]

Nisbiy yuklamalarning o‘ziga xosligi shundaki, ular aslida mustaqil leksik ma’noga ega birliklar bo‘lsa-da, muayyan nutqiy vaziyatda o‘zining atash semasini vaqtincha yo‘qotadi. Bu jarayon bevosita matn va kontekstning pragmatik maqsadidan kelib chiqib amalga oshadi. Natijada, so‘z predmet yoki harakatni ifodalashdan ko‘ra, gapdagi ma’nolarni kuchaytirish, ta’kidlash va turlicha modal-ekspressiv bo‘yoqdorlik berishga xizmat qiladi.

Demak, ta’kidlashimiz mumkinki, til taraqqiyotining doimiyligi natijasida morfologik sathning so‘z turkumlari paradigmasidagi “yuklamalar” bo‘limi tarkibi ana shunday so‘zlar hisobidan boyib bormoqda. Quyida ba’zi so‘zlarning yuklama vazifasida kelish holatlarini ko‘rib chiqamiz.

ENDI so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ravish so‘z turkumi sifatida keltirilgan va ba’zi o‘rinlarda ushbu so‘zning yuklama vazifasida kelishi ta’kidlab o‘tilgan. ENDI **1** So‘z borayotgan paytda, hozir va undan keyingi vaqtni, harakat-hodisaning hozirgina yuz bergani yoki boshlangani, shuningdek davom etayotgan ketma-ketlikdagi so‘nggi yoki navbatdagi holatni ifodalaydi: ***Endi*** *jiyani panoh istab borsa, qanoti tagiga olishi mumkin. Lekin bu yerda chol-kampirlar nima derkin? Tohir — yolg‘iz o‘g‘il, javob bermasliklari mumkin.(P. Qodirov, Yulduzli tunlar,4)* **ENDI 2** so‘zi yuklama vazifasida kelib, ma’noni kuchaytiradi, ta’kidlaydi: [O‘TIL, 2- jild, 41] *Ko‘zlarimda yosh qalqidimi?! Yo‘q-yo‘q, axir nega* ***endi****? U ketdi... U ketdi-yu, xayolimda ham shirin, ham achchiq, ham quvnoq, ham alamli uzuk-yuluq xotiralar qoldi…(O‘.Hoshimov, Hikoyalar,84)* 1-gapda “endi” so‘zi ravish so‘z turkumi sifatida kelib voqeaning hozirgi paytdan keyingi holatini ko‘rsatadi. 2-gapda esa “endi” so‘zi vaqt ma’nosini yo‘qotib, yuklamaga aylangan va “nega endi?” birikmasida hayrat hamda norozilikni kuchaytiruvchi ta’kid ma’nosi mavjud.

MUTLAQO – butunlay, umuman; shubhasiz, albatta. **1** ravish. Butunlay, tamomila, batamom…: *Qarasam,* ***mutlaqo*** *jiddiy gapiryapti. Nachora, e’tirof etdim. —Ha, bo‘lgan bunaqangi gunoh ishlar (O‘.Hoshimov, Tushda kechgan umrlar, 112)* Qiyoslang: *Qarasam,* ***butunlay*** *jiddiy gapiryapti. Nachora, e’tirof etdim. —Ha, bo‘lgan bunaqangi gunoh ishlar .* **2** yuklama. Inkorni ta’kidlaydi; aslo, hech, sira [O‘TIL,3-jild, 296]: *To‘liqjon ham qiziq. Nomi — bosh rassom. Ammo qo‘li ostidagilar bilan* ***mutlaqo*** *ishi yo‘q: kim bor, kim yitgan, qayerda, nima ish qilyapti. (E. A’zam, Pakananing oshiq ko‘ngli,18)* Qiyoslang: *To‘liqjon ham qiziq. Nomi — bosh rassom. Ammo qo‘li ostidagilar bilan* ***hech*** *ishi yo‘q: kim bor, kim yitgan, qayerda, nima ish qilyapti.* Bundan ko‘rinadiki, “mutlaqo” so‘zi ba’zi o‘rinlarda yuklamaga xos ta’kid ma’nosini ifodalashda xizmat qiladi.

TAPPA-TAXT 1 “Taxt” sifatining kuchaytirma (intensiv) shakli; tappa-tayyor: *Vido mahali aytganki, meni o‘zimning yurtimga, ota-onamning yoniga qo‘yingiz, deb vasiyat qilgan. Tong saharlab mayit yuvib-o‘ralib, safarga* ***tappa-taxt*** *qilingan, ammo chegaradan o‘tishga ruxsat yo‘q! (Isajon Sulton, “Ayriliq” hikoya, 1)* **TAPPA-TAXT 2** yuklama. Kuchaytirishni bildiradi; naq, rosa. [O‘TIL,5-jild, 83]: *Bu bilan senga bo‘lgan pul —* ***tappa-taxt*** *olti yuz tanga bo‘ladi,*

shuncha ziyofatlar qilgan va o‘lik-tirigingni bajaradigan o‘z qishlog‘ingning oqsoqoli Arbob Hamidga qirq tanga bermaysanmi? Janobi shariatpanoh qozi kalonga muhrona, menga kotibona va mulozimlariga xizmatona hammasi ichida qilib — ellik tanga bermaysanmi? (S.Ayniy, Eski maktab: qissalar, 85) Birinchi gapda “tappa-taxt” so‘zi “qilingan” fe’liga bog‘lanib, ish-harakatning holatini bildirgani uchun sifat vazifasida kelgan, ya’ni safarga butunlay tayyorlanganini anglatadi. Ikkinchi gapda esa “tappa-taxt” so‘zi sonni (olti yuz tanga) kuchaytirib, miqdorni ta’kidlab kelgani uchun yuklama vazifasida ishlatilgan, ya’ni “naq, rosa olti yuz tanga” degan ma’noni beradi. “Tappa-taxt” so‘zining shevaga xos varianti (tappa-taq) ham yuklama vazifasida qo‘llanilib, gapda son yoki vaqt miqdorini kuchaytirib, “naq, rosa,” ma’nosini ifodalaydi. Quyida ushbu holatni ikki ijodkor asari misolida ko‘ramiz: *– O‘zi nima gap, paranjingiz nimasi? – Ammam kuldi. – Obro‘ qidirib yuribman. G‘anijoning, mana,* ***tappa-taq*** *to‘rt yildan beri harbiyda, men uning yoqasiga taqqan chor burchaklarini tushunmayman. (G‘. G‘ulom, “Obro‘” hikoya, 184) Qo‘ltug‘idagi bo‘zni oldimga tashladi. Xuddi kechagi bo‘zlarim;* ***tappa-taq*** *sakkizta. — Bo‘zlaringizni oldingiz-a? — Ha, oldim. (A. Qodiriy, Mehrobdan chayon, 34)*

TAG‘IN 1 ravish. Buning ustiga, bundan tashqari, ustiga ustak; yana*: — Urushga bormaganmi? — Yo‘q, — sartarosh qitig‘imni keltirib* ***tag‘in*** *bo‘ynimga mashina soldi. Shilt etib burnimni tortdim.— Ma’limlarni urushga olishmagan. (O‘. Hoshimov, Dunyoning ishlari, 27)* **TAG‘IN 2** yuklama vazifasida. Ta’kid, hadiksirash kabi ma’nolarni bildiradi [O‘TIL,5-jild, 156]: *— Namuncha tikilib qoldingiz? Yaxshi ko‘rib qolmang* ***tag‘in****? — Zahro piq etib kulib, boshini oldin pastga qaratib, sarak-sarak etdi, so‘ng shiddat bilan orqaga siltab, peshonasiga, yuz-ko‘ziga tushib turgan xayol jingalak, qo‘ng‘ir sochlarini nari qildi. (Ulug‘bek Hamdam, Muvozanat, 84)* Birinchi gapda “tag‘in” so‘zi ravish vazifasida kelib, fe’lga bog‘lanib, ish-harakatning ustiga qo‘shimcha amal bo‘layotganini bildiradi. Ikkinchi gapda esa “tag‘in” so‘zi yuklama vazifasida kelib, gapga hadiksirash va hazil aralash ogohlantirish ohangini qo‘shib, “xudo ko‘rsatmasin, shunday bo‘lib qolmasin” degan ma’noni anglatib kelgan.

MANA 1 olmoshi so‘zlovchining qo‘lida yoki yaqinida turgan narsani, bo‘layotgan yoki bo‘lib o‘tgan voqea, hodisani ko‘rsatishda ishlatiladigan so‘z: Tut tagiga kelgandan keyingina opam meni yerga qo‘ydi. — ***Mana*** *singling, — dedi belanchakka imo qilib.— Singlim desang ham bo‘ladi, jiyanim desang ham. Singlim deyaver. (O‘.Hoshimov, Dunyoning ishlari, 55)* **MANA 2** so‘zi yuklama vazifasida kelganda alohida ta’kid ma’nosini anglatib keladi [O‘TIL,3-jild, 94]: *“Osmondagi oy” emish... Oyni nima qilaman... Kimman o‘zi? Nega odamlarga azob berishim kerak? Nima haqqim bor?* ***Mana,*** *bugun ham brigadamizdagi o‘n ikki kishining hammasini xafa qildim. (O‘. Hoshimov, Ikki eshik orasi, 11)*

Yuklamalashish hodisasi faqatgina mustaqil so‘z turkumlarida emas, balki ushbu holat yordamchi va oraliq so‘z turkumlarida ham uchrab turadi.

“E” — undov so‘zi ajablanish, taajjub, hayrat his-tuyg‘usini bildiradi: *— Tohir, nega ag‘rayib turibsan? Yuklarni tushirishgin! — dedi onasi. — Mullo tog‘oying yomg‘irda ko‘p azob tortganga o‘xshaydir. —* ***E,*** *azob ham gapmi, opa! Arava loylarga tiqilaverib jonimizdan to‘ydirdi. Yo‘llar tirband. Qochoqlar behisob. (P. Qodirov, Yulduzli tunlar, 5)* Bundan tashqari “e” undov so‘zi ba’zi so‘zlar bilan birikib, alohida ta’kid bildirib keladi: *— O‘lgan odamning orqasidan malomat qilmang, gunohga botasiz.* ***Uyaling-e,*** *o‘z bolangizdan tonmoqchisiz-a? Bolamiz, xudoga shukur, esli-hushli, oydek bola. Hali ko‘rasiz, bir-ikki yilda lochindek, qarchig‘aydek bo‘lib ketadi. Bu gapni bir aytdingiz, ikkinchi og‘zingizga olmang. (S.Ahmad, Bir o‘pichning bahosi,4)*

Yuqorida keltirilgan fikrlar orqali o‘zbek tilida yuklamalashayotgan ayrim birliklarning nutqiy muloqotdagi funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, dastlab ravish, fe’l yoki boshqa mustaqil so‘z turkumlariga mansub bo‘lgan birliklar nutq jarayonida o‘zlarining asosiy leksik ma’nosini qisman yoki to‘liq yo‘qotib, yuklama vazifasida qo‘llanmoqda. Bu hodisa til taraqqiyotining tabiiy natijasi bo‘lib, morfologik sathdagi “yuklamalar” qatlamining nisbiy (funksional) yuklamalar hisobidan boyib borayotganini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva S., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2009. 414-b.

2. Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматик таҳлили. – Тошкент, 2013. 199б.

3. Karimov S.A. O‘zbek tilining morfologik stilistikasi. Monografiya – Samarqand: “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2022. 220-bet.

4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. [ЎТИЛ-5] 5 жилдли. 1-2-3-4-5-жилдлар. 2006-2008.“Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – Тошкент.

5. Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд, СамДУ нашри,2011. –160 б.

6. Ўзбек тили грамматикаси. I том. – Тошкент. Фан, 1975.680 б.

7. Элтазаров Ж.Д. Суз туркумлари парадигмасидаги узаро алока ва кучиш холлари. Монография. –Тошкент: Миллий энциклопедия, 2006. –170 б.

8. Исоқов З. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро муносабати ва унда юкламаларнинг ўрни: Филол. фан. ном. … дис. автореф. – Фарғона: ФарДУ, 2005. – 22 б.

Elnora YADGAROVA,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
2-kurs magistranti



RASMIY DISKURSDA PRAGMATIK BIRLIKLARNING TARJIMA VA MADANIY TRANSFERI

Annotatsiya: mazkur maqolada rasmiy diskursdagi pragmatik birliklarning tarjima jarayonida yuzaga keladigan muammolari hamda ularning madaniy transferi masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda rasmiy matnlarda uchraydigan direktiv konstruksiyalar, modallik vositalari, legitimatsiya formulalari va murojaat shakllarining funksional xususiyatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *rasmiy diskurs, pragmatik birlik, tarjima, funksional ekvivalentlik, modallik, nutq akti, illokutiv kuch, madaniy transfer, diskurs tahlili.*

Аннотация: в данной статье рассматриваются проблемы перевода прагматических единиц в официальном дискурсе и вопросы их культурного трансфера. Исследование направлено на анализ функциональных особенностей директивных конструкций, средств модальности, формул легитимации и форм обращения, характерных для официальных текстов.

Ключевые слова: *официальный дискурс, прагматические единицы, перевод, функциональная эквивалентность, модальность, речевой акт, иллокутивная сила, культурный трансфер, дискурсивный анализ.*

Annotation: this article examines the issues of translating pragmatic units in official discourse and the challenges of cultural transfer in translation. The study focuses on the functional characteristics of directive constructions, modal expressions, legitimization formulas, and forms of address commonly used in official texts. It argues that translation in official discourse should prioritize functional and pragmatic equivalence rather than mere lexical correspondence.

Key words: *official discourse, pragmatic units, translation, functional equivalence, modality, speech act, illocutionary force, cultural transfer, discourse analysis.*

Rasmiy diskurs tarjimasida asosiy maqsad leksik tenglikka erishish emas, balki funksional va pragmatik tenglikni ta’minlashdir. Chunki rasmiy matnda har bir til birligi shunchaki ma’no ifodalovchi element emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajaruvchi mexanizmdir. Pragmalingvistik birlik deganda direktiv konstruksiya, modallik vositasi, legitimatsiya formulasi, murojaat shakli kabi normativ va institutsional yukni tashuvchi elementlar tushuniladi.

Mona Baker tarjimada ekvivalentlikni faqat so‘z darajasida emas, balki pragmatik va diskursiv darajada ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi (Baker, 1992). Demak, funksional ekvivalent – bu maqsad tilida manba birlik bajaradigan vazifani aynan o‘sha darajada bajaruvchi vositadir. Agar birlik grammatik jihatdan mos kelsa-yu, lekin uning normativ yoki illokutiv kuchi o‘zgarsa, bunday tarjima funksional tenglikni ta’minlamaydi.

Pragmalingvistik birliklarning funksional ekvivalentini topish jarayoni bir necha mantiqiy bosqichlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich – nutq aktining turini aniqlashdir. J. Searle nutq aktlarini illokutiv maqsadiga ko‘ra tasniflaydi (Searle, 1979). Rasmiy diskursda aynan illokutiv kuch hal qiluvchi omil hisoblanadi. Masalan, “Tasdiqlansin” ifodasi grammatik jihatdan buyruq maylida bo‘lsa-da, uning asosiy vazifasi normani joriy etishdir. Rus tilida “Утвердить” shakli bilan berilganda illokutiv kuch saqlanadi. Biroq “Рекомендуется утвердить” deb tarjima qilinsa, buyruq tavsiyaga aylanadi va normativ daraja pasayadi. Demak, birinchi usul – illokutiv darajani aniqlab, unga mos kuchdagi birlikni tanlashdir.

Keyingi bosqich modallik darajasini saqlash bilan bog‘liq. Rasmiy diskursda modallik normativ kuchni belgilovchi asosiy vositadir. “Shart” va “majbur” kabi birliklar qat’iy majburiyatni bildiradi. Ularni rus tilida mos ravishda “должно” yoki “обязан” kabi kuch jihatidan teng vositalar bilan ifodalash lozim. Teun van Dijk modallik vositalari diskurs orqali ijtimoiy nazoratni amalga oshirishini ta’kidlaydi (van Dijk, 1998). Shuning uchun modallik darajasining pasayishi yoki kuchayishi normaning ijtimoiy ta’sirini o‘zgartiradi. Bu usulning mohiyati kuch darajasi bo‘yicha tenglikni saqlashdir.

Ba’zi holatlarda esa formal tenglikni saqlash imkonsiz bo‘ladi. O‘zbek va rus tillari tipologik jihatdan farqli tizimlarga mansub bo‘lgani sababli grammatik model to‘liq mos kelmasligi mumkin. Bunday vaziyatda strukturaviy transformatsiya orqali funksional tenglik ta’minlanadi. Masalan, “Qaror amalga oshiriladi” jumlasi rus tilida “Решение осуществляется” tarzida beriladi. Bu yerda passiv model saqlangan. Agar stilistik jihatdan passiv shakl

noqulay bo‘lsa, impersonal konstruksiya qo‘llanadi, biroq shaxssizlashtirish mexanizmi buzilmasligi kerak. Norman Fairclough grammatik tanlovlar hokimiyat munosabatlarini ifodalashini ko‘rsatadi (Fairclough, 1995). Demak, shakl o‘zgarishi mumkin, lekin funksional vazifa saqlanishi shart. Bu yondashuv shaklni o‘zgartirib, funksiyani saqlash prinsipiga asoslanadi.

Bundan tashqari, parallel korpus tahlili rasmiy formulalarning barqaror ekvivalentlarini aniqlash imkonini beradi. Masalan, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq…” iborasi rus tilida “В соответствии с Конституцией Республики Узбекистан…” shaklida standart tarzda qo‘llanadi. Bunday formulalar erkin tarjima qilinmaydi, chunki ular legitimatsiya mexanizmini ta’minlaydi. Ularni o‘zgartirish huquqiy asosning diskursiv ifodasini zaiflashtirishi mumkin.

Shu tariqa, rasmiy diskursda funksional ekvivalentlikni ta’minlash izchil va ongli yondashuvni talab qiladi. Tarjimon avvalo nutq aktining illokutiv kuchini aniqlaydi, so‘ng modallik darajasini tekshiradi, zarur bo‘lsa strukturaviy transformatsiyadan foydalanadi va legitimatsiya formulalarini standart model asosida beradi. Natijada shakliy o‘xshashlik emas, balki normativ va pragmatik tenglik ta’minlanadi.

Pragmalingvistik birliklarning funksional ekvivalentini topish rasmiy diskurs tarjimasining eng murakkab va mas’uliyatli bosqichlaridan biridir. Bu jarayon oddiy leksik moslikni izlashdan ancha keng bo‘lib, nutq aktining kommunikativ vazifasi, illokutiv kuchi va institutsional ahamiyatini chuqur tahlil qilishni talab qiladi. Rasmiy matnda har bir birlik ma’lum normativ yukni tashiydi. Shu sababli tarjimada asosiy savol “bu so‘z qanday tarjima qilinadi?” emas, balki “bu birlik qanday vazifani bajaradi?” degan savol bo‘lishi kerak.

Avvalo, illokutiv kuchni aniqlash zarur. J. Searle nutq aktining mohiyati uning illokutiv maqsadida ekanini ta’kidlaydi (Searle, 1979). Demak, tarjimon matndagi birlikning direktivmi, deklarativmi yoki reprezentativmi ekanini aniqlamasdan turib, ekvivalent tanlashi mumkin emas. Masalan, buyruq shaklidagi konstruksiya tavsiyaviy model bilan almashtirilsa, nutq aktining tabiati o‘zgaradi. J. L. Austin ham performativ nutq aktlari ijtimoiy reallikni o‘zgartirish kuchiga ega ekanini ko‘rsatadi (Austin, 1962). Shuning uchun illokutiv kuchni noto‘g‘ri talqin qilish huquqiy yoki normativ oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi muhim omil – modallik darajasini saqlashdir. Rasmiy diskursda modallik normativ kuchni belgilovchi asosiy vositadir. “Shart”, “majbur”, “taqiqlanadi” kabi birliklar qat’iy majburiyatni bildiradi. Ularni yumshoqroq yoki kuchliroq modallik bilan almashtirish normaning talqinini o‘zgartiradi. Mona Baker grammatik ekvivalent har doim ham pragmatik tenglikni kafolatlamasligini ta’kidlaydi (Baker, 1992). Demak, tarjimada modallik darajasi kuch jihatidan teng vosita bilan ifodalanishi kerak. Aks holda normativ nazorat mexanizmi o‘zgaradi.

Uchinchi yondashuv – strukturaviy transformatsiya orqali funksional tenglikni ta’minlashdir. O‘zbek va rus tillari tipologik jihatdan farqli tizimlarga mansub. O‘zbek tili agglutinativ, rus tili esa flektiv va sintetik xususiyatga ega. Shu bois grammatik shakl to‘liq mos kelmasligi mumkin. Biroq shakl o‘zgargan taqdirda ham, pragmatik vazifa saqlanishi zarur. Norman Fairclough grammatik tanlovlar hokimiyat va legitimatsiya mexanizmlarini ifodalashini qayd etadi (Fairclough, 1995). Shunday ekan, passiv konstruksiyani faol shaklga aylantirish yoki aksincha, diskursning institutsional xarakterini o‘zgartirib yuborishi mumkin.

To‘rtinchi omil – standart formulalarni korpus asosida tanlashdir. Parallel korpus tahlili rasmiy diskursda barqaror va takrorlanuvchi modellarning mavjudligini ko‘rsatadi. “Konstitutsiyaga muvofiq” kabi formulalar erkin tarjima qilinmaydi, balki huquqiy diskursda qabul qilingan ekvivalent bilan ifodalanadi. Bu legitimatsiya mexanizmini saqlashga xizmat qiladi. Van Dijk diskursda til vositalari orqali ijtimoiy nazorat amalga oshirilishini ta’kidlaydi (van Dijk, 1998). Shuning uchun standart formulalarni buzish rasmiy matnning institutsional barqarorligiga ta’sir qilishi mumkin.


Beshinchi muhim jihat – madaniy kontekstga mos adaptatsiya qilishdir. Rasmiy diskurs ko‘pincha muayyan huquqiy va madaniy an’anaga tayanadi. Ba’zi formulalar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘z funksional vazifasini yo‘qotishi mumkin. Sperber va Wilson relevans nazariyasida kommunikativ ma’no kontekst orqali shakllanishi ta’kidlanadi (Sperber & Wilson, 1995). Demak, tarjimada lingvistik tenglik emas, balki auditoriya tomonidan qanday qabul qilinishi muhim mezon hisoblanadi.

Shunday qilib, o‘zbek va rus tillari turli tipologik tizimlarga mansub bo‘lsa-da, ularning rasmiy diskursi umumiy institutsional model asosida shakllangan. Tarjimada asosiy maqsad shakliy o‘xshashlikka erishish emas, balki funksional tenglikni saqlashdir. Rasmiy diskurs tarjimoni nafaqat grammatik tizimni, balki pragmatik mexanizmlar, nutq aktlari va ijtimoiy rol munosabatlarini ham chuqur tushunishi lozim. Aks holda tarjima grammatik jihatdan to‘g‘ri ko‘rinsa ham, normativ va institutsional kuch jihatidan zaif bo‘lib qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2010. 240-b.
2. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2012. 240-b.

Soniya NAZAROVA,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
2-kurs magistranti



RANG KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada rang komponentli frazeologik birliklarning lingvomadaniy va lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda frazeologizmlarning shakllanishida rang semantikasining tutgan o‘rni, ularning obrazlilik tizimi hamda milliy tafakkur bilan bog‘liqligi yoritiladi. O‘zbek va turk tillaridagi rang komponentli frazeologizmlar qiyosiy jihatdan o‘rganilib, ularning umumiy va farqli tomonlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: *rang komponenti, frazeologik birlik, lingvomadaniyat, lingvokognitiv tahlil, konsept, obrazlilik, qiyosiy tahlil, o‘zbek tili, turk tili.*

Аннотация: в данной статье анализируются лингвокультурные и лингвокогнитивные особенности фразеологических единиц с цветовым компонентом. В центре внимания находятся роль цветовой семантики в формировании фразеологизмов, их образная система и связь с национальным мышлением. На основе сопоставительного анализа узбекского и турецкого языков выявляются общие и отличительные черты цветообозначающих фразеологических единиц.

Ключевые слова: *цветовой компонент, фразеологическая единица, лингвокультура, лингвокогнитивный анализ, концепт, образность, сопоставительный анализ, узбекский язык, турецкий язык.*

Annotation: this article examines the linguocultural and linguocognitive features of phraseological units containing color components. The study focuses on the role of color semantics in the formation of phraseological expressions, their figurative system, and their connection with national mentality. Through a comparative analysis of Uzbek and Turkish languages, the common and distinctive features of color-based phraseological units are identified.

Key words: *color component, phraseological unit, linguoculture, linguocognitive analysis, concept, figurativeness, comparative analysis, Uzbek language, Turkish language.*

Frazeologik birliklarni lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilish ularning shakllanishida inson tafakkuri, tajribasi va konseptual idrokining bevosita ishtirok etishini ko‘rsatadi. Kognitiv tilshunoslik doirasida frazeologizmlar tayyor nutq formulalari emas, balki inson ongida mavjud bo‘lgan konseptual modellar va obrazli tafakkur mahsuli sifatida izohlanadi (Lakoff, Johnson, 1980). Bunda real tajriba asosida shakllangan fizik tasavvurlar abstrakt tushunchalarni ifodalash vositasiga aylanadi.

Masalan, **“yuragi muzlab ketdi”** frazeologizmi semantik jihatdan qo‘rquv, hayajon yoki dahshat holatini bildiradi. Bu birlikda “muz” jismoniy sovuqlik timsoli bo‘lib, u insonning ichki emotsional holatini ifodalash uchun metaforik asosga aylangan. Bu jarayon YURAK – EMOTSIYA konsepti doirasida sovuqlik orqali ruhiy falajlanish holatini aks ettiradi.

Shuningdek, **“ko‘ngli tog‘day”** iborasi insonning bag‘rikengligi, saxiyligi va ruhiy kengligini ifodalaydi. Bu yerda “tog‘” kotta hajm va mustahkamlik ramzi sifatida ishlatilgan bo‘lib, u insonning ichki fazilatlarini miqyoslash vazifasini bajaradi. Bu hodisa kognitiv xaritalash jarayoni orqali konkret fazoning abstrakt axloqiy tushunchaga ko‘chirilishini ko‘rsatadi.

“Boshlari osmonga yetdi” frazeologizmi insonning nihoyatda quvonishi holatini bildiradi. Ushbu birlikda “osmon” metaforik balandlik timsoli bo‘lib, u yuqori emotsional ko‘tarinkilikni ifodalovchi ramzga aylangan. Bu misol emotsional holatning fazoviy

metafora orqali tasvirlanishini namoyon etadi.

Frazeologik obrazlilik tizimi ko‘pincha metonimik mexanizmlar orqali ham shakllanadi. Masalan, **“ko‘z yumdi”** birikmasi o‘limni bildiradi. Bu yerda bevosita fiziologik harakat umumiy jarayon — hayot tugashining ramzi sifatida qo‘llaniladi. Bu esa jismoniy harakat asosida konseptual umumlovchi ma’no hosil bo‘lish mexanizmini ochib beradi (Телия, 1996).

Yana bir misol, **“burni osmonga yetmoq”** birikmasi kibr, mag‘rurlik holatini ifodalaydi. Bu yerda burnining yuqoriga ko‘tarilishi obrazli ravishda insonning o‘zini yuqori qo‘yishi bilan bog‘lanadi. Mazkur frazeologizmda tashqi jismoniy belgi ichki ruhiy xususiyatni aks ettiruvchi kognitiv model sifatida namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, **“ko‘ziga qorong‘i ko‘rinmoq”** iborasi psixologik tushkunlik va qayg‘uli holatni bildiradi. Bu ifodada vizual idrok orqali ruhiy holat ifodalangan bo‘lib, KO‘RISH – PSIXOLOGIK HOLAT modelini ifodalaydi. Bu model inson sezgilari bilan ichki kechinmalar o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlikni ko‘rsatadi.

Frazeologik birliklar tarkibidagi obrazlar milliy tafakkur va madaniy idrok bilan ham uzviy bog‘liq. O‘zbek tilida tabiat, makon va jismoniy a’zolar bilan bog‘liq obrazlarning keng tarqalganligi xalq tafakkurining tabiatga yaqinligidan dalolat beradi. Masalan, “yerni osmon qilmoq”, “ko‘nglini tog‘dek ko‘tarmoq” kabi iboralarda tabiat unsurining faol ishlatilishi milliy mentalitetni aks ettiradi (Safarov, 2010).

Lingvokognitiv yondashuv shuni ko‘rsatadiki, frazeologik birliklar faqat tayyor til konstruksiyasi emas, balki inson ongida mavjud bo‘lgan tasavvurlar va tajribalar asosida shakllangan semantik tizimdir. Har bir bunday birlik zamirida muayyan konsept, mental sxema va obrazli model yotadi. Shu sababli frazeologizmlarni o‘rganishda ularning faqat strukturaviy emas, balki kognitiv va madaniy mohiyatiga ham e’tibor qaratish zarur.

Umuman olganda, frazeologik birliklarning lingvokognitiv talqini ularning obrazlilik tizimini ochib berib, ularni milliy tafakkur, konseptual dunyoqarash va estetik idrokning til ko‘rinishidagi ifodasi sifatida tushunishga yordam beradi. Bu yondashuv frazeologiyaning semantik, madaniy va konseptual qatlamini chuqur tadqiq etish uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Quyida o‘zbek va turk tillarida rang komponentli frazeologizmlar asosida qiyosiy obrazlarni umumlashtirishga harakat qildik:

1. O‘zbek va turk tillarida rang komponentli frazeologizmlar asosida qiyosiy obrazlar.

OQ rang konsepti

Til	Frazeologizm	So‘z ma-so‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’no	Lingvokognitiv obraz
O‘zbek	oq ko‘ngil	oq yurak	samimiy, pok inson	OQ = poklik, beg‘uborlik
Turk	ak yüzlü	oq yuzli	halol, or-nomusli	OQ = sharaf, halollik

Jadvaldan ko‘rinib turiptiki, har ikkala tilda ham oq rang ijobiy baholovchi konsept sifatida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilida u ko‘proq ichki ruhiy poklikni, turk tilida esa axloqiy va ijtimoiy sharafni ifodalaydi. Bu hol OQ = EZGULIK umumiy konsepti asosida milliy talqin farqlarini ko‘rsatadi.

QORA rang konsepti

Til	Frazeologizm	So‘z ma-so‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’no	Lingvokognitiv obraz
O‘zbek	qora kun	qora kun	musibat, og‘ir davr	QORA = qayg‘u, falokat
Turk	kara talih	qora taqdir	omadsizlik	QORA = baxtsizlik

Qora rang ikki tilda ham negativ emosional maydonni ifodalaydi. O‘zbek tilida u fojia, og‘ir kun ramzi bo‘lsa, turk tilida taqdir bilan bevosita bog‘lanadi. Bu QORA = MUAMMO konseptual modeli asosida amalga oshadi.

QIZIL rang konsepti

Til	Frazeologizm	So‘zma-so‘z ma’nosi	Ko‘chma ma’no	Obraz
O‘zbek	qizil yuz bo‘lish	qizil yuz	uyat, sharmandalik	QIZIL = hayajon
Turk	kızarmak	qizarib ketmoq	uyalish	QIZIL = ruhiy hayajon

Qizil rang ikki tilda ham emotsional reaksiya bilan bog‘langan bo‘lib, u psixologik holatni fiziologik belgilar orqali ifodalaydi. Bu YUZ = EMOTSIYA kognitiv modeli namunasidir.

KO‘K rang konsepti

Til	Frazeologizm	Ma’no	Obraz
O‘zbek	ko‘kka sovurmoq	bekorga sarflash	KO‘K = yo‘qotish
Turk	göklere çıkarmak	osmonga ko‘tarmoq	haddan ziyod maqtamoq

Bu rangda semantik tafovut yaqqol. O‘zbek tilida ko‘k rang yo‘qotish bilan, turk tilida esa ko‘tarilish va ulug‘lash bilan bog‘langan. Bu madaniy idrok farqlarini ko‘rsatadi.

Rang komponentli frazeologizmlarning KONSEPTLAR XARITASI (jadval)


Rang	Asosiy konsept	O‘zbek tilidagi frazeologizm	Turk tilidagi frazeologizm	Kognitiv model
OQ	Poklik	oq ko‘ngil	ak yüzlü	OQ = poklik
QORA	Musibat	qora kun	kara talih	QORA = falokat
QIZIL	Hayajon	qizil yuz bo‘lish	kızarmak	QIZIL = emotsiya
KO‘K	Ulug‘lash / yo‘qotish	ko‘kka sovurmoq	göklere çıkarmak	KO‘K = baho
SARIQ	Zaiflik	sariq yuz	sararmak	SARIQ = holsizlik
YASHIL	Umid	yashil chiroq	yeşil ışık yakmak	YASHIL = ruxsat

Qiyosiy tahlil natijasida aniqlanishicha, rang komponentli frazeologizmlar har ikki tilda umumiy semantik yadoga ega bo‘lsa-da, ularning lingvokognitiv talqini madaniy tajriba va milliy tafakkur asosida farqlanadi. O‘zbek tilida ranglar ko‘proq ichki ruhiy holat va axloqiy xususiyatni ifodalasa, turk tilida ijtimoiy baho va qadriyat bilan uzviylashadi.

Konseptlar xaritasi shuni ko‘rsatadiki, ranglar til orqali nafaqat vizual idrok vositasi, balki madaniy ma’no tizimini shakllantiruvchi kognitiv kategoriya sifatida ham namoyon bo‘ladi. Bu esa rang komponentli frazeologizmlarni semantik, lingvokognitiv va lingvomadaniy nuqtayi nazardan kompleks o‘rganish zaruratini asoslaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2010. 240-b.
2. Maslova V. A. Lingvokulturologiya. – Moskva: Akademiya, 2001. 208 s.



Shahnoza SUYUNOVA,
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti
2-kurs magistranti



BILINGVIZM VA MADANIYATLARARO MULOQOT BOG‘LIQLIGI

Annotatsiya: mazkur maqolada bilingvizm va madaniyatlararo muloqot o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik masalasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki tillilikning zamonaviy global jamiyat sharoitida tutgan o‘rni, uning kommunikativ, kognitiv hamda madaniy ahamiyati yoritiladi. Bilingv shaxslarning turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqotni tashkil etishdagi roli, kommunikativ strategiyalarni moslashtirish qobiliyati hamda madaniyatlararo tushunishni ta’minlashdagi ahamiyati ilmiy manbalar asosida izohlanadi.

Kalit so‘zlar: *bilingvizm, madaniyatlararo muloqot, ikki tillilik, kommunikativ kompetensiya, lingvomadaniyat, globalizatsiya, kommunikativ strategiya, madaniy kontekst.*

Аннотация: в данной статье рассматривается взаимосвязь билингвизма и межкультурной коммуникации. В исследовании анализируется роль двуязычия в условиях современного глобального общества, а также его коммуникативное, когнитивное и культурное значение. Особое внимание уделяется роли билингвальных личностей в организации общения между представителями различных культур, их способности адаптировать коммуникативные стратегии и обеспечивать взаимопонимание в межкультурной среде.

Ключевые слова: *билингвизм, межкультурная коммуникация, двуязычие, коммуникативная компетенция, лингвокультура, глобализация, коммуникативные стратегии, культурный контекст.*

Annotation: this article examines the relationship between bilingualism and intercultural communication. The study analyzes the role of bilingualism in the context of modern global society and highlights its communicative, cognitive, and cultural significance. Particular attention is paid to the role of bilingual individuals in facilitating communication between representatives of different cultures, their ability to adapt communicative strategies, and their contribution to promoting mutual understanding in intercultural interactions.

Key words: *bilingualism, intercultural communication, communicative competence, linguistic culture, globalization, communicative strategies, cultural context, bilingual speakers.*

Zamonaviy global jamiyat sharoitida ikki yoki undan ortiq tilni bilish insonlarning ijtimoiy va kommunikativ faoliyatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globalizatsiya jarayonlari natijasida davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalar kengayib borayotgan hozirgi davrda turli madaniyat vakillari o‘rtasidagi muloqot ham tobora faol tus olmoqda. Bunday sharoitda bilingvizm, ya’ni ikki tillilik madaniyatlararo kommunikatsiyani ta’minlovchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Ikki yoki undan ortiq tilni biluvchi shaxslar turli til va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar hamda turli madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladilar (Baker, 2011).

Til nafaqat kommunikativ vosita, balki muayyan xalqning madaniy qadriyatlari, an’analari va dunyoqarashini aks ettiruvchi tizim hisoblanadi. Har bir til o‘zida ma’lum bir madaniyatning tarixiy tajribasi, ijtimoiy qadriyatlari va kommunikativ normalarini mujassamlashtiradi. Shu sababli tilni o‘rganish jarayoni ko‘pincha madaniyatni o‘rganish jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Til va madaniyat o‘rtasidagi ushbu uzviy bog‘liqlik madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi (Kramsch, 1998).

Ikki tilni biluvchi shaxslar odatda ikki xil madaniy muhit bilan ham bevosita aloqada bo‘ladilar. Bunday shaxslar turli madaniy kontekstlarda muloqot qilish jarayonida har ikki tilga xos kommunikativ strategiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli bilingv shaxslar ko‘pincha turli madaniyat vakillari o‘rtasida muloqotni tashkil etishda muhim rol o‘ynaydilar. Ular til birliklari bilan bir qatorda madaniy kontekstni ham tushunishlari sababli madaniyatlararo tushunishni ta’minlashda vositachi sifatida faoliyat yuritadilar (Grosjean, 2010).

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bilingvizm insonlarning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida samarali kommunikativ strategiyalarni qo‘llashga yordam beradi. Ikki tilli shaxslar turli kommunikativ vaziyatlarda nutq uslubini moslashtirish, turli madaniy normalarni hisobga olish hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan kommunikativ

to‘siqlarni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan tushunmovchiliklarning oldini olishga yordam beradi (Crystal, 2003).

Bundan tashqari, bilingvizm madaniyatlararo kompetensiyaning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikki tilli shaxslar turli madaniyatlarning kommunikativ xususiyatlarini solishtirish, tahlil qilish hamda ularni amaliy muloqot jarayonida qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyasini yanada rivojlantiradi hamda turli madaniyat vakillari o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi (Byram, 1997).

Shunday qilib, bilingvizm zamonaviy jamiyatda madaniyatlararo kommunikatsiyaning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ikki tillilik insonlarga turli til va madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkonini yaratadi, madaniy farqlarni tushunishga yordam beradi hamda madaniyatlararo tushunishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy adabiyotlarda **bilingvizm** tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Tadqiqotchilar ushbu hodisani turli nuqtayi nazardan izohlab, uning lingvistik, ijtimoiy va psixologik jihatlariga alohida e’tibor qaratadilar. Ba’zi olimlar ikki tillilikni ikki tilni mukammal darajada bilish bilan bog‘lasalar, boshqalar esa bilingvizmni ikki yoki undan ortiq tilni turli kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin qiladilar. Shu sababli zamonaviy tilshunoslikda bilingvizmni qat’iy bir mezon asosida aniqlashdan ko‘ra, uni turli darajadagi til kompetensiyasini o‘z ichiga oluvchi murakkab hodisa sifatida ko‘rib chiqish keng tarqalgan (Baker, 2011).

Masalan, mashhur tadqiqotchi F. Grosjean bilingvizmni insonning kundalik hayotda ikki yoki undan ortiq tilni faol qo‘llay olishi bilan izohlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bilingvizm ikki tilni alohida tizim sifatida mukammal egallashni anglatmaydi, balki insonning turli kommunikativ vaziyatlarda bir nechta til resurslaridan foydalanish qobiliyatini bildiradi. Grosjean bilingv shaxslarni “ikki monolingvalning yig‘indisi” sifatida emas, balki o‘ziga xos kommunikativ tizimga ega bo‘lgan shaxslar sifatida ko‘rib chiqish kerakligini ta’kidlaydi (Grosjean, 2010).

Bilingvizm madaniyatlararo muloqot jarayonida muhim kommunikativ vosita hisoblanadi. Ikki tilli shaxslar turli madaniy muhitlarda muloqot qilayotganda kommunikativ strategiyalarni vaziyatga mos ravishda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bunday shaxslar turli madaniyat vakillarining nutq uslubi, kommunikativ normalari va ijtimoiy xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishlari mumkin. Shu sababli bilingv shaxslar ko‘pincha madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida vositachi yoki mediator rolini bajaradilar (Baker, 2011).

Shuningdek, bilingvizm insonlarning kognitiv va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytirishi ham ilmiy tadqiqotlarda ta’kidlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki tilli shaxslar turli kommunikativ vaziyatlarda nutq strategiyalarini moslashtirish hamda turli madaniy kontekstlarni tushunish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa madaniyatlararo kommunikatsiya jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan kommunikativ to‘siqlarni kamaytirishga yordam beradi (Crystal, 2003).

Ikki tillilik shuningdek insonlarning kognitiv va kommunikativ qobiliyatlariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ikki yoki undan ortiq tilni biluvchi shaxslar turli kommunikativ vaziyatlarda nutq strategiyalarini moslashtirish, kommunikativ vaziyatni tezroq baholash hamda turli til tizimlari o‘rtasida moslashuvchan ravishda harakat qilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Bilingv shaxslar ko‘pincha til resurslaridan samarali foydalanish, turli madaniy kontekstlarni tushunish hamda muloqot jarayonida yuzaga keladigan kommunikativ muammolarni hal qilishda yuqori darajadagi moslashuvchanlikni namoyon etadilar (Crystal, 2003).

Ikki tilli shaxslar nafaqat ikki til tizimini, balki ushbu tillarga xos madaniy qadriyatlar va kommunikativ normalarni ham o‘zlashtiradilar. Bunday shaxslar turli madaniy muhitlarda muloqot qilayotganda har ikki madaniyatga xos kommunikativ strategiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu sababli ular ko‘pincha turli madaniyat vakillari o‘rtasida vositachi rolini bajarib, madaniyatlararo tushunishni ta’minlashga yordam beradilar (Kramsch, 1998).

Bundan tashqari, bilingvizm madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ikki tilli shaxslar turli madaniyatlarning kommunikativ xususiyatlarini solishtirish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bu esa ularning boshqa madaniyat vakillarining kommunikativ xatti-harakatlarini yaxshiroq tushunishiga hamda samarali muloqotni tashkil etishiga yordam beradi (Byram, 1997).

Shunday qilib, bilingvizm nafaqat lingvistik hodisa, balki insonlarning kognitiv rivojlanishi, kommunikativ imkoniyatlari hamda madaniyatlararo muloqot jarayonida samarali kommunikatsiyani ta’minlovchi muhim omil sifatida qaraladi. Ikki tilli shaxslar turli madaniyat vakillari o‘rtasida muloqotni osonlashtirish, madaniy farqlarni tushunish hamda samarali kommunikativ strategiyalarni qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Safarov Sh. Til va tafakkur. – Toshkent: Fan, 2010. 240-b.
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. 400-b.

Gulhayo SHOKIROVA,
Buxoro davlat universiteti
Adabiyotshunoslik :o‘zbek
adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich magistranti
shokirovagulhayo8@gmail.com

BUXORO MAVZUSIDAGI TOJIK VA O‘ZBEK TILIDAGI SHE’RLAR MOHIYATI VA BADIIYATI

Annotatsiya: o‘zbek adabiyotida Buxoro mavzusi mumtoz adabiyot davridan boshlab yoritilgan bo‘lib, dastlabki lirik asar Rudakiy qalamiga mansub deya baholansa, bugungi kunda bu mavzuda ko‘plab she’riy asarlar yaratildiki, ularning orasida Buxoro adabiy muhitidagi zullisonaynlik o‘z ahamiyati bilan badiiy adabiyotdan o‘rin egalladi. Bu borada Asad Gulzoda Buxoro haqidagi she’rlarida yurtga sadoqat, vatanparvarlik kabi qator jihatlarini tojik tilida ifodalagan bo‘lsa, Toshpo‘lat Ahmad esa o‘zbek tilida o‘z tuyg‘ularini, fikrlarini ifodalagan. Ushbu maqolada ikki tildagi she’rlarning mohiyatini va badiiyligini ochib berishga harakat qilamiz.

Kalit so‘z: *ikki tillilik, badiiylik, mohiyat, tarix, o‘zlik, mohiyat.*

Аннотация: тема Бухары затрагивается в узбекской литературе со времен классической литературы, и первым лирическим произведением считается работа Рудакия, но сегодня на эту тему создано множество поэтических произведений, среди которых «Зуллисонаин» в бухарской литературной среде занял важное место в прозе. В этом отношении Асад Гулзода в своих стихах о Бухаре на таджикском языке выразил ряд аспектов, таких как верность родине и патриотизм, в то время как Ташполат Ахмад выразил свои чувства и мысли на узбекском языке. В данной статье мы попытаемся раскрыть сущность и мастерство поэзии на двух языках.

Ключевые слова: *двуязычие, мастерство, сущность, история, идентичность, сущность.*

Annotation: the theme of Bukhara has been covered in Uzbek literature since the period of classical literature, and the first lyrical work is considered to belong to the pen of Rudakiy, but today many poetic works have been created on this topic, among which the Zullisonayn in the Bukhara literary environment has taken its place in fiction with its importance. In this regard, Asad Gulzoda expressed a number of aspects such as loyalty to the homeland and patriotism in his poems about Bukhara in Tajik, while Tashpolat Ahmad expressed his feelings and thoughts in Uzbek. In this article, we will try to reveal the essence and artistry of poems in two languages.

Key words: *bilingualism, artistry, essence, history, identity, essence.*

Kirish. Buxoro – sharif shahar ham , ilm maskani bo‘lib , adabiyot ahliga ilhom manbayi bo‘lganligi bejiz emas. “Buxoroyi Sharifning har bir toshida mo‘jiza va hikmat mujassam. Ularga boqqaning sayin ranglar, jilolar bo‘y ko‘rsata boshlaydi. Ko‘chalari, guzarlarini kezsang, tarix bilan yuzma-yuz bo‘lasan. Go‘yo seni donish mandlar, ulug‘ Pirlar imtihon etayotganday... Aslida ham shunday. Buxoro, Oybek domla ta’biri bilan aytganda, “tosh tug‘yon” shahar. Kimki “uning birorta toshini qiyshiq desa gunohga botadi” deya bejiz aytmagan shoh Mashrab”[1;3]. Shu bois Buxoro mavzusi o‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotida keng o‘rin egallagan. Buxoro adabiy muhitida ijod qilgan shoirlarning bu mavzudagi asarlarining adabiy qiymati shundaki, ular shu o‘lkada yashab, uning hayoti, turmush tarzini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rishgan hamda siyosiy hayotida ham, ijtimoiy hayotida ham faol ishtirok etishgan. Asad Gulzoda shofirkonlik ijodkor bo‘lib , yurtining go‘zalligini tarannum etuvchi lirik asarlar yaratgan. Toshpo‘lat ahmad ijodida ham shu mohiyat faqat o‘zbek tilida bayon etilgan bo‘lib, badiiy o‘zgachalik va izchillik jihatdan ajralib turadi.

Asosiy qism. Ikki Shofirkonda tug‘ilib, ulg‘aygan ijodkor ijodida ulug‘vorlik bilan birga yurtni sevish, uning har qarich tuprog‘ini ardoqlash tushunchalari mavjudligi yaqqol namoyon bo‘ladi. Toshpo‘lat Ahmad qalamiga mansub “Buxoro bu” she’ri uning tarixi bilan bugungi kunini qiyoslab bayon etilganligiga guvoh bo‘lamiz.

O‘tmishidan gar so‘ylasang yoylar egilar,
Kechmishidan gar so‘ylasang, oylar egilar,
Tarixidan nur ilasang, ko‘z yosh to‘kilar,
Burjlari changlar aro mayus tikilar,
Qirqta joning bo‘lsa hamki, bir-bir so‘kilar,
Nafaslari ichga tushib, g‘amga botgan yurt —
Buxoro bu, Buxoro bu — ganji nihon bu! [1;199]

Ushbu she’r mumtoz adabiyotdagi musabba’ – yettilik shaklida yozilgan bo‘lib Buxoroning tarixiy mashaqqatlari, ma’naviy qudrati va mustaqillik davridagi qayta tiklanishini badiiy ifodalaydi. Musabba janri muallifga mavzuni keng qamrovli, ham tarixiy, ham falsafiy jihatdan tasvirlash imkonini beradi. Har bir bandning so‘nggi ikki misrasi Buxoroning ta’rifiga bag‘ishlangan bo‘lib, shaharning holati dinamik ravishda o‘zgarib borishi shoirning badiiy mahoratidan darak beradi: “ganji nihon” (“yashirin xazina”), “baxti hazon” ,“rangi somon” , “mulki jahon” , “joningday jon”.

Dastlabki bandlarda Buxoroning tarixi va sobiq tuzum davridagi ayanchli ahvoli lirik qahramon tilidan obrazlar va timsollar, badiiy tasvir vositalari orqali ifodalanadi:

“Qirqta joning bo‘lsa hamki, bir-bir so‘kilar” misrasi shahar boshidan kechirgan azob-uqubatlarning qay darajada og‘ir bo‘lganini ko‘rsatish bilan shoir uning o‘tmishiga ishora qilmoqda. Keying bandlarda shoir fikrlari gradunomik jihatdan o‘sib borganligiga ham amin bo‘lamiz. Ikkinchi bandda

Buxoroning iqtisodiy jihatdan “markazlar”ga qaramligi, boyliklari tashib ketilgani, lekin evaziga “zaqqum yutgani”, ya’ni rahmat eshitmagani tarixiy haqiqatning badiiy ifodasidir.

So‘nggi bandda shoir o‘z tafakkurining eng yuqori cho‘qqisida badiiy fikrlaganligi bilan birga, ko‘plab sayohatchilar hamda ovzga elat vakillarining diqqat markaziga aylanganligini ham ta’kidlamoqda:

O‘n ikkita darvozasin lang ochgan chaman,
Do‘stlar kelsa, izlaridan gul sochgan chaman,
Yetti iqlim bog‘lariga yo‘l ochgan chaman,
Obodlikning bulog‘idan suv ichgan chaman,
Hur Vatanni onasiday zich quchgan chaman,
Ahmadiyning yuragida tomir otgan yurt —
Buxoro bu, Buxoro bu — joningday jon bu! [1,199]

Bandda vatanparvarlik hissi alliteratsiya badiiy san’ati orqali yuqori ruhiyatda ifodalangan bo‘lib, “chaman” so‘zi takrori orqali badiiy mohiyat va maqsad yana ham ochiqroq bayon etilgan. Shoir she’ri oxirida o‘z ismini keltirish orqali vatanga muhabbat va sadoqatini yana bir bor izohlab, isbotlab bermoqda. Shoir Abdulla Oripov shunday yozadi: “Nazarimda, buningday samimiy so‘zlarni faqat o‘z yurti, el -u elatini jon qadar yaxshi ko‘rgan kishigina ayta olishi mumkin. Toshpo‘lat Ahmad – Buxoroni ana shunday ulug‘lash baxtiga erisha olgan iste’dodli shoir, zahmatkash adib. U tarixni yaxshi biladi. Sharqining minoralarini donishmandga, gumbazlarini munajjimga qiyos etadi, Sizni shular bilan yuzlashtiradi, toshlarini kuylata oladi”.

Yana bir ulug‘ ijodkor, Buxoroning dilbandi Asad Gulzoda tojik zabonida she’rlar bitish orqali Vatanni madh etdi. “ Buxoroyi sharif haqida hech bo‘lmasa bitta she’r bitmagan ijodkor yo‘q”, deya ta’rif berganda adashmagan edi Abdulla Oripov. “Barxe az sohibnazaroni toҷiku eronӣ Asad Gulzodaro “oxirin shoiri forsigo‘yi Buxoro” xondaand. Dar in ta’bir yak ҷahon dardu alam nuhuftaast. Vale fikr mekunam, in ya’sest, ki dar umqi xud raҷo – umede ba oyandaro nihon medorad” Ja’far Muhammadi Termiziy “ Buxoroning so‘nggi forsiygo‘y shoiri” deya e’tirof etadi. Misralari orqali xalqona ruhiyat va ma’naviyatni bayon etgan ijodkor she’riyatining qariyb yigirma foizini Vatan va uning madhi egallaydi. Balki undan ortiq ham bo‘lishi mumkin.

Ey Buxoro, shamsi iqbolam tuӣ,
Dar fazoi qismatam bolam tuӣ.
Dar zamoni benizomu purqiyom,
Muttakoi holu ahvolam tuӣ. [2;14]

Ushbu she’r Asad Gulzodaning Buxoroga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sadoqati va o‘zligini anglash yo‘lidagi intilishlarini ifodalovchi yuksak lirik namunadir. She’rning asosiy g‘oyasi — vatanparvarlik va tarixiy ildizlarga qaytish. Shoir uchun Buxoro shunchaki geografik hudud emas, balki ma’naviy tayanch, qismat osmonidagi “qanot” va saodat quyoshidir.”Shamsi iqbol” (Iqbol quyoshi): Shoir o‘z kelajagi va baxtini bevosita ona shahri bilan bog‘laydi. “Muttakoi hol-u ahvol”: Beqaror va notinch zamonda (“zamoni benizom”) ruhini asrab qoluvchi yagona tayanch nuqtasi Buxoro ekanligini ta’kidlaydi.”Az tu jo‘yam asli xud”: Shoir o‘zligini, kimligini va tarixini Buxoro tuprog‘idan, uning qadimiy devorlari va madaniyatidan qidiradi. Bu satrlar Buxoro tojikigo‘y adabiyotining davomiyligini ta’minlashga bo‘lgan da’vat kabi yangraydi.

She’r klassik janr an’analari va zamonaviy ruhning sintezidan iborat. Buxoro — “shams” (quyosh) va “bol” (qanot) sifatida tasvirlanadi. Bu shoirning ijodiy parvozi va hayotiy quvvati aynan shu shahardan ekanligiga ishoradir.”Zamoni benizom” (tartibsiz zamon) va Buxoroning “muttako” (suyanchiq) ekanligi o‘rtasidagi ziddiyat orqali shaharning barqarorlik timsoli ekanligi ochib berilgan. “Tuӣ” (sensan) radifi she’rga xitobiy va ta’kidlovchi ohang bag‘ishlab, shoirning shahar bilan monologik muloqotini kuchaytirgan.

Ey Buxoro, az tu ҷӯyam asli xud,
Ey Buxoro, az tu ҷӯyam nasli xud.
Chun tu hastӣ manzili ҷonu dilam,
Ey Buxoro, az tu ҷӯyam vasli xud.[2;14]

“Manzili jonu dil” va “vasl” so‘zlari she’rga tasavvufiy rang beradi. Shoir o‘z vataniga bo‘lgan muhabbatini ilohiy ishq darajasiga ko‘taradi. Uning uchun Buxoro bilan birlashish (vasl) — bu ruhiy xotirjamlikka erishishning yagona yo‘lidir.

“Asad Gulzoda lirikasi Buxoro forsigo‘y adabiy muhitining zamonaviy bosqichidagi ko‘zgusidir. Shoir ijodida shahar obrazi faqatgina makon sifatida emas, balki shaxsning ma’naviy-tarixiy identifikatsiyasini belgilovchi muqaddas substansiya sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ‘asl’ va ‘nasl’ni Buxorodan izlashi — madaniy merosni asrab qolishga bo‘lgan ijtimoiy-madaniy ehtiyojning poetik ifodasidir.”

Xulosa. Buxoro adabiy muhitida ijod etgan ikki ijodkor turli tilda ijod etgan bo‘lishiga qaramay, Vatanga, yurtga bo‘lgan muhabbatini ifodalagan. Badiiylik va real tasvir ularning ijodidagi eng yetakchi unsur bo‘lib, mohiyatni ochib berishda ohangdorlik va badiiy obraz va san’atlardan o‘rinli foydalangan. “Inchunin, Toshpo‘lat Axmad ijodnning manzu mundarijasi belgilanadigan bo‘lsa, uning asarlarida VATAN va IYMON mavzulari o‘ziga xos dasturulamal sifatida butun salobati bilan ko‘rk to‘kib turganligi ayonlashadi. Bu ulug‘ qadriyatlar shoir hayotining mazmuniga, ezgu amallarining ilhombaxsh manbaiga aylanganligiga

barchamiz guvohmiz” . Abdulla Oripovning Toshpo‘lat Ahmad haqidagi ushbu fikri Asad Gulzoda ijodiga ham taalluqli fikr bo‘lgan deya ta’kidlasak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. T.Ahmad „Sharq gavhari“ „Sharq“ matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. –Toshkent, 2007.
2. A.Gulzoda “Kulliyoti osor” 3-jild „Yangi nashr“ –Toshkent, 2019.
3. Сафаров О.Бухоро адабий ҳаракатчилиги тарихидан лавҳалар. – Бухоро: Дурдона, 2019.
4. Buxoro.manba.uz
5. wikipedia.uz

Javohir IBRAGIMOV,
Toshkent amaliy fanlar universiteti 2-kurs magistranti
Email: Jibrahimov@77gmail.com

“DEK/DAY” QO‘SHIMCHASINING MORFOLOGIK VA SINTAKTIK TAHLILI

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘zbek tili grammatikasidagi bahsli masalalardan biri – -dek/-day qo‘shimchalarining morfologik tabiati va sintaktik vazifalari tahlil qilingan. Maqolada -dek/-day qo‘shimchasining kelishik affikslariga xos bo‘lgan neytrallashuv xususiyati va gapdagi sintaktik munosabatlarni shakllantirishdagi o‘rni qiyosiy misollar yordamida asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: *dek/-day qo‘shimchasi, o‘zbek tili grammatikasi, morfologik xususiyatlar, sintaktik vazifalar*.

Аннотация: в данной статье анализируется один из спорных вопросов узбекской грамматики – морфологическая природа и синтаксические функции аффиксов -dek/-day. В работе на основе сравнительных примеров обосновывается свойство нейтрализации, характерное для падежных аффиксов, а также их роль в формировании синтаксических отношений в предложении.

Ключевые слова: *аффиксы -dek/-day, грамматика узбекского языка, морфологические особенности, синтаксические функции*.

Annotation: this article analyzes one of the controversial issues in Uzbek grammar – the morphological nature and syntactic functions of the suffixes -dek/-day. The study substantiates, through comparative examples, the neutralization characteristic typical of case affixes found in the suffix -dek/-day, as well as its role in forming syntactic relations within a sentence.

Key words: *dek/-day suffix, uzbek grammar, morphological features, syntactic functions.*

Til va uning tarixidan ma’lumki, til bir yerda depsinib turmagan. Uning rivoji insonlar bilan birgalikda rivojlanib, qorishib, sayqallanib boravergan. Xususan, o‘zbek tilining tarix ham ma’lum bir bosqichlardan o‘tib, bugungi holda o‘quvchisi necha ming asrlar silsilasidan olib, o‘tib kelmoqda. Kelishiklar, odatda, ot va fe’l o‘rtasidagi sintaktik aloqani tashkil qilishda yordam beradi va tildagi predikatning ma’nosini to‘liq anglashda muhim ahamiyatga ega.

Kelishiklar haqidagi ta’limotning asoschisi Aristotel hisoblanadi. Aristotel kelishikning atamasi sifatida grekcha ptosis (ptosis) – “tushish) so‘zini qo‘llaydi.[1:43] Olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar va ularning gipotezalari o‘zbek tilidagi kelishiklar sonining turlicha bo‘lganligini eng qadimgi davrdan to shu kunga qadar ularning soni bo‘yicha xilma-xillik mavjud ekanligi ma’lumdir. O‘zbek tilining grammatik qurilishiga bag‘ishlangan dastlabki ilmiy asar XV asrda yaratilgan Marvo Mexdixonning “Sanglox” asaridir. Mehdixon ushbu asarida o‘zbek tilining morfologiyasini, xususan, kelishik shakllarini ancha mukammal ishlagan.[1:44] Keyingi ilmiy izlanishlar davomida o‘zbek tili grammatikasini boyita olgan Abdurauf Fitrat o‘zining “Grammatika” asari orqali kelishiklarga oid gipotezasini ilgari surgan. Fitrat ilgari surgan kelishiklar “to‘ldirgichlar”[3:181] deb atalib, ularning soni sakkizta ekanligini dalillab o‘tadi. Kelishik kategoriyasi ot va otlashgan birliklarning gap tarkibida boshqa so‘zlar bilan bo‘lgan sintaktik-morfologik munosabatlarini ifodalovchi muhim vosita sanaladi.

Tilshunoslarning ko‘pchiligi asosan, 6 a’zoli kategoriya haqidagi fikrga qo‘shilsa ham, ayrim qo‘shimchalar borasidagi bahs-munozaralar ularning kelishik qo‘shimchasi ekanligi haqida fikr-mulohazalar bilan qo‘shib olib boriladi. Bu xil fikrlar, asosan, -gacha, -niki, -dek qo‘shimchalari borasida yuritiladi.[5:38] Sherbak A.M. “...hozirgi o‘zbek tilida -gacha affiksi... xuddi har qanday kelishik kabi distributsiya modeliga ega”, deb yozadi.[6:38] -dek ham ko‘p jihatdan -niki ga yaqin keladi. Bu qo‘shimchada sintaktik xususiyatlarining g‘oyat ustunligi bilan farqlanuvchi kelishik qo‘shimchalaridan farqli ravishda aynan semantik jihat ustun. Albatta, sintaktik imkoniyat mavjudligini ham rad etib bo‘lmaydi. Biroq bu qo‘shimchaning kelishik qo‘shimchalari bilan almashinuv imkoniyatlari nihoyatda chegaralangan. Qiyoslang: osmondek katta – osmondan katta – “osmonni katta– osmonga katta. Deyarli barcha kelishiklar uchun xos bo‘lgan shaklan neytrallashuv hodisasi bu qo‘shimcha uchun begona.[7:39]

Yuqorida aytib o‘tilgan gipoteza “-dek,-day” kelishigi uchun umumiylik kasb etmaydi. Qiyoslang: “U menday kuchli emas. U mendan kuchli emas”. “Sendek yaxshi do‘st topilmaydi. Sendan yaxshi do‘st topilmaydi”. Ko‘rinib turibdiki, “-dek, -day” hozirgi o‘zbek tilida neytrallashuv hodisasini yuzaga chiqara oladi. Garchi bu umumiy kelishiklar orasida bo‘lmasa ham, shuning o‘ziyoq bu qo‘shimcha uchun “begonalik” dan yaqinlikni hosil qilish imkoniyati borligini ochib beradi.“-dek” qo‘shimchasi odatda, mustaqil so‘zga bevosita qo‘shilib, so‘zning

ma’nosiga o‘xshatish, qiyoslash yoki shartlilik rangini, taxminiylik o‘xshashlik qo‘shadi. Hozirgi o‘zbek tili grammatikasi morfologik jihatdan affiks hisoblasa-da, sintaktik vazifasida hosil bo‘lgan yangi birlik ko‘pincha aniqlovchi yoki hol bo‘lagi sifatida keladi.

“-dek” qo‘shimchasi sintaktik jihatdan quyidagi imkoniyatlarga ega:

1. Qiyoslash – ikki predmet yoki hodisaning umumiy belgisi asosida o‘xshashligini ko‘rsatadi (qushdek uchdi)

2. Taqqoslash – o‘xshashlik bilan birga farqni ham anglatadi (mening ahvolim sendek emas).

3. Badiiy ifodaviylik – obrazlilikni kuchaytiradi (yulduzdek yaltiradi).

4. Shartlilik (kam hollarda) – taxmin yoki ehtimolni bildiradi (agar u kelgandek bo‘lsa...).

O‘zbek tilida ko‘makchilar kelishik qo‘shimchalari bilan birga kelganidek (har bir ko‘makchi ma’lum kelishiklar bilan qo‘llanadi), kelishik qo‘shimchasining o‘rnida, uning ekvivalenti bo‘lib ham keladi. Masalan: maktabga qadar yugurdi. Qalamda yozdi, qalam bilan yozdi, v.b. [8:133] Kelishik qo‘shimchasi bilan ko‘makchining bir xil sintaktik vazifada kelishi ularning funksional jihatdan bir turkumga (reaksiya/boshqaruv tizimiga) mansubligini isbotlaydi. Misol uchun: Qalamda yozdi (O‘rin-payt/Vosita) \ Qalam bilan yozdi (Ko‘makchili vosita). -dek, -day tahlili: arslonday kurashdi \ Arslon kabi kurashdi. Agar “bilan” ko‘makchisi “-da” kelishigining vazifasini bajargani uchun “ko‘makchi” hisoblansa, nima uchun “-day” qo‘shimchasi “kabi” ko‘makchisining vazifasini bajargani holda “kelishik” bo‘la olmaydi? Zero, -day ning morfologik ko‘rinishi (affiksallashuvi) uni ko‘makchidan ko‘ra kelishikka yaqinroq qo‘yadi.

Uydan (chiqdi) – Chiqish kelishigi (yo‘nalish).

Arslondek (ko‘rindi) – O‘xshatish “kelishigi” (holat).

Ko‘makchilar ko‘pincha ma’lum bir kelishikni talab qiladi (masalan, maktab-ga qadar). Lekin -dek, -day ning o‘ziga xosligi shundaki, u hech qanday kelishikni talab qilmaydi, aksincha, o‘zi to‘g‘ridan to‘g‘ri asosga qo‘shiladi. Boshqa ko‘makchilar (kabi, singari, bilan) mustaqil so‘z shaklini saqlab, kelishik bilan birga kela olgani holda, -dek, -day faqat affiks ko‘rinishida keladi. Bu uning ko‘makchilik bosqichidan o‘tib, to‘liq grammatiklashganini (kelishik darajasiga yetganini) ko‘rsatadi.

“osmondek katta – osmondan katta – *osmonni katta – *osmonga katta.*** Deyarli barcha kelishiklar uchun xos bo‘lgan shaklan neytrallashuv hodisasi bu qo‘shimcha uchun begona”[9:39] Neytrallashuv hodisasi ko‘pincha grammatik ma’no kontekstdan tushunarli bo‘lganida yuz beradi. Masalan, “maktab bog‘i” birikmasida -ning tushib qolsa ham, qarashlilik ma’nosi yo‘qolmaydi. -dek, -day holatida: bu qo‘shimcha shunchaki bog‘lovchi emas, u gapga yangi munosabat (o‘xshatish) olib kiradi. Agar u tushirib qoldirilsa, gapning semantik asosi butunlay o‘zgaradi yoki buziladi. Neytrallashuvning yo‘qligi bu qo‘shimchaning “zaif”ligini emas, aksincha, uning ma’no bildirish quvvati (semantik valentligi) o‘ta yuqoriligini ko‘rsatadi. Kelishiklar ichida jo‘nalish (-ga), o‘rin-payt (-da) va chiqish (-dan) kelishiklari ham deyarli neytrallashmaydi (belgisiz qo‘llanmaydi). Uning bu xususiyati o‘xshatish musosabatining tilda qat’iy grammatiklashganini isbotlaydi

-dek, -day ham kelishiklar kabi mustaqil so‘zlarning o‘zaro leksik-grammatik munosabatga kirishuvida grammatik vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbek tilidagi -dek va -day affikslari morfologik va sintaktik jihatdan murakkab birliklar bo‘lib, ularning tadqiqi ushbu qo‘shimchalarning faqat ko‘makchi vazifasida emas, balki kelishiklarga xos ba’zi belgilarga ega ekanini ko‘rsatadi. Ular mustaqil so‘zlarga bevosita qo‘shilib, so‘zning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi hamda son va egalik qo‘shimchalaridan keyin kelishi mumkin, biroq ulardan avval kelmaydi. Hosila birliklar, odatda, gapning ikkinchi darajali bo‘laklari — asosan, hol yoki aniqlovchi vazifasida qo‘llanadi. Gap tarkibidagi joylashuvi kesimga bevosita yoki bilvosita bog‘lanish orqali belgilanadi. O‘zbek tilshunosligida -dek/-day qo‘shimchalarini an’anaviy ravishda faqat o‘xshatish affiksi deb qarash uning funksional imkoniyatlarini cheklaydi. Matnda keltirilganidek, bu qo‘shimcha nafaqat semantik (ma’no) yukka ega, balki ma’lum kontekstlarda kelishiklar bilan neytrallashuv (o‘rin almashish) xususiyatiga ham ega. Ushbu yondashuv o‘zbek tili kelishiklar tizimidagi o‘xshatish munosabatlari bilan bog‘liq funksional bo‘shliqni nazariy jihatdan to‘ldirishga xizmat qiladi. Mazkur qo‘shimchalarning kelishiklar paradigmasidagi o‘rnini e’tirof etish tilning mantiqiy-tizimli tuzilishini hamda undagi grammatiklashuv jarayonlarining tabiatini yanada aniqroq va xolis aks ettirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. КОДИРОВ З. М. Ўзбек тили грамматик категорияларини систем тадкик этиш (келишик категорияси) Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. (Мутахассислик: Ўзбек тили) – ТОШКЕНТ,1992.112 б

2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. –Toshkent: Ma’naviyat, 2006.336-b

3. АЙЮБ Ғ‘УЛОМОВ. АЙЮБ Ғ‘УЛОМОВНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ (4-китоб) Ўзбек тилида аниқловчилар. Ўзбек тилида келишиклар. – Тошкент: 2008. 165-b

4. A.Nurmonov, Sh.Shahobidinova Sh.Iskandarova, D.Nabiyeva.O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.Morfologiya. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2001. 38-b

5. A.Nurmonov, Sh.Shahobidinova Sh.Iskandarova, D.Nabiyeva.O‘zbek tilining nazariy grammatikasi.Morfologiya. – Toshkent: “Yangi asr avlodi”, 2001. 38- b

Begoyim YULDOSHEVA,
Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti

MIFOLOGEMA VA MIFOLOGIK LEKSIKANING NAZARIY VA SEMANTIK PARADIGMASI

Annotatsiya: ushbu maqolada mifologema tushunchasining genezisi, ilmiy-nazariy talqinlari va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Mifologemaning mif, arxetip va ramz kategoriyalari bilan munosabati aniqlanib, uning barqaror semantik va intertekstual birlik sifatidagi tabiati asoslanadi**.** Folklor hamda mumtoz adabiyot materiallari asosida mifologemalarning badiiy tafakkur va milliy dunyoqarashdagi funksional ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: *mif, mifologema, arxetip, ramz, folklor, badiiy tafakkur, Semurg‘, qaqnus.*

Аннотация: в данной статье анализируются генезис, научные и теоретические интерпретации, а также лингвистические особенности понятия мифологемы. Определяется взаимосвязь мифологемы с категориями мифа, архетипа и символа, обосновывается её природа как устойчивой семантической и интертекстуальной единицы. На основе материалов фольклора и классической литературы раскрывается функциональное значение мифологем в художественной мысли и национальном мировоззрении.

Ключевые слова: *миф, мифологема, архетип, символ, фольклор, художественная мысль, Semurg, qaqnus.*

Annotation: this article analyzes the genesis, scientific and theoretical interpretations and linguistic features of the concept of mythologema. The relationship of mythologema with the categories of myth, archetype and symbol is determined, and its nature as a stable semantic and intertextual unit is substantiated. Based on the materials of folklore and classical literature, the functional significance of mythologemas in artistic thought and national worldview is revealed.

Key words: *myth, mythologema, archetype, symbol, folklore, artistic thought, Semurg, qaqnus.*

Mifologiya insoniyat tafakkurining eng qadimiy qatlamini tashkil etadi. Qadim jamiyatlarda tabiat hodisalari, kosmogonik jarayonlar va ijtimoiy tartiblar miflar orqali izohlangan. Vaqt o‘tishi bilan mif tarkibidagi obrazlar va semantik birliklar o‘zgarmas holga kelgan, keyingi madaniy va adabiy matnlarda qayta faollashgan struktur elementlarga aylangan. Ana shunday barqaror birliklar mifologema deb ataladi.

Zamonaviy adabiyotshunoslik va lingvistika mifologemani mifdan farqli ravishda mustaqil semantik-kodlashgan birlik, intertekstual model va konseptual struktura sifatida talqin qiladi**.** Shu bois mifologema fenomenini nazariy va lingvosemantik jihatdan aniqlash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolaning maqsadi – mifologema tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash, uning lingvistik xususiyatlarini tavsiflash hamda mifologik leksikaning semantik paradigmalash jarayonini ko‘rsatishdir.

“Mif” atamasi grekcha *mythos* – “so‘z, rivoyat” ma’nosini bildiradi. Mif –qadimiy ong mahsuli bo‘lib, unda real va g‘ayritabiiy hodisalar sintez holatda namoyon bo‘ladi. M.I. Steblin-Kamenskiy ta’kidlaganidek, mif yaratilgan muhitda haqiqat sifatida qabul qilingan[1]. Biroq mifologema mifning o‘zi emas. U mif tarkibidagi barqaror obraz yoki semantik yadroning keyingi matnlarda mustaqil yashovchi shaklidir. Masalan, Semurg‘ obrazi dastlab mifologik rivoyat tarkibida mavjud bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik mumtoz adabiyotda mustaqil ramziy birlik sifatida faol qo‘llanila boshlagan. Demak, miflar yozma shaklda emas balki og‘zaki shaklda avloddan avlodga o‘tib xalq ongiga, ruhiyatiga, yashash tarziga singib ketgan. Miflar vaqt o‘tishi bilan badiiy tafakkur, adabiyot va san’atda barqaror obraz va tushunchalar shaklida mustahkamlanib, mifologema sifatida namoyon bo‘la boshlagan.

Haqiqatan ham, miflar real hayotni anglab yetishga, urf-odatlarning shakllanishiga xizmat qilib kelmoqda. Mif – insonning eng qadimgi so‘z san’atining vujudga kelish namunasidir. Miflar orqali so‘zlar boyib borib tilimiz o‘tkirlashadi. Hozirgi kunda xalq og‘zaki ijodi namunalari, afsonalar, asotir va rivoyatlar keng qamrovli o‘rganib kelinmoqda. Shu jihatdan miflar ham chetda qolmadi. Miflarni o‘rganuvchi fan bu – mifologiya paydo bo‘ldi. Mifologiyada:

1) Muayyan xalq tomonidan yaratilgan mifologik tasavvurlarning izchil tartibga solingan tizimi, asotirlar majmui. Masalan, yunon mifologiyasi, hind mifologiyasi, sharq mifologiyasi, arab ifologiyasi.

2) Mifologiya miflarni tadqiq etuvchi, o‘rganuvchi fan, mifshunoslik. Mifologiya (grekcha “mythos” – “so‘z, rivoyat”, “logos – “o‘rganaman” so‘zidan olingan) – miflarni o‘rganuvchi maxsus fan[2]. Har bir xalqning o‘z afsonasi va

1 O‘rayeva F, Otajonova M, Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. Fan ziyosi nashriyoti, 2024.

2 O‘rayeva F, Otajonova M, Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. Fan ziyosi nashriyoti, 2024.

3 O‘rayeva F, Otajonova M, Nurullayeva S. Mif va badiiy ijod. Fan ziyosi nashriyoti, 2024.

miflari mavjuddir. Undagi obrazlar ham, ular anglatgan ma'nolar ham bir biridan farq qiladi. Miflar yaratilishi, voqealari, qahramonlarining ham alohida nomlari, guruhlari mavjud. Mifik obrazlarni ifodalovchi tushuncha va atamalar "mifonizm", tangri va ma'budlar nomi "teonimlar" (Mira, Hurmuz kabi), demonologik personajlar "demononimlar" (shayton, pari, dev, jon kabi), afsonaviy qahramonlar "mifoantroponimlar" (Xizr, Jamshid (Yima), Kayumars, Odami Od kabi), mifga aloqador so'z asosida kelib chiqqan afsonaviy joy nomlari "mifotoponimlar" (Ko'hi Qof, Bog'i Eram singari), hayvon ko'rinishidagi mifologik jonzotlar "mifoornitonimlar" (Semurg', Humo, Anqo, Jestirnoq, Samandar kabi), afsonaviy o'simliklar nomlari "mifofitonimlar" (mehrigiyo kabi) va hokazo terminlar ostida birlashtiriladi[4]. Demak, dastlabki tasnifni quyidagicha tiмlashtiramiz.

Mifologik leksika xalqning qadimiy kosmologik va diniy tasavvurlarini ifodalovchi so'zlar qatlamidir. Ushbu qatlam quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Teonimlar (Tangri, Hurmuz);
2. Demononimlar (shayton, dev, jin);
3. Mifoantroponimlar (Xizr, Jamshid);
4. Mifotoponimlar (Ko'hi Qof, Bog'i Eram);
5. Mifoornitonimlar (Semurg', Humo, Anqo);
6. mifofitonimlar (mehrigiyo).

Bu tasnif mifologik leksikaning paradigmatik tizimga ega ekanini ko'rsatadi.

Miflarning kelib chiqishi va undagi obrazlar ham makon va zamon bilan bog'liqlikda hosil bo'ladi. Qadimda dev, ajdar, farishta, alvasti, ko'ktangri va boshqa obrazlar orqali miflar vujudga kelgan. Har bir obraz o'zining kelib chiqishi, xarakteri va ramziyligi bilan ajralib turgan. Masalan, ajdar semasi orqali– ochko'z, zolim, qonxo'r bosqinchi obrazini metaforizatsiya qilish orqali nafrat ifodalasa, farishta semasi orqali beozor, pokiza qalb egalariga nisbatan metaforizatsiya qilinib, hurmat va mehr hissi ifoda etiladi. Bu orqali yosh avlod ruhiga ajdar semasi anglatgan ma'no ochko'z, zolim bo'lish yomon ekanligi, uni hech kim yaxshi ko'rmasligi, hamma undan qo'rqishi, farishta semasida esa beozor, oqko'ngil, yaxshi xulqli, uni hamma hurmat qilishi namoyon bo'ladi va ularning ruhiyatiga singib boradi. Miflar shunchaki afsona bo'lib qolmay, balki yosh avlodni tarbiyalashga, ularni yaxshilikka yetaklashga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari faqatgina jonli mavjudotlar bilan emas balki osmon jismlari, tabiat hodisalari bilan ham bog'liq miflar mavjud. Masalan, shamol, suv, quyosh, oy, yulduzlar va boshqalar. Bu semalar bilan bog'liq bo'lgan bir qancha afsona va miflarni xalq orasida ham og'izdan og'izga o'tish natijasida eshitganmiz. Masalan, shamol semasi bilan bog'liq dehqonlar o'rtasida uchraydigan "Haydar afsonasi". Dehqonlar orasida shamol kultiga sig'inishni ifoda etuvchi marosimlar va ularga oid aytimlar xalqning shamol kulti haqidagi mifologik qarashlari zaminida kelib chiqqan[3] Samoviy obrazlarda oy bilan quyosh semasi haqidagi afsonalar ham bor. Har bir obrazning o'z ramziyligi bor. Har bir obraz bir-biri bilan uzviy bog'liq. Mifologik obrazlarning barchasida umumiy semalar bor. Mazkur semalar quyidagi belgilar asosida alohida paradigmalar hosil qiladi.

Mifologemalarning semantik paradigmalashuvi.

Mifologemalar ma'lum semantik belgilar asosida guruhlanadi. Tadqiqot jarayonida komponent tahlil metodi asosida quyidagi paradigmatik qatlamlar aniqlanadi:

– "baxt", "najot", "quvonch" semasi (Semurg', Humo, Xizr);

– "ziyon", "ofat" semasi (dev, jin, g'ul);

– "yonish", "kul bo'lish", "qayta tirilish" semasi (qaqnus, Samandar);

– "go'zallik", "latofat" semasi (pari, malak, farishta);

– "yamlamay yutish" semasi (ajdar, yalmog'iz).

Mazkur paradigmalash mifologemalarning aksiologik xususiyatini ham ko'rsatadi, ya'ni ular ijobiy va salbiy baho qutblari asosida oppozitsion tizim hosil qiladi.

Miflar va undagi obrazlar bora bora shoirlar she'rlariga, ijodkor qalamiga tushib yanada o'tkirlashib, mukammallashib borgan. Masalan, Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarlarida qaqnus qushi haqida aytib o'tilgan. Uning olovdan paydo bo'lishi, keyinchalik yonib kul bo'lishi va yana shu kuldan qayta paydo bo'lishi haqidagi mo'jiza keltirib o'tilgan. Bu bejiz emas. Har bir xalq ham o'zining urf-odati, rasm-rusumlari, an'analari bilan paydo bo'ladi. Bundagi ramziylik ham shunga ishora qiladi. Miflar va mifonimlar nafaqat bizda, balki boshqa xalqlarda ham mavjuddir. Har bir xalqning rivojlanish tarixiga oid miflari shakllangan. Undagi obrazlar ham, ular aks etgan ma'nolar ham xalqning milliy va madaniy hayotiga moslab talqin qilinadi. Masalan, jin Sharq xalqlari tilida uchraydigan so'z bo'lib, o'zbek tiliga o'zlashtirilgan. Dev ma'nosida qo'llaniladigan g'ul obrazi genetik jihatdan qadimgi arab asotirlariga aloqador mifologik personajlardan biridir[4].[6]

Xulosa qilib aytganda, mifologema mifdan farqli ravishda barqaror semantik va intertekstual birlikdir. U mifologik narrativdan ajralib chiqib, adabiy va madaniy matnlarda mustaqil konseptual model sifatida faoliyat yuritadi. Tadqiqot natijasida mifologemalarning semantik paradigmalari va aksiologik oppozitsiyalari aniqlanib, ularning lingvistik tizimga daxldorligi ko'rsatildi. Mifologemalarni lingvosemantik jihatdan o'rganish milliy dunyoqarashning konseptual xaritasini tiklashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4 Mahbuba Rahmonova. O'zbek xalq afsonalarida mifologik obrazlar talqiniga doir. https://doi.org/10.5281/zenodo.1043924

5 Jo'rayev M, Shomusarov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – T.: Fan, 2001.

Iroda NIZOMOVA,
Navoiy davlat universiteti tillar fakulteti
Lingvistika yo‘nalishi 1-kurs magistranti

ETNOTOPONIMLARNING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: ushbu maqolada Samarqand viloyatining Narpay tumani hududida uchraydigan ayrim etnotoponimlarning tarixiy-lingvistik, etnomadaniy va semantik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *etnotoponim, toponimika, Narpay tumani, etnonim, urug‘-qabila nomlari, tarixiy-lingvistik tahlil, etnomadaniyat, migratsiya jarayonlari, onomastika, semantik tahlil, xalq etimologiyasi, geografik nomlar.*

Annotation: this research work comprehensively analyzes the historical-linguistic, ethnocultural and semantic features of ethnotoponyms found in the Narpay district of Samarkand region.

Key words: *ethnotoponym, toponymy, Narpay district, ethnonym, tribal names, historical-linguistic analysis, ethnoculture, migration processes, onomastics, semantic analysis, folk etymology, geographical names.*

Аннотация: в данной статье проводится всесторонний анализ историко-лингвистических, этнокультурных и семантических особенностей некоторых этнотопонимов, встречающихся в Нарпайском районе Самаркандской области.

Ключевые слова: *этнотопоним, топонимия, Нарпайский район, этноним, клановые названия, историко-лингвистический анализ, этнокультура, миграционные процессы, ономастика, семантический анализ, народная этимология, географические названия.*

Kirish. Toponimlarning nomlanishida tarixiy-ijtimoiy voqea-hodisalar, shu hududda yashovchi aholining iqtisodiy-siyosiy munosabatlari, urf-odatlari, an’analari, madaniy hayot tarzi kabi omillar ham muhim ahamiyat kabs etadi. Bunday toponimlarga xalqning etnik tarkibi, kishi ismlari, diniy tushuncha va tasavvurlar, aholining kasbi-kori, ijtimoiy qatlami va milliy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan nomlar kiradi.

Til lug‘at tizimidagi mavjud birliklarning bir qismini onomastik leksika tashkil etadi. Onomastik leksikaning asosiy yo‘nalishi hisoblangan toponimlar, shu jumladan, etnotoponimlar alohida bir leksik qatlam sanaladi.

Asosiy qism. Narpay etnotoponimlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ular bir necha tarixiy qatlamni o‘zida saqlagan.

Mang‘it – tumandagi qishloq nomi. Qishloqning nomlanishi urug‘, qabila nomi asos bo‘lgan. O‘zbek davlatchiligi tarixida *mang‘it*lar katta rol o‘ynagan. Shayboniylar hukmronligi davrida O‘zbekiston hududiga kelib joylashgan. Tarixiy manbalarda *mankgut, manxut, mankut* nomlari bilan tilga olingan. N.Begaliyev mang‘it so‘zi etimologiyasi haqida *“mankit”* so‘zi “qalin o‘rmon” ma’nosini anglatishini, *“mingat>mingan”* mo‘g‘ulcha “ming” so‘zidan kelib chiqqanligini, tilshunos olimlar mang‘it so‘zini mo‘g‘ulcha *“myangad>mang* (ming) + *at* (-lar) – minglar” so‘zidan kelib chiqqanligini ta’kidlaydi.[1] Markaziy Osiyoni rayonlashtirish materiallaridagi ma’lumotlarga qaraganda, 100 minglik mang‘it urug‘ining asosiy qismi – 44 mingdan ko‘prog‘i Buxoro vohasida, 31 minggi Qarshida, 8 minggi Zarafshon bo‘ylarida, 11 minggi Jorjo‘y hududida yashagan.[2]

Demak, hududdagi *Mang‘it, Mang‘iton* toponimlari etnonim nomidan olingan bo‘lib, mang‘it urug‘i vakillari yashaydigan joyga nisbatan nomlangan. Ushbu etnotoponimning etimoni **mang‘it>Mang‘itdir**.

Mang‘it nomi yirik qabila nomi asosida shakllangan bo‘lib, tarixiy manbalarda mang‘itlar Dashti Qipchoq hududida yashaganligi, keyinchalik Movarounnahrga ko‘chib kelgani va XVIII–XX asrlarda Buxoro amirligini boshqargani ma’lum. Bu nomning Narpay hududida saqlanib qolishi hududning siyosiy tarix bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Tortuvli – tumandagi qishloq nomi. O‘zbek urug‘laridan birining nomi. B.X.Karmishevaning qayd etishicha, o‘zbek-qo‘ng‘irotlar orasida qabila asoschisi Qo‘ng‘irotota yoki Qo‘ng‘irbiy haqidagi rivoyat mashhur. Rivoyatga ko‘ra, Qo‘ng‘irbiyning birinchi – katta xotinidan to‘rt farzand tug‘ilgan. Bular: *Voxtamg‘ali, Qo‘shtamg‘ali, Konjig‘ali* va *Oyinnilar* bo‘ladi. Beshinchi farzandi *Tortuvli* esa kichik xotinidan tug‘ilgan. Kichik xotin tortuv (sovg‘a) sifatida olingani uchun uning farzandi ham *Tortuvli* nomini olgan.[3] Uning avlodlari tortuvli urug‘i deb nomlangan.

B.O‘rinboyev esa *tortuvli* urug‘ tamg‘asiga qarab nomlangan, tamg‘asi *tortug>torttug – to‘rt nayzasi shoxasimon* bo‘lgan deb izohlaydi.[4]

Tortuvli – Janubiy O‘zbekistondagi qo‘ng‘irotlarning bo‘limlaridan birining nomi. Tortuvlining tamg‘asi *tortug‘<to‘rt tug‘,* ya’ni to‘rt nayzali, shoxasimon bo‘lgan.

Tortuvli nomi bilan bog‘liq joy nomlari respublikamizning Kattaqo‘rg‘on, Narpay, Oqdaryo, Nurobod kabi tumanlarida ham uchraydi.

1 Begaliyev N. O’zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand, 2004, 102-b.
2 Materialы po rayonirovaniyu Sredney Azii. kn.1. Territoriya i naseleniye Buxarы i Xorezma. ch.1. Buxara. – Toshkent, 1926.
3 Begaliyev N. O’zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand: SamDCHTI nashri, 2004, 83-b.
4 O‘rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlarining izohi). – Samarqand: Zarafshon, 2003, 173-b.

Demak, qishloq *tortuvli* urug‘i vakillari yashaydigan joyga nisbatan shunday nomlangan. Shunga ko‘ra *Tortuvli* toponimi etnonim asosida nomlangan etnotoponim hisoblanib, uning etimoni **tortuvli>Tortuvli** shaklidadir.

Qadimiy turkiy urug‘ va qabilalarning o‘ziga xos bir-biridan farqlanuvchi shartli ramziy belgilari bo‘lib, u *tamg‘a* deb yuritilgan. Tamg‘adan odatda turli urug‘ va qabilalarga mansub chorva va boshqa xil mollarni farqlash uchun foydalanilgan. Tamg‘a shakli molning soniga kuydirib bosilgan, qulog‘iga zaruriy shakldagi belgilar kesib solingan. Bu odat chorvadorlar orasida hozirda ham mavjud. Tamg‘a, maxsus belgilar nafaqat mollarni ajratish, balki urug‘ va qabilalarni farqlovchi ramziy belgilarga ham aylangan.

Turkiy urug‘ va qabilalarning tamg‘alari, ularga oid ma’lumotlar Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asarida, Rashididdin va Ali Yazdiyning, shuningdek, Abulg‘oziy Bahodirxonning tarixiy asarlarida uchraydi.

Mahmud Koshg‘ariy 22 ta turkiy qabila haqida ma’lumot berar ekan, ularning tamg‘alari haqida ham gapiradi: “... ularning har birining maxsus belgilari, mollariga xos tamg‘alari bordirkim, urug‘larni shu tamg‘alariga qarab ayiradilar”[5].

Abulg‘oziy Bahodirxon O‘g‘uzning yigirma to‘rt nabirasining ismlarini anglatuvchi ma’nolar, *“tamg‘alarining nechuk erkani”*, totem hisoblangan qushlarning nomlari haqida ma’lumot berar ekan[6], *qayi, bayot, alqa, uyli, qorauyli, yozir, yasir, dudurg‘a, avshar, qiziq, bekdili, karxin, boyindir, bajana, chovuldur, chapkin, solar, imir, olaqanotli, uragir, igdir, bukdiz, avo, kinik* qavmlarining tamg‘alari yuzasidan fikr bildirgan.

Tamg‘a turkiy urug‘ va qabilalar hayotida muhim ijtimoiy, iqtisodiy, xo‘jalik hamda etnografik ahamiyatga molik bo‘lgan. Shu sababli tamg‘alarni o‘rganishga tadqiqotchilar alohida e’tibor bilan qarashadi. Tamg‘alarning shakliy xususiyatlarini o‘rganish XIX asr oxiri va XX asr boshlarida urug‘ va qabilalar tamg‘a sifatida qabul qilgan belgi, shakllarning O‘rxun-runik yozuvlaridagi harflarning shakli bilan o‘xshashlikka egaligini aniqlashga imkon bergan. Ushbu farazning mualliflari N.A.Aristov, G.P.Mallitskiy, D.N.Sokolovlardir. Ushbu faraz bo‘yicha ilmiy kuzatishlarni davom ettirgan turkman olimi A.Bekmurodov qadimgi turkiy alifboning 24 harfi o‘g‘uz-turkman qabilalarining 24 ta tamg‘asiga mos kelishini aniqlashga muvaffaq bo‘lgan.

Turkman nomshunosi S.Otaniyozov turkman etnonimlariga asos bo‘lgan 19 ta tamg‘ani tahlil qilgan[7]. A.Otajonova Xorazmda uchraydigan *boymoqlы, ilonlы, qanjыg‘alы, sыrg‘alы, chag‘anaklы, postinlы, bolg‘alы* etnonimlarining paydo bo‘lishi tamg‘a bilan aloqadorligini yozgan[8].

A.Turobovning kuzatishlari Samarqand viloyati hududida uchraydigan Alamli, Achamayli, Jag‘albayli, Kasovli, Oytamg‘ali, Sanchiqul, Taroqli, Tortuvli, Tuyoqli, To‘g‘ali, Ching‘ali, Chovka, Qaychili, Qanjig‘ali, Qilich, Qo‘shtamg‘ali, Beshbarmoq etnooykonimlariga lug‘aviy asos bo‘lgan etnonimlarning nomlanishi tamg‘a bilan bog‘liqdir[9].

Bolg‘ali – o‘zbek urug‘laridan biri. U qozoq va qoraqalpoqlar tarkibida ham uchraydi. Ba’zilar qangli qabilasiga tegishli deyishsa, boshqa manbalarda bu urug‘ jaloyir, kenagas, qurama, qo‘ng‘irot tarkibida ham uchrashi aytiladi. Bu urug‘ qo‘ng‘irot qabilasi voxtamg‘ali bo‘limiga qarashli 18 ta urug‘ning biri bo‘lgan. Urug‘ tamg‘asi *bolg‘a* shaklida bo‘lgani uchun shunday atalgan.

Xulosa. Tuman toponimlarining nomlanishida o‘zbek etnik birligi – urug‘ nomlari, antroponimlarning o‘rni katta bo‘lgan. Shu sababdan hududda etnotoponimlar katta bir guruhni tashkil etadi. Hududdagi toponimlarni etimologik tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek toponimiyasidagi ko‘pchilik joy nomlari aholining etnik qatlamiga bilan bog‘liq holda vujudga kelgan.

Narpay tumani toponimlari necha ming yillar davomida bu hududda yashab kelayotgan xalqning ma’naviy merosi va madaniy mulki bo‘lib xizmat qiladi. Narpay hududi tarixan turli turkiy qabilalar kesishgan hudud bo‘lgan; urug‘-qabila tizimi uzoq vaqt davomida ijtimoiy hayotda muhim rol o‘ynagan; etnotoponimlar siyosiy va tarixiy voqealarning lingvistik aksidir; joy nomlari hudud aholisining tarixiy xotirasini saqlab qoluvchi madaniy merosdir. Shu sababli Narpay etnotoponimlarini kompleks o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va antropologiya fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

5 Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. I tom. – Toshkent: Fan, 1960. 89-b.
6 Tohirov Sh.. Abulg‘ozi Bahodirxon. “Shajarayi tarokima”. – Samarqand: So`g‘diyona, 1995. 38-b.
7 Ataniyazov S. Etnonimы v turkmenskom yazыk: Avtoref. dis. ... d-ra filol. nauk. – Ashxabad,1990. –12 s.
8 Otajonova A. Xorazm etnotoponimlari va ularning lug‘aviy asoslari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1996. 35-b.
9 Turobov A. Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1999. 68-b.

Foydalangan adabiyotlar

1. Begaliyev N. O’zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand, 2004.
2. O‘rinboyev B. Asrlardek barhayot nomlar (Samarqand viloyati toponimlarining izohi). – Samarqand: Zarafshon, 2003.
3. Koshg‘ariy Mahmud. Devonu lug‘atit turk. I tom. – Toshkent: Fan, 1960.
4. Tohirov Sh.. Abulg‘ozi Bahodirxon. “Shajarayi tarokima”. – Samarqand: So`g‘diyona, 1995.
5. Ataniyazov S. Etnonimы v turkmenskom yazыk: Avtoref. dis. ... d-ra filol. nauk. – Ashxabad,1990.
6. Otajonova A. Xorazm etnotoponimlari va ularning lug‘aviy asoslari: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1996.
7. Turobov A. Samarqand viloyati etnonim va etnooykonimlarining tahlili: Filol. fanlari nomzodi ... dis. – Toshkent, 1999.

Nafisabonu YODGOROVA,
SamDU magistranti

SUBYEKTIV MODALLIK VA BADIIY MATN

Annotatsiya: yozuvchi, shoir o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish maqsadida, qahramonning ichki kechinmalarini ochib berish uchun subyektiv modallikni ifodalovchi vositalardan: ijobiy va salbiy bo‘yoqdor so‘zlar, grammatik shakllar, yuklama, modal so‘zlar va ohang kabilardan foydalanadi. Mazkur maqolada subyektiv modallikning badiiy matn mazmunida voqelanishida yuklamalarning o‘rni asarlardan olingan misollar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: *subyektiv modallik, yuklama, poetik aktuallashuv, individual nutq, ta’sirchanlik, ma’noni kuchaytirish.*

Annotation: in order to influence the reader’s emotions, the writer or poet uses means expressing subjective modality—such as positively and negatively colored words, grammatical forms, particles, modal words, and intonation—to reveal the inner experiences of the character. This article examines the role of particles in the realization of subjective modality in the content of a literary text, based on examples taken from literary works.

Key words: *subjective modality, particle, poetic actualization, individual speech, expressiveness, intensification of meaning.*

Аннотация: писатель, поэт с целью воздействия на чувства читателя, раскрытия внутренних переживаний героя использует средства выражения субъективной модальности: слова с положительной и отрицательной окраской, грамматические формы, частицы, модальные слова и интонацию. В данной статье на основе примеров из художественных произведений освещается роль частиц в реализации субъективной модальности в содержании художественного текста.

Ключевые слова: *субъективная модальность, частица, поэтическая актуализация, индивидуальная речь, выразительность, усиление значения.*

Ilmiy manbalarda subyektiv modallik modallikning bir turi sifatida o‘rganilib, uning shakllanishida turli xil til birliklari, jumladan yuklamalar ham ishtirok etishi haqida ma’lumotlar berilgan. Xususan, S.Boymirzayevaning “O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar” nomli doktorlik dissertatsiyasida subyektiv modallik turlarining matnda voqelanishi misollar asosida tadqiq etilgan. Olima subyektiv modallik haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: “Haqiqatdan ham subyektiv modallik matnning muhim lisoniy belgisi, zero, matn yaratilishida qismlarning mantiqiy va struktur bog‘lanishlaridan tashqari, ularning modal-mazmuniy moslashuvi ham talab qilinadi” [Boymirzayeva S., 2010:17]. S.Boymirzayeva subyektiv modallik mazmunining asosida muallif intensiyasi turadi, deb ta’kidlab, bundan matn yaratayotgan shaxs o‘quvchining his-tuyg‘ulariga ta’sir o‘tkazish maqsadini ko‘zlashini misollar bilan tushuntirib bergan. Bu holat badiiy matnlarda muallif mahoratining bir ko‘rinishi sifatida qo‘llanilishi ham dissertatsiyada aytib o‘tilgan [Boymirzayeva S., 2010:18]. Haqiqatan ham, shoir va yozuvchilar obrazlar xarakteri, xususiyatini ochishda, ularning odatlari, xatti-harakatini, xarakterini baholashda, individual nutq yaratishda subyektiv modallikni ifodalovchi birliklardan unumli foydalanadi. Shunday vositalardan biri – yuklama so‘z turkumi bo‘lib, bu yordamchi so‘z turkumi odatda gapda yoki ayrim so‘zlarda qo‘shimcha ma’no berish uchun xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, yuklamalar asosan so‘zlovchining aytilayotgan fikrga, tushunchaga munosabatini ifodalaydi. O‘zbek tilida *asosan –mi, -chi, -a, -ya, (so‘roq); -ku, -ham, -u, -yu, -da, -oq, -yoq, -ki, -kim (kichraytiruv); -gina, -kina, -qina, -faqat (ayiruv, chegaralov), xuddi (aniqlov), -dir (gumon), -na (inkor)* yuklamalari mavjud bo‘lib, ular o‘ziga xos qo‘llanishlarga ham egadirlar. Yuklamalar ba’zi hollarda nutq talabiga ko‘ra o‘z ma’nolaridan boshqacharoq ma’nolarni ham ifodalab kelishi mumkin. Masalan, yaxshisi kitob o‘qisam-chi gapidagi -chi yuklamasi so‘roq ma’nosini ifodalayotgandek tuyulsa ham, aslida bu o‘rinda istak, xohish ma’nolarini ifodalab kelgan. Ya’ni bu gapda so‘roq ma’nosi umuman ifodalanmagan. Tez yursang-chi, bo‘la qolsang-chi, gapirsang-chi, uyimda-chi, bolam tarzidagi qo‘llanishlarda ham *-chi* yuklamasi boshqa-boshqa ma’nolarni ifodalab kelgan. O‘.Hoshimov qissalarida ham xuddi shu ma’noda kelgan gaplar anchagina: *– Yozda-chi,-deyman esimga tushib, – Vali Qonqusga oqib ketay degan. Akam olib chiqqan (“Dunyoning ishlari”, 13);*

Yuklamalar (so‘z yuklamalari ham, qo‘shimcha yuklamalar ham) nutqda qo‘llanar ekan, insonning fikrga va narsa-hodisaga, voqelikka turli-tuman, munosabatini ifodalaydi. Va gapga qo‘shilib, kuchaytiruv-ta’kid, taajjub, gumon, ayiruv-chegaralov ma’nolarini bildiradi: Masalan, *Boshdan ham bor-da, o‘zi, o‘g‘lim* (“Dunyoning ishlari”, 83); *Hoy qizim, bola-ya, bola-ya! – onam chumchuqdek chirqillab juvonga yopishdi* (“Dunyoning ishlari”, 2). Adib qissalarida yuklamalar o‘z vazifalaridan tashqari qo‘shimcha vazifalarni ham bajaradi. Masalan, -ku yuklamasi ta’kid vazifasida keladi, bundan tashqari ma’lum vaziyatdagi holatni ifodalash uchun ham unga zarurat bor: *– Kerakmas, kerakmas! – dedim oyog‘imni tipirlatib. – Yutadigan soqqam edi. Oyim boshimni siladi. – Bilmabman-da, o‘g‘lim. – O‘tir, ovqatlanib ol. Qorning ochib ketdi-ku!* jumlalarida soqqa o‘ynaydigan yong‘og‘i chaqilib, tolqonga qo‘shilganidan alamzada bola holati, unga mehribonlik qilayotgan ona holati ta’kid yuklamalari orqali mohirona qo‘llangan. Biroq bola tixirlik qilib, tovoqdagi tolqonni yerga tushirib yuboradi. Onaning jahl aralash xitobi ham ta’kid yuklamasi orqali berilgan. *– Non-ku, bu, ahmoq, gunoh bo‘ladi-ku!* (“Dunyoning ishlari”, 18).

Nahotki yuklamasi kuchaytiruv-ta’kid ma’nosini berishdan tashqari, his-hayajonni ifodalash, uni kitobxonga yuqtirish vazifalarini ham bajaradi: *Nahotki odam tirik qolish uchun ham pora berishi kerak bo‘lsa! Uzoq qarindoshim bo‘lmish*

o‘sha vrachning gapini eshitganimda battar hayron bo‘ldim. Nahotki tirik qolish uchun majburan birovga pora berish ham jinoyat hisoblansa? Xo‘sh bo‘lmasa nima qilsin? O‘lib ketsinmi? Nahotki, o‘lim to‘shagida yotgan odamdan nimadir tama qilish imon degan tushunchaga sal bo‘lsayam to‘g‘ri kelsa?! (“Dunyoning ishlari”, 81). Shu o‘rinda O.Bozorovning quyidagi fikrlari mulohazalarimizni dalillaydi: “Matn tilshunosligi yoki kommunikativ sintaksis ayiruv-chegaralov, kuchaytiruv-ta’kid yuklamalarining funksional tabiatini ochishga katta imkoniyatlar yaratmoqda. Chunki bu yuklamalar muayyan gap qoliplarining qo‘llanish kontekstlari bilan bog‘liq bo‘lib, ulardagi tema hamda remani ajratib ko‘rsatish uchun xizmat qiladi. Shuning uchun ham so‘nggi paytda shakllanayotgan matn tilshunosligi yuklamalarga katta e’tibor berib, ularning haqiqiy funksional tabiatini (tema, rema indikatorlari ekanligi, ikki jumla munosabati bilan bog‘liq qo‘shimcha ma’nolarni ifodalashi kabi) to‘liqroq ochib berishga harakat qilmoqda” [Bozorov O., 2007: 41].

-dir yuklamasi gumon ma’nosini beradi: *Onam bu dunyoda kamsuqumgina yashardi. Hech kimga ozor bermasdi. Hech kim bilan hech nimani talashmasdi. Ehtimol, tabiatning eng shavqatsiz elchisi bilan ham olishib o‘tirishni xohlamagandir* (“Dunyoning ishlari”, 7). Quyidagi gaplarda ham bu yuklama gumon ma’nosini bergan: *Ehtimol, osmondagi eng yorqin yulduzlar onalarning jonidir. Ehtimol, onalarning so‘ngan yulduzlari birlashib quyoshga aylangandir. Oftobni ona deyishlari, ehtimol, shundandir* (“Dunyoning ishlari”, 6). Biroq bu jumlalarda yuklama faqat shu ma’noni o‘zida ifodalagan emas. Chunki yozuvchi o‘z gaplarining, fikrlarining to‘g‘riligiga shubha qilmaydi. Lekin ma’noni kuchaytirish, o‘z fikriga kitobxon e’tiborini tortish, ta’sirchanlikni oshirish maqsadida bu yuklamani gapda qo‘llaydi.

O‘tkir Hoshimov yuklamalarning subyektiv munosabat ifodalash imkoniyatlaridan nafaqat roman va qissalarida, balki hikoyalarida ham unumli foydalangan. Masalan, adibning “Xayollarga bo‘laman tutqun” hikoyasi qahramonning afsus-nadomatlari asosiga qurilgan bo‘lib, personajning ichki kechinmalari, iztiroblarini yorqin tasvirlash uchun yuklamalar alohida vazifa bajargan. Hikoya qahramoni Erkin sevgilisi Xolidaning uyiga borganda akasining ta’nasini eshitadi: *Qadamingni bilib bos, bola! Qizlarga osilgandan ko‘ra burningni eplasang-chi! Kimsan o‘zing! Dadangga o‘xshagan sartarosh bo‘lasan-da!..* (“O‘zbeklar”, 4-b). Bu ta’na unga qattiq ta’sir qilib, sevgilisidan ham voz kechadi: *Qayoqqa boraman? Yana o‘sha uygami?! Kimning oldiga boraman?Meni shunchalik aqorat qilgan odamning oldigami? Nimaga boraman? Yalinish-yolvorish uchunmi*? (“O‘zbeklar”, 4-b). Keyinroq Xolidaning turmushga chiqqanini eshitadi. Safardan qaytganda ataylab Xolidalarning uyi tomon borayotganda, kuyovining mashinasiga minib ketayotganini ko‘radi: *Mayli, – dedim o‘zimni yupatib, – Xolida kuyunishga, o‘rtanishga ham arzimaydi o‘zi. Mening unga olib beradigan mashinam yo‘q-ku, axir?* (“O‘zbeklar”, 5-b). Uning o‘ylari, qalb iztiroblari yoki yupanchlarini tasvirlashda *-mi, -ku, ham, axir* yuklamalari alohida vazifa bajargan. Bir kuni Erkin Xolidani avtobusda ko‘rib qoladi. Xolida unga ham chipta olganini aytganda, qahramonimiz shunday deydi: *Rahmat! Hisobni to‘g‘rilab qo‘ymoqchi bo‘libsiz-da* (“O‘zbeklar”, 5-b). Qahramonning Xolidaga nisbatan yuragida bo‘lgan nafrati, alami *-da* yuklamasi orqali yaqqol ifodalangan. Hatto bu yuklama qahramonning gap ohangini ham ko‘rsatib bergan. Bu ohang Xolidaga ham qattiq ta’sir qiladi: Burni qisilib, lablari pirpirab uchdi. *Ikki tomchi yosh ko‘zlaridan duv etib yumalab tushdi-yu, keyin yelkalari silkinib-silkinib, unsiz yig‘lay boshladi. Dovdirab qoldim* (“O‘zbeklar”, 5-b). Hikoya so‘nggida ayb o‘zining qaysarligida ekanini Xolidaning gaplaridan anglagan Erkin afsus, pushaymon ostida qoladi. Uning bu kechinmalari ham yuklamalar orqali mohirona tasvirlangan: Shu xotiralardan boshqa nimam ham bor mening? Axir men muhabbatimni ehtiyot qilolmagan, asray olmagan, yolg‘iz yaxshi ko‘rish bilan kifoyalanib yurgan odamman-ku! Shu baxtimni avvalroq asrasam bo‘lmasdimi! ...Ko‘zlarimda yosh qalqidimi? Yo‘q-yo‘q. Nega? Endimi? …Axir men muhabbatimni ehtiyot qilolmagan, asray olmagan, yolg‘iz yaxshi ko‘rish bilan kifoyalanib yurgan odamman-ku! (“O‘zbeklar”, 8-b).

Misollardan ko‘rinib turibdiki, yuklamalarning gapga, matnga qo‘shimcha ma’no berish, subyektiv munosabatni ifodalash xususiyatlari kengayib bormoqda. Shu o‘rinda A.Pardayevning: “…yordamchi so‘zlarning nafaqat semantik va grammatik, balki funksional-stilistik imkoniyatlarining ham kengayib borayotganligi, grammatik vosita bo‘lish doirasidan tashqariga chiqib, oddiy axborot yoki ma’lumot berishdan ta’sirchanlikka, mavhumlikdan aniqlikka qarab borishdagi muhim uslubiy vosita hisoblanayotganligi, bu esa tadqiqotlarimiz oldiga ularning og‘zaki va yozma nutqdagi emotsional-ekspressiv ma’no ottenkalarini aniqlash hamda funksional-stilistik mohiyatini ochib berish vazifalarini qo‘yishi” [Pardayev A., 2011:145] haqidagi fikrlari mulohazalarimizni tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Бозоров О. Ёрдамчи сўзларнинг долзарб масалалари //А.Ғуломов ва ўзбек тилшунослиги масалалари. (Илмий мақолалар тўплами). –Тошкент: ЎзМУ нашри, 2007. –Б.41.

2.Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол.фан. доктори... дисс.автореф. –Тошкент, 2010.

3.Каримов С. Ўзбек тилининг бадиий услуби: – Самарқанд: Зарафшон, 1992. –140 б.

4.Пардаев А. Тил тизимида ёрдамчи сўзлар. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. –Б.145.

5.Yusupova O. Qurbonova M. Badiiy matnda modallikni hosil qilishda grammatik vositalarning o‘rni. –Samarqand: “Fan bulog‘i” nashriyoti, 2023. – 98 b.

6.Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Sharq, 2016. –576 b.

7.Ҳошимов Ў. Ўзбеклар. (Ҳикоялар). –Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2002.

Ulug‘oy MAXAMADINOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti
Ta’lim-tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
mahamadinovaulugoy@gmail.com

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING SHAXSIY KOMPETENTLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya: mazkur maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari va pedagogik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Shaxsiy kompetentlikning tarkibiy komponentlari ochib berilib, ularni oliy ta’lim jarayonida shakllantirishning samarali usullari asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *shaxsiy kompetentlik, boshlang‘ich ta’lim, pedagogik kompetensiya, refleksiya, emotsional barqarorlik, kommunikativ madaniyat.*

Annotation: this article analyzes the theoretical foundations and pedagogical conditions for the development of personal competence qualities of future primary school teachers. The structural components of personal competence are revealed, and effective methods of their formation in the process of higher education are substantiated.

Key words: *personal competence, primary education, pedagogical competence, reflection, emotional stability, communicative culture*

Аннотация: в данной статье анализируются теоретические основы и педагогические условия развития личностных компетентностных качеств будущих учителей начальных классов. Раскрываются структурные компоненты личностной компетентности и обосновываются эффективные методы их формирования в процессе высшего образования.

Ключевые слова: *личная компетентность, начальное образование, педагогическая компетентность, рефлексия, эмоциональная устойчивость, коммуникативная культура*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimi globallashuv, raqamlashtirish va ijtimoiy munosabatlarning jadallashuvi sharoitida tubdan yangilanmoqda. Bu jarayonda boshlang‘ich ta’lim bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda o‘quvchilarning shaxsiy, intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga poydevor qo‘yiladi. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining nafaqat kasbiy bilim va ko‘nikmalari, balki ularning shaxsiy kompetentlik sifatlari ham ta’lim samaradorligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuv ta’limning asosiy metodologik tamoyillaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni hamda davlat ta’lim standartlarida pedagog shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratilgan. Shaxsiy kompetentlik tushunchasi pedagogning o‘zini anglash, o‘zini boshqarish, kommunikativ madaniyat, empatiya, mas’uliyat, tashabbuskorlik, refleksiya va axloqiy barqarorlik kabi sifatlarini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi uchun bu sifatlar o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish, ijobiy psixologik muhit yaratish va individual yondashuvni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Ilmiy adabiyotlarda pedagogik kompetentlik masalasi keng o‘rganilgan bo‘lsa-da, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining aynan shaxsiy kompetentlik sifatlarini tizimli ravishda rivojlantirish muammosi hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida ko‘proq nazariy bilimlar berilayotgan bo‘lsa-da, talabalar shaxsiy rivojlanish, emotsional barqarorlik, stressni boshqarish, liderlik va samarali kommunikatsiya kabi kompetensiyalarni shakllantirishga yetarli darajada jalb etilmayapti. Natijada, pedagogik faoliyatning dastlabki bosqichlarida kasbiy qiyinchiliklar va moslashuv muammolari yuzaga kelmoqda.

Adabiyotlar tahlili.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida keng o‘rganilgan. Kompetentlik tushunchasining nazariy asoslari D. Raven tomonidan ishlab chiqilib, u kompetentlikni bilim, ko‘nikma va shaxsiy motivatsion omillar birligi sifatida talqin qiladi[1]. I. Zimnyaya esa kompetentlikni shaxsning integral sifati sifatida baholab, unda kommunikativ va ijtimoiy komponentlarga alohida e’tibor qaratadi[2]. Pedagog shaxsining kasbiy va shaxsiy rivojlanishi N. Kuzmina tadqiqotlarida muhim o‘rin egallaydi. U pedagogik mahorat tarkibida empatiya, refleksiya va kommunikativ madaniyat yetakchi ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi[3]. A. Markova esa o‘qituvchining kasbiy kompetentligini motivatsion va shaxsiy-psixologik tayyorgarlik bilan bog‘laydi[4]. O‘zbek olimlaridan B. Xodjayev kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagog kadrlar tayyorlash jarayonida shaxsiy rivojlanish omillarini kuchaytirish zarurligini asoslaydi[5]. Psixologik tadqiqotlarda esa D. Goulman emotsional intellektni o‘qituvchi faoliyatining samaradorligini belgilovchi muhim omil sifatida ko‘rsatadi[6].

1 Raven, J. (2002). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H.K. Lewis
2 Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов
3 Кузьмина, Н.В. 1990. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа
4 Маркова, А.К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Знание
5 Xodjayev, B.X. (2017). Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart
6 Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books

Metodologiya.

Mazkur tadqiqot kompetensiyaviy va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv hamda pedagogik modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar va normativ-huquqiy hujjatlar kontent-tahlil qilinib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlariga doir ilmiy qarashlar umumlashtirildi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlash jarayoni tahlil qilinib, shaxsiy kompetentlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar aniqlashtirildi. Olingan natijalar asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy kompetentlik sifatlarini rivojlantirishga doir nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Natijalar va muhokama.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlari ko‘p komponentli tuzilishga ega bo‘lib, ular o‘zaro uzviy bog‘langan holda shakllanadi. Ilmiy manbalar asosida shaxsiy kompetentlikning motivatsion-qadriyatli, kommunikativ, refleksiv hamda emotsional-barqarorlik komponentlari ajratib ko‘rsatildi[7]. Ushbu komponentlar pedagog shaxsining kasbiy faoliyatida integral tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Kasbga ongli munosabat, pedagogik faoliyatga ichki ehtiyoj va mas’uliyat hissi o‘qituvchining professional barqarorligini ta’minlaydi. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va qo‘llab-quvvatlash jarayonida yuqori darajadagi ijtimoiy mas’uliyatni namoyon etadi. D. Raven kompetentlikni shaxsiy qadriyatlar va motivatsiya bilan bog‘lab izohlaydi[8], bu esa pedagog faoliyatida ichki motivlarning ustuvor ahamiyatini tasdiqlaydi.

Kommunikativ komponent bo‘yicha olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, samarali muloqot, empatiya va ijtimoiy moslashuvchanlik boshlang‘ich ta’lim jarayonida yetakchi omil hisoblanadi. Masalan, kichik yoshdagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olib, o‘qituvchining ohang, mimika va noverbal vositalardan o‘rinli foydalanishi ta’lim samaradorligini oshiradi. N. Kuzmina pedagogik mahorat tarkibida kommunikativ madaniyat va empatiyani asosiy sifatlar sifatida ko‘rsatadi[9]. Shuningdek, A. Markova o‘qituvchining shaxsiy-psixologik tayyorgarligini uning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi omil sifatida talqin etadi[10]. Refleksiv komponent tahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish qobiliyati pedagogning kasbiy o‘sishiga xizmat qiladi. Masalan, dars jarayonidan so‘ng o‘qituvchining o‘z metodikasini baholashi va o‘quvchilarning reaksiyalarini tahlil qilishi refleksiv kompetentlikning namunasidir. I. Zimnyaya kompetentlikni shaxsning o‘zini rivojlantirish qobiliyati bilan bog‘laydi[11], bu esa refleksiya jarayonining nazariy asosini tashkil etadi.

Emotsional-barqarorlik komponenti ham muhim natijalarni ko‘rsatdi. Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi ko‘pincha turli ijtimoiy-psixologik vaziyatlarga duch keladi: o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolar, ota-onalar bilan muloqot, yuklamaning ortishi va boshqalar. Bunday sharoitda o‘z his-tuyg‘ularini boshqarish, stressga chidamlilik va ijobiy psixologik muhit yaratish qobiliyati zarurdir. D. Goleman emotsional intellektni ijtimoiy muvaffaqiyatning muhim omili sifatida baholaydi[12], bu esa pedagogik faoliyatda emotsional kompetensiyaning dolzarbligini tasdiqlaydi. Oliy ta’lim muassasalarida interaktiv metodlar – rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar tahlili, pedagogik treninglar va refleksiv topshiriqlar – shaxsiy kompetentlikni shakllantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, “murakkab ota-ona bilan suhbat” mavzusida o‘tkazilgan rolli mashg‘ulot talabada kommunikativ moslashuvchanlik va emotsional nazoratni rivojlantiradi. Shuningdek, dars kuzatuvi va o‘zaro tahlil jarayonlari refleksiv ko‘nikmalarni mustahkamlaydi.

Xulosa.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxsiy kompetentlik sifatlari ularning kasbiy shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shaxsiy kompetentlik motivatsion-qadriyatli, kommunikativ, refleksiv va emotsional-barqarorlik komponentlari uyg‘unligida namoyon bo‘lib, pedagogik faoliyat samaradorligini ta’minlaydi. Ayniqsa, empatiya, o‘zini boshqarish, mas’uliyat va refleksiya kabi sifatlar boshlang‘ich ta’lim jarayonida ijobiy psixologik muhit yaratish va o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan interaktiv metodlar, psixologik treninglar va refleksiv faoliyat shakllarini tizimli ravishda joriy etish zarur. Bu esa raqobatbardosh, ijtimoiy faol va kasbiy jihatdan yetuk pedagog kadrlarni tayyorlashga xizmat qiladi.

7 Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования.
8 Raven, J. (2002). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release
9 Кузьмина, Н.В. (1990). Профессионализм личности преподавателя
10 Маркова, А.К. (1996). Психология профессионализма
11 Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования
12 Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Goleman, D. (1995). Emotional Intelligence. New York: Bantam Books.
2. Raven, J. (2002). Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. London: H.K. Lewis.
3. Xodjayev, B.X. (2017). Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Sano-standart.
4. Зимняя, И.А. (2004). Ключевые компетенции как результат современного образования. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов.
5. Кузьмина, Н.В. 1990. Профессионализм личности преподавателя и мастера производственного обучения. Москва: Высшая школа.
6. Маркова, А.К. (1996). Психология профессионализма. Москва: Знание.

Ruxshona BAXTIYOROVA,
Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
(O‘zbek tili va adabiyoti)
2-bosqich talabasi

RAQAMLI MEDIA MATNLARDA YANGI ILMIY YO’NALISHLAR

Annotatsiya: mazkur maqola raqamli media matnlarining lingvistik tabiatini hamda ularning jamiyatdagi kommunikativ ta’sirini ilmiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Axborot texnologiyalari va internet platformalarining jadal rivojlanishi natijasida ommaviy kommunikatsiya shakllari tubdan o‘zgarib, an’anaviy matn tuzilmalari o‘rnini multimodal va interaktiv xususiyatga ega bo‘lgan raqamli media matnlari egallamoqda. Bunday matnlar til birliklarining qo‘llanish usuli, ma’no hosil qilish mexanizmi va kommunikativ vazifalari jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shuningdek, raqamli media matnlari o‘zining interaktiv tabiati bilan ham ajralib turadi. An’anaviy matnlardan farqli ravishda, bunday matnlar auditoriya bilan ikki tomonlama muloqotni ta’minlaydi. Foydalanuvchilarning izoh qoldirishi, ulashishi va baholashi orqali matnning kommunikativ maydoni kengayadi hamda uning ijtimoiy ta’siri kuchayadi. Bu jarayon til birliklarining pragmatik vazifasini kuchaytirib, muallif va auditoriya o‘rtasida faol diskursiv munosabatni yuzaga keltiradi.

Kalit so‘zlar: *media matnlar, raqamli media, kommunikatsiya, tilshunoslik, media madaniyat, ijtimoiy va siyosiy ta’sir, multimedia, mediasavodxonlik.*

Аннотация: цель данной статьи — научный анализ лингвистической природы текстов цифровых медиа и их коммуникативного воздействия на общество. В результате стремительного развития информационных технологий и интернет-платформ формы массовой коммуникации претерпели радикальные изменения, традиционные текстовые структуры уступают место текстам цифровых медиа с мультимодальными и интерактивными особенностями. Такие тексты обладают собственными характеристиками с точки зрения метода использования языковых единиц, механизма смыслообразования и коммуникативных функций. Тексты цифровых медиа также отличаются интерактивным характером. В отличие от традиционных текстов, такие тексты обеспечивают двустороннюю коммуникацию с аудиторией. Благодаря комментариям, обмену и оценке пользователями расширяется коммуникативное поле текста и возрастает его социальное воздействие. Этот процесс усиливает прагматическую функцию языковых единиц и создает активную дискурсивную связь между автором и аудиторией.

Ключевые слова: *медиатексты, цифровые медиа, коммуникация, лингвистика, медиакультура, социальное и политическое влияние, мультимедиа, медиаграмотность.*

Annotation: this article aims to scientifically analyze the linguistic nature of digital media texts and their communicative impact on society. As a result of the rapid development of information technologies and Internet platforms, forms of mass communication have changed radically, and traditional text structures are being replaced by digital media texts with multimodal and interactive features. Such texts have their own characteristics in terms of the method of using language units, the mechanism of meaning formation, and communicative functions. Digital media texts are also distinguished by their interactive nature. Unlike traditional texts, such texts provide two-way communication with the audience. Through comments, sharing, and evaluation by users, the communicative field of the text expands and its social impact increases. This process enhances the pragmatic function of language units and creates an active discursive relationship between the author and the audience.

Key words: *media texts, digital media, communication, linguistics, media culture, social and political impact, multimedia, media literacy*.

Kirish. Zamonaviy axborot makonida raqamli media matnlari kommunikatsiya jarayonining asosiy vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Internet texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar va turli raqamli platformalarning rivojlanishi natijasida axborot almashinuvi tezlashib, muloqot shakllari tubdan

o‘zgarib bormoqda. Bu jarayon nafaqat kommunikativ faoliyatni kengaytirdi, balki matnlarning tuzilishi, til birliklarining qo‘llanishi va ularning funksional xususiyatlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Natijada raqamli media matnlari lingvistik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan yangi kommunikativ birlik sifatida shakllandi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli media matnlarining lingvistik xususiyatlarini ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ular orqali jamiyatga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini aniqlashdan iborat. Bu jarayonda matnning leksik, grammatik va stilistik xususiyatlari bilan bir qatorda, uning kontekstual omillari ham alohida e’tiborga olinadi. Raqamli media muhitida yaratilgan matnlar ko‘pincha qisqa, ekspressiv va auditoriyaga tez ta’sir ko‘rsatishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, bunday matnlarda baholovchi birliklar, emotsional ifodalar hamda turli pragmatik vositalar faol qo‘llanadi. Bu esa matnning nafaqat axborot yetkazish, balki jamoatchilik fikrini shakllantirish va muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishdagi rolini kuchaytiradi. Axborot matnlari bilan samarali ishlash ko‘nikmalari zamonaviy axborot texnologiyalaridan oqilona foydalanish bilan chambarchas bog‘liq. Internet, raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali uzatilayotgan axborotlar turli shakl va mazmunga ega bo‘lib, ularni to‘g‘ri talqin qilish uchun foydalanuvchidan ma’lum darajada media savodxonlik talab etiladi. Media savodxonlik shaxsning axborotni tanlash, tahlil qilish, baholash va undan ongli ravishda foydalanish qobiliyatini shakllantiradi. Natijada inson turli axborot manbalari o‘rtasida farqni anglab, ishonchli va haqqoniy ma’lumotlarni ajrata olish imkoniyatiga ega bo‘ladi [1].

Avvalo, raqamli media matnlarining muhim belgilaridan biri ularning multimodal xususiyatga ega ekanligidir. Bunday matnlar ko‘pincha matnli axborot bilan cheklanib qolmay, grafik tasvirlar, audio yozuvlar, videomateriallar hamda animatsion elementlar bilan boyitiladi. Bu vositalar matnning semantik mazmunini kengaytirib, axborotni qabul qilish jarayonini yanada samarali qiladi. Lingvistik nuqtai nazardan qaralganda, multimodal komponentlar matnning umumiy kommunikativ ma’nosini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Vizual va audio elementlar til birliklari bilan uyg‘unlashib, axborotning tushunilishini osonlashtiradi hamda auditoriyaning e’tiborini jalb etishga xizmat qiladi. Natijada matnning kommunikativ ta’sir kuchi ortib, u keng auditoriya uchun yanada jozibador bo‘lib boradi.

Asosiy qism. Raqamli media matnlarida internet slengi, yangi leksik birliklar hamda jargon elementlarining keng qo‘llanishi ham muhim xususiyatlardan biridir. Internet muhiti turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi muloqotni kuchaytirgani sababli tilga yangi terminlar, norasmiy ifodalar va sleng birliklari kirib kelmoqda. Bunday birliklar ko‘pincha kundalik muloqotga yaqin bo‘lgan uslubni shakllantiradi hamda matnni auditoriya uchun yanada tushunarli va yaqinroq qiladi. Shu jihatdan raqamli media matnlari tilida rasmiy yoki murakkab ilmiy uslubdan ko‘ra sodda, kommunikativ jihatdan qulay bo‘lgan ifoda vositalari ustunlik qiladi. Bu esa keng auditoriyani jalb qilish va axborotning tez qabul qilinishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Zamonaviy raqamli jamiyat sharoitida axborot oqimining keskin ortishi shaxsdan turli manbalardan olinayotgan ma’lumotlarni tahlil qilish, ularning mazmunini to‘g‘ri talqin etish hamda ulardan ongli ravishda foydalanish ko‘nikmalarini talab etadi. Shu sababli axborot matnlarini tahlil qilish va ular bilan samarali ishlash malakasi raqamli savodxonlikning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etiladi. Axborot matnlari bilan ishlash ko‘nikmalari va media madaniyat o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar hisoblanadi. Axborot matnlarini tahlil qilish malakasi media madaniyatning shakllanishiga zamin yaratadi, media madaniyat esa o‘z navbatida, axborotni tanlash, baholash va undan foydalanish jarayonida mas’uliyatli yondashuvni ta’minlaydi. Bu ikki omil birgalikda shaxsning raqamli savodxonligini rivojlantirib, uning axborot muhitida mustaqil va ongli faoliyat yuritishiga yordam beradi [1].

Lingvistik jihatdan qaralganda, raqamli media matnlari an’anaviy matnlardan o‘zining dinamik, interaktiv va multimodal xususiyatlari bilan farq qiladi. Bunday matnlar ko‘pincha qisqa va lo‘nda sintaktik tuzilishga ega bo‘lib, unda ekspressiv leksika, yangi terminlar, internet slengi hamda turli pragmatik ifoda vositalari faol qo‘llanadi. Bu holat raqamli kommunikatsiya muhitida axborotni tez qabul qilish va keng auditoriyaga samarali yetkazish zarurati bilan bog‘liqdir. Natijada til birliklarining funksional imkoniyatlari kengayib, matn nafaqat axborot yetkazuvchi vosita, balki muayyan kommunikativ

ta’sirni amalga oshiruvchi diskursiv birlik sifatida namoyon bo‘ladi.

Natijalar va muhokama. Raqamli platformalarda — internet saytlarida, ijtimoiy tarmoqlarda va boshqa onlayn muhitlarda tarqatilayotgan matnlar an’anaviy ommaviy axborot vositalaridan lingvistik va kommunikativ xususiyatlari bilan tubdan farq qiladi. Bu farq asosan, ularning tezkor yangilanishi, interaktivlik va multimodal tabiati bilan izohlanadi.

Giddens va boshqalar o‘zining “Introduction to Sociology” asarida zamonaviy jamiyatda kommunikatsiya jarayonining raqamli vositalar orqali amalga oshishini ta’kidlaydi. Bu nuqtai nazar raqamli media matnlarining ijtimoiy ahamiyatini tushunishda muhim asos bo‘lib, ular nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlarni shakllantiruvchi kommunikativ platforma sifatida namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi [1].

T. Keiko o‘zining “Advertising Language: A Pragmatic Approach to Advertisements in Britain and Japan” nomli tadqiqotida medialingvistika fanining tadqiqot doirasini keng qamrovli kommunikatsion jarayon sifatida izohlaydi. Uning ta’kidlashicha, medialingvistika faqat an’anaviy ommaviy axborot vositalari matnlarini o‘rganish bilan cheklanmaydi, balki zamonaviy raqamli kommunikatsiya shakllarini ham qamrab oladi. Bu yondashuv medialingvistikaning asosiy vazifasi — ommaviy axborot makonida til qanday ishlashi va qanday pragmatik maqsadlarga xizmat qilishini tahlil qilish ekanini ko‘rsatadi [4].

Ivankov o‘z tadqiqotida “The Role of Digital Media in Shaping Public Opinion” nomli asarida raqamli media matnlarining jamiyatdagi axborot tizimini shakllantirishdagi va fuqarolarni siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy masalalar bo‘yicha xabardor qilishdagi rolini tizimli tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, internet platformalarida tarqatilayotgan matnlar nafaqat axborot manbai sifatida xizmat qiladi, balki foydalanuvchilarning qarashlari, e’tiqodlari va fikrlarini shakllantirishda faol vosita vazifasini bajaradi [2]. Kolesnikov va Orlov “Linguistic Aspects of Modern Digital Media” asarida, raqamli media matnlari jamiyatda ijtimoiy reallikni shakllantiruvchi diskurs sifatida faoliyat yuritadi. Ular axborotni oddiy yetkazib bermaydi, balki uni tanlab, ma’lum ideologik va semantik yo‘nalishda talqin qiladi [1].

Xulosa qilib aytganda, raqamli media matnlari zamonaviy jamiyatda madaniy jarayonlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali madaniy qadriyatlar uzatiladi, yangilanadi va global axborot makonida qayta talqin qilinadi.

Zamonaviy axborot jamiyati sharoitida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida yangi yondashuvlarni shakllantirishni talab etmoqda. Shu jarayonda “mediasavodxonlik” va “axborot savodxonligi” kabi fanlar muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo‘nalishlar talaba va o‘quvchilarning raqamli muhitda axborotni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish, baholash hamda undan ongli ravishda foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [5]. Shu sababli zamonaviy ta’lim jarayonida bu fanlarni o‘qitish nafaqat nazariy bilimlarni kengaytirish, balki shaxsning raqamli savodxonligini rivojlantirishda ham muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudova U. O‘., Enazarova G. T. Raqamli media matnlarining lingvistik xususiyatlari va ularning jamiyatdagi ta’siri. Izlanuvchi: ilmiy-metodik jurnal, 2(6). 2026.15–18-b.

2. Ivankov A. V. The role of digital media in shaping public opinion. Digital Media Journal, 5(2), 2021.67-b.

3. Yuldashev F. Zamonaviy kommunikatsiya va tilshunoslik [Modern Communication and Linguistics]. – Tashkent: O‘zbekiston matbuot nashriyoti, 2019.

4. Sobirova N. Media matnlarining pragmatik xususiyatlari. Qo‘qon universiteti xabarnomasi, 13, 2024. 343–344-b.

5. Abdupattayev H., Ahmadaliyeva M. Media savodxonlik va axborotning jamiyatda tutgan o‘rni. Лучшие интеллектуальные исследования, 57(1). 2025. 376-b.

Rahbaroy SINDAROVA,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 3-bosqich talabasi
Email: sindarova_rahbaroy@gmail.com

TIL ORQALI TAFAKKUR: ZAMONAVIY TA’LIMNING YANGI QADAMI

Annotatsiya: mazkur maqolada ona tili fanining boshqa gumanitar fanlar bilan o‘zaro aloqadorligi, ona tili – fanlararo integratsiya markazi sifatida talqin qilingan, shuningdek, integratsiylashgan yondashuvning o‘quvchilar shaxsiy rivojlanishiga ta’sir qilishi haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: gumanitar fanlar, integratsiya, nutq madaniyati, ta’lim, fan, til.

Аннотация: в данной статье рассматривается взаимосвязь предмета родного языка с другими гуманитарными дисциплинами, интерпретация родного языка как центра междисциплинарной интеграции и влияние интегрированного подхода на личностное развитие учащихся.

Ключевые слова: гуманитарные науки, интеграция, речевая культура, образование, наука, язык.

Annotation: this article discusses the interrelationship of the subject of the mother tongue with other humanities, the interpretation of the mother tongue as a center of interdisciplinary integration, and the impact of an integrated approach on the personal development of students.

Key words: humanities, integration, speech culture, education, science, language.

Kirish. Hozir bilamizki, maktabdagi barcha o‘quv fanlaridan dunyo talablariga javob bera oladigan, PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA kabi xalqaro dasturlardagi namunaviy vazifalarga asoslangan zamonaviy darsliklar ishlab chiqildi. Bu borada Prezidentimiz yangi darsliklar bilan tanishib, ularning mazmuni yuzasidan tavsiyalar berdi.

An’anaviy darsliklar asosida ta’lim olgan o‘quvchi sifatida shuni aytishim mumkinki, zamonaviy o‘quv darsliklari har tomonlama yaxshi shakllantirilgan. Universitetimiz tomonidan “4+2” amaliyot dasturida makatbdagi dars jarayonlarida o‘quvchilar kitobdagi mavzularga qiziqadi, qoidalarni yodlashdan ko‘ra, tafakkurini rivojlantiradigan, tanqidiy fikrlashga o‘rgatadigan, o‘z ustida ishlab, loyiha va taqdimotlar yaratishga qaratilgan mashqlar qiziqtirishiga amin bo‘lish mumkin. Ayniqsa, boshqa fanlar bilan: adabiyot, huquq, biologiya, geografiya, tarix, iqtisodiyot, chet tillar bilan bog‘langan vazifalar, topshiriqlar o‘quvchi yoshlarni ko‘proq jalb qilishi ahamiyatli. Ularning shu sohalarga qiziqishi bo‘lib, bu hozirgi kundagi integratsiyalashgan ta’limning yutuqlaridan biri deyishimiz mumkin.

Asosiy qism. Integratsiya – lotincha so‘z, “qo‘shilish”, “kengayish”, “yaxlitlik” ma’nolarini ifodalaydi. Ta’limda integrativ yondashuv deganda fanlararo va ularning ta’limlararo aloqadorlik, yaqinlik, ya’ni yaxlitlanish jarayonlari nazarda tutiladi. Ona tili barcha fanlarni o‘rganish va o‘rgatish vositasi ekanligi shu fikrga aniqlik kiritadi. Ya’ni ona tili o‘qituvchisi har bir dars mashg‘ulotida o‘zi o‘qitayotgan fan, o‘quv predmeti maktabda o‘rgatilayotgan barcha fanlarni ta’lim oluvchiga yetkazish, singdirish vositasi, ya’ni ona tili ta’lim tili va vositasi ekanligini inobatga olmog‘i shart[4:194]. Bugungi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb talablaridan biri – integratsiyalashgan ta’lim (fanlararo bog‘liqlik) orqali o‘quvchida dunyoning yaxlit manzarasini yaratish g‘oyasidir. Bu orqali o‘quvchilarda dunyoqarashni kengaytirish mumkin, ya’ni ular borliqni bo‘laklarga bo‘lingan holda emas, balki yaxlit tizim sifatida ko‘radi. Shuningdek, ijodiy yondashuvga turtki bo‘ladi, muammoli vaziyatlarda ilmiy izlanish va yechim topish qobiliyati shakllanadi. Bu esa tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi muhim tafakkur ko‘nikmalarining shakllanishiga yordam beradi. Integratsiyalashgan ta’lim o‘qituvchidan izlanish, yangilikka intilish va o‘z ustida muntazam ishlashni talab qiladi. Bu esa pedagogning kasbiy mahoratini oshirib, ta’lim sifatining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Ushbu fikrlardan bilishimiz mumkinki, fanlararo bog‘lanish turli ta’lim bosqichlaridagi ona tili darsliklarida (o‘quv topshiriqlari sistemasida) ko‘proq o‘z yechimini topishi darkor. Aniq va ijtimoiy-gumanitar fanlardan matnlar tanlash, boshqa o‘quv fanlariga oid istilohlardan foydalanib kichik matnlar yaratish, berilgan matndan tilga oid terminlar, o‘z va ko‘chma ma’noli so‘z, so‘z birikmasi, ibora va tasviriy ifoda kabilami ajratish, ular ishtirokida gap va matnlar tuzish, so‘z ma’nolarini kontekst ichida farqlash ko‘nikmalarini singdirish — talabaning fikr doirasini kengaytiradi, kommunikativ savodxonlik darajasini oshiradi[1:57].

Integratsiyalashgan ta’lim — bu o‘quv predmetlari o‘rtasidagi mazmuniy, metodik va amaliy bog‘liqlikni ta’minlash orqali bilimlarni yaxlit tizimda o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Hozirda yangilanib borayotgan darsliklarga e’tibor bersak, yangi avlod darsliklari integratsiya asosida tashkil qilinib, nashrga tayyorlanmoqda. Yangilangan ona tili darsliklari ham aynan integrativ dars mavzulari bilan shakllantirilgan. Berilgan mavzularga diqqat qaratadigan bo‘lsak, aynan eski darsliklar qolipidan chekinganligini kuzatishimiz mumkin. Yangi darsliklardagi qolipga solingan mashq va qoidada,

nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilarning ham chuqurroq fikrlashi va yanada ko‘proq izlanishiga sabab bo‘ladigan mavzular kiritilgan. Mavzu doirasida berilgan matnlar ham boshqa fanlar bilan bog‘langan tarzda keltirilgan. Masalan, yangi ona tili darsliklari adabiyot, tarix, musiqa, fizika, biologiya, geografiya va zamonaviy texnologiya bilan integratsiyalashgan holda tashkil qilingan. Maktab ta’limini integratsiyalash jarayonining psixologik asosi sifatida olim Y.A.Samarinning assotsiativ tafakkur to‘g‘risidagi munosabatini o‘rinli deb qarashimiz mumkin. U “Har qanday bilim bu – o‘xshatish, bilimlar tizimi esa o‘xshatishlar tizimidir”[2:663], degan fikrni ilgari suradi. Demak, bilim o‘xshatish va bog‘lanish orqali o‘zlashtiriladi.


1. Sizningcha, savdogarlar sahroda suvni qanday topishgan?
2. Nima deb o'ylaysiz, nega savdogarlar transport sifatida aynan tuyalarni tanlashgan?

Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

Buyuk ipak yo'li ko'p asrlar davomida Xitoy va Markaziy Osiyo shaharlarini O'rta dengiz mamlakatlari bilan bog'lovchi ko'prik bo'lib kelgan. Yo'l mazkur hududlar o'rtasidagi savdo va madaniyat almashinuvi jarayonlarida muhim rol o'ynagan. U miloddan oldin II asrda Xitoy va Farg'ona vodiysi shaharlari o'rtasidagi savdo yo'li sifatida yuzaga kelgan bo'lib, keyinroq Sharq va G'arb o'rtasidagi muhim transport aloqa yo'li maqomiga egalladi va o'rta asrlarga qadar amal qildi.

Buyuk ipak yo'lining asosiy qismi Osiyoning cho'l hududlaridan o'tgan. Savdogarlar qimmatbaho yuklarni tashish uchun qizib turgan qumda yurishga yaxshi moslashgan tuyalardan foydalangan.

Sayyohlar duch kelgan eng asosiy muammo yo'nalishning katta qismida suvning yo'qligi edi. Savdogarlar o'zlari bilan ko'p miqdorda suv olishmagan. Sababi katta suv idishlari boshqa savdo yuklarining o'rnini band qilib qo'yardi. Savdogarlar suvni karvon yo'lining qulay joyida mahoratli muhandislar qurgan suv inshootidan olishgan. Sardoba deb atalgan bunday inshootlarda doim suv bo'lgan. Sardobalarni bugungi kunda ham O'rta Osiyoning ba'zi shaharlarida uchratish mumkin.

Noyob muhandislik inshootlari yo'lning har 12–15 kilometrida uchrab, 150–200 tuyadan iborat karvonning chanqog'ini qondira olgan. Bu quduqlar yerosti suvlaridan emas, balki yomg'irlar va atmosfera havosidagi namlik hisobidan suv yig'ishga qodir o'ziga xos tuzilmaga ega bo'lgan.

Ishonish qiyindek ko'rinsa-da, qadimgi muhandislar quduqlarni qurishda uyurma effektidan foydalangan. Inshoot konstruksiyasi tashqaridan qaraganda toshdan ishlangan kichikroq chodirni eslatgan va bir nechta tuynuklari bo'lgan. Quduqning yarmidan ortig qismi yer ostiga ko'milgan bo'lib, suvga yetish uchun zinadan pastga tushish

172

2-rasm. *6-sinf darsligidan.*

Bu rasmda ona tili fani quyosh sifatida tasvirlangan, ya’ni inson quyoshsiz yashay olmaganidek, o‘z ona tilisiz yashay olmaydi. Shu sababdan quyosh butun olamga o‘z ta’sirini o‘tkazgani kabi, boshqa fanlarni o‘rganishda ham ona tilining ahamiyati katta. Quyosh hayotimiz manbayi hisoblansa, ona tili ham boshqa sohalarni tadqiq qilishda asosiy manbadir.

1. **Iqtisodiyot** – atmosfera misolida berilgan, ya’ni osmondagi barcha yomg‘irlar va havo bizning boyligimiz.

2. **Tarix** – bu fan yerga, ya’ni zaminga o‘xshatilgan, barcha narsalar yer yuziga o‘tib ketadi, o‘tmish ham tuproqqa singib ketadi.

3. **Tarbiya** – suvga o‘xshatilgan, suv inson uchun qanchalik zarur bo‘lsa, tarbiya ham odam uchun shunchalik ahamiyatga ega.

4. **Chet tillar** – hayvonot olamiga qiyoslangan, har bir hayvonning o‘z tili, yashash tarzi bo‘lganiday, tillarning ham o‘ziga xos uslubi, grammatikasi bor.

5. **Adabiyot** – mikroorganizmlarga o‘xshatilgan, inson jismoniy jihatdan mikroorganizmlarga ehtiyoj sezsa, ma’naviy jihatdan ozuqa olishimiz uchun adabiyotning ta’siri kuchli.

6-sinf ona tili darsligida “Buyuk ipak yo‘li[3:172] nomli nutqiy mavzu tanlangan va bu mavzu haqida audiomatn va matn berilgan (2-rasm). Bu orqali o‘quvchi o‘z fikrini mantiqiy, izchil va grammatik to‘g‘ri bayon etishni o‘rganadi. Tarixiy jihatdan esa buyuk ipak yo‘li haqida ma’lumotlarga ega bo‘ladi.

Darslikdagi:

1. Sayyohlar duch kelgan asosiy muammo nima edi?

2. Qumliklar orasida sardobalarning barpo etilishiga nima sabab bo‘lgan?

3. Sardobadagi tuynuklar nima vazifani bajargan?

4. Sardobalarda suv qanday to‘plangan?

5. Nega sardobalar “noyob muhandislik inshooti” deb atalmoqda?

6. Ushbu matn orqali muallif nimani ko‘zlagan deb o‘ylaysiz?

7. Ushbu matnga qanday sarlavha qo‘ygan bo‘lar edingiz?

kabi savollarga javob berish orqali o‘quvchida matnning asosiy g‘oyani ajratib olish, tarixiy faktlarni o‘rganish va tahlil qilish, tarixiy terminlardan foydalangan holda o‘z fikrini asosli va izchil bayon etish malakasi oshadi. Insho yoki og‘zaki javobda so‘z boyligi ko‘payadi. O‘z tili va tarixini bir butunlikda ko‘ra olish milliy qadriyatlarni anglash va ularni qadrlash ko‘nikmasi shakllanadi. Integrativ yondashuv turli fanlardan olingan bilimlar, ko‘nikma, malaka va tajribani hisobga olish, tayanish, integratsiya qilish, ona tilida kommunikativ, kasbiy kommunikativ, ijtimoiy kompetentlikni baravar rivojlantirishni nazarda tutadi[4:194].

Xulosa. 4+2 amaliyoti asosida, talabalarning yangi darslikda ona tilini boshqa fanlar bilan integratsiya qilib o‘qitishi juda zamonaviy va samarali yondashuv hisoblanadi. Bo‘lajak pedagog xodimlarni o‘z bilimlarini mustahkamlashga, aloqadorlik asosidagi darsliklarning mohiyatini yanada chuqur anglashga va yetarli ko‘nikma va malaka hosil qilishiga yordam beradi. Bu yondashuv, ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan joriy etilayotgan yangi ta’lim konsepsiyasiga ham mos keladi. O‘quvchilar boshqa fanlardagi tushunchalarni o‘z ona tilida to‘g‘ri ifodalay oladi, dalillash va izohlashga qiynalmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchitar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 57-b.

2. Nishonova K. Sh. Integrativ ta`lim tushunchasi va uning mazmun mohiyati. // International scientific and practical conference “Actual issues of primary education: problems, solutions and development prospects”, April 26, 2024. https://doi.org/10.5281/zenodo.11061216

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun, Nilufar Hakimova, Mansur Siddiqov. – Toshkent: 2022. 172-b.

4. Yuldasheva D. N. O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi. – Buxoro: Durdona, 2021. 194-b.

Н.Н.НОСИРОВА,
магистрант, 2 курс, УзГУМЯ



АКСИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА Ф. М. ДОСТОЕВСКОГО

Аннотация: статья посвящена аксиологическому анализу художественного творчества Фёдора Михайловича Достоевского в контексте философско-ценностного осмысления человеческого бытия. Раскрываются теоретические основания аксиологии и её методологическое значение для литературоведческого исследования художественного текста как носителя ценностных смыслов. Особое внимание уделяется выявлению ключевых ценностных доминант, нравственных конфликтов и мировоззренческих позиций, формирующих идейно-художественную структуру произведений писателя. Анализируются философские источники его мировоззрения, включая христианскую антропологию, критику утилитаризма и влияние русской религиозной мысли. Показано, что художественный мир писателя представляет собой пространство интенсивного духовного поиска, в котором исследуются фундаментальные категории свободы, ответственности, веры и нравственного выбора. Актуальность исследования обусловлена созвучием поставленных проблем современным духовным и ценностным вызовам, что позволяет рассматривать творчество автора как универсальную модель философского осмысления человеческого существования.

Ключевые слова: *аксиология, художественный текст, философия литературы, нравственный выбор, свобода и ответственность, христианская антропология, экзистенциальная проблематика, литературоведческий анализ.*

Annotation: the article is devoted to an axiological analysis of the artistic work of Fyodor Mikhailovich Dostoevsky in the context of a philosophical and value-based interpretation of human existence. The study outlines the theoretical foundations of axiology and its methodological significance for literary scholarship, viewing the literary text as a carrier of value meanings. Particular attention is paid to identifying key value dominants, moral conflicts, and worldview positions that shape the ideological and artistic structure of the writer's works. The paper examines the philosophical sources of his worldview, including Christian anthropology, German classical philosophy, a critique of utilitarianism, and the influence of Russian religious thought. It is demonstrated that the writer's artistic universe constitutes a space of intense spiritual inquiry in which fundamental categories such as freedom, responsibility, faith, and moral choice are explored. The relevance of the research lies in the resonance between the author's concerns and contemporary spiritual and value-related challenges, allowing his work to be interpreted as a universal model for the philosophical understanding of human existence.

Key words: *axiology, values, literary text, philosophy of literature, moral choice, freedom and responsibility, Christian anthropology, existential problematics, literary analysis.*

Annotatsiya: mazkur maqola Fyodor Mixailovich Dostoyevsky badiiy ijodining inson mavjudligini falsafiy-qadriyat nuqtai nazaridan anglash kontekstidagi aksiologik tahliliga bag‘ishlangan. Aksiologiyaning nazariy asoslari hamda uning badiiy matnni qadriy ma’nolar tashuvchisi sifatida tadqiq etishdagi metodologik ahamiyati yoritib beriladi. Tadqiqotda yozuvchi asarlarining g‘oyaviy-badiiy tuzilishini shakllantiruvchi asosiy qadriyat dominantalari, axloqiy ziddiyatlar va dunyoqarash pozitsiyalarini aniqlashga alohida e’tibor qaratiladi. Muallif dunyoqarashining falsafiy manbalari, jumladan, xristian antropologiyasi, utilitarizm tanqidi hamda rus diniy tafakkuri ta’siri tahlil qilinadi. Shuningdek, yozuvchining badiiy olami chuqur ma’naviy izlanishlar makoni sifatida talqin etilib, unda erkinlik, mas’uliyat, e’tiqod va axloqiy tanlov kabi fundamental kategoriyalar tadqiq etilishi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotning dolzarbligi ilgari surilgan muammolarning zamonaviy ma’naviy va qadriy muammolar bilan hamohangligi bilan belgilanadi, bu esa muallif ijodini inson mavjudligini falsafiy anglashning universal modeli sifatida ko‘rib chiqish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: *aksiologiya, badiiy matn, adabiyot falsafasi, axloqiy tanlov, erkinlik va mas’uliyat, xristian antropologiyasi, ekzistensial muammolar, adabiyotshunoslik tahlili.*

Введение. Аксиология (от греч. *axios* — ценность и *logos*— учение) представляет собой философскую дисциплину, изучающую природу, структуру и иерархию ценностей, а также их роль в человеческом бытии и культуре. В центре аксиологического анализа находятся такие фундаментальные категории, как добро и зло, истина и ложь, свобода и ответственность, вера, любовь, справедливость, смысл жизни. Ценности рассматриваются не как абстрактные понятия, а как регулятивные принципы человеческого сознания и поведения, определяющие мировоззрение личности и общества.

В литературоведении аксиология приобретает особое значение, поскольку художественное произведение выступает не только эстетическим, но и ценностно-смысловым феноменом культуры. Литература отражает, формирует и проблематизирует систему ценностей эпохи, вступая в диалог с философией, религией и социальным сознанием. Через образы, конфликты, сюжетные коллизии и систему персонажей писатель выражает своё отношение к ключевым мировоззренческим вопросам и предлагает читателю пространство нравственного выбора.

Аксиологический подход в литературоведении направлен на выявление ценностных доминант художественного текста, анализ нравственных и философских позиций автора, а также на осмысление способов художественного воплощения ценностей. Особое внимание уделяется конфликтам ценностей, их иерархии и внутренним противоречиям, что позволяет глубже понять идейно-художественную структуру произведения.

Применение аксиологии в литературоведческом анализе особенно продуктивно при изучении творчества писателей философского склада, таких как Ф. М. Достоевский, для которого художественный текст становится формой исследования предельных ценностей человеческого существования. В этом контексте аксиология выступает важнейшим методологическим инструментом, позволяющим рассматривать литературу как пространство духовного, нравственного и экзистенциального опыта.

Изучение ценностной проблематики в творчестве Ф. М. Достоевского сохраняет высокую актуальность в силу глубины и универсальности поставленных писателем вопросов, затрагивающих фундаментальные основания человеческого существования. Его художественный мир представляет собой пространство напряжённого нравственного поиска, где сталкиваются и испытываются на прочность ключевые ценности человеческой цивилизации: вера и безверие, свобода и ответственность, добро и зло, любовь и насилие, личность и общество.

Современная эпоха, характеризующаяся кризисом традиционных ценностей, духовной фрагментацией и ростом экзистенциальной неопределённости, во многом перекликается с теми историческими и философскими вызовами, которые осмыслял Достоевский. Проблемы «всеразрешённости», утраты абсолютных нравственных ориентиров, подмены духовных ценностей утилитарными и рационалистическими моделями мышления приобретают в XXI веке новое звучание, что делает обращение к аксиологическому анализу его творчества особенно значимым.

Следует отметить, что философско-ценностные основания мировоззрения Ф. М. Достоевского формируются в широком интеллектуальном контексте европейской и русской философской мысли XIX века и представляют собой сложный синтез христианской антропологии, экзистенциальных интуиций и критики рационализма. Его художественное мышление находится в постоянном диалоге с философскими концепциями как западных, так и отечественных мыслителей.

Одним из ключевых источников ценностной системы Достоевского является христианская философия, восходящая к учению Августина Блаженного. Именно от Августина Достоевский наследует представление о внутренней раздвоенности человека, о борьбе между греховной волей и стремлением к Богу, а также идею зла как результата искажения свободы. Свобода воли мыслится как высшая ценность и одновременно как источник трагедии человеческого существования.

Полемика с гегелевской философией истории также занимает значительное место в ценностном мышлении Достоевского. Идея Гегеля о разумности исторического процесса и подчинённости личности «всеобщему» подвергается у писателя критике. Достоевский отвергает оправдание страдания отдельного человека ради абстрактного прогресса человечества, утверждая абсолютную ценность каждой человеческой личности.

Особое значение для философско-ценностных оснований творчества Достоевского представляет его диалог с утилитаризмом и позитивизмом (И. Бентам, Дж. С. Милль, О. Конт). Писатель решительно критикует идею пользы как высшего критерия морали, показывая, что утилитарное мышление приводит к обезличиванию человека и разрушению нравственных абсолютов. В его произведениях рационалистические проекты «счастья для всех» оборачиваются насилием над свободой личности.

Нельзя не отметить и существенное влияние на мировоззрение Достоевского русской философской традиции, в частности идеи славянофилов (А. Хомяков, И. Киреевский). От них писатель воспринял концепцию соборности, понимаемой как духовное единство людей, основанное на любви, вере и свободе, а не на внешнем принуждении. Эта идея становится важной аксиологической альтернативой западному индивидуализму.

Таким образом, философско-ценностные основания мировоззрения Ф. М. Достоевского формируются в напряжённом диалоге с ключевыми философскими концепциями его времени. Переосмысливая идеи западной и русской философии, писатель создаёт оригинальную аксиологическую систему, в центре которой находится человек как свободная, страдающая и ответственная личность, устремлённая к высшим духовным ценностям.

Список литературы:

1. Бердяев, Н. А. Миросозерцание Достоевского / Н. А. Бердяев. – Москва : АСТ, 2020. – 256 с.
2. Волынский, А. Л. Достоевский / А. Л. Волынский. – Москва : Юрайт, 2024. – 316 с. – (Антология мысли). – ISBN 978-5-534-14264-8 .
3. Гегель, Г. В. Ф. Феноменология духа / Г. В. Ф. Гегель ; перевод с немецкого Г. Г. Шпета. – Москва : Академический проект, 2015. – 494 с.
4. Кант, И. Критика практического разума / И. Кант ; перевод с немецкого Н. М. Соколова. – Санкт-Петербург : Наука, 2005. – 528 с.
5. Кошечко, А. Н. Достоевский и апостасия: к вопросу об атрибутивных характеристиках экзистенциального сознания / А. Н. Кошечко // Вестник Томского государственного педагогического университета. – 2013. – № 11 (139). – С. 23–31 .
6. Лосский, Н. О. Достоевский и его христианское миропонимание / Н. О. Лосский. – Нью-Йорк : Издательство имени Чехова, 1953. – 408 с. .

Хуршида РАДЖАБОВА,
Магистрант 2 курса
Университета журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана
E-mail: khurshidakhon207@gmail.com



ОСНОВНЫЕ ФОРМЫ И МЕТОДЫ PR-КОММУНИКАЦИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ

Аннотация: в статье рассматриваются основные формы и методы PR-коммуникаций в деятельности современных организаций. Особое внимание уделяется взаимодействию с целевыми аудиториями и роли цифровых технологий в развитии коммуникационных процессов. Проанализированы традиционные и современные PR-инструменты, а также их влияние на формирование имиджа и репутации организации. Обоснована необходимость применения комплексного подхода к управлению PR-коммуникациями для повышения эффективности деятельности организаций.

Ключевые слова: *PR-коммуникации, связи с общественностью, коммуникационная стратегия, имидж организации, репутация, цифровой PR, медиа-коммуникации, корпоративные коммуникации, антикризисные коммуникации, управление репутацией.*

Annotation: this article examines the main forms and methods of PR communications in modern organizations. Special attention is given to interaction with target audiences and the role of digital technologies in communication processes. Both traditional and modern PR tools are analyzed, along with their impact on organizational image and reputation. The study highlights the importance of an integrated approach to PR communication management for improving organizational effectiveness.

Key words: *PR communications, public relations, communication strategy, organizational image, reputation, digital PR, media communications, corporate communications, crisis communication, reputation management.*

ВВЕДЕНИЕ

В современных условиях глобализации и цифровой трансформации экономики значение PR-коммуникаций в деятельности организаций существенно возрастает. Усиление конкуренции, повышение уровня информированности общества и развитие цифровых технологий требуют от организаций выстраивания эффективной системы взаимодействия с различными группами заинтересованных сторон. В этой связи связи с общественностью (Public Relations) выступают не только как инструмент передачи информации, но и как стратегический ресурс формирования доверия, деловой репутации и устойчивого развития.

Современные PR-коммуникации характеризуются переходом от одностороннего информирования к многоуровневому и интерактивному диалогу с целевыми аудиториями. Организации вынуждены учитывать не только экономические, но и социальные, экологические и этические аспекты своей деятельности, что усиливает роль коммуникационной прозрачности и открытости. В данном контексте особое значение приобретают цифровые каналы коммуникации, включая социальные сети, онлайн-платформы и мобильные технологии, обеспечивающие оперативность и широкую охват аудитории.

Следует отметить, что в последние годы на национальном и международном уровнях принимаются нормативно-правовые акты и стратегические документы, направленные на развитие цифровых коммуникаций и повышение прозрачности деятельности организаций. В частности, в Республике Узбекистан реализуются меры по развитию цифровой экономики, включая внедрение современных информационно-коммуникационных технологий в систему государственного управления и бизнеса[1]. Данные преобразования способствуют активному внедрению цифровых PR-инструментов и формированию новых подходов к управлению коммуникациями.

Кроме того, важную роль играют процессы цифровизации медиа-пространства и развитие концепции открытого диалога между организациями и обществом. Это требует от PR-специалистов владения

1 Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии развития цифровой экономики и цифровых технологий» (2020) и последующие государственные программы по цифровизации.

современными методами анализа общественного мнения, управления репутационными рисками и формирования устойчивых коммуникационных стратегий. В условиях кризисных ситуаций, включая информационные и репутационные вызовы, особую актуальность приобретают антикризисные коммуникации, направленные на минимизацию негативных последствий и сохранение доверия со стороны общественности.

Таким образом, актуальность исследования обусловлена необходимостью системного анализа форм и методов PR-коммуникаций в условиях цифровизации и усиления роли информационного общества. Эффективное использование PR-инструментов становится важнейшим фактором конкурентоспособности организаций и их устойчивого развития в долгосрочной перспективе.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Теоретические основы PR-коммуникаций формируются в рамках междисциплинарного подхода, объединяющего достижения теории коммуникации, стратегического менеджмента, маркетинга и социологии. В современной научной парадигме связи с общественностью (Public Relations) рассматриваются не только как инструмент передачи информации, но и как институционализированный механизм управления общественным мнением, социальными взаимодействиями и репутационным капиталом организации.

Коммуникация в данном контексте трактуется как сложный социально обусловленный процесс конструирования смыслов, включающий не только передачу информации, но и её интерпретацию, декодирование и обратную связь. Эффективность коммуникационного процесса определяется степенью совпадения интерпретационных моделей отправителя и получателя, а также способностью учитывать социально-культурные и когнитивные особенности аудитории[2].

С научной точки зрения PR-коммуникации представляют собой целенаправленную деятельность по формированию устойчивых и взаимовыгодных отношений с общественностью. Классическая теория PR, разработанная Дж. Грунингом и Т. Хантом, выделяет четыре основные модели коммуникации: пресс-агентская модель, модель общественной информации, двусторонняя асимметричная и двусторонняя симметричная модели [1]. Наиболее эффективной считается двусторонняя симметричная модель, обеспечивающая равноправный диалог и учет интересов всех сторон.

PR рассматривается не только как практическая деятельность, но и как самостоятельная научная дисциплина, направленная на управление общественным мнением, формирование позитивного имиджа и выстраивание устойчивых отношений с заинтересованными сторонами .

Историческое развитие PR свидетельствует о его институционализации как научной области. В частности, в XX веке (1920–1940-е годы) PR начал формироваться как профессиональная и академическая сфера, а публикация работ Эдварда Бернейза заложила научные основы изучения общественного мнения [2].

Важным этапом развития PR стало создание профессиональных ассоциаций, таких как PRSA (1948 г.) и IPRA (1955 г.), что способствовало формированию международных стандартов и этических норм в области PR .

Современные теоретические подходы также подчеркивают тесную взаимосвязь PR с маркетингом. В частности, концепция Ф. Котлера о расширении классической модели маркетинга (4P) за счёт включения PR как пятого элемента («Public Relations») отражает стратегическую значимость коммуникаций в экономической деятельности[3].

Современные теоретические подходы к PR-коммуникациям основываются на концепции стратегического управления. В рамках данного подхода PR рассматривается как важнейший элемент общей стратегии организации, направленный на формирование положительного имиджа, укрепление репутации и достижение долгосрочных целей [3]. Это предполагает интеграцию PR-деятельности с маркетинговыми, управленческими и социальными функциями организации.

Значительное место в теории PR занимает анализ коммуникационного процесса. Классическая модель коммуникации включает такие элементы, как источник информации, сообщение, канал передачи, получатель и обратная связь. Эффективность PR-коммуникаций во многом зависит от способности организации адаптировать сообщения с учетом особенностей аудитории и обеспечивать обратную связь [4].

В условиях цифровизации экономики происходит трансформация традиционных теоретических подходов к PR-коммуникациям. Развитие социальных сетей и цифровых платформ приводит к формированию интерактивных коммуникационных моделей,

2 Хаитова М.Х. Ўзбекистонда PR коммуникацияларининг ривожланишида ахборот хизматларининг роли. – 2023.

3 Хаитова М.Х. PRнинг фан сифатида шаклланиши. – 2024.

основанных на постоянном обмене информацией и вовлеченности аудитории [5]. Это требует от организаций гибкости и оперативности в управлении коммуникациями.

Особое значение в теоретических основах PR имеет концепция управления репутацией. Репутация рассматривается как стратегический нематериальный актив, оказывающий существенное влияние на конкурентоспособность организации. Эффективные PR-коммуникации способствуют формированию доверия, снижению репутационных рисков и укреплению позиций организации на рынке [6].

Кроме того, важной составляющей теории PR являются антикризисные коммуникации. Они направлены на предотвращение кризисных ситуаций, минимизацию их негативных последствий и восстановление доверия со стороны общественности. В современных условиях высокой информационной открытости особую роль играют скорость и прозрачность коммуникации [6].

Таким образом, теоретические основы PR-коммуникаций отражают их комплексный и междисциплинарный характер. Современные подходы ориентированы на интеграцию традиционных и цифровых методов, развитие двустороннего взаимодействия и повышение эффективности управления коммуникационными процессами.

МЕТОДЫ И ДАННЫЕ

В исследовании применён комбинированный (mixed-method) подход, включающий количественные и качественные методы анализа PR-коммуникаций. Количественная часть основана на анализе показателей эффективности коммуникаций (уровень вовлечённости аудитории, охват, индекс доверия), полученных из открытых аналитических источников и отчетов организаций.

Качественный анализ включает контент-анализ PR-материалов, сравнительное изучение традиционных и цифровых каналов коммуникации, а также обобщение современных научных подходов.

Методологической основой исследования выступает концептуальная модель интегрированных PR-коммуникаций, включающая следующие элементы:

1. коммуникационные каналы (традиционные и цифровые);
2. инструменты воздействия (информационные, имиджевые, интерактивные);
3. реакция аудитории (вовлечённость, доверие);
4. результирующие показатели эффективности (репутация и устойчивость организации).

